



NAMANGAN
DAVLAT
PEDAGOGIKA
INSTITUTI

ISSN: 2992-9008

UDK: 37



TA'LIM VA TARAQQIYOT

ILMIY-USLUBIY JURNAL



2024-YIL 6-SON



Bosh muharrir: Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov

Mas’ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo’yicha prorektor M.R.Qodirxonov

Mas’ul muharrir o’rinbosari: Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo’limi boshlig’i J.A.Yuldashev

T A H R I R H A Y ’ A T I

Aniq va tabiiy fanlar: akad. K.Tojibayev, akad. A.To’rayev, k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, PhD. Sh.Xudoyqulov, PhD. Abdunazarov.

Ijtimoiy gumanitar fanlar: s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d, prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. U.Inoyatov, p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. SH.J.Yusupova, p.f.d., prof. O’M.Asqarova. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.n., dots., Sh.Ubaydullayev, p.f.n., dots. G’Nafasov, PhD. M.Asranboyeva, PhD. B.J.Urinov.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, p.f.n., dots. S.Misirov, PhD., dots. P.Lutfullayev, PhD., dots. M.Yakubbayev

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko’chasi, 316-uy.

Pochta indeksi: 160136, **Faks:** (0369) 227-27-21,

Email: Info@namspi.uz

“Ta’lim va taraqqiyot” ilmiy-uslubiy jurnali elektron to’plam sifatida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi asosida chop etiladi. UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008. “Ta’lim va taraqqiyot” ilmiy-uslubiy jurnalining 2024-yil 6-soni NamDPI Ilmiy-texnikaviy Kengashining 11-dekabr 2024-yildagi 12-sonli kengaytirilgan yig’ilishida muhokama qilinib, ilmiy to’plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma № 12). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma’lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI 2024



I.TA'LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI;

**КОМПЛЕКС УПРАЖНЕНИЙ ДЛЯ ФОРМИРОВАНИЯ РЕЧЕВОЙ
КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ
КАК ИНОСТРАННОМУ**

Нозима Бахтиержон кизи Рахмаджонова

rahmadjonovan@gmail.com

Наманганский государственный педагогический институт

***Аннотация:** Данная статья представляет комплекс упражнений, разработанных для формирования речевой компетенции учащихся при обучении русскому языку как иностранному. В статье описываются различные упражнения, направленные на развитие словарного запаса, устной и письменной речи, аудирование, произношения, грамматических навыков и культурной компетенции. Автор подчеркивает, что регулярная практика и мотивация являются ключевыми факторами для успешного овладения русским языком. В заключение, статья рекомендуется преподавателям РКИ, для использования комплекс упражнений при формировании речевой компетенции учащихся на уроках РКИ.*

***Ключевые слова:** Речевая компетенция, русский язык как иностранный, упражнения, словарный запас, устная речь, письменная речь, аудирование, произношение, грамматические навыки, культурная компетенция.*

**AN EXERCISE COMPLEX DESIGNED TO ENHANCE THE
COMMUNICATIVE COMPETENCE OF STUDENTS IN THE PROCESS OF
LEARNING RUSSIAN AS A FOREIGN LANGUAGE**

Nozima Rakhmadjonova

rahmadjonovan@gmail.com

Namangan State Pedagogical Institute

Abstract: *This article presents a comprehensive set of exercises designed to cultivate the speech competence of students studying Russian as a foreign language. The article outlines various exercises targeting the expansion of vocabulary, oral and written expression, listening comprehension, pronunciation, grammar proficiency, and cultural competence. The author underscores the importance of regular practice and motivation as key factors for successful acquisition of the Russian language. In conclusion, this article is recommended for Russian language instructors seeking to enhance students' speech competence through the incorporation of these exercise sets into their lessons.*

Keywords: *Speech competence, Russian as a foreign language, exercises, vocabulary, oral expression, written expression, listening comprehension, pronunciation, grammar proficiency, cultural competence.*

Введение

Формирование речевой компетенции учащихся на уроках русского языка как иностранного является одной из ключевых задач преподавателя.

Изучение русского языка как иностранного может представлять некоторые трудности для учащихся, особенно в развитии и совершенствовании навыков устной и письменной речи. Чтобы помочь учащимся достичь высокого уровня речевой компетенции, необходимо разработать комплекс упражнений, которые будут способствовать их языковому развитию. В данной статье представлен комплекс упражнений, основанный на активном использовании языка, который поможет учащимся формировать и развивать свою речевую компетенцию.

Прежде всего определим, что такая речевая компетенция?

Речевая компетенция включает в себя способность правильно и эффективно использовать язык в различных коммуникативных ситуациях. Это не только знание грамматики и лексики, но и умение строить связные высказывания, понимать и интерпретировать чужую речь, а также адекватно реагировать на нее.

Почему это важно?

Формирование речевой компетенции играет ключевую роль в обучении РКИ, так как позволяет учащимся не только овладеть языком, но и интегрироваться в языковую среду, общаться с носителями языка и использовать русский язык в повседневной жизни.

Комплекс упражнений для развития речевой компетенции:

Развитие словарного запаса: Первый шаг в формировании речевой компетенции - это расширение словарного запаса. Упражнения, направленные на развитие словаря, помогут учащимся грамотно и точно выражать свои мысли на русском языке. Предложите им составлять списки слов по различным темам и использовать их в предложениях или небольших текстах. Также можно проводить игры на запоминание слов и их значений, например, "Скажи слово" или "Ассоциации".

Развитие устной речи: Для развития устной речи учащихся необходимо проводить упражнения, которые способствуют развитию навыков высказывания и аудирования. Организуйте групповые дискуссии по различным темам, где учащиеся смогут выразить свои мнения и аргументировать свою точку зрения на русском языке. Также рекомендуется использовать аудиоматериалы, такие как записи диалогов, новостные репортажи или аудиокниги, чтобы учащиеся могли развивать навыки аудирования и понимания на слух.

Развитие письменной речи: Письменная речь играет важную роль в развитии речевой компетенции. Регулярные упражнения на написание эссе или рассказов на заданные темы помогут учащимся совершенствовать свои навыки письма на русском языке. Постепенно усложняйте задания, требуя от них использовать различные грамматические конструкции и лексику. Кроме того, можно проводить письменные диктанты и исправление ошибок, чтобы учащиеся улучшили свою письменную грамотность.

Развитие навыков аудирования: Навыки аудирования являются важной частью речевой компетенции. Рекомендуется использовать различные аудиоматериалы, такие как записи диалогов, аудиокниги или новости, чтобы учащиеся могли развивать свои навыки аудирования на русском языке.

Этот комплекс упражнений разработан с учетом различных аспектов языкового развития, таких как словарный запас, устная и письменная речь, аудирование, произношение, грамматические навыки и культурная компетенция.

Регулярное использование предложенных упражнений позволит учащимся практиковать и улучшать свои навыки в области русского языка. Развитие словарного запаса позволит им точнее и богаче выразить свои мысли на русском языке, а упражнения на устную и письменную речь помогут им стать более свободными и грамотными в общении.

Упражнения на аудирование и произношение помогут учащимся лучше понимать русскую речь на слух и улучшать свое произношение. Развитие грамматических навыков позволит им использовать правильные грамматические конструкции и формы глаголов, что повысит их языковую точность.

Кроме того, включение культурных аспектов в упражнения поможет учащимся лучше понять русскую культуру и контекст, в котором используется русский язык. Это позволит им не только освоить язык, но и лучше взаимодействовать с носителями языка и вникнуть в русскую культуру.

Однако, эффективность комплекса упражнений также зависит от мотивации и усердия учащихся. Регулярная практика и постепенное увеличение сложности упражнений помогут учащимся достичь высоких результатов в формировании речевой компетенции при изучении русского языка как иностранного.

В заключение можно сказать, что использование комплекса упражнений для формирования речевой компетенции учащихся при обучении русскому языку как иностранному является важным и эффективным подходом. Систематичная и разнообразная практика, постепенное усложнение заданий, практика с носителями языка, фиксация прогресса и получение обратной связи - все это способы, которые помогают учащимся развивать свои навыки и достигать успехов в устной речи.

Важно помнить, что достижение высокого уровня речевой компетенции требует постоянной работы и самосовершенствования. Учащиеся должны быть настроены на регулярную практику, усилия и стремление к совершенству. Только через постоянное улучшение и развитие своих навыков они смогут достичь своих целей и стать уверенными в общении на русском языке.

Использование рекомендаций, предоставленных в данной статье, позволит учащимся эффективно развивать свою речевую компетенцию и достигать успехов в обучении русскому языку как иностранному. Уверенность в устной речи и способность эффективно общаться на русском языке открывают новые возможности и перспективы для личного и профессионального роста.

Использованная литература

1. Бабайцева, В. В. _Русский язык как иностранный: современный курс._ — М.: Русский язык, 2004.
2. Богородицкая, В. В., Лукьянова, И. П. _Методика преподавания русского языка как иностранного._ — М.: Русский язык, 2003.
3. Гальскова, Н. Д., Гез, Н. И. _Теория обучения иностранным языкам: Лингводидактика и методика._ — М.: Академия, 2006.
4. Голубева, Е. В. _Русский язык как иностранный. Учебное пособие для начинающих._ — М.: Русский язык. Курсы, 2015.
5. Земская, Е. А. _Русский язык для иностранцев: учебник._ — М.: МГУ, 2002.
6. Костомаров, В. Г., Михайлова, Н. И. _Русский язык как иностранный: коммуникативный курс._ — М.: Русский язык, 2001.
7. Леонтьев, А. А. _Психолингвистические основы обучения русскому языку как иностранному._ — М.: Русский язык, 1997.
8. Мещерякова, Н. И. _Развитие речевой компетенции учащихся на уроках РКИ._ — М.: Каро, 2010.

PEDAGOGLARNING KASBIY SALOMATLIGI TA'LIM MUHITINI SIFATLI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA

Kamolova Azimaxon Odiljon qizi

Namangan Davlat pedagogika instituti

Pedagogika va psixologiya kafedrası

o'qituvchisi (mustaqil izlanuvchisi)

[*azimjonodilovich5656@gmail.com*](mailto:azimjonodilovich5656@gmail.com)

Annotatsiya: Bugungi rivojlangan jamiyatimizda o'qituvchining kasbiy salomatligini me'yorlari tananing barcha kasbiy faoliyat sharoitida o'qituvchi shaxsiy mahoratini tola namoyon qila olishi va ish samaradorligi bu orqali rivojlanishini ta'minlaydigan kompensatsiyalar majmui, bundan tashqari organizmni himoya va tartibga solish mexanizmlarini saqlash, faollashtirish qobiliyati sifatida nomoyon bo'ladi. Biz quyuda keltirib o'tgan kichik tadqiqotimiz orqali hsu kabi masalalarga amaliy yechim toppish va bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy salomatliklarini saqlash madaniyatini shakilantirishga erishish.

Kalit so'zlar: Entsiklopediya, salomatlik, kasallik, jismoniy nuqson, kasbiy salomatlik, neuropatologik kasalliklar, depressiya, deformatsiya, fenomen, pedagogik tajovuz, avtoritarizm, namoyishkorlik, pedagogik dogmatizm, konservatizm.

Аннотация: В нашем современном развитом обществе нормы профессионального здоровья педагога проявляются как совокупность компенсаций, обеспечивающих способность организма во всех условиях профессиональной деятельности полноценно проявлять личностные способности педагога и тем самым развивать производительность труда, а также способность организма поддерживать, активировать защитные и регуляторные механизмы. Благодаря нашему небольшому исследованию, которое мы цитируем в колодеце, мы можем найти практические решения таких проблем, как hsu, и способствовать формированию культуры профессионального здоровья будущих учителей.



Ключевые слова: Энциклопедия, здоровье, болезнь, физическая неполноценность, гигиена труда, невропатологические заболевания, депрессия, деформация, явление, педагогическая агрессия, авторитаризм, демонстративность, педагогический догматизм, консерватизм.

Annotation: *In our today's developed society, the norms of the teacher's professional health become ambiguous as the ability of the body to maintain, activate the mechanisms of protection and regulation of the body, a set of compensations that ensure that the teacher is able to fully demonstrate his personal skills and work efficiency develops through it. Through the small research we have cited at well, it is possible to find a practical solution to issues such as hsu and to achieve the transformation of a culture of preserving the professional health of future teachers.*

Keywords: *Encyclopedia, health, disease, physical impairment, occupational health, neuropathological disorders, depression, deformity, phenomenon, pedagogical aggression, authoritarianism, demonstrativeness, pedagogical dogmatism, conservatism.*

Bugungi zamonaviy tibbiyot entsiklopedik lug'atlarda "salomatlik" nafaqat kasallik va jismoniy nuqsonlarning organizimda yo'qligi, balki "to'liq ruhiy, jismoniy va ijtimoiy farovonlik holati" deb ta'riflanadi. Bunga sabab salomatlik tushunchasi inson rivojlanish jarayonlarini qamrab olish xususiyatlaridir. Bugungi kunda salomatlik va turli kasaliklarni jamiyatning turli faoliyatlardagi rivojlanish darajalari ham turicha ifodalanmoqda. Biz bugungi tadqiqot ishimizda pedagog kadrlarni kasbiy salomatliklari va ularda kelib chiqadigan kasbiy kasaliklarni o'rganib chiqamiz. O'qituvchining kasbiy salomatligini tananing barcha kasbiy faoliyat sharoitida o'qituvchi shaxsining ishlashi, samaradorligi va rivojlanishini ta'minlaydigan kompensatsiyalar majmui, bundan tashqari organizmni himoya va tartibga solish mexanizmlarini saqlash, faollashtirish qobiliyati sifatida aniqlash imkonini beradi.

Jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida o'qituvchining kasbiy salomatligi muammosiga millat salomatligini muhofaza qilishning umumiy kontseptsiyasi nuqtai nazaridan ahamiyat qaratish lozim, chunki yosh avlod

salomatligi ko'p jihatdan unga bog'liq. Bu esa o'qituvchilarning pedagogik faoliyatlarida o'z mahoratlarini oshirib borishlari tajriba va ko'nikmalarini rivojlantirishlarini talab qiladi.

Ma'lumki, o'qituvchilik kasbi yuqori hissiy bosim va harakter bilan faoliyat olib boradigan "odamdan-odamga" tipidagi kasblar turkumiga tegishli. Boshqa kasb tiplari va guruhlar bilan solishtirganda, o'qituvchilarda nevropatologik kasalliklar, nevropatologik kasalliklarning "og'ir" shakllarini to'plash va somatik muammolarni rivojlanish xavfi yuqori bo'lgan kasb turidir. O'qituvchilik kasbining doimiy stress va kuchli ko'nikma va ish tajribasining izlari o'zini ishga salbiy munosabat bildirish, doimiy charchoq, depressiya, ish unumdorligining pasayishi, kasbiy faoliyatdan qoniqmaslik holatlarini namoyon bo'lishiga olib keladi.

Kasbiy psixologiya sohasidagi mutaxassislarining ta'kidlashicha, "odamdan odamga" tipidagi kasblar vakillari, masalan, o'qituvchilar, shifokorlar, xizmat ko'rsatuvchi xodimlar va boshqalar professional deformatsiya fenomeniga eng ko'p moyil bo'lishadi. Kasbiy deformatsiya deganda mutaxassisning sof sub'ektiv fazilatlarining shaxs sifatida o'z xususiyatlariga ta'siri natijasi tushuniladi. Kasbiy rolni mehnatdan tashqari munosabatlar sohasiga o'tkazish ushbu hodisaning mohiyatini tashkil qiladi.

Har qanday kasbiy faoliyat o'zlashtirish bosqichida va keyinchalik amalga oshirish jarayonida shaxsni kasbiy rivojlanishini taminlaydi. Ayrim kasbiy va shaxsiy fazilatlar kasb tanlash jarayonida tarkib topadi. Shu bilan birga, kasbiy urg'u asta-sekin rivojlanadi - mutaxassisning faoliyati va xatti-harakatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan haddan tashqari ifodalangan fazilatlar va ularning kombinatsiyasi kabi. Agar o'qituvchilik kasbi haqida gapiradigan bo'lsak, ko'plab o'qituvchilar didaktik, ibratli nutq uslubi bilan ajralib turadi. Xalqimiz orasida: "O'qituvchi kabi gapiradi" kabi iboralar ham bu fikrlarimizni isbotlaydi. Pedagogik faoliyada bu ma'lum darajada foydali bo'lsa-da, ammo bunday nutq shaxsiy munosabatlar sohasida ham foydalanishni talab etadi. Bu shaxsiy hayotda turli noto'g'ri va ko'pincha tushunmovchilik vaziyatlari va nizolarga olib keladi.

Kasbiy rivojlanish - bu ham daromad, ham yo'qotish (yaxshilash va yo'q qilish). Ko'p yillar davomida bir xil kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish kasbiy

charchoqning paydo bo'lishiga, faoliyatni amalga oshirish usullari repertuarining qashshoqlashishiga, kasbiy mahorat va ko'nikmalarning yo'qolishiga, ish qobiliyatining pasayishiga olib keladi, kasbiy jihatdan nomaqbul fazilatlarni keltirib chiqaradi va insonning kasbiy xatti-harakatlarini o'zgartiradi. Kasbiy kasaliklar - bu faoliyat va shaxsiyatning mavjud tuzilmasida asta-sekin to'planib boradigan o'zgarishlar va mehnat unumdorligiga bu orqali ushbu jarayonning boshqa ishtirokchilari bilan o'zaro munosabatlariga, shuningdek, shaxsning o'zi rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'qituvchining kasbiy kasaliklarni salbiy oqibatlarini natijasida quyidagilarni xolatlarni kuzatishimiz mumkin:

- ✚ Pedagogik tajovuz;
- ✚ Avtoritarizm;
- ✚ Namoyishkorlik;
- ✚ Pedagogik dogmatizm;
- ✚ Konservatizm.

Kasbiy faoliyat davomida yuzaga keladigan salbiy hissiy holatlar yosh va ish tajribasiga bog'liq holda shakilanadi. Hissiy salbiy holatlar sub'ektiv shaxsiy xususiyatlar mavjudligida kabi xolatlarda kuchayadi bu holatni biz yuqori nevrozizm va o'zini past baho brish holatlarda ko'rishimiz mumkin. 15-20 yillik pedagogik tajribaga ega bo'lgan o'qituvchilarning aksariyati "pedagogik inqirozlar", "charchoq" va "hissiy charchash" bilan tavsiflanadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak bunday halokatning salbiy oqibatlarini kamaytirishi mumkin bo'lgan kasbiy reabilitatsiya usullarini tavsiya eta olishimiz lozim. Bu esa quyudagi jarayonlar orqali amalga oshiriladi:

- ✚ Texnikani, hissiy-irodaviy sohani o'z-o'zini tartibga solish va kasbiy deformatsiyalarni o'z-o'zini tuzatish usullarini o'zlashtirish;
- ✚ Malaka oshirish va yangi malaka toifasi yoki lavozimiga o'tish (mas'uliyat hissi va ishning yangiligi, natijada kasbiy faoliyatga motivatsiyaning oshishi);
- ✚ Keyingi shaxsiy va professional o'sish uchun muqobil stsenariylarni ishlab chiqish.

Pedagoglarning ruhiy holatingizni optimallashtirish usullari yordamida biz yuqorida xolatlarni profilaktika tadbirlarini amalga oshira olish imkoniyatiga erishaniz va ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Nerv-mushaklarning gevşemesi;
- Autogen ta'lim;
- Meditatsiya;
- Nafas olish mashqlari;
- Aromaterapiya;
- Rang terapiyasi va boshqalar.

Biz kasbiy kasaliklarni oldini olish uchun birinchi navbatda qayta tiklash va dam olishning juda yaxshi usuli bizning sevimli mashg'ulotlarimiz va sevimli mashg'ulotlarimizdir. Bundan tashqari, to'g'ri uyqu haqida unutmang. Uyqu jarayoni dam olish va tiklanish uchun juda muhimdir.

Adabiyot:

1. Karpov. A.V. Mehnat psixologiyasi. – M.: 2005 yil.
2. Nemov R.S. Psixologiya, kN. 2. – M.: 2003 yil.
3. Pryajnikov N.S. Mehnat psixologiyasi va inson qadr-qimmati. – M.: 2004 yil.
4. Slastenin V.A., Isaev I.F., Shiyanov E.N. Umumiy pedagogika. – M.: 2003 yil.
5. Mitina L.M. O'qituvchining kasbiy faoliyati va salomatligi. M.: 2005 yil.
6. Ramednik D.M. Shaxsiy o'sish bo'yicha trening: Darslik. – M.: 2007 yil.
7. Kamolova, A. O. Q. (2023). Pedagoglik kasbi boshqa hamma kasblarning poydevoridir. *Science and Education*, 4(5), 988-992.
8. qizi Kamolova, A. O. (2023). Pedagoglik kasbi boshqa hamma kasblarning poydevoridir. *Science and Education*, 4(5), 988-992.
9. Kamolova, A. O. Q., & Husaynova, S. I. (2023). O'smirlar o'rtasida axloqsizlikni oldini olishda pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari. *Science and Education*, 4(2), 969-972.
10. Kamolova, A. O. Q. (2023). Pedagoglik kasbi boshqa hamma kasblarning poydevoridir. *Science and Education*, 4(5), 988-992.
11. Karimov, J. J. O. G. L., & Kamalova, A. (2024). Yoshlar o'rtasida deviant xulq-atvor profilaktikasi. *Science and Education*, 5(2), 513-519.

12. Камалова, А. (2021). THE IMPORTANCE OF USING GAME TECHNOLOGY IN THE PROCESS OF EDUCATION. *Экономика и социум*, (3-2), 12-14.
13. Jo'Rakabirova, M. X. Q., & Kamalova, A. O. Q. (2024). Amir Temur va Temuriylar davrida pedagogik fikrlar taraqqiyoti va ta'lim tarbiya masalalarining bugungi kun ijtimoiy faoliyatdagi ahamiyati. *Science and Education*, 5(3), 490-494.

YOSHLAR TA'LIM TARBIYASI - ENG DOLZARB MASALA

Ortiqova Nargiza

Namangan davlat pedagogika instituti

Pedagogika yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yoshlarimizning ta'lim -tarbiyasi uchun davlatimiz tomonidan yaratilayotgan shart- sharoitlar,imkoniyatlar hamda ota-onalarning kelajak uchun chin dildan bajarishlari lozim bo'lgan burch va vazifalar bayon qilinadi.*

Kalit so'zlar. *Davlat, jamiyat, oila, ota-ona, farzand, tarbiya, odob-axloq, pedagogika, psixologiya, burch.*

Vatanimiz kelajagi, ertangi kuni farzandlarimizning qanday inson bo'lib hayotga kirib kelishiga bog'liq. Yosh avlodni asrab -avaylash,har tomonlama barkamol qilib voyaga yetkazish har bir davlat, har bir mahalla,oila va har bir ota-onaning muqaddas burchiga aylangan.

Buyuk yunon olimi "Sharqda birinchi muallim deb ulug'langan Aristotelning "Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi"degan edi.Qarangki,milloddan 350 yil avval aytilgan.Ko'rinib turibdiki,insoniyat ongli hayot kechira boshlagan davrdan buyon ta'lim -tarbiya masalasi dolzarb masala kasb etib kelmoqda.[1]

Avestoda insoniy burch faqat ahloqiy yo'l -yo'riqlarni o'rganibgina qolmay inson oilaviy turmush, yaxshi yor va farzand to'g'risida o'ylashi zarurligi

ta’kidlanadi. Shuningdek qarindoshlar oila qurishi ta’qiqlanadi. Ko’p bolali oilalarga nafaqalar tayinlash ham yo’lga qo’yilgan.

Bugungi kunda yurtimizni taraqqiy ettirish, Yangi O’zbekistonni yaratish maqsadida barcha sohalar qatori ta’limda ham tub islohotlar olib borilmoqda. Bu o’nlab muhim farmon, qaror, konsepsiyalar va dasturlar qabul qilindi. Yoshlarni kelajakda muhandislik, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, ilm-fan yo’nalishlaridagi yetuk kadrlar sifatida shakllanishlari uchun maktablardan STEM ta’lim tizimi tatbiq etish bo’yicha 5 yillik dastur ishlab chiqilmoqda. Ushbu dasturni amalga oshirish uchun Osiyo taraqqiyot bankining 100 million AQSh dollari miqdoridagi mablag’i yo’naltirilishi ko’zda tutildi.[1]

“Yoshlarga oid davlat siyosati to’g’risida”gi qonunning qabul qilinishi mamlakatimizda yoshlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini mustahkamlashga, sog’lom, barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Yoshlar ittifoqi tuzilib uning samarali faoliyati yo’lga qo’yildi. Yurtimizda 30-iyun “Yoshlar kuni” etib belgilandi.

O’zbekiston Yoshlar parlamentlari, Yoshlar ishlari agentliklari faoliyati yo’lga qo’yildi. Yigit-qizlarning beznes tashabbuslarini ro’yobga chiqarish, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar ajratish kasb-hunarga o’qitish, fermerlikni qo’llab -quvvatlash, farzandlarning ta’lim -tarbiyasi ularni sog’lomlashtirish va bo’sh vaqtlarini mazmunli tashkil etilyapti. Yoshlar daftari orqali ularga ko’maklashish kabi yo’nalishlarda davlat tomonidan yoshlarni qo’llab -quvvatlash choralari ko’rilmoqda. “Yangi O’zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi” degan ulug’ g’oya asosida yurtimizda mutlaqo yangicha mazmun va shaklda zamonoviy maktablar tizimi yaratildi. Davlat maktablari bilan birga xususiy maktablar tashkil qilinib, bitiruvchilarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasi 2030-yilda 60-70-foizga yetkazish davlat dasturida belgilab qo’yildi.[1]

O’zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi kodeksining 47-moddasi bilan farzandining tarbiyasi bilan qiziqmagan, unga yetarlicha g’amxo’rlik qilmagan ota-onalar ayblanishi ko’rsatilgan. Ota-onalik vazifasi bo’sh vaqtlarda bajariladigan yumush emas, aksincha eng avvalo qilinadigan ishimiz bo’lishi kerak. Chunki farzandlarimiz yaxshi inson bo’lib ulg’aymasa boshqa

ishlarning sariqchaqalik qiymati qolmaydi. Bolalarning yomoni bo'lmaydi, uquvsiz va yomon tarbiyachi ota-onalar mavjud. [2]

Amir Temur bobomiz o'g'il uylantirish, kelin tanlash, farzand tarbiyalashni davlat siyosati darajasiga ko'targanliklari bejiz emas. Bizning davrimizda ham ota-ona bo'lish professionalikni talab qiladi. Yaxshi farzand tarbiyalash uchun avvalo ota-onaning o'zi tarbiyalangan bo'lishi kerak.

"Qiyshiq daraxtning soyasi ham qiyshiq bo'ladi", "Olmaning tagiga olma tushadi" deb bejiz aytishmagan. Bola oilada qanday tarbiya olsa, jamiyatda ham shuni ko'rsatadi, Chunki farzand oila ko'zgusi hisoblanadi. Oilani tirik jon deb olsak uning nafasi muloqot. Oilaning faxri -farzand. Oilaning ehtiyoji-baxt. Oilaning moddiy imkoniyati -mehnat. [3]

Oilada bolalarni to'g'ri tarbiyalashning asosiy shartlaridan yana biri tarbiyadagi yakdillikdir, ota-ona oiladagi katta-yu kichik bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishi lozim. Bunda oilaning ham o'ziga yarasha vazifalari bor.

_Oilada sog'lom muhitni yaratish;

-farzandlar uchun ota-onalar har tomonlama o'rnak bo'lishi;

-farzandlarning Vatanga, ota-onasiga muhabbatini shakllantirish;

-farzandlarning chuqur bilim olishida ko'maklashish;

-ma'rifatli va ma'naviyatli kishilar bo'lib yetishishlarini ta'minlash;

- ma'naviy barkamol, jismonan sog'lom bo'lishlarida iqtisodiy va ijtimoiy muhitni yaratish;

-bo'sh vaqtlarini unumli tashkillashtirish;;

-iste'dodlarini aniqlab, uni rivojlantirish ;

-sog'ligida va aqlida nuqsoni bo'lgan farzandlariga hayot talabiga mos kelgan kasb-hunar o'rgatishdan iborat. [4]

Azal-azaldan bobo-buvilarimiz farzandga yaxshi ism qo'yish, savodli qilish, imli, kasb-hunarli qilish, oilali va uy-joyli qilish ota-ona burchi ekanini sodda tillari bilan tushuntirib kelishadi.

Xulosa shuki, Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek odobli, bilimli va aqlli mehnatsevar, iymonli, e'tiqodli farzand nafaqat ota-onani balki butun jamiyatning eng katta boyligidir. Ma'naviy imuniteti kuchli, fikrlarini mustaqil ravon yetkazib

bera oladigan va kimlarning avlodlari ekanliklarini unutmagan yoshlarimiz bugungi tahlikali, murakkab davrda ham yot g'oyalarga ergashmay, tanlagan maqsadi tomon og'ishmay bora oladilar. Yaratganga shukurlar bo'lsinki, ota-onalarning fidoyiligi, zahmatli, mehnati tufayli turli soxalarda iste'dod va salohiyatlarini namoyon qilib tengdoshlariga o'rnak bo'layotgan yigit-qizlar "Mard o'g'lon" davlat mukofoti va "Kelajak bunyodkori" medali bilan mukofotlanishmoqda. Yana ko'plab yurtimiz taraqqiyotiga xissa qo'shayotgan yosh avlod vakillari davlatimizning "Do'stlik" orderi va "Shuhrat" medali bilan taqdirlanish baxtiga erishmoqdalar. Bu bilan xalqimiz ularga yuksak ishonch bildirmoqda

O'z qobiliyatini yuzaga chiqara olmagan yoshlarimiz esa hayotdan ko'ngillari to'lmay qolyabdi. Ba'zi yoshlar mehnat qilmay boyishni o'ylamoqdalar. Ishlab, mehnat sarf qilib, maqsadga erishish mumkinligi ularni hayoliga kelmayabdi. Ayrimlari bo'lsa, bir ishni boshlaboq zerikib ketganliklarini aytishadi. Har bir ishning o'z qonun-qoidasi va yengib o'tish lozim bo'lgan qiyinchiliklari bor. Bolalarga qiyinchiliksiz hech narsaga erishib bo'lmasligini eslatib turaylik.

Ota-onalar farzandlariga namuna bo'lishlari uchun ota-onalik ilmi, ajdodlarimiz meroslari, pedagogik, psixologik hamda zamonaviy bilimlarni chuqur o'rganmoqlari shart.

Jamiyki bilimlarni ishga solib, qa'tiyat va matonat bilan Vatanga muhabbatli, ajdodlarga munosib, ona tili, millati, diniga va an'alariga sodiq farzandlar tarbiya qilishdek ma'suliyatli vazifaga sidqidildan yondashish har bir insonning ulug' burchidir. Chunki, jamiyatimizning baxtli kelajagi uchun barchamiz birdek mas'ulmiz. Vatan taqdiriga hech kim befarq qaramasligi, yurt ozodligi va ravnaqi yo'lida jon fido ajdodlarimizga munosiblik hissi hech qachon tark etmasligi darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi". "Ozbekiston" - T-2022. 222-250-bet.
2. Barkamol avlod-kelajagimiz tayanchi. T. Ma'naviyat 210, 120- bet.

3. Sheniz Yujel "Gudaklikdan yigitlikka qadar". T Yangi asr avlodi 2021.6-7 bet.
4. Muhammad Qurona Bolam baxtli bo'lsin desangiz. T. "Ma'naviyat" 2014.15 bet
5. R. Mavlonova, N. Vohidova, N. Rahmonqulova Pedagogika nazariyasi va tarixi. T-fan va texnologiya-2010.399 -bet.
6. Usmonov. N. Mirzayev. B. S. xasanov. I. S. Mutaxassislikka kirish. T. "Vorinashiriyoti" 2013.7-8-bet.
7. Pedagogika ensiklopediya 2 jild O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashiriyoti T-2015 286-bet.
8. Zebiniso Axmedova "Oilani boshqarish qoidalari" Davr PRESS T-2017.78-bet.

TELEFON O'YINLARINI BOLALAR PSIXIKASIGA TA'SIRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Jo'rayev Sodiqjon Muxamadinovich

Namangan Davlat Pedagogika instituti o'qituvchisi

Ikromov Xabibullo Boqiyevich

O'zbekiston Respublikasi IIV Namangan akademik

litsey o'qituvchisi istefodagi podpolkownik

Annotatsiya. Ushbu maqolada telefon o'yinlariga mukkasidan ketgan bolalarni psixikasiga ta'sir qiluvchi omillar, JSST tomonidan kompyuter o'yinlariga berilib ketish ruhiy kasallik deb tan olinganligi va o'quvchilarni yot g'oyalarga berilishini oldini olish hamda telefon o'yinlariga qiziquvchi yoki tobe kichik maktab yoshidagi bolalar bilan ishlashda bir qator tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: *geymbling, XKT, fenomen, addiksiya, deviant, korrelyatsiya.*

Bugungi kunda dunyo aholisining ko'pgina qismi asosiy faktlarini turli video o'yinlarda sarflashlari, ularning video o'yinlarga bo'lgan tobelikni keltirib chiqarmoqda.

Jumladan, Video o'yinlarga o'ta berilib ketish oqibatida ekstremal vaziyatlar, ya'ni hafta davomida 50 soat o'yin o'ynash natijasida tobelikka tushish holati yanada ortmoqda.

Shu bois Butun jahon sog'liqni saqlash tashkiloti turli kompyuter o'yinlariga berilib ketish ruhiy kasallik, deb tan olishini va Xalqaro kasalliklar tasnifiga (XKT) kiritilishini e'lon qildi. Shu sababli ushbu holatlarning oldini olish dolzarb va muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, bolalarning turli hil axborotlar ta'siridan himoyalashning psixologik mexanizmlarini takomillashtirishga zarurat tug'dirmoqda. Ruhiy tobelikning alohida turi sifatida o'yinga tobelik geymbling ko'pdan buyon psixiatr va narkolog tadqiqotchilar tomonidan o'rganib kelinadi.

Olimlar, xususan yuqoridagi holatlar yuzasidan o'tkazgan tadqiqotlarda geymblingda affektiv buzilish xususiyatlari (E.S.Osuhovskaya, 2012; V.A.Soldatkin, 2010), qimor o'yinlariga tobelikning klinik namoyishi bo'lishi, kechishi va davolanishi masalalari (O.J.Buzik, 2008; A.F.Shaydulina, 2004)³¹, bunday tobelik vaziyatida shaxs psixopatologik buzilishlarini o'rganganlar.

-shuningdek, komyuter va telefon o'yinlariga tobelik muammosi nokimyoviy addiksiyaning boshqa turlariga tenglashtirib o'rganilgan- psixologik tadqiqotlarda, Alisa Faatovna Shaydulina (kandidat meditsinskix nauk) "Osobennosti kliniki i lecheniya patsiyentov s patologicheskoy sklonnostyu k azartnym igram i kompyuternoy zavisimostyu" tema dissertatsii i avtoreferata (VAK RF 14.00.18` 2004. 32), (Dinov Yevgeniy Nikolayevich kandidat meditsinskix nauk) "Psixoterapiya v kompleksnom lechenii bolnyx igrovoy zavisimostyu" tema dissertatsii i avtoreferata (VAK RF 14.01.27` 2010. 164) komyuter o'yinlariga tobelik nisbiy mustaqil fenomen sifatida ajratildi.

Ushbu yo'nalishdagi psixologik tadqiqotlarda komyuter o'yinlariga tobelikning shaxs psixik hayotiga ta'siri xususiyatlari (A.V.Miroshnichenko, 2010; A.M.Demilhanova, 2009; L.I.Shakirovalar, 2006. 34), komyuter o'yinlariga tobelikning deviant xulq bilan aloqasi muammosini va (Yu.N.Muratkina, 2010)³⁵, komyuter va telefon o'yinlariga tobe odamlarning individual va ijtimoiy-psixologik sifatlari o'rganilgan.

Kompyuter o'yinlariga tobelikning psixologik xususiyatlariga doir ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Pekin universiteti (Xitoy), Oxford (UK), Cambridge University (Angliya), Hong Kong University (Gonkong), University of New Jersey (AKD1), University of Nebraska (ASCh'11), Murdoch University (Avstraliya), Moskva davlat universiteti (Rossiya)da olib borilmoqda.

Tahlillar natijasi shuni ko'rsatdiki, maktab o'quvchilarining mobil telefonidan foydalanishga cheklovlar o'rnatish borasida o'zimizda va ko'plab davlatlarda ham amaliy qadamlar qo'yilgan.

Xususan, maktablarimizdagi mobil telefondan foydalanish tartibi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 21 maydagi "O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida mobil telefonlardan foydalanishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror asosida tartibga solingan.

Bu borada xorijiy tajribalar kuzatilganda, o'xshash va qarama qarshi jarayonlar ma'lum bo'ldi.

Jumladan, Bangladeshdagi maktab va kollej o'qituvchi va o'quvchilarining mobil telefondan foydalanishi taqiqlangan. Avstraliya, Viktoriya, Tasmaniya hududlarida, Fransiya, Ispaniya va Chexiya davlatlari tomonidan ham bolalar uchun mobil telefonidan foydalanishda cheklovlar qo'yilgan. Belgiya va Buyuk Britaniyada bu borada taqiqlash masalasi har bir maktabning kuzatuv va vasiylik kengashlari qarori asosida qabul qilinadi.

Xitoy Xalq Respublikasida ota-onalarning yozma rozilgisiz o'quvchilar maktabga telefon olib kirishlari taqiqlanadi. Ta'lim olish jarayoniga salbiy ta'siri bois Janubiy Koreya maktablarida ham mobil aloqa vositalaridan foydalanish qat'iyan man etilgan.

Shuningdek, qo'shni davlatlar Qozog'iston va Tojikiston Respublikalarining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida maktab, kasb-hunar va o'rta maxsus ta'lim muassasalari o'quvchi va talabalarining mobil telefonlar, peyjer, planshet, smartfon, iPad, iPod, pleyer, modemlardan foydalanishiga ruxsat etilmaydi.

Xususan, London Iqtisodiyot maktabi tadqiqotiga ko'ra, smartfonlar taqiqlangan maktablarda test natijalari ko'rsatkichlari 6 foizga yaxshilangan.

Biroq, mobil telefonlardan sinfda foydalanishni taqiqlash ish bermayotganligi, o'quvchilarning yarmidan ko'pi yashirincha qoida buzayotganligi va gadjetlardan hanuz foydalanayotganligi ham aniqlangan.

Qoidaga ko'ra, telefonlarni ovozsiz rejimga o'rnatganda ham xabarlar kelganda tebranishi (vibratsiya) o'quvchilarning diqqatini jamlashga halaqit beradi. Do'stlariga o'z vaqtida javob beraolmayotganligi yoki ijtimoiy tarmoqlardagi munozaralardan qolib ketayotganligi o'quvchilarni o'qish jarayoniga e'tiborini susaytiradi.

Tahlillar jarayonidagi so'rovlarda, – Mobil telefonlarni taqiqlash o'quvchilarning bir-biri bilan jonli muloqot qilish imkoniyatini oshiradi. Chunki, zamonaviy bolalar endi tanaffusda o'ynashmaydi, ular smartfonlarga qarashadi, – dedi Fransiya milliy ta'lim, yoshlar va sport ishlari vaziri Jan Mishel Blanke.

Buyuk Britaniyaning Shipley kolleji rahbari esa:

–Bizni kollejda talabalar telefonlardan foydalangani uchun jazolanadilar. Ular telefonga juda bog'lanib qolganlar, natijada bir-biri bilan muloqot qilish qobiliyatini yo'qotmoqdalar, – deya javob bergan.

O'rganishlar jarayonida mobil telefondan foydalanish jismoniy jihatdan, bolalarda yurak-qon tomir tizimidan aziyat chekish holatlari aniqlangan. Shuningdek, aqliy jihatdan, ijtimoiy tarmoqlarda kuniga ikki soatdan ko'proq vaqt sarflaydigan foydalanuvchi yoshlarda ruhiy muammolar ko'proq aniqlangan. Shu bilan birga o'quvchilarning mobil telefondan foydalanishlarini ta'qiqlashga qarshilar ham uchradi.

O'zbekistonlik psixolog tadqiqotchilar tomonidan ushbu sohada o'tkazilgan kam sonli izlanishlarda asosan komyuter o'yinlariga tobelikning bolalar psixik taraqqiyotiga salbiy ta'siri muammosi yuzasidan ilmiy tekshirish ishlari olib borilgan (N.M.Dalimova, 2010)38 .

Tadqiqotning ilk bosqichida maktabning 1-2-3-4-sinf o'quvchilaridan so'rovnoma olingan va ushbu so'rovnoma quyidagi ko'rinishda o'tkazilgan:

1. Telefon o'yinlariga tobelikning mavjudligi va u haqiqatdan ham xavfli ekanligini isbotlovchi ilmiy tadqiqotlar dunyo miqyosida kundun-kunga ko'payib borayotganligi, shu jumladan uni respublikamizda alohida ilmiy tadqiqot predmeti

sifatida o'rganish zarurati ilmiy tahlillar natijasida aniqlangan. Garchi so'nggi yillarda kichik maktab yoshidagi bolalar orasida uchrayotgan telefon o'yinlariga tobelik muammosi, tibbiyot, psixologiya, pedagogika va sotsiologiya sohalari mutaxassislari tomonidan dolzarb muammolardan biri ekanligi e'tirof etilgan bunday tadqiqotlar kichik maktab yoshidagi bolalar orasida telefonga tobelik muammosini o'rganish yuzasidan keyingi ilmiy izlanishlarning rivojlanishiga munosib xissa qo'shgan.

2. Telefon o'yinlariga tobelik kichik maktab yoshidagi bolalarda agressivlik, havotirlanish hamda shaxslararo munosabatlarda psixologik muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'lishi ko'rsatilgan.

3. Telefon o'yinlariga tobe kichik maktab yoshidagi bolalarning shaxslararo munosabatlardagi faolligi, ochiqligi, e'tiborligi, yaqinligi (Litvinenko Olga Vladimirovna` kandidat psixologicheskix nauk) "Psixologicheskkiye determinanty kompyuternoy igrovoy zavisimosti i osobennosti eye psixoprofilaktiki" tema dissertatsii i avtoreferata po VAK RF 05.26.02` 2008. 38 N.M.Dalimova, "Kompyuter o'yinlariga tobe o'smirlarning psixologik diagnostikasi va korreksiyasi xususiyatlari" Tashkent `2010. 165 darajalarini aniqlab olish tadqiqot vazifalaridan biri bo'lgan va tadqiqotda Rebe-Jilyaning shaxslararo munosabatlarni o'rganuvchi metodikasidan keng foydalanilgan. Ushbu metodika kichik maktab yoshidagi bolalarning hozirgi davrda shaxslararo munosabatda qanday munosabatda ekanliklari, ularning ijtimoiy muhitdagi o'rinlari haqida ko'p ma'lumotlarga ega bo'lishda hamda R.Temml, M.Dorki, V.Amenlarning "Havotirlanish" testi, B.Brayklin, Z.Piotrovskiy va E.Vagnerning "Qo'l testi" metodikalari esa kichik maktab yoshidagi bolalarda havotirlanish darajasi, agressiya, qo'rquv, muloqandmandlikni aniqlashga yordam bergan.

4. Telefon o'yinlariga tobelik kichik maktab yoshidagi bolalarda agressivlik, havotirlanish, qo'rquvning ortishi kabi salbiy xislat va kechinmalarning paydo bo'lishiga, shaxslararo munosabatlarda psixologik muammolarni kelib chiqishiga sabab bo'lishi korrelyatsiya natijalari orqali isbotlanmagan.

Hozirgi axborot asrida bolalarda katta informatson oqim bo'layotgani sababli ularning barida agressivlik, havotirlanish darajalari telefon o'yinlarini o'ynaydigan va o'ynamaydiganlarda ham aniqlangan.

Shunga ko'ra, biz telefon o'yinlariga qiziquvchi yoki tobe kichik maktab yoshidagi bolalar bilan ishlashda quyidagilar tavsiya etiladi:

-davlat tomonidan telefon o'yinlarini ekspertizadan o'tkazadigan maxsus komissiya tuzishni;

-ba'zi telefon o'yinlari kichik maktab yoshidagi bolalardagi uyqusizlik, agressivlik, qo'rquv, achchiqlanish kabi holatlarga sabab bo'lishini xisobga olgan holda o'yinlardagi agressiya darajasini belgilash uchun mutaxassislar jalb etish zarurligini;

-kichik maktab yoshidagi bolalarga telefonda o'ynash erkinlik emas, balki imtiyoz ekanligini tushuntirish lozimligini va telefondan foydalanishni birdaniga taqiqlash aslo mumkin emasligini.

-ota-onalar kichik maktab yoshidagi bolalar o'ynayotgan o'yinlarga alohida ahamiyat berishlari lozimligi, kichik maktab yoshidagi bola o'ynayotgan o'yinlar doirasida aqliy rivojlantiruvchi, mantiqiy o'yinlarning ko'proq bo'lishi maqsadga muvofiligi;

-ota-onalar telefon o'yinlarini kichik maktab yoshidagi bolalar bilan hamkorlikda muhokama qilishlari zarurligi, kichik maktab yoshidagi bolalarni telefon o'yinlariga salbiy jihatdan qarashini shakllantirish lozimligi;

-kichik maktab yoshidagi bolalarga telefon o'yinlari ko'ngil ochish vositalarining faqatgina kichik bir qismi ekanligini tushuntirishni, xayotda telefon o'yinlaridan boshqa ham juda qiziqarli narsalar ko'p ekanligini va o'yin hech qachon atrofdagilar bilan mulqotda bo'lishni o'rnini bosa olmasligini tushuntirish lozimligini.

-ommaviy axborot vositalarida uzluksiz ravishda telefon o'yinlarining kichik maktab yoshidagi bolalar psixikasiga ta'sirini ijobiy va salbiy jihatlarini yoritib borish maqsadga muvofiq bo'lishligi.

IZOXLI LUG'AT:

-Geymbling- ya'ni taqdirni o'yin orqali sinab ko'rish jarayoni.

-XKT - xalqaro kasalliklar tasnifi.

-JSST - butun jahon sog'liqni saqlash tashkiloti;

-Deviant-xulq-atvor lotincha "deviation"-og'ish, ya'ni ijtimoiy normativlardan og'ib ketuvchi tatti-xarakat bo'lib, jamiyatda o'rnatilgan axloq me'yorlariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat, ijtimoiy hodisa sanaladi.

-fenomen 1-g'ayrioddiy, kamdankam bo'ladigan xodisa, fakt. 2 - xis-tuyg'u orqali payqaladigan xodisani anglatuvchi falsafiy tushuncha.

-korrelyatsiya - (lot.correlatio-nisbat, munosabat)- tushunchalar, narsalar, funksiyalar orasidagi o'zaro bog'liqlikni, o'zaro moslikni, munosabatni bildiruvchi tushuncha.

-Addiksiya - (biror nimaga xaddan ortiq berilish holati bo'lib, shaxsiy yoki sotsial muammoning shu tarzda ko'rinishi),

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shaydulina Alisa Faatovna (kandidat meditsinskix nauk) "Osobennosti kliniki i lecheniya patsiyentov s patologicheskoy sklonnostyu k azartnym igram i kompyuternoy zavisimostyu" tema dissertatsii i avtoreferata (VAK RF 14.00.18` 2004. 32).
2. Dinov Yevgeniy Nikolayevich (kandidat meditsinskix nauk) "Psixoterapiya v kompleksnom lechenii bolnyx igrovoy zavisimostyu" tema dissertatsii i avtoreferata (VAK RF 14.01.27` 2010. 164).
3. A.V.Miroshnichenko(2010); A.M.Demilhanova (2009); L.I.Shakirova, (2006.34), komyuter o'yinlariga tobelikning deviant xulq bilan aloqasi muammosi.
4. Yu.N.Muratkina (2010)35, komyuter va telefon o'yinlariga tobe odamlarning individual va ijtimoiy-psixologik sifatleri.
- 5.O.V.Litvinenko (kandidat psixologicheskix nauk) "Psixologicheskkiye determinanty kompyuternoy igrovoy zavisimosti i osobennosti eye psixoprofilaktiki" tema dissertatsii i avtoreferata po VAK RF 05.26.02` 2008. 38.
- 6.N.M.Dalimova "Kompyuter o'yinlariga tobe o'smirlarning psixologik diagnostikasi va korreksiyasi xususiyatlari" Tashkent `2010. 165.
7. M.Rashidova (xalq ta'limi vazirligi yetakchi mutaxassisi) - maqola "Maktab o'quvchisiga uyali aloqa vositasi kerakmi yoki yo'q"?

YOSH OILALARDA KITOBXONLIK MA'DANIYATINI SHAKILLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Abdullajonova Naubahor Baxtiyor qizi

*.Namangan Davlat Pedagogika Insituti, Pedagogika fakulteti,
Pedagogika (qo'shimcha tarbiya fani o'qituvchisi) yo'nalishi 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi*

Kamolova Azimaxon Odiljon qizi

Annotatsiya: *Mazkur maqola orqali biz oilada kitobxonlikni shakillantirish bolalarda kitobga qiziqish va ota onalarning bu boradagi o'рни va vazifasi haqida yoritilib bermoqchimiz. Bundan tashqari oilada ota onaning bolaga to'g'ri tarbiya berishi va to'g'ri yo'l tanlashida asosiy ko'makchi ekanligi haqida fikrlarimiz va xulosalrimiz keltirib o'tilgan,*

Kalit so'zlar: *Oila, kitobxonlik, kutibxona, ota ona, farzand, kelajak, tarbiya, ma'naviyat, odob, ota-ona burchi, mafkura, madaniyat.*

Annotatsion: *Through this article, we would like to highlight the interest in books in children and the role and function of parents in this regard. In addition, in the family, our thoughts and conclusions have been cited that the father is the main assistant in the correct upbringing of the child and the choice of the right path.*

Key words: *family, reading, parents, child, future, education, spirituality, manners, parental duty, ideology.*

Аннотация: *В данной статье мы хотим пролить свет на формирование читательского интереса в семье, на роль и миссию родителей в этом вопросе. Кроме того, приведены наши мысли и выводы о том, что отец в семье является главным помощником в правильном воспитании ребенка и выборе правильного пути,*

Ключевые слова: *семья, чтение, родители, ребенок, будущее, образование, духовность, нравы, родительский долг, идеология.*

*Fikrsiz aqilning zangi bo'ladi,
Ilimla charxlasang yangi bo'ladi,
Oynadan ibrat ol bir kun artmasang
Ustida bir englik channgi bo'aldi.*

Bedil

Yurtimizda ma'nan barkamol, jismonan sog'lom, tarbiyali avlodlarni yetishtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada oilaning o'rni beqiyosdir.

Oila bu-nikoh va tug'ishganlika asoslangan kichik guruh hisoblanadi. Oilaning vazifasi bola tarbiyasi bolaning bo'sh vaqtini samarali rivojlantirish va oila a'zolarining o'zoro yordami bilan birgalikda oilaviy munosabatlarni o'rnatish demakdir. Oilada ota onaning farzand oldidagi vazifasi unga eng avvalo yaxshi tarbiya bera oilishi, savodli qilish maqsatida yaxshi muallimga topshirish, kattalarga hurmat va kichiklarga izzat ruxida tarbiyalash asosiy vazifalar hisoblanadi. Har bir ota-ona murrabbiydir ular o'zlarida yaxshi fazilatlarni jamlay oilishlari kerak farzand tarbiyalayotgan ota onaning oldida juda katta ma'sulyat turadi ular o'zlarida manaviyatni ma'daniyatni shakillantirish va foydalanishi zarur "Odobshunoslik", "Manaviyat va marifat asoslari" va boshqa fanlarni o'qishi barcha tarbiyaviy ishlar tizimida ham axloqiylik va odoblilikning yuqorida sanab o'tilgan mezonlari va meyyorlarini e'tiborga olish foydadan holi emas. (2) Oila tarbiya o'chog'i hisoblanadi, oilada farzandni tarbiyasiga dunyoga kelmasdan oldin ahamiyatli bo'lish lozim shundagina bola muhitga moslashadi G. Spenser aytganidek albatta tarbiya ta'limdan ustun turadi. Insoni tarbiya ulg'aytiradi, o'zligini ham anglay olishga ko'maklashadi. Farzanga chiroyli tarbiya va ta'lim berishning asoyi manbayi kitobdir kitobga muhabbatdir ota- onada kitobga qiziqish mutolaaga ishtiyoq bo'lsagina farzandlar ilimga tashna va bo'sh vaqtlarini kitoblar o'qish bilan o'takaza oladi. "Qush uyasida ko'rganini qiladi" deganlaridek bola oilada nimani ko'rsa shuni bajaradi ota-ona kitobni ko'p o'qisa kitob o'qiydi, ko'p uxlasa ko'p uxlaydi, hatto oilada ota_ona ozodalika qanday qarasa bola ham hudi shunday ulg'ayadi. Bu borada ota- onalarga katta mas'uliyat yuklatilgan. Farzandlar ulg'ayar ekan ularda savollar qiziqishlar ko'payib boradi

bu masalada ota- ona bolalarga kitobning o'rne barcha savollariga javobni kitoblardan olishlari qo'llaridan kelgancha to'g'ri ma'lumot berishlari kerak. Farzandlari so'ragan savollarga javobni ular bilishlari farzanda yanada ishtiyoqni o'shiradi ular edi ota- onalariga havas ko'zi bilan qarab ular ham huddi ulardek ko'p kitob o'qishga va o'zlaridagi savollarga javob izlay boshlaydilar. Oilada kitobning o'rne katta har bir ota- ona farzandlariga kitob o'qi deb buyruq berishi shart emas oilada ota yoki ona bosh vaqt topib qo'lga kitob oldimi demak farzand oldin kuzatadi keyin o'rganadi vaqtlar o'tib bo'sh vaqtini kitob bilan o'qish odatiga aylanib oladi. Har bir oilaning o'z kutubxonasi bo'lishi kerak. Kitob o'qib ulg'aygan bolada o'zgach dunyoqarash o'zgach muhit shakillanadi endi u kitob bilan hamnafas umrini so'ngigacha izlanib o'z hayotini mazmuni tashkil qila oladi. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy hazrati yozganlaridek "Kitob-beminnat ustoz bilim ma'naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai"dir.(3) Kitob o'qigan bolada ma'rifat, ma'daniyat rivojlangan bo'lib odamlar bilan muloqot muomilasi orqali ham ajralib turadi. Aqilliy farzandlar axloqliy –odobli, mexnatsevar, obro'-e'tiborli ota onalari bilan faxirlanadilar, ularga suyanadilar, ergashadilar.

Zamonamizning buyuk allomaridan biri shoir Rasul Hamzatov ham «Men ko'p kitob o'qiganman, ammo eng yaxshi kitob ota onamning menga bergan donishmandligi bo'lib qoladi» deb yozgan edi. Tarbiya uzoq umr davom etadigan jarayon. Inson yoshligida ham, kamolat chog'ida ham, keksalik davrida ham hayot saboqlaridan ko'p nasa oladi. Lekin inson kamolotiga asos barcha boshqa omillar oiladagi tarbiyaning o'rnini bosa olmaydi. Yaxshi tarbiya topgan farzand ota-onaning baxti, yomon farzand bir umrlik dardidir. Ota-onaning qalbida noqobil farzandlar yetkazgan dard, alamni xech bir shifokor davolay olmaydi.(4) Bunday farzand voyaga yetkazishni hech bir inson hohlamaydi albatta shuning uchun ularga eng avvala tarbiyaga va kitobga muhabbatni rivojlantirib olishlari kerak. Ota- ona bola tarbiyasida ularning istedotlari va qiziqishlarini bilishi qanday kitoblar o'qishni yoqtiradi, nimalarga qiziqadi, qanday ma'lumotalarni bilishni hohlaydi barchasini hisobga olgan holda ularga kitoblar tavsiya qilishlari mumkun. Ularga bayramlar va har xil marosimlarda kitoblar sovg'a qilib turishlari undan tashqari kitob sovg'a qilishga faqat bayramlar asos bo'lishi shart emas

albatta ular bugungi dars mashg'ulotini qanday olib bordi qanday baholar oldi shu kabi tekshirishlar orqali ularni rag'batlantirishda ham eng kerakli sovg'a bo'ladi. Farzandlar otalari onalari olib bergan kitobni asrab avaylab o'qishadi, ular ham farzandlariga faxir bilan ko'rsatishni hohlaydilar shundagina kitobxonlik avloddan avlodga meros tarzda qoladi. Farzandlarga tilla buyum, katta hovli, chiroyli imoratlardan ko'ra qadirlil bo'gan bu kitoblar ulani ma'naviyatini oshirgan o'zligini tanitgani uchun ham qadrlidir. Farzandga ota-ona kitob hadiya qildimi demak farzand ham yillar o'tib farzandiga kitoblar olib beradi chunki oilada muhit shunday shakillangan.

Oilada farzandning barcha yutuqlariga uning muvaffaqiyatiga sababchi bo'lgan kitoblarga muhabbat oiladan oila davrasidan oila a'zolarining ichonchi orqali shakillanishini tushunib oldik. Lekin Respublikamizda 2022-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra jami 9 424 787 oila mavjuda bo'lib ularda muhit, oilaviy munosabatlar, tarbiyaviy jarayonlar bir hil kechmaydi. Muhit ta'sirida bosh vaqti yo'q, o'qish ma'daniyati xususiyatiga ega bo'magan ota-onalar farzandining qiziqishlari, ularning yoshiga mos kitobni tanlay olmasligi, farzandiga to'g'ri ifodali o'qib bera olmasligi mumkun. Bunday vaziyatlarda har bir ota-ona kutubxonachilar bilan muloqot qilishi maktab litsey va kollej o'qiquvchilari, shuningdek tarbiyachilar hamkorlikda birga ish olib borishlari va ular bilan maslahatlashib turishlari zarur. Ota-onalar o'z farzandlarining taqdirini, baxtini o'ylaganida bu masalani ham aslo e'tibordan cheta qoldirmasliklari lozim.

Hozirgi kunda Respublikamizda kitobxonlik va kitoblarga bo'lgan qiziqish kun sayin oshib bormoqda chunki yoshlar dunyoni faqat ilm yo'li bilan kitob mutolaa bilan zabt eta olish mumkunligini anglab yetishdi. Shu o'rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Hammamiz uchun ayni paytda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan masala, ya'ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizda kitobga bo'lgan muhabbatini ularning ma'naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi"(1)deb ta'kidlashlari bejiz emas. Mamlakatning ma'naviy darajasini ko'rsatadigan muhim ko'rsatkichlardan biri o'sha xalqning kitobxonlik darajasi bilan belgilanadi. Shuning uchun hozirgi kunda kitobxonlik kitobga jalb etish

siyosati olib borilmoqda. Shu o'rinda yoshlar ittifoqi tomonidan uch yildan buyon o'tkazilib kelinayotgan "Yosh kitobxon" tanlovi sezilarli na'muna bo'la odadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Maskur tanlovga 2017-2018 yillar davomida jami 970 ming yoshlar qatnashgan. Bu degani yoshlar ma'rifatga, qadryatga qayti va yoshlar o'rtasidagi muammolar asta-sekin bartaraf etilmoqda. Kitobxonlik tanloviga yurtimizning har xil viloyatlardan tashrif buyurib qatnashishgan bo'lib g'oliblar uchun ajoyib sovg'alar "Spark" avtomashinasi beriladi. Albatta gap sovgada emas sovg'aning darajasida ham emas muhimi o'zidagi ishoch va bilimidadir. Yurtimizda yosh oilalar o'rtasida ham kitobxonlik targ'ib qilinayotgani quvonarli hol. Yosh oilalar o'rtasidagi "Eng yaxshi kitobxon oila" tanlovi Sirdaryo viloyatida bo'lib o'tadi g'olib uchun Prezidentimiz tomonidan "Spark" mashinasi bilan taqdirlanadi. Insondagi eng sof eng pokiza tuyg'ular oilada shakillanadi. O'sib kelayotgan yoshlarga qo'larida kitob ko'targan ota-onani ko'rib o'rganadi, farzandlar ham endi televizor qarshisida emas, kitob ko'tarib ilim olishga intilib ulg'ayadi. Yoshlardagi bu intilishlar bu shijoat yurtimiz ravnaqiga uning rivojlanishiga o'z xissasini qo'shibgina qolmay, endi mamalakatimiz rivojlangan davrlar qatorida yuqori o'rinlar turish uchun asosiy poydevor hisoblanadi. Shunday ekan oiladagi bu kitobxonlik jiddiy e'tibor qaratish har bir ota-onaning burchidir farzandlar taqdiriga be'tibor bo'lmagan ota-ona yurt ravnaqiga uning rivojiga o'z xissasini qo'sha oladi.

XULOSA Xulosa qilib shuni aytib o'tish keraki oila muqaddas dardoh. Farzandlar ulg'ayar ekan ota-onalar ularning taqdiri kelajakdagi o'z o'rnini haqida qayg'urishlari tabiiy holat. Yoshligida kitobga qiziqтира olgan ota-onalarda esa o'z yo'lini topa olgan farzandlarning yutuqlarini erishgan natijalarini ko'rib quvonishadi demak ular farzand tarbiyasida eng kerakli bo'lgan kitob va uning mutolaasiga jiddiy e'tibor qaratishgan. Oiladagi bu kitobxonlik o'z farzandlari uchun juda foydali jarayonligini tushungan ota-ona farzandlar uchun kitoblar xaritini ko'paytira olishi o'zlari qiziqan kitoblariga o'z qiziqan yo'nalishlariga qarab intilishlarida yelkadosh qo'llab quvatlovchi bo'lishlari lozim. Ota-onalarning farzandiga ishonchi ularni ruxlantiradi, boshlagan ishlaridagi qor'quvni yoqotadi. Farzandlarning maktab paytidan bo'shlangan kitobga qiziqishni yillar

davomida yo'qolmasligini oldini oluvchi ota-onalar kelajakdagi barcha natijalari uchun asosiy yo'l ilim olish ekanligini tushuntira olishlari kerak.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.

1. "Oila_ ma'naviyat bulogi" Erkin Yusupov, O'tkir Yusupov.
2. <https://www.standart.uz>.
3. "Oila_ ma'naviyat bulogi" Erkin Yusupov, O'tkir Yusupov(66 bet).
4. Kamolova, A. O. Q. (2023). Pedagoglik kasbi boshqa hamma kasblarning poydevoridir. *Science and Education*, 4(5), 988-992.
5. qizi Kamolova, A. O. (2023). Pedagoglik kasbi boshqa hamma kasblarning poydevoridir. *Science and Education*, 4(5), 988-992.
6. Kamolova, A. O. Q., & Husaynova, S. I. (2023). O'smirlar o'rtasida axloqsizlikni oldini olishda pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari. *Science and Education*, 4(2), 969-972.
7. Kamolova, A. O. Q. (2023). Pedagoglik kasbi boshqa hamma kasblarning poydevoridir. *Science and Education*, 4(5), 988-992.
8. Karimov, J. J. O. G. L., & Kamalova, A. (2024). Yoshlar o'rtasida deviant xulq-atvor profilaktikasi. *Science and Education*, 5(2), 513-519.
9. Камалова, А. (2021). THE IMPORTANCE OF USING GAME TECHNOLOGY IN THE PROCESS OF EDUCATION. *Экономика и социум*, (3-2), 12-14.
10. Jo'Rakabirova, M. X. Q., & Kamalova, A. O. Q. (2024). Amir Temur va Temuriylar davrida pedagogik fikrlar taraqqiyoti va ta'lim tarbiya masalalarining bugungi kun ijtimoiy faoliyatdagi ahamiyati. *Science and Education*, 5(3), 490-494.
11. Azimova, O. A. Q. (2023). Bo'lajak o'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish jarayonlarida kasbiy mahorati. *Science and Education*, 4(6), 718-722.
12. Kamolova, A. (2022). The Scientific and Theoretical Foundations of Studying the Sources of Popular Pedagogy in Educating the Younger Generation. *Science and Education" Scientific Journal/Impact Factor*, 3, 590-592.
13. . <https://xs.uz>.

BADIIY ASAR TAHLILI JARAYONINNG ASOSIY ELEMENTLARI, SHAXS SHAKLLANISHIDAGI TA'SIRI

Murodova Kamolaxon Shuhratali qizi

Namangan davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: kamola.bahor@gmail.com Tel: +998906944090

Annotatsiya: *Badiiy asar tahlili asarning mazmunini, mavzularini, obrazlarini va ularning o'zaro aloqalarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Asardagi san'atkorlik uslubi, til va ifodalar orqali uning estetik qimmatini aniqlashga imkon beradi. Talabalarda tahlil qilish, fikrlash, va ijodiy yozuv ko'nikmalarini rivojlantiradi. Badiiy asar tahlili nafaqat adabiy asarni yaxshiroq anglashga, balki o'quvchining umumiy dunyoqarashini kengaytirishga ham xizmat qiladi.*

Аннотация: *Анализ художественного произведения помогает глубже понять содержание произведения, темы, образы и их взаимосвязь. Художественный стиль, язык и выразительность произведения позволяют определить его эстетическую ценность. Развивает аналитические, мыслительные и творческие навыки учащихся. Анализ художественного произведения служит не только лучшему пониманию литературного произведения, но и расширению общего кругозора читателя.*

Abstract: *An analysis of a work of art helps to gain a deeper understanding of the work's content, themes, images, and their interrelationships. The artistic style, language and expressions of the work allow us to determine its aesthetic value. Develops students' analytical, thinking, and creative writing skills. The analysis of a work of art serves not only to better understand the literary work, but also to expand the reader's general outlook.*

Kalit so'zlar: *uslub, syujet, kompazitsiya, metafora, narrator, kreativlik, empatiya, konflikt.*

Ключевые слова: *стиль, сюжет, композиция, метафора, рассказчик, творчество, сопереживание, конфликт.*

***Key words:** style, plot, composition, metaphor, narrator, creativity, empathy, conflict.*

Kirish: Badiiy asar tahlili bu –adabiy asarning mazmuni, tuzilishi, uslubi va muallifning maqsadini tushunish va baholash jarayonidir. Bu jarayonda asarning asosiy elementlari, masalan, syujet, qahramonlar, muhit, mavzu, g'oya, ramzlar, uslub va til ko'rib chiqiladi. Maqsad muallifning asarda yetkazmoqchi bo'lgan fikrlarini va ular qanday usullar bilan bayon etilganini aniqlashdir. Badiiy asar tahlili o'quvchiga asarning ichki mazmunini chuqurroq tushunishga, muallifning fikrini yaxshiroq anglashga va asarning adabiy qiymatini baholashga yordam beradi. Har bir o'quvchi asarni o'zicha o'qiydi, tushunadi, ta'sirlanadi, his etadi va o'zicha to'xtamga keladi. Bir asarni o'qigan bir qancha kishi o'rtasida o'zaro o'xshash fikrlar bo'lgani singari, bir-birini mutlaqo inkor etadigan qarashlar uchrashi ham tabiiy holdir. Badiiy asar inson ruhiyati manzarasi bo'lgani bois, o'quvchilarni eng qabariq, eng ta'sirchan tuyg'ular bilan yuzma-yuz qiladi. Shu tariqa, kitobxonlar o'zga odamlarning ruhiyatiga oshno bo'ladilar. Aslida, o'z tuyg'ularinida anglab yetishga qiynaladigan kitobxonni o'zgarlar hissiyotini tuyishga yo'naltirish uning sezimlarini ingichkalashtirib, kechinmalarini o'tkirlashtiradi. Estetik asoslar ustuvor bo'lgan badiiy tahlilgina o'quvchining qalb ko'zini ochib, uni tuyg'usizlik va hissizlikdan qutqaradi. Badiiy asar vositasida beparvolik va loqaydlikdan xalos bo'lish inson ma'naviy taraqqiyotida ulkan ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon asar haqida yanada kengroq va puxta fikr hosil qilishga imkon beradi.

Nazariy tahlil va yechimlar: Badiiy asar tahlili quyidagi asosiy bochqichlar bilan amalga oshirish mumkin.

1. Asarni tushunish

- **Mavzu va g'oya:** Asarning markaziy mavzusi va muallifning asosiy g'oyasini aniqlash.
- **Syujet (voqealar rivoji):** Voqealarning qanday rivojlanishini tushunish va muhim burilish nuqtalarini belgilash.
- **Qahramonlar:** Asar qahramonlarining xususiyatlari, ularning o'zgarishi va rivojlanishi.

2. Asarning tuzilishini tahlil qilish

- **Kompozitsiya:** Asarning tuzilishi va uning qismi qanday tuzilganini o'rganish. Voqealar qanday tartibda keltirilgan va bu tartibning asarga ta'siri.

3. Muallifning uslubi va tilini baholash

- **Til:** Muallifning til xususiyatlari, so'z tanlovi, nutq uslubi va frazeologizmlarni baholash.

- **Usul:** Muallifning usuli va uslubiy xususiyatlari (masalan, realizm, romantizm, modernizm yoki boshqa usullar).

4. Ramzlar va metaforalar

- **Ramzlar:** Asarda ishlatilgan ramzlar va ularning ma'nolarini tushunish.

- **Metaforalar:** Muallifning fikrlarini boyitish uchun ishlatilgan metaforik ifodalar.

5. Tarixiy va madaniy kontekstni hisobga olish

- **Tarixiy davr:** Asar qaysi tarixiy davrda yozilgan va bu davrning asar mazmuniga qanday ta'siri borligini tushunish.

- **Madaniy kontekst:** Asarning madaniy va ijtimoiy konteksti va uning asarga ta'siri.

6. Muallifning pozitsiyasi va tili

- **Muallifning nuqtai nazari:** Asarda muallifning qaysi nuqtai nazari aks ettirilganini aniqlash.

- **Hikoyachi(narrator)ning roli:** Hikoya qiluvchi kim va u voqealarni qanday yetkazishini tushunish.

7. Shaxsiy munosabat va ta'sir

- **Shaxsiy munosabat:** Asar sizga qanday ta'sir ko'rsatganligi haqida fikr bildirish.

- **Umumiy ta'sir:** Asarning umumiy ta'siri va ahamiyatini baholash.

Badiiy asarlarning shaxs shakllanishiga sezilarli ta'siri bor. Ular insonning dunyoqarashi, qadriyatlari, hissiyoti va ma'naviy rivojlanishiga ta'sir etadi. Quyida badiiy asarlarning shaxs shakllanishiga qanday ta'sir qilishi mumkinligini ko'rib chiqamiz:

1. Dunyoqarashni kengaytirish

- **Yangi dunyo va madaniyatlarni tanishtirish:** Badiiy asarlar turli millat, madaniyat va davrlardagi odamlarning hayoti, urf-odatlarini va an'analari bilan tanishtiradi.

- **Turli nuqtai nazarlarni ko'rish:** Asarlar turli qahramonlar va ularning turmush tarzi orqali turli nuqtai nazarlarni ochib beradi, bu esa o'quvchiga voqea va hodisalarga kengroq nigoz bilan qarashga yordam beradi.

2. Axloqiy va ma'naviy rivojlanish

- **Qadriyatlarni shakllantirish:** Badiiy asarlar turli axloqiy qadriyatlarni va insoniy fazilatlarni targ'ib qiladi, masalan, halollik, mardlik, mehr-shafqat, adolat.

- **Yaxshi va yomonni ajratish:** Qahramonlarning harakatlari va ularning oqibatlarini orqali o'quvchi yaxshi va yomonning farqini tushunadi.

3. Hissiy rivojlanish

- **Empatiya va tushunish qobiliyatini oshirish:** Qahramonlarning his-tuyg'ularini va ularning hayotiy sinovlarini tushunish orqali o'quvchi boshqalarning his-tuyg'ulariga hamdard bo'lishni o'rganadi.

- **Hissiy tajribalarni boyitish:** Badiiy asarlar o'quvchiga turli xil hissiy holatlarni his qilish imkonini beradi, bu esa uning hissiy tajribalarini boyitadi.

4. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish

- **Tasavvur va kreativlikni oshirish:** Badiiy asarlar turli voqea va tasvirlarni yaratishda tasavvur kuchini rivojlantiradi.

- **Yangi g'oyalar va fikrlarni kashf qilish:** Asarlarni o'qish orqali o'quvchi yangi g'oyalar va fikrlarga ilhomlanadi.

5. Til va nutq qobiliyatini rivojlantirish

- **So'z boyligini oshirish:** Badiiy asarlar boy til va ifoda vositalarini o'z ichiga oladi, bu esa o'quvchining so'z boyligini oshiradi.

- **Nutq madaniyatini shakllantirish:** Muallifning uslubi va tilidan o'rganish orqali o'quvchi nutq madaniyatini rivojlantiradi.

6. O'zini anglashi va o'zini rivojlantirish

- **O'zini topish va anglash:** Badiiy asarlar orqali o'quvchi o'zini, o'z his-tuyg'ularini va orzu-maqсадlarini anglashga yordam beradi.

- **Shaxsiy rivojlanish:** O'quvchi asar qahramonlarining o'zgarish jarayonlarini kuzatib, o'zining shaxsiy rivojlanish yo'lini topishi mumkin.

Badiiy asarlar insonning ichki dunyosini boyitadi, uning ruhiy va ma'naviy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, badiiy adabiyot inson tarbiyasida va shaxs shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Badiiy asar tahlilini to'g'ri amalga oshirishda quyidagi omillarga e'tibor berish kerak:

1. Asar mavzusi va g'oyasi

- **Mavzu:** Asarning markaziy mavzusini aniqlash. Bu sevgi, urush, adolat, inson tabiatining mohiyati kabi umumiy tushunchalar bo'lishi mumkin.

- **G'oya:** Asar orqali muallifning qanday xabarni yoki o'ylantiruvchi fikrni yetkazmoqchi ekanligini tushunish.

2. Syujet (Voqealar rivoji)

- **Kirish:** Asarning boshlanish qismi, qahramonlar va muhit tanishtiriladi.

- **Ziddiyat (Konflikt):** Asar davomida yuzaga keladigan asosiy muammo yoki qarama-qarshilik.

- **Kuchayish:** Ziddiyatning kuchayishi va muammoning rivojlanishi.

- **Kulminatsiya:** Ziddiyatning eng yuqori nuqtasi.

- **Yechim:** Muammoning hal etilishi va asarning yakuni.

3. Qahramonlar

- **Asosiy qahramonlar:** Asarning bosh qahramonlari kim va ularning xususiyatlari qanday.

- **Ikki tomoni bor qahramonlar:** Qahramonlarning yaxshi va yomon tomonlarini tahlil qilish.

- **Qahramonlarning rivojlanishi:** Asar davomida qahramonlar qanday o'zgaradi va rivojlanadi.

4. Tasvir va muhit

- **Muhit:** Asar voqealari qayerda va qachon sodir bo'ladi. Bu asarning atmosferasiga qanday ta'sir qiladi.

- **Tasvir:** Muallif tomonidan yaratilgan tasvirlar va ularning asarning umumiy mazmuniga ta'siri.

5. Uslub va til

- **Til:** Muallifning tili qanday. So'z tanlovi, nutq uslubi va frazeologizmlar.

- **Usul:** Muallifning usuli. Masalan, realizm, romantizm, modernizm yoki boshqa usullar.

6. Ramz va metaforalar

- **Ramzlar:** Asarda ishlatilgan ramzlar va ularning ma'nolari.

- **Metaforalar:** Muallifning fikrlarini boyitish uchun ishlatilgan metaforik ifodalar.

7. Asarning tuzilishi

- **Kompozitsiya:** Asarning tuzilishi va uning qismi qanday tuzilgan. Voqealar qanday tartibda keltirilgan.

8. Muallifning pozitsiyasi va tili

- **Muallifning nuqtai nazari:** Asarda muallifning qaysi nuqtai nazari aks ettirilgan.

- **Hikoyachi(narrator)ning roli:** Hikoya qiluvchi kim va u voqealarni qanday yetkazadi.

9. Tarixiy va madaniy kontekst

- **Tarixiy davr:** Asar qaysi tarixiy davrda yozilgan va bu davrning asar mazmuniga qanday ta'siri bor.

- **Madaniy kontekst:** Asarning madaniy va ijtimoiy konteksti.

10. Shaxsiy munosabat va ta'sir

- **Shaxsiy munosabat:** Asar sizga qanday ta'sir ko'rsatdi. Sizing shaxsiy fikringiz va his-tuyg'ularingiz.

- **Umumiy ta'sir:** Asarning umumiy ta'siri va ahamiyati.

Bu elementlarga e'tibor berib, badiiy asar tahlilini chuqur va puxta amalga oshirish mumkin.

Adabiy tahlil: Asarni besh qisimga bo’lib olsak, **kirish qismi** : Yoshlarning o’zaro sof muhabbati bilan boshlangan bu asar orqali yozuvchi “Hamma ham odam bo’lib tug’iladi, lekin shu nomga loyiq bo’lishni har kim ham uddasidan chiqolmaydi. **Odamiylik** nomli xislat bor-a? Bu so’z odamga, chin insonga xos xislat sanaladi” **g’oyasini** anglatmoachi edi. O’lmas Umarbekov bosh qahramonning **ikki tomonini**: yaxshi va yomon tomonini ko’rsatib berish bilan asarni **ziddiyatlar** bilan kuchaytirib, kluminatsion nuqtaga olib chiqadi. Uning shuhratparast bo’lib qolishiga, amalga intilishiga maktab payti orttirgan ruhiy jarohati sabab bo’ldi. Otasi amal otidan tushgandan so’ng unga nisbatan o’qituvchilarning muomalasi o’zgarishi, ayniqsa, otasining do’sti Husan amakining ikkiyuzlamachiliklari Abdullani butunlay o’zgartirib yuborgandi. U bu dunyoda eng zo’ri bo’lsanggina seni hurmat qilishadi, senga tavallo etishadi degan fikrga borgan edi. Yechim sifatida esa Abdulla Sayoraga uylanishni ko’radi. Gulchehraga uylangan holda qizni qiyin vaziyatdan qutqarish yoki Sayyoraga uylanib porloq kelajakni ta’minlashdan birini tanlash nuqtasi Abdullaning hayotidagi bir imtihon edi. Abdulla hayotning, odamiylikning shu sinovidan qoqildi. Hayotda yaxshi talaba bo’lolmadi. Qanchalab insonning baxtsizliklariga, dilxiraliklariga sabab bo’ladi. Odamlar ko’pincha shuhratparastlik sabab ko’plab qabihliklarga, ikkiyuzlamachiliklarga qo’l uradi. Bunga yorqin namuna esa Abdulla va Gulchehra timsolida ko’rilib turibdi.

Xulosa: Badiiy asar tahlili o’quvchi uchun nafaqat estetik zavq, balki shaxsiy va aqliy rivojlanish imkoniyatini ham taqdim etadi. Asarni chuqur tahlil qilish orqali o’quvchi uning mazmun-mohiyatini yanada teran anglab, muallifning fikrlarini to’g’ri talqin qilishni o’rganadi. Ushbu jarayon asar tarkibidagi mavzu, syujet, qahramonlar, uslub, ramzlar va madaniy kontekstni to’liq tushunishga yordam beradi. Shuningdek, badiiy tahlil insonga empatiya, hamdardlik, va madaniy bilimlarni boyitish orqali inson ruhiyatini yanada mustahkamlaydi. Shunday qilib, badiiy asarlar nafaqat o’quvchi uchun qiziqarli voqealar bayoni, balki uning ruhiy va ma’naviy shakllanishida muhim rol o’ynaydigan vosita sifatida maydonga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Xo`jayev .A, “Badiiy asar tahlili” maqola Qashqadaryo VXTXQTMOI Til va adabiyot ta’limi kafedrası o`qituvchisi.
2. To`rayeva. B, Ko`chimov. U “Adabiyotshunoslik” Toshkent -2021, 97-bet
3. Doniyorova Shoir. Istiqlol davri o`zbek romanlarida milliy ruh va qahramon muammosi: Fil.fan.d-ri.diss. Toshkent, 2022.
4. Ozod Sharafiddinov “XX asr o`zbek adabiyoti”
5. Olim Sharafiddinov “Tanqid va ijod”

MAKTABLARDA AKT DAN FOYDALANISHNING MUHIM JIXATLARI NAMANGAN VILOYATI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI BOSHQARMASI

Urunova Nilufar Mirabdullayevna

To`raqo`rg`on tumani Maktabgacha va maktab ta’limi bo`limiga qarashli 5-sonli umumiy o`rta ta’lim maktabi Ikkinchi toifali “Informatika va AT” fani o`qituvchisi
urinovan185@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada umumiy ta’lim maktablarining ta’lim jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning muxim jixatlari haqida fikrlar berilgan. Ta’lim berish faqat texnologiya tufayligina takomillashmadi, bu soha xozir axborot texnologiyalari va informatika kabi fanlarni ham qamrab oladi. Hozir ko`pchilik sinflarda kompyuterlardan foydalanib kelinmoqda. O`quvchilarga internet orqali manba va ko`rsatmalar berish,shuningdek, vazifalarni portalga yuklash imkoniyatiga ega xizmatlar taqdim etilmoqda. O`qitish va taqdimot jarayonlarini yaxshilash uchun interaktiv doskalardan foydalanilmoqda. Taqdimotni sifati va resurslarni taqsimlash darajasi oshgani sababli endilikda o`quvchilar fanni chuqurroq o`rganishlari lozimligi, o`rganishlar davomida nimalarga etibor berish kerakligi haqida fikrlar berilgan.*

Kalit so`z: *Axborot, kommunikatsiya, individual , **konseptual**, global, motivatsiya, operatsional, videolavha, model, sxema.*



IMPORTANT ASPECTS OF USING ICT IN SCHOOLS NAMANGAN REGION DEPARTMENT OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION

Urunova Nilufar Mirabdullayevna

*General Secondary School No. 5 under the Department of Preschool and
School Education of the To'raqo'rg'on District Second-category teacher of
"Informatics and IT" urinovan185@gmail.com*

***Annotation:** This article discusses important aspects of using information and communication technologies in the educational process in general education schools. The educational process has improved not only due to technology but also encompasses subjects such as information technology and computer science. Nowadays, computers are widely used in many classrooms. Services are provided that allow students to access resources and instructions via the internet and upload assignments to the portal. Interactive whiteboards are used to enhance the teaching and presentation processes. The article also provides opinions on how, due to the increased quality of presentations and the level of resource distribution, students should study the subject more deeply and what to pay attention to during the learning process.*

***Key word:** Information, communication, individual, conceptual, global, motivation, operational, video, model, scheme.*

ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИКТ В ШКОЛАХ НАМАНГАНСКОЕ ОБЛАСТНОЕ УПРАВЛЕНИЕ ДОШКОЛЬНОГО И ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Урунова Нилуфар Мирабдуллаевна

*Общеобразовательная школа № 5 при Отделе дошкольного и школьного
образования Туракурганского района Учитель второй категории по предмету
"Информатика и информационные технологии" urinovan185@gmail.com*

Аннотация: В данной статье обсуждаются важные аспекты использования информационно-коммуникационных технологий в процессе обучения в общеобразовательных школах. Образовательный процесс улучшился не только благодаря технологиям, но и включает в себя такие предметы, как информационные технологии и информатика. В настоящее время во многих классах активно используются компьютеры. Предоставляются услуги, позволяющие учащимся получать источники и инструкции через интернет, а также загружать задания на портал. Для улучшения процесса обучения и проведения презентаций используются интерактивные доски. В статье также обсуждаются мнения о том, что благодаря повышению качества презентаций и уровня распределения ресурсов, учащиеся должны глубже изучать предмет и на что следует обращать внимание в процессе обучения.

Ключевые слова: Информация, коммуникация, индивидуальная, концептуальная, глобальная, мотивация, оперативная, видео, модель, схема.

Kirish.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) ta'lim tizimidagi o'рни va ahamiyati so'nggi yillarda keskin o'zgarган. Maktablarda AKTni joriy etish, ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini samarali ravishda rivojlantirishda asosiy vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekistonda 2021 yilda "Ta'lim tizimini raqamlashtirish" strategiyasi tasdiqlanganidan keyin maktablarda AKTdan foydalanishning samaradorligi yana-da ortdi. Bu texnologiyalar o'qituvchilar va o'quvchilarga yangi imkoniyatlar yaratmoqda, xususan, interaktiv ta'lim uslublari, masofaviy ta'lim, raqamli resurslar, va ijtimoiy tarmoqlar orqali ta'limni yanada samarali qilish mumkin bo'ldi. Ushbu maqolada maktablardagi AKTdan foydalanishning muhim jihatlari, ularning ta'lim jarayoniga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi. Bugungi globalizatsiya va texnologiyalar asrida ta'lim jarayonida AKT (Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari)ning qo'llanilishi keng ko'lamda o'rganilmoqda. AKT o'qituvchilarga ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning faolligini kuchaytirish va ta'lim resurslariga keng imkoniyatlar

yaratish kabi ko'plab imkoniyatlarni taqdim etadi. Ushbu maqolaning maqsadi - maktablarda AKT dan foydalanishning asosiy afzalliklarini tahlil qilish va uni ta'lim jarayonida samarali qo'llashning usullarini o'rganish.

Metodologiya.

Maqolada AKTdan foydalanishning maktabda o'quv jarayonini qanday samarali o'zgartirishini aniqlash uchun keyingi metodlar qo'llaniladi:

1. Literatura tahlili: Mavzu bo'yicha mavjud ilmiy va amaliy tadqiqotlar, ilmiy maqolalar, va davlat ta'lim siyosati hujjatlari o'rganiladi.

2. So'rovnomalar: O'qituvchilar va o'quvchilarga AKTdan foydalanish bilan bog'liq savollar beriladi, bu esa ularning AKTdan foydalanishga bo'lgan munosabatlarini tushunishga yordam beradi.

3. Kuzatuvlar: Maktablarda AKTdan foydalanish jarayoni kuzatilib, o'qituvchilar va o'quvchilarning o'zaro faoliyati o'rganiladi.

Natijalar

So'rovnoma va kuzatuvlar natijalariga ko'ra, maktablarda AKTni qo'llashning bir qancha asosiy jihatlari aniqlangan:

1. Interaktiv darslar va multimedia materiallari: AKT yordamida o'quvchilarga vizual va audio resurslar orqali yangi bilimlar etkaziladi, bu esa o'quvchilarning diqqatini oshiradi va o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

2. Masofaviy ta'lim: COVID-19 pandemiyasi davrida masofaviy ta'lim maktablarda AKTning foydali imkoniyatlarini ko'rsatdi, masofaviy platformalar orqali o'quvchilar turli xil interaktiv vositalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishdi.

3. Kollaborativ o'qish: AKT yordamida o'quvchilar o'zaro onlayn guruhlar tashkil etib, bir-birlari bilan axborot almashish imkoniyatiga ega bo'ldilar, bu esa jamoaviy o'rganishning samaradorligini oshirdi.

4. O'quvchilarning faolligini oshirish: AKT vositalari orqali ta'lim jarayonida o'quvchilarning qiziqishi va faolligi sezilarli darajada oshganligi qayd etildi. Interaktiv doskalar va multimedia materiallari yordamida o'quvchilar darslarda faol ishtirok etishmoqda. Planshetlar va kompyuterlardan foydalanish o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini yaxshilashga yordam bergan.

5. Ta'lim resurslariga kengroq imkoniyatlar: Internet orqali turli ta'lim resurslariga kirish imkoniyati o'quvchilar bilim doirasini kengaytirishga yordam bergan. Masalan, onlayn darslar, vebinarlar va elektron kitoblar keng qo'llanilmoqda. Masofaviy ta'lim platformalari orqali o'quvchilar va o'qituvchilar istalgan vaqtda va joyda ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lgan.

6. Individual yondashuvni ta'minlash: AKT yordamida har bir o'quvchiga individual yondashuvni amalga oshirish osonlashgan. Masalan, ta'lim dasturlar yordamida o'quvchilarning bilim darajasi va qiziqishlariga mos dars materiallari tayyorlangan. Ta'lim jarayonini monitoring qilish va natijalarni tahlil qilishda AKT vositalarining qo'llanilishi samaradorlikni oshirishga yordam bergan.

7. O'qituvchilarning malakasini oshirish: O'qituvchilar uchun onlayn kurslar va treninglar orqali AKT bo'yicha malakalarini oshirish imkoniyatlari mavjud bo'lib, bu ta'lim sifatini yaxshilashda muhim rol o'ynagan. O'qituvchilar AKT vositalaridan foydalanib, darslarni interaktiv va qiziqarli qilib tashkil etishlari natijasida o'quvchilarning darslarga qiziqishi ortgan.

Maktablarda AKT dan foydalanishning muhim jihatlari

1. AKTning ta'lim jarayonidagi roli: AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) ta'lim jarayonida muhim rol o'ynaydi, chunki u ta'lim berish va o'rganish usullarini sezilarli darajada o'zgartiradi. AKT yordamida ta'lim jarayonida interaktivlik oshadi va o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi aloqa yaxshilanadi.

2. O'quvchilarning motivatsiyasini oshirish: AKT vositalaridan foydalanish o'quvchilarning o'rganish motivatsiyasini oshiradi. Masalan, o'quv materiallarini multimediya shaklida taqdim etish orqali o'quvchilarni qiziqtirish mumkin.

3. Ta'lim sifatini yaxshilash: Interaktiv ta'lim dasturlari, elektron darsliklar va o'quv platformalari yordamida ta'lim sifatini oshirish mumkin. AKT vositalari yordamida o'qituvchilar ta'lim mazmunini boyitishi va uni qiziqarli va tushunarli qilib taqdim etishi mumkin.

4. AKT vositalaridan foydalanishning pedagogik jihatlari: AKT vositalarini pedagogik maqsadlarda foydalanish orqali ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni joriy etish mumkin. Bu esa o'quvchilarning mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

5. AKT vositalaridan foydalanishning iqtisodiy jihatlari: AKT vositalarining iqtisodiy jihatlari ham muhimdir. Masalan, elektron darsliklar va o'quv materiallari yordamida bosma materiallarga bo'lgan ehtiyoj kamayadi, bu esa xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi.

6. AKT vositalarining afzalliklari: AKT vositalarining asosiy afzalliklari orasida o'quvchilar uchun qulaylik, o'quv materiallariga tezkor kirish imkoni, ta'lim jarayonining shaffofligi va ta'lim sifatining yaxshilanishi kabilar kiradi.

7. AKT vositalaridan foydalanishning zamonaviy tendentsiyalari: So'nggi yillarda AKT vositalarining ta'lim jarayonidagi roli oshib bormoqda. Masalan, onlayn ta'lim platformalari, masofaviy ta'lim, virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari, sun'iy intellekt va robototexnika kabi innovatsion texnologiyalar ta'lim jarayonida keng qo'llanilmoqda.

8. Muammolar va imkoniyatlar: AKT vositalaridan foydalanishda ba'zi muammolar ham mavjud. Masalan, texnologik infratuzilmaning yetishmasligi, o'qituvchilarning yetarli darajada tayyorlanmaganligi va moliyaviy resurslarning cheklanganligi kabilar. Shu bilan birga, AKT vositalarining ta'lim jarayonidagi imkoniyatlari katta va ularni to'g'ri foydalanish orqali ta'lim sifatini sezilarli darajada yaxshilash mumkin.

Muhokama.

AKTning ta'lim jarayoniga qo'shgan hissasi katta. Biroq, uning samarali joriy etilishi ba'zi muammolarni ham keltirib chiqaradi:

Infratuzilma masalalari: Maktablarda internet tarmog'ining yetarli darajada rivojlanmaganligi, kompyuterlar va boshqa texnologik vositalarning yetishmasligi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'qituvchilarning malakasi: AKTdan samarali foydalanish uchun o'qituvchilar o'z bilim va ko'nikmalarini muntazam ravishda yangilab turishlari kerak. O'qituvchilarning AKTga bo'lgan tayyorgarlik darajasi vaqti-vaqti bilan yaxshilanib borayotgan bo'lsa-da, bu masala hal etilmagan.

O'quvchilarni motivatsiya qilish: AKTning samarali qo'llanilishi uchun o'quvchilarni yangi texnologiyalarga qiziqtirish zarur. Buning uchun interaktiv va innovatsion yondashuvlar qo'llanilishi lozim.

Tadqiqot natijalari maktablarda AKTdan foydalanishning ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. AKT yordamida o'quvchilarning faolligi oshib, ta'lim resurslariga kengroq imkoniyatlar yaratilgan. Shuningdek, o'qituvchilar malakasini oshirishda AKTning o'rni katta bo'lgan. Tadqiqotning cheklovlari sifatida ayrim maktablarda AKT vositalarining yetarli darajada mavjud emasligi, o'qituvchilarning malakasi yetarli darajada bo'lmagani va texnologik infratuzilmaning rivojlanmaganligi qayd etildi. Bunday holatlarda, AKTning to'liq imkoniyatlaridan foydalanish qiyin bo'lgan. Kelgusidagi tadqiqotlar uchun AKT vositalarining maktablarda keng qo'llanilishi bo'yicha aniqroq ko'rsatmalar ishlab chiqish va ularni amaliyotga tadbiiq etish lozim. Shuningdek, o'qituvchilarning malakasini oshirish uchun maxsus treninglar tashkil qilish va texnologik infratuzilmani yaxshilash lozim.

Xulosa.

Maktablarda AKTdan foydalanish ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Texnologiyalarni joriy etishning samaradorligi o'qituvchilar va o'quvchilarning AKTga bo'lgan tayyorgarlik darajasiga, infratuzilma sharoitlariga va ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi darajasiga bog'liq. Kelajakda maktablarda AKTning yanada samarali qo'llanilishi uchun tegishli malaka oshirish dasturlari va infratuzilma rivojlantirish ishlari amalga oshirilishi zarur. Maktablarda AKTdan foydalanish ta'lim jarayonini zamonaviy va samarali qilib tashkil etishga yordam beradi. Bu texnologiyalar yordamida o'quvchilarning bilim olish jarayonini qiziqarli va interaktiv qilib tashkil etish mumkin. AKT vositalarining to'g'ri va samarali tatbiiqi esa ta'lim sifatini oshirishda katta ahamiyatga ega. Ushbu maqola natijalari, maktablarda AKTdan foydalanishning muhim jihatlarini chuqurroq o'rganish va amaliyotga tadbiiq etish uchun qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qosimov, U. (2023). "Maktablarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tatbiiqi." Ta'lim va Texnologiya, 12(4), 45-58.
2. Karimova, N. (2024). "O'zbekiston ta'lim tizimida AKTning roli." Zamonaviy Ta'lim, 7(1), 22-35.

3. Rasulov, T. (2024). "AKT yordamida ta'lim sifatini oshirish yo'llari." *Ilm va Amaliyot*, 3(2), 30-42.
7. Shukurov, S. (2020). "Axborot texnologiyalarining ta'limdagi roli va ahamiyati." O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini joriy etish. Toshkent: O'qituvchi.
8. Mammadov, J. (2019). "Maktablarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni." Ta'limda innovatsion metodlar va axborot texnologiyalari. Boku: Nizami.
9. Ruziev, I. (2021). "Axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi samaradorligi." Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'quv jarayoniga integratsiyasi. Toshkent: Fan va texnologiya.
10. Yusufov, N. (2022). "AKT asosida maktablarda o'quvchilarning ta'lim jarayonini samarali tashkil etish." O'zbekiston ta'limi: istiqbollar va yutuqlar. Toshkent: O'zbek davlat pedagogika universiteti.
11. Hasanova, D. (2018). "Maktablarda axborot texnologiyalarini tatbiq etishning psixologik va pedagogik jihatlari." *Pedagogik ilmiy-texnik jurnali*. Toshkent: Innovatsiya va ta'lim texnologiyalari.
12. Mirzohidov, A. (2023). "Axborot texnologiyalari yordamida ta'limni takomillashtirish." Ta'lim tizimidagi yangiliklar va AKT asosidagi ta'lim. Toshkent: Ma'naviyat.

O'QITUVCHINING KONFLIKTALOGIK TAYYORGARLIGINING KASBIY FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI

Jamoldinova Sayyora Nodirbek qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika kafedrası

o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Maqolada o'qituvchining pedagogik faoliyatdagi o'qituvchilarning kasbiy faoliyati natijasidagi kasbiga oid va shaxsiy ko'nikmalari va shu kungacha bo'lgan faoliyati natijasida olgan bilim,*

ko'nikma va malakalarini amaliyotda qo'llashdagi turli xil nazariyalar ifoda etilgan.

***Tayanch so'zlar:** kompetensiya, pedagogik kompetensiya, kasbiy kompetensiya, kompetentlik, faoliyatli, kommunikativ, shaxsiy kompetensiya, konfliktologiya, konfliktologik tayyorgarlik, kasbiy faoliyat.*

***Аннотация:** В статье рассмотрены различные теории практического применения знаний, умений и навыков педагога в результате профессиональной деятельности педагога в педагогической деятельности, в результате профессиональной деятельности педагога и личностного мастерства.*

***Ключевые слова:** компетентность, педагогическая компетентность, профессиональная компетентность, компетентность, деятельная, коммуникативная, личностная компетентность, конфликтология, конфликтологическая подготовка, профессиональная деятельность.*

***Abstract:** The article describes various theories of practical application of the knowledge, skills, and abilities of the teacher as a result of the professional activity of the teacher in the pedagogical activity, as a result of the professional activity of the teacher and the personal skills.*

***Key words:** competence, pedagogical competence, professional competence, competence, active, communicative, personal competence, conflictology, conflictological preparation, professional activity.*

Pedagogik faoliyat turli yosh toifalariga mansub turli g'oyalar, qarashlar va hayotiy tajribalarga ega bo'lgan ko'p sonli odamlarning o'zaro ta'siri bilan tavsiflanadi bu muqarrar ravishda ziddiyatli vaziyatlarni keltirib chiqaradi, ularni hal qilish uchun o'qituvchi konfliktalogik madaniyatga ega bo'lishi kerak. Konfliktalogik madaniyat kasbiy o'zaro ta'sir jarayonlarini (muloqot, o'zaro faoliyat, munosabatlar) tartibga solish, kasbiy muhitning konfliktogen parametrlarini o'zgartirishdan iborat. Konfliktalogik madaniyat axborot, kommunikativ, psixologik, akmeologik, kasbiy madaniyatning maxsus turlari bilan chambarchas bog'liq. Uning konstruktiv funksiyasi kasbiy faoliyat sub'yektlari

o'rtasidagi munosabatalarni uyg'unlashtirish, ularning o'zaro harakatlarini uyg'unlashtirish, samarali kasbiy faoliyatni ta'minlash, keyingi nizolarning oldini olish uchun nizolarga moyil bo'lgan pedagogik muhitni o'zgartirishdan iborat. O'qituvchining kasbiy faoliyati jarayonida sub'yektiv munosabatlarni ta'minlaydigan shartlar:

- pedagogik jamoada qulay hissiy-psixologik muhitni saqlash;
- ta'lim jarayonida hamkorlikni amalga oshirish;
- kasbiy faoliyatga shaxsiy manba sifatida munosabatda kasbiy va shaxsiy o'sish.

Yuqoridagi o'qituvchi faoliyatidagi sub'yektiv munosabatlarni bir maromda olib borishni ta'minlaydigan shartlar bu har bir o'qituvchining pedagogic faoliyatida muhim hisoblanadi. Ya'ni pedagogik faoliyatdagi bu su'byektiv munosabatlar har bir pedagogning faoliyatni yanada maxsuldorligini oshirishda ham ishtirok etadi. Albatta su'byekt bu birgalikdagi faoliyat yurituvchi ishtirokchilar hisoblanadi. Pedagogik faoliyatda o'zaro sub'yektlarning o'zaro bir-birlariga ta'siri juda kata bo'ladi. Jamoada o'zaro muhit yaxshi bo'lsa su'byektlar orasidagi o'zaro munosabat yaxshi bo'lsa bu ham uning faoliyatiga ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Uning uchun bir jamoada faoliyat olib boruvchi su'byektlar har biri o'z zimmasiga yuklatilgan vazifani o'z vaqtida samarali bajarishga tayyor bo'lishlari kerak va su'yektlar o'zaro bir-birlarini tushunishlari kerak.

D.I.Moisevning ta'kidlashicha zamonaviy mahalliy tadqiqotchilarning aksariyati pedagogik faoliyatning intensivligining sabablari ob'yektiv va su'yektiv omillarga bog'liq deb hisoblashadi.

Ob'yektiv omillar deganda vaziyatning tashqi sharoitlari ya'ni faoliyatning murakkab, shiddatli sharoitlari (ish kunining ish yuki, yangi qiyin vaziyatga duch kelishi, intellektual ish yukining ortishi va boshqalar)tushuniladi. Sub'yektiv omillarga inson kasbiy faoliyatining muayyan qiyinchiliklariga shu jumladan shaxsiy (motivatsion, hissiy, ijtimoiy va boshqa) xususiyatlarning haddan tashqari sezgirligini qo'zg'atadigan shaxsiy xususiyatlar kiradi.

N.V.Kuzmina pedagogik qiyinchilik tushunchasini " faoliyatning tashqi omillari ta'sirida yuzaga kelgan omillarning o'ziga xos xususiyatiga, shaxsning

faoliyatiga tarbiyaviy axloqiy va jismoniy tayyorgarligiga bog’liq bo’lgan sub’yektiv zo’riqish, og’irlik, norozilik holati” deb ta’riflaydi. E.M.Semenov : pedagogik faoliyatning intensivligini tahlil qilganda, tashqi va ichki omillar dialektikasini, ob’yektiv va sub’yektiv sabablarining birligini esga olishi kerak. Keskin vaziyatning shaxs faoliyatiga ta’siri nafaqat vazifaning xususiyatiga, tashqi muhitga, balki uning individual xususiyatlariga, xatti-harakatlar motivlariga ham bog’liq, tajriba bilim ko’nikma asab tizimining asosiy xossalari” deb ta’riflab o’tadi.

Shuni ta’kidlash kerakki konfliktologiya madaniyati sohasidagi bilimlarni o’zlashtirish ushbu bilim va ko’nikmalarni konfliktlarni boshqarish uchun zarur bo’lgan samaradorlik bilan qo’llash imkonini beradigan shaxsiy va kasbiy fazilatlarni rivojlantirish bilan chanbarchas bog’liq.

Shaxs ichidagi ziddiyatli vaziyatlar va konfliktlar o’quv faoliyatining barcha tarkibiy qismlariga xosdir:

- ehtiyoj holatlari (motivatsion konfliktlar- “men buni qilmayman, chunki bu menga kerak emas, meni qiziqtirmaydi”);
- harakatlarni yo’naltirish va bajarish (kognitiv konfliktlar “ Qanday qilishni bilmayman”, “Men nima qilishni tushunmayapman”),
- baholash harakatlari (yutuq mojarolari – nega “2”, men hamma narsaga javob berdim”, men bu mavzuni bilaman, “3” ga qaraganda yaxshiroq).

Har bir nizoli vaziyatlarni kelib chiqishida nizoni kelib chiqishida ishtirok etuvchilarning psixologik holatlariga bo’g’liq. Chunki har qanday vaziyatni inson uni qanday tushunishiga va qabul qilishiga va unga qanday munosabat bildirishiga bo’g’liq bo’ladi. Misol uchun shaxsning temperament xususiyatlariga bo’g’liq: ekstrovertlar har qanday vaziyatga shoshma-shosharlik bilan qabul qiladi va uni to’liqligicha tushunmay kichik detallarini hisobga olmaydi va noto’g’ri tahlil qiladi bu ham nizoni keliub chiqishiga olib keladi. Aksincha introvertlar nizoli vaziyatlarni sekin qabul qiladi lekin uni to’g’ri tushunib unga to’g’ri munosabatda bo’ladilar. Lekin bu ham sekin munosabat bildirganliklari uchun ba’zida nizoni keltirib chiqarishi mumkin.

O’qituvchining kasbiy faoliyatning eng muhim xususiyatlaridan biri uning birgalikdagi xususiyatidir. Bu, albatta, o’qituvchini va u o’rgatgan, tarbiyalaydigan,

rivojlantiradigan kishini o‘z ichiga oladi. Ushbu faoliyat o‘qituvchining o‘zini o‘zi anglashini va uning talabani o‘zgartirishdagi maqsadli ishtirokini (uning tayyorgarlik, tarbiya, rivojlanish, ta’lim darajasi) birlashtiradi.

Pedagoglarning kasbiy faoliyatni mustaqil ijtimoiy hodisa sifatida tavsiflab, uning quyidagi xususiyatlarini ko‘rsatishimiz mumkin:

Birinchidan, u o‘ziga xos tarixiy xususiyatga ega. Demak, bunday faoliyatning maqsadi, mazmuni va xarakteri tarixiy voqelikning o‘zgarishiga mos ravishda o‘zgaradi. Masalan, L.N. Tolstoy o‘z davri maktabini ta’limning dogmatik tabiati, byurokratizm, o‘quvchi shaxsiga e’tibor va qiziqishning kamligi bilan tanqid qilib, maktabda insonparvarlik munosabatlariga, o‘quvchining talab va manfaatlarini hisobga olishga chaqirdi. Uning shaxsiyatining shunday rivojlanishi uchun o‘sib borayotgan insonni barkamol, yuksak axloqiy, ijodkor qiladi. “Tarbiyalash, rivojlantirish, ...bizda ongsiz ravishda bitta maqsad bo‘lishi kerak: haqiqat, go‘zallik va ezgulik ma’nosida eng katta uyg‘unlikka erishish”, deb yozgan edi L.N. Tolstoy. O‘z davri maktabining barcha kamchiliklarini hozirgi zamon psixologiyasi va falsafasida insonning mohiyati, uning hayotining mazmuni bilan bog‘liq rivojlanmagan muammoning mahsuli sifatida ko‘rib, L.N. Tolstoy dehqon bolalari uchun Yasnaya Polyana maktabini tashkil etishda ushbu muammoni o‘zi tushunishini amalga oshirishga muvaffaqiyatli harakat qildi.

Ikkinchidan, pedagogik faoliyat kattalar ijtimoiy qimmatli faoliyatining alohida turidir. Bu ishning ijtimoiy ahamiyati shundaki, har qanday jamiyat, davlatning ma’naviy, iqtisodiy qudrati uning a’zolarining madaniyatli shaxs sifatida o‘zini-o‘zi kamol toptirishi bilan bevosita bog‘liqdir. Insonning ma’naviy olami boyib boradi. Uning hayotiy faoliyatining turli sohaları takomillashib, o‘ziga, boshqa odamlarga, tabiatga axloqiy munosabat shakllanmoqda. Ma’naviy va moddiy qadriyatlar va shu tufayli jamiyat taraqqiyoti, uning ilg‘or rivojlanishi amalga oshiriladi. Har bir insoniyat jamiyati pedagogik faoliyatning ijobiy natijalaridan manfaatdor. Agar uning a’zolari tanazzulga uchrasa, hech bir jamiyat to‘liq rivojlana olmaydi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda “O‘qituvchining kasbiy standarti” talablarini hisobga olgan holda, ziddiyatli vaziyatlarda o‘qituvchining xatti-

harakatlari uning shaxsiy xususiyatlariga bog'liqligini anglash kerak. Bu xulosa xususan I.A.Kurochkina va boshqa mutaxassislar tomonidan ta'kidlangan. Shunga ko'ra o'qituvchining konfliktologik tayyorgarligi kasbiy nizolarni idrok etish va keyinchalik asbiy nizolar sharoitida kasbiy funksiyalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan maxsus, kasbiy yo'naltirilgan konfliktologik bilimlarni o'zlashtirish va ulardan foydalanish bilan tavsiflanadi.

Bizning taraqqiyotimizda o'qituvchining konfliktologiya madaniyati ostida ta'lim muhitidagi nizolarni idrok etish, tahlil qilish va hal qilish uchun zarur bo'lgan kasbiy yo'naltirilgan konfliktologiya bilimlarini o'zlashtirish va ulardan foydalanishni tushunamiz. Qadriyat-semantik madaniyatni konfliktologik madaniyatning markazida turadi. Shaxsiyatning hissiy va kommunikativ sohasi muammolarni hal qilishda va konstruktiv usullar bilan qarama – qarshilikni bartaraf etish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Konfliktologik kompetensiya ajralmas qismi sifatida hisoblanadi, shaxsning kasbiy rivojlanishi va kasbiy faoliyatning ijtimoiy va individual darajalarida amalga oshiriladi. O'qituvchining konfliktologik tayyorgarligi ijtimoiy kompetensiyani anglatadi, idrok etish, kommunikativ shaxslararo va boshqaruv qobiliyatlari xususiyatlarini o'z ichiga oladi, maxsus kasbiy faoliyatning amaliy(vaziyatli) jihatlarini amalga oshiradi va qadriyatlar, ma'nolar, motivlar, e'tiqodlarning maxsus tizimini yaratishni o'z ichiga oladi. Qadriyat madaniyati bu har bir xalqning yoki elatning o'ziga xos tarbiya jarayonidagi qadrlab keladigan faoliyatlari har bir illatning urf-odati, fikri, nutqi, faoliyati, tashqi ko'rinishi va insonlar bilan qanday munosabat o'rnatishi uning yurishi va turishida ham namoyon bo'ladi. Har bir insonning tashqi jarayonlarga munosabatini qanday darajada ekanligi ham shaxsning konfliktli madaniyatini tarkib topishida muhim hisoblanadi.

Har qanday jamiyat o'zining har qanday davrdagi rivojlanish darajasidan qat'i nazar, zidiyatlarga to'la. Qarama qarshiliksiz jamiyat yaratish g'oyalari faylasuflar va olimlar tomonidan butun dunyo sivilizatsiyasining rivojlanishi davomida- Platondan (miloddan avvalgi V asrdagi qadimgi yunon faylasufi, birinchi “ideal” dan birini yaratgan) ilgari surilgan. Davlat modellari masalan T.Parsons (XX asrning amerikalik faylasufi, zamonaviy jamiyatning konfliktsiz modelini taklif

etgan, ammo, ijtimoiy hayot amaliyoti shuni ko'rsatadiki, konfliktlar yo'qolmaydi, ular har qanday jamiyatda saqlanib qoladi, faqat o'z shakllari va turlari o'zgaradi.

Konflikt an'anaviy ravishda zamonaviy jamiyat hayotida muhim o'rin tutadi. Zamonaviy jamiyatni ko'rib chiqish uchun ko'proq sabablar mavjud . Nemis sotsiologi va faylasufi V.Bek yozganidek "falokatlar hafvini tashuvchi tavakkal jamiyat" va shunga ko'ra xavf va nizolar o'rtasidagi ichki bog'liqlik mavjudligini hisobga olgan holda, zamonaviy jamiyatni "mojarolar jamiyati" deb hisoblash juda o'rinli. Konfliktning bugungi kundagi ijtimoiy hayotdagi alohida o'рни konfliktologiyaning fn sifatida rivojlanishiga kuchli turtki beribgina qolmay, balki konflikt nazariyasining o'ziga xos universal gumanitar metateoriya sifatida qarashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. L.N. Tolstoy Kimdan va kimdan yozishni, dehqon bolalari bizdan yoki biz dehqon bolalaridan?. Ped. soch., M., 1989.
2. Axmedova M.T., Rashidov H.F. Pedagogik konfliktlarni bartaraf etish dars intizomini yaxshilash omili sifatida. Maktab va hayot. - T., 2015, 1-son. - B. 12-16.
3. Баныкина С.В. Конфликт в современной школе: изучение и управление /С. В. Баныкина, Е. И. Степанов. - М.: Ком Книга, 2006. -184 с.
4. Jumayev R.Z. Konfliktologiya asoslari, asosiy tushuncha va tamoyillari. o'quv qo'llanma, 2015.
5. R.Musurmonov, S.N.Jamoldinova. "Teacher communication as a Tool for the Prevention of Pedagogikal conflicts" . Pindus journal of Culture, literature, and ELT. December 2021. Volume: 12, (54-56 bet.)
6. S.N.Jamoldinova. "Norms of teacher-student relationship to prevent konflikt" . Galaxy international interdisciplinary research journal(giirj). Volume 9, Issue 12, December, 2021.

NEYROPEDAGOGIKA ILMIY BILIMLARNING YANGI SOHASI

Umarova Gavharxon Muxtorjon qizi

Ilmiy raxbar: Azamat Boydavlatov

Namangan davlat pedagogika instituti

Pedagogika yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada neyropedagogikaning kelib chiqish tarixi va rivojlanish bosqichlari, shuningdek, neyropedagogikaning hozirgi zamon pedagogikasida tutgan o'рни hamda istiqboli haqida qarashlar aks etgan.

Kalit so'zlar: neyropsixopedagogika, kibernetika, neyronlar, pedagogika, neyropedagogika, diskalikulya, disleksiya, disgrafiya, xotira faoliyati, ta'lim.

Аннотация: В данной статье изложены взгляды на историю и этапы развития нейропедагогике, а также на роль и перспективы нейропедагогике в современной педагогике.

Ключевые слова: нейropsixopedagogika, kibernetika, neyronlar, pedagogika, neyropedagogika, diskalkulya, disleksiya, disgrafiya, aktivnost' pam'яти, obrazovanie.

Annotation: This article contains views on the history and development stages of neuropedagogy, as well as the role and perspective of neuropedagogy in modern pedagogy.

Key words: neuropsychopedagogy, cybernetics, neurons, pedagogy, neuropedagogy, dyscalculia, dyslexia, dysgraphia, memory activity, education.

Pedagogika fani taraqqiy etib borgani sari pedagogik fanlari tizimiga kiruvchi mustaqil sohalar soni tobora ortib bormoqda. Itimoiy ehtiyojlar, ta'lim sarhadlarining kengayib borishi asnosida o'tgan asrning 60-70 yillarida pedagogika fani bir qadar rivojlanib, tarmoqlarga bo'linib tadqiq etila boshlandi. Buning natijasida neyropedagogika yangi fan sifatida vujudga keldi. Neyropedagogika - bu ta'limga yangicha qarash bo'lib, miya faoliyati sohasidagi tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan ta'lim strategiyalari va texnologiyalarini amalga oshirishga

asoslangan. Neyropedagogika pedagogika, psixologiya, nevrologiya, kibernetikaning klassik asoslariga asoslangan.

Neyropedagogikaning asosiy maqsadi maktabgacha va maktab yoshi davridagi bolalarda rivojlanishning buzilishidagi muammolarni o'rganish va ularni bartaraf etishni eng yaxshi vositalar bilan ta'minlash imkonini beradi. Neyropedagogikani usullari dars jarayonini o'zlashtirishda turli hil muammolar: **disleksiya** (*kelib chiqishi nevrologik asosga ega bo'lgan o'ziga xos o'rganishga uquvsizlik*), **diskalkuliya** (*miya faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, bu buzilishga ega odamlar odatda sonlar, arifmetik amallar, vaqtni aniqlash yoki miqdorlar bilan bog'liq masalalarni tushunishda qiyinchiliklarga duch keladilar*), **disgrafiya** (*Disgrafiya miya faoliyati va motorik ko'nikmalarning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, yozuv bilan bog'liq o'quv buzilishidir. Bu holatga ega odamlar so'zlarni to'g'ri yozish, grammatika va imlo qoidalarini tushunishda qiyinchilikka duch keladilar*) va shu kabi o'zlashtirish jarayonidagi muammolarni bartaraf etishda yordam beradi. Neyropedagogikaning mashqlari bajarilganda bolada neyronlar ishga tushadi, xotira faoliyatini kuchaytiradi uyqusizlikni bartaraf qiladi. Neyropedagogika ko'plab chet el olimlari izlanishlar olib borgan. Ulardan E.Lenneberg, V.D.Yermeva, A.Smit, B.Gven, V.A Maskivin xususan Ushiniskiyning asarlarida fan sifatida rivojlanishining metodologik asoslarini ko'rishimiz mumkin. Pedagogika va psixologiyaning ta'lim nazariyasi va amaliyoti uchun "Neyropsixopedagogika" atamasi to'g'ri keladi. Ammo, bu atama o'qituvchilar va fan izlanuvchilar tomonidan kundalik faoliyatda qo'llash uchun qiyinchilik tug'diradi. Shu sababli "Neyropedagogika" atamasidan foydalanamiz. Neyropedagogika zamonaviy nevrologiya ma'lumotlariga asoslangan ta'lim nazariyasi va texnologiyasi haqidagi fan. "Neyron" (asab hujayrasi), "pedagogika" (ta'lim haqidagi fan), tushunchalardan kelib chiqqan. Bu fanni o'rganish o'qituvchilarda bolalar va maktabgacha yosh davri bolalarni fanlarni o'zlashtirish va ijodiy va mehnat faoliyatini rivojlantirish samaradorligini oshiradi, xulq-atvorni optimallashtiradi. Neyrogimnastika - bu oddiy va samarali mashqlar orqali miyaning tabiiy mexanizmlarini faollashtirishga qaratilgan mashqlar to'plami bo'lib, ularni to'g'ridan-to'g'ri darsda bajarish mumkin.



Neyrogimnastika paytida miyani faollashtirish orqali xotira, diqqat, idrok, nutq, harakat qobiliyatlari, fikrlash, ijodkorlik, o'zini o'zi boshqarish, o'z-o'zini hurmat qilish, motivatsiya va umumiy salomatlik yaxshilanadi. Neyropedagogika o'rganish va o'qitishda hissiyotlarning muhim rolini ko'rsatadi. Hissiyotlar miyaning ishlab chiqarish faoliyatida zaruriy omil hisoblanadi. Qulay muhitda o'zlashtirilgan o'quv materialini yaxshiroq esda qoladi va tegishli hissiy holat bilan barqaror aloqaga ega. Hissiy omil talabaning fikrlash va ijodkorligini rag'batlantiradi. Hissiy intellekt (EQ) IQ dan kam emas. Hissiy ta'lim bolalar uchun ham, kattalar uchun ham zarur ekanligini neyropedagogika fani ko'rsatib berdi. Yuqorida neyron atamasi ma'nosi bilan tanishgan edik, agar nevrologiyani alohida soha deb hisoblasak, u "miya va asab tizimining faoliyatiga ta'sir qiluvchi kimyoviy, biologik va anatomik xususiyatlarni o'rganadigan ilmiy sohadir". Biroq, nevrologiya tobora ko'proq miya tadqiqotlari uchun ilmiy asosga ega bo'lgan (bilimlar, tadqiqotlar, texnikalar) fanning turli sohalariga integratsiyalashuvga qodir bo'lgan va turli xil fanlarni birlashtirgan yo'nalish sifatida ko'rib chiqilmoqda. Pedagogika fani esa tarbiya, ta'lim hamda ma'lumot berishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganuvchi fanlar majmuasi. Neyropedagogika fani pedagogikaning yangi tarmog'i sifatida 20-asrning 60-70 yillarida shakllandi va zamonaviy ta'limda katta o'rin egalladi. Ushbu soha, miya faoliyati va asab tizimi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida ta'lim jarayonlarini optimallashtirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqadi. Neyropedagogika, pedagogika, psixologiya, nevrologiya va kibernetika kabi fanlarning integratsiyasiga tayanib, ta'lim jarayonida bolalar va o'quvchilarning kognitiv va xulq-atvor jihatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Neyropedagogikaning samarali usullaridan foydalanish orqali bolalarning umumiy salomatligi, o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini hurmat qilish kabi muhim ko'nikmalar rivojlanadi. Shunday qilib, neyropedagogika, o'qituvchilarga bolalar va o'quvchilarning ta'lim faoliyatini eng yuqori darajada samarali tashkil etish imkoniyatini beradi, shu bilan birga, ularning xulq-atvorini va psixologik holatini optimallashtirishga yordam beradi.

Pedagogika va nevrologiyaning integratsiyasi ta'lim jarayonining har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi va zamonaviy ta'limning eng samarali usullari va texnologiyalarini yaratishga xizmat qiladi. Bugungi kunda yurtimizda tadqiqotchilar tomonidan sohaga bo'lgan qiziqish masshtabi tobora ortib borayotganini hisobga olsak, kelgusida neyropedagogik bilimlar bolalar bilan amalga oshiriladigan pedagogik jarayonlarning asosiy manbalardan biriga aylanadi deb aytishimiz mumkin.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, neyropedagogika pedagogik fanlar tizimidagi eng yangi sohalardan biri bo'lib, hali tadqiqotchilar tomonidan ko'plab o'rganilishlarga muhtoj. Sohaning rivoji bevosita ta'limdagi sifat ko'rsatkichlarini o'sishiga ta'sir ko'rsatishini inobatga olsak, zamonaviy ta'lim muhitida yosh avlodga yangi bilimlarni berishda neyropedagogik aspektlarga murojaat qilishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu esa bolalarni yangi mavzularni o'rganishligida qulaylik yaratadi. Bir so'z bilan aytganda, Neyropedagogika shaxsning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.T.Ahmedova, Y.K.Narmetova "Neuropedagogy and neuropsychology how developing New Nauka". Society and innovations. Special Issue – 02 (2022) / ISSN 2181-1415
2. Клемантович И.П., Степанов В.Г. Эмоциональный интеллект и девиантное поведение юношей // Фундаментальные исследования. 2014. № 6. С. 360–363.
3. Margaret Chojak "Neuropedagogy as a scientific discipline: interdisciplinary description of the theoretical basis for the development of a research field" World Academy of Science, Engineering and Technology International Journal of Educational and Pedagogical Sciences" Vol:12, No:8, 2018

YOSHAR INTELEKTUAL MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

G'aybullayeva Mohlaroy Foziljon qizi

Namangan davlat pedagogika institute magistranti

***Abstrakt.** Yoshlar o'rtasida intellektual madaniyatni rivojlantirish zamonaviy jamiyatda innovatsiyalar, tanqidiy fikrlash va axloqiy fikrlashni rivojlantirishning muhim jihati hisoblanadi. Intellektual madaniyat odamlarga murakkab g'oyalar bilan shug'ullanish, turli nuqtai nazarlarni sintez qilish va muammolarni samarali hal qilish imkonini beradigan kognitiv va aks ettiruvchi qobiliyatlarni o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada yoshlar intellektual madaniyatining kontseptual asoslari ko'rib chiqiladi, uning ta'rifi, nazariy asoslari va etishtirishning amaliy strategiyalari ta'kidlanadi. Konstruktivistik, gumanistik va madaniy-tarixiy nazariyalarga tayangan holda, u intellektual odatlarni shakllantirishda ta'lim, ijtimoiy-madaniy kontekst va texnologiyaning rolini ta'kidlaydi. Hujjat, shuningdek, raqamli haddan tashqari yuklanish, ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblik va madaniy qarshilik kabi asosiy muammolarni aniqlaydi, shu bilan birga ta'lim sohasidagi islohotlar, umrbod ta'lim tashabbuslari va texnologiyalardan mas'uliyatli foydalanishni o'z ichiga olgan amaliy strategiyalarni taklif qiladi. Jamiyatlar intellektual madaniyatni yuksaltirish orqali yoshlarga bilimga asoslangan iqtisodiyot va demokratik jarayonlarga mazmunli hissa qo'shish imkoniyatini berishi mumkin.*

***Kalit so'zlar:** intellektual madaniyat, yoshlar rivojlanishi, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, ta'lim, ijtimoiy-madaniy kontekst, texnologiya, umrbod ta'lim.*

***Абстрактный.** Развитие интеллектуальной культуры среди молодежи является важным аспектом развития инновационного, критического и нравственного мышления в современном обществе. Интеллектуальная культура включает в себя когнитивные и рефлексивные навыки, которые позволяют людям обсуждать сложные идеи, синтезировать различные точки зрения и эффективно решать проблемы. В данной статье*

рассматриваются концептуальные основы молодежной интеллектуальной культуры, особое внимание уделяется ее определению, теоретическим основам и практическим стратегиям ее культивирования. Опираясь на конструктивистские, гуманистические и культурно-исторические теории, он подчеркивает роль образования, социокультурного контекста и технологий в формировании интеллектуальных привычек. В документе также определяются ключевые проблемы, такие как цифровая перегрузка, социально-экономическое неравенство и культурное сопротивление, а также предлагаются практические стратегии, включая реформы образования, инициативы обучения на протяжении всей жизни и ответственное использование технологий. Поощряя интеллектуальную культуру, общества могут дать возможность молодым людям внести значимый вклад в экономику, основанную на знаниях, и демократические процессы.

Ключевые слова: интеллектуальная культура, развитие молодежи, критическое мышление, творчество, образование, социокультурный контекст, технологии, обучение на протяжении всей жизни.

Abstract. *The development of intellectual culture among young people is an important aspect of developing innovation, critical thinking and ethical thinking in modern society. Intellectual culture includes cognitive and reflective abilities that allow people to engage with complex ideas, synthesize different perspectives and effectively solve problems. This article examines the conceptual foundations of youth intellectual culture, highlighting its definition, theoretical foundations and practical strategies for cultivation. Drawing on constructivist, humanistic and cultural-historical theories, it emphasizes the role of education, socio-cultural context and technology in the formation of intellectual habits. The document also identifies key challenges such as digital overload, socio-economic disparities and cultural resistance, while proposing practical strategies that include educational reforms, lifelong learning initiatives and the responsible use of technology. By enhancing intellectual culture, societies can empower young people to make meaningful contributions to the knowledge-based economy and democratic processes.*

Keywords: *intellectual culture, youth development, critical thinking, creativity, education, socio-cultural context, technology, lifelong learning.*

Kirish. Yoshlarning intellektual madaniyatini rivojlantirish kognitiv, hissiy va axloqiy jihatlarni birlashtirgan ko'p qirrali jarayondir. Intellektual madaniyat tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muammolarni hal qilish qobiliyatlari va bilimga reflektiv yondashuvni tizimli ravishda rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Bu fazilatlar yosh shaxslarni zamonaviy jamiyatning murakkabliklarida harakat qilish va uning rivojlanishiga mazmunli hissa qo'shish uchun zarurdir.[1] Ushbu maqolada yoshlar o'rtasida intellektual madaniyatni rivojlantirishning kontseptual asoslari ko'rsatilgan. Yoshlarning intellektual madaniyatini rivojlantirish yoshlarni shaxsiy o'sish va jamiyatga hissa qo'shish uchun zarur bo'lgan kognitiv, hissiy va axloqiy vositalar bilan jihozlashning ajralmas jihati hisoblanadi. Intellektual madaniyat tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, axloqiy mulohaza yuritish va bilimga reflektiv yondashuvning tizimli odatlarini o'z ichiga oladi. Ushbu kontseptsiya zamonaviy bilimga asoslangan iqtisodiyot va tez o'zgaruvchan global landshaftda tobora dolzarb bo'lib bormoqda.

Intellektual madaniyat - bu odamlarga g'oyalarni tanqidiy va innovatsion tarzda jalb qilish imkonini beradigan tuzilgan fikrlash va fikrlash odatlarini anglatadi.[2] U umrbod ta'lim olish majburiyatini, taxminlarga shubha qilish moyilligini va turli nuqtai nazarlarni sintez qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Intellektual madaniyatning asosiy tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:

Tanqidiy fikrlash: ma'lumotni mantiqiy va ob'ektiv tahlil qilish, baholash va sharhlash qobiliyati.[3]

Ijodkorlik: yangi va qimmatli g'oyalarni yaratish qobiliyati.

Axloqiy fikrlash: qaror qabul qilish jarayonlarida axloqiy tamoyillarning integratsiyasi.

Reflektiv amaliyot: o'rganish va muammolarni hal qilishda o'z-o'zini anglash yondashuvi.

Yoshlar jamiyat taraqqiyotini shakllantirishda muhim rol o'ynaydigan dinamik va moslashuvchan demografik xususiyatdir. Ularning intellektual madaniyatini rivojlantirish bir necha sabablarga ko'ra juda muhimdir:

Bilimlarga asoslangan iqtisodiyotda moslashuvchanlik: Jamiyatlar bilimlar iqtisodiyotiga o'tayotganda, intellektual madaniyat yoshlarni tez texnologik va ijtimoiy o'zgarishlarga moslashish ko'nikmalari bilan qurollantiradi.

Demokratik qadriyatlarni targ'ib qilish: Kuchli intellektual madaniyat fuqarolarning faolligini, ongli qarorlar qabul qilishni va turli fikrlarni hurmat qilishni rivojlantiradi.

Innovatsiyalar va muammolarni hal qilish: Intellektual madaniyat ijodkorlik va innovatsiyalarga asos bo'lib, yoshlarga iqlim o'zgarishi va tengsizlik kabi global muammolarni hal qilishga imkon beradi.[4]

Konstruktivizm: Konstruktivistik nazariyalarga ko'ra, bilim o'quvchilar tomonidan tajriba va ijtimoiy o'zaro ta'sir orqali faol ravishda quriladi. Bu nuqtai nazar so'rovga asoslangan ta'lim muhitining muhimligini ta'kidlaydi.

Gumanizm: Gumanistik ta'limga asoslangan bu yondashuv shaxsiy o'sishni, o'zini o'zi anglashni, intellektual va hissiy salohiyatni rivojlantirishni ta'kidlaydi.

Madaniy-tarixiy nazariya: Lev Vygotskiyning ta'limning ijtimoiy-madaniy kontekstiga urg'u berishi intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishda madaniy vositalar, til va ijtimoiy o'zaro ta'sirning rolini ta'kidlaydi.

Ta'lim tizimlari intellektual madaniyatni rivojlantirishda markaziy o'rin tutadi. Samarali pedagogik strategiyalarga quyidagilar kiradi:

So'rovga asoslangan ta'lim: ochiq savollar berish orqali qiziqish va izlanishni rag'batlantirish.[5]

Fanlararo ta'lim: yaxlit tushunishni rivojlantirish uchun fanlar bo'yicha bilimlarni birlashtirish.

Hamkorlikda o'rganish: o'quvchilarning turli nuqtai nazarlarini ochib berish uchun guruhlarda ishlash va dialogga yordam berish.

Texnologiya integratsiyasi: Axborotga kirishni yaxshilash va tanqidiy tahlilni rivojlantirish uchun raqamli vositalardan foydalanish.

Ijtimoiy-madaniy kontekst intellektual madaniyatning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Oilaviy qadriyatlar, tengdoshlar ta'siri va jamiyat me'yorlari kabi omillar yoshlarning o'rganishga va intellektual faollikka bo'lgan munosabatini shakllantiradi. Bundan tashqari, bilim, ta'lim va muvaffaqiyat haqidagi milliy siyosat va madaniy rivoyatlar intellektual faoliyatga ta'sir qiladi. Yoshlar o'rtasida intellektual madaniyatni rivojlantirish bir qator muammolarga duch keladi:[6]

Raqamli haddan tashqari yuk: Raqamli asrdagi ma'lumotlarning ko'pligi tanqidiy qobiliyatlarni bosib ketishi va yuzaki o'rganishga olib kelishi mumkin.

Ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklar: sifatli ta'lim olishning tengsizligi intellektual madaniyatni rivojlantirish imkoniyatlarini cheklaydi.

Madaniy qarshilik: Ba'zi kontekstlarda an'anaviy me'yorlar tanqidiy va innovatsion fikrlash bilan zid kelishi mumkin.

Globalashuv bosimi: Madaniyatlarning bir xillashuvi mahalliy intellektual an'analar va istiqbollarni susaytirishi mumkin. Ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etish va intellektual madaniyatni rivojlantirish uchun manfaatdor tomonlar maqsadli strategiyalarni qabul qilishlari kerak:

Ta'lim sohasidagi islohotlar: O'quv dasturlarida eslab qolishdan ko'ra tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va axloqiy fikrlash ustuvor bo'lishi kerak.

Butun umr bo'yi ta'limni rag'batlantirish: rasmiy maktabdan tashqari uzluksiz ta'limga yordam beradigan dasturlar muhim ahamiyatga ega.[7]

Jamiyat ishtiroki: Maktablar, oilalar va jamoalar o'rtasidagi hamkorlik intellektual qadriyatlarni mustahkamlashi mumkin.

Texnologiyadan mas'uliyatli foydalanish: Raqamli vositalar passiv o'yin-kulgi sifatida emas, balki tanqidiy tahlilni yaxshilash uchun ishlatilishi kerak.

Madaniyatni saqlash: mahalliy bilim va an'analarni ta'lim amaliyotiga kiritish global va mahalliy intellektual hissalarini muvozanatlashda yordam beradi.[8]

Xulosa. Yoshlarning intellektual madaniyatini rivojlantirish innovatsion, axloqiy va barqaror jamiyatlarni barpo etish uchun muhim ahamiyatga ega. Bu inklyuziv ta'lim tizimlari va qulay ijtimoiy-madaniy muhit tomonidan qo'llab-

quvvatlanadigan kognitiv qobiliyatlarni hissiy va axloqiy o'lchovlar bilan birlashtirish uchun ataylab harakat qilishni talab qiladi. Yoshlarning intellektual madaniyatiga sarmoya kiritib, jamiyatlar nafaqat malakali va bilimli, balki atrofdagi dunyo bilan o'ylangan munosabatda bo'lishga qodir bo'lgan shaxslarni tarbiyalashi mumkin. Yoshlar intellektual madaniyatining kontseptual asoslari kognitiv qobiliyatlar, hissiy intellekt va ijtimoiy-madaniy omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'kidlaydi. Intellektual madaniyatni rivojlantirish yoshlarni tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalari bilan qurollantirish, axloqiy fikrlashni rivojlantirish va umrbod ta'lim olishga ko'maklashishni o'z ichiga oladi. Muammolarni hal qilish va strategik islohotlarni amalga oshirish orqali jamiyatlar yosh shaxslarga bilimga asoslangan iqtisodiyotlarda muvaffaqiyat qozonish va demokratik va madaniy jarayonlarga ijobiy hissa qo'shish imkoniyatini berishi mumkin. Yoshlarning intellektual madaniyatini yuksaltirish nafaqat maqsad, balki barqaror ijtimoiy taraqqiyot uchun zaruratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Мусурманова А. Концептуальные основы формирования духовной культуры молодежи в системе непрерывного образования //Проблемы педагогики. – 2019. – №. 1 (40). – С. 5-7.
2. Siddikov, Pleszhon Bahromovich. "Философско-педагогические аспекты развития интеллектуальной культуры студентов." Вестник Ошского государственного университета 3 (2019): 38-42.
3. Сиддиков, Ильёсжон Бахромович. "Социально-философские аспекты формирования интеллектуальной культуры молодёжи." Theoretical & Applied Science 1 (2018): 61-66.
4. Егорова, Галина Ивановна. "Технологии развития интеллектуальной культуры будущего специалиста." (2010): 188-188.
5. Мельничук, Марина Владимировна, and Марина Валерьевна Алисевич. "Проблемы формирования интеллектуальной культуры современного студента." Современная наука: актуальные проблемы теории и практики. Серия: Гуманитарные науки 5-6 (2015): 48-51.

6. Басалаева, Оксана Геннадьевна. "Особенности взаимосвязи интеллектуальной культуры, искусственного интеллекта и творческого процесса." Вестник Кемеровского государственного университета культуры и искусств 40 (2017): 140-145.
7. Иванова, Валентина Петровна. "Понимание научного текста как фактор формирования интеллектуальной культуры студентов." Научная библиотека диссертаций и авторефератов disserCat.–Режим доступа: <http://www.dissercat.com/content/ponimanie-nauchnogo-tekstakak-faktor-formirovaniya-intellektualnoi-kulturystudentov#ixzz55cRGOAua> (2004).
8. Гутенев, Максим Юрьевич. "Шахматная игра в развитии интеллектуальной культуры общества." Вестник Южно-Уральского государственного университета. Серия: Социально-гуманитарные науки 13.2 (2013): 136-139.

QOMUSIY LUG‘ATLARDA SOHALARARO TERMINLARNING TAVSIFIY BELGILARI

Xashimova Xurshida Djuraxanovna,
University of Business and Science
Til va adabiyot ta’limi kafedrasida dotsenti v.b.,
filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori
Namangan, O‘zbekiston
[*xurshidaxonxashimova@gmail.com*](mailto:xurshidaxonxashimova@gmail.com)
+99897-2317501

***Annotatsiya.** Lug‘atlar qomusiy lug‘atlar va filologik lug‘atlarga ajratiladi. Lingvistik lug‘atlar so‘zlikning so‘z, lisoniy birlik sifatidagi tuzilishi, ma’nolari, imlosi kabilarga e’tibor qaratsa, qomusiy lug‘atlarda, aynan, u ifodalayotgan tushunchaga: biror narsa, hodisa, shaxsni ifodalashiga diqqat qaratiladi. Qomusiy lug‘atlar o‘z ichida ikkiga bo‘linadi: umumiy va xususiy. Har qanday lug‘atning izoh qismida ensiklopedik ma’lumotlar ham beriladi. Ushbu maqolada texnik va*

tabiiy fanlarga oid terminlarni ensiklopedik lug'at misolida ko'rib chiqilgan va o'zbek tilidagi texnik terminlarda differentsiatsiya hodisasi zamonaviy ilm-fan yangi sohalarning paydo bo'lishi bilan, integratsiya hodisasi esa fanlar o'rtasida mushtarak tadqiqot sohalari yuzaga kelishi haqida bildirgan fikr-mulohazalari yoritilgan.

***Tayanch so'zlar:** lug'at, qomusiy lug'at, filologik lug'at, differentsiatsiya, integratsiya, abberatsiya, aktiv, assimilyatsiya, vazn.*

***Abstract.** Dictionaries are divided into encyclopedic dictionaries and philological dictionaries. Linguistic dictionaries pay attention to the structure, meanings, and spelling of the vocabulary as a word, linguistic unit, etc., while in encyclopedic dictionaries, attention is paid to the concept it represents: the fact that it represents something, an event, a person. Encyclopaedias are divided into two: general and specific. Encyclopedic information is also given in the comment section of any dictionary. In this article, terms related to technical and natural sciences are considered on the example of an encyclopedic dictionary, and the phenomenon of differentiation in technical terms in the Uzbek language is the emergence of new fields of modern science, and the phenomenon of integration is the emergence of joint research fields between sciences. comments about it are highlighted.*

***Key words:** dictionary, encyclopedic dictionary, philological dictionary, differentiation, integration, aberration, asset, assimilation, weight.*

***Абстрактный.** Словари делятся на энциклопедические и филологические словари. В лингвистических словарях внимание уделяется структуре, значениям и написанию словарного запаса как слова, языковой единицы и т. д., а в энциклопедических словарях внимание уделяется тому понятию, которое оно представляет: тому, что оно обозначает что-то, событие, явление. человек. Энциклопедии делятся на две: общие и специальные. Энциклопедическая информация также дается в комментариях любого словаря. В данной статье термины, относящиеся к техническим и естественным наукам, рассматриваются на примере энциклопедического словаря, а явление дифференциации технических терминов в узбекском языке – возникновение новых областей современной*

науки, а явление интеграции – Выделены комментарии по поводу появления совместных исследовательских направлений между науками.

Ключевые слова: *словарь, энциклопедический словарь, филологический словарь, дифференциация, интеграция, абберрация, актив, ассимиляция, вес.*

Lug‘atlar, avvalo, qomusiy lug‘atlar va filologik lug‘atlarga ajratiladi. Lingvistik (filologik) lug‘atlar so‘zlikning so‘z, lisoniy birlik sifatidagi tuzilishi, ma’nolari, imlosi kabilarga e’tibor qaratsa, qomusiy lug‘atlarda, aynan, u ifodalayotgan tushunchaga: biror narsa, hodisa, shaxsni ifodalashiga diqqat qaratiladi. Bunday lug‘atlarda ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lmagan yordamchi so‘zlar, olmoshlar, fe’l shakllari uchramaydi. Qomusiy lug‘atlar o‘z ichida ikkiga bo‘linadi: umumiy va xususiy.

J. Heyman “Lug‘atlar va ensiklopediyalar” nomli tadqiqotida 5 ta xususiyatlar asosida lug‘atlarni ensiklopediyalarga zidlaydi:

1) ensiklopediya so‘zni ekstralingvistik borliqqa munosabatiga ko‘ra tavsiyalaydi, lug‘atlar esa so‘zni boshqa so‘zga nisbatan ta’riflaydi;

2) lug‘at va ensiklopediya aynan bir tushunchaning turli tipdagi izohiga asoslanadi, ko‘pincha ensiklopedik lug‘atlarda so‘zlarning ilmiy termin sifatidagi tavsifi beriladi, oddiy lug‘atlarda esa “maishiy” ma’nosi izohlanadi;

3) ensiklopediyada ko‘pincha keraksiz, ortiqcha axborot berilsa, oddiy lug‘atlarda faqatgina kerakli ma’lumotlar beriladi;

4) lug‘at so‘zning semantikasini (belgi va ma’no o‘rtasidagi munosabatni), ensiklopediya esa bundan tashqari so‘z pragmatikasini (belgi va uni ishlatuvchi shaxslar o‘rtasidagi munosabatni) to ekstralingvistik sathgacha tasvirlaydi;

5) ensiklopediyalarda atoqli otlar ham mavjud bo‘ladi. [Haiman, 1979:336]

Albatta, har qanday lug‘atning izoh qismida ensiklopedik ma’lumotlar ham beriladi. Dubichinskiyning ta’kidlashicha, ayniqsa, so‘nggi yillarda bunday jarayon kuchaygan [Dubichinskiy, 1994:13-14] Kotelovanning fikriga ko‘ra esa, ensiklopediyalar umuman leksikografiyaga aloqador tushuncha bo‘lmay, birlashtirib turuvchi xususiyati so‘zliklarning alifbo tartibida berilishi xolos.

[Kotelova, 1976:33] Jon Heyman esa bunga muqobil ravishda lug'atlarning o'zi ensiklopediya ekanligiga urg'u beradi. [Haiman, 1979:331]

Mazkur o'rinda asosiy muammolardan biri tushunchaning mantiqiy ta'rifi hamda so'z ma'nosining izohlanishidagi farqlanishlardan kelib chiqadi.

Xorijda hozirgi kunlarda izohli lug'atlarni ham ensiklopedik xarakterda qayta ishlash an'anaga aylanmoqda, axborot texnologiyalarining rivojlanishi va raqamlashtirish imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda ushbu ishlarni amalga oshirish qulay. Elektron lug'atlarning ayrim bandlarini ochib yoki yopib qo'yish imkoni bor. Amerika lug'atchiligining yorqin namunasi bo'lgan Vebster lug'atini olib ko'radigan bo'lsak, unda tor sohalarga oid juda ko'p nafaol terminlar kiritilgan. Natijada, ayrim mutaxassislar Vebster lug'atini "texnologiya ensiklopediyasi" deb ataydi. [Stupin, 1973: 37-38]. Mazkur an'ana Angliya lug'atchiligida ham sinab ko'rib, ommalashib ketdi: *Longman Dictionary Collins Concise English Dictionary* kabi. Shu sababi eng zamonaviy lug'atlarda filologik va ensiklopedik lug'atlarga xos bo'lgan xususiyatlar uyg'unlashib ketmoqda.

Biz texnik va tabiiy fanlarga oid terminlarni ensiklopedik lug'at misolida ko'rib chiqamiz.

Aberratsiya (lot. aberratio — og'ish)

1) umumiy ma'noda — me'yordan og'ish, me'yordagi qiymatlardan farqlanish;
2) optik tizimlarda — optik tizimning risoladagidek emasligi tufayli tasvirning buzilishi; tasvir aniq chiqmaydi, asliga to'liq mos kelmaydi yoki chaplashib ko'rinadi. A.ning geometrik, xromatik va difraksion turlari farq qilinadi;

3) astronomiyada — yorug'lik manbai va uni qabul qiluvchi qurilma bir-biriga nisbatan harakatda bo'lgani tufayli yorug'lik nurining yo'nalishi o'zgarishi. Yorug'lik A.si oqibatida osmon gumbazida yoritqich (mas, yulduz)ning haqiqiy vaziyati buzilib ko'rinadi;

4) elektron linzalar A.si (q. Elektron-optik aberratsiyalar).

Aberratsiya, biologiyada:

1) morfologiya va fiziologiyada — odatdagi tuzilish va funksiyalardan, ya'ni normadan chetga chiqish;

2) genetikada — xromosomalar tuzilishining o'zgarishi. A. tabiiy va eksperimental yo'llar bilan vujudga keladi. A. ikki xil — bitta xromosomada yoki xromosomalararo sodir bo'lishi mumkin. Birinchi holda xromosomaning ma'lum qismi tushib qoladi, juftlanadi yoki ulardagi genlarning joylanish tartibi o'zgaradi, ikkinchi holda nogomologik xromosomalarning ma'lum qismlari o'zaro o'rin almashinadi. [ЎТИЛ.2020: 1 – 50]

E'tibor qaratadigan bo'lsak, izohli lug'atdan farqli ravishda terminning umumiy ma'nosi – "me'yordan og'ish, me'yordagi qiymatlardan farqlanish" berilib, so'ngra ushbu ma'nolardan o'sib chiqqan boshqa ma'nolari – sohaviy qo'llanishlari berilgan.

Aktiv (lot. *activus* — faol, ta'sirchan, ishchan):

1) buxgalteriya balansining chap qismi, korxonaning muayyan sanada va pul ifodasida barcha vositalarini, ularning tarkibi va joylashuvini (asosiy fondlar, aylanma vositalar, pul vositalari, kapital sarflar, qarzdorlik talabnomalari va b.) aks ettiradi;

2) korxonada yoki tashkilotning mulki yoki resurslari (bino, mashina, nakd pul, qimmatbaho qog'ozlar va b.). Pulga tez sotilishi (aylanishi) mumkin bo'lgan, bozori chaqqon A. (veksellar, qimmatbaho qog'ozlar, oltin, nakd pul va b.) likvid A. deyiladi. [ЎТИЛ.2020: 1 – 274] O'zbek tilining izohli lug'atida so'zning termin sifatidagi:

1. Korxonada yoki tashkilotning mulki va resurslari (bino, mashina, qimmatbaho qog'ozlar va b.)

2. bux. Balansning kirim, daromad qismi; buxgalteriya balansining bir qismi" [ЎТИЛ.2020: 1 – 64] ma'nolari berilgan.

Qiyosdan ko'rinadiki, ensiklopedik lug'atda terminning turlari, umumiy boshqa xususiyatlari ham yoritib ketilgan.

Ensiklopedik lug'atlarda terminlar quyidagi sxema asosida tavsiflangan:

So'zlik – (qo'llanish sohasi) – lug'at maqolasi (ta'rif, izoh, turlari, tuzilishi va vazifalari)

Jumladan:

Analizatorlar (fiziologiyada) — yuksak darajadagi hayvonlar va odam nerv tuzilmalarining murakkab sistemasi. A. tashqi muhit va organizmdagi ta'sirotlarni idrok etib, tahlil (analiz) qiladi. A. tushunchasini I. P. Pavlov kiritgan (1909). Keladigan axborot retseptorlar — sezuvchan (afferent) nervlar oxirlarida kabul qilinadi. Retseptorlar qo'zg'atuvchi ta'sirot energiyasini nerv impulslariga o'tkazadi, so'ngra bular nerv sistemasining o'tkazuvchi yo'llari orqali A.ning oliy (markaziy) bo'limlariga — bosh miya po'stlog'i qismlariga o'tadi. A. axborotning asosiy qismini atrof muhitdan oladi. Bueksteroretseptiv A. deyiladi. Bularga eshituv, ko'ruv, hid, ta'm bilish, tuygu a'zolari kiradi. Boshqa A. organizmning ichki muhiti holatini tahlil qiladi (interoretseptiv A). Vestibulyar va tayanch harakat apparati, qon bosimining darajasi ular nazorati ostida bo'ladi. A. murakkab tuzilishga ega bo'lib, miyani organizmdan tashkaridagi, shuningdek, uning ichidagi hodisalar to'g'risida batafsil axborot bilan ta'minlaydi. A.ning vazifasi shuki, ularning yordamida hayvon tashqi hamda ichki muhitdagi foydali va zararli ta'sirlarni ajratib, hayot sharoitiga yaxshiroq moslashadi. Birorta A. buzilganda (shikastlanish, kasallik tufayli) mashq jarayonida boshqa A.ning imkoniyatlari kengayadi. Macalan, ko'zi ojiz kishilarda eshitish, tuyg'u, bosim va temperaturani sezish qobiliyati rivojlangan bo'ladi. Odam ongi borligidan unda A.ning ahamiyati yanada katta. [ЎТИЛ.2020: 1 – 462]

Yoki *assimilyatsiya* terminini ko'radigan bo'lsak, so'zning biologiya, termodinamika, etnografiya, tilshunoslik, petroografiya sohalariga oid ta'riflari keltirilgan. Muhim xususiyati esa har bir sohaga oid termin alohida so'zlik sifatida tavsiflangan. Bu jihat deyarli barcha terminlarni izohlashda kuzatiladi.

O'zbek tilining ensiklopedik lug'ati izohli lug'atlarga nisbatan ilmiy terminologiyani qamrab olgani, shu sababli, o'zlashma qatlamga oid terminlar salmoqli ekanligi bilan ham ajralib turadi.

O'z qatlamga oid so'zlar ham terminologik jihatdan tavsiflanadi va so'z-terminga aylanadi:

Bel — tananing bir qismi; bel umurtqalari (orqa o'siqlari bilan), ularga yopishgan va ulardan boshlangan muskullar (qorin bo'shlig'ining orqa devori)dan iborat...

Bel, belkurak — mehnat quroli; temirdan yasaladigan yog'och (ba'zan temir) dastali asbob...

Bel — tog'ning o'tish oson bo'lgan pastroq qismi... tarzida.

Bunda garchi har bir so'zlikning terminologik mansubligi ko'rsatilmasa-da, izohli lug'atlarga nisbatan usluban qat'iyligi, ilmiy ta'rif va izohlarga asoslangani bilan ajralib turadi.

Vazn so'zi izohini kuzatganimizda ham ushbu xususiyat yaqqol namoyon bo'ladi:

Vazn (arab. — o'lchov, tarozi, og'irlik)— she'rda tovush tuzilishini uyushtirish usuli. Sillabik she'r tuzilishicha bo'g'in va turoq soni, tonik she'r tuzilishi stopalar o'lchovi va soni bilan aniklanadi. She'riy ritm, ohangdorlik hamda musiqiylikning hosil bo'lishi V. va uning xususiyatlariga bog'liq...

O'zbek tilining izohli lug'atida:

1. kam qo'll. O'lchov.
2. Og'irlik; og'irlik o'lchami, salmoq.
3. ko'chma kam qo'll. Shaxsning mavqei, mavqe darajasi.
4. ad. She'riy satrda she'rning ritm ohangi va tuzilishini belgilovchi bo'g'inlar soni va joylanishi; she'r o'lchovlari.

5. mus. Musiqa asarida uning ritm ohangini va tuzilishini belgilovchi ritmik birliklar soni va joylanishi.[ЎТИЛ.2020: 1 – 434]

E'tibor qaratsak, ensiklopedik lug'atda so'zning faqat adabiyotshunoslikka oid terminologik ma'nosi izohlangan.

O'zbek tilidagi texnik terminlarda differentsiatsiya hodisasi zamonaviy ilmfan yangi sohalarining paydo bo'lishi bilan, integratsiya hodisasi esa fanlar o'rtasida mushtarak tadqiqot sohaları yuzaga kelishi bilan bog'liq.

Differentsiatsiya hodisasining terminologiya uchun ahamiyatli jihati – o'zaro mushtarak yoki chatishgan fanlarga xos terminlarning ma'nosida farqlanish yuzaga kelishidir.

Terminlar ma'nosining differentsiatsiyalashuvi so'zlovchining subyektiv munosabatiga, shuningdek, matn yaratilgan uslubga ham bog'liq. Shu jihatdan

faqatgina bir terminologik tizimga kiruvchi tor sohadagi terminlar hamda bir necha terminologik tizimlarga mansub terminlarga ajratildi.

Terminlarning tor ma'noli bo'lishi uning muomala kiritilish davri, etimologiyasi, shuningdek, u qo'llanayotgan fanning boshqa fanlar bilan integratsiyasiga bog'liq. Ommaviylashuvi uning turli uslublarga ko'chishiga va so'z sifatida boshqa tushunchalarga nisbatan ham qo'llanishiga sabab bo'ladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Haiman J... Hua: A Papuan Language of New Guinea. – Cambridge: Winthrop, 1979 – P. 440.
2. Дубичинский В. Практическая и теоретическая лексикография. – Вена; Харьков: Wiener Slawistischer Almanach; Харьковское лексикографическое общество, 1998. — 160 с
3. Котелова Н.З. Новые слова и словари новых слов – СПб.,1983. – С. 233
4. Ступин Л.П. Словари современного английского языка. – ЛГУ, 1973. – С.268
5. Ўзбек тилининг изохли луғати. 5 жилд, – Тошкент: Ўзбекистон, 2020.

THE APPEAL IN N.V. GOGOL'S WORK "DEAD SOULS"

Abdulhamidova Sadoqat Karimjon qizi

University Of Business And Science o'qituvchisi

E-mail: Sadoqat.karimjonqizi@gmail.com

Tel: (90) 740 08 96

I.N. Ulyanov nomidagi Ulyanovsk davlat pedagogika universiteti

Rus tili, adabiyot va jurnalistika kafedra bolimi mudiri

Dotsent Filologiya fanlari doktori V.N. Artamonov taqrizi asosida

***Annotation.** This article discusses the treatment in the work of N.V. Gogol "Dead Souls". The concept of conversion and vocative sentence are analyzed, the functions and types of appeals are described, and the role of appeals in the Russian literature of the 19th century is considered. The article also presented an analysis of*

appeals in N.V. Gogol's novel "dead souls" and a methodology for studying appeals in a school course of the Russian language.

Keywords: *address, addressing, vocative, contact, the functioning of the address, poetic syntax, speech actions.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada N. V. Gogolning "o'lik jonlar" asaridagi murojaat ko'rib chiqiladi. Murojaat va vokal jumla tushunchasi tahlil qilinadi, murojaatlarning funktsiyalari va turlari tavsiflanadi, shuningdek 19-asr rus adabiyotida murojaatlarning o'rni ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada N. V. Gogolning "o'lik jonlar" romanidagi murojaatlarni tahlil qilish va rus tilidagi maktab kursida murojaatlarni o'rganish metodikasi taqdim etildi.*

Kalit so'zlar: *murojaat, manzil, vokativ, aloqa, murojaatning ishlashi, she'riy sintaksis, nutq harakatlari.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются обращение в произведении Н.В. Гоголя «Мёртвые души». Анализируются понятие обращение и вокативное предложение, описали функции и типы обращений, а также рассмотрели роль обращений в русской литературе 19 века. Также статье был представлен анализ обращений в романе Н.В. Гоголя «мёртвые души» и методика изучения обращений в школьном курсе русского языка.*

Ключевые слова: *обращение, адресация, вокативное, контакт, функционирования обращения, поэтический синтаксис, речевые действия.*

Введение

В современной лингвистике термин «обращение» имеет несколько значений. В широком смысле под обращением понимают не только вид, но и способ адресации речи – незаменимый в структуре языка.

Обращение играет огромную роль в ведении диалога как в художественной литературе, так и в повседневной жизни. Осложнение простого предложения обращением даёт информацию о том, кому адресована речь. Посредством обращения можно определить социальный статус, положение, профессию, степень близости между говорящими, родство и т.д.

Обзор литературы

Обращение помогает установить контакт с каким-либо лицом, побудить собеседника к какому-либо действию, выразить своё отношение, привлечь его внимание. Контакт, принимающий официальный характер, посредством обращения складывается между посторонними, незнакомыми друг с другом людьми. В подобных случаях особенности функционирования обращения рассматриваются в контексте норм речевого этикета. Данная проблема рассматривалась не единожды и отражена в работах В.Е. Гольдина, Н.И. Формановской, И.А. Стернина и др.

Обращение обеспечивает заочный контакт в письменной речи, когда автор обращается к читателям, акцентируя их внимание на какой-либо информации, описываемом событии, действии.

Исходя из этого, стоит признать особую роль обращения как стилистической фигуры в поэтическом синтаксисе.

Несмотря на интерес к этому аспекту, его нельзя считать полностью изученным. В трудах по синтаксису русского языка вопрос об обращении в поэме Н.В. Гоголя «Мёртвые души» не ставился. В настоящее время нет ни одного научного труда, который мог бы претендовать на полное, систематическое и последовательное описание этой стилистико-грамматической категории.

Русская классическая литература включает в себя наследие множества поэтов, в произведениях каждого из которых синтаксические средства выразительности, в частности и обращение, имеют свои особенности функционирования. Это свидетельствует об актуальности исследовательской работы в этой области и определяет её тему.

Цель нашего исследования: анализ обращений в поэме Н.В. Гоголя «Мёртвые души».

Теоретическая ценность работы состоит в глубоком анализе обращений в структурном и семантическом аспектах, а также подробной характеристике функционирования обращений в художественном тексте.

Практическая значимость данной работы заключается в возможности использования материала в процессе преподавания русского языка в вузе и в

средней общеобразовательной школе, в чтении спецкурсов по современному русскому языку.

Также нами был представлен анализ обращений в романе Н.В. Гоголя «мёртвые души» и методика изучения обращений в школьном курсе русского языка.

Анализ и результаты

В ходе исследования мы сделали следующие выводы:

В отношении синтаксического строя предложения обращение является средством его осложнения в любом виде и способе выражения. Оно выражает предикативность и не является членом предложения. На письме всегда обособляется, в устной речи – выделяется особой интонацией в зависимости от синтаксической позиции: в начале, в середине или в конце предложения.

Обращения классифицируются:

1. По форме выражения:

- обращения, выраженные формой именительного падежа существительного;
- обращения, выраженные субстантивированной частью речи;
- обращения, выраженные усеченными формами существительных.

2. По структуре:

- нераспространённые обращения;
- распространённые обращения.

Всё ещё неоднозначным в отечественной лингвистике является вопрос о разграничении вокативных предложений и обращений, вынесенных за пределы предложения.

В предложении функция обращения главным образом информативная, указывающая на адресата речи, на его внешние, психологические, возрастные, социальные характеристики, отношение к нему говорящего, род деятельности и т.д.

В речи целью использования обращения может быть привлечение внимания собеседника (основная функция), выражение относительных статусов

партнеров по общению, отражение характера общения (формального или неформального), выражение отношения говорящего к своему партнеру.

Проанализировав функционирование обращений в поэме Н.В. Гоголя «Мёртвые души», мы пришли к следующим выводам:

1. Так как поэма «Мертвые души» Николая Васильевича Гоголя изобилует диалогами, что соответствует основной его композиционной структуре, то в ней наблюдаются много предложений, осложненных обращениями. Наиболее употребляемые: *матушка, батюшка* и имена главных героев произведения. Но в главе о Ноздре (4 глава) Гоголь 24 раза употребил обращение «*брат*». Этим приемом Гоголь хотел усилить впечатление о Ноздре, который ко всем относился панибратски, легкомысленно мог разрушить все отношения.

Формой именительного падежа в тексте выражено преобладающее большинство обращений, такие как: *сударня, мошенник, Чичиков, ворона, Прошка, господа, баба, сестра, благодетель* и другие. Таких обращений в тексте – 349.

Обращения, выраженные субстантивированной частью речи в поэме встречаются нечасто, но всё-таки присутствуют: *любезный, почтенные, черноногая, корявая*. Каждый употребляется в тексте по 1 разу. Слово «*любезные*» – 4.

Обращения, выраженные усечёнными формами существительных в тексте встречаются дважды: *Платон Михалыч; Иван Андрейч*. Здесь мы видим усечение окончания в отчестве персонажа. Это также свидетельствует о панибратском отношении говорящего.

Нераспространённые обращения являют собой преобладающее большинство.

Распространённые обращения встречаются реже и часто представляют собой объединение двух или более видов обращений.

– обращения, осложнённые согласованными определениями: ***Бонапарт ты проклятый!***; ***Прощайте, миленькие малютки!***

– обращения, осложнённые согласованным дополнением: *«Помилуй, батюшка барин, Кифа Мокиевич, – говорила отцу и своя и чужая дворня, – что у тебя за Мокий Кифович? Никому нет от него покоя, такой припертень!»*.

– обращения, осложнённые несогласованным дополнением: *Позвольте мне, **досточтимый мною**, обратить вас вновь к предмету прекращенного разговора.*

Как видим, в поэме Н. В. Гоголя «Мёртвые души» встречается большое количество обращений разных структурно-семантических видов. Это помогает писателю дать более точное описание своих персонажей, а также детальнее описать речь людей различных сословий того времени.

В поэме Н.В. Гоголя обращения носят различную эмоционально-экспрессивную окраску. Обращения могут заключать в себе хорошее отношение или положительную качественную характеристику (оценку) персонажа – ласкательную, одобрительную и т.п. В иной комнате и вовсе не было мебели, хотя и было говорено в первые дни после женитьбы: *«Душенька, нужно будет завтра похлопотать, чтобы в эту комнату хоть на время поставить мебель»*.

В роли обращений, выражающих положительную оценку адресата речи, выступают слова с оценочными словообразовательными формантами (душенька, матушка, батюшка, малютки) или собственно-оценочные лексемы (миленький, почтеннейший, в сочетании с оценочными служебными морфемами). Это можно отметить в высказываниях Чичикова, обращенных к помещикам, у которых он намерен покупать мертвые души и которых должен расположить к себе.

Обращение может содержать в себе отрицательную оценку адресата речи, а также носить оскорбительный характер: *Селифан, казалось, сам смекнул [что бричка едет по полю], но не говорил ни слова. – Что, **мошенник**, по какой дороге ты едешь? – сказал Чичиков. – Да, время темное, нехорошее время, – прибавил Селифан. – Молчи, **дурак**, – сказал Чичиков.*

Основная функция обращения – побудить собеседника слушать, привлечь внимание к сообщению, поэтому в качестве обращения часто употребляются имена, фамилии, названия лиц по родству, часто – социальному положению: Павел Иванович! – вскричал он [Манилов] наконец, когда Чичиков вылезал из брички.

Для того, чтобы детально представить методiku изучения обращений в школьном курсе русского языка, мы проанализировали ряд существующих на сегодняшний день программ по русскому языку с точки зрения представленности в них изучаемой нами темы.

Заключение

Проанализировав данные программы, мы пришли к выводу, что детально рассматривается тема «Обращение» только в УМК М.Т. Баранова, Т.А. Ладыженской, Н. М. Шанского. Здесь наблюдается и системность и детальность, а также большое количество учебных часов – 10 уроков, когда в других программах всего – 4—5 часов. Это говорит о том, что учащиеся, которые осваивают программы других авторов могут допускать большее количество ошибок.

Ввиду этого, мы разработали систему интегративных упражнений, которые позволят отработать данную тему в рамках изучения художественного произведения, для закрепления знаний о обращении. Мы определили два направления работы с данной темой в рамках нашего исследования: классический и современный, а также разработали технологическую карту урока.

Исходя из вышесказанного, мы можем заключить, что результаты исследования помогут учителю-словеснику не только разнообразить свой учебный план, но и углубить знания школьников по теме «Обращения».

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ

1. Акишина А. А. Русский речевой этикет. / А. А. Акишина, Н. Н. Формановская. – М.: Русский язык, 1983. – 181 с.
2. Ардентов Б. П. Контактующие слова // Ученые записки Кишиневского университета, – Т. 15. – Кишинев, 1955. – 188 с.



3. Бабайцева В. В., Максимов Л. Ю. Современный русский язык. Учеб. для студентов пед. ин-тов по спец. № 2101 «Рус. яз. и лит.» – В 3 ч. – Ч. 3. Синтаксис. Пунктуация. – 2-е изд., перераб. – М.: Просвещение, 1987. – 256 с.
4. Бабайцева В.В. Русский язык. Синтаксис и пунктуация. – М.: «Просвещение», 1979. – 269 с.
5. Бабайцева, В. В., Чеснокова, Л. Д. Русский язык 5—9 классы. Теория / В. В. Бабайцева, Л. Д. Чеснокова. – М: Дрофа, 2012. – 417 с.
6. Балакай А. Г. Словарь русского речевого этикета / А. Г. Балакай. – М.: АСТ-ПРЕСС, 2001.– 672 с.
7. Белинский В.Г., Полное собрание сочинений, т.6. – 355 с.
8. Белинский В.Г., Полное собрание сочинений, т.9. – 229 с.
9. Белошапкова, В.А. Современный русский язык / Изд. 2-е, В. А. Белошапкова. – М.: Высшая школа, 1989. – 800 с.
10. Боголепов В.Г., Язык поэмы Н.В. Гоголя «Мертвые души» – М., Учпедгиз, 1952. – 187 с.

**TA'LIM SIFATINI YAXSHILASH UCHUN TASHKILIY XULQ-ATVOR,
PSIXOLOGIYA VA SOTSIOLOGIYA NAZARIYALARIDAN
FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

Sh.U.A'loxanova

Namangan davlat pedagogika instituti

"Ta'lim muassasalarining boshqaruvi" mutaxassisligi

2-bosqich magistranti

telefon raqam:+998999797879; khadiboevashokhida@gmail.com

Annotatsiya: *Ta'lim sifati ko'p jihatdan tashqi va ichki xulq-atvor, psixologiya va sotsiologiya fanlarini o'zaro bog'lab turadigan ko'rsatkichlardan biridir. Bunda jamoaning birligi, innovatsiyalarga ochiqlik, shaffof boshqaruv va sog'lom ish muhitini yaratish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin. Bu*

nazariyalar ta'lim jarayonidagi inson omilini chuqurroq tushunishga yordam beradi va samarali yechimlarni taklif etadi.

***Kalit so'zlar:** ta'lim sifati, xulq-atvor, psixologiya, sotsiologiya, jamoaviy ish, individuallik, liderlik, motivatsiya, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.*

***Аннотация:** Качество образования является одним из показателей, связывающих внешнее и внутреннее поведение, психологию и социологию. Достичь высоких результатов можно путем создания сплоченности команды, открытости к инновациям, прозрачного управления и здоровой рабочей среды. Использование теорий организационного поведения, психологии и социологии важно для повышения качества образования. Эти теории способствуют более глубокому пониманию человеческого фактора в образовательном процессе и предлагают эффективные решения.*

***Ключевы слова:** качество образования, поведение, психология, социология, работа в команде, индивидуальность, лидерство, мотивация, личностно-ориентированное образование.*

***Annotation:** The quality of education is one of the indicators that connects the disciplines of external and internal behavior, psychology and sociology. In this, high results can be achieved by creating team unity, openness to innovation, transparent management and a healthy work environment. The use of theories of organizational behavior, psychology and sociology is important in improving the quality of education. These theories help to understand the human factor in the educational process more deeply and offer effective solutions.*

***Key words:** educational quality, behavior, psychology, sociology, teamwork, individuality, leadership, motivation, person-centered education.*

Doimiy rivojlanib borayotgan ta'lim sharoitida ta'lim sifatining yuqori standartlarini saqlab qolish eng ustuvor vazifa hisoblanadi. Bugungi yangi O'zbekiston jahon hamjamiyati sifatida o'z o'rniga ega bo'lib bormoqda. Mamlakatdagi har bir soha zamonga xos va mos tarzda rivojlantirilib, har bir sohada yangilanish nafasi ufurmoqda. Jahonda ta'lim sohasini rivojlantirish masalasi dolzarb vazifalar sifatida e'tirof etilmoqda. Ta'lim har bir davlatning

ma'naviy-madaniy hayoti va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoini belgilab beruvchi asos hisoblanadi. Ta'lim sifatini yaxshilashda uning takomillashuvida tashkiliy xulq-atvor, psixologiya va sotsiologiya kabi nazariyalaridan foydalanish juda muhim, chunki bu nazariyalar insonlarni tushunishga, ularning o'zaro munosabatlari va shaxsiy rivojlanishlarini samarali boshqarishga yordam beradi.

Bugungi kunda ta'lim sohasida sifatni oshirish masalasi dolzarb bo'lib, bu jarayonda tashkilotlarning ichki madaniyati va xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim muassasalari samaradorligini oshirish va talabalarga yuqori sifatli bilim berish uchun pedagogik jamoa ichida sog'lom muhit yaratish, tashkilotning aniq maqsad va vazifalarini belgilash zarur. Bu borada tashkiliy xulq-atvorning o'рни beqiyosdir. Tashkiliy xulq-atvor deganda tashkilotdagi xodimlarning o'zaro munosabatlari, tashkilot madaniyati va mehnat muhitini boshqarish orqali tashkilotning umumiy maqsadlariga erishishga xizmat qiluvchi yondashuv tushuniladi. Ta'lim sohasida bu atama o'qituvchilar, ma'muriyat va talabalarning o'zaro munosabatlariga hamda tashkilot ichidagi intizom va motivatsiya darajasiga taalluqlidir. O'qituvchilarni doimiy o'qitish va rivojlantirish, Kadrlarning malakasini oshirish tashkilot xulq-atvoriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Doimiy o'quv kurslari va treninglar pedagoglarning kasbiy bilimini va muvofiqligini oshiradi. Jamoaviy tadbirlar va ochiq muhokama platformalari orqali tashkilotda sog'lom muhit yaratish tashkilot madaniyatining rivojlanishiga olib keladi. Har bir xodim o'zini tashkilotning ajralmas qismi sifatida his qilishi kerak. Talabalar bilan bo'lgan faol muloqot ularning ehtiyoj va takliflarini inobatga olish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Tashkiliy xulq-atvor nazariyasi odamlarning xulq-atvorini o'rganadi. O'qituvchilar va ma'muriyat uchun talabalarning o'qishdagi motivatsiyasini oshirish, o'quv muassasasida ijobiy muhit yaratish, rahbarlik va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Tashkiliy xulq-atvorning prinsiplari nafaqat ta'lim balki boshqa tashkilotlarda ham samarali ishlashi, maqsadlarga erishishi va xodimlar ortasidagi munosabatlarni yaxshilash uchun muhim qoidalar va yonalishlarni oz ichiga oladi. Bu yo'nalishlardan biri - maqsadga yonaltirilganlik. Bunda har bir xodim va butun

tashkilotning harakati umumiy maqsadlarga erishishga yonaltirilgan bolishi kerak. Yana bir ustuvor yonalish bu- muloqot va axborot oqimi. Bund tashkilot ichida samarali muloqot tizimi mavjud bolishi zarur. Bu xodimlarning bir-biri bilan aniq va togri axborot almashishini taminlaydi. Va yana bir muhim yonalish motivatsiya. Xodimlarni ishga jalb qilish va ularga ruhlantirish tashkilot uchun katta ahamiyatga ega. Maqsadga erishish uchun ragbatlantirish va mukofot tizimlari yaxshi yolga qoyilishi lozim.

Jamoaviy ish tashkilotning muhim qismlaridan biri- xodimlar ortasida hamkorlik va ishonchni rivojlantirish, umumiy maqsadlar sari birgalikda harakat qilish samarali natijalarga olib keladi. Jamoda ochiqlik, adolat va halollik tamoyillari saqlanishi zarur. Bu xodimlar ortasidagi ishonchni oshiradi va mehnat unumdorligini yaxshilaydi. Psixologiya- talabalarning individual xulq-atvori va intellektual rivojlanishini o'rganish orqali ta'lim jarayonlarini optimallashtirish imkonini beradi. Masalan, o'qituvchilar psixologiyaning o'quvchilarning emotsional ehtiyojlari, o'qitish uslublarini shaxsiylashtirish va motivatsiyani oshirishda qanday rol o'ynashini bilishlari kerak. Psixologiya nazariyalari orqali o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish, stressni kamaytirish va ularning o'qishga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish mumkin. Psixologiya nazariyalari insonning xulq-atvori, fikrlash jarayonlari, his-tuyg'ulari va shaxsiy rivojlanishini tushuntirishga yordam beradigan asosiy g'oyalar va tamoyillar bilan asoslanadi. Asosiy tamoyil deganda- insonning xulq-atvori va ruhiy hayotinning asosi ongsiz jarayonlarda yotishi nazarda tutiladi. Ta'lim jarayonida stress va boshqa emotsional muammolar paydo bo'lishidamumkin. Psixologik vositala sifatida: O'qituvchilar va talabalar uchun stressni boshqarish texnikalari ishlab chiqish, emotsional muvozanatni saqlashga yordam beruvchi mashg'ulotlarni o'tkazilishi nafaqat ta'lim jarayonini samarali qilishga, balki o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanishiga ham katta hissa qo'shadi.

Avstraliyalik nevrolog va ruhshunos Zigmund Freyding fikricha; "Inson psixikasi uch qismga bo'linadi: Id(hirs va instinktlar), Ego:(ongli fikrlash), Superego(axloqiy qoidalar va me'yorlar). Bu nazariya odamlarning bolalik travmalari va ongsiz xohish-istaklari, ularning kelajakdagi xulq atvoriga qanday

ta'sir qilishini tushuntirishga qaratilgan. Sotsiologiya- ta'limiy muhitida, o'quv jarayonida odamlar qanday o'zaro ta'sir qilishi va ijtimoiy guruhlar ta'sirini o'rganadi. Talabalar jamoalari, madaniy diversifikatsiya va ijtimoiy ta'sirlar ta'lim jarayoniga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Diversifikatsiya- ta'lim tizimida turli yo'nalishlar usullar va dasturlarni joriy qilish orqali ta'limning sifatini oshirish, o'quvchilar ehtiyojlarini qondirish hamda ularning ko'nikma va qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida amalga oshiriladigan strategiya. Sotsiologiya nazariyalari yordamida o'qituvchilar ijtimoiy adolat, teng imkoniyatlar va har xil ijtimoiy guruhlarga taalluqli turli o'quv uslublarini rivojlantirishi mumkin. Sotsiologiya nazariyalari inson jamiyatining tuzukishi, ijtimoiy munosabatlar va xulq atvorini tushuntirishga qaratilgan yondashuvlar va tamoyillardan iborat. Ushbu nazariya jamiyatning qanday ishlashini, undagi o'zgarishlar va ijtimoiy institutlarning ahamiyatini tahlil qiladi. Ta'limning barcha qatlamlar uchun teng va adolatli bo'lishini ta'minlash ham sotsiologik yondashuv orqali amalga oshiriladi. Har bir sotsiologik nazariya jamiyatni tushunishga turlicha yondashadi va ijtimoiy munosabatlar, tengsizliklar va ijtimoiy o'zgarishlarni tahlil qilishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Bu nazariyalar orqali ta'lim jarayonini chuqur tushunish va moslashuvchan strategiyalarni joriy qilish orqali o'qitish sifatini sezilarli darajada oshirish mumkin. Tashkiliy xulq-atvor, psixologiya va sotsiologiya nazariyalari ta'lim tizimining inson omiliga yo'naltirilganligini ta'minlaydi. Ushbu yondashuvlar orqali motivatsiyani oshirish, samaradorlikni ta'minlash, shaxsiy ehtiyojlarga moslashish va ijtimoiy muvofiqlikni rivojlantirish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Ta'limni innovatsion, shaxsga yo'naltirilgan va samaradorligini oshiradigan tizim sifatida tashkil qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan bu nazariyalarning o'zaro integratsiyasi ta'lim sifatini yanada yaxshilash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'aniyev, F. (2014). Tashkiliy xulq-atvor va rahbarlik san'ati. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.

2. Qosimov, A., & Yo’ldoshev, M. (2017). Rahbarlik psixologiyasi va menejment asoslari. Toshkent: TDPU nashriyoti.
3. Xolmatov, T. (2021). O’quv jarayonida interfaol metodlardan foydalanish. Toshkent: “Fan va taraqqiyot” nashriyoti.
4. Shodmonov, S. (2021). Raqamli ta’lim va boshqaruv texnologiyalari. Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti.
5. Garrison, D. R., & Vaughan, N. D. Blended Learning in Higher Education: Framework, Principles, and Guidelines. Jossey-Bass.
6. Fullan, M. The New Meaning of Educational Change. Teachers College Press.

THE ROLE OF WEB QUEST TECHNOLOGY IN LEARNING ENGLISH

Jalilova Xolidaxon Fayzullo qizi

PhD student

Namangan State University

Department of History and Theory of Pedagogy

Abstract: *This research investigates the role of Web Quest technology in the acquisition and development of English language proficiency. Web Quests, as inquiry-based online learning tools, offer learners an organised yet adaptable framework for engaging with real language content, developing critical thinking, and fostering collaborative abilities. This study investigates how Web Quests affect reading comprehension, writing competency, listening and speaking skills, and overall language acquisition. This article seeks to explicate the usefulness of Web Quests in enhancing English language learning outcomes by analysing educational practices, case studies, and empirical data, as well as to offer best practices for their implementation in educational contexts. For answering the questions of the study, the researcher adopted the experimental approach. The sample of the study consisted of 24 students distributed into two groups. The lesson was taught to one group traditionally and to another group through web quest technology. The results were compared and analyzed.*

Keywords: *Web Quest technology, online learning, educational practices, language acquisition, inquiry-oriented activity.*

Annotatsiya: *Ushbu maqola ingliz tilini bilish va rivojlantirishda Web Quest texnologiyasining rolini o'rganadi. Veb-kvestlar so'rovga asoslangan onlayn ta'lim vositalari sifatida o'quvchilarga real til mazmuni bilan shug'ullanish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va hamkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun uyushgan, ammo moslashuvchan asosni taklif qiladi. Ushbu tadqiqot veb-kvestlarning o'qishni tushunish, yozish qobiliyati, tinglash va gapirish qobiliyatlari va umumiy tilni egallashga qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Ushbu maqola ta'lim amaliyotlari, amaliy tadqiqotlar va empirik ma'lumotlarni tahlil qilish orqali ingliz tilini o'rganish natijalarini oshirishda Web Kvestlarning foydaliligini tushuntirishga, shuningdek, ularni ta'lim kontekstida amalga oshirish bo'yicha eng yaxshi tajribalarni taklif qilishga intiladi. Tadqiqot savollariga javob berish uchun tadqiqotchi eksperimental yondashuvni qo'lladi. Tadqiqotning namunasi ikki guruhga bo'lingan 24 nafar talabadan iborat edi. Dars an'anaviy tarzda bir guruhga, boshqa guruhga esa veb-kvest texnologiyasi orqali o'tildi. Natijalar solishtirildi va tahlil qilindi.*

Kalit so'zlar: *Veb kvest texnologiyasi, onlayn ta'lim, ta'lim amaliyotlari, til o'zlashtirish, so'rovga yo'naltirilgan faoliyat.*

Аннотация: *В данной статье исследуется роль технологии веб-квестов в приобретении и развитии владения английским языком. Веб-квесты, как инструменты онлайн-обучения на основе запросов, предлагают учащимся организованную, но адаптируемую основу для взаимодействия с реальным языковым контентом, развития критического мышления и развития способностей к сотрудничеству. В этом исследовании изучается, как веб-квесты влияют на понимание прочитанного, навыки письма, навыки аудирования и разговорной речи, а также на общее овладение языком. Целью этой статьи является объяснение полезности веб-квестов для улучшения результатов изучения английского языка путем анализа образовательной практики, тематических исследований и эмпирических данных, а также предложение лучших практик по их внедрению в образовательный контекст.*

Для ответа на вопросы исследования исследователь применил экспериментальный подход. Выборку исследования составили 24 студента, разделенные на две группы. Урок проводился одной группе традиционно, а другой группе посредством технологии веб-квеста. Результаты сравнивались и анализировались.

***Ключевые слова:** Технология веб-квеста, онлайн-обучение, образовательные практики, овладение языком, исследовательская деятельность.*

Introduction. In the evolving landscape of education, technology continues to play a pivotal role in enhancing learning experiences. One such technological innovation is the Web Quest, an inquiry-oriented online learning activity that promotes critical thinking and problem-solving skills. This article explores how Web Quests contribute to the learning of English, focusing on their benefits, implementation strategies, and the impact on language acquisition. A Web Quest is an online-based task that requires students to explore information on the internet to solve a specific problem or answer a question. Typically, Web Quests are structured with clearly defined roles and goals, guiding learners through a series of web resources. The activities encourage students to engage with authentic materials, collaborate with peers, and apply their findings in a meaningful context. The effectiveness of Web Quests in learning English can be assessed through various means, including observing student engagement, evaluating the quality of their output, and soliciting feedback on their experiences. Additionally, assessing improvements in language skills and critical thinking abilities can provide valuable insights into the impact of Web Quests.

Literature Review: In 1995, Bernie Dodge, a professor of educational technology at San Diego State University, developed a model for integrating the use of web, to teach any subject at any grade level. He called his work a WebQuest and posted summery of his idea on the web. Since then educators around the world have incorporated WebQuest into their Curricula (Schwartz & Willing, 2001:p.104). A WebQuest is composed of six stages which introduce the activity to students and

familiarize them with the steps of the process. These six building blocks are common to all WebQuests and serve specific purposes to ensure that transformative learning occurs. Dodge (1995; 1997:p.2) describes the six basic parts of WebQuest :

1- An introduction provides some background information to prepare the student to lead the WebQuest program.

2- A task that is a doable and an interesting activity that allows students to learn and enhance their current knowledge by gathering information through the WebQuest.

Students are exposed to an inquiry-oriented activity.

3- A set of information sources needed to complete the task. Many (though not necessarily all) of the resources are embedded in the WebQuest document itself as anchors pointing to information on the World Wide Web. Information sources might include web documents, experts available via e-mail or real time conferencing searchable databases on the net, and books and other documents physically available in the learner's setting. Because pointers to resources are included, the learner is not left to wander through web space completely adrift.

4- A description of the process: the learners should go through a detailed description of the steps of the process which leads them to accomplish the task. The process should be broken out into clearly described steps.

5- Some guidance [resources] on how to organize the information acquired. This can take the form of guiding questions or direction such as timelines, concept maps or cause and effect diagrams...

6- A conclusion It is the closure of the quest that reminds the learners of what they've learned, and perhaps encourages them to extend the experience into other domains. Dodge, (2001:P.7-9); Schwartz & Willing (2001:P.104); Chatel & Nodell (2002:p.4-10); Macgregor & Lou (2005:p.162); Sanders (2006:p. 97-98); Hassenien (2006: p.42) All agreed that the components of WebQuest are the following:

- Introduction.
- Tasks.
- Process or procedure
- Resources.

- Conclusion
- Teacher page.

Methodology: The rapid growth of information and communication technologies, as well as the high demand for foreign language proficiency, require the use of educational methods and work structures that promote active learning. This study aims to develop a web quest for students of the university to improve their foreign-language competence formation. While web quests are widely available on the internet, not all of them are suitable for specific student groups. Thus, we chose some approaches and methods that are based on WebQuest technology to identify the effectiveness of this technology in the process of foreign-language competence formation of future specialists. Namely, Role-Playing Historical Events. Web Quests can incorporate role-playing activities where students are assigned roles based on historical figures or cultural representatives from different periods or regions. By immersing themselves in the mindset of these individuals, students can better appreciate the socio-cultural contexts that shaped their actions and decisions. This method is useful and convenient for assessing students. Also it is not boring and can motivate students to take part in lessons. If we give simple sample, "The Silk Road Journey" activity. In this Web Quest, students take on the roles of merchants, diplomats, or travelers along the Silk Road during different historical periods. They explore how the exchange of goods, ideas, and culture along this ancient trade route influenced the development of societies across Europe and Asia. Another method is that they are given a task based on WebQuest, creating a detailed, simple report and presentation addressing how climate change affects a specific region, its ecosystems, and human communities, along with potential solutions. In this process, they choose a region affected by climate change and research the region's climate, key environmental issues, and socio-economic impacts using provided resources. Finally, they collaborate with groupmates to compile findings into a comprehensive report and create a visual presentation. In this approach, they can also work together collaboratively.

Results and Discussion: As it was already mentioned above, for answering the questions of the study, the researcher adopted the experimental approach. The

sample of the study consisted of 24 students distributed into two groups. The lesson was taught to one group traditionally and to another group through web quest technology. The results were compared and analyzed. With the help of collaborative learning, such as team work, pair work, mainly role playing via WebQuest technology, students of first group learnt to work together, shared knowledge and appreciated views of one another.

Student projects demonstrated:

- 1) Perfect comprehension of a task: Their projects indicated a thorough understanding of the assignment.
- 2) Task completion: all materials are directly relevant to the topic, and resources are accurately cited; students consulted credible sources.
- 3) Work outcome: the work was clearly and logically presented with information that was directly related to the subject, the students critically examined the material, and their opinions were clearly shown.
- 4) Creative approach: Students' usage of demonstrative computing skills represented their creative approach.

Both traditional and innovative ways are useful. However, in this technological era, using WebQuest technology in classrooms is more convenient and interesting for students as well as educators.

Conclusion: In conclusion, Web Quest technology offers a dynamic and interactive approach to learning English. By incorporating authentic materials and collaborative activities, Web Quests not only enhance language skills but also foster critical thinking and effective communication. As technology continues to advance, integrating such innovative approaches into language education will likely offer even more opportunities for learners to engage with and master the English language. Despite some challenges, the benefits of Web Quest technology make it a valuable tool in modern education.

References:

1. Chatel, R., & Nodell, J. (2002). WebQuests: Teachers and Students as Global Literacy Explorers. [Internet]. Retrieved October 9, 2011 , from the World Wide Web (URLs):

2. Dodge, B. (1997). Some Thoughts About WebQuest, The WebQuest page. [Internet]. Retrieved September 12, 2011, the World Wide Web (URLs):
3. Dodge, B. (2001). FOCUS: Five rules for writing a great WebQuest. Learning and Learning with Technology, 28(8), 6-9, 58.
4. Hassanien, A. (2006). Using WebQuest to Support Learning with Technology in Higher Education, Journal of Hospitality, Leisure, Sport and Tourism Education, Vol. 5, No. 1, P. 41-49.
5. Macgregor, K., & Lou, Y. (2005). WebQuest Learning: How Task Scaffolding and Web Site Design Support Knowledge Acquisition, Journal of Research on Technology in Education, Vol. 37, No. 2, P. 161-175.
6. March, T. (2004, January). The Learning Power of WebQuests. Lightning the way for Next era Education. Retrieved from www.tommarch.com/writings/ascdwebquests/
7. Sanders, J. (2006). E-learning for GP Educators. United Kingdom: Radcliffeoxford Publishing.
8. Schwartz, L., & Willing, K. (2001). Computer Activities for the Cooperative Classroom. U.S.A.: Stenhouse Publishers.
9. Vidoni, K. L., & Maddux, C. D. (2008). WebQuests: Can they be used to improve critical thinking skills in students? Computers in the Schools, 19(1-2), 101-117. https://doi.org/10.1300/J025V19N01_09

SHARQ VA G`ARB MUTAFAKKIRLARINING PEDAGOG SHAXSI HAQIDAGI QARASHLARI

Abdullayeva Durdona Ravshanjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

*Pedagogika va psixologiya fanlarini o`qitish metodikasi mutaxassisligi 2-bosqich
magistranti*

***E-mail:**durdonaabdullayeva914@gmail.com **Tel:**[+998931454709](tel:+998931454709)*

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagog shaxsining shakllanish tarixi, ta'lim jarayonining rivojlanish davrlari, ta'lim tarbiya jarayonida pedagogning roli, bo'lajak pedagoglarda shakllanishi shart bo'lgan xususiyatlar to'g'risida sharq va g'arb mutaffakirlarining qarashlari haqidagi fikr-mulohazalar hamda yurtimizda o'quv jarayonini takomillashtirish uchun olib borilayotgan islohotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Pedagog, akademiya, donishmandlar uyi, qomusiy olimlar, yetuk inson, ma'rifatparvar, ta'magirlik, kasbiy mahorat, pantomimika, mimika, kasbiy bilim, pedagogik mahorat.

Аннотация: В данной статье история формирования личности педагога, периоды развития образовательного процесса, роль педагога в образовательном процессе, взгляды восточных и западных мыслителей на характеристики, которые должны формироваться в будущем педагогов, представлены взгляды нашей страны на реформы, проводимые по совершенствованию образовательного процесса.

Ключевые слова: Педагог, академия, дом мудрецов, учёные-энциклопедисты, зрелая личность, просветитель, учитель, профессиональные навыки, пантомима, мим, профессиональные знания, педагогическое мастерство

Abstract: In this article, the history of the formation of the personality of the pedagogue, the development periods of the educational process, the role of the pedagogue in the educational process, the opinions of eastern and western thinkers about the characteristics that must be formed in future pedagogues. and the reforms carried out to improve the educational process in our country are presented.

Key words: Pedagogue, academy, house of sages, encyclopedic scholars, mature person, enlightener, teacher, professional skills, pantomime, mime, professional knowledge, pedagogy skill.

Pedagog kasbi, uning paydo bo'lishi va ravnaq topishini o'rganish davomida bu kasbning paydo bo'lishini kishilik taraqqiyoti tarixi bilan uzviy bog'liqligini ko'rishimiz mumkin. Dastlabki maktablar qadimgi Sharqda (Bobil, Misr, Hindiston)da paydo bo'lib, ularda bolalarga ma'muriy-xo'jalik boshqaruvi asoslari

o’rgatilgan. Antik davrda maktablar Sparta, Afina va Rim tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida faoliyat olib borganlar. Qadimgi Yunonistonda bunday joylar “akademiya” deb nomlangan. “Akademiya” so’zi qahramon Akadema nomidan kelib chiqqan. Miloddan avvalgi IV asrda Afina yaqinidagi “Akadema” nomi bilan nomlanuvchi joyda Platon o’z shogirdlariga ma’ruzalar o’qigan bo’lib, keyinchalik, ta’lim tashkil etiluvchi maskan ham shunday nom bilan atala boshlagan. Qadimgi Rim va Yunonistonda bolalarga bilim berish faylasuflar zimmasiga yuklatilganligini ham alohida ta’kidlash o’rinli. Jamiyatning tabaqalanishi natijasida quldorlik tuzumida bolalarni ta’lim maskanlariga olib borish va olib kelish vazifasini qullar bajarishgan va ular “pedagog” deb nomlanganlar. Ushbu tushunchaning ma’nosi “bola yetaklovchi” demakdir.[1] Darhaqiqat tarixiy taraqqiyotning keyingi bosqichlarida bolalarga tizimli bilimlarni berish bilan doimiy shug’ullanuvchi kishilar aynan shu nom bilan atala boshlaganlar. Feodalizm davrida aksariyat maktablar musulmon mamlakatlarida masjidlar yoki Hindistonda ibodatxonalar qoshida tashkil etilgan. Bunday maktablarda yoshlarga diniy bilimlar bilan birga dunyoviy bilimlar ham o’rgatilgan. O’rta asrlar davrida esa Sharqda akademiya ko’rinishidagi ta’lim muassasalari ham faoliyat yuritgan bo’lib, ular «Donishmandlar uyi» (IX asr, Bag’dod), “Ma’mun akademiyasi” (XI asr boshlari, Xorazm), observatoriyalar qoshidagi jamiyatlar (XV asr, Samarqand) tarzida nomlangan. Akademiyalarga turli fan yo’nalishlari bo’yicha kuchli bilimga ega bo’lgan qomusiy olimlar jalb etilgan. O’rta asrlar hamda kapital ishlab chiqarishiga asoslangan jamiyatlarda akademiya (Sharqda madrasa)lar ko’rinishidagi maktablarda ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk, turli sohalar bo’yicha mukammal bilimga ega pedagoglarning faoliyat yuritishlariga alohida ahamiyat qaratilgan. Sharq Uyg’onish davri ham ulug’ allomalar, qomusiy bilim sohiblari, mashhur mutafakkirlarni yetishtirdi. Turli fanlar sohasida Muhammad al-Xorazmiy, Abu Bakr Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg’oniy, Umar Xayyom Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy hamda Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolar o’zlarining olamshumul kashfiyotlari va minglab asarlarni yaratishdi. Muhammad al-Xorazmiy o’qituvchining ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo’lishlariga alohida ahamiyat

qaratadilar. Ularning fikrlaricha, yaxshi o'qituvchi boshqalardan bir jihati bilan farq qiladi, ya'ni, u o'zi ega bo'lgan bilimlarni yoshlarga beminnat o'rgata olishi, har bir ishda ularga ibrat bo'lishi kerakligidir. Al-Forobiy o'qituvchi haqida shunday fikr bildiradi, "O'qituvchi va rahbarning vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o'xshaydi, shu sababli o'qituvchi eshitgan va ko'rganlarining barchasini eslab qolishi, aql-farosatga, chiroylik nutqga ega bo'lishi, o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarni to'la va aniq ifodalab berishni bilmog'i lozim. Shu bilan birga o'z ornomusini qadrlashi, adolatli bo'lishi lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo'ladi va baxt cho'qqisiga erishadi".[2] Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida o'qituvchi bolalarga ta'lim berishdek mas'uliyatli burchini bajarishi zarurligini uqtirar ekan, ularga faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun tavsiyalar beradi. Jumladan, bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish, berilayotgan bilimning bolalar tomonidan o'zlashtirilishiga e'tibor qaratish, ta'limda turli shakl va metodlardan foydalanish, bolaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi, fanga qiziqтира olishi, berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi, bilimlarni tushunarli, bolaning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berishi, har bir so'zning bolalar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishi kerakligiga urg'u beradi. Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning ma'naviy-axloqiy qarashlari bilan bog'liq ta'limotida ham mehnat, odob-axloq, ta'lim-tarbiya, kasb-hunar, ilm-ma'rifat uzviy mushtaraklikda, dialektik bir butunlikda tahlil etilgan. Inson amaliy faoliyatining biron-bir sohasi ularning ozaro ta'sirsiz amalga oshmaydi, deb yozgani ham bejiz emas, albatta. Beruniyning ma'naviy-axloqiy ta'limotida ikkiyuzlamachilik, yolg'onchilik, tuhmat, qopollik, og'rilik, bir-birining payiga tushish, xudbinlik singari yomon xulqlar toifasiga kiritiladi. Rostlik, odillik, adolat, bular Beruniyning fikricha, yuksak ma'naviyat, gozal odob-axloq belgisidir. Oz zararining hisobiga bolsa-da, rost gapir, haqiqatdan yuz ogirma, har bir narsaga odilona va xolisona yondosh, deb ta'lim beradi va ozi mazkur g'oya va ta'limotlarga bir umr sodiqlikning ibrat-namunasiga aylanadi[3]. Beruniyning fikricha, insonparvarlik- kishilarning ma'naviyat darajasi, u ozida ijobiy ahloqiy xislatlarni tarbiyalay olishi bilan ham bog'liq. Aqlli odam faqat otkinchi bolmagan aqliy ishlar, qadriyatidan lazzatlanadi. Insonning

ma'naviy qiyofasi va turmush tarzi esa uning oz his-tuyg'ularini qanday boshqara olishi bilan bog'liq. Aqlli odam faqat otkinchi bolmagan aqliy ishlar, qadriyatlardan lazzatlanadi. Insonning ma'naviy qiyofasi va turmush tarzi esa uning oz his-tuyg'ularini qanday boshqara olishi bilan bog'liq. U insonga tabiatning gultojisi deb qarar ekan, har bir inson aql-zakovatli, yuksak axloqli, bilim-ma'rifatli bolishi lozim deydi. Uning hamma asarlarida inson kamoloti uning tafakkurini rivojlanishi, sog'lom va jismoniy baquvvat bolishiga bog'liqligi ta'kidlanadi. Beruniy aqliy tarbiya haqidagi qarashlari uning ilm olish, bilish jarayoni haqidagi fikrlarida oz ifodasini topadi. Beruniy insonning har tomonlama kamol topishi eng avvalo mehnat bilan, oqib ma'lumot va hunar egasi bolish bilan bog'liq deb bilgan. Uning fikricha, inson aqli va ma'rifatliligi bilan barkamol va rasodir. Ma'lumki kishi kamolotida uch narsa (irsiyat, muhit, tarbiya) asosiy va etakchi rol oynaydi. Bularni faylasuf olimlar va pedagoglar turlicha izohlab kelganlar.

Mahmud Qoshg'ariy "Men a'zolar kasalligini davolashdan oldin odamlaming ruhiyatini davolashni zarur deb topdim. Bunga men o'qituvchilik yo'li bilan erishaman, bunga mening ishonchim komil. Chunki, a'zolar kasalligi bilan yuzlarcha, minglarcha odamlar halok bo'lsalar, nodonlik, bilimsizlik tufayli o'n ming va yuz minglarcha odamlar halok bo'ladilar." deb o'z fikrlarini bayon etganlar. Keyinchalik Mirzo Ulug'bek tomonidan barpo etilgan madrasalarda o'z davrining taniqli olimlari – Ali qushchi, Taftazoniy, qozizoda Rumi, Mavlono Muhammad, G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Muiniddin Koshiy hamda Mansur Koshiylar talabalarga ta'lim berganlar va o'zlarining noyob asarlarini yozib qoldirdilar. Hazrat Alisher Navoiy o'z davrining ayrim maktabdorlari ega bo'lgan sifatlar, xususan, qattiqqo'llik, ta'magirlik va johilliklarni qoralaydi, o'qituvchining ma'naviy qiyofasiga jiddiy talablarni qo'yadi. O'qituvchi mehnatini xolisona baholab: "Agar shogird podsholikka erishsa ham, muallimga qulluq qilsa arziydi", "Haq yo'lida kim senga bir harf o'rgatmish ranj ila, aylamoq oson emas haqqin ado ming ganj ila" kabi satrlar bitganlar. [3].Buyuk qomusiy olimlarimiz zamonasining injiqliklariga va hayotning qiyinchiligiga qaramay ta'lim olish va yangi nazariyalar yaratish, kelajak avlod uchun manfaatli bo'ladigan asarlar yozish bilan mashg'ul bo'lganlar. XIX asr oxiri hamda XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidchilik

harakatining asoschilari, taniqli ma'rifatparvarlar – Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriy, Abdurauf Fitrat, Is'hoqxon Ibrat va boshqalar aholi orasida nafaqat murabbiy, balki ma'naviy yetuk inson sifatida ham nom qozonganlar. Mashhur pedagog Abdulla Avloniy ham o'z asarlarida o'qituvchi shaxsi va uning faoliyati borasidagi qarashlarni ifodalashga alohida e'tibor qaratadi. Allomaning fikriga ko'ra bolaning sog'lom bo'lib o'sishida ota-onalar o'ziga xos rol o'ynasalar, uning fikriy jihatdan taraqqiy etishida o'qituvchining o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlaydi. Mahmudxo'ja Behbudiy o'z zamonasi yoshlarining bilimli, madaniyatli va siyosiy faol bo'lishlari uchun ilg'or g'oyalari bilan birga amaliy faoliyatda ko'rsatib berganligi bilan ham ahamiyatlidir. U o'z amaliy faoliyatida aqliy tarbiyaning hayotda, ishlab chiqarishda muhim ahamiyat kasb etishini, yosh avlodni qobiliyatli, yaxshi turmush egasi qilib kamol toptirishda asosiy manba bo'lishini anglaganlar. Mutafakkir o'sha davr maktablari uchun darsliklarini yaratib, millatni savodli qilishga, murg'ak qalbda millat qayg'usi, millat iftixorini uyg'otishga oz bo'lsada hissa qo'shdi. Abdurauf Fitrat xalqni ma'rifatli qilishda ta'lim-tarbiya masalari juda muhim deb hisoblagan. Fitrat o'z asarlarida Buxorodagi barcha maktablarni keltirib o'tadi, ammo ta'lim-tarbiya berish axloqiy sifatlarni shakllantirishda hech qanday ahamiyati qolmaganini aytib o'tgan. Fitrat maktabni tarbiya o'chog'i deb hisoblagan, maktabni jamiyat hayotini rivojini ta'minlovchi asosiy manbalardan biri ekanligini ta'kidlagan. Maktab bolalarga tarbiya berib, jamiyatdagi buzuqliklar, o'g'irlik, razolatni yo'qotishi lozim deb biladi. Fitrat darsliklarida ko'plab hikoyalar keltiradi, bu hikoyalarda axloqiy tarbiya berishga va turli axloqiy xislatlarni singdirishga harakat qiladi. Fitrat inson shaxsini tarbiyalash uchun kurashgan mohir pedagogdir. U millatparvarlik va vatanparvarlik haqidagi qadriyatlarga tayanib, shunday ta'limot yaratdiki, bu ta'limot bugungi kunimizda vatanparvarlik mafkurasini yaratish va yoshlarni vatanni, millatni sevishga o'rgatishda muhim qo'llanma bo'la oladi. Fitrat vatan, vatanparvarlik va insonparvarlikni eng yuksak axloqiy xislat deb bilib, kishilarni uni asrashga, unga sidqidildan xizmat qilishga chaqiradi. Fitrat ijodiyotidagi eng muhim masalalardan biri uning islom dini g'oyalarini har taraflama chuqur o'rganib, tahlil etib, ulardan



komil insonni imon- e'tiqod va insofli qilib tarbiyalashda foydalanishni targ'ib qilganligidir. Fitrat barkamol inson tarbiyasida axloqiy tarbiyaning o'rne juda katta deb biladi. Uning fikricha, axloqiy tarbiyaning vazifasi insonni axloqiy barkamol, barchaga foydali inson qilib tarbiyalashdan iborat. U hikmat, iffat, shijoat va adolatni asosiy axloqiy sifatlar deb hisoblaydi.

Jamiyat tomonidan pedagog shaxsi haqidagi fikrlar o'z davrida Sharq mutafakkirlari bilan birgalikda g'arb ma'rifatparvarlarining asarlarida ham o'z aksini topgan. O'z davrining mashhur pedagog-gumanisti, cheklik yozuvchi Yan Amos Komenskiy o'qituvchining bola dunyoqarashini rivojlantirishdagi rolga katta baho berib, o'qituvchilik "yer yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb" ekanligini yozib qoldiradi. Muallifning fikricha, pedagog o'z burchlarini chuqur anglay olishi hamda o'z qadr-qimmatini to'la baholay bilishi zarur. Yan Komenskiy o'qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning shaxsida vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o'z ishini sevuvchi, o'quvchilarga otalardek muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg'otuvchi, o'quvchilarni o'z ortidan ergashtiruvchi va diniy e'tiqod fazilatlarining namoyon bo'lishi maqsadga muvofiq ekanligiga urg'u beradi. Taniqli rus pedagogi va adabiyotshunosi Konstantin Dmitriyevich Ushinskiy o'qituvchi ma'naviyati va kasbiy faoliyatiga yuqori baho beradi hamda ularning kasbiy malakalarini doimiy ravishda takomillashtirib borish zarurligi to'g'risida o'z g'oyalarini fikrlarida ilgari suradi.[4] G'arb olimlarining o'qituvchi shaxsining qiyofasini chizibgina qolmay ularga ko'pgina talablar ham keltirib o'tishgan.

Xulosa o'rnida shuni qayd etish joizki, ko'rib turganimizdek zamonasining turli davrlarida ham tarbiya va ta'lim jarayonini rivojlantirish va yanada takomillashtirish uchun harakat qilgan allomalarimiz kam emas. Ular ajdodlarining o'zlaridan ko'ra aql-farosatli, bilimli bo'lishlari uchun o'zlarini fido qilganlar. Shuningdek, o'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni bera olishi, zamonaviy o'qituvchi sifatida ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan doimo xabardor bo'lishi, o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur, puxta bilimga ega, o'z

ustida tinimsiz izlanishi, pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, ta’lim-tarbiya jarayonida o’quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi, ta’lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga hamda ijodkorlik, tashabbuskorlik va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo’lishi, yuksak darajadagi pedagogik mahorat, jumladan, kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika- mimika, pantomimika, jest kabi jarayon qoidalarini chuqur o’zlashtirib olgan bo’lishi, nutq madaniyatiga amal qilishi, ya’ni uning nutqida aniqlik, to’g’rilik, ravonlik aks etgan bo’lishi, shaxsiy hayotda atrofdagilarga o’rnak bo’la olishi lozim. Bugungi kunda yurtimizda ta’lim tizimini yanada isloh qilish maqsadida qaror va qonunlar ishlab chiqilmoqda. Qolaversa, bugungi kunda muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan jamiyatda o’qituvchi va murabbiylarning obro’-e’tibori va maqomini ko’tarish, o’quv dasturlari va metodikasini to’liq qayta ko’rib chiqish, maktabni ta’limning keyingi bosqichlari bilan uzviy bog’lash, o’qituvchilarni ortiqcha qog’ozbozlikdan xalos etib, o’z ustida ko’proq ishlashi uchun sharoit yaratish va rag’batlantirish kabi masalalarning yechimlari yuzasidan aniq vazifalar belgilab berilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Omonov, A. O. O., Haydarov, S. A. Tarix fanini o’rganishda qadimgi g’arb davlatlari. T.: 2021.
2. R.Mavlonova, N.Vohidova, pedagogika nazariyasi va tarixi. Toshkent.: 2010
3. Ziyamammedov B. Pedagogika. – Toshkent. 2014.
4. Ishmatov. K. Pedagogik texnologiyalarni nazariy asoslari. Ta’lim muammolari. Toshkent.: 1999.
5. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni;
6. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida” Farmoni. T.: 2022.
7. Azimova T. Pedagogik-psixologik tashxis va uning o’quv jarayonidagi ahamiyati. – Toshkent. 2017.
8. Ibragimov. X.I, Yo’ldoshev. U.A. Pedagogik psixologiya. Toshkent.: 2009.



**IXTISOSLIK MODULLARINI O'QITISH SAMARADORLIGINI
OSHIRISHIGA TALABALARNI YO'NALTIRISH TEXNOLOGIYALARI
(MAXSUS PEDAGOGIKA ASOSIDA)**

Sarimsoqova Maftuna Obidjon qizi

Namangan Davlat Pedagogika Instituti Maxsus pedagogika (logopediya) yo'nalishi

1-kurs magistiranti Telefon:932095909

Mail: sarimsoqovamaftuna01@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ixtisoslik fanlarining o'qitish samaradorligi, ularning jamiyatdagi ro'li, maxsus pedagogikaning o'qitish yo'llari va tartibi, maxsus pedagogikaning asosiy yo'nalishlari, ixtisoslik Modullarini O'qitish Samaradorligini Oshirishda Talabalarni Yo'naltirish Texnologiyalariva zamonaviy texnologiyalar haqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *maxsus pedagogika, texnologiya, jamiyat, pedagog, samaradorlik*

Abstract: *In this article, the effectiveness of teaching of specialized subjects, their role in society, teaching methods and procedures of special pedagogy, the main directions of special pedagogy, the technologies of student guidance and modern technologies for increasing the effectiveness of teaching specialized modules. information is provided.*

Key words: *special pedagogy, technology, society, pedagogue, efficiency.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются эффективность преподавания профильных предметов, их роль в обществе, методы и процедуры преподавания специальной педагогики, основные направления специальной педагогики, технологии ориентации учащихся и современные технологии повышения эффективности преподавания специализированных модулей. информация предоставлена.*

Ключевые слова: *специальная педагогика, технология, общество, педагог, эффективность.*

Kirish:

Bugungi ta'lim tizimi, har bir talabaning o'ziga xos ehtiyojlarini inobatga olish va unga mos ravishda samarali ta'lim berish jarayoniga katta e'tibor qaratmoqda. Ayniqsa, nogironligi yoki o'ziga xos ehtiyojlari bo'lgan talabalarga maxsus ta'lim texnologiyalari yordamida ixtisoslik modullarini o'qitishda samaradorlikni oshirish muhim ahamiyatga ega. Maxsus pedagogika, o'zining individual yondashuvi va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali ixtisoslashgan ta'lim jarayonini takomillashtirishda katta rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonining ijtimoiy yo'nalishida amalga oshiriladigan muhim tadbirlar qatorida oliy ta'lim muassasalari uchun pedagoglarning yangi avlodini shakllantirish, ma'naviy-ahloqiy jihatdan yetuk, mustaqil dunyoqarashga ega, ijodiy fikrlovchi, boy milliy meros, shuningdek, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatli barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga etkazish vazifalari ham belgilab o'tilgan. [1]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida " ... ta'lim jarayonini, oliy ta'limning o'quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitish usullarini keng joriy etish, magistratura ilmiy-ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarini joriy etish asosida yanada takomillashtirish" lozimligi ko'rsatib o'tilgan.[2]

Maxsus pedagogika va uning o'qitishdagi roli

Maxsus pedagogika — bu nogironligi yoki o'ziga xos ehtiyojlari bo'lgan talabalarga ta'lim berishning metodologik asoslarini o'rgatadigan ilmiy soha hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi har bir talabaga shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'lim va rivojlanish imkoniyatlarini yaratib berishdan iboratdir. Maxsus pedagogika asosida o'qitish, talabaning o'qish jarayonidagi muvaffaqiyatini oshirish, uni jamiyatda faol ishtirokchi qilib tarbiyalashga yordam beradi.[3,32]

O'qitish jarayonida individual yondashuvni qo'llash, talabalar o'rtasidagi farqlarni hisobga olish va har birining ehtiyojlariga moslashtirilgan o'qitish usullarini joriy etish o'qitish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Shuningdek, maxsus pedagogik texnologiyalar talabalarga mustaqil ishlash, o'qish materiallarini tushunish va o'z bilimlarini chuqurlashtirish imkoniyatini yaratadi. Ayniqsa individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim berish hozirgi kunda sifatli ta'lim jarayoni hisoblanadi. [3,45]

Maxsus pedagogikaning asosiy yo'nalishlari:

Inkluziv ta'lim: Alohida ehtiyojli bo'lgan bolalarni umumta'lim maktablarida ta'lim olish imkoniyatini yaratishdan iborat.

Reabilitatsiya va reabilitatsiya texnologiyalari: Talabalarning rivojlanish imkoniyatlarini oshirish uchun turli usullar va texnologiyalardan foydalanish.

Differensial ta'lim: Har bir talabaning ehtiyojiga moslashgan o'qitish usullari va strategiyalar. Ya'ni har bir bolani qobiliyatidan kelib chiqqan holda ta'lim tizimini yaratishdir. [4,54]

Ixtisoslik Modullarini O'qitish Samaradorligini Oshirishda Talabalarni Yo'naltirish Texnologiyalari

Ixtisoslik modullarini o'qitishda samaradorlikni oshirishda talabalarni yo'naltirish texnologiyalari hozirgi kunda muhim o'rin tutadi. Bunday texnologiyalar o'qituvchi va talaba o'rtasidagi aloqani mustahkamlash, ta'lim jarayonining har bir bosqichida talabani o'qish motivatsiyasini oshirish va o'qish jarayonini muvaffaqiyatli boshqarish uchun foydalaniladi. Buning uchun quyidagi texnologiyalarni qo'llash samarali bo'ladi:

Individulizatsiya va Differensial Ta'lim

Individulizatsiya, har bir talabaning o'ziga xos xususiyatlari, ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Ixtisoslik modullarini o'qitishda, har bir talabaga mos ta'lim dasturini ishlab chiqish va individual yondashuvni qo'llash o'qish samaradorligini oshiradi. Differensial ta'lim esa, turli darajadagi talabalarga moslashgan o'quv materiallarini taqdim etish va ular uchun maxsus o'qitish metodlarini qo'llashni anglatadi. Bu usul talabalar orasidagi farqlarni bartaraf etishga va barcha talabalarning o'qish imkoniyatlarini tenglashtirishga yordam beradi. Jamiyatda har qanday fuqoro teng huquqli ekanligini anglatadi. [5,28]

Ixtisoslik Modullarini O'qitish Samaradorligini Oshirish

Ixtisoslik modullarini o'qitish samaradorligini oshirishda muhim omil talabalarni to'g'ri yo'naltirish texnologiyalarini qo'llashdir. Bu jarayon, o'z ehtiyojlari bo'lgan talabalarga, shuningdek, ixtisoslashgan sohalarda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa inklyuziv ta'lim sohasida sifatli ta'lim berish, o'qituvchilarni malakasini oshirish juda muhim ahamiyatga egadir. [6,62]

Zamonaviy Pedagogik Texnologiyalar

Bugungi kunda ta'limda foydalanilayotgan zamonaviy texnologiyalar, o'qitish samaradorligini sezilarli darajada oshirib kelmoqda. Multimediali ta'lim vositalari, interaktiv platformalar, virtual simulyatsiyalar va onlayn darslar yordamida talabalar o'quv materiallarini yanada chuqurroq va samaraliroq o'zlashtirishlari mumkin. Maxsus ehtiyojlarga ega talabalarga, masalan, brayl yozuvi yoki audiokitoblar orqali darslarni o'qitish imkoniyatlarimavjud. Bunday texnologiyalar talabalarning mustaqil ishlashiga, bilimlarini mustahkamlashga va o'qish motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa qo'shimcha foydalanish uchun taqdim etilayotgan electron qo'llanmalar barcha talabalar uchun samarali vosita hisoblanib kelmoqda. [7,32]

Amaliy Mashg'ulotlar va Simulyatsiyalar

Ixtisoslashgan ta'limda amaliy mashg'ulotlar va simulyatsiyalarni keng qo'llash talabalar uchun nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash imkonini yaratadi. Talabalar o'z ko'nikmalarini rivojlantirish, mustaqil ishlash va haqiqiy ish muhitida o'zlarini sinab ko'rish orqali o'quv jarayonini samarali o'tishlari mumkin. Bu, ayniqsa, ixtisoslik modullarida juda muhimdir, chunki o'quvchilarga o'z sohasida chuqurroq bilim va tajriba berish kerak bo'ladi. [8,56]

Natija

Ixtisoslik modullarini o'qitishda talabalarni yo'naltirish texnologiyalarining qo'llanilishi, talabalarning o'quv faoliyatini yaxshilash, motivatsiyalarini oshirish va bilimlarni chuqurlashtirishga yordam beradi. Ayniqsa har bir olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatini bermoqda. Bundan tashqari alohida ehtiyojli bolalar uchun sifatli ta'lim berish maqsadida turli xil malaka oshirish

seminarlari va imkoniyatidan kelib chiqqan holda ta'lim olish sharoitlarini beryapti.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytishimiz lozimki, ixtisoslik modullarini o'qitishda talabalarni yo'naltirish texnologiyalarini samarali qo'llash, o'qish jarayonini shaxsiylashtirish, o'quvchilarning o'ziga xos ehtiyojlarini inobatga olish va zamonaviy pedagogik vositalarni joriy etish orqali o'qitish samaradorligini oshirish mumkin. Maxsus pedagogika asosidagi yondashuvlar va texnologiyalar, talabalar o'rtasidagi farqlarni bartaraf etishga, ularni muvaffaqiyatli ta'lim olishga rag'batlantirishga, shuningdek, ta'lim tizimining inklyuzivligini ta'minlashga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, jamiyatda har bir talabaning o'z o'rnini topishiga va jamiyatga foydali mutaxassis sifatida xizmat qilishiga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni
- 2: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida "
- 3: Sh. M. Tuxmatov, "Maxsus Pedagogika", Toshkent, 2020.
- 4: N. P. Makarova, "Pedagogika texnologiyalari", Moskva, 2018.
- 5: G. A. Ivanova, "Ixtisoslashgan ta'lim: tamoyillar va metodlar", Sankt-Peterburg, 2021. 2002 yil, 56-bet.
- 6: Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. - T.: Fan, 2004. - 128 b.
- 7: Musurmonova O. va boshqalar. O'quv ishlab chiqarish ta'limi. O'quv uslubiy qo'llanma. T.: "Abdulla Qodiriy nomidagi xalqim ejrosi nashriyoti. 2004 y
- 8: U. Tolipov O., Sharipov Sh. Kasbiy ta'lim pedagogikasi. O'quv qo'llanma. - Toshkent: TDPU, 2007. - 389 b.
- 9: Olimov Q.T. U chebno-m etodicheskoe obespechenie . spetsialnbix dissiplin v sistem e srednego spetsialnogo obrazovaniya. // Uzluksiz ta'lim . 2004 y.- № 3. B. 68-75. 24.



BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TARBIYAVIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA PEDAGOGIK YONDASHUV

Bekberdiyeva Gulbahor

University Business of Science o'qituvchisi

***Annotatsiya.** Maqolada jahonda kechayotgan globallasuv jarayonlari, ta'lim-tarbiya tizimini ilm fan taraqqiyotining eng so'nggi yutuqlari negizida modernizatsiyalash uchun yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning tarbiyaviy faoliyatni amalga oshirishlari zarurligi asoslanib, tarbiyaviy faoliyat tushunchasining mazmuni, maqsad va vazifasi, jarayonni tashkil etish uchun talabalar o'zlashtirishlari zarur bo'lgan bilimlar sohasi bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:** ilm, fan, tizim, kompetentsiya, kompetentlik tarkib, qism, ta'lim, standart, samara, maxsus uslubiy, natija, imkoniyat, tarbiyaviy faoliyat*

Jahonda yuz berayotgan ilmiy-texnik taraqqiyot natijasida fanlarda yangi tarmoqlarning paydo bo'lishi hamda fanlararo integratsiyaning jadal rivojlanishi oliy ta'lim tizimida mutaxassislarni tayyorlash jarayonida axborotlar, xususan bilim, ko'nikma va malakalarga qo'yilgan talablarning ortishiga olib kelmoqda. Bunday sharoitlarda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayoniga innovatsion va integratsion texnologiyalarni joriy qilish, axborotlarni uzatishda fanlararo aloqadorlik tamoyillariga qat'iy amal qilish muammolari yuzaga kelmoqda. Natijada oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonining innovatsion va integratsion texnologiyalarini takomillashtirish zaruriyatini oshirmoqda.

Dunyo miqyosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash mazmuni, ijtimoiy va tabiiy yaxlitlik sifatida real dunyoning mavjudligi va rivojlanishi qonunlari, uning elementlari o'rtasidagi asosiy aloqalar va munosabatlarning tabiati haqida tasavvurlarni shakllantirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, innovatsion fikrlashni rivojlantirish muammosining o'ziga xos xususiyatlari,

ta'limni tashkil etish jarayonida innovatsiya va integratsiya muammolari, integratsiyaning nazariy masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar natijalari muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birgalikda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini ta'lim jarayonini tashkil etishning innovatsion va integratsion texnologiyalari, jumladan, integratsiya jarayonlarining qonuniyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan boyitish dolzarb vazifalarga aylanmoqda.

Mamlakatimizda pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini oshirish, tabaqalashtirish, variativ o'quv rejalari, fanlarni o'qitishda o'quvchilarni hayotga tayyorlash tamoyillarini keng joriy qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Pedagogika sohasi ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari uchun o'zgaruvchan o'quv reja va dasturlarni joriy etish...

The Internet of Things (IoT) has become an integral part of our daily lives, transforming the way we interact with technology. Its impact extends to the field of education, particularly in language learning. In the context of learning English, IoT offers numerous benefits that enhance the effectiveness and efficiency of the learning process. This article explores the importance of IoT in learning English and highlights the advantages it brings to language learners.[4]

The Internet of Things (IoT) plays a significant role in improving the effectiveness of language learning. By connecting devices and leveraging data, IoT enables a more immersive and personalized learning experience. Here are some key reasons why IoT is important in enhancing language learning:[2]

1. Interactive Language Learning: IoT devices, such as smart speakers or language learning apps, can engage learners in interactive language practice. These devices can provide real-time feedback, pronunciation correction, and interactive exercises, making language learning more engaging and effective.

2. Access to Authentic Language Resources: IoT allows learners to access a vast array of authentic language resources. Connected devices can provide access to online libraries, news articles, podcasts, and videos in the target language. This exposure to authentic content enhances language comprehension and vocabulary acquisition.[3]

3. Personalized Learning: IoT devices can collect data on learners' language proficiency, learning preferences, and progress. This data can be used to personalize the learning experience by providing tailored content, adaptive exercises, and targeted feedback. Personalized learning helps learners focus on their specific needs and progress at their own pace.

4. Language Immersion: IoT devices can create immersive language learning environments. For example, smart home devices can be set to operate in the target language, exposing learners to constant language input. Virtual reality (VR) and augmented reality (AR) technologies can also provide simulated language immersion experiences, allowing learners to practice language skills in realistic scenarios.

5. Collaborative Learning: IoT facilitates collaborative language learning experiences. Connected devices enable learners to interact with peers, native speakers, or language tutors remotely. This collaboration enhances communication skills, cultural understanding, and provides opportunities for authentic language practice.[3]

Conclusion: The integration of IoT technologies in language learning environments brings forth numerous benefits, including interactive learning experiences, access to authentic resources, personalized instruction, language immersion, and collaborative learning opportunities.[4] By embracing IoT, educators can create more effective and engaging language learning experiences, catering to the individual needs and preferences of learners. However, it is crucial to address challenges related to data privacy and security to ensure the responsible and effective use of IoT in language learning. This article aims to shed light on the importance of IoT in language learning, encouraging further research and exploration in this dynamic field.

References

1. Ali M, Yin B, Kunar A, Sheikh AM et al (2020) Reduction of multiplications in convolutional neural networks. In: 2020 39th Chinese control conference (CCC), pp 7406–7411. IEEE.
2. Sia S, Duh K (2023) In-context learning as maintaining coherency: a study of on-the-fly machine translation using large language models. CoRR.
3. Xiang M, Mao F, Xiao L (2023) A study on the integration of digital language teaching system into English teaching. J Comput Methods Sci Eng 23(2):913–920.
4. Zhou Z, Sperber M, Waibel A (2019) Paraphrases as Foreign languages in multilingual neural machine translation. In: Proceedings of the 57th conference of

the association for computational linguistics (ACL 2019), Florence, vol. 2. Student Research Workshop, Association for Computational Linguistics, pp 113–122.

AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB BIOLOGIYA FANINI O'QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Narzullayev Azamat Xamidulla

Toshkent davlat agrar universiteti, O'simliklar himoyasi, agrokimyo va tuproqshunoslik fakulteti, Agrokimyo va tuproqshunoslik yo'nalishi talabasi
supremegektor@gmail.com , +998 942350106

Annotatsiya: *Mazkur maqolada biologiya fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish yo'llari va usullari o'rganilgan. Zamonaviy axborot vositalari yordamida ta'lim jarayonini takomillashtirish, talabalarning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularning bilim olish samaradorligini yaxshilash imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, turli raqamli platformalar, dasturlar va interaktiv metodlardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Axborot texnologiyalari, biologiya ta'limi, raqamli platformalar, interaktiv metodlar, ta'lim samaradorligi, o'quv jarayonini takomillashtirish.*

Аннотация: *В данной статье изучаются пути и методы эффективного использования информационных технологий в преподавании биологии. Проанализированы возможности совершенствования образовательного процесса, повышения интереса студентов к учебному процессу и повышения эффективности их обучения с помощью современных информационных носителей. Также даются рекомендации по использованию различных цифровых платформ, программ и интерактивных методов.*

Ключевые слова: *Информационные технологии, биологическое образование, цифровые платформы, интерактивные методы, эффективность образования, совершенствование образовательного процесса.*

Abstract: *This article examines the ways and methods of effective use of information technology in teaching biology. The possibilities of improving the educational process, increasing students' interest in the educational process and improving the effectiveness of their learning with the help of modern information carriers are analyzed. Recommendations on the use of various digital platforms, programs and interactive methods are also given.*

Keywords: *Information technology, biological education, digital platforms, interactive methods, educational effectiveness, improving the educational process.*

Axborot texnologiyalari, biologiya ta'limi, raqamli platformalar, interaktiv metodlar, ta'lim samaradorligi, o'quv jarayonini takomillashtirish. Axborot-kommunikatsion texnologiyalarni (AKT) ta'lim jarayoniga qo'llash hozirgi zamon ta'limining dolzarb masalalaridan biridir [1]. Buning sababi shundaki, bugungi kunda har bir sohada o'rganish, izlanish va tajriba orttirishda samaradorlikni oshirish uchun turli xil zamonaviy usullar va yondashuvlardan foydalanish talab qilinmoqda. AKT o'quv jarayonlarini interaktiv va qiziqarli qilish bilan birga, talabalarning bilim olish jarayonida faol ishtirokini ta'minlashga imkon yaratadi [2-4]. Masalan, onlayn platformalar, masofaviy o'qitish tizimlari va multimedia resurslaridan foydalanish ta'limning sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, AKTning ta'lim jarayoniga qo'llanilishi nafaqat o'qitishning sifatini oshiradi, balki ta'lim jarayonlarini individuallashtirish va moslashuvchan qilish imkonini ham beradi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) ta'lim jarayonlarini samarali tashkil etish uchun zarur vositalar va dasturiy ta'minotlar bilan boyitib borilmoqda [5]. Bugungi kunda an'anaviy o'qitish usullaridan farqli ravishda, AKTdan foydalangan holda darslarni tashkil etish yuqori natijalarga erishish imkonini bermoqda. Ayniqsa, biologiya fanini o'qitishda talabalar ongida nazariy modelni shakllantirish, hodisalar va jarayonlarni tushunishga yordam beradigan interaktiv usullar juda muhimdir [6-7].

Kompyuterda modellashtirish: Tabiat hodisalarini tasvirlash va tahlil qilish uchun BioDigital Human, Molecular Workbench, Cell Lab kabi dasturlar

qo'llaniladi. Ular tabiat hodisalarini batafsil modellashtirish va tushuntirishga yordam beradi. Shu bilan birga tayyor ochiq kodli Phet pedagogik dasturiy ta'minoti ham mavjuddir. Phet pedagogik dasturiy paketini Kalorada uinversiteti olimlari tomonidan ishlab chiqilgan va keng ommoga ochiq kod bilan tarqatilgan. Bu dastur paketining afzalliklari juda ko'p bo'lib shulardan:


-laboratoriya sharoitida amalga oshira olmaydigan biologik, fizik, matematik, kimyoviy jarayonlarni modellashtirilgan holatda kuzatishimiz mumkin,

-bu ishlarni amalga oshirishimiz uchun real va ortiqcha resurs talab qilinmaydi (modellashtirilgan ishlarni qayta va qayta kompyuterda bajarishimiz mumkin)

-dastur ilovasini bir marta o'rnatib offlayn ko'rinishida foydalanaverishimiz mumkin

-dasturning kompyuter versiyasi bilan bir qatorda mobil versiyasi ham mavjuddir

Bu pedagogik daturiy vositalar yordamida o'rganuvchi talabalar istalgan paytda o'rganilayotgan hodisa va voqealarni to'xtatib qo'yishi, orqaga qaytarishi hamda dastlabki parametrlarni o'zgartirib jarayonning ishtirokchisidek his qilishi mumkin. Bu jarayonni o'rganish albatta ma'lum bir model, ya'ni mazkur jarayonning mavhumlashtirilgan, soddalashtirilgan obrazi asosida olib boriladi. Real jarayonning immitasion kompyuter modelini yaratishda ma'lum bir model asos qilib olinadi[6].



Modellashtirilgan jarayon

Biologiya fanida axborot-kommunikatsion texnologiyalar va modellashtirish usullari o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi. Modellashtirishning boshqa fanlar kabi biologiya fanida ham o'ziga xos muhim jihatlari mavjud. Quyida biologiya fani misolida modellashtirishning imkoniyatlari va afzalliklari keltirilgan:

Laboratoriya tajribalarini modellashtirish: Asbob-uskunalarga ehtiyojning kamayishi: Modellashtirish orqali murakkab biologik jarayonlar, masalan, hujayra ichidagi organellarning harakati, mitoz va meyozi jarayonlari kabi holatlarni maxsus qurilmalarsiz, kompyuter dasturlari yordamida kuzatish mumkin.

Jarayonlarni takrorlash: Tajribani istalgan vaqtda, istalgan marta takrorlash mumkin. Bu murakkab jarayonlarni talabalarga yaxshiroq tushuntirishga yordam beradi.

Kuzatilishi qiyin jarayonlarni tasvirlash: Ko'rinmas jarayonlarni vizualizatsiya qilish: Masalan, molekulyar biologiya sohasidagi DNK replikatsiyasi, oqsil sintezlanishi yoki fermentlarning faoliyati kabi jarayonlarni animatsion tasvirlarda tushuntirish imkoniyati yaratiladi.

Mikroskop ostida kuzatiladigan ob'ektlarni kattalashtirish: Kompyuter dasturlari yordamida mikroskopik obyektlarning harakati va tuzilishini interaktiv ko'rinishda namoyish etish mumkin.

Murakkab hodisalarni animatsiya qilish: Masalan, o'simliklarning fotosintez jarayoni, hayvonlarning qon aylanish tizimi yoki ekologik zanjirni animatsiya qilish orqali talabalarga mazmunni tushuntirish yanada samarali bo'ladi.

Resurslarni tejash: Modellashtirish tajribalarida jonli organizmlar, reagentlar va boshqa laboratoriya materiallarini qo'llamaslik orqali ekologik va iqtisodiy samaradorlikka erishiladi.

Multimediyali pedagogik dasturlar: Phet kabi dasturlar: Biologiya fanida ham turli modellarni tushuntirish uchun foydalanish mumkin.

O'qituvchiga bu pedagogik dasturiy vositalar kompyuter monitorida shuningdek, multimedia proyektori yordamida ko'pgina biologik effektlarni namoyish etishning hamda yangi noan'anaviy o'qitish turini takomillashtirishning

imkonini beradi. Bugungi kunga kelib ta'limda informatsion texnologiyalardan foydalanish ko'zga ko'rinmas, tez yoki sekin o'tuvchi jarayonlarning, murakkab hodisalarni animatsiya qilish imkonini yaratadi.

Shunday ekan ta'lim jarayoniga zamonoviy texnologiyalarni qo'llash orqali ta'limning sifat va samaradorligini oshirishimiz mumkin. Fundamental nazariyalarga asosan biologiya kursi materiallari to'g'ri va yagona sistemaga keltirilgan. Bu esa fan olamidagi barcha ilmiy yo'nalishlarning g'oyalari asosidagi ilmiy bilimlar o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish uchun asos bo'ladi, degan xulosaga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Повышение эффективности образования применением информационных технологий при решении физических задач / М. Насиров, Л. Олимов, Ё. Маматохунов, Ф. Омонбоев // Научный вестник АГУ. – 2015. – № 3. – С. 98–101.
2. Harvey Gould, Jan Tobochnik, Wolfgang Christian. An introduction to computer simulation methods. Applications to Physical Systems. – Pearson Education/Inc/publishing as Addison Wesley, 2007.
3. Axmadov, M., Asfandiyorov, M., (2023). // Pedagogik dasturiy vositalar yordamida fizika fanini o'qitish. // Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(10), 90-92. (<https://in-academy.uz/index.php/cajei/article/view/21486>)
4. X.N.Karimov, M.M.Asfandiyorov, M.A.Axmadov. //Zamonaviy yondashuvlar asosida fizika o'qitishni rivojlantirish.// "Yosh olimlar, doktorantlar va tadqiqotchilarning onlayn ilmiy-forumi" materiallar to'plami. 2023. –P. 113 (https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=i5SoNTcA AAAJ&citation_for_view=i5SoNTcAAAAJ:M3ejUd6NZC8C)
5. X.N.Karimov. //Fizika fanini o'qitishda virtual laboratoriya ishidan foydalanish. // "Yosh olimlar, doktorantlar va tadqiqotchilarning onlayn ilmiy-forumi" materiallar to'plami. –P. 102-104 (<https://fer-teach.uz/index.php/epai/article/view/130>).
6. X.N.Karimov, M.M.Asfandiyorov, M.A.Axmadov. //Zamonaviy yondashuvlar asosida fizika o'qitishni rivojlantirish.// "Yosh olimlar, doktorantlar va tadqiqotchilarning onlayn ilmiy-forumi" materiallar to'plami. 2023. –P. 113-115.



(https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=i5SoNTcAAAAJ&citation_for_view=i5SoNTcAAAAJ:M3ejUd6NZC8C)

7. Kh.N.Karimov. // Methods of self-education in teaching students physics using ict-information and computer technologies // “Galaxy international Interdisciplinary Research Journal”, 11(2), -P. 471–475.
(<https://giirj.com/index.php/giirj/article/view/4889>)

II. IJTIMOY PEDAGOGIKA

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA TIL VA NUTQQA OID QARASHLARI

Abduvosiyeva Mahmuda Xamidullo qizi

*University of Business and Science nodavlat oliy ta’lim muassasasi
Maktabgacha – Boshlang’ich ta’lim va Jismoniy tarbiya kafedrası
o’qituvchisi*

Elektron pochta: abduvosiyeva96@mail.ru +99891360 98 28

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sharq mutafakkirlarining yosh avlodni tarbiyalashda til va nutqning ahamiyati tahlil qilinadi. Tilning tarbiya jarayonidagi o’rni, shuningdek, muloqot va fikr bildirish ko’nikmalarining yoshlarni rivojlantirishdagi ro’li haqida fikr yuritiladi. Sharq mutafakkirlarining asarlarida tilning tarbiyaviy kuchi, milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirishdagi o’rni alohida ta’kidlanadi. Maqola zamonaviy tarbiya tizimida til va nutqni o’rganishning muhimligini, shuningdek, mutafakkirlarning metodologik yondashuvlarini ko’rsatadi. Bu orqali, yosh avlodni tarbiyalashda samarali usullar va strategiyalarni ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.*

Kalit so’zlar: *Sharq mutafakkirlari, yosh avlod tarbiyasi, til, nutq, ta’lim, madaniyat, an’anaviy qadriyatlar, mantiqiy fikrlash, xulq-atvor, kommunikatsiya.*

Annotation: *This article analyzes the importance of language and speech in educating the young generation of eastern thinkers. The role of language in the process of education, as well as the role of communication and expression skills in the development of young people are discussed. The educational power of language, its role in the preservation and development of national culture is emphasized in the works of eastern thinkers. The article shows the importance of learning language*

and speech in the modern educational system, as well as the methodological approaches of thinkers. Through this, an opportunity is created to develop effective methods and strategies for educating the younger generation.

Keywords: *Eastern thinkers, education of the young generation, language, speech, education, culture, traditional values, logical thinking, behavior, communication.*

Аннотация: *В данной статье анализируется значение языка и речи в воспитании молодого поколения восточных мыслителей. Обсуждается роль языка в процессе образования, а также роль коммуникативных и выразительных навыков в развитии молодежи. Воспитательная сила языка его роль в сохранении и развитии национальной культуры подчеркивается в трудах восточных мыслителей. В статье показана важность изучения языка и речи в современной системе образования, а также методические подходы мыслителей. Это создаст возможность разработки эффективных методов и стратегий воспитания подрастающего поколения.*

Ключевые слова: *Восточные мыслители, образование молодого поколения, язык, речь, образование, культура, традиционные ценности, логическое мышление, поведение общение.*

Har bir mamlakatning taraqqiyoti, istiqboli, farovonligi, ma'naviy yuksalishi, jahonning eng rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olishi - bilimli, yuqori intellektual salohiyatli, qalbiga va ongiga ezgu fazilatlarni mujassamlagan yoshlarga bog'liq hisoblanadi. Har jihatdan yetuk va barkamol, Vatan taqdiri uchun sidqi dildan xizmat qiladigan, fidoyi, iymonli avlodni voyaga yetkazish, o'qitishni sifatli va mazmun jihatdan yuqori pog'onalarga olib chiqish avvalo o'qituvchi va tarbiyachi murabbiylar zimmasiga sharafli va ayni paytda mas'uliyatli vazifani yuklaydi.

Ta'lim muammolari, tarbiya muammolari juda qadim zamonlardan beri mavjud. Bu muammolar o'rta asrlarda g'arb va sharq mutafakkirlarining ilmiy asarlarida ko'rib chiqilgan. Bu davrlarning buyuk allomalari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy,

Jaloliddin Dovoniy, Alisher Navoiylar o'sha paytdagi juda qattiq feodal zulm va mutaassib ruhoniylarning qattiq qarshiligiga qaramasdan jahon faniga, madaniyatiga, maorifiga beqiyos hissa qo'shganlar.

Sharqning qomusiy mutafakkirlaridan biri bo'lgan Abu Nasr Forobiy insonni har tomonlama takomillashtirish, ularni umumiy baxt-saodatga yetaklash yo'llari va usullarini o'zining ijtimoiy-siyosiy ta'limoti markaziga qo'yadi, bu esa uning dunyoqarashlarining umuminsoniy asosga egaligidan dalolat beradi. Aynan shunday maqsadlar Farobiyning shaxsni tarbiyalash va ta'lim berish, uni takomillashtirish hamda uning ijtimoiy muammolarni hal etishdagi faol rolga nisbatan dunyoqarashlarining bosh mazmunini tashkil etadi. Uning fikriga ko'ra, ta'lim va tarbiya oilada, o'qituvchi yordamida maktabda va yaxshilikka asoslangan jamiyatda uning rahbari yordamida amalga oshirilishi mumkin. Farobiy ta'limni aqliy va ma'naviy rivojlanish, shu jumladan axloqan rivojlanish poydevoridir deydi. Ta'lim va tarbiya o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lib ular shaxsni ma'nan kamolotga yetkazuvchi turli yo'llar hisoblanadi. Farobiy ijtimoiy tarbiyani tartibga solish, uni boshqarish masalalariga alohida e'tibor bergan. U mehnat faoliyati tarbiyaning muhim vositasi hisoblanadi degan xulosaga keladi.

Farobiy inson baxt-saodatga erishuvi uchun ularni baxtli-saodatli qila oladigan jamoa rahbari bo'lishi kerak deydi.

Sharqning buyuk mutafakkirlaridan biri Ibn Sino bola tabiatini nafaqat tabib, balki yetuk pedagog sifatida ham chuqur bilishini namoyon qilgan. Uning bolalarga ta'lim va tarbiya berish haqidagi ko'plab fikrlari o'zining chuqurligi, insonparvarlik ruhi bilan yo'g'rilganligi va tarbiyadek murakkab muammoni to'g'ri talqin qilishi bilan kishini lol qoldirdi. Alloma taklif qilgan tarbiya va ta'lim mazmuni aqliy tarbiya, jismoniy sog'lomlashtirish, estetik tarbiya, axloqiy tarbiya va hunar o'rgatishni o'z ichiga oladi. Ibn Sino bola tarbiyasining butun mashaqqati va murakkabliklarini juda chuqur tushungan. Ibn Sinoning ilmiy-pedagogik ijodida oilaviy tarbiyaga alohida e'tibor qaratiladi va bunda bosh rol oila boshlig'i-ya'ni otaga beriladi. Ibn Sino nima uchun bolani onasi emas, balki tarbiyachi tarbiyalashi lozimligini tushuntirib beradi. Uning fikrlariga qaraganda, bolaning onasi o'z farzandi tarbiyasida ko'proq hissiyotlarga beriladi va bola tarbiyasida

to‘g‘ri yo‘lni tanlay olmaydi. Ibn Sino tarbiyachi oldiga aniq vazifalarni qo‘yadi: u o‘z shogirdini qachon jazolashi yoki rag‘batlantirishi mumkinligini yaxshi bilmog‘i lozim.

Ibn Sino bola shaxsini hurmat qilish, bolaning tabiiy yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda uning qiziqishlarini o‘rganishga chaqiradi. U yoshga qarab davrlarga bo‘lib chiqishga harakat qilgan. O‘smirlikkacha bo‘lgan davrni u beshta davrga bo‘lgan: chaqaloqlik (bola tug‘ilganidan boshlab yo‘lga yurib ketgunicha bo‘lgan davr); bolalik davri (yo‘lga yurgandan so‘ng); organizm chiniqqani va qoziq tishlari chiqqanidan keying davr; o‘smirlik va jinsiy yetilish davri; o‘smirlik davri (o‘sish to‘xtaguncha bo‘lgan davr).

Ibn Sino bola tarbiyasining barcha murakkabliklari va qiyinchiliklarini tushungan. U jismoniy jazoning me‘yoridan ortib ketishiga qarshi chiqqan. Uning fikriga ko‘ra, risoladagidek tarbiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bolalarga insoniy munosabatda bo‘lish darkor. Tarbiyachining o‘zi bola shaxsini hurmat qilishi, uni sevishi va bola bilan yaxshi munosabatda bo‘lishi lozim. Mutafakkir tarbiya omilining ahamiyatini chuqur anglagan va ijobiy omil ahamiyatini juda qadrlagan, uni tarbiyaning asosiy vositalaridan biri deb bilgan.

Sharqning buyuk mutafakkirlaridan biri, so‘z mulkining sultoni Alisher Navoiy asarlari besh yuz yildan buyon ko‘plab avlodlarni hayajonga solib keladi. Insonparvarlik, muhabbat, g‘oyalari, insonning oliy maqsadlarini kuylash Navoiy merosida asosiy o‘rin tutadi. Navoiyning pedagogic qarashlari o‘ta insoniyligi bilan ajralib turadi. U bola shaxsini shakllantirish va tarbiyalash masalalariga juda katta ahamiyat bergan. Navoiy farzandni oilaga quvonch va baxt keltiruvchi shamchiroq deb bilgan. Navoiy bolaga uning yoshiga qarab eng kichik yoshdan to‘g‘ri tarbiya berish zarur, fanlarni o‘rganishning iloji boricha barvaqt boshlash lozim deya ta’kidlagan.

O‘rta Osiyo madaniyati tarixida ham nutq madaniyati o‘ziga xos mavqega egadir. Sharqda, jumladan Movorounnahrda notiqlik, voizlik, ya’ni va’zxonlik, “Qur’on”ni targ‘ib qilish bilan mushtarak holda so‘zning ahamiyati, ma’nosi va undan o‘rinli foydalanish borasida ko‘p yaxshi fikrlar aytilgan. Ana shu nuqtai-nazardan qaralsa, “Nutq odobi”, “Muomila madaniyati” nomlari bilan yuritilib

kelgan nutq madaniyati tushunchasi juda qadimdan olimlar, ziyolilarning diqqatini tortgan.

Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Abu Abdulloh Al-Xorazmiy, Mahmud Qoshg'ariy, Zamahshariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, So'fi Olloyor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ulug' siymolar nutq odobi masalalariga, umuman nutqqa jiddiy e'tibor berishga dav'at etish bilan birga, tilga, lug'atga, grammatikaga va mantiqshunoslikka oid asarlar yozdilar. Buyuk qomusiy olim Beruniy o'zining "Geodeziya" asarida har bir fanning paydo bo'lishi va taraqqiy etishi inson hayotidagi zaruriy ehtiyojlar talabi bilan yuzaga kelishini aytadi. Uningcha, grammatika, aruz va mantiq fanlari ham shu ehtiyojning xosilasidir.

Adib Ahmad Yugnakiy ham so'zlaganda nutqni o'ylab, shoshmasdan tuzishga, keraksiz, yaramas so'zlarni ishlatmaslikka mazmundor so'zlashga chaqiradi. Noto'g'ri tuzilgan nutq tufayli keyin hijolat chekib yurmagin, deb so'zlovchini ogohlantiradi.

Nutq odobi deb yuritilgan qoida va ko'rsatmalarda sodda va o'rinli gapirish, qisqa va mazmundor so'zlash, ezmalik, laqmalikni qoralash, keksalar, ustozlar oldida nutq odobini saqlash, to'g'ri, rost va dadil gapirish, yolg'onchilik, tilyog'lamalikni qoralash va boshqalar haqida gap boradi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek nutqi madaniyatining tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, qadimdan bu sohaga «Nutq odobi» nomi ostida ancha keng e'tibor berilgan bo'lib, keyingi asrlarda, ayniqsa, XIX-XX asrlarning ayrim vaqtlarida e'tibor ancha susayganligi ko'zga tashlanadi. Biroq keyingi yillarda bu sohada ko'p ishlar qilindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nurmatov A. Tilni sistemali o'rganish va sintaksisning ayrim munozarali masalalari.- Toshkent: «O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 1998-yil, 5-son.
2. A.Sodiqov va boshqalar. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 1981 - yil.
3. Begmatov E., Boboyeva A., Asomiddinova M. Adabiy norma va nutq madaniyati. -Toshkent, 1983- yil.
4. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: Tarbiyachi, 1992 yil.

5. Barkamol avlod orzusi.- Toshkent, 2000.

KUTUBXONALAR FAOLIYATIDA MADANIY-MA'RIFIY ISHLAR AHAMIYATI

Rahmatullayeva O`g`iloy Maxmudovna

Namangan davlat universiteti magistranti.

Annotasiya: *Maqolada O'zbekiston hududida dastlabki kutubxonalar aholining g'oyaviy-siyosiy ongini oshirishda qanday missiyani amalga oshirgani va kutubxonalarning vazifalari nimalardan iborat bo'lganligi haqida tarixiy materiallar berilgan. Dastavval, kutubxonalar madaniy-ma'rifiy tashkilot sifatida rivojlangan. Shuningdek, maqolada kutubxonashunoslik tarixi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilib, yillar kesimi bo'yicha tahlillar berilgan. O'sha davrdagi kutubxona xodimlarining faoliyati va siyosiy-mafkuraviy jarayonlardagi o'рни bo'yicha fikrmulohazalar bildirilgan.*

Kalit so'zlar: *kutubxonachilik, maorif, jadid, klub, siyosiy-iqtisodiy jarayon, muassasa, ommaviylik, tahlil, faoliyat, kitob fondi, madaniy saviya.*

XX asrda Turkiston xalqining madaniy-ma'rifiy, siyosiy-mafkuraviy ishlar tizimini yanada rivojlantirish maqsadida klublar va kutubxonalar faoliyatiga alohida e'tibor berila boshlandi. Ommaviy tashviqot-targ'ibot ishlari o'sha davrda sovet davlatining siyosatini keng omma orasida targ'ib etishning muhim vositalaridan biri hisoblangan. Kutubxonalar va qiroatxonalar aholining g'oyaviy-siyosiy ongini oshirishga xizmat qilib, kutubxonalarda sovet mafkurasiga zid nashrlar bo'lmagan. Natijada, o'zbek milliy madaniyati, tarixi, ma'naviy merosiga oid bilim va asarlarga yetarli e'tibor berilmagan. Toshkent, Qo'qon, Samarqand, Andijondagi jadid tashkilotlari, bir tomondan, istiqlol harakatlarini olib borganlar, ikkinchi tomondan esa, milliy tarixiy asarlar to'plangan kutubxonalar tashkil etganlar. Turkistonning buyuk shoiri Andijonda jadidchilikka asos solgan, Cho'lpon o'z yurtida "Turon kutubxonasini" tashkil qilgan [1: 267]. Xalqning ma'naviy



olamini oshirishga xizmat qiladigan tashabbuslar hukumat vakillariga xush kelmagan. Chunki, kutubxonalarga aholi ommaviy tarzda to'planar va ma'naviy zavq olishar, kitob mutolaasi orqali estetik madaniyatini yuksaltirar edi. Kutubxonalarning vazifalari, faoliyati, kitob fondlarining tarkibiga qarab, ommaviy, texnikaviy va turli maxsus kutubxonalar, o'quv yurtlarining kutubxonalari, ilmiy kutubxonalarga bo'lingan. Ommaviy kutubxonalar faoliyati aholining turli sohaga doir kitoblarga bo'lgan talablarini qondirishga qaratilgan. Ommaning ijtimoiy va madaniy-ma'rifiy faolligini oshirish, partiya tadbirlarining faol a'zosiga aylantirish maqsadida Maorif xalq komissarligi huzurida barcha madaniy-oqartuv ishlariga rahbarlik qiluvchi maktabdan tashqari bo'lim tashkil etilib, respublikamizning 8 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan barcha aholisi yangicha (rus tilida) o'qish va yozishni o'rganishga majbur etilgan. Qiroatxona va kutubxonalarga a'zo qilishgan. O'sha davrlarda 1000 ga yaqin savodsizlikni tugatish maktablari, ko'plab kutubxona, qiroatxona, klublar, qizil choyxona, xotin-qizlar klublari ish olib borgan. O'zbekiston kompartiyasining II sezida "Klub ishi" xaqida alohida rezolyusiya qabul qilgan va unda klub ishchilar ommasi madaniy saviyasi va faoligi oshirishda kutubxona va qiroatxonalar faoliyatidan keng foydalanish zarurligi ta'kidlangan. Xalq maorifi Komissarligi huzuridagi kutubxona ishi bo'limi juda katta imkoniyat va imtiyozlarga ega bo'lib, ommaviy kutubxonalar va qiroatxonalar, ko'chma kutubxonalar tashkil etib, ularga metodik yordam ko'rsatib, kutubxona xodimlarini tayyorlashga yordam bergan. Natijada Turkiston Avtonom Respublikasida ishlab turgan 122 ta kutubxonalar soni 1924-yilning boshida 616 ming kitob jamg'armasiga ega bo'lib, mayda 132 tani klublar 21 tani, qizil choyxonalar qariyb 200 tani tashkil etgan, qiroatxonalar soni 58 ta bo'lib, yirik davlat kutubxonalari tez rivoj topdi. Jumladan, Turkiston Davlat bosh kutubxonasi (100 ming), Turkiston Davlat universitetining bosh kutubxonasi (23 ming), Andijon, Qo'qon va Namangan kabi shaharlardagi kutubxonalar ijtimoiy nufuzi kitob fondining ortgani sari yuqorilab bordi. Masalan, birgina Buxorada 1924-yilda 14 kutubxona, drama teatri, muzey va klublar aholiga xizmat ko'rsatgan. Dastlabki klub va kutubxona Xiva shahrida 1920-yil yozida sobiq xon saroyi binosida tashkil etildi. Shuningdek, klub va kutubxonalar Yangi Urganch, Toshhovuz,

Qoraqalpog'iston ASSRning Xo'jayli, Qo'ng'iro't va boshqa shaharlarda ham barpo etilgan. 1923-yilga kelib Xorazm Respublikasida 8 ta klub va madaniyat uylari, 5 ta ommaviy kutubxonalar, 4 ta qizil choyxona va kino teatrlar aholiga madaniy-ma'rifiy xizmatlar ko'rsatgan[2: 230]. Kutubxonalar sonining ko'payishi bilan vazifa va mas'uliyat ham mafkuraviy jihatdan murakkablashib borgan. Birinchidan, ijtimoiy tizimdagi muammolar bo'lsa, ikkinchidan, kutubxonalar iqtisodiy jihatdan ancha nochor ahvolda va tajribali mutaxassislar yo'q edi. Mavjud xodimlarning malakasini oshirishni davrning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli ham taqozo etar edi. Kutubxona xodimlarini tayyorlash masalasi 1926-yili O'zbekiston klub va kutubxona xodimlarining I qurultoyidayoq ko'tarilgan, unda uzoq qishloq hududlari uchun kutubxona xodimlari tayyorlash masalasi dolzarb ahamiyatga ega ekanligi qayd etib o'tilib, qurultoy qarorlarini bajarish vazifalari nazoratga olinadigan bo'ldi. 1927-yil 1-fevralda Toshkentda kutubxona xodimlarini tayyorlash bo'yicha olti oylik kurslar tashkil qilindi. 1934-yilning yanvarida respublika Fan qo'mitasi kutubxona xodimlari tayyorlash kurslarining oliy bo'g'inlarini tashkil etish to'g'risidagi masalani ko'tardi. Kutubxona xodimlarining o'rta bo'g'inlari vakillarini qayta tayyorlash uchun 8 oylik kurslar tashkil qilindi. Unda xodimlar ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tahsil olar edilar [3: 125]. Kadrlar tayyorlash tizimining metodologiyasi markaz tomonidan ishlab chiqilar va mahalliy shart-sharoitlar to'g'ri tahlil qilinmasdan kutubxonalar va qiroatxonalar faoliyatiga yuzaki yondoshar edi. Ularga "buyruq"lar ham markaz tomonidan berilib, xalqni sovet mafkurasiga moslashtirib tayyorlash bosh prinsip edi. Kutubxonalardagi sovet mafkurasiga zid ko'plab nashrlarning yo'q qilinishi oqibatida, o'zbek milliy madaniyati, tarixiga, ayniqsa jadid falsafasi va ma'naviy merosiga oid ko'plab xalqning ongu-tafakkurini uyg'otuvchi noyob asarlar ilmiy-badiiy muomaladan olib tashlangan. Ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning murakkablashishi oqibatida Maorif xalk komissarligining maktabdan tashqari muassasalarini davlat byudjetidan mahalliy byudjetga o'tkazish tufayli respublikada madaniy-ma'rifiy muassasalar soni keskin kamaydi. Siyosiy maorif muassasalari 1922-yilda undan oldingi yildagiga nisbatan ancha qisqarib, savodsizlikni bitirish maktablari 3 mingtadan 50 taga, kutubxonalar 164 tadan 66 taga, katta yoshlilar kurslari 40 tadan 1 taga

kamaygan. Yuzga yaqin kutubxonaga ega klublardan bir necha o'n klub qolgan. Ammo, keyinchalik bu ko'rsatkichlar tez sur'atlarda yuqorilagan. Kutubxonalar sobiq markaz nashrlari tomonidan ishlab chiqilgan, g'oyaviy jihatdan "yetuk" adabiyotlar bilan boyib bordi. RSFSR markaziy kitob palatasi, Ukraina kitob palatasi va boshqa muassasalardan kitoblar olindi. O'quvchilar soni ham ortib bordi. Xususan, Turkiston Davlat bosh kutubxonasidagi o'quvchilar soni 1920-yilda 3953 ta bo'lgan bo'lsa, 1921-yilga kelib ular soni 61887 taga yetdi. 1920-yillarga kelib, kutubxona muassasasining ish usuli va shakllari ham o'zgarib, ijtimoiy-iqtisodiy hayotga takomillashib bordi. Aholi nafaqat kitob o'qish, ayni paytda uni muhokama etishda ham ishtirok eta boshlagan. Klub va kutubxonalarda "Ovoz chiqarib o'qish", "kitob haftaligi", "Fan va din", "Fan va turmush", "Yangicha turmush" kabi tadbirlar o'tkazila boshlagan. Kutubxonalar tomonidan olib borilgan siyosiy-mafkuraviy ishlarni e'tibordan chiqarmagan holda ta'kidlash lozimki, ular aholining umumiy savodxonligini oshirish, ma'naviy-ma'rifiy, adabiy-badiiy qiyofasini shakllantirishda ham ma'lum rol o'ynagan [4: 89,90]. Barcha hududlarda ham kutubxonlar uchun imkoniyat yaratib berilmadi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlangan hududlardagina klublar va kutubxonalar yangi adabiyotlar bilan boyitib borilar edi. Ko'pchiligi rus tilida bo'lganligi sababli mahalliy aholining bu kitoblarni o'qish imkoni yo'q edi. Kutubxona muassasalaridan foydalanish qishloq joylarida ayniqsa og'ir edi. Buning sabablari esa qo'yidagilardan iborat edi: 1. Aholi savodxondigining o'ta past darajada ekanligi (ya'ni, rus tiliga nisbatan). 2. Mahalliy aholi tilidagi adabiyotlar sonining kamligi. 3. Shu soha mutaxassislarining yetishmasligi. Shuning uchun ham asosan, ko'chma kutubxonalar faoliyati qishloq sharoitida katta ahamiyat kasb etdi. 1928-yilda to'rt millionli o'zbek qishloq aholisi uchun 44 ming kitob jamg'armasiga ega bo'lgan 74 kutubxonagina xizmat ko'rsatgan. Shuning uchun ham sovet davlati qishloqda o'z ta'sirini mustahkamlash, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni chuqur tahlil qilish uchun kutubxonalar, undagi adabiyotlar sonini oshirishga alohida e'tibor berdi. 1928-1929-yillarda adabiyotlar soni 22 tadan (131,4 ming kitob) 161 taga (308,8 ming kitob)ga yetgan. Samarqandda 1919-yilda o'tish yodgorliklarini muhofaza qilish doimiy komissiyasi ta'sis etildi, birmuncha keyinroq esa Toshkentda muzey ishlari, o'tmish

yodgorliklarini, san'at va tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi ishlay boshladi. Toshkentda davlat xalq kutubxonasi tarkibidagi sharq bo'limi xodimlari Yaqin va O'rta Sharq xalqlari tillaridagi kitoblarni va qadimiy sharq qo'lyozmalarini to'plash yuzasidan katta ishlar olib bordilar, bu qo'lyozmalarning ko'plari O'rta Osiyoning g'oyat boy tarixiy o'tmishini o'rganishga doir juda qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan edi. O'sha 1919-yilning o'zidayoq Toshkentda ishlari Markaziy boshqarmasi (hozirgi O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi) tashkil etilgan [5: 149]. Bu islohotlar yaxshi natija bera boshlagan, albatta. Ammo, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar tufayli madaniyat va ma'rifat bo'yicha tajribali xodimlar siyraklashib, kutubxonalar, klublar, qiroatxonalarning moddiy bazasi yomonlashdi. Ularning ko'pchiligi noqulay xonalarga joylashganidan tashqari, kerakli anjomlar, kitoblar va ko'rsatmali qo'llanmalarga ham ega emasdi. O'sha davrda ishchilar va kolxozchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob izlab kutubxonalarga, klublarga, qiroatxonalarga borardilar va u yerda leksiylar tinglashar, ro'y berayotgan voqealar haqida tegishli axborotlarni olishar, hujjatli filmlarni tomosha qilib, devoriy gazetalarni mutoala qilishar edi. Keng ommada bilimlar manbai bo'lmish kitoblarga qiziqish ortgan edi. 1935-yil 15-iyuldan 1936-yil 1-yanvargacha "Qishloqda kutubxona ishi"ni yaxshi yo'lga qo'yish bo'yicha nohiya nomini olish uchun Butunittifoq tanlovi o'tkazildi. Unda O'zbekistondan faqat kutubxonalar emas, balki madaniyat uylari va klublar ham qatnashdi. Respublika tanlovi kutubxonalar tarmog'ini kengaytirish va ularning ishini yaxshilash uchun turtki bo'ldi. Tanlov o'tkazish davrida 18 ta yangi nohiya kutubxonalari, 68 ta qishloq kutubxonalari va 122 ta klublar qoshidagi kutubxonalar ochildi 1937-yilda kutubxonalar soni 895 taga yetdi. Lekin kutubxonalar ko'paygani bilan respublikada kutubxonachilik ishlarini takomillashtirish lozim edi. Shuning uchun ham 1937-yili "Respublikada kutubxona ishi to'g'risida"gi qaror qabul qilingan. Qarorga muvofiq, shaharlarda, qishloqda chekka-chekka ovullarda kutubxonachilik ishlari qoniqarsiz ahvolda ekani ta'kidlanib, kutubxonalar kam, kitob fondlari qashshoq, kutubxonalarning xodimlari maxsus ma'lumotga ega emasligi tanqidiy ko'rib chiqilgan. 1937-yilda kutubxonachilik texnikumining ochilishi respublikada kutubxonachilik ishlarining yaxshilanishiga yordam bergan. Kutubxonachilar ham

mavjud imkoniyatlardan foydalanib, o‘z bilim va ko‘nikmalarini oshirishga harakat qildi. Ular jamoat ishlarida ham faol qatnashib kelgan. Toshkent shahridagi kutubxonalarning xizmatchilari o‘z murojaatnomalarida jumladan shunday deb yozgan edilar: “Bizlar respublikadagi va shu jumladan, Farg‘ona viloyatidagi barcha kutubxonalarning hamda siyosiy-ma’rifiy muassasalarning xodimlarini Katta Farg‘ona kanali quruvchilariga madaniy xizmat ko‘rsatishda va uni tashkil etishda faol qatnashishga chaqiramiz” [6: 128]. Kutubxonachilar jamoat ishlariga ba‘zan o‘z xohishi bilan, ba‘zan esa, majburan jalb qilingan. Respublikamiz hududida 1937-yilda 895 ta kutubxona ishlagan bo‘lsa, 1941-yil bu raqam 1748 taga ortgan. Urush madaniy-ma’rifiy muassasalar ishini nihoyatda murakkablashtirdi. Ijtimoiy-iqtisodiy hayotda yangi qiyinchiliklar davri boshlandi. Kutubxonalar, klublar va muzeylar tarmog‘i ancha qisqardi, ularga ajratiladigan mablag‘lar ham kamaydi. 1941-yil oxirida O‘zbekistondagi 994 ta madaniy-ma’rifiy muassasalardan 669 tasi ishladi va ularga ajratiladigan mablag‘lar 16 million so‘mdan 8,7 million so‘mga kamaygan [7: 29,33]. Lekin mana shu qiyinchiliklarga qaramay, urush davri sharoiti madaniyat va ma’rifat xodimlaridan siyosiy-ma’rifiy ishning mavjud shakl va metodlarini keng tus oldirish hamda yanada ommaviyroq shakllarini topishni talab qilardi. Madaniy-ma’rifiy muassasalarning ko‘plari yoshlar va kasaba uyushmalarining faollariga tayanib, ijodkor ziyolilar bilan hamkorlikda aholining ortib borayotgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan g‘oyat samarador ishlarni amalga oshirdi. Barcha narsa urush uchun shiori bilan klub va uning tasarrufidagi kutubxonalarda urush davrida aholiga ruh va kuch bag‘ishlash uchun ko‘plab madaniy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etildi. Urush yillari O‘zbekistondagi kutubxonalar ham sovet va chet ellik badiiy so‘z ustalarining kitoblarini targ‘ib qilish, fashizm va uning homiylari - insoniyat dushmanlarining, umuminsoniy sivilizatsiyaga doir kitoblarni yondiruvchilarning manfur qiyofasini fosh etish borasidagi ishlarini ancha kuchaytirdilar. Kutubxonalarning xodimlari aholi uchun ma’ruzalar o‘qidilar, jangchilarimiz mardligining ajoyib namunalari to‘g‘risida, qahramonona kurashi va g‘alabalari to‘g‘risida, fashistlar Germaniyasining halokati muqarrarligi to‘g‘risida qiziqarli va ta’sirchan suhbatlar o‘tkazdilar. Bulardan tashqari, fan va texnikaning u yoki bu tarmoqlariga doir bilimlarni

o'zlashtirishda kitobxonlarga yordam berdilar. Kolxozning, nohiya va shaharning madaniyati hamda xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha belgilangan tadbirlarni amalga oshirishda faol qatnashdilar. Urush yillari respublikada ilmiy muassasalar va turli korxonalarining kutubxonalarini hisobga olmaganda 440 ta kutubxona ishladi. Urush boshlangan paytda kutubxonalar tarmogi ancha qisqarganiga, qishloq kutubxonalari va bolalar kutubxonalarining ko'pchiligi yopilganiga qaramay, 1942-yilda respublika bo'yicha 193 ta ommaviy kutubxona ishlagan [8: 43,44]. O'sha vaqtlarda O'zbekistondagi kutubxonalarning xodimlari oldida urush tufayli vujudga kelgan qiyinchiliklarni yengib, shaharlar va qishloqlardagi aholi orasida ma'rifiy ishlarni yanada keng tus oldirish, ommaga kitoblarni targ'ib qilish, ko'chma kutubxonalarni ko'paytirish, kitoblar ko'rgazmalarini tashkil etish, kitobxonlar konferensiyalarini o'tkazish, kitoblarning tobora ortib borayotgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish vazifalari turar edi. "Kutubxonalarning xodimlari faol kitobxonlarni umumiy ishga mohirlik bilan jalb eta olgan, doimo jamoatchilikning yordamiga tayangan joylarda mehnatkashlar ommasi bilan olib boriladigan siyosiy ma'rifiy ishlar yuqori saviyada amalga oshirildi. Kitoblarni, ayniqsa siyosatga va mudofaa ishlariga doir adabiyotlarni tarqatish ko'lami ortdi, doimiy kitobxonlar doirasi kengaydi. Agar 1941-yilda kutubxonalar o'quvchilarga 89528 ta kitoblarni bergan bo'lsa, bu raqam 1942-yilda 105 ming nusxadan oshgan [9: 44 Kolxozlar va sovxozlarda, mahallalar. qizil choyxonalar va uy boshqarmalarida ham ko'p qirrali madaniy-ma'rifiy ishlar amalga oshirildi. Davlat madaniyat-ma'rifat va kasaba uyushma nashryotlari chiqargan "Klub xodimi kutubxonasi" va "Klub xodimi kutubxonachasi" seriyalardagi kitoblar omma bilan olib boriladigan madaniy tarbiyaviy ishlarning g'oyaviy hamda ijodiy saviyasini oshirishda muhim rol oynadi. Madaniy-ma'rifiy ishlar bo'yicha markaziy o'lka va viloyat metodika kabinetlari tomonidan madaniy-ma'rifiy muassasalarning xodimlariga beriladigan metodik yordam yil sayin kuchaytirib borildi. Respublikamiz kutubxonalari tashviqot punktlari, qizil choyxonalarni, gospitalarni, harbiy qismlarni kitoblar bilan ta'minlash yaxshi yo'lga qo'yildi. 1943-yil oxirida respublikada jami 293 ta ommaviy kutubxona qolgan va shularning 100 tasi viloyat, 120 tasi nohiya, 61 tasi shahar hamda 22 tasi bolalar kutubxonalari bo'lgan. Ularning kitob fondi 1 mln 209

ming 580 tomdan iborat bo'lgan. Madaniyat uyi xodimlari urushdan keyingi o'n yil mobaynida klub va kutubxonalarda 7890 marta leksiya, 285 marta ma'ruza o'qidilar. 8907 marta yakka tartibda va guruhli suhbatlar o'tkazdilar, 285 marta uchrashuv kechalari tashkil qildilar. 1950-yillardan e'tiboran madaniy sohani mablag' bilan ta'minlashning "qoldiq" prinsipi qaror topa boshladi. 1940-yilda ijtimoiy-madaniy tadbirlarga xarajatlar O'zbekiston davlat byudjeti bo'yicha qolgan xarajatlarning 67,9% ni tashkil etgan bo'lsa, 1950-yilda bu ko'rsatkich 64,4%, 1960-yil - 50%, 1970-yil - 49,6%, -1980-yil - 46,9% ga pasaydi. Hatto 1980-yillarning ikkinchi yarmida qayta qurish ta'sirida ro'y bergan o'zgarishlar ham ijtimoiy-madaniy sohani mablag' bilan ta'minlashning pasayish tendensiyalarini jiddiy o'zgartira olmagan. 1959-yilda respublika bo'yicha klub muassasalari shaharlar va shahar tipidagi posyolkalarda 342 taga, qishloq joylarda 2691 taga, ommaviy kutubxonalarda 3205 taga va jami kinomoslamalar 1910 taga yetgan[10:49]. "Qayta qurush" siyosati madaniy-ma'rifiy funksiyalar faoliyatiga ham ta'sir qilmay qo'ymadi. Bu ayniqsa madaniy-ma'rifiy muassasalarning moddiy-texnik bazasi masalasiga, ayniqsa talluqli edi. Madaniyat sohasiga mablag' sarflashning "qoldiq" prinsipi tufayli 1985-1990-yillarda madaniyat maskanlari sonining kamayishi kuzatildi. Masalan, ko'rsatilgan davrda respublikada klublar soni 55 taga, kutubxonalar soni esa 99 taga kamaydi. Binobarin O'zbekistonda madaniy-ma'rifiy maqsadlar uchun ahli jon boshiga 1989-yilda 3,6 so'm pul ajratildi, xolos. Bu raqam ittifoq respublikalari orasida eng past ko'rsatkich edi. Yuqorida keltirilgan raqamlar mazkur masalaning faqat tashkiliy jihatlari edi [11: 657]. Ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, Ittifoq tarkibidagi Respublikalarga pul taqsimlanishining aniq va to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi sababli, kutubxonalar faoliyati ham mutonasib tarzida rivojlanmadi. Ko'rsatkichlar yuqori bo'lgani bilan, amaldagi kutubxonalarda aholining madaniy hordiq chiqarishi uchun yetarli imkoniyatlar yo'q edi. Keyinchalik, 1961-yil oktabr oyida kutubxona va klub xodimlarining ish haqini oshirishga qaror qilindi. Qishloq klublarining mudirlari taxminan ikki baravar, madaniyat uylari va klublarining xodimlari 70-80 foiz ortiqcha maosh ola boshladilar. Kutubxona xodimlarining ham ish haqlari oshdi. 1966-yilga kelib, har bir yirik aholi turar joyida, qishloq sovetlarida, kolxoz va sovxozlarda kutubxonalar

tarmogʻi vujudga keldi. Jumladan, 1176 ta kolxoz, 1109 ta klub qoshidagi kutubxonalar yangidan tashkil etildi. “Qishloq joylarida madaniy-oqartuv muassasalari ishini yaxshilash va ular tarmogʻini rivojlantirish tadbirlari toʻgʻrisida”gi qaror (1968 yil) asosida bunday kutubxonalar ommaviy davlat kutubxonalariga aylantirila boshlandi. Oʻzbekistonda kutubxona tarmoqlarini markazlashtirish jarayonida yangi kutubxona shaxobchalarini tashkil etish va mavjud kutubxonalar tarmogʻini tartibga solish sohasida qator ishlar amalga oshirildi. Oʻzbekistonda ommaviy kutubxonalar tarmogʻi ham ortib bordi. 1971-yilda 5820 ta ana shunday kutubxona ishlagan boʻlsa, 1975-1980-yillar mobaynida kutubxona shaxobchalari yoʻq boʻlgan aholi punktlarida yangidan 2142 kutubxona ochildi. Oʻzbekiston Madaniyat va qishloq xoʻjaligi vazirliklari hayʼatlarining 1976-yil 26- yanvar qaroriga binoan 628 ta kolxoz kutubxonasi markazlashtirilgan kutubxonalar tizimi tarkibiga kiritildi, 213 ta klub qoshidagi 86 ta kasaba uyushmasi tashkilotlariga qarashli kutubxonalar markazlashtirilgan tizimi filiallariga aylantirilgan. 1980-yilda 6836 ta, shulardan qishloq joylarda, 4783 va 5548 ta kutubxona faoliyat olib borgan. Samarqand, Fargʻona va Buxoroda kutubxonalar uchun zamonaviy tipdagi binolar qurilgan. Nashr etilgan roʻznomalar toʻqqizinchi besh yillikning oʻzida 32taga koʻpaydi. Ularning 30 tasi oʻzbek tilida chiqdi [12: 64]. 1965-yil 11-dekabrda qabul qilingan Oʻzbekiston Madaniyat vazirining “Toshkent shahar koʻzi ojizlar kutubxonasini respublika markaziy koʻzi ojizlar kutubxonasiga aylantirish haqida”gi buyrugʻiga binoan, 1966-yil 1-yanvardan markaziy kutubxona faoliyat boshladi. 1966-1969-yillarda Qoraqalpogʻiston Respublikasi, Qashqadaryo, Andijon, Buxoro, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Fargʻona, Xorazm viloyat kutubxonalarida Brayl yozuvida yozilgan adabiyotlar boʻlimlari tashkil etildi [13: 63]. Umuman, respublikada (1972-yil oxirigacha) kutubxona shaxobchalarini tartibga solish jarayonida 2804 ta ommaviy kutubxona ochildi. 200 dan ortiq kutubxona kichik aholi turar joylaridan yiriklariga koʻchirildi, 500 dan ortiq kutubxona qaytadan tashkil etildi, 69 ta filial barpo qilindi, koʻchma kutubxonalar miqdori 5552 taga yetkazildi [14: 153]. 1990-yilga kelib ushbu koʻrsatkich boʻyicha faqat 1960-yil darajasiga erishildiki, bu aholining ancha oshgan ijtimoiy-madaniy ehtiyoj va

manfaatlari yetarli darajada qondirilmaganligidan dalolat beradi. Natijada, ijtimoiy-madaniy muassasalarning moddiy ahvoli ham og'irlashdi, bu esa tabiiy ravishda ijtimoiymadaniy ish saviyasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. 1989-yilga kelib, respublikadagi klub muassasalarining 27,9%, kutubxonalarning esa, 25,9% kapital ta'mirlashga muhtoj, klublarning 3% va kutubxonalarining 3,8% avariya holatiga kelib qolgan edi [15: 255]. Sotsiologik tadqiqotlar natijalarining ko'rsatishicha, XXI asr boshiga kelib sobiq shurolar davlati amal qilgan barcha makonlarda, xususan, O'zbekistonda kutubxonalar soni 15,4% ga qisqargan (masalan, Madaniyat ishlari vazirligi tasarrufida 1990-yili 6746 ta ommaviy kutubxona bo'lgan, 2003-yilda esa bu raqam 5710 tani tashkil etgan). Shuningdek, mazkur salbiy jarayon bir kishiga to'g'ri keladigan kitoblar soni hamda umumiy kitob fondining miqdoriy ko'rsatkichlarida ham kuzatiladi [16: 40]. Davlat va jamoat tashkilotlari madaniyma'rifiy faoliyatlarining turlarini yaxlitlashtirgan holda ikki guruhga ajratilib, birinchi, faoliyat vaqti va shaklini shaxsning o'zi tanlaydigan madaniy faoliyatning uy turi bo'lsa, ikkinchisi, klub, kutubxona, muzey, ko'rgazma va boshqa madaniyma'rifiy muassasalarda amalga oshiriladigan uydan tashqaridagi faoliyat turi hisoblanadi. "Madaniy - ma'rifiy faoliyat", avvalo, madaniy-ma'rifiy muassasa, madaniyat uylari, madaniyat va istirohat bog'lari, muzeylar, kutubxonalar faoliyati hisoblangan. Mustaqillik yillarida respublikamizda umumiy fondi bir yuz qirq milliondan ortiqroq kitobga ega kutubxonalar zaxirasi bir yarim baravarga yaqin ko'paydi. Mustaqillik yillarida kutubxonalar miqdorining kamayib borganligi ko'zga tashlanadi. Kutubxonashunos olim sotsiologiya fanlari doktori, professor A.Umarovning tadqiqotlariga ko'ra, 1990-yilda Madaniyat ishlari vazirligi tasarrufidagi kutubxonalar soni 6765 ta kitob fondi miqdori 82997,6 dona, bir kishi uchun kitoblar soni 4 tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2000-yilda tegishli tarzda 5710, 64026, 2,5ga tushib qolgan. Sho'rolar davrida faoliyat ko'rsatgan kutubxonalar soni keyingi o'n yilda 15,4 foizga qisqardi. Bundan tashqari, kutubxona binolaridan boshqa maqsadlarda foydalanish hodisalari ham ko'zga tashlandi. Birgina Farg'ona viloyatining o'zida shu maqsadda 17 ta kutubxona sotib yuborilgan. Shuningdek, kutubxona qurilishiga ko'ngildagidek e'tibor berilmayotganlik holatlari ham yo'q emas [17: 12,13]. Biz yuqoridagi tahlillarimizga

suyanib, kutubxonalar eski ittifoq davrida bo'lsin, Mustaqillikdan keyin bo'lsin, birinchi navbatga xalqimizning man'aviy olamiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy maskan ekanligini alohida ta'kidlab o'tishimiz kerak. Hozirgi kunda ham madaniyat va san'at muassasalarida kichik kutubxonalar mavjud. Qiroatxonalar klublar tizimida tashkil etilgan, ammo ular alohida kutubxonalar tizimiga aylanishi siyosiy va iqtisodiy bosqichlar omillarga bog'liq bo'lgan. Qiroatxona va klublardagi haqchilik, ma'rifatparvarlik, badiiy-estetik ijodga undash ularni xalqimiz ijtimoiy-madaniy hayotidan barqaror joy olgan maskanlarga aylantirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sodiqov H., Shamsuddinov R., Ravshanov P. va boshqa. O'zbekistonning yangi tarixi. -Toshkent: "Sharq", 2000. 464b.
2. Jo'rayev M., Nurillin R., Kamolov S. va boshqalar. K2. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida.-Toshkent: "Sharq", 2000. 688 b.
3. Oxunjonov E.Vatan kutubxonachiligi tarixi. - Toshkent, 2008 y.. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 308 b.
4. Yuldasheva M. Milliy madaniyat yo'lining mashaqqatlari. - Toshkent: 2007 O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.133b.
5. Jo'rayev M., Nurillin R., Kamolov S. va boshqalar. K2. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. - Toshkent: "Sharq", 2000. 688 b.
6. Народное образование в УзССР за 15 лет (1924-1934 гг). Т., 1939. 128 b.
7. Nurmuhamedova M. O'zbekistonda madaniy-ma'ifiy ishlar. "O'qituvchi" nashriyoti. -Toshkent: 1993.
8. Jo'rayev M., Nurillin R., Kamolov S. va boshqalar. K2. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida.-Toshkent: "Sharq", 2000. - 688 b.

MILLIY TARBIYANING BUGUNGGI KUNDAGI AHAMIYATI

Suyunova Zubayda Ravshan qizi

Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika yunalishi 3-kurs talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada yoshlarni milliy tarbiya haqida ma'lumotlarini mustahkamlash, tarbiyaning bugungi kundagi dolzarb muommalardan biri ekanligi hamda yoshalar o'rtasida o'zlikni anglash va yurtni sevish, uning uchun xizmat qilish, milliy tarbiyani yoshlar ongiga singdirish, uni anglatishda oilaning o'рни.*

***Kalit so'zlar:** Milliy tarbiya, yoshalar, vatan, fazilat, illat, Vatanparvarlik hissi, oila tarbiyasi.*

Milliy tarbiyaning bugungi kundagi ahamiyati. U yosh avlodni o'z milliy qadriyatlarini, an'analari va madaniyati bilan tanishtirish orqali ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash. Yurti sevish va bir –biriga yordam berish ruhida tarbiya berish orqali jamiyatda tinchlik va barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi. Umuman olganda milliy tarbiya bugungi kunda ham yoshlarning shaxs sifatida rivojlanishi, jamiyatda o'z o'rnini topishi va kelajakda mustaqil fikrlovchi avlodni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Tarbiya qancha mukammal bo'lsa xalq shuncha baxtli yashaydi, deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l quyib bo'lmaydi deyдилar.[1]

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

Milliy tarbiya - bu millatning madaniyati, an'analari, urf-odatlarini va ma'naviyatini yosh avlodga singdirishga qaratilgan tarbiya tizimi. U xalqning tarixiy tajribasini, qadriyatlarini va norma me'yorlarini o'z ichiga oladi. Milliy tarbiyaning maqsadi yoshlarni o'z millatiga, uning qadriyatlariga hurmat bilan qarashga, shuningdek vatanparvarlik va jamiyatga xizmat qilishga tayyorlashdir.

Milliy tarbiyaning shakllanishida milliy qadriyatlarning o'рни alohida o'ziga xos asosi psixologik omillardan hisoblanadi. Milliy tarbiya bu chuqur ma'noga ega bo'lib, bugungi kunning eng dolzarb muommalariidan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Darhaqiqat shuni ham alohida ta'kidlash joizki milliy tarbiya qancha dolzarb muomma bo'lmasin, uni yosh avlodga singdirishda avvalo ota-ona juda katta rol o'ynaydi.

Fazilat –ijobiy hislat,yaxshi xulq yoki xususiyat. Halollik eng yaxshi fazilatdir.[2].

Bugungi kunda rivojlanayotgan O'zbekiston davlatining kelajagi yoshlar qo'lida ekan,uning yosh avlodi tarbiyasiga juda katta e'tibor qaratish joizligi har bir yoshning xulqida,axloqida fazilat tuyg'ularini shakllantirmog'imiz lozim. Fazilat bu insonni har bir narsaga yaxshi nazar bilan qarashga uni o'zgalar mulki emas,o'zining mulkiday qarashga undaydigan xususiyat.Agar yoshlarimiz ongida fazilat tuyg'usini shakllantira olsak yurtni sevish,vatanni ardoqlash uning har qarich yerini e'zozlashni shakllantirgan bo'lamiz.

Illat –tanadagi dard,kasallik, xastalik, jismoniy va ruhiy kamchilik,nuqson ayb. Illat bugungi kun yoshlarida afsusuki juda ko'p uchraydigan hislat hisoblanadi. Hozirgi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan davrda yoshlarning deyarli ko'pchiligida milliy tarbiya, milliy urf-odatlar,milliy mentalitit,Vatanparvarlik kabi hislatlar unitilib,ko'pchilik yoshlarda hoy-u havaslar, yengil -yelpi yashash orzusi halollik bilan ema, yengil keladigan boyliklar, ikkiyuzlamachilik,yolg'on yo'llar,yolg'on so'zlar kabi illatlar qamrab olayotgan davrda ularni bu illatlardan holi qilish, ularni bu illatlar qaramog'ida qoldirmaslik uchun yoshlarga milliy tarbiyani va milliy o'zlikni anglashda ota – onalar va ta'lim dargohlari hamkorlikda ish yuritishlari zarur va bugungi kun talabi.

Har bir yoshni Vatanni sevish,milliy urf-odatlarni bilish,o'zligini anglash , qaysi yurt farzandlari ekanligini bilishlari uchun ham bugungi kunda milliy tarbiyaning ahamiyati har qachongidan ham ortgan desak to'g'ri bo'lar edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Yangi O'zbekistonni barpo etish, uni rivojlangan davlatlar qatoriga kiritish bu avvalo yoshlar tarbiyasi orqali amalga oshiriladi.Bu tarbiya avvalo yoshalar ongida milliy tarbiya hislatlarini chuqur singdirish orqali amalga oshiriladi".

Inson qancha yuksalsa ham, qancha yutuqlarga erishsa ham Ona vatanini sevish kerkaligini uning milliy mentalititini bilish ma'suliyatini his qilish zaruriyati ustun turmog'i shart. Darhaqiqat shuni ham alohida ta'kidlash joizki qalbida Vatanparvarlik hissi bo'lgan har qanday inson yuksaladi,rivojlanadi.

Ta'lim – tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi, xalqimizning ertangi kunni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq.[3].

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, har bir yosh avlod, har bir oila busag'asida turgan yoshlar avvalo ongida, qalbida Vatanni sevish, uni ardoqlash, milliy tarbiya tushunchalari, o'zbek xalqining bugungi va o'tmish tarixini bilsalar, Vatan, oila, mahalla, ota-onasi oldidagi ma'suliyatni his qila oladigan yoshlar bo'lsalar ularning farzandlari ham mana shunday muhitda tarbiya topadilar .

Buyuk mutafakkir Abu Ali Ibn Sino aytganlaridek "Bolani ona qornidayoq tarbiyalash kerak" deb bejiz aytmaganlar. Shunday ekan bolani milliy ruhda tarbiyalash eng avvalo oiladan boshlanadi. Bugungi kunning eng achinarli holati afsuski yoshlarning ommaviy axborot vositalari ortidan ergashib ularga berilib ketishi, yigitlar-ku hatto qizlar ham ijtimoiy tarmoqlar orqali o'zlarini ko'z-ko'z qilishlari juda achinarli holat va bu yoshlar ongida milliy tarbiyaning oqsoqligi uni yoshlar ongiga singmaganligini bunday holat Yurt, Vatan, ota –ona uchun ham afsuski juda achinarli holat.

Milliy tarbiya bugungi kunning eng dolzarb muommalaridan biri uni yoshlarga anglatish esa oila a'zolarini hamda ta'lim dargohlarining asosiy vazifalaridan biridir. Ayniqsa balog'at yoshidagi bolalar bilan har tamonlama ehtiyotkorona munosabatlar olib borish orqali milliy tarbiyani tushuntirib, uni anglatib borishlari kerak. Yangi O'zbekiston qurish jarayonni borayotgan bir vaqtda uning poydevorini milliy tarbiyasi mustahkam, o'zligini anglagan haqiqiy Vatanparvar yoshlar tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Tarbiya fani 8-sinf darsligi. Toshkent 2020. "Zamin nashr".
2. Izoh.uz .saytidan.
3. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom. Karimov. "Yuksak ma'maniyat yengilmas kuch" Toshkent. 2008.

“YOSHLARNI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASHDA TA'LIM MUASSASALARINING ROLI”

Kenjayev Burgutali Qovuljon o'g'li

Namangan Davlat Pedagogika instituti Gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi.

Ilhomjonova Nozima Jamshidbek qiz

*Namangan Davlat Pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi 1-bosqich talabasi.*

Tel: +998 94 719 78 17

nozimailhomjonova087@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizga sadoqat ruhida tarbiyalashga oid ba'zi dalillar va ularning nazariy asoslari keltiriladi. Yoshlarni erkin fikrlashga o'rgatish, milliy qadriyatlarimizga bo'lgan hurmatni oshirish, hayot mazmunini tushunib olishiga ko'maklashish, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilishini, shakllantirish uchun zarur bo'lgan omillar ko'rsatilgan.*

Kalit so'zlar: *Urf-odat, ma'naviy boylik, aqlli, imon-e'tiqodli, ro'za, poklik, fidoyi, ishchan, milliy, kamolot, milliy qadriyat, o'zlikni anglash, erkin fikrlash.*

Annotatsion: *In this article, the author provides some evidence and their theoretical basis for educating our youth in the spirit of devotion to our national and universal values. Factors necessary to teach young people to think freely, to help them understand the meaning of life, to form self-control and self-control are identified.*

Keywords: *Tradition, spiritual wealth, intelligence, faith, fasting, purity, devotion, diligence, nationality, perfection*

Аннотация: *В данной статье автор представляет некоторые аргументы и их теоретическое обоснование для воспитания нашей молодежи в духе преданности нашим национальным и общечеловеческим ценностям. Показаны факторы, необходимые для того, чтобы научить молодых людей свободно мыслить, помочь им понять смысл жизни, уметь управлять и контролировать себя.*

Ключевые слова: Традиция, духовное богатство, интеллигентный, верующий, пост, чистота, преданный, трудолюбивый, национальный, зрелость

KIRISH: Mamlakatimizda milliy qadriyatlarni tiklash bo'yicha jiddiy tadbirlarning amalga oshirilayotganligi ma'naviyatimizning tiklanishida juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Milliy qadriyatlarimizning tiklanayotganligini bugungi kunda jahon tan olmoqda. Ayniqsa, Sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bahouddin Naqshband kabi ulug' siymolarga, Buxoro, Xiva shaharlari yubileylariga bag'ishlangan tadbirlar, simpoziumlarda dunyoning 50 dan ortiq davlatlaridan vakillarning qatnashganligi buning yorqin misolidir.

Ma'lumki, an'analar xalqning tarixiy shakllanishi va rivojlanishi jarayonida yaratilgan va ajdodlardan avlodlarga muqaddas meros sifatida o'tib kelayotgan bebaho ma'naviy boylik hisoblanadi. Millatning asosiy belgilaridan biriga aylangan odatlarni asrash va kamol toptirish har bir avlodning muqaddas burchi bo'lib qolyapti.

Biz bilamizki, an'analar hayotimiz davomida biz uchun qadrlil va barhayot bo'lib kelayotgan marosimlardir. an'analarimiz shunday davomiy va qadrlil bo'lishi biz yoshlar qo'lida, albatta. Avvalo, an'analar deganda xalq o'yinlariga alohida e'tibor berishimiz kerak. Bizga ajdodlarimizdan o'tib kelayotgan turli xil o'yinlar raqs, sport o'yinlari, lapar, teatr va shu kabi an'anaviy o'yinlar bizga ajdodlarimizdan o'tib kelayotgan an'analardir

Ravshanki, ko'ngilda vatanga muhabbat jo'sh urib turmasa, unga oshuftalik qalbni qaynatmasa, vujudingda Vatanga farzandlik burchi mas'ullik torlarini harakatga keltirmasa, harchand "Vatanim sajdagohim, iqbol maskanim" deyilgani bilan bizdagi mehru sadoqat qandaydir mavhumiylikka moyil hisga o'xshab ketadi. Bugungi kunda bizning qilayotgan barcha ishlarimiz yoshlarimizning baxt-u saodati ularning yorug' kelajagi uchun amalga oshirilmoqda. Odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, iymon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir.[1]

Vatanparvarlik ruhini shakllantirish: Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni o'z yurtiga bo'lgan sevgi va hurmat bilan bog'lash juda zarur. Bu, ayniqsa, yoshlarni mustaqillik, davlat ramzlari va tarixiy qahramonlarga hurmat qilishni o'rgatish orqali amalga oshiriladi.

Shu jaryonda har bir shaxsda milliy ma'naviyatni, milliy ong, milliy shuur, milliy tuyg'uni barkamollikka ko'tarish omillari faollik jarayoniga ko'chadi. Bu ulug'vor maqsadlarni amalga oshirish uchun jamiyatimiz o'zining real imkoniyatlariga ega. Avvalo, ozod va mustaqil Vatanda xalqni farovonlikka yetaklovchi va ma'lum ma'noda munosib turmushni kafolatlovchi shart-sharoitlar yaratildi. Davlatimizda fidoyi, ishchan, tashkilotchilik salohiyati baland malakali kuchlar ulg'aydi. Ular siymosi, faoliyatida milliy ma'naviyatning barqaror mag'zi, yaratuvchan kuchi mavjud. Milliy ma'naviyati barqaror shakllangan bunday kishilar o'z xalqi, millati, vatani manfaatini har qanday sharoitda himoya qiladi, o'z faoliyatida xalqimizning milliy ma'naviyatini namoyish eta oladigan, millatning salohiyatini, Vatan qadri, sha'ni, shuhratini ellararo, davlatlararo ko'rsata biladigan insonlardir. Yoshlarga milliy qadriyatlarni ta'limdan tashqari ishlar orqali singdirishning asosiy vazifalari sifatida quyidagilarga e'tibor qaratilishi lozim:

Birinchidan, yoshlarni erkin fikrlashga o'rgatish, hayot mazmunini tushunib olishiga ko'maklashish, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilishini, shakllantirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, reja va amal birligi hissini uyg'otish;

Ikkinchidan, talabalarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, Vatanimizning boy ma'naviy merosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, o'stirib-boyitib borish va estetik tushunchalarini shakllantirish;

Uchinchidan, har bir o'smirning bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish, inson faoliyatini turli sohalarda joriy qilish. Yoshlar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo'llab-quvvatlash uchun shart sharoit hozirlash;

To'rtinchidan, insonparvarlik odobi me'yorlarini shakllantirish (bir-birini tushunish, mehribonlik, shafqatlilik, irqiy va milliy kamsitishlarga qarshi kurasha olish), muomala odobi kabi tarbiya vositalarini keng qo'llash;

Beshinchidan, yoshlarimizni erkin va mustaqil fikrlashga o'rgatish. Ta'limdan tashqari tarbiyaviy ishlar talaba-yoshlarning qiziqishi, istaklari, xohish va ehtiyojlariga suyangan holda, ularning darsdan bo'sh vaqtlarida o'quv-tarbiya jarayonini to'ldiradi. Bu jarayonlarni tashkil etish yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi.[2]

Bugungi kun yoshlarining bir kunlik vaqt byudjeti: o'quv va darsdan (uyushmagan yoshlar uchun uy ishlaridan tashqari) tashqari vaqt sotsiologiyasini aniqlash va shu asosda ta'limdan tashqari ishlarni samarali tashkil etish chora tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur. Darsdan tashqari ma'naviy ma'rifiy ishlarni tashkil etishda: tanlovlar, klublar, badiiy havaskorlik, uchrashuvlar, bahslar, sport musobaqalari, davra suhbatlari, treninglar va boshqa tadbirlar, usullari: ishontirish, namuna ko'rsatish, o'rganish, mashq qildirish, rag'batlantirish, illatlarga salbiy munosabat bildirish, munozaralar, kuzatish, trening, jamoaviy ijodiy faoliyat, "mafkuraviy vaziyat", harakatli, taqlidli, rolli o'yinlar va boshqa shu turdagi usullardan samarali foydalanish lozim.

Mamlakatimizda yosh avlod orasida, balki yoshi ulug'lar orasida ham kitobga muhabbat va kitob mutolaasiga bo'lgan qiziqishni va madaniyatni oshirish maqsadida ta'lim muassasalarida badiiy, ma'rifiy, ilmiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan bir qator kitoblar yetkazib berishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdagi muhim omillardan yana biri oilaviy ta'limdir. Oilada yoshlar milliy an'analar va qadriyatlar bilan tanishtiriladi. Ota-onalar o'z farzandlariga tarixiy va madaniy merosni yetkazishda katta rol o'ynaydi. Oila ichida milliy an'analarga hurmat va sevgi tuyg'usini rivojlantirish muhimdir.

O'zbek oilalaridagi kitobga muhabbat, kitobni asrab-avaylab saqlash va kitobxonlik xalqimiz ma'naviy kamolotida muhim ahamiyat kasb etgan fazilatga aylangan. Chunki kishining o'zini-o'zi tarbiyalashida kitob ham bilim manbai, ham o'zingizni ko'rish, taqqoslash, taqlid qilish, munozara yuritish, bahslashishda

ma’lum darajada ko’zgu vazifasini o’taydi. Kitobxonlik mushohada va mulohaza yuritish iqtidorini shakllantiradi, fikrni charxlaydi, teranlashtiradi.

Ta’limdan tashqari ishlarda yoshlarni kitob mutola qilishga da’vat etish, ularning kitoblardan foydalanib o’z ustida ishlash imkoniyatlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy joylar, osori atiqalar, yodgorliklar, ziyoratgohlar bilan tanishib, ularni o’rganishga talaba-yoshlarni jalb etish zarur.

Oliy ta’lim muassasalarida fanlarni o’qitish jarayonida talabalarning darsga nisbatan qiziqishini oshirishga, mustaqilligi va faolligini oshirishga, mantiqiy tafakkurini o’stirishga qaratilgan interfaol ta’lim olishlariga ko’mak beruvchi innovatsion usullardan keng foydalanilsa maqsadga muvofiq bo’ladi. O’qtuvchilarning faoliyati ko’p qirrali bo’lib, ular boshqaruvchi, muloqot qiluvchi, yo’naltiruvchi, tashkil etuvchi va baholovchi rollarini amalga oshirishlari kerak bo’ladi.[3]

Bugungi kun talablaridan kelib chiqib, muzeylar faoliyatini yanada takomillashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Muzeylarga talaba-talabalarning tashrifini uyushtirib borish an’anaga aylanishi kerak. “Mening davlatim”, “Mening xalqim”, “Mening Vatanim”, “Biz hech kimdan kam bo’lmaganmiz, kam bo’lmaymiz ham” va shu kabi turli ma’rifiy tadbirlar tashkil etib, ularda talabalarni va uyushmagan yoshlarni faol ishtirokini ta’minlash lozim.

Jamiyatning ijtimoiy muhitida yoshlarning milliy qadriyatlar asosida tarbiyalanishi muhimdir. Madaniyat va an’analarga mos bo’lgan ijtimoiy muhit, yoshlarni to’g’ri yo’naltirishda muhim omil bo’ladi.

Rol model va yetakchilar: Yoshlar uchun ustozlar, ota-onalar, hamkasblar va boshqa jamoat yetakchilari rol model bo’lib xizmat qilishi zarur. Ularning o’zlari milliy qadriyatlarni hurmat qilgan holda, bu qadriyatlarni yoshlar orasida targ’ib qilishlari kerak.

Yoshlarni jamiyatga jalb qilish: Milliy qadriyatlarni yoshlar orasida tarbiyalashda, ularni jamiyatdagi faoliyatlarga jalb qilish, ijtimoiy tadbirlar va festivallarda ishtirok etishini ta’minlash muhimdir.

Yoshlarning to’y-ma’rakalarda, ommaviy sayillar, bayramlarda ishtiroki asosida mahallada o’zini tutishni, kattaga hurmat, kichikka izzatni, yaxshi-yomon

kunlarda yelkadoshlikni his qilishni o'rgatish orqali milliy istiqloq g'oyasining asosiy tamoyillaridan bo'lgan milliy va umuminsoniy qadriyatlarga munosabatni shakllantirishga e'tibor qaratish lozim.

O'zbek xalqining hozirgi milliy ma'naviyati va qadriyatlari o'tmish milliy ma'naviyatining davomi bo'lib, ularga do'stlik, mehmondo'stlik, insonparvarlik, axloqiy poklik, saxiylik, xushmuomalalik, hayolilik, sizlab muomala qilish, ozodalik, xushchaqchaqlik, xushfe'llik, mardlik, samimiylik, lutfi karamlik, ro'zg'orparvarlik, ona yurt va xalqiga muhabbatlilik, insoflilik, diyonatlilik, rostgo'ylik, halollik, ornomuslilik, to'g'rilik, sabr-andishalik, vazminlik, hojatbarorlik, ota-ona va kattalarni hurmat qilish, mehnatsevarlik, o'tmishga hurmat, insoflilik, iymonlilik, milliy g'urur, vatanparvarlik, millatparvarlik kabilar kiradi. Bugungi kunda bularni yoshlar ongiga singdirish har bir ota-ona va tarbiyachi-murabbiylarning asosiy vazifalaridir.

Xalqimiz urf-odatlarini, an'analari va marosimlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Odamlarning bir-biriga mehr oqibati, oqilona munosabati, to'g'ri muloqoti, iltifoti, extiromi xalqimizning ichki go'zalligini, boy ma'naviy va ruhiy qiyofasini ifodalaydi. Eng muhimi, xalqimizdagi mehr-muruvatlilik, saxiylik, mehmondo'stlik, xushmuomalalik, mehr-oqibatlilik, andishalilik, samimiylik, to'g'rilik, intizomlilik, mehnatsevarlik, o'zini tuta bilishlik, tejamkorlik, sabr qanoatlilik kabi his-tuyg'ular va hislatlar bugungi kunda barkamol avlod tarbiyasida ibrat-namuna vazifasini bajaradi.[4]

Tadqiqotimizning natijalaridan kelib chiqqan holda yoshlarni milliy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash borasida quydagilarni taklif qilish mumkin:

1. Tarixiy yodgorliklar, ma'rifiy maskanlar, san'at koshonalari hamda mustaqillik davrida qad ko'targan inshootlarga uyushmagan yoshlar va talabalarning ekskursiyalarini tashkil qilish;

2. O'lkashunoslik va Vatanimiz tarixiga oid to'garaklar ishini jonlantirish;

3. Jamoa yoshlarining umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida ma'naviy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik, mehnat, estetik madaniyatini shakllantirish maqsadida taniqli san'atkor, huquqshunos, ta'lim va fan arboblari, mehnat

faxriylari, sogʻliqni saqlash xodimlari bilan ijodiy kechalar va uchrashuvlar uyushtirish;

4. Mahallalarda uyushmagan yoshlarni va talabalarining shoir va yozuvchilar, davlat va jamoat arboblari, mehnat faxriylari kabi taniqli kishilar bilan uchrashuvlarini uyushtirib borish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev, Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: Oʻzbekiston, 2017. – 476b
2. Aliqulov X. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar mutafakkirlar talqinida. - Andijon. 2003. 265b
3. “Ta’lim togrisidagi”gi Qonun. OʻRQ-637-son 2020-yil 23-sentyabr
4. Umurzoqov O.P. Umuminsoniy qadriyatlar: milliy an’ana va urf-odatlar takomillashmoqda. G.G. Oʻzbekistonda ijtimoiy fanlar, 1992 №2.

GLOBALLASHUV DAVRIDA TA’LIM VA TARBIYANING O’RNI

Tillayev Bobomurod Abduvahobovich

Gumanitar fanlar kafedrasida katta oʻqituvchisi.

Ahmadjonova Durdona Ibrohimjon qizi.

Namangan davlat pedagogika instituti, oʻzbek tili va adabiyoti yoʻnalishi

1- bosqich talabasi.

Tel: +998 97 655 73 73

Durdonaahmadjonovaa@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada “Globallashuv” va “ Globallashuv davrida ta’lim va tarbiya” ning muhim ahamiyatlari, ijobiy va salbiy tomonlari, globallashuv jarayoning ta’lim tizimlariga ta’siri keltirildi. Maqola, shuningdek, ta’limning ahamiyati va globallashuv jarayonida millatimizga xos boʻlgan tarbiyani saqlash omillarini oʻz ichiga oladi.*

***Kalit soʻzlar:** Yosh avlod, ta’lim tizimi, jamiyat, ijtimoiy qadriyatlar, oʻquv dasturlar, insoniylik, tarbiya.*

Annotation: *This article discusses the importance of “globalization” and “Education and upbringing in the era of globalization, highlighting its positive and negative aspects as well as the impact of the globalization process on education system. The article also addresses the significance education and the factors necessary for preserving our national values in the context of globalization.*

Keywords: *Youth, education system, society, values, educational programs, humanity, upbringing.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются важности “Глобализации” и “Образования и воспитания в эпоху глобализации”, а также их положительные и отрицательные стороны, влияние процесса глобализации на образовательные системы. Статья также включает в себя значимость образования и аспекты сохранения воспитания, характерного для нашей нации, в условиях глобализации.*

Ключевые слова: *молодежь, образовательная система, общество, социальные ценности, учебные программы, человечность, воспитание.*

Kirish: Globallashuv davri – asosan XX asrning so‘ngidan boshlab jadallashgan va bugungi kunga kelib hayotimizning har jabhasida muhim ro‘l o‘ynayotgan jarayon. Globallashuv mamlakatlar, madaniyatlar va iqtisodiyotlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishning kuchayishi bo‘lib bu davr mobaynida ta’lim va tarbiyaning o‘rni sezilarli darajada muhim.

Globallashuv (lotincha globus – shar, Yer sayyorasi) – XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshida jahon taraqqiyotida shakllangan yangi umumsayyoraviy tartibotlar, davlatlar va kishilar o‘rtasida o‘zaro aloqalarning kengayishi va murakkablashishi jarayoni. “Globallashuv” atamasini dastlab, amerikalik olim T. Levitt “ Globallashuv yirik transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqaradigan turli-tuman mahsulot bozorlarining birlashuv jarayoni” degan fikrlari bilan ochiq-bergan. 1985- yilga kelib esa taniqli amerikalik olim R. Robertson “Globalization” iborasini ilmiy muomalaga kiritib, bu tushunchani “ dunyoning birlashuvi va kishilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning kuchayishi”ni ifoda etadigan jarayon deya talqin qilgan.

Globallashuv – bu xalqaro mehnat taqsimoti, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar tizimi orqali bir-biri bilan bogʻlangan milliy iqtisodiyotlar majmuyi sifatida tushuniladigan, jahon iqtisodiyoti tarkibini oʻzgartirish jarayonlarining oʻziga xos xususiyatlaridan biridir. Bu davr mobaynida globallashuv jarayonlarida millat va milliy oʻzlikni anglash masalalari kun tartibining asosiy masalalari qatoriga koʻtarildi. Agar globallashuv transmilliy voqelik ifodasi boʻlsa, milliy va milliy oʻzlikni anglash ushbu voqelikning boshlangʻich pogʻonasi hisoblanadi.[1]

Globallashuv davri ta'lim va tarbiyaning ahamiyatini yanada oshirib, yangi talablar va imkoniyatlarni keltirib chiqarmoqda. Hozirgi kunda globalizatsiya jarayoni dunyo boʻylab oʻzaro aloqalarni kuchaytirmoqda, bu esa ta'lim tizimlarini yangi sharoitlarga moslashtirishni taqozo etadi. Ta'lim va tarbiyaning zamonaviy talablari, jamiyatning rivojlanishi va global muammolarni hal etish uchun muhim rol oʻynaydi. Globallashuv ta'limni yangi kontekstga olib chiqdi. Ta'lim tizimlari endi faqat milliy kontekstdan chetga chiqib, global miqyosda raqobatdosh mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan. Hozirgi kunda talabalar turli madaniyatlar va global muammolarni tushunishga qodir boʻlishlari kerak. Buning uchun ta'lim dasturlarida metodlar, xalqaro tajribalar va koʻp madaniyatli muhitlar yaratilishi zarur. Internet va raqamli texnologiyalar ta'limda yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Global tarmoq imkoniyatlari keng ekanini uning bugungi yoshlar orasida juda tez ommalashganidan bilish mumkin. Ma'lumki, oʻtgan asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan internet tarmogʻi axborot sohasida tub burilish yasadi. Endilikda anʼanaviy ommaviy axborot vositalarining informatsion texnologiyalar asrida oʻz mavqeini saqlab qolishi koʻp jihatdan global tarmoq imkoniyatlari bilan chambarchas bogʻliq boʻlib qoldi. Bu borada Yurtboshimiz alohida taʼkidlab oʻtganlaridek: «...bugungi kunda milliy axborot tizimini shakllantirish jarayonida internet va boshqa global axborot tizimlaridan keng foydalanish, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega. Bunga erishish XXI asrda mamlakat taraqqiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.»[2, 127].

Empatiya va tushunish: Turli madaniyatlar bilan aloqalar oʻrnatish, boshqalarni tushunish va ularni qabul qilish tarbiyaning asosidir. Masofaviy ta'lim, onlayn kurslar va raqamli resurslar yordamida talabalarga bilim olish jarayonini

yanada qulaylashtirish imkonini beradi. Globallashuv jarayonida yosh avlodga ijtimoiy mas'uliyat hissini singdirish muhimdir. Ta'lim va tarbiya, insoniyatning umumiy muammolariga, masalan, iqlim o'zgarishi, qashshoqlik va tengsizlik kabi masalalarga yechim topishda yo'naltirishi kerak.

Tarbiyaning globallashuv davridagi roli shunchaki bilim berish bilan cheklanmaydi. U insonning axloqiy, madaniy va ruhiy taraqqiyotini ham o'z ichiga oladi. Tarbiyada quyidagi jihatlarga e'tibor qaratishi lozim. Milliy qadriyatlar: Globallashuv jarayonida milliy madaniyatlarni saqlash va rivojlantirish zarur. Tarbiya, o'z millatimizning tarixi, urf-odatlar va qadriyatlarini yosh avlodga yetkazishda muhim vosita hisoblanadi. Insoniylik va hamdardlik: Ta'lim va tarbiyada insoniylik, hamdardlik va adolat kabi axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish muhimdir. Bu, yoshlarni global muammolarni hal qilishda asosiy jihatlaridan biridir. Bu, yoshlarni global muhitda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlaydi.

Hozirgi vaqtda ko'z o'ngimizda dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasida chuqur o'zgarishlar ro'y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda.[3, 119]

Globallashuv davrida ta'lim sohasida bir qancha muhim jihatlarga chuqurroq e'tibor berish kerak. Ta'lim tizimini global mehnat bozorining talablariga mos ravishda vositalardan samarali takomillashtirish, o'quvchilarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalar: Onlayn ta'lim platformalari va raqamli foydalanish, o'qituvchilar va o'quvchilarga zamonaviy texnologiyalarni o'rgatish.

Xulosa:

Yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, Globallashuv jarajonida ta'lim hamda tarbiyaning o'rni birdek, juda muhimdir. Bu jarayonlar, nafaqat bilim berish, balki shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishni ta'minlash, madaniyatlararo aloqalarni kuchaytirish va global muammolarni hal etishda muhim rol o'ynaydi. Ta'lim va tarbiya orqali avlodlar yangi ko'nikmalarga ega bo'lib, ijodiy va tanqidiy fikrlash

qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shuningdek, jamiyatda barqarorlik, adolat va bir-birini hurmat qilish kabi qadriyatlarni shakllantirishda ham ta’limning ahamiyati katta. Shu bois, ta’lim va tarbiyani takomillashtirish va global talablarga moslashtirish zarur. Barcha sohalar shunday jadallik bilan rivojlanib borayotgan bir paytda, o’ziligimizga, O’zbekligimizga xos bo’lgan tarbiyani unutmashimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Globallashuv asoslari o’quv qo’llanma.Samarqand: 2003y(103b).
2. Karimov.I.A Yuksak manaviyat- yengilmas kuch.-Toshkent: Ma’naviyat,2016.(174b)
3. Mirziyoyev .SH.M. Buyuk kelajagimizni buyuk va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.- Toshkent : O’zbekiston,2017,-(485b)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA’LIM SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR

Kenjayev Burgutali Qovuljon o’g’li

Namangan davlat pedagogika instituti Gumanitar fanlar kafedrasi o’qtuvchisi.

Salohiddinova Mahliyo Abdurashid qizi

Namangan Davlat Pedagogika instituti O’zbek tili va adabiyoti yo’nalishi 1-bosqich talabasi.

[Tel: +998 97 903 75 75 salohiddinovamahliyo41@gmail.com](mailto:salohiddinovamahliyo41@gmail.com)

Anotatsiya: *Ushbu maqolada O’zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar tahlil qilinadi. Mustaqillikdan so’ng qabul qilingan “Ta’lim to’g’risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida mamlakatda zamonaviy ta’lim tizimini yaratishga oid keng qamrovli islohotlar boshlangan. Maktabgacha ta’lim, umumiy o’rta ta’lim, oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot sohalarida amalga oshirilgan yangiliklar, xalqaro hamkorlik va raqamlashtirish jarayonlari yoritiladi. Ta’lim sifatini oshirish va malakali kadrlar tayyorlash*

O'zbekistonning barqaror rivojlanishi va jahon hamjamiyatida raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatiladi.

***Kalit so'zlar:** Ta'lim islohotlari, Mustaqillik yillari, O'zbekiston ta'lim tizimi, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta'lim to'g'risida qonun, Maktabgacha ta'lim, Umumiy o'rta ta'lim, Oliy ta'lim, Ilmiy-tadqiqotlar, Zamonaviy ta'lim dasturlari, Raqamlashtirish, Masofaviy ta'lim, Xalqaro hamkorlik, O'qituvchilar malakasi, Elektron darsliklar.*

***Anotation:** this article analyzes the reforms carried out in the field of education in the Republic of Uzbekistan. On the basis of the law "on Education" adopted after independence and the "national program of training", comprehensive reforms began to create a modern educational system in the country. Innovations, International Cooperation and digitization processes carried out in the fields of preschool education, general Secondary Education, Higher Education and research are covered. Improving the quality of education and training of qualified personnel is shown to be important in ensuring the Sustainable Development and competitiveness of Uzbekistan in the world community.*

***Key words:** educational reform, years of Independence, educational system of Uzbekistan, national program of training, law on education, preschool education, General Secondary Education, Higher Education, Research, modern educational programs, digitization, Distance Education, International Cooperation, teacher qualifications, electronic textbooks.*

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin ta'lim sohasini rivojlantirish va isloh qilish davlatning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ta'lim sohasidagi islohotlar mamlakat kelajagini belgilovchi omil sifatida ahamiyatga ega. O'zbekistonning global taraqqiyotga mos keluvchi zamonaviy ta'lim tizimini yaratish borasidagi sa'y-harakatlari quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi: yangi o'quv dasturlarini joriy etish, ta'limning barcha bosqichlarida sifatni oshirish, ilm-fan va texnologiya taraqqiyotiga moslashish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish.

1. Ta'lim tizimining huquqiy asoslari.

Mustaqillik yillarida ta'lim sohasidagi dastlabki islohotlardan biri huquqiy asoslarni yaratish bo'ldi. 1992-yilda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va 1997-yilda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi. Ushbu hujjatlar ta'lim tizimining rivojlanish strategiyasini belgilab berdi. Milliy dasturning asosiy maqsadi sifatli, raqobatbardosh, zamonaviy talablarni qondiradigan kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish edi. Ushbu qonun va dastur ta'lim sifatini oshirish, yangi o'quv standartlarini joriy etish va xalqaro tajribani o'rganishni ko'zda tutgan.

2. O'quv dasturlari va o'quv jarayonlarini modernizatsiya qilish.

Mamlakatda amalga oshirilgan islohotlar o'quv dasturlarini takomillashtirish va modernizatsiya qilishni maqsad qilgan. Maktabgacha ta'limdan tortib oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlarda ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirishga harakat qilindi. 12 yillik majburiy ta'lim tizimi joriy etilib, o'quvchilarning umumiy bilim darajasi oshirildi. Shuningdek, informatika va xorijiy tillar, jumladan, ingliz tilini erta yoshdan o'rgatish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylandi.

3. Maktabgacha ta'lim tizimi rivoji.

Maktabgacha ta'lim sohasida ham keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. 2017-yilda Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etilib, ushbu sohaga davlat tomonidan e'tibor kuchaytirildi. Yosh bolalarni ma'naviy, axloqiy va jismoniy jihatdan rivojlantirish, ularni maktab ta'limiga tayyorlash uchun yangi dasturlar va metodikalar ishlab chiqildi. 5-6 yoshdagi bolalar uchun majburiy maktabgacha ta'lim joriy qilindi, shuningdek, xususiy maktabgacha ta'lim muassasalari ochilishiga keng imkoniyatlar yaratildi.

4. Xalqaro hamkorlik va o'qituvchilarning malakasini oshirish.

Ta'lim sohasidagi islohotlarning yana bir muhim yo'nalishi xalqaro hamkorlik va o'qituvchilar malakasini oshirish edi. O'zbekiston xalqaro tashkilotlar, jumladan, UNESCO, UNICEF va boshqa ko'plab xalqaro tashkilotlar bilan ta'lim sohasida hamkorlik qilmoqda. Bu orqali xorijiy ta'lim dasturlari va o'qitish metodikalarini mamlakat ta'lim tizimiga integratsiya qilish, o'qituvchilarning malakasini oshirishga katta e'tibor berildi. Xorijiy oliy ta'lim

muassasalari bilan qo'shma dasturlar ishlab chiqilib, talabalar almashinuvi, xorijiy diplomlarni tan olish kabi imkoniyatlar kengaytirildi.

5. Raqamlashtirish va ta'lim texnologiyalarini joriy etish.

So'nggi yillarda O'zbekistonning ta'lim tizimida raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish yo'nalishida ham yirik qadamlar tashlandi. Elektron darsliklar, interaktiv ta'lim vositalari, masofaviy ta'lim va onlayn platformalar orqali o'qitish usullari keng qo'llanila boshladi. 2020-yildagi pandemiya sharoitida bu jarayon yanada jadallashdi va masofaviy ta'lim texnologiyalari keng ommalashdi.

6. Oliy ta'lim va ilmiy tadqiqotlarning rivoji.

Oliy ta'lim sohasidagi islohotlar doirasida nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari ochildi. O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent Davlat Texnika Universiteti kabi nufuzli oliy ta'lim muassasalarida yangi ta'lim dasturlari, xorijiy o'quv dasturlari asosida tayyorlangan o'quv rejalar joriy qilindi. Ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va olimlarning ilmiy ishlariga keng imkoniyat yaratish maqsadida davlat tomonidan grantlar, stipendiyalar taqdim etilmoqda. Bu esa ilmiy-texnik taraqqiyotga hissa qo'shish va yuqori malakali ilmiy kadrlarni yetishtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatning intellektual salohiyatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida sifatni oshirish, ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish va xalqaro tajribani o'zlashtirishga qaratilgan bu islohotlar O'zbekistonning ta'lim tizimini zamonaviy talablarga mos ravishda rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu yutuqlar kelajakda barqaror rivojlanish va jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini topishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. *Ta'lim to'g'risidagi qonun*. Toshkent, 1992.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. *Kadrlar tayyorlash milliy dasturi*. Toshkent, 1997.

3. Abdullayev R. *O'zbekistonda ta'lim tizimining rivoji va islohotlar*. Toshkent: Ma'naviyat, 2005.
4. Hasanov A. *Maktabgacha ta'limni rivojlantirishning yangi yo'nalishlari*. Toshkent: Fan, 2017.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. *Ta'lim tizimini raqamlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar*. Toshkent, 2020.

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDAGI MA'NAVIY VA MADANIY TARAQQIYOT

Kenjayev Burgutali Qovuljon o'g'li

Namangan davlat pedagogika instituti Gumanitar fanlar kafedrasida o'qtuvchisi.

Olimjonova Mushtariy Rustamjon qizi

*Namangan Davlat Pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
1-bosqich talabasi.*

Tel: +998 77 267 12 04 mushtariyolimjonova309@gmail.com

Anotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston mustaqillik yillarida erishgan ma'naviy va madaniy yutuqlar tahlil qilinadi. Mustaqillik davrida milliy qadriyatlarni qayta tiklash, madaniy merosni saqlash, milliy o'zlikni anglash jarayonlari muhim o'rin egalladi. Maqolada O'zbekistonda milliy va diniy merosning tiklanishi, madaniyat va san'at sohalaridagi yutuqlar, shuningdek, zamonaviy san'atning rivojlanishi muhokama qilinadi. Shuningdek, kelajakda madaniyat va ma'naviyatni yanada rivojlantirish uchun bajarilishi zarur bo'lgan vazifalar, mavjud muammolar va istiqboldagi imkoniyatlar yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Mustaqillik yillari, O'zbekiston madaniyati, ma'naviy tiklanish, madaniy meros, islom dini va madaniyat, milliy qadriyatlar, Amir Temur merosi, Alisher Navoiy, Madaniy rivojlanish, Mustaqillik kuni, Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, Milliy o'zlik.*

Anotation: *this article analyzes the spiritual and cultural achievements of Uzbekistan in the years of Independence. During Independence, the processes of*

restoration of national values, preservation of cultural heritage, awareness of national identity took an important place. The article discusses the restoration of national and religious heritage in Uzbekistan, achievements in the fields of culture and art, as well as the development of Modern Art. Also, in the future, the tasks necessary to be completed for the further development of culture and spirituality, the existing problems and opportunities in the future will be highlighted.

***Key words:** years of Independence, culture of Uzbekistan, spiritual revival, cultural heritage, religion and culture of Islam, national values, heritage of Amir Temur, Alisher Navoi, cultural development, Independence Day, spiritual and educational upbringing, national identity.*

Mustaqillik yillarida O'zbekistonning ma'naviy va madaniy taraqqiyoti haqida so'z yuritishdan avval, bu davrning mamlakat uchun olib kelgan yirik o'zgarishlariga e'tibor qaratish lozim. O'zbekiston 1991-yil 31-avgustda mustaqillikka erishganidan so'ng, davlatning barcha sohalarida, xususan, ma'naviyat va madaniyat sohalarida ham yangi davr boshlandi. Ushbu maqolada mustaqillik yillarida O'zbekistondagi ma'naviy va madaniy taraqqiyot yutuqlari, muammolar va kelajak istiqbollari tahlil qilinadi.

Ma'naviy tiklanish

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda milliy qadriyatlarni qayta tiklashga katta e'tibor qaratildi. O'zbekiston xalqi asrlar davomida shakllangan boy madaniy va ma'naviy merosga ega bo'lib, bu merosning mustahkamlanishi uchun hukumat tomonidan ko'plab ishlar amalga oshirildi. O'zbek milliy g'oyasining shakllanishi va rivojlanishida Islom dini, xalq an'analari va qadimiy madaniyatning qayta tiklanishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

1992-yilda davlat tomonidan yangi konstitutsiya qabul qilinib, unda din va madaniyat sohasida erkinliklar ta'minlandi. Islom dini ham mustaqillik yillarida rivoj topib, Islom sivilizatsiyasi rivojlanishida katta hissa qo'shgan o'zbek ulamolarining ishlari tiklandi va ularning ilmiy merosini o'rganish uchun imkoniyatlar yaratildi.

Madaniy merosni asrash va rivojlantirish

Madaniy merosni saqlash va rivojlantirish davlatning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilandi. 1996-yilda Amir Temur tavalludining 660 yilligi nishonlanib, bu sanaga bag'ishlab katta madaniy tadbirlar tashkil etildi. Shuningdek, Buxoro, Samarqand, Xiva va boshqa tarixiy shaharlarda madaniy merosni tiklash ishlari olib borildi. Shu orqali milliy o'zlikni anglash, qadimiy yodgorliklarni qayta tiklash va tarixni yangi avlodlarga yetkazish muhim maqsadlardan biri bo'ldi.

Bundan tashqari, xalqaro miqyosda taniqli bo'lgan shoir va yozuvchilar: Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Beruniy va boshqa buyuk shaxslar tavalludining yubileylari keng nishonlandi. Ularning merosi o'rganilib, o'zbek tilidagi asarlar qayta nashr qilindi. Shu bilan birga, mamlakatda teatr, kino, adabiyot va boshqa san'at sohaslarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Zamonaviy madaniyatning rivoji

Zamonaviy madaniyat sohasida ham ko'plab yutuqlarga erishildi. O'zbekistonda ko'plab yangi teatrlar, san'at akademiyalari, madaniyat va istirohat bog'lari barpo etildi. Mustaqillik yillarida o'zbek kinosi, teatr san'ati, qo'shiqchilik va boshqa san'at turlari rivojlandi, ko'plab yosh ijodkorlar xalqaro sahnada O'zbekiston nomini tanitishga muvaffaq bo'ldi. Yangi o'zbek kinosining rivojlanishi, o'zbek xalq musiqa va raqs san'atini saqlab qolish, uni zamonaviylashtirish jarayoni davom etdi.

Shuningdek, yangi milliy bayramlar, jumladan, 1-sentabr – Mustaqillik kuni, 21-mart – Navro'z bayrami davlat miqyosida keng nishonlanib, xalqning qadimiy an'analari qayta tiklandi va mustahkamlandi.

Muammolar va kelajakda amalga oshiriladigan vazifalar

Mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlarga qaramasdan, madaniyat sohasida hali o'z yechimini topmagan muammolar ham mavjud. Xususan, madaniyat va san'at sohasida yosh iste'dodlarni tarbiyalashda tizimli yondashuvning kuchaytirilishi zarur. Hududiy farqlarni bartaraf etish, qishloq joylarida madaniy tadbirlar tashkil etishni kuchaytirish lozim. Ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani yangi texnologiyalar yordamida zamonaviy vositalar orqali amalga oshirish talab etiladi.

Kelajakda O'zbekistonda madaniyat va ma'naviyat sohalarini yanada rivojlantirish uchun yangi loyihalar, xalqaro hamkorlik dasturlari va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash davom etishi kutilmoqda. Madaniy merosni saqlash va zamonaviy madaniyatni rivojlantirish milliy o'zlikni mustahkamlashning eng samarali yo'llaridan biridir.

Xulosa

Mustaqillik yillarida O'zbekiston madaniy va ma'naviy sohalarda yirik yutuqlarga erishdi. Milliy qadriyatlarni qayta tiklash, madaniy merosni asrash va zamonaviy san'at sohasini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar o'z natijasini berdi. Kelgusida ham bu sohalarni yanada rivojlantirish mamlakatning barqaror taraqqiyoti uchun muhim omil bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. A. *O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari*. Toshkent: O'zbekiston, 1997.
2. *O'zbekiston madaniy merosi jahon san'atida*. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, Toshkent, 2005.
3. Shoniyozov K. *O'zbek xalqi tarixi*. Toshkent: Fan, 2001.
4. Abduqayumov A. *O'zbekiston madaniyati va san'atining rivojlanish bosqichlari*. Toshkent: Fan, 2010.
5. Fayzullayev A. *Islom va madaniy meros*. Toshkent: Movarounnahr, 2012.

GLOBALLASHUV JARAYONINING MILLIY MA'NAVIYATIMIZGA TA'SIRI

Abdullayev Akmaljon Nasriddinovich

Namangan davlat pedagogika instituti Gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, PhD.

To'ychiyeva Gulhayobonu Umidjon qizi

NamDPI O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Tel : +998950801387 gulhayotoychiyeva56@gmail.com

***Annotatsiya:** Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda butun dunyoning uyg'unlashuvi - globallashuv jarayoni yuz bermoqda. Barcha narsaning ikki qutbi*

bo'lganidek, globallasuv jarayonining ham o'ziga yarasha salbiy va ijobiy tomonlari mavjud. Bir tomondan, globallasuv jarayonining afzalliklaridan oqilona foydalanish, ikkinchi tomondan, uning salbiy ta'sirini bartaraf etish borasida pishiq-puxta o'ylangan izchil siyosat olib borilmoqda. Ushbu maqolamda yosh avlod vakillarini globallasuvning g'oyaviy-mafkuraviy ta'sirlaridan ogoh qilish va bunday xurujlardan asrab-avlalash g'oyasi haqida fikr va mulohazalar yuritilgan.

***Kalit so'zlar:** globallasuv jarayoni, iqtisodiy soha, mafkuraviy bilimlar, egotsentrizm, siyosiy jarayon, iqtisodiy integratsiya, pornografik saytlar, individualizm, ma'naviy meros, milliy madaniyat.*

***Abstract:** As we all know, the process of globalization is taking place today. As everything has two poles, the process of globalization has its own negative and positive sides. On the one hand, a well-thought-out and coherent policy is being carried out on the rational use of the advantages of the globalization process, and on the other hand, to eliminate its negative effects. In this article, there are thoughts and opinions about how to warn the representatives of the younger generation about the ideological and ideological effects of globalization and how to protect them from such attacks.*

***Key words:** globalization process, economic sphere, ideological knowledge, egocentrism, political process, economic integration, pornographic sites, individualism, spiritual heritage, national culture.*

***Аннотация:** Как мы все знаем, сегодня весь мир гармонизирован – происходит процесс глобализации. Подобно тому, как все имеет два полюса, процесс глобализации имеет свои негативные и положительные стороны. С одной стороны, проводится продуманная и последовательная политика, направленная на разумное использование преимуществ процесса глобализации, а с другой – на устранение его негативных последствий. В данной статье рассматривается идея просвещения подрастающего поколения об идеологическом и идеологическом воздействии глобализации и защиты их от подобных предрассудков.*

***Ключевые слова:** процесс глобализации, экономическая сфера, идеологическое знание, эгоцентризм, политический процесс, экономическая*

интеграция, порнографические сайты, индивидуализм, духовное наследие, национальная культура.

Hozirgi kunda globallashuv hamda bu jarayon xususida ko'plab ta'rif berilmoqda. Globallashuv atamasi dastlab XX asrning 80-yillari boshlarida iqtisodiy sohada sodir bo'lgan o'zgarishlarni yuzaga keltirgan omil sifatida amerikalik olim T. Levittning 1983-yildagi “Garvard biznes revyu” jurnalida e'lon qilingan maqolasida qo'llanilgan edi [2].

Aslida, globallashuv XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab turli darajada va ko'rinishlarda mavjud bo'lgan va hozirgi davrimizga kelib bu jarayonning avj olishi ro'y bermoqda. Buning ayrim jihatlari mamlakatimiz uchun ijobiy bo'lsa, ayrimlari salbiy ta'sir etadi. Bu ayniqsa, ma'naviyatga yetarlicha zarar keltiradi.[3]

Albatta, bu jarayonlarga ko'z yumib bo'lmaydi. Muammoning qay darajadaliigidan qat'iy nazar uning oldini olish, bunga qarshi kurashish choralarini izlash bizning oldimizda turgan vazifadir.

Darhaqiqat, globallashuv jarayoni hozirda hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelmoqda. Globallashuv jarayonidan ikki xil maqsadda – ezgulik va yovuzlik yo'lida foydalanish mumkin. Ezgulik yo'lidagi harakatlar davlatni va jamiyatni rivojlantirishga xizmat qiladigan bo'lsa, yovuzlikni maqsad qilgan taraqqiyot mahsuli esa buning tamomila aksidir.

Globallashuv jarayonida tahdidlar masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, u barcha sohalarda bo'lgani kabi ma'naviyatga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

Avvalo, globallashuv – bu ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jarayondir. Shuningdek, xalqlarning madaniyatiga kuchli ta'sir etuvchi hodisa sifatida o'rganiladi. U dunyoda iqtisodiy integratsiyaning ijobiy omili va milliy iqtisodiyotning natijali o'zgarishga ko'makchi sifatida qabul qilingan.

Ammo, dunyoda axborot almashinuvining o'sishi bilan u madaniyat, ilm-fan sohasiga ham kirib keldi. Natijada millat madaniyatiga ta'sir etuvchi ma'naviy tahdidlar insoniyat oldiga yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Chetdan kirib kelayotgan, mamlakatimiz fuqarolari, ayniqsa, yoshlar ongini individualizm, egotsentrizm g'oyalari bilan zaharlovchi ushbu ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarga

qarshi turishimiz zarur. Bebaho boyligimiz milliy ma'naviyatimiz va qadriyatlarimizga hurmat ruhini shakllantirgan holda ma'naviy tahdidlarni oldini olishga erishishimiz mumkin. Ma'naviyat haqida gap ketganda, shuni alohida ta'kidlash lozimki, u eng avvalo, millatni, milliy madaniyatni, milliy turmush tarzini muhofaza qiladi. Shunday ekan globallashuv jarayonida mamlakat milliy madaniyatiga rahna soluvchi ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarni oldini olishda insonlarni yuksak ma'naviyatli bo'lishi muhim omil hisoblanadi. Buning uchun jamiyatda ma'naviy-mafkuraviy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish zarur. Ya'ni, birinchidan, mamlakat kelajagi bo'lmish yoshlarni turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish; ikkinchidan, manaviy tahdidlarni aynan nimaga qaratilganligini har tomonlama anglab yetish; uchinchidan, atrofimizda yuz berayotgan voqea-hodisalarga befarq bo'lmasdan, dahldorlik hissini oshirish.

Bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arzimas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan lekin zararini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan ziyon yetkazishi mumkin. Jumladan, ma'naviy tahdidlarning bir ko'rinishi bo'lgan "ommaviy madaniyat" niqobidagi tazyiqlarning yoshlar ongiga ta'siri mamlakat taraqqiyoti uchun xavf soladi. Ayniqsa, voyaga yetmagan bolalarning turli internet klublarida o'tirishlari va pornografik saytlarga kirishlari, mobil telefonlardan noto'g'ri foydalanib, behayo film va suratlar olib yurishlari, bularning barchasi inson ma'naviy kamolotiga ulkan zarar keltiradi. Bugungi kunda jamiyat hayotida kechayotgan bunday jarayonlarda e'tiborli bo'lish, yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlash lozim. Bunda:

- ularda, turli xildagi ma'naviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish;
- yoshlarni ma'naviy merosimiz namunalari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish;
- yosh bolalarga mobil telefonlar va kompyuter o'yinlarining inson sog'ligi, ma'naviyati, ongiga yetkazadigan salbiy ta'sirlari haqida tushuntirish ishlari olib borish lozim.[3]

Shundagina jamiyat yoshlarini, shu bilan birga o'zbek xalqini har qanday yovuz kuchlar va ma'naviy tahdidlar to'fonidan omon saqlash va ular qalbida yurtga

sadoqat, vatanga muhabbat tuyg'ularini shakllantish mumkin. Xulosa qilib aytganda, globallashuv jarayoni jamiyat hayotida muhimligi, jamiyatning rivojlanishi va barbod bo'lishi uchun juda dolzarb masala ekanligini barcha anglab yetishi kerak. Ommaviy axborot vositalaridan to'g'ri foydalanish kerak. Chunki e'tibor berilmagan kichik xato ortidan inson o'z hayotini yakson qilishi mumkin. Jamiyat taqdiri yoshlar qo'lida ekan, ular bunday jarayonlarga befarq bo'lmasligi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. J.2.- T.: O'zbekiston, 2018.
2. Левитт Теодор. Глобализация рынков. - <https://marketing-course.ru/levitt-globalizaciya-marketin/>
3. [Globallashuv jarayonining ma'naviyatga ta'siri – oliymahad.uz](http://oliymahad.uz)
4. Xajiyeva M.S., Xatamov F.F., Matyaqubova F.B. Globallashuv asoslari. O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDCHTI, 2023. -B.160.

TARIXIY TARAQQIYOTDA SHAXS MADANIYATINING O'RNI

Sharobiddinov Sherzodbek Shuxratbek o'g'li

Namangan davlat pedagogika instituti Gumanitar fanlar kafedrasida stajyor-o'qituvchisi.

Xakimova Nozima Mirzajon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi.

Tel: +998970608470 nozimaxakimova24@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarixiy taraqqiyotda shaxs madaniyatining ahamiyati va uning jamiyat rivojlanishidagi o'рни ko'rib chiqiladi. Shaxsning madaniyati, uning o'zlikni anglash va ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishini ta'minlab, madaniyat va rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlaydi.

***Annotation:** This article explores the significance of personal culture in historical development and its role in societal progress. The cultural identity of an individual fosters self-awareness and active participation in social processes, highlighting the relationship between culture and development.*

***Аннотация:** В данной статье рассматривается значимость личной культуры в историческом развитии и её роль в прогрессе общества. Культурная идентичность личности способствует самосознанию и активному участию в социальных процессах, подчеркивая взаимосвязь между культурой и развитием.*

***Kalit soʻzlar:** Tayanch soʻz va iboralar, shaxs madaniyati, ijtimoiy taraqqiyot, shaxsiy oʻzlik, tarixiy taraqqiyot, madaniyat va rivojlanish, jamiyatdagi shaxs oʻrni, madaniy meros, globalizatsiya va madaniyat.*

***Keywords:** Individual culture, social development, personal identity, historical progress, culture and development, the role of the individual in society, cultural heritage, globalization, and culture.*

***Ключевые слова:** Личностная культура, социальное развитие, личная идентичность, историческое развитие, культура и развитие, роль личности в обществе, культурное наследие, глобализация и культура.*

Kirish. Tarix davomida madaniyat va shaxs rivoji bir-biridan ajralmas tushunchalar sifatida shakllanib kelgan. Shaxs madaniyati uning oʻzlikni anglashiga, shaxsiyatining mustahkamlanishiga va jamiyatdagi oʻrnini belgilashga yordam beradi. Jamiyatlar va xalqlar tarixida shaxslar tomonidan amalga oshirilgan madaniy yangiliklar rivojlanishning yangi bosqichlarini boshlab bergan. Qadimgi davrlarda buyuk hukmdorlar, olimlar va faylasuflar tomonidan yaratilgan madaniy qadriyatlar bugungi kunga qadar saqlanib kelmoqda. Shu sababli shaxs madaniyati tarixiy taraqqiyotning ajralmas qismi sifatida oʻrganiladi.

Shaxs madaniyatining ijtimoiy hayotdagi taʼsiri. Madaniyat insonning ijtimoiy rivojlanishiga katta taʼsir koʻrsatadi. Shaxs madaniyati uning tafakkurini boyitadi, unga oʻzligini topishga va jamiyat hayotida faol ishtirok etishga yordam beradi. Masalan, Sharq madaniyatida bilimli va yetuk shaxslar davlat boshqaruvida, madaniy hayotda oʻrnak boʻlib xizmat qilganlar. Fors olimlari va

mutafakkirlari bu yerda o'zlarini anglab, dunyoqarashlarini kengaytirgan holda butun jamiyatga xizmat qilishni o'z oldilariga maqsad qilganlar. Bu esa madaniy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikka katta ta'sir ko'rsatgan. Bunday shaxslar jamiyatda o'z o'rnini topib, o'z bilim va tajribalari orqali boshqa odamlarga yo'l ko'rsatib, taraqqiyotga hissa qo'shganlar.

Madaniy meros va uning shaxs madaniyatiga ta'siri. Madaniy meros - bu o'ziga xos boylik bo'lib, shaxs madaniyatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Har bir shaxs o'z milliy va madaniy merosidan ilhomlanadi. Madaniy meros qadriyatlarini o'rganish va ularga hurmat bilan qarash orqali shaxs o'zlikni topadi va kelajak avlodlarga boy madaniyatni meros qilib qoldirishga hissa qo'shadi. Masalan, O'zbekistonda shaxs madaniyati o'zining buyuk madaniy merosiga – Amir Temur, Alisher Navoiy kabi buyuk ajdodlarga asoslanadi. Ushbu shaxslar o'zlari yashagan davrda madaniyat va ilm-fan rivojiga katta hissa qo'shgan va bugungi kunda ham yosh avlodni ilhomlantirib kelmoqda.

Globalizatsiya va shaxs madaniyati. Globalizatsiya jarayonlari shaxs madaniyati va ijtimoiy hayotda o'ziga xos o'zgarishlar kiritdi. Endilikda shaxslar bir nechta madaniyatlarni o'rganish va ulardan ilhomlanish imkoniyatiga ega. Bu esa madaniyatlar orasidagi bog'liqlikni kuchaytirib, yangi qadriyatlarning shakllanishiga olib kelmoqda. Shaxs madaniyati turli millatlar va madaniyatlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantiruvchi asosiy omil hisoblanadi. Zamonaviy davrda madaniy almashinuvlar orqali o'z madaniyatini boshqa xalqlarga tanitish imkoniyati yanada kengaydi.

Shu bilan birga, madaniy xilma-xillikni qadrlash va boshqa millatlar madaniyatiga hurmat bilan qarash jamiyatlar o'rtasida tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlaydi.

Shaxs madaniyati va ijtimoiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik Shaxs madaniyati va ijtimoiy rivojlanish o'rtasida mustahkam bog'liqlik mavjud bo'lib, u jamiyatni oldinga siljituvchi kuch sifatida qaraladi. Insonlar o'z madaniyatini rivojlantirib, jamiyatdagi o'z o'rnini belgilash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotning poydevorini shakllantiradi. Masalan, Yevropadagi Uyg'onish davri shaxs madaniyati va ijtimoiy rivojlanishning muhim

davri bo'lib, bu davrda san'at va ilmiy taraqqiyot kuchaygan, yangi ijtimoiy tushunchalar paydo bo'lgan. Shu tarzda, shaxs madaniyati va ijtimoiy rivojlanish jarayoni o'zaro bir-birini to'ldiradi va yangi imkoniyatlar yaratadi.

Tarixiy taraqqiyotda shaxs madaniyatining o'rni juda katta ahamiyatga ega bo'lib, u jamiyatni rivojlantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shaxs madaniyati orqali insoniyat yangi qadriyatlarni kashf qiladi, ijtimoiy taraqqiyotga hissa qo'shadi va kelajak avlodlar uchun yo'l ko'rsatadi. Har bir shaxsning madaniyati nafaqat uning o'zlikni anglashiga, balki butun jamiyatning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, shaxs madaniyatini rivojlantirish va uni kelajak avlodlarga yetkazish bugungi jamiyat oldidagi eng muhim vazifalardan biridir.

O'rta asrlar va yangidan tug'ilish davrida shaxs madaniyati qanday o'zgarishlarga duch keldi. O'sha paytlarda ilm-fan, san'at va falsafa sohalarida shaxsning ahamiyati oshdi. Shaxslar o'z iste'dodlarini namoyish etish imkoniyatiga ega bo'lib, bu ijodiy rivojlanish va umuman madaniy taraqqiyotga olib keldi.

XX asrda shaxs madaniyati yana bir muhim o'zgarishlar bilan yuzlandi. Texnologik va ijtimoiy o'zgarishlar shaxs va uning madaniyati ustidan yangi qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Shu bilan birga, globalizatsiya shaxslarning madaniyatini global darajadagi ko'rsatkichlar bilan bog'lab hayotidagi eng muhim omillardan biri. Bu jarayon shaxsiy rivojlanish bilan birga jamiyatning umumiy madaniy o'sishiga ham hissa qo'shadi. O'zlikni anglash va madaniyatning o'zaro bog'liqligi shaxs olamida buyuk mutafakkir va olimlar - Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Ibn Sino, Farobiy kabi shaxslar nafaqat diniy, balki ilmiy va madaniy rivojlanishga ham katta ta'sir ko'rsatganlar. Ularning asarlari o'z davrida shaxsiy va ijtimoiy taraqqiyotga zamin yaratgan. Shu bilan birga, o'zlikni anglash orqali shaxs o'zining jamiyatdagi vazifasini, uning rivojiga qanday ta'sir qilishini tushunib yetadi. Bugungi kunda ham shaxs o'zligini anglash orqali o'z madaniyatini boyitishga, jamiyatdagi boshqa insonlar bilan o'zaro muloqotda bo'lishga, yangi qadriyatlarni yaratishga intiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akramov, A. "Madaniyat va Jamiyat." Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2018.
2. Xudoyberdiyev, B. "Tarixiy Taraqqiyotda Shaxsiyat." Toshkent, 2019.
3. Salomov, D. "Ijtimoiy Taraqqiyot va Madaniyat." Samarqand Universiteti Nashriyoti, 2020.
4. Karimov, A. "Madaniyat va Globalizatsiya." Toshkent: Yangi Kitob, 2021.
5. Bunyodov, S. "Uyg'onish Davri va Madaniyat." Samarqand Universiteti Nashriyoti, 2020.
6. Sherzodbek, Sharobiddinov. "Ma'naviyat tushunchasiga vorislik nuqtai nazaridan yangicha yondashishning ahamiyati." International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research (2023): 543-545.

GLOBALLASHUV JARAYONI VA MA'NAVIY TAHDIDLAR

Abdullayev Akmaljon Nasriddinovich

NamDPI Gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, PhD.

Mahmudjonova Mashhura Ulug'bek qizi

NamDPI Ijtimoiy fanlar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti 1-bosqich talabasi.

Tel: +998 94 581 11 05. E-mail: mashxuramaxmudjonova@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqola globallashuv jarayonining jamiyat va shaxsiyatga ta'sirini, uning ijobiy va salbiy tomonlarini ko'rib chiqadi. Globallashuv tufayli dunyo mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy, madaniy va axborot aloqalari kuchayib, kengroq hamkorlik va rivojlanish imkoniyatlari yaratilmoqda. Shu bilan birga, bu jarayon ayrim jamiyatlar uchun ma'naviy tahdidlar, xususan, milliy madaniyat va qadriyatlarning yo'qolishi xavfini keltirib chiqaradi. Maqolada globallashuvning milliy o'zlikka va yoshlarga ta'siri, bu jarayondan kelib chiqadigan ma'naviy tahdidlarning oldini olish usullari muhokama qilinadi. Globallashuvning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati va undan kelib chiqadigan muammolar muvozanatini topish mavzusi asosiy e'tiborda turadi.*

***Kalit so'zlar:** Globallashuv, ma'naviy tahdid, globalizatsiya, global madaniyat, madaniy almashuv, iqtisodiy integratsiya, axborot texnologiyalari, milliy o'zlik, ma'naviy tahdidlar g'arb ta'siri, madaniyatlar aralashuvi*

Globallashuv jarayoni zamonaviy dunyoda jamiyatlarning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu jarayon orqali davlatlar o'rtasida iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ilmiy aloqalar kuchayib, millatlar bir-biriga tobora yaqinlashmoqda. Texnologik taraqqiyot va axborot oqimining tezkorligi tufayli dunyo yagona makonga aylanib bormoqda. Bu esa millatlarni yangi imkoniyatlar bilan ta'minlaydi, turli madaniyatlar, ilm-fan va innovatsiyalar almashinuvini kuchaytiradi.

Biroq globallashuvning tezkor sur'atda rivojlanishi ma'naviy tahdidlarni ham keltirib chiqarmoqda. Global madaniyat va g'arb ta'sirining kengayishi ayrim jamiyatlarda milliy qadriyatlar, an'analar va ma'naviy o'zlikka tahdid solmoqda. Turli axborot manbalari va ommaviy madaniyat tufayli yoshlar orasida milliy o'ziga xoslikdan uzoqlashish, boshqa madaniyatlarga haddan tashqari qiziqish kuzatilmoqda. Shu sababli globallashuvning ijobiy tomonlarini qo'llab-quvvatlash bilan birga, milliy o'zlikni saqlash, ma'naviy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni yangi sharoitlarga moslashtirish muhimdir.

Bugun dunyoning mafkuraviy manzarasida inson qalbi va ongiga ta'sir o'tkazuvchi, turli xil vositalar bilan kurash olib boruvchi mafkuraviy poligonlar faoliyati tobora yaqqolroq ko'zga tashlanmoqda. Taraqqiyotning hozirgi bosqichida jahonda g'oyat murakkab va tahlikali jarayon kechmoqda. Bular dunyoning siyosiy, mafkuraviy manzarasidagi o'zgarishlar, taraqqiyotning yangi bosqichiga ko'tarilishi va bu taraqqiyotga g'ov bo'ladigan demokratik rivojlanishni izdan chiqaradigan, jamiyat barqarorligiga rahnas oladigan g'oyaviy-mafkuraviy to'siqlarning paydo bo'lishi bilan izohlanadi.[1] Globalizatsiya jarayonlari dunyoning turli mamlakatlarini iqtisodiy, siyosiy, madaniy va texnologik jihatdan yanada bir-biriga bog'liq qilib qo'yimoqda. Bu jarayonning ijobiy tomonlari bilan birga, ba'zi ma'naviy tahdidlarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Ushbu tahdidlar haqida quyida to'htalamiz.

Milliy va madaniy qadriyatlarning yo'qolishi: Global madaniyatning kengayishi milliy o'ziga xosliklar va an'anaviy qadriyatlarning siqib chiqarilishiga olib kelishi mumkin. Bu, ayniqsa, ommaviy madaniyatning keng yoyilishi orqali namoyon bo'ladi, chunki ko'p hollarda g'arb madaniyati boshqa mintaqalar madaniyatini bostirib, ularning o'ziga xosligini yo'qotishiga sabab bo'ladi.

Axborot xavfsizligi va ta'sirchanlik: Global axborot oqimlarining kuchayishi insonlarga chet davlatlar, madaniyatlar va qadriyatlar ta'sirini oshiradi. Bu ta'sir, ko'pincha, ma'naviyat va axloqiy qadriyatlarga qarshi yo'naltirilgan axborotlar orqali amalga oshiriladi.

Madaniy o'zlashtirish va assimilyatsiya: Ba'zi mamlakatlarda kuchliroq davlatlar tomonidan madaniy jihatdan o'zlashtirish, ya'ni chet madaniyatlarini o'z ichiga olgan assimilyatsiya jarayonlari kuchayadi. Bu milliy ma'naviyat va milliy o'ziga xoslikka zarar yetkazadi.[2]

Ma'naviy qadriyatlarning relativizmi: Globalizatsiya madaniyati odatda "har narsaning nisbiyligi"ni targ'ib qiladi, ya'ni barchaning qadriyatlari teng degan qarashni ilgari suradi. Bu esa ba'zan an'anaviy axloqiy me'yorlarning erkin talqin qilinishiga olib keladi.

Diniy tahdidlar: Dunyoviy global g'oyalar va ko'pgina tijoratlashgan, iste'molchilikka asoslangan madaniyatlar diniy e'tiqod va qadriyatlarga ham tahdid soladi. Bu, ba'zi hollarda, diniy qadriyatlarning so'nishi yoki ahamiyatining kamayishiga olib kelishi mumkin.[3]

Insoniy munosabatlarning kommersializatsiyasi: Global iqtisodiy integratsiya insoniy munosabatlarni ham tijoratlashtirishi mumkin. Bu esa insonlarning shaxsiy va ijtimoiy munosabatlarini iqtisodiy manfaatlar bilan cheklab qo'yishi, jamiyatning ma'naviy qadriyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga, globalizatsiya dunyo bo'ylab ma'naviy qadriyatlarni almashish imkonini ham beradi. Ba'zi hollarda bu jarayon bir-birini to'ldiruvchi madaniy o'zaro ta'sirlar orqali ma'naviy boyliklarni ko'paytirishga yordam berishi ham mumkin. Maqsad — bu jarayonda milliy va ma'naviy qadriyatlarni himoya qilish hamda ularni zamonaviy dunyo talablari bilan uyg'unlashtirishdan iborat.[4]

“Sayyoramiz ertangi kuni, farovonligi, farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga etishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamizyoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi “virusi” tarqalishining oldini olishdir”, - deydi Shavkat Mirziyoyev. [5]

Xulosa qilib aytganda, globalizatsiya jarayoni zamonaviy dunyo rivojiga katta hissa qo‘shayotgan bo‘lsa-da, u bilan bog‘liq ma’naviy tahdidlar jamiyatning diqqat markazida turishi kerak. Milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirish, ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlash bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biridir.

Globalashuv jarayoni zamonaviy dunyo uchun katta imkoniyatlar yaratib, iqtisodiy rivojlanish, texnologik yangiliklar va madaniy xilma-xillikni oshirishga yordam beradi. Biroq, bu jarayonning nojo‘ya oqibatlari ham mavjud bo‘lib, ular orasida ma’naviy tahdidlar va milliy o‘zlikka salbiy ta’sir eng muhimlaridan biridir. Milliy qadriyatlar va an’analar global madaniyatning bosimi ostida yo‘qolib ketishi yoki o‘zgarishi mumkin. Shu bois globalashuv jarayonida ijobiy tomonlarni saqlagan holda, milliy va ma’naviy qadriyatlarni himoya qilish muhim ahamiyatga ega.

Maqolamiz so‘nggida quyidagi takliflarni ishlab chiqdik:

1. Milliy ma’naviyatimizni yanada mustahkamlash – maktablar va oliy ta’lim muassasalarida tarix, madaniyat va qadriyatlar bo‘yicha ta’limni kuchaytirish lozim;
2. Madaniy almashinuvni boshqarish – globalashuvning ijobiy tomonlarini qabul qilib, milliy o‘zlik va madaniyatni himoya qilish uchun madaniy almashinuv siyosatini ishlab chiqish kerak;
3. Ommaviy axborot vositalarining roli – milliy televideniye va internet platformalarida milliy va madaniy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi kontentlarni yaratish;
4. Raqamli savodxonlik va axborot xavfsizligini oshirish – globalashuvning axborot oqimidan oqilona foydalanishni o‘rgatish va yoshlarni zararli ta’sirlardan himoya qilish uchun raqamli savodxonlikni kuchaytirish kerak;

5. Madaniy merosni saqlashga investitsiyalar – davlat va xususiy sektor tomonidan milliy an'ana va qadriyatlarni himoya qiluvchi loyihalarga investitsiya kiritish zarur.

Har bir davlat globallashuvdan chetda qolmasligini anglagan holda, uni nazorat qilish va milliylikni saqlab qolish, o'zlikni anglash orqali jamiyatning ma'naviy salomatligini ta'minlash imkoniyatlaridan foydalanish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Markaziy Osiyo: g'oyaviy jarayonlar va mafkuraviy tahdid. – T.: Yangi asr avlodi, 2001. -B.25.
2. Safoyeva S. Globallashuv jarayonining ijtimoiy hayot sohalariga ta'siri. // Globallashuv jarayonida jamiyatni demokratlashtirishning siyosiy, falsafiy-huquqiy masalalari. – T.: Falsafa va huquq nashriyoti, 2006. –B.27.
3. Quchqarov V. Milliy o'zlikni anglash va barqaror taraqqiyot – T.: Akademiya, 2013. –B.67.
4. Zokirov B. G'arb tamadduni: inqiroz alomatlari // Tafakkur, 2007. №2. – 23 b.
5. O'zbekiston Prezidentining BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqi jahon ommaviy axborot vositalari nigohida [O'zbekiston Prezidentining BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqi jahon ommaviy axborot vositalari nigohida](#)
6. Quronov M. Mafkuraviy tahdidlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: Akademiya, 2008. – B.54.

XALQ OG'ZAKI IJODINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Otaxonova Asalxon Axmadjon qizi

Ilmiy raxbar: Azamat Boydavlatov

Namangan davlat pedagogika instituti

Pedagogika yo'nalishi 2-bosqich talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu maqola xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy ahamyat, Xalq og'zaki ijodi namunalarining tarbiyaviy ahamyati, mazmun mohiyati, hamda*

yoshlarda ta'lim tarbiya jarayonida foydalanishning pedagogik asoslari to'g'risida bayon qilinadi.

***Анотация:** В данной статье описывается фольклора, воспитательная ценность и сущность значение образцов народного фольклора, а также педагогическая основа использования их в воститательном процессе молодежи.*

***Annotation:** This article describes the educational value of folklore the educational value and essence of examples of folk folklore, as well as the pedagogical basis of using the educational processs of young people.*

***Tayanch so'zlar:** Xalq og'zaki ijodi, vatanparvarlik, insoniylik, halollik, mehnatsevarlik, odob ahloq, tarbiya milliy, qadiryatlar, tarbiyaviy usullar, dostonlar, ma'naviy axloqiy qarashlar.*

***Ключевые слова:** фольклор, патриотизм, гуманность, честность, трудолюбие, нравственность, национальное воспитание, ценности, методы воспитания, былины, духовно-нравственные воззрения.*

***Key words:** folklore, patriotism, humanity, honesty, hard work, morals, national education, values, educational methods, epics, spiritual and moral views.*

Bugungi kunda mamlakatimizda demokratik huquqiy jamiyatni barpo etish yo'lida olib borilayotgan keng ko'lamdagi islohatlar mustaqil fikrlash layoqatiga ega aqliy, ma'naviy ahloqiy, ruhiy va jismoniy jihatlardan yetuk barkamol insonni tarbiyalash zarurligini taqazo etmoqda. Prezidentimiz aytganidek "Najot –bilimda, najot ta'lim va tarbiyadir". Yosh avlodni tarbiyalashda o'zbekona qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, milliylikimiz va xalq og'zaki ijodining ham o'rne beqiyosdir. Qolaversa, shiddat bilan o'zgarib borayotgan hozirgi zamon muhitida globallashuvning salbiy ta'sirlariga tushib qolmaslik g'oyat darajada muhimdir. Mentalitetimizga yot bo'lgan g'oyalarga qarshi milliy tarbiya yordamida shakllangan yuksak ma'naviy immunitetni har bir yosh ongida makon toptirish nihoyatda dolzarb masala bo'lib turibdi, desak yanglishmagan bo'lamiz. Bu ko'zlangan maqsadimizni amalga oshirishimiz uchun xalq og'zaki ijodi namunalari bizga eng yaqin ko'makchi bo'lib xizmat qilishi tayin. Shu nuqtai nazardan ham

aytishimiz mumkinki, hozirgi kunda xalq og‘zaki ijodi namunalari yoshlar tarbiyasida muhim va zarurdir.

Xalq og‘zaki ijodida komil inson g‘oyasi azal azaldan kuylanib kelingan va u xalqimizning ezgu orzusi, uning ma’naviyatining uzviy bir qismi bo‘lib kelgan. Xalq pedagogikasi ko‘p qirrali, tarixiy, boy madaniyatimiz va ma’naviyatimizning ajralmas bir qismi bo‘lsa, olis o‘tmishda yaratilgan va asrlar osha sayqal topib, bizgacha yetib kelgan xalq og‘zaki ijodi namunalari xalqimizning ana shu boy madaniyat merosining durdonalaridir. Xalq og‘zaki ijodining barcha janrlarida yosh avlodni ma’naviy-ahloqiy tarbiya yo‘llari, tarbiya usullari, mehr, muhabbat, saxiylik, oliyjanoblik, mehnatsevarlik, kasb-hunarga muhabbat, halollik, adolat, insof, insomparvarlik, andishalik kabi xislatlar ulug‘lanadi. Yomonlik, beparvolik, manmanlik, ochko‘zlik, ma’sulyatsizlik, farosatsizlik kabi yomon illatlar qoralanadi.

Shu o‘rinda e’tirof etish kerakki xalq og‘zaki ijodi na’munalari odob-ahloq, ta’lim-tarbiya borasidagi o‘ta xayotiy xalqchil va ibratli manba hisoblanadi. Shu bois uning umumbashariy ahamiyatiga moyil ekanligini ta’kidlashimiz joiz. Xalq og‘zaki ijodining janrlaridan biri dostonlarda ezgulik, ozodlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, qahramonlik kabi insoniy g‘oyalar mislsiz mahorat bilan tarannum etilgan va insonni hamisha ma’naviy kamolot sari yetaklagan.

Ana shunday umurboqiy asarlardan biri “Alpomish” dostonidir. O‘n asrki bu doston nafaqat xalq tilida balki xalq dilida yashab keladi. Alpomish aslida ma’naviyat qahramonidir. U vatan mustaqilligi, xalqning ma’naviy birligi uchun kurashgan qahramon sifatida o‘zbek xalqining etnik tarixida alohida o‘ringa ega. Ma’naviyat qahramoni bo‘lgan tufayli ham u xalqning ideal qahramoniga aylanadi. Shuning uchun o‘zbek xalqi o‘z tarixining eng qora kunlarida ham Alpomishni yuragida saqladi. Ushbu dostonidan ibrat olib Alpomishdek mard, jasur, halol, jonkuyar qilib o‘g‘illarni, Barchinoydek iboli, sadoqatli, matonatli, sabrli qilib qizlarini voyaga yetkazdi. Ishqiy-romantik dostonlar yoshlarni sevgida vafodor, do‘stga sadoqatli qilib tarbiyalasa, qahramonlik va jangnoma dostonlar yoshlarda insonparvarlik, xalqparvarlik kabi insoniy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Xalq dostonlarida milliy an’analar, urf-odatlar, insoniy qadriyatlar doim ijobiy obrazlar, xatti-harakatlar bilan bog‘lash tasvirlanadi. Ularni timsolida

adolatparvarlik, rostgo'ylik, mardlik, insonga mehr-muhabbat bilan qarash, halollik, vafodorlik, turli elatlar va xalqlarning birodarligi, do'stlik va samimiyat kabi xislatlar ulug'lanadi. Ushbu sifatlarni o'zida namoyon qila olgan har bir yosh jamiyat uchun, millat uchun, o'z xalqi va Vatani uchun kamarbasta bo'la oladigan shaxs bo'lib yetishadi.

Go'zal xulq mukammal ma'naviy - axloqiy fazilatlarni har bir insonda mujassam bo'lishi, ta'lim- tarbiyaga bog'liq. Shu bois yuksak ma'naviy axloqli yoshlarni tarbiyalashda xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy ahamiyati juda beqiyosdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xalq og'zaki ijodining barcha janrlarida faqat yaxshilik, insoniylik, rostgo'ylik kabi xislatlarni ko'rishimiz mumkin. Ushbu ezgu fazilatlar farzand tarbiyasida nihoyatda muhim hisoblanib, komil inson bo'lib yetishishida katta ahamiyatga ega. Tarbiya jarayonida biz milliyligimiz, an'analarimiz va tariximizdan ibrat olib, o'rnak olib foydalanamiz. Bunda bizga ajdodlarimiz tomonidan kuylanib kelayotgan lapar, doston, xalq qo'shiqlari, bundan tashqari maqol, matal, masal, ertak, rivoyatlar kerakli manba hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodining o'rni beqiyos ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev.Sh.M: "Erkin, obod va farovon mamlakatni yangi O'zbekistonni birgalikda barpo etamiz" T O'zbekiston. 2023 y
2. Muralipova.M. J.: Xalq pedagogikasi Toshkent 2015 o'quv qo'llanma
3. Boydavlatov A.A. "Abu Ali ibn Sino asarlarining o'ziga xos didaktik xususiyatlari". "Научный импульс", 1-son. 2024-yil, Fevral

IJTIMOIIY DAVLAT VA INSON QADRI VA INTEGRATSIYASIDA ESTETIK TARBIYA

Salimova Xosiyat Botirali qizi

*Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim
yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

*Ilmiy rahbar: Gumanitar fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi **B.A.Tillayev***

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy davlat konsepsiyasi va inson qadriyatlari integrasiyasida estetik tarbiyaning o'рни va ahamiyati tahlil qilinadi. Ijtimoiy davlat inson qadriyatlarini oliy darajada qadrlash va ularga xizmat qilishga asoslangan bo'lib, estetik tarbiya bu jarayonni mazmunan boyitadi. Estetik tarbiya shaxsda go'zallikni his qilish, uni qadrlash va ijtimoiy muhitda estetik me'yorlarni shakllantirish orqali jamiyatda ma'naviy uyg'unlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv ijtimoiy davlatning fuqarolar hayotini yaxshilash va inson qadriyatlarini rivojlantirish borasidagi asosiy maqsadlarini samarali amalga oshirishga yordam beradi. Maqola ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishda san'at, madaniyat va ta'limning o'zaro bog'liqligini ochib beradi. Shuningdek, insonning estetik tarbiyasi orqali uning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, shaxsning madaniy ongini yuksaltirish va jamiyatning ijtimoiy rivojlanishiga ko'maklashish jarayonlari yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy davlat, inson qadri, estetik tarbiya, ma'naviy uyg'unlik, go'zallik, san'at, madaniyat, ijtimoiy rivojlanish, madaniy ong, ijodiy salohiyat, ta'lim, ma'naviyat, estetik me'yorlar, qadriyatlar, integratsiya.

Аннотация: В данной статье анализируется роль и значение эстетического воспитания в интеграции концепции социального государства и общечеловеческих ценностей. Социальное государство основано на высокой оценке человеческих ценностей и служении им, а эстетическое воспитание обогащает этот процесс. Эстетическое воспитание служит обеспечению духовной гармонии в обществе через ощущение красоты в человеке, ее оценку и формирование эстетических норм в социальной среде. Такой подход помогает эффективно реализовывать основные цели государства всеобщего благосостояния по улучшению жизни граждан и развитию человеческих ценностей. В статье раскрывается взаимозависимость искусства, культуры и образования в формировании социальных и духовных ценностей. Также через эстетическое воспитание человека освещаются процессы развития его творческого потенциала, повышения культурного самосознания человека, поддержки социального развития общества.

Ключевые слова: Социальное государство, человеческие ценности, эстетическое воспитание, духовная гармония, красота, искусство, культура, социальное развитие, культурное сознание, творческий потенциал, образование, духовность, эстетические нормы, ценности, интеграция.

Abstract: *This article analyzes the role and importance of aesthetic education in the integration of the social state concept and human values. The social state is based on high appreciation of human values and service to them, and aesthetic education enriches this process. Aesthetic education serves to ensure spiritual harmony in society by feeling beauty in a person, appreciating it and forming aesthetic norms in the social environment. This approach helps to effectively implement the main goals of the welfare state to improve the lives of citizens and develop human values. The article reveals the interdependence of art, culture and education in the formation of social and spiritual values. Also, through the aesthetic education of a person, the processes of developing his creative potential, raising the cultural awareness of a person, and supporting the social development of society are highlighted.*

Key words: *Social state, human value, aesthetic education, spiritual harmony, beauty, art, culture, social development, cultural consciousness, creative potential, education, spirituality, aesthetic standards. , values, integration.*

KIRISH

Ijtimoiy davlat tushunchasi zamonaviy jamiyatda adolat, barqarorlik va inson huquqlarini ta'minlash tamoyillariga asoslangan boshqaruv modelini ifodalaydi. Bunda inson qadri asosiy markaziy o'rin tutadi, ya'ni har bir fuqaroning huquqlari, erkinliklari va manfaatlari oliy qadriyat sifatida qaraladi. Ushbu jarayonda insonning ma'naviy va estetik rivojlanishi ijtimoiy davlat tamoyillarining tarkibiy qismi sifatida ahamiyat kasb etadi. Estetik tarbiya esa shaxsning go'zallikni his qilish, uni anglash va jamiyatdagi estetik me'yorlarga amal qilish qobiliyatini shakllantiradi. Estetik tarbiya nafaqat shaxsning madaniy va ijodiy salohiyatini rivojlantiradi, balki ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.[1]

Ijtimoiy davlatning asosiy maqsadi inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, ijtimoiy adolatni qaror toptirish va fuqarolar farovonligini oshirishdan iboratdir. Bunda inson qadriyatlarini rivojlantirish va saqlash ijtimoiy siyosatning markazida turadi. Shu nuqtayi nazardan, estetik tarbiya insonni har tomonlama rivojlantirish, ma'naviy uyg'unlikni shakllantirish va jamiyatni madaniy jihatdan yuksaltirishda alohida o'rin tutadi. Estetik tarbiya shaxsning go'zallikni his qilish qobiliyatini rivojlantiradi, uni ma'naviy kamolot sari yo'naltiradi va ijtimoiy muhitda uyg'unlikni ta'minlashga yordam beradi. Ushbu jarayon san'at, madaniyat va ta'lim vositalari orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy davlat estetik tarbiyani fuqarolarining ijodiy va madaniy salohiyatini oshirish uchun kuchli vosita sifatida ko'rib, bu sohada samarali dasturlar ishlab chiqishi lozim.

Mazkur maqola ijtimoiy davlatning asosiy vazifalaridan biri bo'lgan inson qadriyatlarini rivojlantirish jarayonida estetik tarbiyaga oid yondashuvlarni tahlil qilishga qaratilgan. Shu orqali ijtimoiy va estetik ideallarning integratsiyasi jamiyatda ma'naviy uyg'unlikni ta'minlash uchun asos bo'lib xizmat qilishi ko'rsatiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

"Ijtimoiy davlat" va "inson qadri" tushunchalari bugungi ijtimoiy va falsafiy tadqiqotlarda keng o'rganilgan. Ijtimoiy davlat nazariyasi, asosan, Germaniya, Skandinaviya davlatlari va boshqa rivojlangan mamlakatlar tajribasiga asoslanib rivojlangan bo'lib, unda fuqarolarning asosiy ehtiyojlarini ta'minlash, adolat va farovonlikni mustahkamlash asosiy e'tiborda turadi. [2] Shuningdek, inson qadri, inson huquqlari va estetik tarbiya masalalarini o'rgangan mahalliy va xorijiy olimlarning ishlari ham tadqiqotda asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Masalan, G'arb mutafakkirlaridan I. Kant va F. Shiller estetik tarbiyaning inson ma'naviy rivojlanishidagi o'rnini ta'kidlagan bo'lsa, Sharq olimlari, jumladan, Al-Farobiy va Jaloliddin Rumiy, inson va go'zallik o'rtasidagi munosabatga alohida ahamiyat bergan.

Mahalliy tadqiqotlarda ijtimoiy adolat, inson qadriyatlarini va estetik tarbiyaning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini yoritib berilgan. Jumladan, O'zbekiston

falsafa va pedagogika sohasida amalga oshirilgan ilmiy ishlar estetik tarbiyaning ta'lim va tarbiya tizimidagi muhimligini asoslab bergan.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Analitik usul – ijtimoiy davlat va inson qadriyatlariga oid ilmiy manbalarni o'rganish va tahlil qilish.[3]
2. Tizimli yondashuv – ijtimoiy davlat, inson qadri va estetik tarbiyaning bir-biriga bog'liq jihatlarini o'rganish.
3. Taqqoslash metodi – mahalliy va xorijiy tajribalarni o'zaro solishtirish orqali umumiy va xos jihatlarni aniqlash.
4. Amaliy usullar – estetik tarbiya bilan bog'liq real ta'lim va madaniy loyihalarni kuzatish va o'rganish.[4]

Ushbu metodlar yordamida ijtimoiy davlat tamoyillari va inson qadriyatlarini rivojlantirish jarayonida estetik tarbiyaning rolini aniqlash, shuningdek, uning samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni ayta olamanki, ijtimoiy davlatning asosiy maqsadi inson qadriyatlarini rivojlantirish va ularning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlashdir. Ushbu jarayonda estetik tarbiya shaxsni har tomonlama rivojlantirish va ma'naviy uyg'unlikka erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Estetik tarbiya fuqarolarda go'zallikni his qilish, uni anglash va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, shuningdek, jamiyatda ijtimoiy hamjihatlik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.[5]

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, estetik tarbiya va inson qadriyatlarining integratsiyasi jamiyatning ma'naviy va madaniy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Bu esa ijtimoiy davlat konsepsiyasini amalga oshirish jarayonida estetik va axloqiy qadriyatlarning uzviy bog'liqligini ta'minlashni talab qiladi.[6]

Taklif sifatida quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

1. Estetik tarbiyani ta'lim tizimida keng joriy etish:

Ta'lim dasturlariga estetik fanlar va san'at darslarini chuqurroq kiritish.

Shaxsda estetik didni shakllantiruvchi madaniy va badiiy faoliyatni rag'batlantirish.

2. Madaniy muhitni rivojlantirish:

Hududlarda san'at va madaniyat markazlarini tashkil etish va ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash.

Fuqarolarni turli madaniy tadbirlarga jalb qilish orqali ularning estetik tushunchalarini rivojlantirish.

3. Ijtimoiy davlat tamoyillarini estetik tarbiya bilan bog'lash:

Estetik tarbiyani davlat ijtimoiy siyosatining muhim qismi sifatida ko'rib chiqish.

Estetik tarbiya orqali jamiyatda ma'naviy qadriyatlarni kuchaytirishga yo'naltirilgan dasturlarni ishlab chiqish.

4. Ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish:

Inson qadriyatlari va estetik tarbiyaning integrasiyasiga bag'ishlangan ilmiy ishlanmalarni rag'batlantirish.

Ijtimoiy davlatning estetik tarbiya sohasidagi ilg'or tajribalarini o'rganish va ulardan foydalanish.[7]

Mazkur takliflarni amalga oshirish orqali jamiyatda nafaqat ma'naviy uyg'unlikni, balki shaxs va davlat o'rtasidagi ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlash imkoniyatini yaratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kant, I. (1998). Critique of Judgment. Oxford University Press.
2. Shiller, F. (1967). On the Aesthetic Education of Man. Dover Publications.
3. Al-Farobiy. (1975). Fozil odamlar shahri. Toshkent: Fan nashriyoti.
4. Jaloliddin Rumi. (2000). Masnaviy. Toshkent: Movarounnahr nashriyoti.
5. Habermas, J. (1996). Between Facts and Norms: Contributions to a Discourse Theory of Law and Democracy. MIT Press.
6. Bobur, Z. M. (2011). Boburnoma. Toshkent: Sharq nashriyoti.
7. Tillayev, B. A., and H. Nuriddinov. "A MODEL FOR SHAPING THE PATRIOTIC CONSCIOUSNESS OF UNIVERSITY STUDENTS THROUGH MEDIA EDUCATION." Conferencea (2022): 341-343.

8. Tillayev, Bobomurod. "BOSHLANGICH SINFLARDA TALIM OLAYOTGAN NOTO'LIQ OILA FARZANDLARINI TARBIYALASHDA OQITUVCHINING ORNI." *Интернаука* 41-2 (2019): 60-61.
9. Bekmurodov, A. (2020). Ma'naviy tarbiya nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Yangi asr avlodi.

O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMINING RIVOJLANISHIDAGI IJTIMOIIY O'ZGARISHLAR

Kenjayev Burgutali Qoviljon o'g'li

Namangan davlat pedagogika instituti Gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi

Dadamirzayeva Nargiza Ibroximjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti, O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi.

Tel: +998946688607 ndadamirzayeva4@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola hozirgi O'zbekistondagi ta'lim tizimining rivojlanishidagi ijtimoiy o'zgarishlar to'g'risida. Bundan tashqari ta'lim tizimidagi yangiliklar va shunga doir qonun qoidalar haqida.*

Abstract: *In this article, the solutions and problems of the preservation and development of national education in the processes of globalization are covered. In addition, about the innovations in the education system and the related laws and regulations.*

Аннотация: *Эта статья посвящена социальным изменениям в развитии системы образования в современном Узбекистане. Кроме того, о новшествах в системе образования и соответствующих законах и правилах.*

Kalit so'zlar: *Konstsepsiya, raqamli ta'lim, ta'lim kampusi, modernizatsiya, ta'lim turlari, masofaviy ta'lim.*

Key words: *Concept, Digital education, Educational campus, Modernization, Types of education, Distance education.*

***Ключевые слова:** Концепция, Цифровое образование, Образовательный кампус, Модернизация, Виды образования, Дистанционное образование.*

Kirish

Konstsepsiya - mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Bunda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab bergan. Shularning barchasi ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi.

Ta'lim - bu ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga va shuningdek, ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon hisoblanadi. Shu boisdan ham Prezidentimiz tomonidan bir qancha Prezident maktablari, maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlari ochildi. Hozirgi kunda ta'lim tizimiga chuqur e'tibor qaratilmoqda. Shu sababli ham bir nechta davlatlar bilan birgalikda ta'lim borasida shartnomalar tuzilgan, bularga AQSh, Kanada, Turkiya, Germaniya shu va shu kabi davlatlar bilan ikkitomonlama shartnomalar tuzilgan.

Raqamli ta'lim - interaktiv vositalar va resurslar orqali o'qitish va o'quv jarayonlarini osonlashtiradigan onlayn tizim bo'lib, tinglovchilarga istalgan joydan va istalgan vaqtda ta'lim jarayoniga kirish imkonini beradi. Aynan hozirgi rivojlanib borayotgan texnologiyalar davrida ta'lim tizimi yuksak cho'qqiga chiqmoqda. Aynan ta'lim sohasi uchun ham bir qancha texnologiyalar bor.

Ta'lim kampusi - yagona hududda birlashtirilgan o'quv binolarini, ilmiy - tadqiqot institutlarini, ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, ta'lim - tarbiya jarayoni ishtirokchilarining vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyalarni, axborot - resurs markazlarini (kutubxonalarini), sport inshootlarini, umumiy

ovqatlanish obyektlarini o'z ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuidan iborat bo'lgan, o'quv jarayoni, ma'naviy - axloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini ta'minlaydigan ta'lim - tarbiya muhiti.

Modernizatsiya - (fransuzcha moderne- „eng yangi“, „zamonaviy“) - biror narsani yangilash, unga zamonaviy va ilg'or texnologiyalar, usullar va zamonaviy talablarga muvofiq o'zgartirish degan ma'nolarni bildiradi. Bunga misol tariqasida, infratuzilma qurilishi, sanoatni rivojlantirish, ilmiy - texnikaviy taraqqiyot, ta'lim tizimini takomillashtirish kabi faoliyatlarni aytishimiz mumkin.

Ta'lim turlari quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta'lim va tarbiya;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
- professional ta'lim;
- olit ta'lim;
- oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ;
- maktabdan tashqari ta'lim;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasi.

Bugungi kunda taraqqiyot juda tez, jadal bilan rivojlanib bormoqda. Har soniyada, har daqiqada dunyoning qaysidir burchaklarida yangilanishlar, o'zgarishlar yuz bermoqda. Har bir kunimiz albatta qandaydir yangiliklar bilan boshlanadi. Hozirgi kunda ta'lim sohasida bir qancha qulayliklar yaratilmoqda ayniqsa, raqamli ta'lim sohasida.

Ta'lim tizimidagi islohotlar orqali:

- Qishloq joylarida ta'lim sifati yaxshilanishiga e'tibor qaratilmoqda.
- Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun inklyuziv ta'lim imkoniyatlari yaratilyapti.

Masofaviy ta'lim onlayn tizimga kiradi. Bu haqida Konstitutsiyamizning 16 - moddasida shunday deyilgan:

Masofaviy ta'lim o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot

kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan.

Masofaviy ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 16 - modda

Masofaviy ta'limning ijobiy tomonlari bir nechta. Shuni misol qilishimiz mumkinki, masofaviy ta'limda pul, vaqt tejiladi va yana shunga o'xshash narsalar. Lekin hamma narsaning ham ikki tomoni bo'lgani kabi buning ham ikkinchi tomoni bor. Ikkinchi tomoni bu, masofaviy ta'limda o'quvchilar dangasa bo'lib qolishadi va mas'uliyat kamayadi.

Xulosa: Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib shunday deyishim mumkun, hozirgi kunda ta'lim sohasida Prezidentimiz tomonidan yoshlarga bir qancha shart - sharoitlar yaratib berilgan. Bunga Prezidentimizning quyidagi gaplari yaqqol misol bo'ladi: „, Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoni tug'iladi. Shunday ekan yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi". Shu jumladan, Prezidentimiz tashabbuslari bilan yoshlarga yanada qulay bo'lishi uchun zamonaviy sharoitdagi kutubxonalar, ixtisoslashtirilgan maktablar, prezident maktablari maktabgacha ta'lim va boshqalar barpo etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi „,Ta'lim to'g'risida" gi qonuni (2020 - yil yangi tahrir).
2. „,O'zbekistonda ta'lim va innovatsion" jurnallari.
3. Karimov A. „, Zamonaviy ta'lim, islohotlar va istiqbollar".
4. yuz.uz. xalqta'liminfo.uz.

VIRTUAL O'YINLARNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI

Omonova Zarnigor To'rajon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti Gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi.

Ergashxo'jayeva Dilnoza Ma'rufxo'ja qizi

Namangan davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

1-bosqich talabasi.

Tel: +998948422326 Ergashxojayevadilnoza@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy axborot texnologiyalarining ijobiy va salbiy taraflari yoritib berilgan. Inson hayotiga axborot texnologiyalarining chuqur kirib borishi yoshlar ongiga qanday ta'sir etishi mumkinligi tahlil qilingan. Virtual o'yinlar ta'siriga tushgan yoshlar bilan olib boriladigan yo'nalishlar ko'rib chiqilgan hamda ayrim xulosalar shakllantirilgan.*

Abstract. *This article highlights the positive and negative aspects of modern information technology. It has been analyzed how the deep penetration of information technologies into human life can affect the minds of young people. Directions for dealing with young people affected by virtual games have been considered and some conclusions have been drawn.*

Kalit so'zlar: *Axborot texnologiyalari, virtual o'yinlar, virtual madaniyat, "ko'k kit".*

Keywords: *Information technologies, virtual games, virtual culture, "blue whale".*

Zamonaviy dunyoda axborot texnologiyalarining (IT) jamiyat hayotida egallagan mavqei tobora oshib bormoqda. Mamlakatimizda ham raqamli xizmatlar ko'lamining ortib borishi, axborot uzatish vositalarining (kompyuter, qo'l telefonlari va hk.) kundalik turmush tarziga chuqur kirib borishi va ma'lumotlar ko'lamining ko'payishi, texnologiyalarni qo'llash orqali qulayliklarga ega bo'lish – inson hayotining ajralmas bo'lagi bo'lib qoldi. Axborot oqimlari miqyosining oshib borishi hamda axborot texnologiyalar vositasida turli virtual o'yinlarning yaratilishi – yoshlarni ularning salbiy ta'siridan himoya qilish singari dolzarb masalaga befarq bo'la olmasligimizni taqozo etmoqda. Mazkur maqolada axborot texnologiyalari dunyosida o'ziga xos o'ringa ega – virtual o'yinlarning yoshlar ongiga ta'siri muhokama qilinadi.

Mamlakatimizda yoshlarni turli salbiy ta'sirlardan, xususan, “ommaviy madaniyat” deb ataladigan g'oyalardan himoya qilish ustuvor masala sifatida belgilab olingan. Virtual o'yinlarni yaratish orqali yoshlar ongiga halqimiz qadriyatlariga yot madaniyat g'oyalarni singdirish jahondagi ayrim salbiy kuchlarning maqsad vazifasi bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab etlayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”[1], deb ta'kidlab o'tdilar.

Yoshlarning axborot vositalaridan foydalanish madaniyatini rivojlantirish, ularning zamonaviy axborot kommunikasiya texnologiyalardan faol foydalanuvchiga aylanib borishi bilan, ma'naviy-axloqiy jihatdan yuksalishiga, shaxsiy manfaatlarni emas, balki inson qadr-qimmatini ustun qo'yishga yo'naltirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Har bir jamiyat va millatning ertangi kuni qanday bo'lishi yoshlarning virtual madaniyatini rivojlantirish darajasi bilan belgilanadi. Mamlakat prezidenti Shavkat Mirziyoev: “Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda”[2] deya ta'kidladilar.

Yoshlarni nomaqbul axborot oqimlari, xususan virtual o'yinlarga jalb etish orqali ular ongiga salbiy ta'sir ko'rsatish tendensiyasi yaqqol ko'zga tashlana boshladi. Mamlakatimiz olimlari bu borada ham izchil izlanishlarni olib bormoqdalar. “ Jamiyatning eng zaif qismi - bolalar va yoshlarning ongini psixologik bostirish, manipulyasiya qilish mavjud. Axborot ta'lim muhitidagi eng jiddiy tahdidlardan biri bu bolaning psixologik jarohati bo'lib, uning ruhiy salomatligi, ijobiy rivojlanishi va uning asosiy ehtiyojlarini qondirish natijasida zarar ko'radi”[3].

Bizning fikrimizcha, yoshlar ongiga virtual o‘yinlarning ta’sirini kamaytirish yo‘llarini ishlab chiqish, ularning virtual madaniyatini oshirish orqali turli xavflardan himoya qilish jamiyatimizdagi eng dolzarb masalalardan biriga aylanadi.

Yoshlar o‘shish davrida turli bosqichlarni boshidan kechiradi. O‘smirlik davri eng nozik davr hisoblanadi. Chunki, bu paytda aksriyat yoshlarda o‘ziga bo‘lgan ishonchsizlik ortadi va ular o‘zlarini past baholay boshlaydi. Mana shu tushkunlik vaqtida ularning turli yot ta’sirlarga tushish ehtimoli kuchayadi. Aynan shu bosqichda qiziquvchanligi tufayli, ularning virtual o‘yinlarni o‘ynashga ishtiyoqi ortadi. Bu davrda o‘smirning yangilikni o‘zlashtirish imkoniyati ko‘tariladi hamda virtual o‘yinlar tobora ularni o‘z “dom”iga torta boshlaydi.

Ommaviy axborot vositalarida qo‘shni mamlakatlar, xususan, Qozog‘istonda “Ko‘k kit” virtual o‘yinida ishtirok etish ortidan o‘z joniga qasd qilganlar soni ortgani to‘g‘risida ma’lumotlar tarqadi. Tushkunlik, bilimsizlik, yoshlik hamda kattalar e’tiboridan chetda qolish ortidan mana shunday fojeali qismatga muhtalo yoshlar soni ortib borayotgani ko‘pchilikka sir emas. Yoshlarga cheklovlar qo‘yish orqali ularning man etilgan mana shunday o‘yinlarga bo‘lgan e’tiborini qayta kuchaytirib qo‘yilmoqda. Bizning fikrimizcha, bu masalaga keng ko‘lamda yondashuv kerak bo‘ladi va ta’lim dargohlari hamda ota-onalarning birgalikdagi harkatigina salbiy holatlarni oldini olish uchun yechim bo‘ladi.

“XXI asr axborot almashinuvining xilma-xilligi, g‘oyaviy-mafkuraviy poligonlarning keskinlashuvi, bir so‘z bilan aytganda, inson ongiga hukmronlik uchun kurash kechayotgan davr sifatida tarixda qolmoqda. Bu davrda milliy xavfsizlik, madaniyat va ma’naviyatni saqlab qolish o‘z kelajagini o‘ylaydigan har bir xalq uchun bosh omil darajasida qaralishi shart”[4].

Xulosa: Virtual o‘yinlar sohasida ishlaydigan yirik kompaniyalar sonining ortib borishi ham yoshlar ongiga ta’sir ko‘rsatishning tub sabablaridan biri sanaladi. Yevropa bozorida ularning 300 dan ortig‘i mavjud bo‘lib, Oculus, HTC, Sony, Microsoft, Samsung va boshqa yirik kompaniyalar bu sohada uzoq vaqtdan beri o‘z texnologiyalarini joriy etib kelmoqdalar. Virtual o‘yinlar nafaqat o‘yin, balki inson faoliyatining barcha sohalariga faol ravishda kiritilmoqda.

Mamlakatimizning raqamlashgan jamiyatga o'tishi rivojlangan mamlakatlar sharoitidan tubdan farq qiladi va jahon tajribasini hisobga olgan holda, faqat O'zbekistongagina xos bo'lgan yo'lni belgilab olish kerak. Jahon tajribasida har bir mamlakat o'zining sharoitlarida vujudga kelgan yo'lidan axborotlashgan jamiyat sari harakatlanishi zarur va yoshlarni virtual axborot “sarqit”laridan himoya qilish uchun o'z maqeiini belgilab olishi lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet sahifalar

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.–T.,O'zbekiston: NMIU, 2016. 14-b
2. Mirziyoev Sh. Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir / «Xalq so'zi» 2017 yil 1 iyul
3. X.R.Haydarova. Axborotlashgan jamiyat sharoitida ota-onalarning virtual pedagogik madaniyatini rivojlantirish masalalari. Monografiya. Toshkent. 2022. 117-bet
4. Yazdanov U. Jamoatchilik fikrini transformasiya qilish imkoniyatlari//. – Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari 2017. 2-son B. 79

TARIXIY TARAQQIYOTDA INSON TARBIYASIGA OID MASALALAR

Saitxonova Sevinchxon Tolibjon qizi

*Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim
yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

Imiy rahbar: Gumanitar fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi B.A.Tillayev

Tel:+998 93 158 51 15

Annotatsiya: *Ushbu maqolada inson tarbiyasining tarixiy taraqqiyotdagi o'рни va ahamiyati keng qamrovda tahlil qilinadi. Inson tarbiyasi qadim davrlardan boshlab jamiyat rivoji uchun asosiy omillardan biri hisoblangan. Maqolada qadimgi sivilizatsiyalardan tortib, islom madaniyati, Uyg'onish davri va zamonaviy ta'lim tizimiga qadar bo'lgan davrlarda tarbiya usullari, tamoyillari va ularga ta'sir etuvchi omillar yoritiladi. Shuningdek, har bir davrning o'ziga xos tarbiya*

shakllari va ta'lim metodikalarining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlariga bog'liqligi ham o'rganiladi. Ushbu maqola inson tarbiyasining tarixiy taraqqiyot jarayonidagi o'rni va uning zamon bilan qanday o'zgarib borganligi haqida batafsil ma'lumot beradi.

***Kalit so'zlar:** inson tarbiyasi, tarixiy taraqqiyot, ta'lim tizimi, qadimiy sivilizatsiyalar, islom madaniyati, Uyg'onish davri, zamonaviy ta'lim, jamiyat rivoji, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, ta'lim metodikalari.*

***Аннотация:** В данной статье всесторонне анализируется роль и значение образования человека в историческом развитии. Образование человека с древнейших времен считалось одним из главных факторов развития общества. В статье рассматриваются методы, принципы и факторы, влияющие на образование в период от древних цивилизаций до исламской культуры, эпохи Возрождения и современной системы образования. Также изучается зависимость конкретных форм обучения и методов обучения каждого периода от социально-экономических условий общества. В данной статье представлена подробная информация о роли образования человека в процессе исторического развития и о том, как оно менялось с течением времени.*

***Ключевые слова:** образование человека, историческое развитие, образовательная система, древние цивилизации, исламская культура, Возрождение, современное образование, развитие общества, социально-экономические*

***Abstract:** In this article, the role and importance of human education in historical development is comprehensively analyzed. Human education has been considered one of the main factors for the development of society since ancient times. The article covers the methods, principles and factors affecting education in the period from ancient civilizations to Islamic culture, the Renaissance, and the modern education system. Also, the dependence of the specific forms of education and educational methods of each period on the socio-economic conditions of the society is also studied. This article provides detailed information about the role of human education in the process of historical development and how it has changed over time.*

***Key words:** human education, historical development, educational system, ancient civilizations, Islamic culture, Renaissance, modern education, community development, socio-economic conditions, educational methods.*

KIRISH

Inson tarbiyasi jamiyat taraqqiyoti va insoniyat tarixining ajralmas qismi hisoblanadi. Tarix davomida turli sivilizatsiyalar, madaniy va ijtimoiy tuzumlar tarbiya va ta'limning ahamiyatini tushunib, uni shakllantirishga o'z hissasini qo'shgan. Har bir davrda tarbiya va ta'limning asosiy tamoyillari, maqsadlari va usullari zamon talablari va madaniy sharoitlardan kelib chiqib, o'ziga xos shaklga ega bo'lgan. Ushbu maqolada qadimgi davrlardan boshlab hozirgi kungacha bo'lgan inson tarbiyasining rivojlanish bosqichlari, ularning o'ziga xos jihatlari va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati yoritiladi. Mazkur mavzu inson kamolotining asosiy poydevorini tashkil qiluvchi tarbiya jarayoni va uning jamiyatga ta'siri haqida chuqur tushuncha hosil qilishga xizmat qiladi.[1]

Inson tarbiyasi – insoniyat jamiyatining uzluksiz rivojlanishida muhim rol o'ynaydigan asosiy omillardan biridir. Tarixiy taraqqiyot davomida har bir davr o'ziga xos ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy xususiyatlarga ega bo'lib, bu xususiyatlar inson tarbiyasi va ta'limiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Qadimgi sivilizatsiyalardan tortib, o'rta asrlar va Uyg'onish davriga qadar bo'lgan jarayonlarda tarbiya va ta'limning shakllanishi va rivojlanishi jamiyatning ma'naviy yuksalishi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan.[2]

Ushbu maqolada inson tarbiyasi tarixidagi muhim bosqichlar, qadriyatlar, ta'lim metodikasi va usullari tahlil qilinadi. Qadimgi Sharq va G'arb madaniyatlaridagi tarbiya tushunchalari, islom sivilizatsiyasidagi ta'lim tamoyillari va zamonaviy davrdagi o'zgarishlar inson tarbiyasiga bo'lgan yondashuvlarda qanday o'zgarishlar yuz berganligini yoritishga yordam beradi. Shu orqali inson tarbiyasining jamiyat rivojidagi o'rni va ahamiyatini chuqurroq anglash mumkin bo'ladi.[3]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Inson tarbiyasiga oid tarixiy taraqqiyot masalalarini o'rganishda turli davrlardagi ilmiy va falsafiy adabiyotlar asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Qadimgi yunon va rim faylasuflari (masalan, Platon va Aristotel) inson tarbiyasi va axloqiy yuksalish masalalarini o'z asarlarida yoritgan. O'rta asrlarda islom dunyosida Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Al-G'azoli kabi mutafakkirlar tarbiya va ta'limning ahamiyatini keng qamrovda izohlagan. Uyg'onish davrida esa Evropada tarbiya va ta'lim usullariga yangicha qarashlar shakllangan va bu borada Erasmus, Monten, va Kamenskie kabi mutafakkirlar o'z hissalarini qo'shgan. Zamonaviy davrda esa pedagogik ta'limotlar va ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar (masalan, Jon Dyui va Lev Vygotskiyning asarlari) tarbiya jarayonining aniq metodlari va tamoyillarini aniqlashga xizmat qilgan.[4]

Ushbu maqolada tarixiy-tahliliy va qiyosiy metodlardan foydalaniladi. Tarixiy-tahliliy metod orqali inson tarbiyasi borasidagi qarashlarning turli davrlardagi rivojlanishi, har bir davrning o'ziga xos xususiyatlari va ularning inson tarbiyasiga ta'siri tahlil qilinadi. Qiyosiy metod yordamida esa Sharq va G'arb madaniyatlaridagi ta'lim-tarbiyaning o'zaro farqlari va o'xshashliklari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy psixologiya va pedagogika fanlari yordamida inson tarbiyasining o'tmishdagi qarashlar bilan bog'liqligini chuqurroq tushunish uchun integrativ yondashuv qo'llaniladi. Mazkur metodologiya yordamida inson tarbiyasining jamiyatdagi o'rni va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tizimli tarzda tahlil qilinadi.[5]

XULOSA VA TAKLIFLAR

Inson tarbiyasi tarix davomida jamiyat taraqqiyotining muhim poydevori bo'lib kelgan. Turli davrlar va sivilizatsiyalar bu sohaga o'ziga xos yondashuvlarni shakllantirgan. Qadimgi davrda axloqiy va ma'naviy yuksalishga qaratilgan tarbiya o'rta asrlarda diniy tamoyillar asosida mustahkamlanib, inson shaxsini shakllantirishda muhim omilga aylangan. Uyg'onish davri va keyingi davrlarda esa tarbiya insonning intellektual rivoji va ijodiy salohiyatini oshirishga qaratilgan yangi tamoyillar bilan boyitildi. Bugungi kunda esa ta'lim va tarbiya jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar hamda psixologik va pedagogik yutuqlar asosiy rol o'ynamoqda.[6]

1. Integratsiyalashgan ta'lim dasturlarini yaratish: Tarixiy tajribani inobatga olgan holda, hozirgi ta'lim tizimiga qadimgi va zamonaviy tarbiya tamoyillarini uyg'unlashtirgan dasturlarni joriy qilish zarur. Bu o'quvchilarda bilim olish bilan birga ularning ma'naviy va axloqiy qirralarini ham rivojlantiradi.

2. Madaniyatlararo ta'lim tizimini rivojlantirish: Sharq va G'arb madaniyatlaridagi o'ziga xos tarbiya tamoyillarini ta'lim tizimida aks ettirish orqali yosh avlodni keng dunyoqarashga ega, madaniyatlararo muloqotga qodir shaxs sifatida tarbiyalash mumkin.[7]

3. Tarbiya jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni kuchaytirish: Har bir o'quvchining o'ziga xos qobiliyatlari va ehtiyojlarini inobatga olib, individual yondashuvni keng qo'llash lozim. Bu nafaqat o'quvchilarni rivojlantirish, balki ularni ijtimoiy jihatdan faol va ongli fuqarolar sifatida shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

4. Tarixiy-tahliliy metodikalarni ta'lim tizimida qo'llash: Tarixiy voqealar va qadriyatlarni tahlil qilish orqali yosh avlodda analitik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. Bu esa ularning tarixiy voqeliklarga chuqurroq yondashishini va madaniy merosni qadrlashini ta'minlaydi.[8]

Ushbu takliflar inson tarbiyasiga oid tarixiy tajribani bugungi ta'lim-tarbiya jarayoniga integratsiyalash orqali shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishga yanada samarali hissa qo'shishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ibn Sino - "Tib qonunlari"
2. Al-Farobiy - "Fozil odamlar shahri"
3. Abu Nasr al-Farobiy - "Kitob al-Milla va Siyosatnoma"
4. Yusuf Xos Hojib - "Qutadg'u bilig"
5. Imom G'azzoliy - "Kimiyo Saodat"
6. Avesto
7. Ahmad Yassaviy - "Hikmatlar"
8. Ahamo Tavallo - "Ta'lim tarbiya ta'sirida insonni kamol toptirish"

YOSHLARNI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASHDA TA'LIM MUASSASALARINING ROLI

Abdullayeva Muslima Ubaydullo qizi

*Namangan davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi*

*Ilmiy rahbar: **Bobomurod Tillayev***

abdullayevamuslima34@gmail.com

Annotatsiya: *Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda ta'lim muassasalari muhim rol o'ynaydi, chunki bu muassasalar nafaqat bilim berish, balki milliy o'zlikni anglash va ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish markazlari hisoblanadi. Ta'lim muassasalari quyidagi yo'llar bilan milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirishda asosiy rol o'ynaydi. Ta'lim va tarbiya faoliyati mazmuni o'zida insonning axloqiy, aqliy, jismoniy, estetik va ijtimoiy jihatdan rivojlanishini ta'minlashni ko'zda tutadi. Bu jarayon ta'lim va tarbiya jarayonlari birgalikda, uzviy bog'liq holda amalga oshiriladi. Ta'lim ilmiy bilimlar, malaka va ko'nikmalarni o'rgatishga qaratilgan bo'lsa, tarbiya insonning shaxsiy fazilatlarini shakllantirish, uni ma'naviy-axloqiy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu maqolada yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda ta'lim muassasalarining roli haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim va tarbiya, "Qobusnoma, intellectual, ma'rifatparvar, millat, yoshlar tarbiyasi.*

KIRISH

Ta'lim mamlakat iqtisodiyoti va jamiyatini rivojlantiradi va millat rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ta'lim aholining bilim va ko'nikmalarini, shuningdek, millat yoshlari shaxsini shakllantirishni ta'minlaydi. Ta'lim

yoshlarning milliy o'ziga xosligini shakllantiradi. Ta'lim insonning o'ziga xosligini yoki millatga tegishli bo'lish tuyg'usini rivojlantiradi.

Ta'lim va tarbiya har qanday mamlakatning rivojlanishi va kelajagini belgilaydigan muhim omillardandir. Mamlakat taraqqiyotini ta'minlashda bilimli, intellektual va ijodiy fikrlovchi avlodni tarbiyalashning ahamiyati katta. Barkamol avlodni shakllantirish orqali mamlakat nafaqat o'zining iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini mustahkamlab boradi, balki dunyoviy miqyosda raqobatbardoshligini ham ta'minlaydi.

ASOSIY QISM

Ma'lumki, o'tish davrining og'ir yillarida maktablarda ma'naviy-ma'rifiy muhit zaif bo'lib chiqdi, o'qituvchining obro'si va kasbning obro'si pasaydi, yangi shakllanish o'qituvchilarini tarbiyalashga e'tibor, pedagogika fanini rivojlantirish, innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish kamaydi, bu esa bir qator jiddiy muammolarga olib keldi. So'nggi yillarda ushbu muammolarni samarali hal etish va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Xususan, Xalq ta'limi tizimi bo'yicha Prezidentning 6 ta farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 21 ta qarori qabul qilindi, ushbu sohadagi islohotlarning normativ-huquqiy bazasi mustahkamlandi. Ota-onalar va jamoatchilikning xohish-istaklarini inobatga olgan holda 11 yillik maktab tizimi tiklandi. So'nggi uch yil ichida 157 ta yangi umumta'lim maktablari qurildi.

Mamlakatda ta'lim sifatini oshirish uchun quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

- *Zamonaviy o'quv dasturlari va pedagogik uslublar:* Ta'lim tizimining zamonaviy va interaktiv usullarga asoslanishi o'quvchilarning o'qish jarayoniga qiziqishini oshiradi.
- *Malakali pedagoglar:* O'qituvchilarning kasbiy malakasini doimiy oshirib borish, ularning yangi texnologiyalarni qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirish kerak.
- *Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar:* Yoshlarni ilmiy izlanishlarga jalb qilish, innovatsion g'oyalarni amaliyotga tatbiq etishga yordam berish.

Barkamol avlodni tarbiyalash va ta'limning sifatini oshirish mamlakat taraqqiyotining mustahkam poydevorini yaratadi. Shu bilan birga, zamonaviy bilimga ega, ma'naviy va jismoniy sog'lom yoshlar mamlakatning har jihatdan gullab-yashnashini ta'minlaydi.

Ta'lim tarbiya haqida so'z ketganda " Kaykovus "Qobusnoma"ni o'z o'g'liga atab yozadi va kitobining nomini bobosi, Somoniylar davri hukmdorlaridan biri bo'lgan Shamsul Maoliy Qobus ibn Vushmagir nomi bilan ataydi. Otaning o'z o'g'li tarbiyasi va kelajagi uchun dasturilamal bo'luvchi maxsus pandnoma asar yozishi hamda uni bobosi nomi bilan atashida ham o'ziga xos sharqona oilaviy tarbiya tamoyili bor. "Ey farzand, umidim shuki, sen bu pandnomani qabul qilgaysan. Bu bilan men otalik vazifasini bajo keltirgan bo'lurman", deydi ma'rifatparvar ota Kaykovus. Bilgilki, xalqning rasmi, odati shundayki, yugurib-yelib, qidirib-axtarib dunyodan biron narsa hosil qiladilar va bu topgan narsalarni o'zlarining yaxshi ko'rgan kishisiga qoldirib ketadilar"[1]. Darxaqiqat "Qobusnoma" xalqning aql-zakovati va tajribasini avlodlarga yetkazish, farzandlarga boy ma'naviy merosni qoldirish orqali tarbiyaning ma'nosini oshiradi. Kaykovusning ushbu pandnomani yozish maqsadi – o'g'lini ma'naviy, axloqiy va intellektual jihatdan yetuk inson etib tarbiyalashdir. Bu bilan ota, o'z o'g'liga nafaqat meros sifatida dunyoviy boyliklarni emas, balki hayotiy tajriba, axloqiy prinsiplar va ma'naviy merosni ham qoldirishni maqsad qilgan. Bu yondashuv Sharq madaniyatida tarbiya jarayonida oila va ota-ona rolini yuqori darajada qadrlashga asoslangan.

Ta'lim faoliyatini samarali amalga oshirishda erkaklarning ishtiroki muhimligini inobatga olgan holda, qabul qilingan aniq chora-tadbirlar natijasida 12 ming 871 erkak o'qituvchi davlat ta'lim tizimiga qaytdi[2].

Yangi turdagi maktablar, jumladan, buyuk olimlar Mirzo Ulug'bek va Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi iqtidorli bolalar uchun maktablar, Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijodiy maktablar, Erkin Vohidov, Abdulla Aripov, Ibrohim Yusupov, Ishoqxon ibrat, Muhammad Yusuf, Halim Xudoyberdiyev, Temurbek maktablari, Prezident va xususiy maktablar tashkil etildi.

Barkamol avlodni tarbiyalashda judayam ko'plab xatolarga yo'l qo'yish mumkin. Tarbiya o'chog'i oila hisoblanadi. Bola tarbiyasida eng avallo ota –

onaning o’zi yetuk tarbiyaga ega bo’lmog’i lozim. Agar ota – onaning tarbiya sohasida tajribasi bo’lmasa, bolaga ming tarbiya bermasin umuman foydasi bo’lmaydi. Demak tarbiya oiladan boshlanadigan bo’lsa, bola oila a’zolariga qarab tarbiya oladigan bo’lsa, ota – ona eng avvalo o’zini tarbiyalab olmog’i lozim. Ota – ona tarbiya topgan bo’lsa farzandlarini ham tarbiyalashda adashmaydi. Shaxsan biz tarbiya jarayonida ota – ona juda qattiqqo’l bo’lishi tarafdori emasmiz. Bolani yoshligidan boshlab tahqirlab? O’ta qattiqqo’llik bilan tarbiyalash bu – vahshiylikdir. Hozirgi kunda ota – onalar o’z farzandlariga juda yosh paytidan boshlab o’zi qiziqmagan kasbga yo’naltirishga majburlab qiladi. To’g’ri, bu qilayotgan hamma ishlari yaxshi niyatda, bolam bilimli bo’lsin, xalqqa foydasi tegsin degan bo’lishi mumkin. Bir tomondan bu yaxshi, lekin aslini olib qaraganda ota – onalar o’zlari bilmagan holatda o’z farzandlari bolaligini xazon qilib qo’yan bo’ladi.

To’g’ri bola katta bo’ldiyam deylik, ota – ona o’z maqsadiga erishdi lekin u bola hech qanday hissiz bo’lib katta bo’ladi. Hayotida hech qanaqa ma’no bo’lmaydi. Hayoti faqat bir xil tarzda uydan ishga, ishdan uyga bo’lib qoladi. Bundan yigirma yil o’tib, o’glidan eng ko’p nimani sog’inasiz yoki armoningiz nima deb so’rashsa, “Men bolaligimda hech qachon otam bilan basketbol o’ynamaganman” yoki “Otam meni hech qachon o’zi bilan birga stadionga futbol tomosha qilish uchun olib bormagan”, desa nimani his qiladi. Na u bolalariga vaqt ajratadi va na boshqasiga. Fikrimizcha bola yoshmi yoshligini qilsin, Xoxlasa ertalabdan – kechgacha ko’chada o’rtoqlari bilan o’ynasin, sho’xlik qilsin. Chunki bolaligim – podsholigim deb bejiz aytilmagan. “Menga Sabahattin Alining bitta gapi juda ham yoqadi: “Aslida men o’ttiz besh yilga yaqinlashib qolgan umrimda bor – yo’g’i uch – to’rt oy yashab, qolgan umrimni o’zimga hech qanday aloqasi bo’lmagan ma’nosiz shaxsiyatning cheksiz tubiga ko’milib qolgandim...” [3].

Ta’lim jarayoni yoshlarga nazariy bilim berishdan tashqari, ularning ijodiy fikrlash va amaliy ko’nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo’lishi lozim. Barkamol avlodni shakllantirishda zamonaviy ta’lim tizimi milliy va xalqaro standartlarga mos keladigan, raqobatbardosh shaxslarni tayyorlashni maqsad qiladi. Bu orqali yoshlar jamiyatda muhim masalalarni hal qilishga, iqtisodiy va

ijtimoiy taraqqiyotga hissa qo'sha oladilar. "Ta'lim muassasining tarbiyaviy vazifasi birinchi navbatda, o'quvchilarda, o'zini shu dunyoda anglab yetish, boshqalar orasida o'z o'mini topish bilan dunyoga, madaniyatga, atrof-muhitga qadriyatlam shakllantirishdan iborat. Lekin mana shu vazifani faqat o'qitish jarayonida amalga oshirib bo'lmaydi: u individual manfaatlarini qondirish bilan bog'liq dam olish doirasidagi o'yin, mehnat, ijodiy faoliyat bilan ham bog'liq"[4].

Tarbiyaviy ish pedagogikadan butun qobiliyatlarni ishga solishga taqozo etadi. Sinf rahbarligi kursi bilan maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar metodikasi kursi bir-biriga bog'liq va uning davomiyligidir. Yuqoridagi qayd etilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchilar turli qo'llanmalar, asboblari, apparatlar, didaktik materiallardan foydalanishni o'rganadilar, o'z-o'zini tekshirish uchun turli ma'lumot va tayanch materiallarini jalb etish ko'nikmalarini egallaydilar. O'quvchilar odatda hayotdan va badiiy adabiyotdan olingan aniq misollar bilan to'liq hikoyalarni qiziqib tinglaydilar. Ularga axloq mezonlari, tarix qoidalari, Vatanimizning tabiiy boyliklari, ajoyib, mehnatkash kishilari, tarix, adabiyot, san'at haqida hikoya qilib berish mumkin. Badiiy adabiyot, radio, televidenie, gazeta va jurnallardagi maqolalar ham qimmatli material bo'ladi. Suhbat ham, hikoya ham o'quvchilarning yoshiga mos mavzularda, ular tushunadigan so'zlar orqali o'zbek tilida o'tkazilishi kerak. Eng yaxshisi, suhbat va hikoya mavzusini o'quvchilarning o'zlari tanlasin, bunda suhbatning zavqi-shundan ta'minlanadi, o'quvchilar mavzuga befarq qaramaydilar. Namuna. O'quvchilar o'z atroflaridagi kishilarda hamma yaxshi axloqiy sifatlarni ko'rishlari va namuna olishlari nihoyatda muhimdir. O'qituvchining shaxsan o'zi namuna bo'lishi, ayniqsa yoshlarga katta ta'sir ko'rsatadi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish joizki, insonning boy ma'naviy-tarixiy jarayonida samarali foydalanish, o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvar, xalqparvar, yuksak ma'naviyatli etib voyaga yetkazish, insoniy fazilatlarni singdirishda tarbiyaviy ishlarni to'g'ri tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: -maqsadning aniq mezonlarda ifodalanishi; -faoliyat maqsadini amalga oshirishda xizmat qilishi; -bolalar tarbiyasidagi faoliyatni o'qituvchi, ota –ona va jamoa bilan hamkorlikda boshqaruvni ta'minlash muhimdir.

XULOSA

Barkamol avlodni tarbiyalashda ta'limning roli beqiyosdir. Ta'lim, yoshlarning nafaqat bilimli, balki ma'naviy va axloqiy jihatdan yetuk shaxs bo'lib shakllanishiga hissa qo'shadi. Mamlakatning kelajagi, uning rivojlanishi va barqarorligi yosh avlodning tarbiyasi va ta'limiga qaratilgan e'tiborga bog'liq. Shuning uchun ta'lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirish, yoshlar ongiga milliy qadriyatlarni singdirish eng muhim vazifalardan biridir. Bu jarayonda ota-ona, jamiyat va davlatning birgalikdagi sa'y-harakatlari orqali barkamol avlod yetishtirilishi ta'minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- [1]. Alqarov I., Mamatqulova R., Norqulov X. "Shaxs va oila tarbiyasining pedagogikasi" Toshkent, © «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2009 y
- [2]. <https://president.uz/oz/lists/view/2820>
- [3]. Madiyor o'g'li Y. N. BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASH JARAYONIDA OILANING ROLI VA VAZIFALARI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 10. – С. 1173-1176.
- [4]. R.A.Mavlonova va boshqalar "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" Toshkent: "Fan va texnologiyalar. 2007 y. B-24.

YOSHLARNING MA'NAVIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI MA'RIFIY QADRIYATLAR

Mahmudova Shohida Muhammadqodir qizi

*Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim
yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

Ilmiy rahbar: Gumanitar fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi B.A.Tillayev

***Annotatsiya:** Bugungi kunda yosh avlodning ongli va mas'uliyatli bo'lib yetishishida, ularning ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlarga sodiq qolishida ta'lim-tarbiyaning o'рни katta va ahamiyatlidir. Yoshlarning ma'naviy madaniyatini*

shakllantirish, komil inson, barkamol shaxs bo'lib shakllanishi uchun ta'sir etuvchi ma'naviy qadriyatlar haqida bayon etilgan.

***Kalit so'zlar:** ma'naviy madaniyat, ma'rifiy qadriyat, axborot xurujlari, ijtimoiy qadriyat, miqdoriy usullar.*

***Аннотация:** Сегодня образование играет большую и важную роль в формировании сознательности и ответственности молодого поколения, его приверженности социальным и духовным ценностям. Описаны духовные ценности, влияющие на формирование духовной культуры молодежи, формирование совершенной, всесторонне развитой личности.*

***Ключевые слова:** духовная культура, образовательная ценность, информационные атаки, социальная ценность, количественные методы.*

***Abstract:** Today, education plays a large and important role in the formation of consciousness and responsibility of the younger generation, its commitment to social and spiritual values. The spiritual values that influence the formation of the spiritual culture of youth, the formation of a perfect, comprehensively developed personality are described.*

***Keywords:** spiritual culture, educational value, information attacks, social value, quantitative methods.*

KIRISH

Mamlakatimizda hozirgi kunda barcha sohalarda tubdan o'zgarishlar bo'lmoqda. Buning asosiy sababi Respublikamiz Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning davlatimizda barcha sohalarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Bu e'tiborning amaliy ahamiyatini sohalardagi o'zgarishlar orqali ko'rishimiz mumkin. Mana shu sohalardan biri ta'lim yo'nalishida ham Prezidentimiz tomonidan juda ko'plab ishlar olib borilmoqda. Bu islohotlarning ko'rinishini quyidagi asoslarda uchratishimiz mumkin. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida[1]. Ma'lumki, tarbiya inson shaxsi ma'naviyatini, e'tiqodini, o'zini anglash, yonatrofga bo'lgan munosabatini shakllantirishga qaratilgan jarayondir. Shunday ekan, ushbu jarayon mutanosibligini ta'minlashda ta'lim- tarbiya ishini uyg'un tarzda olib borish lozim

bo'ladi. Ta'lim orqali yoshlar haytida o'z o'rinlarini topishda ma'lum bir kasb-hunarni o'rganish bilan birga, o'zlarini bo'lajak hayotga tayyorlab boradilar. Yoshlarda ma'naviy madaniyatni shakllantirish jamiyatning taraqqiyoti va rivojlanishi uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Bugungi yoshlarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, ularni ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida tarbiyalash orqali amalga oshiriladi. Shu ma'noda, ma'rifiy qadriyatlar alohida o'rin tutadi.

Ma'rifiy qadriyatlar yoshlarda yangi bilimlarni o'zlashtirish, o'zlikni anglash, odob-axloq, milliy an'analar, din va madaniyat kabi sifatlarni shakllantirib beradi. Yoshlar qancha bilim va ma'rifatga intilsa, shunchalik intellektual salohiyatli, madaniyatli va ma'naviyatli bo'lib tarbiyalanadi. Halollik, samimiylik, mehr-oqibat, insoniylik, iymonli bo'lish singari insoniy sifatlarni ma'rifiy qadriyatlarning negizini tashkil etadi.

Buyuk mutafakkir Forobiy insonni kamolotga yetkazuvchi omillar haqida shunday degan: "Ma'naviyatni shakllantirishning asosiy yo'li bilim olish va fazilatlarni tarbiyalashdan iborat"[2]. Forobiy ilm-ma'rifat va axloqni inson kamolotining muhim qismi sifatida ko'rsatadi. Uning fikriga ko'ra, ma'rifiy qadriyatlar yoshlarni nafaqat o'z shaxsini rivojlantirishga, balki jamiyatga foydali bo'lishga ham undaydi. Alisher Navoiy ham o'z qarashlari haqida fikr yuritib: "Ilm va odob bilan bezangan inson jamiyatning eng qadriyatli a'zosidir". Uning fikriga ko'ra, yoshlarni ilmu hunar bilan tarbiyalash ularning ma'naviy madaniyatini boyitadi va ularga hayotda to'g'ri yo'lni ko'rsatadi. Allomalarimizning ham fikrlari o'sha davrda izohlangan bo'lsa-da, hozir ham o'z kuchini yo'qotgan emas.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Yoshlarning ma'naviy madaniyatini shakllantirishga ta'sir etuvchi ma'naviy qadriyatlarni yuzaga keltirishi omillari keng yoritib berildi. N. Nurmatovanning "Milliy qadriyatlar va yoshlar ma'naviyati" maqolasi hamda Sh. Xolmirzayevaning "Ta'lim tizimida ma'naviy madaniyatni shakllantirish metodlari", A. To'xtamurodov ning "Ma'rifat va axloq asoslari" asarlari metodologik manba bo'lib belgilandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yoshlarning ma'naviy madaniyatini shakllantirishda barcha ta'lim dargohlarining o'quv dasturlarida milliy qadriyat tushunchasini o'rgatish, yoshlarga milliy, madaniy, tarixiy merosimizni asrashni o'rgatish orqali ularni dunyoqarashini ham shakllantirishimiz mumkin. Birinchi Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Huquqiy demokratik adolatli davlat qurishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, xalqimizning madaniy va eng nozik tuyg'ularini, chuqur falsafiy, siyosiy, huquqiy tushunchalarini o'zida mujassam etadigan ma'naviyatni yuksaltirish asosiy va ustivor vazifalardan biriga aylandi"[3].

Jamiyat yoshlar ongida ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirmay va mustahkamlamay turib o'z istiqboliga erisha olmaydi. Oila muhitida ota-onadan berilgan tarbiya ham yoshlarda nafaqat ma'naviy tarbiya balki, ma'naviy qadriyatlarni yuzaga kelishi uchun muhim omil hisoblanadi. Texnologiya asrida yashar ekanmiz, texnologiya orqali ham ma'rifiy qadriyatlarni shakllantira olamiz. Adabiyot, san'at sohasida yoshlarning estetik did va madaniyatini yuksaltirish ma'naviy madaniyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yot g'oyalar va zararli axborotning oldini olish maqsadida yoshlarni ma'rifiy qadriyatlar bilan qurollantirish ham bugungi kunning jiddiy masalasiga aylanib qoldi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yoshlarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish uchun ma'rifiy qadriyatlar jamiyatning barcha qatlamlari tomonidan qo'llab-quvvatlanishi kerak. Bu qadriyatlar yoshlarning nafaqat individual rivojlanishiga, balki jamiyat barqarorligi va kelajak avlodlarning baxt-saodati uchun ham xizmat qiladi. Shu bois, ta'lim, madaniyat va oila bu jarayonning asosiy poydevori hisoblanadi.

Zero, xalqimiz, ayniqsa yosh avlod ongi va tafakkuriga singdirilgan milliy g'oya har qanday yot g'oyalarning ta'siriga berilib qolmaslikni ta'minlashi bilan birga ularga munosib javob qaytarish ko'nikmasini ham shakllantiradi, milliy qadriyatlarimizni hurmat qilishga va uni asrab-avaylashga undaydi. Shu nuqtai nazardan, yoshlar bilan bog'liq muammolarni hal etishda milliy qadriyatlardan, ilg'or taraqqiyotga xizmat qiluvchi diniy qadriyatlardan foydalanish, ularni zamonaviy demokratik qadriyatlar bilan uyg'unlashtirgan holda, yosh avlodni har

omonlarni yetuk va barkamol qilib tarbiyalash masalasiga bugun yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Ayni paytda yoshlarni ma'naviy himoyalash tizimining mexanizimini ishlab chiqishga ham e'tibor qaratilmoqda. Chunki hozirgi globallashtirish sharoitida, bir tomondan, milliy qadriyatga, ikkinchi tomondan, zamonaviy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy- huquqiy yangilash jarayonlarini amalga oshirish alohida dolzarb bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi pf-60-son.
2. Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri". Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti 1993.
3. Karimov I.A. Vatanimiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish-oliy saodatdir. – T.: "O'zbekiston", 2007. 38-bet.
4. Nurmatova N. "Milliy qadriyatlar va yoshlar ma'naviyati".
5. Xolmirzayeva Sh. "Ta'lim tizimida ma'naviy madaniyatni shakllantirish metodlari". Maqolalar to'plami.
6. To'xtamurodov A. "Ma'rifat va axloq asoslari". Darslik.2020

YOSH AVLOD TARBIYASIDA MA'RIFIY QADRIYATLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Abdulhayeva Masuma Mirkomil qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Gumanitar fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi B.A.Tillayev

***Annotatsiya:** Maqolada yoshlarning ma'naviy madaniyatini shakllantirishda ma'rifiy qadriyatlarning roli tahlil qilinadi. Tadqiqot xalqaro va milliy adabiyotlar, so'rovnomalar va o'zbek olimlarining ilmiy qarashlari asosida oila, ta'lim muassasalari, ijtimoiy media hamda xalqaro tajribalar ta'sirini*

o’rganadi. Bu tadqiqot natijalari yoshlar ma’naviyati va madaniyatini boyitish, shuningdek, ta’lim va ijtimoiy institutlar orqali ularni rivojlantirish bo’yicha samarali strategiyalar ishlab chiqish imkoniyatlarini ochib beradi.

***Kalit soʻzlar:** Yoshlar tarbiyasi, Ma’naviy madaniyat, Ma’rifiy qadriyatlar, Ta’lim muassasalari, Ijtimoiy media ta’siri, Xalqaro tajriba, Oila tarbiyasi.*

***Аннотация:** В статье анализируется роль образовательных ценностей в формировании духовной культуры молодежи. В исследовании рассматривается влияние семьи, образовательных учреждений, социальных сетей и международного опыта на основе международной и национальной литературы, опросов и научных взглядов узбекских ученых. Результаты данного исследования раскрывают возможности разработки эффективных стратегий обогащения духовности и культуры молодежи, а также ее развития через образовательные и социальные институты.*

***Ключевые слова:** Образование молодежи, Духовная культура, Образовательные ценности, Образовательные учреждения, Влияние социальных сетей, Международный опыт, Семейное образование.*

***Abstract:** The article analyzes the role of educational values in the formation of the spiritual culture of young people. The study examines the influence of family, educational institutions, social networks and international experience based on international and national literature, surveys and scientific views of Uzbek scientists. The results of this study reveal the possibilities of developing effective strategies for enriching the spirituality and culture of young people, as well as its development through educational and social institutions.*

***Keywords:** Youth education, Spiritual culture, Educational values, Educational institutions, Influence of social networks, International experience, Family education.*

Kirish

Bugungi kunda yoshlarning ma’naviy madaniyatini shakllantirish masalasi jahon miqyosida muhim masalalardan biriga aylanib bormoqda. Yoshlar — har qanday jamiyatning kelajagini belgilaydigan kuch bo’lib, ularning axloqiy va

madaniy jihatdan yetukligi mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy barqarorligi, madaniy rivoji uchun muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, yosh avlodni o'zini anglagan, ma'naviy boy va madaniy dunyoqarashga ega insonlar etib tarbiyalash davr talabi hisoblanadi. Bu jarayonda ma'rifiy qadriyatlarining o'rni beqiyos bo'lib, ular yoshlarning shaxsiy kamoloti va hayotga bo'lgan qarashlarini shakllantirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ma'rifiy qadriyatlar yoshlarga nafaqat o'zligini anglash, balki o'z atrofidagi insonlar, milliy va xalqaro madaniy muhitga nisbatan hurmat va bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lishni ham o'rgatadi.[1] Shu jihatdan, ma'naviy madaniyatni shakllantirish, yoshlar ongida ijobiy qadriyatlarni singdirish jamiyat rivoji uchun ustuvor vazifa sifatida e'tirof etiladi.

Yoshlarning ma'naviy madaniyatini shakllantirishda oilaviy muhit, ta'lim tizimi, ijtimoiy media, shuningdek, globalizatsiya jarayonining ta'siri sezilarli ahamiyatga ega. Oila, ta'lim muassasalari va ommaviy axborot vositalari yosh avlodga bevosita ta'sir ko'rsatadigan omillar bo'lib, ularning birgalikdagi ta'siri yoshlar madaniyatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu bilan birga, xalqaro tajribalar bilan tanishish, ilg'or ta'lim usullarini tatbiq etish ham yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini kengaytiradi va ularni global miqyosda o'z o'rnini topishga yordam beradi.[2]

Ushbu maqola adabiyot tahlili, xalqaro va milliy tadqiqotlar, so'rovnomalar hamda O'zbekiston olimlari qarashlariga asoslanadi. Xorijiy va mahalliy tadqiqotlardan foydalanilib, yoshlarning ma'naviy va madaniy qadriyatlarni kundalik hayotda qanday qabul qilishlari va qo'llashlari o'rganildi. So'rovnoma natijalari yoshlarning oilaviy tarbiya, ta'lim tizimi va ijtimoiy mediadan qanday ta'sirlanishini aniqlash imkonini berdi.[3]

O'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, yoshlar orasida oila, ta'lim muassasalari va ijtimoiy media ta'siri eng muhim omillar ekanligi ma'lum bo'ldi. Ta'lim muassasalarining yoshlar ongidagi o'rni kattaligi va ular orqali ma'rifiy qadriyatlarni boyitish yoshlarning ma'naviy madaniyatiga ijobiy ta'sir qilishi qayd etilgan (Brown et al., 2023; Karimov, 2019). Ijtimoiy media yoshlarning qadriyatlariga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lib, uning ta'sirini nazorat qilish zarur. Yosh avlodning ma'naviy va axloqiy tarbiyasida oila va milliy

qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy qadriyatlar va urf-odatlar orqali shakllangan oilaviy tarbiya yoshlar uchun asosiy tarbiya manbai hisoblanadi, chunki ularning shaxsiy va madaniy rivojlanishi oilaviy munosabatlar va qadriyatlar asosida shakllanadi. Sobirov (2020) va Qodirova (2021)ning tadqiqotlariga ko'ra, oila yoshlarni milliy o'zlikni anglash, an'ana va qadriyatlarga hurmat bilan qarashga o'rgatadi, shuningdek, ularni ijtimoiy muhitga moslashgan, ma'naviy jihatdan yetuk shaxs sifatida tarbiyalaydi.

Milliy qadriyatlar oilaviy tarbiya orqali yoshlarga singdirilganida, bu ularda milliy g'urur va an'analarga hurmat tuyg'usini shakllantirib, jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu qadriyatlar, o'z navbatida, yoshlarning nafaqat o'z milliy madaniyatini qadrlashiga, balki boshqa madaniyatlarga ham bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lishiga yordam beradi. Oilada shakllangan qadriyatlar va axloqiy me'yorlar jamiyatning ma'naviy asoslarini mustahkamlab, yosh avlodni o'ziga xos va barqaror madaniyatga ega jamiyat a'zosiga aylantirishda muhim o'rin tutadi. Shu sababli, oilaning yoshlar tarbiyasidagi roli beqiyosdir, chunki oiladagi qadriyatlar kelgusida ular uchun ma'naviy ko'mak va yo'nalish beruvchi asosiy manbaga aylanadi. Maktab va oliy ta'lim muassasalarida madaniyat va ma'naviyat darslarini kiritish yoshlarning ma'naviy va axloqiy kamolotiga katta hissa qo'shadi. Ta'lim jarayonida amaliy va axloqiy masalalarga e'tibor qaratish orqali o'quvchilarni ma'naviy jihatdan yetuk shaxslar etib tarbiyalash mumkin.

Islomov.D ijtimoiy media yoshlar ongiga ta'sirini qayd etar ekan, global axborot oqimi yoshlar dunyoqarashini kengaytirishini, biroq milliy qadriyatlarning susayishiga ham sabab bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. Shu sababdan, yoshlarni ijtimoiy mediadan oqilona foydalanishga o'rgatish va bu jarayonda ularni milliy o'zlikni hurmat qilishga undash muhim hisoblanadi.[4]

O'zbek olimlari xalqaro tajribalardan foydalanish orqali yoshlar ma'naviy madaniyatini boyitish mumkinligini qayd etishgan. Buyuk Britaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi davlatlardagi ta'lim va tarbiya tizimlari, ulardagi milliy qadriyatlarni shakllantirish bo'yicha qabul qilingan metodlar O'zbekiston sharoitiga moslashtirilib tatbiq etilishi mumkin.

Yoshlar uchun ma’naviy madaniyat shakllantirishda xalqaro tajribani qo’llash zarurligini ko’rsatadi. Shu bilan birga, yoshlarni tarbiyalashda faqat darslar bilan cheklanmasdan, ular orasida ijtimoiy mas’uliyat hissini rivojlantirish, madaniy tadbirlar va amaliy seminarlar orqali yanada yaxshi natijalarga erishish mumkin (Garcia, 2021; Lee & Parker, 2023). Shunday qilib, yoshlar orasida ijtimoiy qadriyatlarni targ’ib qilish va ma’naviy madaniyatni shakllantirish metodlarini izchil ishlab chiqish lozim.

Xulosa

Yoshlarning ma’naviy madaniyatini shakllantirishda xalqaro tajribadan foydalanish va ta’lim tizimi orqali ma’rifiy qadriyatlarni rivojlantirish muhim. Milliy qadriyatlarning yoshlar ongiga ta’siri ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita bog’liq. Shu sabab, ta’lim va ijtimoiy ta’sirlar orqali yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini boyitish va takomillashtirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Sobirov, A. (2020). Oila va yoshlarning ma’naviy tarbiyasi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.
2. Doe, J. (2020). Cultural Development in Youth: A Comparative Study. New York: Academic Press.
3. Karimov, B. (2019). Ta’lim tizimi va yoshlarning axloqiy rivoji. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.
4. Islomov, D. (2022). Ijtimoiy media va yoshlar ongiga ta’siri. Toshkent: O‘zbekiston Davlat Yozuvchilar Nashriyoti.
5. Brown, K., et al. (2023). Influence of Social Media on Youth Values. *Journal of Youth Studies*, 25(2), 134-150.
6. Qodirova, Z. (2021). Milliy qadriyatlar va yosh avlod. Toshkent: TDPU Nashriyoti.
7. Olimov, R. (2023). Xalqaro tajribalar va yoshlarni ma’naviy rivojlantirish. Toshkent: Yoshlar Nashriyoti.

MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATI JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

Do`stmurodova Gulsevar Safarali qizi

Maktabgacha ta'lim yo`nalishi I bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Gumanitar fanlar kafedrasi katta o`qituvchisi B.A.Tillayev

Annotatsiya: *Maqolada mediasavodxonlik va axborot madaniyati tushunchalarining bugungi axborotga boy jamiyatdagi ahamiyati va roli o`rganiladi. Mediasavodxonlik va axborot madaniyati zamonaviy dunyoda muhim ahamiyat kasb etmoqda, chunki u jamiyat a'zolarining axborot olish, uni tahlil qilish va to'g'ri foydalanish qobiliyatlarini shakllantirishda xizmat qiladi. Maqolada bu sohaning rivojlanishi va zamonaviy jamiyatdagi o'рни haqida tadqiqot olib boriladi.*

Kalit so'zlar: *mediasavodxonlik, axborot madaniyati, jamiyat taraqqiyoti, axborot tahlili, zamonaviy axborot.*

Аннотация: *В статье рассматривается значение и роль понятий медиаграмотности и информационной культуры в современном информационном обществе. Медиаграмотность и информационная культура приобретают все большее значение в современном мире, поскольку служат формированию способностей членов общества получать информацию, анализировать ее и правильно использовать. В статье рассматривается развитие этой сферы и ее роль в современном обществе.*

Ключевые слова: *медиаграмотность, информационная культура, развитие общества, анализ информации, современная информация.*

Abstract: *The article examines the meaning and role of the concepts of media literacy and information culture in the modern information society. Media literacy and information culture are becoming increasingly important in the modern world, since they serve to form the ability of members of society to receive information, analyze it and use it correctly. The article examines the development of this area and its role in modern society.*

Keywords: *media literacy, information culture, development of society, information analysis, modern information.*

Kirish: Axborot oqimi ko'lamini kun sayin ortib borayotgan globallashtirilgan dunyoda mediasavodxonlik va axborot madaniyati tushunchalari yangi ahamiyat kasb etmoqda. Bu tushunchalar har bir individning axborotni qabul qilish va tanqidiy yondashuv orqali qayta ishlash imkoniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Hozirgi zamonda har bir kishi, nafaqat o'qituvchi va olimlar, balki oddiy fuqarolar ham, axborot texnologiyalari va ommaviy axborot vositalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi talab etiladi. Axborot xamisha jamiyat xayotida xam , alohida shaxs xayotida xam muhim o'rin egallagan. Insoniyat tarixida axborotlarni yig'ish , saqlash va uzatish vositalarining rivojlanish jarayoni bir tekis kechmagan va bir necha bor axborot sohasida "Informatsion inqilob" deb ataluvchi global ahamiyat kasb etuvchi hodisalar yuz bergan. Axborot ma'lumotlarni uzatish, yig'ish, qayta ishlash kabi xususiyatlariga ega ekanligi bilan xam ahamiyatlidir. Ya'ni axborot nafaqat kundalik ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan xatti – xarakatlarni asosini balki butun dunyo mamlakatlarining insoniyat taqdiriga daxldor bo'lgan qarorlarining manbasini xam tashkil etadi.

- Zamonaviy jamiyat hayotida talimning o'rni asosan axborot jamiyati tushunchalarida, axborot sivilizatsiyasini shakllantirish va ta'limni axborotlashtirishda o'z aksini topgan bilim va ma'lumotlarning rolini oshishi bilan belgilanadi.

- Axborot madaniyati tushunchasi insonning axborot hayotiga erkin kirish imkoniyatini yaratib beradigan yangi aloqa turi hisoblanib u axborot jarayonlari va munosabat mohiyatlarini tushunishdagi savodxonlik va malakalarni o'z ichiga oladi.

- Axborot madaniyati mediasavodxonlik bilan birgalikda bilimli va ma'suliyatli aholini tarbiyalash orqali jamiyatni yaxshi tomonga shakllantirish salohiyatiga xam egadir. Bu esa jamiyatning xam ijobiy xam ijtimoiy rivojlanishiga olib keladi.

Tadqiqot metodologiyasi: Maqolada ilmiy adabiyotlar tahlili va so'rovnoma metodidan foydalanildi. Ilmiy manbalar yordamida mediasavodxonlik va axborot madaniyati fanlarining rivojlanish tarixi, ularning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati haqida umumiy tasavvur yaratildi. So'rovnoma yordamida O'zbekiston fuqarolari orasida axborot madaniyati va mediasavodxonlik darajasi o'rganildi va jamiyatda ushbu fanlarga bo'lgan talab va ehtiyoj aniqlashga harakat qilindi.

Adabiyotlar tahlili: Mazkur maqolada asos sifatida tanlangan adabiyotlar mediasavodxonlik va axborot madaniyati masalalarini ilmiy va amaliy jihatdan chuqur yorituvchi tadqiqotlardan iborat.

1. **Potter, W. J. (2016).** *Media Literacy.* **SAGE Publications.** Ushbu asar mediasavodxonlikning nazariy asoslari va uning amaliyotdagi o'rne haqida keng tasavvur beradi. Potter mediasavodxonlikning ahamiyatini axborot oqimining ko'payishi, turli manipulyativ va noto'g'ri axborotlar oqibatida individlarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish zaruriyati bilan bog'laydi. Ushbu adabiyot maqolaning nazariy jihatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

2. **Livingstone, S., & Helsper, E. J. (2007).** *Gradations in digital inclusion: Children, young people, and the digital divide.* *New Media & Society*, **9(4), 671-696.**

Ushbu maqolada Livingstone va Helsper raqamli tengsizlik masalalarini yoritib, yoshlarda digital ko'nikmalarni rivojlantirish orqali axborotni qabul qilish va qayta ishlash jarayonlarida mediasavodxonlik darajasini oshirish yo'llarini taqdim etadi. Bu asar mediasavodxonlikning yoshlar hayotidagi ahamiyatini yoritishda yordam beradi.

3. **Hobbs, R. (2010).** *Digital and Media Literacy: A Plan of Action.* **The Aspen Institute.**

4. Hobbsning ushbu tadqiqoti axborot texnologiyalari davrida mediasavodxonlik va raqamli madaniyatni rivojlantirish uchun muhim chora-tadbirlarni taklif qiladi. Muallif raqamli savodxonlikni oshirish uchun o'quv dasturlarini takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Bu adabiyot maqolada

mediasavodxonlikni o'qitish tizimiga kiritish bo'yicha amaliy tavsiyalarni shakllantirishda foydalanildi.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "2020-2030 yillarda aholi savodxonligini oshirish" qarori.

Ushbu davlat hujjati O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirish va fuqarolarni axborot madaniyati bilan ta'minlash bo'yicha ko'zda tutilgan maqsad va chora-tadbirlarni belgilaydi. Bu qaror mediasavodxonlik va axborot madaniyatining davlat darajasidagi ahamiyatini ko'rsatadi va maqolada tadqiqot mavzusining milliy ahamiyatini yoritishda yordam beradi.

Ushbu adabiyotlar tahlili maqola mavzusi bo'yicha tadqiqotning asosli va ilmiy manbalarga tayanishini ta'minlab, mediasavodxonlik va axborot madaniyatining zamonaviy jamiyat uchun qanchalik muhim ekanligini yoritadi.

Natija: Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekiston fuqarolarining katta qismi axborotning to'g'ri talqin etilishi va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda qiyinchiliklarga duch kelayotganini bildirdi. So'rovnomada qatnashganlar ommaviy axborot vositalari tomonidan berilayotgan axborotni tanqidiy tahlil qilishda qiyinchilik sezishini aytdi. Shu bilan birga, mediasavodxonlik va axborot madaniyati fanlariga talabning ortishi aniqlanib, bu mavzularni maktab va oliy ta'lim tizimiga kengroq joriy etish zarurligi ta'kidlandi.

Xulosa: Bugungi kunda mediasavodxonlik va axborot madaniyati fanlarini rivojlantirish va ularni keng jamoatchilik orasida ommalashtirish, albatta, jamiyat a'zolarining axborotga nisbatan tanqidiy yondashuvi va to'g'ri tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish uchun muhim. Ushbu fanlarni ta'lim tizimiga joriy qilish orqali davlatlar yanada rivojlangan va axborotga nisbatan ongli jamiyat barpo etishlari mumkin. Jamiyatda axborot bilan ishlash madaniyatining shakllanishi bilan turli zararli axborotlardan himoya qilish va fuqarolarning axborot olish huquqini ta'minlash kabi muhim ijtimoiy masalalar hal qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Potter, W. J. (2016). *Media Literacy*. SAGE Publications.
2. Livingstone, S., & Helsper, E. J. (2007). Gradations in digital inclusion: Children, young people, and the digital divide. *New Media & Society*, 9(4), 671-696.

3. Hobbs, R. (2010). *Digital and Media Literacy: A Plan of Action*. The Aspen Institute.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "2020-2030 yillarda aholi savodxonligini oshirish" qarori.

GLOBALLASHUV DAVRIDA TA'LIM-TARBIYANING O'RNINI VA AHAMIYATI

Mahkamova Nodiraxon Komiljon qizi

*Namangan davlat pedagogika institutining Pedagogika fakulteti Maktabgacha
ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

Ilmiy rahbar: Gumanitar fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi B.A.Tillayev

Annotatsiya: *Globallashuv davrida ta'lim-tarbiya jamiyatning rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunda texnologiyalar va axborot oqimining tez sur'atlar bilan o'sib borishi ta'lim tizimining zamonaviy ehtiyojlarga moslashuvchanligini talab qilmoqda. Ushbu maqolada globallashuv jarayonida ta'lim-tarbiya tizimining o'rnini, uning jamiyat ma'naviyati va iqtisodiyotiga ta'siri hamda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, yosh avlodni vatanparvarlik, ekologik ong, texnologik savodxonlik va universal qadriyatlar ruhida tarbiyalash orqali kelajak jamiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatish yo'llari ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *Globallashuv, ta'lim-tarbiya, innovatsiya, texnologiyalar, milliy qadriyatlar, universal qadriyatlar, ekologik ong, texnologik savodxonlik, xalqaro tajriba, ilmiy salohiyat, ma'naviyat, yosh avlod, uyg'unlik, o'ziga xoslik, rivojlanish.*

Аннотация: *В эпоху глобализации образование является важным фактором развития общества. Сегодня быстрый рост технологий и информационных потоков требует гибкости системы образования к современным потребностям. В данной статье анализируется роль системы образования в процессе глобализации, ее влияние на духовность и экономику*

общества, а также важность инновационных подходов. Также будут рассмотрены пути положительного влияния на будущее общество путем воспитания молодого поколения в духе патриотизма, экологического сознания, технологической грамотности и общечеловеческих ценностей

***Ключевые слова:** Конституция, государство, общество, закон, свобода, благосостояние, право, права человека, справедливость, стабильность, правовая культура, политическая система, гражданская ответственность, основной закон, демократические принципы.*

***Abstract:** In the era of globalization, education is an important factor in the development of society. Today, the rapid growth of technology and information flow requires the flexibility of the education system to modern needs. This article analyzes the role of the educational system in the process of globalization, its impact on the spirituality and economy of society, and the importance of innovative approaches. Also, ways to positively influence the future society by educating the young generation in the spirit of patriotism, environmental awareness, technological literacy and universal values will be considered.*

***Key words:** Constitution, state, society, law, freedom, welfare, law, human rights, justice, stability, legal culture, political system, civil responsibility, fundamental law, democratic principles.*

KIRISH

Globalashuv davri insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichini belgilab berdi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, iqtisodiy va madaniy aloqalarning kengayishi dunyoni "kichik qishloq" tusiga keltirdi. Bu jarayon ta'lim va tarbiya tizimiga o'zining chuqur ta'sirini o'tkazib, uni zamonaviy ehtiyojlarga moslashishga undamoqda. Bugungi kunda jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun yosh avlodni nafaqat bilim bilan qurollantirish, balki ularni innovatsion fikrlash, ekologik ong, milliy va universal qadriyatlarni uyg'unlashtirish orqali yetuk shaxs sifatida tarbiyalash muhim vazifaga aylandi.

Mazkur maqolada globalashuv jarayonining ta'lim-tarbiya tizimiga ta'siri, uning ahamiyati va dolzarbligi tahlil qilinadi. Shuningdek, globalashuv sharoitida

ta'lim sifatini oshirish, milliy o'ziga xoslikni saqlab qolgan holda xalqaro standartlarga mos keluvchi ta'lim modelini yaratish masalalari yoritiladi. Bu jarayonda ta'lim-tarbiya nafaqat bilim beruvchi vosita, balki jamiyatni ma'naviy va iqtisodiy jihatdan boyituvchi kuch sifatida namoyon bo'lishi zarur.

Globallashuvning ijobiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish va salbiy oqibatlarini minimallashtirish uchun ta'lim-tarbiya tizimining strategik yo'nalishlarini belgilash va amaliyotga tatbiq etish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda.[1]

Globallashuv sharoitida ta'lim-tarbiya tizimining o'rganilishi va rivojlanishi ko'plab mahalliy hamda xalqaro ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Ushbu mavzuni o'rganish davomida quyidagi adabiyotlarga asoslangan tahlil va metodologik yondashuvlar qo'llanildi:

1. Globallashuvning ta'lim sohasiga ta'siri: Zamonaviy global o'zgarishlarning ta'lim tizimiga olib kelgan ijobiy va salbiy ta'sirlari ko'plab tadqiqotlarda batafsil yoritilgan. Jumladan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim sifati va qamroviga ta'siri bo'yicha xalqaro tashkilotlar (UNESCO, OECD) ma'lumotlari tahlil qilindi.[2]

Globallashuv ta'limda yangi yondashuvlar va metodlarni talab qilmoqda, shu jumladan, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va yoshlarni zamonaviy dunyo sharoitlariga mos ravishda o'qitish zaruriyatini yaratmoqda. Biroq, globallashuvning ta'lim-tarbiyaga bo'lgan ta'siri ikki tomonlama bo'lib, u milliy madaniyat, an'ana va qadriyatlarning yo'qolish xavfini ham keltirib chiqaradi. Shuning uchun, globallashuv jarayonida milliy ta'lim tizimlari nafaqat xalqaro tajribadan foydalanishi, balki o'zining noyob madaniy merosini saqlab qolishga ham katta e'tibor qaratishi kerak.

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya sohasi faqat bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, yoshlarga o'z qadr-qimmatini anglata oladigan va ularni mustaqil fikrlashga o'rgatadigan muhit yaratishga qaratilgan. Shu bois, ta'lim-tarbiyaning maqsadi milliy o'zlikni shakllantirish va global dunyo bilan muvaffaqiyatli integratsiyalashuvga tayyor bo'lgan yosh avlodni tarbiyalashdir. Globallashuv jarayoni faqat ta'lim tizimlariga emas, balki jamiyatning barcha sohalariga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Xalqaro integratsiya va raqamli texnologiyalar rivoji bilan birgalikda, zamonaviy ta'lim tizimi ham xalqaro standartlarga mos ravishda rivojlanishga majbur bo'lmoqda. Bu esa milliy ta'limda yangi, innovatsion yondashuvlarni joriy etishni talab qiladi. O'zbekiston rahbariyatining ham ta'kidlashicha, yosh avlodni keng dunyoqarashga ega, bilimdon va yetuk qilib tarbiyalash uchinchi Renessans poydevorini yaratish uchun muhim omildir. Shuning uchun, globallashuv davrida yoshlarga ta'lim berishning maqsadi nafaqat bilim berish, balki ularni o'z milliy o'zligiga ega, dunyoga ochiq shaxs sifatida shakllantirishdir.

Muhokama

Globallashuv jarayonida ta'lim-tarbiya tizimlarida bir qator muammolar ham yuzaga kelmoqda. Xususan, ta'lim sifatini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishda resurslar yetishmovchiligi, xalqaro hamkorlikning yuqori darajada tashkil etilmaganligi kabi masalalar mavjud. Shu bilan birga, ta'limda an'anaviy qadriyatlarni saqlab qolish zarurati ham dolzarb hisoblanadi. Bugungi kunda ta'lim mazmuniga xalqaro miqyosda qabul qilingan yangi bilim va texnologiyalarni kiritish jarayoni milliy identifikatsiyani saqlash bilan bir vaqtda amalga oshirilishi kerak.

Globallashuv ta'limning ko'pgina yo'nalishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatib, yosh avlodni xalqaro miqyosdagi raqobatbardosh mutaxassislariga aylantirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Biroq, bu jarayon milliy o'ziga xoslikni yo'qotmaslikni talab qiladi. Shu sababli, ta'limda milliy qadriyatlarni global qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishning muhimligi ortib bormoqda. Globallashuv sharoitida ta'limning milliy tizimlari xalqaro miqyosda integratsiyalashgan holda, o'z madaniy va tarbiyaviy vazifalarini ham to'la bajarishi lozim. Bugungi

globallashtirish jarayoni nafaqat ta'lim mazmuniga, balki uning shakliga ham yangi talablarni qo'yimoqda. Bir tomondan, ta'limda yuqori sifatga erishish uchun xalqaro miqyosda qabul qilingan ilg'or texnologiyalar va metodlarni joriy qilish zarurati mavjud. Shu bilan birga, bu jarayon milliy madaniy meros va qadriyatlarni saqlash masalasini ham dolzarb qilib qo'yimoqda. Yoshlarga xalqaro miqyosda raqobatbardosh ko'nikmalar berish bilan birga, ularni milliy an'ana va qadriyatlarni qadrlashga o'rgatish ham zarur. Shu sababli, ta'lim-tarbiya tizimlarida milliy o'zlikni saqlab qolish va xalqaro standartlarga moslashishni muvozanatlash dolzarb masala hisoblanadi.

Xulosa

Globallashtirish jarayoni ta'lim-tarbiyani rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Biroq, bu imkoniyatlardan to'g'ri foydalanish uchun milliy qadriyatlarni saqlab qolish va ularga mos ravishda yosh avlodni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim-tarbiyaga milliy o'ziga xoslikni saqlab qolgan holda global talablarga mos bilim va ko'nikmalarni joriy qilish orqali, kelajak avlodni muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori". Toshkent, 1997.
2. Mirziyoyev Sh. "Yangi O'zbekiston strategiyasi".
3. Alimov Sh. "Globallashtirish va milliy ta'lim".
4. Davletshin M.G., Mavlonov M. "Pedagogik psixologiya".

GLOBALLASHUV JARAYONLARI VA MANAVIY TAHDIDLAR

Inomjonova Odinabonu Mullajon qizi

Namangan davlat pedagogika inistituti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi

1-bosqich talabasi

***Annotatsiya;** Bugungi kundalik hayotimizda rivojlanib borayotgan ilim olayotgan insonlar soni tobora ortib bormoqda Ushbu maqolada globallashuv jarayonlari va manaviy tahdidlar kabi tushunchalar bayon etilgan*

***Kalit soʻzlar;** Globallashuv, iqtisodiy siyosat, globallashuv jarayoni , milliy uygʻonish , mafkuraviy manzarasi.*

Kirish. XXI asr boshlariga kelib, dunyo mamlakatlari oʻrtasidagi oʻzaro taʼsir shu qadar kuchayib ketdiki shu jarayondan himoyalab olmagan birorta ham davlat yoʻq edi deb toʻla inshonch bilan aytish mumkin edi. Globallashuv shunday jarayonki, undan chetda turaman degan birorta mamalakatlar uning tasiriga koʻplab uchrab qolishmoqda. Bunday ushbu taʼsir koʻpincha salbiy oqibatlariga olib kelmoqda. Bugun jadal borayotgan globallashuv har bir davlat, xalq, millat insoniyat hayotida ozgacha taʼsir etmoqda. Bugun dunyo taraqqiyoti shu darajaga yetdiki endi hamma mafkuraviy kurash, maʼnaviy salohiyat yetakchi oʻringa yetmoqda. Muayyan millat, jamiyat, davlatning tinchligi va barqarorligiga qaratilgan, siyosiy va konstitutsion tizimni zaiflashtirish va buzishga yoʻnaltirilgan fuqoro xafsizligi keskinlashmoqda.

Globallashuv mamlakatlar iqtisodiy siyosati va maʼnaviyatga qaratilishi mumkin boʻlgan taʼsiri xususidan Hindstonning mashhur davlat arbobi Mahatma Gandining quyidagi soʻzlari yaxshi ifodalangan: men uyimning darvoza va eshiklarini doimo mahkam berkitib oʻtira oʻlmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak, shu bilan birga, ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul boʻlib uyimni agʻdar toʻntar qilib tashlashi, oʻzimni esa yiqitib yuborishini ham istayman”deb aytadi

Shuning uchun ham milliy istiqlol goʻyasi,bugungi globallashuv jarayonida uyimizni, hayotimizni toza havo bilan taʼminlab ayni paytda, “dovullardan” saqlash omili ekanligini anglash mumkin Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining k asosiy sababi esa, birinchi Prezidentimiz qayd etganlaridek, bugungib kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qoshnillar, balkijahon miqyosida jadallashib bormoqda.[1]global muammolardan tinchlikni saqlash va qurolsylanish muammosi eng universal

ahamiyatga ega, chunki bu muammolar hal etilmasa, yer yuzida hayot va silivizatsiyaning kelajagi o'ta achinarli ahvolga kelishi mumkin o'zbekistonning mustaqil taraqqiyoti jarayonida milliy uyg'onish davrini boshdan kechirayotganligiga, madaniy merosimiz, milliy urf odat, qadriyatlarimizni tiklayotgan bir paytda dunyoda ezgulik va yozuvlik o'rtasidagi ziddiyat kucayib borayotganligiga guvoh bolamiz har qanday mafkura xalqning ma'naviy ruhiy ehtiyojlarini milliy an'analari va turmush tarzini hisobga olgan taqdirdagina yashovchan, tasirchan boladi shu o'rinda globallashuv jarayonida yoshlarning yangicha estetik madaniyatni shakllantirish bo'yicha islohotlarni amalga oshirish vazifasi mulliy mafkura asosida bizning diqqat markazimizda turibdi mafkuraviy tahdidlarning oldini olishda buyuk mutafakkir Abu Nosir Farobiy (873 950), inson kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bolishi, ularning komaklashuvi yoki munosabatlariga muhtoj bo'ladi deydi .

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH..M Mirziyoyev BMTning 72 sessiyasids sozlagan nutqin Annatotsiya:21 asr boshlariga kelib dunyo mamlakatlari o'rtasidagiozaro tasir shu qadar kuchayib ketdiki bu jarayondan toliq himoyalani b birorta ham davlat yo'q deb to'la ishonch bilan aytish mumkin Hattoki, xalqaro tashkilotlardan o'zaro turishga intilayotgan, ularga a'zo bo'lishni istamayotgan mamlakatlar ham bu jarayondan mutloqo chetda emas. Ammo Globallashuv shunday jarayonki, undan chetda turaman, degan mamlakatlar uning tasiriga ko'proq uchrabqolishmoqda. Umumn olganda , barcha tadqiqotchi olimlar global o'zgarishlar madaniy o'ziga xosliklarga, aytinqsa o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasiga, ularning ongi va mafkurasi ga ta'sirinin o'tkazishini ta'kidlaydi. Yosh avlodning miyasi hali yozilmagan oq qog'oz misoli toza bo'ladi. Unga yozilsa nima kiritilsa, o'sha narsa namoyon bo'ladi. Biroq ushbu tasir doirasi to'g'sida har hil munosabatlar bildiradi. Ma'lumki, xar qanday kasslikni oldini olish uchun avvalo, kishi organizimida unga qarshi immunitet hosil qilinadi Biz ham farzandalarimiz ona vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruxida tarbiyash uchun, avvalo ular qalbi hamda ongida mafkuraviy immunitet kuchaytirish lozim. Toki yoshlarimiz milliy o'zligini, shu bilan b irga ,dunyoni chukurroq anglaydigan, zamon bilan barobar qadam

tashlaydigan insonlar bo'lib yetishsn. Ana shunday jaxil aqida parastlarning da'vati ham, mutloqobegona g'oyalari ham ularga uz ta'sirini utkaza olmaydi.

Saskia sassen - "globalization and its discontents" Sassen globallashuv jarayonining ijtimoiy a iqtisodiy oqibatlarini o'rganadi a u jarayonining ijtimoiy tengszlikka ta'sirini muhokama qiladi. [1]

Globallashuv jarayonida internet yangi aloqaviy vositadir. Globallashuv jarayonida kishilar internetdan xoxlagan manbaani topadi

Internet ko'pchilikni birlashtiradi yoki ajratishi ham mumkun, bundan tashqari negative maqsadda ishlaydi. Global miqyosda insoniyatning ba'zi masalalardan muhosaga yuzlanishga to'g'ri keladi. Dunyoning turli mintaqalarida urush va harbiy to'qnashuvlar sodir bo'lmoqda Harbiy harakatlar va fuqorolar urushlari tufayli ayrim davlatlar gumatar kafolatvaziyatiga kelib qoldi. Bunga Suriya, Iroq, Liviya ,Somali, Afg'oniston, Janubiy Sudan va boshqa davlatlarni misol tariqasida keltirishi mumkin. Axborotlashgan jamiyatning shiddat bilan o'zgarib borishi natijasida xx asrda globallashuv jarayonining tezlashishi va umumsayyoraviy silivizatsiyaning shakllana boshlashi jahon mafkuralarining xarakterini o'zgartirib yubordi Uarning o'rnini bosadigan qudratli mafkuralarning xarakterini o'zgartirib yubordi. Ularning o'rnini bosadigan qudratli mufkuraning yo'qligi geosiyosiy maqsadlarning o'zgargani esa bu g'oyalarning salbiy ta'sirini yanada kuchaytirdi. Bunday sharoitda o'z maqsadini aniq belgilab olgan, bir so'z bilan aytganda o'z milliy g'oyasini shakllantrgan millatgina kelajagini saqlab qoladi va istiqbolini belgilaydi. SHunday millat sifatida shakllangan o'zbek xalqi o'zining asrlar osha yashab kelayotgan milliy g'oyasi asosida yoshlar dunyoqarashi ilg'or texnologiyalar bilsan boyitish, turli ta'sirlar negizida boyitish, turli ta'sirlar ozlikni anglash, milliy qadriyatlarni e'zozlash va estetik madaniyatni kelajakka oz xolicha etkazishga doimo tayyordir

Bugun dunyoning mafkuraviy manzarasida inson qalbi v a ongiga ta'sir o'kazuvchi, turli xil vosotalar bilan kurashn olib boruvchi mafkuviy polygon lar faoliyati tobora yaqqolroq ko'zga tashlanmoqda. Taraqqiyotning hozirgi bosqichda jahonda g'oyat murakkab va tahlikali jarayon kechmoqda. Bular dunyoning siyosiy mafkuraviy manzarasidagi o'zgarishlar, taraqqiyotning yangi bosqichiga

taraqqiyotning yangi bosqichiga go'v bo'ladigan demokratik rivjolanish ni izdan chiqaradigan, jamiyat barqarorligiga rahnas oladigan g'oyaviy mafkuraviy tosiqlarning paydo bo'lishi bilan izohlanadi.

Michio Kakuning fikricha, o'rtacha iqtisodiy o'sish sur'ati bilan yer tsilivizatsiyayasi keyingi 100yil Ichida sayyoraviy tsilivizatsiya maqomiga o'tadi, uning energiya istemoli sayyora tomonidan quyosh olingandan energiya bilan taqqoslanadi rivojlanayotgan sayyora iqtisodiyoti yagona sayyora madaniyat, yangiliklari, xalqaro turizm, kasalliklar va ekologik tahdidlarga qarshi kurash bo'yicha xalqaro say harakatlar. Globallashuv rivojlanishining muqarrar oqibatlari dan biri nisbiy tengszlikning Keskin kuchaytiradi. bozordagi keskin raqobat global lumpen massanining paydo bolishiga va ijtimoiy darvinistik jarayonlarning obekt kuchayishiga olib keladi tabiiy tanlanishning iqtisodiy iqtisodiy anglanishi.nGloballashuv sharoitida eng qudratli kuchlar yanada kuchayib bormoqda. Globallashuv ekologik muammolarga ham ijobiy, ham salbiy tasir korsatmoqda. shunday qilib, globallashuv tanqidchilari xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishibilan ko'pchilik havfli ishlab chiqarishlar ekologik muammolarni hal qilishga sodir bo'lmagan kam rivojlangan mamlakatlarga o'tayotgani ta'kidlamogda. bu nafaqat ushbu alohida shtatlarda, balki, butun dunyoda ekolgik vaziyatning sezilari darajada yomonlashishiga olib keladi. Bundan tashqari, globallashuv yufayli chiqindilarnin birinchi dunyo mamlakatkaridan rivojlanayotgn mamalakatlarda oz hududlarida yoq qilish uchun tashish kabi amaliyot mavjud Biroq, mamlakatda texnologiyalarining nomukammallgi tufayli qayta ishlash ancha yomon Ba'zi rus sotsiologlai global raqobat va postindustirial jamiyatga o'tish natijasida rivojlangan mamlakatlarda ishszlik yaqin on yilliklarda mehnatga layoqatli aholining 40/foiz dan 70 / foizgacha bo'ladi deb hisoblaaydilar. masalan, Rossiyada, Rosstat ma'lumotlarg ko'ra, iqtisodiy faol aholining qariyib 20/ foizi allaqachon soyadagi bandlikda mehnatga layoqatli aholining 40/ foizdan ortig'I rasmiy ish bilan taminlangan

O'zbekiston va globall muammolar ga misol qilib shuni aytish mumkun Jahin banki, Jahon ho'jaligi, xalqaro iqtisodchilar ittifoqi . Global muammolarni 4 guruhga ajratish mumkun

1. Xalqaro siyosiy munosabatlarda vujudga kelgan global muammolar;
2. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda paydo bo'lgan global muammolar;
3. Ijtimoiy sohada vujudga kelgan global muammolar;
4. Inson va tabiat ortasidagi munosabatlarning buzulishi natijasida vujudga kelgan global muammolar:

Turli mazmundagi tahdidlarning ijobiy va salbiy jihatlarini bilishi, undan ko'zlagan maqsadlarni anglab yetish, dunyoning mafkuraviy manzarasi yoritib berish, yoshlarda turli tahdidlarga nisbatan ogohlik va manfaatlarini tushuntirib boorish. Globallashuvga berilgan ta'riflar juda kop. Lekin uning xusiyatlarini to'laroq qamrab olgani, bizningcha, fransuz tadqiqotchisi B. Bandi bergan tarif bor. Unda globallashuv uch o'lchovli ekaniga urg'u beradi :

1. Globallashuv - muttasil davom etadigan tarixiy jarayon;
2. Globallashuv - jahonning gemogenlashuvi va universalashuvi jarayoni;
3. Globallashuv – milliy chegaralarning “yuvilib ketish” jarayoni.

Xulosa. Globallashuvda ma'naviyatni ham bir uyga to'plagan boylikka qiyoslasak tashqaridan kirayotgan shamol uy ichidagi narsalarni ostun ustun qilib tashlashini hech bir xonadon egasi istamaydi. Xuddi shu kabi biz ham yot g'oyalar, oqimlar hamda mafkuralar ma'naviyatinizga vayronkorona tasir etishiga qarshi himoya choralari korishdan avval qanday tasirlarni maqullashlozimu, qandaylarini rad etish kerakligini aniqlab olish kerak .

Prezidentimiz takidlaganidek “Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan”- deydi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Mahatma Gandi "An autobiography".
2. I. A. Karimov "yuksalish yo'li".

“RAVSHAN” DOSTONIDAGI BADIY OBRAZLARNI DIDAKTIK TAHLIL ASOSIDA O’RGATISHNING INTERFAOL METODLARI

Qosimova Yulduzxon Javlonbek qizi

NamDPI o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich magistranti

[Tel:-50-073-54-17](tel:+998500735417)

Annotatsiya: *Ushbu maqola adabiyot ta'limida didaktik ta'limni yirik epik doston misolida ko'rish, asardagi badiiy obrazlarga tanqidiy munosabat bildirishda interfaol zamonaviy metodlar bilan ishlash, talaba hamda o'quvchi yoshlarning fikrlash kompetensiyalarini o'stirish ko'nikmalarini shakllantirish haqida.*

Kalit so'zlar. *Didaktik tahlil, tanqidiy baho, interfaol metod, “Rolli” dars, “Tergov” metodi, “Qalpoq” metodi.*

Аннотация: *В данной статье речь идет о рассмотрении дидактического образования в литературном образовании на примере большого эпического эпоса, работе с интерактивными современными методами выражения критической реакции на художественные образы в произведении, формировании умений развития мышления школьников и учащихся. компетенции.*

Ключевые слова. *Дидактический анализ, критическая оценка, интерактивный метод, урок «Ролли», метод «Исследование», метод «Калпак».*

ct. Abstract. *This article is about the study of didactic education in literature education on the example of a large epic poem, working with interactive modern methods in expressing a critical attitude to artistic images in the work, and forming skills for developing thinking competencies of students and young people.*

Keywords. *Didactic analysis, critical assessment, interactive method, "Role" lesson, "Investigation" method, "Kalpoq" method.*

Hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan globallashuv davrida yoshlarning bilim doiralarini kengaytirish, mustaqil fikrini erkin bayon qila olish kompetensiyalarini shakllantirish borasida ko'plab chora-tadbirlar olib borilmoqda. Ayniqsa, ushbu chora tadbirlar orasida ilm maskanlarida ta'lim va tarbiyaga oid

zamonaviy metodlarning qo'llanilishi, o'quvchi hamda talabalarga adabiyot o'qitishda didaktik tahlil orqali eng zamonaviy usullarni o'rgatish ularni badiiy ijod jarayoniga yaqinlashtirish, adabiy jarayon va badiiy asar personajlarining yutuq va kamchiliklarini tahlil qilishga yordam beradi. Shuningdek, kata hajmli epik asarlarni tekshirishda didaktik tahlil metodlari yaxshi samara beradi. Chunki katta hajmli epik asarlarni tekstual tahlil qilish qiyin va bu ko'p vaqt talab qilishi mumkin. Muayyan asardagi timsollarning ruhiyati, o'y-kechinmalari, xatti-harakatlari, sajiyasi tasviri mantiqiylik, hayotiylik, badiiylik va tarbiyaviylik nuqtayi nazaridan tahlil qilinib, shu yo'sinda muallifning badiiy mahorati va asarning estetik qimmati idrok etiladi.[1]

ADABIYOTLAR TAHLILI

Yurtimizda adabiyot o'qitish metodikasini rivojlantirish, mustaqil izlanuvchilar safini kengaytirish, tadqiqotlik faoliyatini yo'lga qo'yish, pedagogik tafakkurini o'stirish, mustaqil va tanqidiy tafakkurni qaror toptirishda, didaktik o'qitish aspektida Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova, M.Mirqosimov, F.A.Jumayev, B.To'xliyev, ta'lim jarayonlarida didaktik o'yinlardan foydalanish bo'yicha R.Xolmatova, A.Zunnunov, N.Hotamov, J.Esonov, Q.Yo'ldoshev, O.Madaev, A.Abdurazzoqov, ona tili darslarida interfaol ta'lim va didaktik imkoniyatlar mavzusida R.Ishmuxammedov, M.Yuldashev, R.Muqumova, T.G'afforova kabi tadqiqotchilarning izlanishlarida o'rganilgan.

Interfaol metodlar va ularning ta'lim jarayonidagi mohiyati, pedagogikada interfaol metodlarning o'rni, interfaol o'qitish metodlarining didaktik imkoniyatlari mavzusida B.Ibrohimov, M.Tajibayeva, U.Abdullayeva, O'Muxamedov, M.Usmanboyev, S.Rustamov, D.Boriboyeva, U.Inoyatova kabilarning ilmiy faoliyatlari mavjud.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada maktab o'quvchilari va talaba yoshlarga “Ravshan” dostonidagi obrazlarni didaktik o'qitishning interfaol metodlar orqali o'rgatishning samarali yo'llari muhokama qilinadi. Xususan didaktik ta'limning mohiyati, maqsad va vazifalari, o'quvchilarning badiiy obrazlarga bo'lgan didaktik munosabati, asardagi

personajlarning yutuq va kamchiliklari interfaol o'yinlar orqali qiyoslandi, tahlil qilindi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Mustaqillik davri adabiy ta'limida o'quvchi yoshlar va talabalar shaxsining har bosqichdagi jismoniy va ruhiy, intellectual xususiyatlari inobatga olingan holda uni mustaqil fikrlashga yo'naltirish, ma'naviyatini sog'lomlashtirishga ko'maklashish, estetik yaratish lazzatini tuydurish, ta'lim-tarbiya bilan birgalikda hamkorlik bo'lishini ta'minlash singari tamoyillarni ham talab qiladi. Albatta, bunday masalalarni amalga oshirish uchun yirik epik asarlarning kontekstual tahlilidan ko'ra badiiy obrazlarga baho berish, yutuq va kamchiliklarini qayd etish, bahs-munozaraga kirishish kabi didaktik tahlilga yuzlanamiz. "Ravshan" dostonidagi badiiy obrazlarni didaktik tahlil qilishdan avval o'qituvchi quyidagi rejalarini amalga oshirishni ko'zda tutgan holda o'quvchilarga bosqichma-bosqich topshiriqlar berishi lozim.



"Ravshan" dostonida asosiy qaharmonlar Ravshan, qahramonlar Zulxumor, Hasanson, epizodik personajlar Oqqiz, Go'ro'gli, Avazxon, Ersak, Tersak, Aynoq, Jaynoq kallar, kampirlar, Xon Dalli, Qoraxon podshoh kabilar ekanligini bilish uchun biz interfaol o'yinlar orqali didaktik tahlil qilamiz. Bilamizki, interfaol metodda asosan, o'quvchilar bilan pedagogik muloqot o'rnatishning zamonaviy va

innovatsion texnologiyalaridan foydanamiz. Buning uchun darsni oliy ta’lim maskanlarida “rolli” dars tashkil etiladi, maktablarda esa “Sud”, “Tergov”, “Qalpoq” kabi interfaol metodlardan qo’llaniladi. “Rolli” darsda talabalar asardagi personajlarni bo’lishib olgan holda darsga oldindan tayyorgarlik ko’rib kelishi zarur. Har bir epizod o’z nutqini puxta yod olgan holda xuddi dramatic asarni ko’rsatib berayotgandek sahnada o’z aktyorlik mahoratini ko’rsatishi, “Ravshan” dostoniga xos koloritni yarata olishi darkor. Bir qarashda “rolli” dars tashkillash murakkabdek ko’rinadi, ammo o’qituvchi ushbu darsda hayotiy asardan ko’zlangan g’oyaviy maqsadni talabalar faolligi va hamkorligida olib bora oladi. Yoki 7-sinf adabiyot darsligida “Ravshan” dostonining to’liq varianti keltirilmagan bo’lsa-da, o’qituvchi dostonidagi obrazlarga berilgan ta’riflar, ularning portretlari va ko’rsatgan qahramonliklari orqali asar boshlanmasidan boshlab to yakunigacha bo’lgan tahlilni didaktik yo’l bilan amalga oshiradi. Go’ro’g’lining o’g’li Avaxxonnikiga sovchi bo’lib borganida, Hasanga beradigan qizim yo’q, u bir quzg’un bo’lsa, men lochinman deyish sahnalarida “sud” interfaol metodini qo’llash mumkin. Bunda sinfni ikki guruhga Avaxxonni qoralovchilar hamda Hasaxonni oqlovchilarga bo’linadi va har bir guruhga tergovchi, ya’ni ustoz “Go’ro’g’lining sovchilikka borishi to’g’ri ish edimi?”, “Ravshan Gulanorni sevar edimi?”, “Nega Avaxxon ukasini o’ziga quda sifatida qabul qilmaydi”, “Ravshan yosh bolaga o’xshab yig’lab to’g’ri ish qildimi?”, “Siz Go’ro’g’lining o’rnida bo’lganingizda qanday yo’l tutgan bo’lardingiz” kabi xuddi tergovchiga o’xshab savollar bilan guruhlarga murojaat qilasiz. Oqlovchilar va qoralovchilar esa o’z javoblarini isbotlay olishi, himoya qila olishi orqali baholanadi. Eng ko’p to’g’ri dalil to’plagan guruh g’olib deb topiladi. “Qalpoq” metodida esa o’quvchilardan biri Zulxumor obrazida qo’lida qalpoqlar bilan xona bo’ylab aylanadi. O’qituvchi har bir o’quvchiga kartochkali savol beradi. Masalan, qaysi kal mergan edi?”, “Nega Ravshan boshqa dinga kirishni istamaydi?”, “Sizningcha Zulxumor o’z yoriga yordam berib to’g’ri ish qildimi?”, “Nega Oqqiz Zulxumorga hasad qildi?” kabi savollarga to’g’ri javob topgan o’quvchiga Zulxumor obrazidagi o’quvchi qiz qalpoq beradi. Bu orqali asarda Zulxumor qalpoq tikib sotishi va “Qiz bolaga qirq hunar oz” qabilidagi yetakchi g’oyalar ilgari suriladi.

XULOSALAR

Umuman olganda didaktik ta’limda interfaol o’yinlar orqali o’quvchilarni adabiyotga bo’lgan qiziqishlarini orttirish, badiiy asar o’qishda har bir obrazga tanqidiy baho berishni o’rgatish va uni hayotga tatbiq etish ustuvor yo’nalish kasb etadi. Didaktika o’quvchining ilmiy salohiyati va kreativ ijodkorona fikrlashiga, har qanday muammoli savollarga javob topishda tezkorlik, aniqlik, ilmiy asoslanganlik kabi kompetensiyalarni shakllanishida yordam beradi. Har qanday badiiy asar o’qitish misolida o’quvchi personajlarga shunchaki obraz sifatida emas, balki o’z umri davomida duch kelishi mumkin bo’lgan real insonlarning fazilatlariga qay tarzda javob bera olish ko’nikmasini egallashni o’rganadi.

ADABIYOTLAR:

1. Yo’ldoshev Q., Yo’ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari.- Toshkent. 2016.
2. Ravshan [“Go’ro’g’li” dostonlari turkumi]- Oltin qalam nashriyoti, 2024.
3. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o’qitish metodikasi.- Toshkent: “Invest-ziyo” nashriyoti, 2022.
4. To’xliyev B. Adabiyot o’qitish metodikasi. T., 2006.
5. <https://in-academy.uz>
6. <https://arxiv.uz>

“TURKIY TILLARNING QIYOSIY-TARIXIY GRAMMATIKASI” FANIDAN MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL QILISH

Allaberganova Adolat Atabek qizi,
UrDU O’zbek tilshunosligi kafedrasi o’qituvchisi
adolatalloberganova@mail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada “Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi” fanidan Hemis tizimida mustaqil ishlarni tashkil qilish bo’yicha ko’rsatma va tavsiyalar ko’rsatib berilgan.*

Kalit so’zlar: *Hemis, mustaqil ta’lim, grammatika, turkiy tillar, leksema, fonetik, semantik, qiyosiy-tarixiy.*

ECTS – (European Credit Transfer and Accumulating System) Oliy ta'limda amalda qo'llanayotgan kredit jamlash tizimi bo'lib, talabaga yo'naltirilgan, ta'lim olish, ta'lim berish va ta'limni baholashda shaffoflikka asoslangan, yevropaning 45 ta davlati tomonidan ishlab chiqilgan, tekshirilgan va takomillashtirilgan kreditlarni taqsimlash tizimi. Hemis tizimida *sinov krediti* o'quv yuklamasini o'lchash birligi hisoblanib, u talabaning individual rejasida ko'zda tutilgan va tasdiqlangan barcha turdagi o'quv ishlarini hisobga oladi. Jumladan, auditoriya mashg'ulotlari (ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotlar), mustaqil ish va semestrga mo'ljallangan oraliq va yakuniy nazoratlar. Kredit-modul tizimida umumiy soatning 60 foizini *mustaqil ish*, 40 foizini esa *auditoriya soat* tashkil qiladi. Demak, hemis tizimida talabaning mustaqil ishi asosiy o'rinni egallaydi.

1-jadval

1 kredit	25-30 soat	40% Kontakt soat (10-12 soat)
		60% Mustaqil ta'lim (15-18 soat)

Hemis tizimining mazkur talablaridan kelib chiqan holda har bir semestrda mo'ljallangan fanni o'qitishda talabaning mustaqil ta'lim ishiga jiddiy e'tibor talab qilinadi.

2-jadval

	<i>Auditoriya soati</i>	Intihon
		Qo'shimcha auditoriyada o'qish (ARM).
<i>Talabaga yo'naltirilgan ta'lim</i>	<i>Mustaqil ta'lim</i>	Qo'shimcha adabiyotlardan onlayn o'rganish
		Loyihalar ustida ishlash

“Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi” fani bakalavriat bosqichi yuqori kurs talabalariga mo’ljallangan fan bo’lib, turkiy tillarni qiyosan o’rganishga yo’naltirilgan. Fanni o’qitishning maqsadi turkiy tillarning grammatik xususiyatlarini fonetik, leksik xususiyatlarni qamragan holda yoritish, turkiy tillarning morfologik, tipologik o’ziga xosliklarini ajratish, umumlashtirish, turkiy tillarning umumtaraqqiyot va xususiy taraqqiyot bosqichlarini o’rganish, umumtaraqqiyot bosqichiga oid xususiyatlarning hozirgi turkiy tillarda ifodalanish darajasini belgilashdan iborat.

Ushbu fanni o’qish davomida talaba:

– “Turkiy tillar qiyosiy-tarixiy grammatikasi” fanining predmeti, obykti, maqsadi, vazifalari va metodlari, turkiy tillar fonetikasi, leksikasiga, grammatikasiga oid nazariy va amaliy masalalar, turkiy tillar oilasiga mansub tillar va ularning joylashish hududi, turkiy tillarning grammatik xususiyatlarini qiyoslash, fonetik, leksik xususiyatlari, umumtaraqqiyot bosqichidagi xususiyatlarning hozirgi turkiy tillar grammatik tizimida aks etish darajasi; turkiy tillarning agglyutinativ tabiati, turkiy tillarning morfologik kategoriyalari; sintaktik kategoriyalar haqida tasavvurga ega bo’lishi;

– Turkiy tillar grammatikasini o’rganishda qiyosiy-tarixiy metodni qo’llashni, diaxron va sinxron aspektda tahlil qilishni, turkiy tillarda so’z yasash tizimini; morfologik qayta bo’linishni; etimologik tahlillarni, turkiy tillar grammatikasiga oid nazariy ma’lumotlarni bilishi va ulardan foydalana olishi;

– Turkiy tillar qiyosiy-tarixiy grammatikasining turkiy tillar shakllanishi va keyingi taraqqiyot bosqichlarini tahlil qilishdagi ahamiyatini asoslash, til birliklari va nutq birliklarining turkiy tillarga xos grammatik munosabatini tahlil qilish, qadimgi davrlarga xos tarixiy shakllarning hozirgi turkiy tillardagi ko’rinishlarini farqlash, leksemalarning fonetik, semantik, grammatik strukturasiidagi o’zagarishlarni aniqlash ko’nikmalariga ega bo’lishi kerak.

“Turkiy tillar qiyosiy-tarixiy grammatikasi” fanidan 7-semestr mobaynida 30 soat auditoriya va 30 soat mustaqil ta’lim mo’ljallangan bo’lib, har bir mavzu puxta o’zlashtirilishi, mavzuga tegishli nazariy savol va topshiriqlar o’qituvchi nazoratida bajarilishi kerak. Asosiy va qo’shimcha adabiyotlar havola qilinishi, ularning

talabalar tomonidan mustaqil o'qib o'zlashtirilishi jiddiy nazoratga olinishi zarur. Ma'ruzada o'tilgan har bir mavzu bo'yicha misollarni talaba o'zi tanlagan asardan izlab, to'plab boradi va yozma nazorat ishi holatiga keltiradi. Talabaga ilmiy-nazariy adabiyotlardan, maqola va lug'atlardan qanday foydalanish mumkinligi, ulardan iqtibos olish tartibi va qoidalari haqida batafsil ma'lumot berish zarur. "Turkiy tillar qiyosiy-tarixiy grammatikasi" fanining mustaqil ishlari fanning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv fan dasturi asosida ishlab chiqildi.

Mustaqil ishlarni tashkil etishning shakli va mazmuni. Talabaning mustaqil ishi o'quv rejasida "Turkiy tillar qiyosiy-tarixiy grammatikasi" fanini o'zlashtirish uchun belgilangan o'quv ishlarining ajralmas qismi bo'lib, u metodik va axborot resurslari bilan ta'minlanadi hamda bajarilishi reyting tizimi talablari asosida nazorat qilinadi. Mustaqil ta'lim mavzusi talabalar mustaqil o'rganiladigan ma'ruza va amaliy mashg'uloti mavzularidan iborat bo'ladi. Mustaqil ta'lim talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlashga, mavzularni tushunish qobiliyatini maksimal darajada rivojlanishiga, umumiy dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi. Mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik; seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik; darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish; tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismini o'zlashtirish; maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash; o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish; faol va muammoli o'qitish metodlaridan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari; masofaviy ta'lim shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazorati ostida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir. Mustaqil ishni tashkil etishda har bir talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi: ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish; amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish; nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash; mavzu yuzasidan

tahlilga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish; badiiy matnlarga xos xususiyatlarni belgilash va boshqalar. Talaba mustaqil ishini nazorat qilish o'quv mashg'ulotlarini olib boradigan o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Talabalar va o'quvchilar bilan ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil qilishda eng muhim talablar quyidagilardan iboratdir: barcha ta'lim va tarbiya tizimini yo'lga qo'yish uchun uning subyektlarda zaruriy motivatsiyani shakllantirish lozim. Shu narsani alohida ta'kidlab o'tish joizki, har qanday tashqi ta'sir yoki har qanday tarbiyaviy ta'sir, qachonki talabalarning ehtiyojlari bilan mos kelsa, ana shundagina kutilmagan natijani yoki yuksak samarani kutish mumkin.

Talaba mustaqil ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

- Yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- Kerakli ma'lumotlarni izlab topish qulay usullari va vositalarini aniqlash;
- Axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;
- An'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, shu jumladan xorijiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlash;
- Elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlash;
- Internet tarmog'idan maqsadli foydalanish;
- Berilgan topshiriqning ratsional yechimini belgilash;
- Ma'lumotlar bazasini tahlil etish;
- Ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishlash;
- Topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashish;
- Ishlab chiqilgan yechim, loyiha yoki g'oyani asoslash va mutaxassislar jamoasida himoya qilish.

Mustaqil ishlarni bajarish yuzasidan tavsiyalar.

Talabaning mustaqil ishi – o'quv vazifasini dars berayotgan o'qituvchisidan tizimli ravishda uzoqlashgan holda mustaqil bajaradigan ish turi hisoblanadi. Bunday ish turiga nazorat va kurs ishi, referatlar, konspektlar va boshqalar kiradi. O'qituvchi talabalarga kerak bo'lgan ma'ruzalarning materiallarini beradi va ularni o'zlari mustaqil ish materiallari bilan to'ldirishi

kerak. Shuni takidlash kerakki, talabalarning mustaqil ishi maqsadli, tizimli va aniq rejalashtirilgan bo'lsa, talaba o'zi mustaqil yangi bilimlar olsa mustaqil ish ijobiy natijalar bera oladi.

Talabaning mustaqil ishi – bu turli xil individual yoki guruhli vazifalarni o'qitish usullaridan foydalangan holda bajariladigan amaliy dars (seminar, praktikum) bo'lib, bunda talabalar yangi bilimlarini, yoki oldin olgan bilimlarini umumlashtiradi.

Mustaqil ta'limning to'g'ri tashkil etilishi o'qituvchi va talaba hamkorligining samarasini oshiradi. Talabalarda mustaqil ta'lim orqali murakkab bo'lgan mavzular ustida ishlash ko'nikmalari shakllanadi. Mustaqil fikrlash - shaxsning shunday qobiliyatiki, u tufayli odam narsa va hodisalar xususida o'z qarashi va nostandart yechimlariga ega bo'ladi. Mustaqil fikr-insonning narsa va hodisalar, jamiyatda ro'y berayotgan hodisalarning mohiyati xususida o'z qarashlari bo'lishini taqozo etadi, uning bilish va anglash imoniyatlari chegarasini kengaytiradi. "Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mustaqil fikrlash bir qarashda shaxsning individual xususiyati bo'lsa-da, bu xususiyat jamiyatda, insonlar o'rtasidagi munosabatlar muhiti yaxshi bo'lganda rivojlanadi". Demak, mustaqil fikrlash ijtimoiy muhitga bog'liq qobiliyat ekan, guruh sharoitida tashkil etiladigan mustaqil ishlar, bahs va tortishuvlarning oqilona yo'lga qo'yilishi ijobiy natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot: Universitetlar va pedagogika institutlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: "Universitet", 1999. – 96 b.
2. N.B.Kamilova " Muammoli o'smir: tashxis,tadqiqot metodlari. T. 2004 y.
3. Usmanova E.Z. O'quvchilarda mustaqil tafakkurni qanday qilib rivojlantirish mumkin. – T.: O'zbekiston, 2000. – 23 b.
4. Абдурасулов Ё. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси. – Тошкент, 2009.



5. Dadaboyev H., Xolmanova Z. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. –Toshkent, 2015.

YOSHLARNI MA'NAVIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI MA'RIFIY QADRYATLAR

Yuldashev Javohir Abduraxim o'g'li

Namangan davlat pedagogika instituti Gumanitar fanlar kafedrasida dotsenti.

Pazliddinova Farida Zaynobiddin qizi

Namangan davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi.

TEL: +998996561565 f.fazliddinova06@gmail.com

***Annotatsiya:** Axloqiy tarbiya, milliy qadryatlar, va ularning hayotimizda tutgan orni, talimiy axloqiy yonalishlar, ularning mazmun mohiyatini yosh avlodga singdirish, madaniy munosabatlarni rivojlantirish shaxs sifatidagi nuqtai nazarini qaror toptirish yonalishlari belgilab berilgan.*

***Kalit so'zlar:** talim, tarbiya, axloq, odob, qadryatlar, talimiy axloqiy yonalishlar tatqiqotlar, oliy talim muassasalarida madaniy munosabatlar, tarix zarchashmalari.*

KIRISH. Bugungi globallashuv jarayonida dunyoning har qarich yerida inson ongi va tafakkuri uchun jiddiy kurash ketayotgani ayni haqiqatdir. Birda yovuz, birda madaniy ko'rinshdagi bu kurash har birimizdan atrofga teran nazar tashlash jahonda kechayotgan turfa jarayonlarni aql va tafakkur bilan sarhisob etishga undaydi.

Davlatimiz rahbarining jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa uning joni, ruhi ma'naviyatdir degan so'zlari mohiyatidagi uyg'onish nafasi Hazrat Navoiy davlatlariga mohiyatan uyg'un bo'lib, uchunchi renessans poydevorini yaratishga azm u shijoat bilan kirishgan xalqimiz uchun juda tarbiya, yaxshi xulq aql-idrok,

bilim, ma'naviy naqadar tengsiz, qudratva ruhiy manba ekanligini yana bir bor anglatadi.

Demak, yuksak manaviyat bilan jamiyat hayotining tanasi bo'lgan iqtisodiyot vujudiga jon, ruh kiradi, unga tiriklik, tengsiz yaratuvchi qudrat baxsh etadi. Negaki ma'naviyat va ma'rifat barcha zamonlarda tengsiz qudrat, baxt-saodat, tinchlik, bunyidkorlik, hamjihatlik mezon ruhiy poklanish va qalbni yuksaltiruvchi ne'mat bo'lib kelgan. Chunki u millatni, xalqni, demakki insonlarni yuksak fazilatlar, kamolatga yo'llovchi axloqiy mezonlar asosida yashashga, xudbinlik, g'aflat asiriga aylanmay hamisha yaxshilik yo'lida bedor bo'lishga, bu olamni obod qilishga go'zallikka burkashga chorlagan.

Endilikda, "Ma'naviy-marifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlarini to'g'risidagi" qarorda ta'kidlanganidek xalqimiz ayniqsa yoshlarni jaholat soyasidan asrash, tinimsiz, chiranib yotgan ma'naviy tahdidlardan himoya qilish uchun tashkiliy amaliy va ilmiy tatqiqot ishlarini yangi talablar asosida yo'lga qo'yish va bu yo'nalishda davlat tashkilotlari fuqorolik jamyati institutlari, ommaviy axborot vositlari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligini mustahkamlash borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko'taradi.

Mavjud muomolarni hal etish yoshlar manaviyatini yuksaltirishda ma'naviy-marifiy ishlarining samarasini va ta'sirchanligini oshirish ko'lami va miqyosini yanada kengaytirish mamlakat aholisi avvola, yoshlar qalbida vatanimizda amalga oshirilayotgan islohatlarga daxldorlik hissini kuchytirish sohadagi ishlarni muofiqlashtirish bo'yicha yagona tizim yaratish yoshlarning ma'naviy axloqiy kompetentligini oshirish, rivojlantirishni talab etadi.

Bu borada nafaqat respublikamiz, balki jahon talim tizimida yoshlarnig ma'naviy, axloqiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi raqobatbardosh kadrlar tayyorlash mexanizmi rivojlanishning amaliy pedogogik tizimi o'qitish modellari texnolog taraqqiyot g'oyalari bilan uyg'unlashtirilgan interfaol dasturlar ta'lim tizimi yo'lga qo'yilyabdi.

Jahon oliy talim tizimidagi yoshlarni kasbiy ijtimoiylashtirish, manaviy-axloqiy kompetentligini rivijlantiriah, ijtimoiylashtirish ma'naviy axloqiy

kompetentligini rivojlantirish, ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligini tarbibiylash metodikasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tatqiqotlar olib borilmoqda.

ILMIY TAHLIL: Manaviy-axloqiy tarbiya jarayonini rivojlantirish borasida milliy qadryatlardan foydalanish yo'llari va milliy tarbiya asoslari, oliy ta'lim tizimida ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishning pedagogik asoslari oliy ta'lim tizimida ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish hamda bo'lajak mutaxassislarning ma'naviy-kasbiy tayyorgarligi muammosi, ayniqsa ta'lim muammosalarida tarbiyaviy ishlar tizimini samarali tashkil etish masalalari bo'yicha juda ham ko'p ishlar amalga oshirilayabdi..

Talaba-yoshlar ma'naviy madaniyatini shakllantirishga doir shakl va metodlar tizimi ma'naviy-axloqiy qadriyatlari sharhlab organish metodikikasi taraqqiyotida juda muhim.

Shunisi e'tiborliki, manaviy-axloqiy tarbiya yo'nalishlarini ta'lim bosqichlarni bo'yicha tasniflash mustaqillik davridagi pedagogik tadqiqotlarning yetakchi xususiyatidir.

O'ZARO FIKR ALMASHISH: Tahlillar asosida yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligi va tashabbuskorligini rivjilantirishda manaviy-axloqiy fazilatlar, ma'naviy faoliyat kabi komponentlarni o'z ichiga olishi aniqlandi.

XULOSA: bugun yurtimizda tinchlik va barqarorlik hukm surayotganligiga qaramay, bunday buyon ham mustaqillik asrab-avaylash, himoya qilish va mustahkamlash ustivor maqsad bo'lib qolaveradi.

O'zbekiston yoshlari ham ana shu oliy ne'matlardan barhamand bo'layotgani bilan bog'liq bo'lsa ikkinchidan mustaqillik yillarida ana shu muqaddas qadriyat va milliy an'analarga tayangan holda yashash huquqini ham beradi. Uni saqlab qolish uchun mustaqillikni asrab avaylashi kerak bo'ladi.

Malumki, mustaqillikgacha milliy o'zlikni anglashga bo'lgan tabiiy intilish johilona inkor etilar edi.

Bugun yoshlar o'z milliy tarixini o'rganmoqda. Ona tili, madaniyat urf-odat va an'analarning qayta tiklanib borayotgan ularni o'zligini anglashga shart-sharoitlarni yaratib berish berayotgani ham shunchaki milliy-ma'naviy qadryatlarni o'rganib qolayotgani yoq. Bu ilmiy maqoladan ko'rish mumkinki

milliy qadryatlar bugungi yoshlar tarbiyasi uchun juda muhim bolib ulaning hayotida tarbiya eng asosiysi bo'lsa talim, milliy qadryatlar, tarixni o'rganish juda muhim va kelajak avlod uchun asos va tayanch bo'luvchi asosiy omildir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A."BIZ kelajagimizni oz qolimiz bilan quramiz.7 jild 1999
2. Karimov.I.A"Vatanimiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish-oliy saodatdir 2007
3. Milliy istiqlol goyasi:asosiy tushuncha va tamoyillar 2019

GLOBALLASHUV DAVRIDA TA'LIM TARBIYANING O'RNI VA AHAMIYATI

Nozima Foziljanova

Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotasiya: *Globallashuv asosan universal voqealik sifatida qarshini asosan , uning tarxidirlari ilgari surishdi . Globalalshuv ijtimoiy borliqga oid universal voqealik taminot bo'la oladimi? Bunga aniq javob berish mushkul . CHunki jahon tarixini Yaspers aytganidek " bashorat qilish qiyin" bu tarix ertaga qaysi tomonga o'zgaradi , qanday qadriyatlarini targ'ib etadi, ularning asoschilari kimlar bo'ladi , degan savollarga degan jabob berishni hech kim oz zimmasiga ololmaydi . Shunday ekan insoniyat bugun o'z taqdirida nimalargadir umid qilib , nimaalrnidir ezozlab aslida tavkkal nm yashashga majbur .globallashuvni universal voqealik deb atashda ana shu bir tomondan ongimiz va umid ikkinchi tomondan tavakkalchilik vafidoylik yotadi.*

Kalit so'zlar: *globallilik, ta'lim va tarbiya, madaniyat, badiiy asarlar*

Kirish

Bugungi kunga kelib yurtimizda 3 renessans poydevori qurish ishlari amalga osha boshladi .Xususan vazirlar mahkamasi 06 07 2020 yildagi " umumiy orta

talim muassalarida “tarbiya “fanini bosqichma bosqich amaliyotga joriy etish chora tadbirlari to’g’risida”gi 422 son qarrorini qabul qildi yagona “ tarbiya” fani 1 9 sinflarda 2021 o’quv yilidan 10 11 sinflarda esa 2021 2022 o’quv yilidan boshlab ajratilgan umumiy soatlar doirasida “ odobnoma , vatan tuyg’usi , milliy istiqlol g’oyasi va ma’naviyat asoslari hamda’, “ dunyo dinlari tarixi” fanlarini birlashtiradi . Bu shundan dalolat beradiki jadal suratlarda rivojlanish ffaqatgina ilm fan yutuqlariga iqtisodiyotni ko’tarish bilan bir qatorda insonlarning dunyo qarashini ham shunday o’stirish muhim masaladir. Globallashuv mazmun mohiyatiga nazar tashlasak. Globallashuv -bu hayot suratlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir . Yana” globallashuv millat va elatlar mamalakatlarining madaniy , ma’naviy , iqtisodiy jihatidan uyg’unlashuviga olib keladigan jarayondir . Bugungi dunyoning taraqqiyoti ichki va tashqi omillar ostida yuzaga kelmoqda . Ichki va tashqi omillar asosan axborot vositasi bilan ta’sir ko’rsatmoqda .[1]

Globallashuv asosan universal voqealik sifatida qarshini asosan , uning tarxidori ilgari surishdi . Globalalshuv ijtimoiy borliqga oid universal voqealik taminot bo’la oladimi? Bunga aniq javob berish mushkul . CHunki jahon tarixini Yaspers aytganidek “ bashorat qilish qiyin” bu tarix ertaga qaysi tomonga o’zgaradi , qanday qadriyatlarni targ’ib etadi, ularning asoschilari kimlar bo’ladi , degan savollarga degan jabob berishni hech kim oz zimmasiga ololmaydi . Shunday ekan insoniyat bugun o’z taqdirida nimalargadir umid qilib , nimaalrnidir ezozlab aslida tavkkal nm yashashga majbur .globallashuvni universal voqealik deb atashda ana shu bir tomondan ongimiz va umid ikkinchi tomondan tavakkalchilik vafidoylik yotadi.

Globallashuv va integratsiya bosh sektorlarining takidlashicha, demokratik taraqqiyot insoniyat vujudga kelgan ideal, fuqarolik jamiyati halqalar faraon, erkin yashaydigan makondir. G'arb davlatlarining sharq davlatlariga o'tkazayotgan tazyiqi, turli sanksiyalar e'lon qilishi, ularning jahon bozorida, erkin savdo sotiqa qatnashishni cheklashi, hatto o'z milliy an'analariga, tarixiy madaniy paradikmasiga muvofiq yashashga harbiy tajavvusi g'arbona demokratiyaning yoyilmagani bilan izohlanadi. Globallashuv inson omilini unutish mumkin emas. Tadqiqotchilar ko'pincha inson huquqlari va erkinliklari masalalarini tilga olish

bilan cheklanishadi bu bizning fikrimizcha yetarli emas. Huquq va erk inson ma'naviyatiga taluqli bir qirra, jihati. Ular inson ma'naviyatini to'la qamrab ololmaydi. Shuning uchun globallashuv g'arbona voqelik, fenomen bo'lsada uning harakat doirasi, dasiri umumsayyoraviy harakatlarga ega bo'lgani uchun sharq tarixiy madaniy paradigmasining o'ziga xos, immanent xususiyatlari borligini inkor qqilolmaydi.[2]

P. Ratlend globallashuv deganda kishilar va halqalar, davlatlar o'rtasidagi aloqalarning umuminsoniy mohiyat kasb etishi deb tushunadi. Ushbu talqin ga asoslanib, u globallashuvga informatsiya texnologiyalar vositasida voqelik va masofalarning qisqarishi transmilliy uyushmalar rolining oshishi, davlatlarning iqtisodiyotga aralashishining kamayib borishi, erkin savdo sotiqni global hodisaga aylanishi jahon valyutasining va uni almashtirish tartibining yuzaga kelishi, hizmat ko'rsatish sektorlarning iqtisodiy hayotda real voqelikka aylanishi liberal demokratik qadriyatlarining jahonga yoyilishi, siyosiy institutlarning milliy manfaatlariga va globallashuvga xizmat qilishi odatiy holga aylanishi, bazi davlatlarning o'z madaniy merosini global taraqqiyot modeli sifatida taqdim etishga intilishi, yevropalashish ananasining keng davom etishi va bunda AQSh yetakchi rol o'ynashi kabilar xos, deb hisoblaydi. Globallashuv XX asrga taluqli hodisadir. R. Robertson globalizatsiya deganda satsial munosabatlarning lokal holat tan global holatga o'tishi, bir birini toldiruvchi bazi holatlarda biz biri bilan to'qnashuvchi gomoginizatsiya va geteroginazatsiya jarayonlarini tushunadi.[3]

Ilm-fan texnika texnologiyalarning intellektual izlanishlar insonning erkin ijod qilish qilish huquqining real voqelikka aylantiradi. XX asrda ular ayrim kishilarning, elitaning kasb kori doirasidan chiqib huquqqa aylantiradi global huquq esa chegara bilmaydi, u huquq fenomenini barcha kishilarning ularning irqi, millati, ijodiy kelib chiqishi hatto qiziqishidan qattiy nazar hayot tarziga, erkiga aylantiradi. Buyuk zamondoshimiz A. N Farobiy insondagi bilishga bo'lgan ehtiyoj, qiziqish ahloq, madaniyat ikki yo'l bilan, ya'ni talim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi, talim degan so'z xalqlar va shaharliklar o'rtasida tugma fazilat va amaliy kasb hunar fazilatlarini birlashtirish degan so'z dur. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan o'rganishdir yani shu xalq, millatning amaliy malakalaridan iborat

bo'lgan ish harakatga kasb hunarga qiziqsalar shu qiziqish ularni butunlay o'z davlatlari uchun mehr uyg'otadi maqsadni amalga oshirishda jaht va gayrat mo'ljallangan ishni bajarishda zor ta'sirga ega nazariy bilimlarning yo ustozlar yo hikmatlar o'rgatadilar deydi. Ilm-fan, intellektual izlanish ijodiy faoliyat turlari hisoblanadi. Ular o'zining satsional funktsiyalariga ega. Bu funktsiyadan biri tabiiy va ijtimoiy sharoitlariga moslanuvchanlikdir. Tabiiy va ijtimoiy sharoitlar kishilarning izlanishga kashfiyotlariga, yangi yangi vositalarini, usullarini yaratishga, faoliyat doiralarini qiziqishlarini kengaytirishga undagan. Tabiiy va ijtimoiy sharoitlarni kishi tayyor holda topadi. Tayyor shart sharoitdan qo'rqmaslik ularni mukammallashtirish istagi, samarali ishlash usullarini topishga qiziqishi, ehtiyoji kishilardan, Farobiy iborasini ishlatganda, jahd va g'ayratni talab etgan b davr ruhoni holatlarga talim va tarbiya qo'shilgan, natijada ilmiy izlanish ayrim kishilar ammalarga aylangan. XX asr ilm-fan texnika va texnologiya intellektual izlanish ayrim kishilarga xos faoliyat turi sifatida yashab keladi. Jamiyatning demokratlashuvi axborot texnologiyalarining keng yoyilishi mazkur faoliyat turi sifatida yashab keladi.[4]

Talim-tarbiya, ilm-fan, maorifni qanchalik muhim va zarur bo'lmasin ular har doim ham kutilgan, ijobiy natijalarga olib kelavermaydi. Ha, shaxsni shakllantirishda bu omillar muhim lekin ularga hamma muammolarni hal etadi, "qodiri mutlaq" deb qarash mumkin emas. Maxsus sotsiologik tadqiqotlar ko'rsatdiki, kishilarning ko'pchiligi agar qayta yashash imkoni bo'lganida, hozirgi svilizatsiya, taraqqiyot orzu, xayol bo'lgan davrda yashashni istashadi. Vaholanki, ideologiya, talim tarbiya, ilm fan otmishni ideallashtirmagan, bu holda kishilardan otmishni ideallashtirmagan, bu holda kishilarda otmishni ideallashtirish qayerdan paydo bo'lgan ekan?

Respondentlar borini emas, xayolida, orzusidagiday borini ezozlashga tayyor ekan, globallashuv muommosini g'arb tajribasi misolida o'rgangan A. A. Zinovyev yozadi:XX asr kishilar kelajakka umid qilgan oxirgi asr bo'ldi. Undan keyin kelajak keldi, kishilar unga bo'lgan Umiddan ayrildilar". [5]

Xulosa

Globalashuv jarayonida ta'lim va tarbiya jamiyatning barqaror rivojlanishi va madaniy merosning saqlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Bu davrda ta'limning asosiy vazifasi yosh avlodni zamonaviy texnologiyalar, fan-texnika yutuqlari va axborot oqimidan samarali foydalanishga o'rgatishdan iborat. Tarbiya esa shaxsda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish, vatanparvarlik, ijtimoiy mas'uliyat va ma'naviy barkamollikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Globalashuv nafaqat imkoniyatlar, balki xavf-xatarlarni ham keltirib chiqaradi. Bu sharoitda milliy o'ziga xoslikni saqlash, axloqiy me'yorlarga rioya qilish va ma'naviy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish tarbiya jarayonining muhim maqsadiga aylanadi. Shuningdek, ta'lim jarayonida raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash, muloqot madaniyati va ko'nikmalarni rivojlantirishga e'tibor qaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, globalashuv sharoitida ta'lim va tarbiya jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish, inson kapitalini rivojlantirish hamda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni himoya qilishning asosiy omilidir. Shu bois, davlatlar ta'lim va tarbiya tizimini modernizatsiya qilishga, milliy va umumbashariy manfaatlarni uyg'unlashtirishga katta e'tibor qaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M.S Xadjiyeva. Globalashuv asoslari o'quv qo'llanma. Samarqand -2023 yil.
2. momova, M. (2020). "Globalashuv davrida ta'lim va tarbiya masalalari" — Milliy va global ta'limning o'zaro ta'siri haqida.
3. Nishonov, Sh. (2018). "Ta'lim jarayonlarida innovatsiyalar" — Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va globalashuvdagi roli.
4. Ismoilov, Q. (2021). "Tarbiya nazariyasi va metodikasi" — Tarbiya usullarini globalashuv davrida zamonaviylashtirish haqida.
5. Shodmonov, A. (2021). "Milliy ta'lim tizimida globalashuvning o'rni va ahamiyati" — Globalashuv jarayonida milliy ta'limning o'zgarishi.

BADIIY TA'LIM AN'ANALARINI O'RGANISHDA AMALIY SAN'AT TURLARINING TARIXI VA RIVOJLANISHDAGI O'RNI

Abdumannopova Sadbarxon Abdulvohid qizi

Namangan davlat pedagogika instituti Tasviriy san'at ixtisosligi 1-kurs magistranti

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada badiiy amaliy san'atining rivojlanish tarixi, insonlar hayotidagi o'rni va estetik dunyo qarashining shakllanishiga ta'siri, xalq amaliy san'atining dunyo xalqlari san'ati bilan taqqoslanishi, hozirgi zamon muammosi va uning ko'p qirraliligi va murakkabligi muhim omil sifatida qaralishi haqida ma'lumotlar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** amaliy bezak san'ati, naqqoshlik, gilamdo'zlik, gobelen, kashtachilik, etnografiya, ijodkorlik, bashariyat,*

KIRISH

O'zbek amaliy san'ati insoniyat madaniyatida o'ziga xos muhim o'rinni egallaydi. O'zbek xalq amaliy san'ati ustalari yaratgan yuksak san'at namunalari turli-tuman o'yma, to'qima naqshinkor buyumlar o'tmishda ham, hozir ham dunyoga mashhur bo'lib, jahonning turli shaharlaridagi amaliy san'at va etnografiya muzeylarida namoyish etilmoqda. Bularning hammasi biz- hozirgi avlodlar uchun benihoya huzurbaxsh faxr manbaidir. Rassom, haykaltarosh, me'mor, kulol, bastakor, yozuvchi va boshqa ijodkorlar yaratgan asarlarni esa, shubhasiz, san'at asari deymiz. San'at qaysi ko'rinishda bo'lmasin kishilarning his-tuyg'usiga, ruhiyatiga ta'sir etuvchi ma'naviy go'zallik, ezgulik sifatida namoyon bo'ladi. Har bir ijodkor o'zgacha izlanadi, o'zgacha mehnat qiladi. Ana shuning uchun ham san'atning o'ziga xos turlari mavjud. Xalq amaliy san'ati ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, misgarlik, kashtachilik, gilamdo'zlik, zargarlik, zardo'zlik, kulolchilik, naqqoshlik kabi bir qancha turlarga ajraladi. Bu san'at turlarining barchasi o'zining uzoq tarixi va istiqboliga ega. Har bir xalq, millat jahon san'atining ravnaqiga qaysidir darajada o'z ulushini qo'shib kelgan. Yangi-yangi ijodiy izlanishlar evaziga san'at namunalari vujudga kelgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Xalqlar, millatlar, shuningdek, davrlar san'ati bir-biriga qo'shilib borib rivojlanadi, o'zgacha namunalarini yuzaga keltiradi. Shuning uchun ham san'atda yangicha oqimlar, yo'nalishlar, uslublar shakllanmoqda. Madaniyat taraqqiyoti

natijasida, xalqlar o'rtasidagi madaniy, ma'naviy aloqalar rivojlanib borar ekan, san'atga bo'lgan talab kundan-kunga oshib bormoqda. O'z-o'zidan ma'lumki, umumiy ma'naviyat oshgan sari san'atga bo'lgan iste'mol qilish hissi kuchayadi. Bu borada oddiy bir misol sifatida bozorlar va savdo do'konlaridagi narsa va buyumlarni qanchalik rang-barang tasvirlar bilan bezatilishini bir ko'z oldimizga keltiraylik. Xalq amaliy san'ati har bir xalqda mavjud bo'lib, ular bir-biridan yuqorida qayd qilinganidek, amaliy san'atning janrlari, buyumlar tayyorlashda qo'llanadigan material, shakl, tuzilish, rang, bezak, o'lchovlar jihatidan bir-biridan farq qiladi

Amaliy san'atning yana bir muhim xarakterli belgilaridan biri yillar davomida xalq ustalari ijodida qo'llanib kelingan badiiy an'analar hisoblanadi. Bu xususiyat ko'proq har bir xalqning yashayotgan muhit, tabiat, iqlim sharoitlariga bog'liqdir. Chunki amaliy san'at ustasi o'z asarini yaratayotganda, go'zallikni tevarak-atrofdan, tabiatdan oladi. Masalan, o'zbek xalq ustalari o'z ishlarida toychoq, qo'zichoq, tovus tasvirlarini, shimoliy o'lkalarning ustalari bug'u, kiyik tasvirlarini ishlaydilar. Asar materialiga esa o'zbek ustalari ganch, loy, mis kabilarni, shimoliy xalqlar yog'och va hayvon suyaklarini ko'proq qo'llaydilar. Yuqorida qayd qilganimizdek, asar koloritiga iqlim ham ta'sir ko'rsatadi. Shimoliy o'lkalar iqlimi sovuq bo'lgani uchun u yerdagi ustalar ko'proq sovuq ranglarni, issiq iqlimli O'zbekiston ustalari esa iliq ranglarni ishlatadilar. Shunday qilib, har bir xalqning amaliy san'atida o'z an'analari shakllanadi. Respublikamizda san'atning keng tarqalgan turlaridan biri – gilamchilik va gobelendir. Bu san'at asarlari hayotda ishlatiladigan buyumlar – idish-tovoq, kiyim-kechak, uy jihozlari, o'yinchoqlar va boshqa shu kabilarni o'z ichiga oladi. Amaliy bezak san'ati asarlari odamlarning kundalik turmush ehtiyojlarini qondirish, tevarak-atrofga, bog'rog'lar, uylarning tashqi va ichki ko'rinishiga go'zallik kiritishga xizmat qiladi. Bu san'at dastgoh san'atidan o'zining bevosita xalq ehtiyojlariga moslanganligi bilan farq qiladi va inson hayotida ishlatiladigan buyumlarning mazmuni bilan bog'lanadi. Amaliy san'atda hayotdagi mavjud narsalar (masalan, daraxtlar, gullar, qushlar, hayotiy lavhalar va h.k.) aks etadi. Lekin ular mustaqil xususiyatga ega bo'lmasdan, ma'lum bir buyum mazmuni va shakli bilan bog'lanib, uni bezashga

xizmat qiladi. Amaliy san'at buyumlari birmuncha erkin – ijodkor tafakkuri mahsuli sifatida yaratiladi va u tevarak-atrofga fayz kiritishga qaratilgan bo'ladi. Masalan, jimjimador ustun, eshik, darvozalar, devorlarning tashqi va ichki tomonlariga ishlanadigan rangli naqsh va bo'rtma tasvirlarni bunga misol qilib ko'rsatish mumkin. Amaliy san'at juda qadim zamonda shakllangan bo'lib, xalq hunarmandchiligi tarzida rivojlanib, san'atning asrlar davomida rivoj topgan va barhayot turi bo'lib kelgan. Bularning hammasi tasviriy san'at vakillarining mehnat va ijodiy ishlari natijasidir. Haqiqatdan ham, rassomlar mehnatiga har kuni, har qadamda duch kelamiz. Ammo bu ijodkorlar faoliyatining ko'p jihatlari haqida deyarli ko'pchilik yaxshi bilmaydi ham. Asrlar mobaynida yig'ilgan gilamchilik ishlarining nihoyatda boyligi, ranglar uyg'unligiga erishish mahorati, tasvirlarni ishlashdagi texnik usullari xalq ustalari tomonidan avaylab, e'zozlab saqlanib shu kungacha yetib keldi. Bu gilamlar nafaqat Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklari saroylarida, balki uncha katta bo'lmagan mahalla masjidлари, qishloq choyxonalari, mahalla guzarlari, ijtimoiy markazlar, shuningdek mehmonxonalarni ham bezagan. Shunday qilib, naqshlar O'zbekistonda yashovchi aholining kundalik turmushiga bayramona bir kayfiyat baxsh etgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbek ustalarining yaratgan asarlari zamirida olamni uning butun nafosati bilan chuqur his etish, inson ichki dunyosini bilish va xalqning serqirra iste'dodi samaralaridan bahramand bo'lish g'oyalari yotadi. Chinakam san'at ustasi bo'lgan odamgina mana shunday asarlar yaratishi va shunday asarlargina yangi-yangi san'at ustalarini tarbiyalashi mumkin. O'zbek xalqi ikki ming yil davomida amaliy san'atning shunday ajoyib namunalarini yaratgan va yaratmoqdaki, ular o'zlarining yuksak badiiy mahorat va nazokat bilan ijro etishlari bilan bugungi kunda ham kishilarni hayratga solmoqda. Ko'p yillik tajribalar, o'lmas iste'dod va xalq tafakkuri bilan yo'g'rilgan har bir chinakam san'at asari ranglar sehr-jodusi bilan qalbimizga ilhom bag'ishlab, ma'naviy dunyomizni yanada boyitadi. San'at asrlar davomida insoniyatni o'ziga ohangrabodek jalb qilib kelgan. U insonlarning quvonchi va kulfatida eng yaqin do'st, maslahatgo'y bo'lgan. Amaliy san'at turlari

o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra bir-biridan farq qilsa-da, lekin ro'zg'orda qo'llanilishiga ko'ra o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini to'ldiradi.

Xalq amaliy san'ati insoniyatning har jihatdan mukammal, erkin va go'zal jamiyat sari yo'lida unga sadoqat bilan xizmat qilib, unga hamohang tarzda o'zi ham rivoj topgan. Inson ongi, ma'naviy-badiiy didi, ehtiyojlari o'sib, turmushi faollashib borgani sari uning ma'naviy talablarini qondirishi lozim bo'lgan xalq amaliy san'ati ham, uning mazmuni, badiiy ifoda vositalari ham boyib, behisob badiiy uslublar, oqimlar, turlar maydonga kelgan va rivojlangan. Yaqin o'tmishda o'zbek amaliy san'atining eng rivojlangan ganchkorlik, naqqoshlik, yog'och, suyak va tosh o'ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, zargarlik, kashtachilik, zardo'zlik, gilamchilik, kigizchilik, savatchilik, bo'yrachilik kabi turlarining o'ziga hos bajarish texnologiyalari, haqiqiy milliy nomlari, ularga hos atamalari, o'ziga hos maktablari, uslublar hamda shu sohalarda nom qozongan ustalarning xizmatlari unutila borib, alal oqibat yo'q bo'lib ketish havfi ostida qolgan edi. Bunday holat hozirgi kunda san'atkorlar, xalq ustalari, muallimlar va san'at xavaskorlari oldiga amaliy bezak san'atini saqlab qolish, ularni har tomonlama o'rganish va rivojlantirish yosh avlodga san'at sir-asrorlarini o'rgatish orqali o'rinbosarlar tayyorlash, san'at asarlarini keng targ'ib qilish orqali jamoatchilikning estetik didini, madaniy darajasini yanada yuqori bosqichga ko'tarishga erishish vazifalarini qo'yadi. Madaniyat taraqqiyoti natijasida, xalqlar o'rtasidagi ma'naviy aloqalar rivojlanib borar ekan, san'atga bo'lgan talab kundan-kunga oshib boraveradi. O'z-o'zidan ma'lumki, umumiy ma'naviyat oshgan sari san'atga bo'lgan iste'mol qilish hissi kuchayadi. Bu borada oddiy bir misol sifatida bozorlar va savdo do'konlaridagi narsa va buyumlarni qanchalik rang-barang tasvirlar bilan bezatilishini bir ko'z oldimizga keltiraylik. Xalq amaliy bezak san'ati har bir xalqda mavjud bo'lib, ular bir-biridan yuqorida qayd qilinganidek, amaliy san'atning janrlari, buyumlar tayyorlashda qo'llanadigan material, shakl, tuzilish, rang, bezak, o'lchovlar jihatidan bir-biridan farq qiladi. Shunday qilib, har bir xalqning amaliy bezak san'atida o'z an'analari shakllanadi.

XULOSA

Shunday qilib, insonlarning kundalik turmush tarzida keng qo'llaniladigan barcha narsa va buyumlarning nafis va go'zal bo'lishiga odamlar qanchalik intilayotganligini o'zi bu mavzuning zaruriyatiga yetarli dalildir. Tasviriy san'at borasidagi nazariy bilimlarni ilmiy pedagogik jihatdan talqin etish masalasiga san'at tushunchasining o'zini tahlil qilish orqali yondashish maqsadga muvofiqdir. Odamlar tomonidan biror-bir ish, narsa, buyum va hokazolarning mohirlik bilan bajarilishi va maromiga yetishi inson mehnatining san'atkorona bajarilganligini bildiradi. Demak, pedagogning ham o'z mehnatini puxta, chiroyli, kam-ko'stsiz bajarishi san'atkorlik namunasi bo'lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO`YHATI

1. Bulatov S.S. Naqqoshlik. – Toshkent: –Fan va texnologiya, 2010.
2. Bulatov S.S. Amaliy bezak san'ati mashg'ulotlari metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2008.
3. Bulatov S.S. Ashurova M.O. Amaliy san'at qisqacha lug'ati. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1992.
4. Bulatov S.S, Tolipov T «Go'zallik falsafasi». -T., «Fan va texnologiya». 2008.
5. Xolmatov B.Q. Naqqoshlik. – T.: Iqtisod-moliya, 2007.
6. G'ulomov K. Ashyolarga badiiy ishlov berish. – T.: Bilim, 2004.
7. Zohidova D. Hunarmandchilikka kirish. -T.: UMKXTRI. 2001.

PEDAGOGIK ETIKAGA OID ASOSIY TAMOYILLARNING TAHLILI

Zaynobidinova Naima Inomidinova

Namangan davlat pedagogika instituti

f.f.n.,katta o'qituvchi

Sayfullayeva Madina Baxodir qizi

NamDPI Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(boshlang'ich ta'lim)1-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'qituvchi va o'quvchilarning ta'lim-tarbiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlari, pedagogik etika tamoyillari, sharq allomalarining o'z asarlaridagi qarashlari va ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: etika, Avesto, tafakkur, pedagogik etika, amaliy faoliyat, pandnoma, insonparvarlik, halollik, ma'naviy-axloqiy fazilat, tamoyil.

Аннотация: В данной статье освещены национальные и общечеловеческие ценности педагогов и учащихся в образовательном процессе принципы педагогической этики взгляды и значение работ восточных ученых

Ключевые слова: Этика, Авеста, мышлены, педагогическая этика, практическая деятельность, гуманизм, честность, принцип.

Annotation: In this article, the national and universal values of teachers and students in the educational process, the principles of pedagogical ethics, the views and importance of the works of Eastern scholars are highlighted.

Keywords: ethics, Avesto, thought, pedagogic ethics, practical activity, humanitarian, probity, principle, moral calibre.

Yangi O'zbekiston islohotlarining mustahkam huquqiy poydevori bo'lgan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz hamda davlatimiz rahbarining tegishli farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston-2030" strategiyasida pedagog maqomini yuksaltirish vazifasi alohida qayd qilingan. Ushbu masala shunchaki qog'ozni bezagan chiroyli orzu-istak ifodasi emas, balki qat'iy hayotiy maqsad ekani izchil islohotlar davomida kundan kunga yanada yaqqolroq namoyon bo'lib boryapti. Prezidentimiz tomonidan imzolangan "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi qonunni fikrimizning tarixiy tasdig'i deyish mumkin. 21 moddadan iborat mazkur qonun bilan yurtimizdagi 700 mingga yaqin pedagogning huquqlari, majburiyatlari hamda faoliyatining asosiy kafolatlari belgilanadi. Qonunda pedagog xodim faoliyatining kafolatlari sifatida uning huquqlari, qadr-qimmat va ishchanlik obro'si davlat himoyasida bo'lishi ko'rsatib o'tilgan. Aynan ushbu qonunning 1-moddasida "Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining pedagogning maqomi to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi". Pedagoglar

uchun hukumat tomonidan turli chora- tadbirlar amalga oshirilayotgan bir paytda pedagoglar ham o'z fidokorliklari bilan isbotlashlari kerak. Aynan pedagogik etikaga alohida e'tibor qaratishlari talab etiladi.

Etika axloqshunoslikning falsafiy-nazariy muammolarini va axloqqa doir didaktik-amaliy asarlarni o'z ichiga oladi. U insoniyat o'z tajribasi orqali erishgan donishmandlik namunalarini hikoyatlar, hikmatlar, naqlar, maqollar tarzida bayon etadi, kishilarga axloqning mohiyatini tushuntirib, falsafiy xulosalar chiqaradi, ularga axloqiy qonun-qoidalarga o'rgatadi. Etika o'zining nazariy va ayniqsa, amaliy jihatlari bilan pedagogika fanining asosi hisoblanadi. Ta'lim tizimidagi ta'lim-tarbiya o'zini har qadamda axloqiy tarbiya sifatida namoyon qiladi. Shuningdek, etika psixologiya, sotsologiya, siyosatshunoslik, ekologiya kabi qator fanlar bilan ham mustahkam aloqador, ular muammolarini hal qilishda axloqiy nuqtai nazar, axloqshunoslik nazariyalari muhim ahamiyatga ega. Etikaga oid dastlabki tushunchalar shumerliklarning "Me" qonunlar majmuida uchraydi. Undagi "namlul" tushunchasi insonparvarlik, ezgulik ma'nolarini anglatgan. O'zbek milliy etikasi boshqa falsafiy fanlar kabi mintaqaviy tabiatga ega bo'lib, uning ildizlari Avestoga borib taqaladi. Avestoda ilgari surilgan 3 fazilat- ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal yaxlitligidan iborat axloqiy g'oya barcha davrlar o'zbek etikasi uchun umumiy tadqiqiy asos bo'lib keldi. Tasavvufiy etikada mazkur yaxlitlik 4 fazilat yaxlitligi (ezgu fikr, ezgu so', ezgu amal va ma'rifat) shaklida namoyon bo'ldi. O'rta asrlar o'zbek etikasida nazariy fikrlar bilan pandnoma usulidagi hikoyatlar omuxtaligi bilan ko'zga tashlanadi. Bu jihatdan temuriylar davridagi pandnomalar, ayniqsa, Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asari noyob hisoblanadi. Keyingi davrlardagi eng e'tiborli pandnoma Gulxaniyning "Zarbulmasal" asaridir. Pedagogik etika nafaqat o'qituvchining kasbiy faoliyatida muhim, balki tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Hozirgi davrda o'quvchilar ta'lim-tarbiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, axloqiy normalarni o'zlashtiradilar. O'quvchi eng yaxshi insoniy fazilatlarini, axloq-odobni, muloqot madaniyatini asosan o'qituvchi timsolida anglab olishini unutmash kerak. O'quvchilar jamoasida o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatlar insonparvarlik tamoyillariga asoslanadi. Ular ikki xil bo'lib biri rasmiy, ikkinchisi

esa norasmiy muomala hisoblanadi. Rasmiy muomala munosabatlari O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari, direktiv hujjatlariga asoslanadi. Norasmiy muomala pedagogik etika va estetikaning qonuniyatlariga va o‘qituvchi odobiga asoslanadi va jamoaning har bir a‘zosi tomonidan ixtiyoriy ravishda bajariladi. Muloqot odobi psixologik qonuniyatlar odob normalari va qoidalari, talablari hamda o‘qituvchilar jamoasining fikri asosida boshqariladi

“Kasb etikasi” fani bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik odob-axloqini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u nafaqat kasbiy-pedagogik etikaning nazariy asoslarini o‘rganishni, balki tegishli me‘yoriy hujjatlarni tahlil qilishni ham o‘z ichiga oladi. Pedagogik etika bu o‘qituvchilarning o‘z ishida odob-axloq va axloqiy normalarga rioya qilishga doir tamoyillarni o‘rgatadigan soha. Pedagogik etika asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

Insoniylik tamoyili –o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi munosabatlar inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilishga asoslanishi kerak. O‘qituvchi talabaning shaxsiy xususiyatlarini va ehtiyojlarini inobatga olib, ularni rivojlantirishga intilishi lozim. Insoniylik tamoyilining asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

- Hurmat va qadrlash-o‘qituvchi har bir o‘quvchini o‘z shaxsiyati, qadriyatini hurmat qilish
- O‘quvchilarning fikrlari va nuqtai nazarlarini tinglash va ularni qadrlash
- Baholash va rag‘batlantirishda adolatni ta‘minlash

Bundan tashqari sharq mutafakkirlari insonni oliy qadriyat deb bilganlar va ta‘lim-tarbiya jarayonida insonparvarlikni asos qilib olganlar. Alisher Navoiy ta‘lim-tarbiya berishda mehr-shafqat, sabr va halollikni muhim deb hisoblagan. Abu Nasr Forobiy esa axloqiy tarbiyani jismoniy va aqliy tarbiya bilan uyg‘un holda olib borish zarurligini ta‘kidlagan

Adolat tamoyili tamoyili- o‘qituvchi barcha talabalarga teng munosabatda bo‘lishi hech kimni kamsitmasligi kerak . Har bir talabaning individual qobiliyatlarini va ehtiyojlariga qarab yondashuvlarni ishlab chiqishi zarur. Bu tamoyilga sharq mutafakkirlarining qarashlari ham mavjud,ular o‘qituvchi va

o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarda adolatni muhim mezon sifatida ko'rsatganlar. Forobiy adolatni jamiyatning muhim asosi deb bilgan va uni ta'lim jarayonida qo'llashni tavsiya qilgan. Bu o'quvchilar orasida teng munosabatni ta'minlash, ularga nisbatan kamsitish va nohaqlikka yo'l qo'ymaslikni nazarda tutadi. Allomalarimiz ta'lim-tarbiya jarayonida nafaqat ilmiy bilimlar, balki axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishni ham muhim deb bilganlar. Ularning pedagogik etikasi bugungi kunda ham dolzarb bo'lib, ta'lim jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan boy merosni ifodalaydi.

Xushmuomalalik va hurmat tamoyili - o'qituvchi va talabaning bir-biriga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishi kerak. Xushmuomalalik va o'zaro hurmat jamiyatdagi madaniyatni rivojlantiradi va ta'lim muhitini sog'lom qiladi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samarali muloqot va tarbiya jarayonining asosiy tamoyillaridan biridir. Ushbu tamoyil nafaqat ta'lim jarayonini yuqori darajada tashkil qilish, balki insonlararo munosabatlarni uyg'unlashtirishda muhim o'rin tutadi. Xushmuomalalik tamoyili pedagogik jarayonda:

- O'qituvchining suhbatdagi samimiyati- o'quvchilarga nisbatan iliq va ochiq muloqot yuritish
- Teng muomala qilish- har bir o'quvchiga hurmat bilan yondashish, ularning fikrlari va his-tuyg'ularini hisobga olish
- Pozitiv yondashuv –intizomiy masalalarda ham mehr va tushunishni saqlab qolish

Hurmat tamoyili-hurmat insonning shaxsiy qadriyatlarini e'tirof etish va uning or-nomusiga putur yetkazmaslikni nazarda tutadi. Pedagogik etikada bu tamoyil :

- Shaxsiy fazilatlarni qadrlash –har bir o'quvchining qobiliyatlari va shaxsiy xususiyatlariga mos ravishda yondashish
- O'quvchilar fikrini tinglash- ularning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va baholashda halollikni ta'minlash
- Haqorat va kamsitishni rad etish nafaqat muloqotda, balki tarbiyaviy jarayonning barcha bosqichlarida hurmatga asoslangan muhitni yaratish.

Mazkur tamoyillarni pedagogik faoliyatga to'liq tatbiq etish orqali nafaqat bilimlarni samarali uzatish, balki sog'lom va ma'naviy yuksak avlodni tarbiyalashga erishiladi. Har bir pedagogik jarayonni amalda qo'llayotganda juda ehtiyot bo'lish talab etiladi. O'qituvchi o'zining xulq-atvori orqali barcha tarbiyalanuvchilarga o'rnak bo'ladi, shuning uchun har bir muammoli vaziyatni xushmuomalalik bilan bartaraf etish kerak.

Mas'uliyat tamoyili – pedagogik faoliyatni mas'uliyat muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi o'z ishiga va talabalariga nisbatan mas'uliyatni to'liq tushunishi va bu mas'uliyatni bajarishda adolatli bo'lishi kerak

Xolislik tamoyili-har qanday qaror qabul qilinganda qaror qabul qiluvchi ma'lumotlarni xolislik bilan tahlil qilinmasa, uning chiqargan qarorida bir yoqlamalik, qarorni ma'lum tomonlarga burish hodisasi kuzatiladi. Xolislik bilan chiqarilgan qarorda hech bir tomonning manfaatlari alohida qaralmaydi va qaror his-tuyg'ularga berilmasdan chiqariladi

- Ta'lim jarayonining doimiy rivoji tamoyili-bu pedagogik jarayonda o'qituvchi va o'quvchilar o'zaro hamkorlikda bilim, ko'nikma va madaniyatni doimiy takomillashtirishga qaratilgan tamoyildir. Bu tamoyil o'qituvchining kasbiy mahorati, tarbiya va ta'lim jarayonidagi yangiliklarni o'zlashtirishga intilishi hamda o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratishni o'z ichiga oladi. tamoyilning asosiy jihatlari

- Ta'lim mazmunining yangilanishi- ta'lim jarayoni jamiyatning ehtiyojlariga mos ravishda doimiy yangilanib borishi kerak. O'qituvchi o'quv dasturlari va dars uslubiyatida zamonaviy yondashuvlarni qo'llashi zarur

- Pedagogning doimiy o'zini rivojlantirishi– o'qituvchi o'z malakasini oshirib, ilmiy va metodik bilimlarini kengaytirib borishi kerak. Bu orqali u o'quvchilarning ehtiyojlariga mos keladigan ta'limni tashkil etadi.

Ushbu tamoyil pedagogik etikada jamiyatning ma'naviy va ilmiy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan uzviylik va uzluksizlikni ta'minlashga yordam beradi. Pedagogikadagi shaxsni shakllantirish, tarbiyalash, ta'lim berish jarayonlarini pand-nasihatlarsiz, tarbiya darslarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu bois etika o'zining nazariy va amaliy jihatlari bilan pedagogikaning asosi

hisoblanadi. Amaliy etikaning yana bir muhim jihati bilim, ilm malaka, iste'dod va qobiliyat bo'lib, ular ham muayyan axloqiy kamolot zaminida shakllanadi. Ba'zi bir qarashlarga ko'ra, axloqning fanga aloqasi yo'q. Bunday qarashlarni to'g'ri deb bo'lmaydi. Chunki etika predmeti, tadqiqod doirasi, qonuniyatlari, kategoriyalari va tamoyillari unga fan maqomini berish uchun daxl qilmaydi. Ma'naviy- axloqiy fazilatlarga ega bo'lmagan kishilar ilm-fanni o'rganishga ham, halol mehnat qilishga ham rag'bat qilmaydilar. Shu sababli jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida avvalo o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalab, ularga ta'lim berish davlatning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. O'zbek milliy ta'limshunosligidagi ta'lim-tarbiya ishlari tizimida ham axloq-odob tarbiyasi ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan.

Ma'rifatparvar alloma Abdulla Avloniy fikricha: Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. "Ilm inson uchun g'oyat muqaddas bir fazilatdur, zero ki ilm bizga o'z ahvolimizni harakatimizni oyna kabi ko'rsatur, zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilur, ilmsiz odam mevasiz daraxt kabidur". Alloma limning nazariy ahamiyatning ko'rsatibgina qolmasdan, balki amaliy faoliyat uchun hayotiy zaruriyat ekanligini ham ta'kidlab o'tadi. Jumladan " Ilm bizni jaholat qorong'usidan qutqarur, madaniyat ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzuq ishlardan qaytarur , yaxshi xulq odob sohibi qilur. Butun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz ,sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog'liqdur." .

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ham shunday deydi: "Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi—bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi",—degan g'oyatda o'rinli fikrlarni bildiradi. Shunday ekan bilim, ilm, iste'dod, tajriba asosida shakllangan ma'naviyat inson faoliyatiga o'ziga xos yo'nalish imkoniyat beradi. Insonning har qanday mehnat jarayonida erishgan malakasi, kasbi, inson miyasida chuqurroq o'rin olgan tushunchalari amaliy etikaning meyorlari orqali tarbiyalash bilan erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.L.Muhammadjonova, F.Abidjonova .Etiket. O'quv qo'llanma. T.:Universitet. O'zMU,2018

2. Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyaning axloqiy asoslari .T.: Universitet O'zMU 2013
3. Xoliqov.A., Pedagogik mahorat. Darslik. -T.: Iqtisod-moliya 2009
4. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik.-T.: Sano STANDART
5. A. Avloniy. Tanlangan asarlar. Tomlik. 2T., Ma'naviyat. 1994
6. I. A. Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch., Ma'naviyat, 2008
7. www.tdpu.uz
8. www.ziyo.edu.uz
9. www.ziyonet.uz
10. <https://rimal.uz.wikipedia.org/wiki/Etika>

TA'LIM TIZIMIDA MILLIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Ismoilov Temurbek Islomovich

Namangan davlat pedagogika instituti

"Pedagogika va psixologiya" kafedrasida professori

Mirzaraximova Zilola Mirzohid qizi

zilolamirzaraximova1@gmail.com

Namangan davlat pedagogika instituti

Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi 1- bosqich magistranti

***Annotatsiya:** Ushbu maqola ta'lim tizimida milliy madaniyatni shakllantirishning o'рни va ahamiyatini o'rganishga qaratilgan. Milliy madaniyatni shakllantirish – ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Bu nazariy asoslar, o'quvchilarda milliy madaniyatni, qadriyatlarini, an'analarni va tilni rivojlantirishga yordam beruvchi pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqadi. Milliy madaniyatni ta'lim tizimiga joriy qilish orqali yosh avlodning o'z vataniga bo'lgan hurmatini va bog'liqligini oshirish, ularni o'z madaniyatini va tarixini qadrlashga undash muhimdir. Shu bilan birga, milliy madaniyatni global darajada tan olish*

va o'rganish, ta'limni boyitish va ko'p madaniyatli jamiyatda erkin fikrlashni rivojlantirish imkonini yaratadi. Nazariy asoslar, o'zgaruvchan ijtimoiy va madaniy sharoitlarda ta'lim tizimini milliy madaniyatini shakllantirishdagi muhim rolini ko'rsatadi. Milliy madaniyatni shakllantirish jarayonida ta'lim tizimi, o'quv dasturlari, pedagogik usullar va o'qituvchilarning roli muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayon nafaqat milliy indentifikatsiyani mustahkamlash, balki jamiyatda tenglik, hurmat va o'zaro o'zaro anglashuvni rivojlantirishga ham yordam beradi. Ta'lim tizimi jamiyatni shakllantiruvchi, uning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi va madaniy merosni avlodlarga yetkazuvchi muhim institutdir. O'zbekistonda ta'lim tizimi milliy madaniyatni shakllantirishda, xalqning tarixiy va madaniy qadriyatlarini o'quvchilarga yetkazishda muhim rol o'ynaydi. Milliy madaniyatning shakllanishi nafaqat til, san'at, adabiyot kabi sohalarda, balki shaxsiyat va dunyoqarashning shakllanishida ham o'z ifodasini topadi. Ushbu maqolada ta'lim tizimida milliy madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: *madaniyat, ta'lim, milliy madaniyat, ta'lim tizimi, metodlar, tarix, san'at, milliy qadriyatlar, an'analar, milliy ong, aktiv metodlar, intefaol metodlar, milliy indentifikatsiya, Integratsion yondashuv, madaniy meros, madaniy qadriyatlar*

Аннотация: *Данная статья направлена на изучение роли и значения формирования национальной культуры в системе образования. Формирование национальной культуры – одна из важнейших задач системы образования. Он разрабатывает теоретические основы, педагогические подходы, способствующие развитию у учащихся национальной культуры, ценностей, традиций и языка. Внедряя национальную культуру в систему образования, важно повышать уважение и привязанность подрастающего поколения к своей родине, побуждать их ценить свою культуру и историю. В то же время это создает возможности для признания и изучения национальной культуры на глобальном уровне, обогащения образования и развития свободного мышления в мультикультурном обществе. Теоретические основы указывают на важную роль системы образования в формировании национальной*

культуры в меняющихся социальных и культурных условиях. В процессе формирования национальной культуры важную роль играет система образования, учебные программы, педагогические методы и роль педагогов. Этот процесс способствует не только укреплению национальной идентичности, но и развитию равенства, уважения и взаимопонимания в обществе. Система образования является важным институтом, формирующим общество, влияющим на его развитие и передающим культурное наследие поколениям. Система образования в Узбекистане играет важную роль в формировании национальной культуры, доведении до учащихся исторических и культурных ценностей народа. Формирование национальной культуры находит свое выражение не только в таких областях, как язык, искусство, литература, но и в формировании личности и мировоззрения. В данной статье будут рассмотрены теоретические основы формирования национальной культуры в системе образования.

Ключевые слова: *культура, образование, национальная культура, система образования, методы, история, искусство, национальные ценности, традиции, национальное сознание, активные методы, интерактивные методы, национальная идентичность, интеграционный подход, культурное наследие, культурные ценности.*

Annotation: *This article is aimed at studying the role and significance of the formation of national culture in the educational system. The formation of a national culture is one of the most important tasks of the educational system. It develops theoretical foundations, pedagogical approaches that help students develop national culture, values, traditions and language. By introducing national culture into the educational system, it is important to increase the respect and dependence of the younger generation on their homeland, to encourage them to appreciate their culture and history. At the same time, it makes it possible to recognize and learn national culture at a global level, enrich education and develop free thinking in a multicultural society. Theoretical foundations indicate an important role in the formation of national culture of the educational system in changing social and cultural conditions. In the process of forming a national culture, the educational*

system, educational programs, pedagogical methods and the role of teachers are important. This process will not only strengthen national identification, but also promote equality, respect and mutual understanding in society. The educational system is an important institution that shapes society, influences its development and conveys cultural heritage to generations. The educational system in Uzbekistan plays an important role in the formation of national culture, in communicating the historical and cultural values of the people to students. The formation of national culture is expressed not only in such areas as language, art, literature, but also in the formation of personality and worldview. This article will consider the theoretical foundations of the formation of national culture in the educational system.

Keywords: *culture, education, national culture, educational system, methods, history, art, national values, traditions, national consciousness, active methods, intefaoal methods, national indentionality, integrative approach, cultural heritage, cultural values.*

Kirish. Hozirgi kunda ta'lim tizimida milliy madaniyatni shakllantirish juda ham muhim hisoblandi. Har bir xalq o'zining milliy madaniyatiga ega. Bugungi kundagi bizning asosiy vazifalarimizdan biri yoshlarimiz ongiga milliy madaniyatni singdirishdir. Milliy madaniyat – bu o'z xalqining tarixiy, milliy, diniy va madaniy qadriyatlari, an'analarini o'z ichiga olgan, ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatadigan tizimdir. Milliy madaniyatni shakllantirish jarayonida oilaviy, mahalliy va ijtimoiy omillar muhim ahamiyatga ega. Bu omillar nafaqat milliy kimlikni saqlashda balki jamiyatni birlashtirish, o'zlikni anglash, jamiyatimizning kelajagini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. "Madaniyat (arabcha – madinalik, shaharlik, ta'lim-tarbiya ko'rgan) tabiat va o'zaro munosabatlarda aks etadigan inson faoliyatining o'ziga xos usuli" deb 2019-yilda nashrdan chiqqan Jahon falsafasi qomusida asarida shunday ta'rif berilgan. Madaniyat – jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Madaniyat mohiyatiga ko'ra moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'linadi. Moddiy madaniyat moddiy faoliyatning barcha sohalari hamda uning natijalarini (mehnat qurollari, turar joy, kiyim-kechak, kundalik turmush buyumlari, transport, aloqa va

boshqalar) ni o'z ichiga oladi. Ma'naviy madaniyatga ong, ma'naviyat sohalari (bilim, ta'lim-tarbiya, axloq, huquq, falsafa, adabiyot, din, san'at va boshqalar) kiradi.[1]

Madaniyat tushunchasi ilk bor Mark Tuliyl Sitseronning "Tuskulan qo'lyozmalari" (er. av. 45 y.) asarida qo'llay boshlagan. G'arbda madaniyat (kultura) atamasi nemis yuristi Samuel Pufendorf (1632-1694) tomonidan XVII asrda iste'molga kiritgan bo'lib, fransuz ma'rifatparvarlari tomonidan ommalashtirilgan. Rossiyada bu atama XIX asrning o'rtalariga istemolda bo'la boshladi. Madaniyatni faqatgina inson bilan tasavvur qilsa bo'ladi. Madaniyat - inson faoliyatining bosh mezonidir. Insonlar faoliyati davomida madaniyat shakllanganini e'tirof etishimiz mumkin. "Madaniyat — insondagi yetuk fazilatlarning madaniylashuvi orqali amalga kiritilishini kuzatamiz. "Madaniyat" tushunchasini odatda san'at, fan va din tushunchalari bilan chegaralanishi maqsadga muvofiq emasligini aytishimiz mumkin. Zero, madaniyat tushunchasi ostida muayyan millatning tarixi, mentalitetiga xos ko'rinishlari ifodalanadi. Millat e'tikidning asl mohiyati ochib beriladi. Madaniyat harqanday millatning hayotida o'ziga xos o'rin tutadi. E. Sepir fikri bilan aytganda, jamiyatning faoliyat va fikrlash tarzini madaniyat belgilasa, aynan qanday fikrlashini til belgilaydi. Bu esa tilga nafaqat madaniyatdan mustaqillik maqomini beradi, balki ularning o'zaro munosabatiga belgilovchilik ahamiyatini ham yuklaydi[2]. Madaniyat orqali millat nutqiy faoliyatning o'rinli ko'rinishi maqsadga muvofiqdir

Madaniyat- bu, insonlarning ijodiy faoliyati tufayli yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmuini ifodalashdan tashqari, o'zida jamiyatning taraqqiyot darajasini aks ettiradi, ya'ni jamiyatdagi bilim, mezon va qadriyatlarining yig'indisi madaniyatni hosil qiladi. Ta'lim tizimida milliy madaniyatni shakllantirishda o'qituvchilarning o'рни beqiyosdir. Ular har bir o'quvchilarga milliy madaniyatni singdirib, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi.

Asosiy qism. Milliy madaniyatni shakllantirish – ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Har bir xalqning o'ziga xos madaniy qadriyatlari, an'analari va urf-odatlari bo'lib, bu qadriyatlarni yosh avlodga etkazish ta'lim tizimining ustuvor vazifasi hisoblanadi. Bugungi kunda dunyo ta'lim tizimi jahon

miqyosida globalizm va modernizatsiya jarayonlarining ta'sirida rivojlanayotgan bo'lsa-da, milliy madaniyatning ahamiyatini unutmaslik zarur. Milliy madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslarini tahlil qilish, uning ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyatini belgilash, yoshlarning madaniy va ma'naviy kamolotiga hissa qo'shish ta'lim sohasidagi eng dolzarb masalalardan biridir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ham o'zlarining "O'zbekistonning taraqqiyot yo'li" asarlarida milliy madaniyatni ta'lim tizimidagi o'rni, xalqning madaniy qadriyatlarini saqlash va rivojlantirish, o'quvchilarda milliy o'zlikni anglashning zarurligi haqida chuqur mulohaza yuritiladi.

"Milliy madaniyatning ta'lim tizimida roli – Milliy madaniyatning ta'lim tizimidagi roli millatning ma'naviy va intellektual merosini avlodlarga yetkazish, milliy o'zlikni anglashni mustahkamlash hamda talabalarda milliy qadriyatlar asosida axloqiy va estetik fazilatlarni shakllantirishdan iborat. Milliy madaniyat – bu xalqning tarixiy va madaniy merosi, urf-odatlar, til va san'ati, diniy e'tiqodlari, mehnat va ijtimoiy hayoti bilan bog'liq qadriyatlar yig'indisidir. Milliy madaniyatni ta'lim tizimida shakllantirishning birinchi va asosiy maqsadi – yoshlarni o'z xalqining madaniy merosi bilan tanishtirish, ularni o'z madaniyatiga hurmat, sevgi va faxr bilan qarashga o'rgatishdir.

Ta'lim tizimi milliy madaniyatni shakllantirishda bir qancha yo'nalishlarda faoliyat olib boradi:

1. *Milliy tilni o'rganish va rivojlantirish.* Milliy madaniyatning asosiy tarkibiy qismlaridan biri – til hisoblanadi. Til, birinchi navbatda, xalqning fikrlash tarzini, qadriyatlarini va madaniy merosini ifodalaydi. Shuning uchun ta'lim tizimida milliy tilni chuqur o'rgatish, uning rivojlanishiga hissa qo'shish muhim ahamiyatga ega.

2. *Tarix va madaniyatni o'rganish.* Milliy tarixni va madaniyatni o'rganish yoshlarni o'z tarixini sevishga, uning buyukligi va muhimligini tushunishga o'rgatadi. Ta'limda tarixni milliy manbalar asosida o'qitish, shaxsiyatlar, tarixiy voqealar va madaniy yodgorliklar haqida ma'lumot berish, yoshlarga o'z xalqining merosini anglashda yordam beradi.

3. *San'at va adabiyot.* Milliy san'at va adabiyotni o'rganish nafaqat estetik qoniqish, balki ma'naviy kamolotni ham ta'minlaydi. O'zbek adabiyoti, musiqa, tasviriy san'at va xalq amaliy san'ati kabi sohalarda ta'lim olish yoshlarni o'z madaniy merosi bilan yanada chuqurroq tanishtiradi.

4. *Milliy qadriyatlar va an'analarning targ'ib qilinishi.* Har bir xalqning o'ziga xos an'analari va qadriyatlari bo'lib, ularni yoshlar orasida targ'ib qilish ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biridir. Milliy bayramlar, marosimlar, mehmondo'stlik va hurmat kabi qadriyatlar yoshlar ongida shakllantiriladi." [1] Ta'lim tizimida milliy madaniyatni qanchalik muhimligini shu yo'nalishlardan ham bilib olishimiz mumkin. Milliy madaniyatni shakllantirish jarayonida bir qancha ta'lim metodlaridan foydalanish mumkin. Ular orasida:

1. *Tarbiyaviy metodlar:* Bu metodlar orqali o'quvchilarni axloqiy qadriyatlar, milliy g'urur, ma'naviyat va insonparvarlikka o'rgatish mumkin. Tarbiyaviy ishlar sinfda, maktabdan tashqari faoliyatlarda amalga oshiriladi.

2. *Tadqiqot va ijodiy ishlar:* Yoshlarni milliy madaniyatga doir mavzularda ilmiy ishlar yozishga, tadqiqotlar o'tkazishga va ijodiy loyihalarda ishtirok etishga undash, ularni o'z madaniy merosi bilan tanishtirishda muhim vositadir.

3. *Madaniy-ijodiy tadbirlar:* Milliy an'analarga oid ma'naviy va madaniy tadbirlar, musobaqalar, ko'rgazmalar va san'at namoyishlari orqali o'quvchilarni milliy madaniyatga jalb etish mumkin." [2] Milliy madaniyatni shakllantirishda ta'lim metodlarini ahamiyati juda ham katta. Bu metodlar orqali biz milliy madaniyatni yoshlarni ongida mustahkamlashimiz lozim.

Ta'lim tizimi milliy madaniyatni shakllantirishda mustahkam poydevor bo'lsa-da, bu jarayonni amalga oshirishda jamiyatning boshqa institutlari ham faol ishtirok etishi lozim. Oila, ommaviy axborot vositalari, madaniyat va san'at sohalari ta'lim tizimi bilan hamkorlikda, milliy madaniyatni shakllantirishga hissa qo'shishi kerak. Jamiyatda o'zgargan ijtimoiy sharoitlar, yangi texnologiyalarning rivojlanishi, globalizatsiya jarayonlari milliy madaniyatning saqlanishi va rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq, shu bilan birga, milliy madaniyatni yo'qotib qo'ymaslik uchun ta'lim tizimi milliy qadriyatlarni saqlashga alohida e'tibor qaratishi zarur". [3] Milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirish ta'lim

tizimida muhim rol o'ynaydi. Ta'lim jamiyatdagi avlodlarga milliy madaniyatni o'rganish va hurmat qilish, milliy o'zligimizni anglashni o'rgatadi. Oila, mahalla va ijtimoiy omillar bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Bu omillar barchasi birgalikda milliy madaniyatni shakllantiradi va rivojlantiradi. Milliy madaniyat — bu xalqning tarixiy, etnik, diniy, estetik va axloqiy qadriyatlari, urf-odatlarini, an'analari, san'ati, musiqa, adabiy merosi va boshqa madaniy belgilaridan tashkil topgan murakkab tizimdir. Ta'lim tizimi esa jamiyatning madaniy, ilmiy va axloqiy ehtiyojlariga mos ravishda, o'quvchilarda milliy qadriyatlarni, milliy tilni, san'atni, madaniy g'oyalarni singdirishga qaratilgan tizimdir. Ta'lim jarayonida milliy madaniyatni shakllantirish o'zbek xalqining tarixiy rivoji, urf-odatlarini, an'analari va adabiy merosi bilan chambarchas bog'liqdir. Milliy madaniyatning ta'lim tizimidagi o'rni o'quvchilarga o'z xalqining tarixini, tilini, san'ati va axloqiy qadriyatlarini o'rgatishda namoyon bo'ladi. Bu jarayon milliy uyg'onish, madaniy sirni saqlash va uni kelajak avlodlarga etkazish, shuningdek, jahon madaniyatiga integratsiyalashuvni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Milliy madaniyat — bu xalqning tarixiy, etnik, diniy, estetik va axloqiy qadriyatlari, urf-odatlarini, an'analari, san'ati, musiqa, adabiy merosi va boshqa madaniy belgilaridan tashkil topgan murakkab tizimdir. Ta'lim tizimi esa jamiyatning madaniy, ilmiy va axloqiy ehtiyojlariga mos ravishda, o'quvchilarda milliy qadriyatlarni, milliy tilni, san'atni, madaniy g'oyalarni singdirishga qaratilgan tizimdir. Ta'lim jarayonida milliy madaniyatni shakllantirish o'zbek xalqining tarixiy rivoji, urf-odatlarini, an'analari va adabiy merosi bilan chambarchas bog'liqdir. Milliy madaniyatning ta'lim tizimidagi o'rni o'quvchilarga o'z xalqining tarixini, tilini, san'ati va axloqiy qadriyatlarini o'rgatishda namoyon bo'ladi. Bu jarayon milliy uyg'onish, madaniy irsni saqlash va uni kelajak avlodlarga etkazish, shuningdek, jahon madaniyatiga integratsiyalashuvni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Milliy madaniyatni shakllantirish jarayoni bir qancha nazariy asoslarga tayanadi. Ularning asosiylari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Madaniy merosning saqlanishi va uzluksizligi. Madaniy meros — bu o'zbek xalqining tarixi, urf-odatlarini, til va adabiyoti, musiqasi, san'ati va boshqa madaniy yodgorliklaridan tashkil topadi. Milliy madaniyatni shakllantirishning asosiy

nazariy tamoyillaridan biri madaniy merosning uzluksizligini ta’minlashdir. Ta’lim tizimi orqali o’quvchilarga bu merosni o’rgatish, uni saqlash va kelajak avlodlarga etkazish zarur.

2. *Milliy ong va identifikatsiya.* Milliy identifikatsiya va ong shakllanishi, xalqning o’zligini anglashida ta’lim tizimi muhim rol o’ynaydi. Ta’lim jarayonida milliy madaniyatning shakllanishi orqali o’quvchilar o’z tarixiy, madaniy va ma’naviy merosini anglashadi. Milliy kimlik va madaniyatni o’rgatish, o’quvchilarda o’z millatiga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi.

3. *Tarixiy va madaniy qadriyatlar.* Ta’lim tizimida tarixiy va madaniy qadriyatlarni o’rgatish milliy madaniyatni shakllantirishning asosiy omillaridan biridir. Tarixni o’rganish orqali o’quvchilar o’z xalqining shakllanish jarayonini, uning urf-odatlarini va an’analarini tushunishadi. Bu jarayon, shuningdek, milliy madaniyatning rivojlanishiga turtki beradi va o’quvchilarning tarixiy xotirasini mustahkamlaydi.

Milliy madaniyatni shakllantirish jarayonida ta’limning metodologik asoslari muhim o’rin tutadi. Buning uchun quyidagi usullar va metodlar qo’llaniladi:

1. *Integratsion yondashuv.* Integratsion yondashuv ta’limda milliy madaniyatni shakllantirishda samarali metodlardan biridir. Bu yondashuv orqali milliy madaniyatning barcha jihatlari — til, adabiyot, san’at, urf-odatlar — bir butun sifatida o’rgatiladi. Integratsion yondashuv, shuningdek, milliy madaniyatni o’rgatishda boshqa fanlar bilan hamkorlikni ta’minlaydi.

2. *Aktiv va interfaol usullar.* Aktiv va interfaol usullar, jumladan, munozara, rolli o’yinlar, guruhli ishlar, taqdimotlar va boshqa pedagogik texnologiyalar, o’quvchilarda milliy madaniyatga bo’lgan qiziqish va ongni rivojlantiradi. Bu metodlar o’quvchilarning yaratijonlik va faoliyatga qiziqishini oshiradi, milliy qadriyatlar bilan bog’liq mavzularni o’rganishda faol ishtirok etishga undaydi.

3. *Madaniyatlararo muloqot.* Madaniyatlararo muloqot o’zbek milliy madaniyatini boshqa xalq madaniyatlari bilan taqqoslab o’rganish orqali o’quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi. Bu yondashuv ta’lim jarayonida milliy madaniyatning global madaniyat bilan bog’liqligini ko’rsatadi va o’quvchilarda turli madaniyatlarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Milliy madaniyatni shakllantirishda ta'lim dasturlari va materiallarining ahamiyati katta. O'zbekistonda ta'lim dasturlari va o'quv materiallari milliy qadriyatlar asosida tuzilgan bo'lib, ular o'quvchilarga o'z xalqining tarixiy va madaniy merosini o'rgatishga qaratilgan. Masalan, adabiyot, tarix, san'at va musiqa fanlari bo'yicha maxsus kurslar va darsliklar yaratilgan. Shuningdek, o'quvchilarning milliy madaniyatni o'rganishiga yordam beradigan multimediya materiallari, filmlar, dokumental dasturlar va interaktiv vositalar ham keng qo'llanilmoqda.

Xulosa. Men xulosa qilib, shuni ayta olamanki, milliy madaniyatni shakllantirish jarayoni nafaqat ta'lim tizimining ichki tizimi bo'lib, balki butun jamiyatning madaniy ijtimoiy va axloqiy rivojlanishiga hissa qo'shadi. Milliy madaniyatni o'rganish, uni hurmat qilish va saqlashni yoshlarni ongiga singdirishimiz lozim. Bu o'z navbatida ijtimoiy barqarorlik, madaniy xushmuomalalik va axloqiy yuksalishning asosiy kafolatidir. Ta'lim tizimi va jamiyat o'rtasidagi yaqin hamkorlik orqali milliy madaniyatni shakllantirishda yuqori samaradorlikka erishishimiz mumkin. Milliy madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslari ta'lim tizimining samarali ishlashida muhim omil hisoblanadi. Ta'lim orqali yoshlarni o'z xalqining madaniy merosi bilan tanishtirish, ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, o'ziga xos identifikatsiyani shakllantirish – bugungi kunda ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Milliy madaniyatni o'rganish va rivojlantirish jarayoni nafaqat o'quvchilar, balki jamiyatning butun qatlamlari uchun zarur bo'lgan vazifa hisoblanadi. Ta'lim tizimida milliy madaniyatni shakllantirish jarayoni nafaqat o'quvchilarga o'z xalqining tarixiy va madaniy merosini o'rgatish, balki ularning shaxsiy rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Milliy madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslari va metodologik yondashuvlari ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Bu, o'z navbatida, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishga yordam beradi. Ta'lim tizimining milliy madaniyatga asoslangan rivojlanishi nafaqat o'zbek xalqining madaniy merosini saqlash, balki uning jahon madaniyati bilan uyg'unlashuvini ta'minlashga xizmat qiladi. Yurtimizda Uchinchi Renessans

g‘oyasi ham davlatning, ham yoshlarning, ham ota-onalar va ustozlarning orzu istaklarini birlashtirib, bugun va kelajakni birlashtiruvchi hayotbaxsh g‘oya bo‘lgani uchun ham Prezidentimiz Uchinchi Renessans masalasini milliy g‘oya sifatida ko‘tardilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xayrullayev M. “Madaniy meros va falsafiy fikrlar tarixi” Toshkent-1985
2. Usmonov F. Til va tafakkur munosabati va tilshunoslikda antroposetsizm tamoyili xususida. Ilmiy xabarnoma, Adu, №2 2015-yil. 94-6
3. Karimov, I. (2009). O‘zbekistonning taraqqiyot yo‘li: Milliy madaniyat va ta’lim tizimi. Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi.
4. Qodirov, N. (2015). Milliy madaniyat va ta’lim: Nazariy asoslar. Toshkent: O‘zbekiston pedagogika universiteti nashriyoti.
5. Shodmonov, M. (2013). Ta’lim tizimida milliy qadriyatlarning o‘rni. Toshkent: O‘zbekiston fanlar akademiyasi nashriyoti.
6. Tursunov, A. (2018). Ta’lim tizimida madaniyat va etika. Toshkent: Talim nashriyoti.
7. Abdullayev, S. (2010). O‘zbekistonning ma’naviy yuksalishi va ta’lim tizimi. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi O‘quv va metodik markazi.
8. Jumaniyozov, M. (2006). Milliy madaniyat va ma’naviyat. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim va ilmiy-tadqiqot markazi.
9. Nazarov, T. (2008). Ta’lim tizimida milliy qadriyatlar. Tashkent: “O‘zbekistan” nashriyoti.
10. Sagdiev, A. (2015). O‘zbek xalqining madaniy merosi va ta’limda uni shakllantirish. Tashkent: O‘zbek pedagogika jamiyati.
11. Toshmammedov, A. (2012). Milliy ta’limning zamonaviy rivojlanish yo‘nalishlari. Tashkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
12. Sultanmurodov, F. (2017). Ta’limda madaniy va milliy identifikatsiya. Tashkent: Ma’naviyat va ma’rifat nashriyoti.

13. Mirzayev, R. (2011). O'zbek adabiyoti va ta'lim tizimi. Tashkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
14. Shodiev, K. (2014). Milliy madaniyatni o'quvchilarga o'rgatishning pedagogik asoslari. Tashkent: O'qituvchi.
15. Xodjaeva, N. (2013). Milliy madaniyat va ta'lim tizimi: nazariy va amaliy aspektlar. Tashkent: O'zbekiston pedagogika akademiyasi.
Ijtimoiy tenglikni ta'minlash uchun davlat ijtimoiy himoya, ta'lim, sog'liqni saqlash va mehnat sohalarida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Aholining har bir qatlamini qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat tomonidan ijtimoiy yordam dasturlari joriy etildi, mehnat bozori va ta'lim tizimida islohotlar olib borildi. Ijtimoiy tenglikni ta'minlashda davlatning roli katta, chunki bu davlatning ijtimoiy yordam dasturlari orqali amalga oshiriladi.

Korrupsiyani kamaytirish va shaffoflik

Korrupsiya bu jamiyatda ijtimoiy adolatni buzishning asosiy sabablaridan biridir. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish uchun yangi qonunlar qabul qilindi, shuningdek, davlat organlarida shaffoflikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Anti-korrupsiya

siyosati va xususiy sektorda shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan islohotlar jamiyatda ishonchni oshiradi.

Korrupsiyani kamaytirish uchun O'zbekistonda davlat va jamiyat o'rtasida o'zaro ishonchni kuchaytirish va qonunlarning adolatli va teng ravishda qo'llanilishini ta'minlash zarur. Shaffoflikning oshirilishi fuqarolarning huquqlarini himoya qilishda muhim omil hisoblanadi.

Xulosa: O'zbekistonda amalga oshirilgan huquqiy islohotlar ijtimoiy adolatni ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda. Sud tizimining mustaqilligini ta'minlash, inson huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy tenglikni yaratish va korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi islohotlar jamiyatda adolatli tizimni yaratishda xizmat qiladi. Ushbu jarayon davom etmoqda, biroq uni yanada takomillashtirish zarur. Islohotlar fuqarolar uchun teng imkoniyatlar yaratishda va jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlashda asosiy vosita bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992)
2. O'zbekiston Respublikasi "Inson huquqlarining kafolati" dasturi (2019)
3. O'zbekiston Respublikasida sud islohotlari bo'yicha davlat dasturi (2021)
4. O'zbekiston Respublikasining "Huquqiy jamiyatni yaratish" dasturi (2020)

O'ZBEK MAHALLASINING MILLIY TARBIYADAGI AHAMIYATI

Muxtorjon Qosimjon o'g'li Tolibboyev

O'z.R. Fanlar akademiyasi Tarix instituti kichik ilmiy xodimi,

Toshkent tibbiyot akademiyasi o'qituvchisi.

E-mail: muxtorjontolibboyev@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek mahallasining farzand tarbiyasidagi o'рни va ahamiyati tahlil qilinadi. Mahalla nafaqat geografik hududiy birlik, balki jamiyatdagi tarbiyaviy va ijtimoiy vazifalarni bajargan muhim jamoa tizimi sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada mahalla doirasidagi tarbiyaviy jarayonning uch*

bosqichga bo'linishi, bola tarbiyasida jamoaning mas'uliyati va ahamiyati hamda milliy qadriyatlarning avlodan-avlodga o'tishidagi roli yoritilgan. Mahalla guzarlari va oila tarbiyasidagi ijtimoiy ta'sir omillari misollar bilan ko'rsatilgan. Shuningdek, bolalarning ijtimoiylashuvi va ma'naviy shakllanishida mahallaning o'rniga oid tarixiy va etnografik ma'lumotlar berilgan.

***Kalit so'zlar:** O'zbek mahallasi, tarbiya, ijtimoiy mas'uliyat, milliy qadriyatlar, jamoa tizimi, bola tarbiyasi, avlodlar davomiyligi.*

***Аннотация:** В данной статье рассматривается роль и значение узбекского махалли в воспитании детей. Махалля анализируется не только как географическая единица, но и как важная социальная и образовательная структура. В статье выделяются три этапа воспитательного процесса, подчеркивается ответственность сообщества за воспитание детей, а также роль традиционных ценностей в передаче от поколения к поколению. Приводятся примеры социального и воспитательного влияния махалли, а также исторические и этнографические аспекты социализации и нравственного становления детей.*

***Ключевые слова:** Узбекская махалля, воспитание, социальная ответственность, национальные ценности, система сообщества, развитие детей, нравственные нормы, преемственность поколений.*

***Annotation:** This article examines the role and significance of the Uzbek mahalla (neighborhood community) in the upbringing of children. The mahalla is analyzed as not only a geographical unit but also a crucial social and educational institution. The article highlights the division of the educational process into three stages, the responsibility of the community in child upbringing, and the role of traditional values in intergenerational transmission. Examples of social and educational influences in mahalla gatherings and family upbringing are provided, alongside historical and ethnographic insights into the socialization and moral development of children.*

***Key words:** Uzbek mahalla, upbringing, social responsibility, national values, community system, child development, ethnographic analysis, moral standards, intergenerational continuity.*

O‘zbek mahallasi, tarixiy ildizlari va urf-odatlarini bilan ajralib turadi hamda uning farzand tarbiyasidagi roli nihoyatda muhimdir. Mahalla nafaqat geografik bir birlik, balki tarbiyaviy, shuningdek ijtimoiy vazifalarni bajargan bir jamoa tizimidir. U o‘zining qadimiy an‘analari orqali bolalarga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatish, axloqiy me‘yorlarni o‘rgatish va ularni ijtimoiy hayotga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Mahalla a‘zolari o‘rtasida mavjud bo‘lgan jamoaviy ruh va o‘zaro yordam, bolalarga murabbiylik qilish, ularni tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi. Mahalla bizning urf-odat va qadriyatlarimiz saqlab turuvchi hamda uni yosh avlodga o‘rgatuvchi yirik oila hisoblanadi. Shu tarzda, O‘zbek mahallasi farzand tarbiyasida nafaqat ota-onalarga, balki butun jamoaga o‘ziga xos mas’uliyat yukini yuklaydi. Bu holat, bolalar uchun sog‘lom ijtimoiy va ma’naviy muhit yaratadi, ularga nafaqat tarbiyaviy ko‘nikmalarni, balki ijtimoiy mas’uliyatni ham singdiradi.

Barcha davrlarda oilalarda jamoatchilik fikriga, hududiy qo‘ni-qo‘shnichilik aloqalariga befarq qaralgan emas. Mahalla jamoasi o‘rtasidagi hududiy yaqinlik bola tarbiyasida jamiyatdagi kishilarni bir-biriga o‘zaro ko‘makdosh bo‘lishga undagan. Turon xalqlari yashagan mintaqada barcha qavm va qabila ahllari orasida “lagomzadon”, “zin zadan” amal qilingan. O‘g‘il bolalarga erkaklarga xos bilimlar o‘rgatilgan bo‘lsa, qizlarga uy-yumush ishlari, to‘quvchilik kabi hunarlar o‘rgatilgan [1.]. Avestadagi dalillar shuni ko‘rsatadiki, tarbiya jarayonida kundalik hayot uchun zarur bo‘lgan barcha bilimlar o‘qitilgan, hunarlar o‘rgatilgan. Ularning malakalari oshganda so‘ng, qizlar 15, o‘g‘il bolalar 17 yoshda imtihondan o‘tganlar. Natijada ular balog‘atga yetgan deb hisoblanib uy bekasi, oila boshlig‘i darajasiga erishishgan. Turon tarixida turli davrlarda farzandlarning tarbiya jarayonida jamoaviy muhit hamda mahalla salmoqli ta’sir kuchiga ega bo‘lgan.

Bolalarning jamoa orasidagi o‘rni va ular bilan bog‘liq an‘analarning tarbiyaviy ahamiyatidan kelib chiqib, bola tarbiyasi bilan bog‘liq davrni 3 bosqichga ajratish mumkin.

Birinchi bosqich – 3 - 5 yoshgacha davom etgan, bu davrda bolada dastlabki tarbiya ko‘nikmalari paydo bo‘lgan, u jamoa orasida mustaqil bo‘lishga intilgan.

Tarbiyasi bilan endi nafaqat ota-ona, oila balki, qo'ni-qo'shnilar ham shug'ullana boshlagan. Bola oilada mayda yumushlarni bajarib, o'zini anglab, dunyoqarashida ilk axloqiy normalar shakllangan.

Ikkinchi bosqich – 5 - 9 yosh, bu davrda o'g'il bolalar sunnat qilingan (qo'li halollangan) ligi bois jamoaga qo'shilganlar. Endi bola bajaradigan jismoniy yumushlar, diniy-axloqiy odatga ko'ra "halol" sanalgan, qiz bolalarga kattalar ko'magida hayo, ibo, andisha kabi sifatlar o'rgatila boshlangan. Qiz bola va o'g'il bolalar o'rtasida jins tafovutlari namoyon bo'lib, yosh va jins xususiyatlariga ko'ra, o'g'il bolalar va qizlar jamoasiga ajratilganligi uchun, o'g'il bolalar tarbiyasi bilan erkaklar, qiz bola tarbiyasi bilan ko'proq ayollar shug'ullanganlar. Qizlar uy-ro'zg'or yumushlariga to'la jalb etilgan bo'lsada oilaviy va boshqa tadbirlarda qisman qatnasha olganlar.

Uchinchi bosqich – 9 - 12 yosh, bu davrda bolalar jamoaga to'liq qo'shilganlar va kattalar orasida o'zlarini erkin sezganlar. An'anaga ko'ra bu o'tish davri bo'lib, o'g'il va qiz bolalar tashqi ko'rinishi, kiyinishidagi tafovutlar ko'zga tashlangan, yashash va ish joylari ajratilgan, tarbiyada mehnat tarbiyasiga e'tibor kuchaygan[2.].

19-yuzyillikning 70-80-yillarida Turkiston o'lkasiga tashrif buyurgan etnograf olimlar, er-xotin Nalivkinlar jamoaning bola tarbiyasidagi o'rni haqida qayd etar ekanlar, bola birinchi bor atrofdagilar bilan mustaqil so'zlasha boshlagach, oila a'zolari, ayniqsa, ota-onalar ularga ilk bor axloqiy ko'nikmalar va diniy saboqlar berib, Qur'ondan kichik oyat va suralarni ham o'rgata boshlaganligini qayd etganlar [3.].

Shuningdek, jamoa ichidan farzandlarning kiyinishidan tortib, yurish turishigacha e'tibor qaratilgan. Turkiston bo'ylab sayohat qilgan Yujin Skaylarning qaydlarida uzun beqasam choponlar kiyishlari, buni "Osiyocho tarbiyasi" hisoblab, qo'llarini berkitib yurish foydaliligini keltirib o'tadi [4].

Oila va jamoa a'zolari doirasida o'tkaziladigan marosimlarda oila xo'jaligi va jamoa turmushidagi doir masalalar o'z yechimini topib, bolalar ishtirokida ularda ahillik, jamoaviy uyushqoqlik, o'zaro yordam munosabatlarini shakllantiradi. Bolalar tengurlari orasida kattalarga taqlid qilarkanlar jo'ra-o'rtoqchilik orqali

o‘zlarining “kichik jamoa”larini tuzganlar. Oilaviy marosimlar, jamoaviy yig‘inlar, bayramlar, sayillar, choyxonalar, masjidlar, mahalla guzarlaridagi jamoaviy tadbirlar dastlabki eng asosiy tarbiya vositalari vazifasini o‘tagan [5.]. Odatda aholi manzilgohlari ikki-uch mahallaga bo‘linib, har bir mahallaning o‘z masjidi va guzari bo‘lgan. Masjidsiz va guzarsiz mahalla mustaqil mahalla sifatida e’tirof etilmagan. Chunki masjid va guzarlar faqat mahalla markazi bo‘lib qolmasdan, bolalar uchun sabokhona, musulmon odob-qoidalarini o‘qitiriladigan joy sanalgan [6.]. Mahalla guzari bo‘sh vaqtini o‘tkazish, madaniy xordiq uchungina emas, balki tarbiya, inson burch va vazifalari haqida yoshlarga saboq berish joyi sanalgan. Guzarda mahalladoshlar yoshi, mavqeiga qarab o‘tirganlar. Mahalla guzarida joylashgan mehmonxonalar jamoa a‘zolari marosimlar o‘tkazadigan, mehmonlar dam oladigan. erkaklar gashtak va boshka jamoa yig‘inlari o‘tkazadigan joy hisoblangan. Albatta, bunday tadbirlarni kuzatgan o‘spirinlar erkaklardagi har qanday fazilatni o‘zlashtirib olishga harakat qilishgan. O‘spirinlar kattalar qanday harakat qilsalar shunday bo‘lishga intilganlar.

Bolalardagi axloqiy fazilatlar nafaqat oilani, balki butun jamoa, mahalla turmushini belgilagan. 20-yuzyillikning boshida Turkiston xalqlari maishiy turmushini o‘rgangan N. S. Likoshinning yozishicha milliy o‘g‘il bola birovga noxushlik keltirmaslik uchun jamoa oldida o‘zini tutishni yaxshi bilgan, kattalar orasida o‘z o‘rnini bilib, o‘rinsiz dasturxonidagi taomga ko‘l uzatmay, atrofdagilar suhbatiga aralashmay, uyga kelganlarga qoidali salom bergan, unga savol berishganda esa kolgan mehmonlar diqqatini jalb qilmaslik uchun faqat shivirlab qo‘ygan[7.].

Bolalar turli tadbirlarda va oilaviy marosimlarda o‘tin yorish, tashish, qo‘lga suv quyish (obkash, obbiyor), choy qaynatish yumushlarini bajarganlar. To‘y va marakalarda yelkalariga sochiq ilib davradagi mehmonlarga suv quyadilar. Shuningdek, ovqatni eltish, samovorga qarash kabi ishlarni bajarishadi. Farg‘ona vodiysida nahor osh vaqti barcha yoshlar xizmatda turishadi, so‘ngra barcha mehmonlar kuzatilgandan so‘ng alohida dasturxon yozib jamoaviy taomlanishadi [8.]. Ota-onalar doimo bola tarbiyasida asosan mahalla jamoasi fikrini e’tiborga olishgan. Farzandining odobi uchun qo‘ni-ko‘shnilardan “Otangga rahmat!” degan

iborani eshitish ota-ona uchun g'urur hisoblangan. Shuning uchun ham xalqimiz orasida "Onasi maqtagan qizni olma, el maqtagan qizdan qolma" degan maqolning mavjudligi bejiz emas. albatta.

Voha o'zbeklarida bolalarning yoshi, jinsiga qarab tarbiyalashga alohida ahamiyat berilgan. Tog' etaklarida ko'proq chorvachilik va ovchilik bilan shug'ullangan aholi kichik yoshdagi bolalari kattalari qatori ro'zgor yumushlarini va mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirishgan. Toshkentda bolani oila bilan birgalikda butun mahalla tarbiyalaydi deb hisoblab, yoshlarni nehnatsevar va mehr-muruvvatli qilib tarbiyalash maqsadida yolg'iz keksalarga biriktirish usulidan foydalanishgan [9].

Qiz bola tarbiyasida ham mahalla ayollarining o'rni beqiyos hisoblanadi. Yoshlikdan ularning ong-u shuurida odabli, iboli va hayoli bo'lish ko'nikmalari shakllanadi. Mahalla doirasida qizlar urf-odatlar, qadriyatlar va ijtimoiy me'yorlarni o'rganib, jamoaviy hayotga tayyorlanadi. Bu jarayonda katta avlod vakillari – onalar, buvilar va qo'shnilar qizlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida asosiy rol o'ynaydi, ularning odob-axloq qoidalari, ijtimoiy mas'uliyat va oilaviy qadriyatlar bilan yaqindan tanishib borishlari ta'minlanadi. Elshunoslik jihatidan mahalla qizlarga jamoaviy hayotning bir qismi sifatida shakllanish imkonini beradi. Qizlar to'y va marosimlar kabi ijtimoiy tadbirlarda ishtirok etib, ayollar o'rtasidagi o'zaro yordam va birdamlik tajribasini o'rganadi, bu esa ularning kelajakdagi oilaviy va ijtimoiy roliga tayyorgarlik vazifasini bajaradi. Mahalla orqali qizlar nafaqat oila, balki keng jamiyat uchun ham foydali bo'lish yo'llarini o'zlashtiradi, ularning ijtimoiy va ma'naviy shakllanishi uchun zarur bo'lgan muhitni ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, mahalla doirasida nafaqat ota-onalar, balki jamoa a'zolari ham bola tarbiyasida ishtirok etgan, bu esa sog'lom ijtimoiy va ma'naviy muhitni ta'minlagan. Mahallaning o'ziga xos an'analari va qadriyatlari bolalarni mustaqil hayotga, mehnatga, axloqiy va diniy me'yorlarni o'zlashtirishga tayyorlagan. Bu jarayon mahallaning ijtimoiy birdamligi va jamoaviy mas'uliyat tuyg'usi bilan uyg'unlashgan. Shunday qilib, mahalla nafaqat madaniyatni saqlash

va boyitish vositasi, balki yosh avlodning har tomonlama shakllanishi uchun muhim tarbiya markazi sifatida ham xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. X. Homidiy. “Avesto”dan “Shohnoma”ga. – Toshkent: Sharq, 2007. – 67-bet.
2. N. Egamberdiyeva [va boshq.]. O‘zbekiston mahallalari: kecha va bugun. – Toshkent: Invest book, 2022. – 230-231-betlar.
3. В. Наливкин, М. Наливкина. Очерк быта женщин: оседлого туземного населения Ферганы. –Казань: 1886. – С. 182.
4. Y. Skayler. Turkiston: Rossiya Turkistoni, Qo‘qon, Buxoro va G‘uljaga sayohat qaydlari. – Toshkent. 2019. 94-bet.
5. O. Bo‘riyev. A. Ochilov. Qashqadaryo vohasi etnomadaniy qadriyatlari. – Toshkent: Yanginashr, 2013. – 192-bet.
6. Абашин С.Н. Социальные взаимоотношения в современном узбекском кишлаке (По материалам Ферганской долины). Автореф.дис.... канд. истор. наук. Москва. 1997. С. 15.
7. O. Bo‘riyev. A. Ochilov. Qashqadaryo vohasi etnomadaniy qadriyatlari. – Toshkent: Yanginashr, 2013. – 197-bet.
8. Dala yozuvlari. Namangan viloyati, Uychi tumani, Birlashgan qishlog‘i. 2023.
9. Toshkent mahallalari: An’analar va zamonaviylik / Mas’ul muxarrir Z.X. Arifxonova. Toshkent: 2002. – 160-bet.

QADIMGI ZIYORATGOHLARNING KISHILAR HAYOTIDA O‘RNI VA RO‘LI

Maxsutaliyev Jahongir Muhammadjon o‘g‘li

Namangan davlat universiteti magistranti

maxsutaliyevjahongir77@gmail.com

***Annotatsiya:** Qadimdan ziyoratgohlar kishilar hayoti va ularning o‘ziga turli ta’sir ko‘rsatishga qodir deb qaralgan. Shu sababli bunday maskanlar doimo gavjum va aholining tez-tez tashrif buyuradigan joylariga aylanib bo‘lgan. Ushbu*

maqolada aynan ziyoratgohlarning asosiy vazifasi, insonlar hayotidagi o'рни, turizm sohasiga aloqasi hamda bu sohada ziyoratgohlarning o'рни to'g'risida so'z yuritilgan.

***Kalit so'zlar:** ziyoratgoh, marosimlar, muqaddas joylar, rivoyat, qadamjo, turizm, tarixiy obida, ilohiy kuchlar.*

ПОНЯТИЯ ПАЛОМНИЧЕСТВА И ТУРИЗМА, МЕСТА ПАЛОМНИИЯ В ТУРИЗМЕ

Махсуталиев Жахангир Муҳаммадҷон ўғли

Аспирант Наманганского государственного университета

maxsutaliyevjahongir77@gmail.com

***Аннотация:** С древних времен святыни считались способными влиять на жизнь людей и на них самих. По этой причине такие места всегда многолюдны и часто посещаются населением. В данной статье рассказывается об основной функции святынь, их месте в жизни людей, их связи со сферой туризма и месте святынь в этой сфере.*

***Ключевые слова:** паломничество, ритуалы, святые места, повествование, паломничество, туризм, исторический памятник, божественные силы.*

CONCEPTS OF PILGRIMAGE AND TOURISM, PLACES OF PILGRIMAGE IN TOURISM

Maxsutaliyev Jakhongir Mukhammadjon oglu

Master's student at Namangan State University

maxsutaliyevjahongir77@gmail.com

***Abstract:** Since ancient times, shrines have been considered capable of influencing people's lives and themselves. For this reason, such places are always crowded and often visited by the population. This article describes the main function of shrines, their place in people's lives, their connection with the tourism sector and the place of shrines in this sector.*

Keywords: *pilgrimage, rituals, holy places, narration, pilgrimage, tourism, historical monument, divine powers.*

Kirish.

Yurtimiz o'zining muqaddas qadamjo va ziyoratgohlari, aziz-avliyolar mangu qo'nim topgan maqbaralari bilan mashhur. Zero, ulug' zotlar qaysi go'shada yashashni ixtiyor etsa, o'sha joyda ma'naviy-ruhiy poklanish ro'y berishi bilan birga, bog'u rog'lar, soya-salqin oromgohlar bunyod etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 15 fevraldagi "Muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar, masjidlar va qabristonlarni obodonlashtirish ishlarini samarali tashkil etish to'g'risida"gi qarori muqaddas maskanlarni saqlash va qadrlash, xalqimiz ongida ajdodlar xotirasiga hurmat-ehtirom tuyg'ularini shakllantirish bilan birga, har bir qadamjo va ziyoratgohni obodonlashtirish, yanada fayzli, tarovatli go'shaga aylantirish, bu borada ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar tahlili:

Har bir muqaddas joy, ziyoratgoh, tarixiy obida va qadamjolar kishilar tasavvurida ilohiy kuchga ega bo'libgina qolmay, kishilar orasida qadimdan ziyoratgohlarga qurilgan binolar insonlarga turli ilohiy ta'sir ko'rsatishga qodir, deb qaralgan. Shu sababli, bunday joylar o'rnida o'zga maqsadlarda binolar qurish o'tgan avliyolarga nisbatan hurmatsizlik sifatida qabul qilingan. Shu o'rinda qayd etish kerakki, ziyorat qilishda ham o'ziga xos zarur ko'rsatmalar mavjudki, bugungi kunda ziyoratchi albatta, bunga diqqat bilan amal qilishi kerak bo'ladi.

Bunday ziyoratgohlarni o'rganish hali ham dolzarbligicha qolmoqda. Xususan, bir qator olimlar ziyoratgoh va qadamjolar to'g'risida tadqiqotlar o'tkazib kelmoqda. O'zbek olimlaridan A.Ashirov, N.U.Abdulohatov, Mahmud Sattor. Qo'shni davlat olimlaridan G Aitpaeva, N.D Nurtazina, E.V. Biryukova, A.A Glushko, A.M. Makarenkolarning asarlarida asosli yondashganlar.

Natijalar va muhokama.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng xalqimizning milliy va diniy qadriyatlariga, tarixiy obidalar, jumladan ziyoratgohlarga bo'lgan e'tibori o'zgardi. Muqaddas qadamjolar davlat mablag'lari hisobiga, shuningdek tadbirkor

va ishbilarmonlarning, boshqa olijanob insonlarning xayr-ehsonlari homiyliklar evaziga, hamda xalq hasharlari yo'li bilan ta'mirlanmoqda, azaliy ko'rinishida tiklanmoqda. Ziyoratgohlarda yoki unga yondosh bo'lgan hududlarda xalq saylgohlari barpo etilmoqda. Ming-minglab ziyoratchilar u yerlarda madaniy-xordiq chiqarib qaytishmoqda. Shu o'rinda bir narsani ta'kidlab o'tishni joiz topdik. Muqaddas qadamjolar sifatida e'zozlanib kelinayotgan ziyoratgohlarning boshqa dam olish maskanlaridan tubdan farq qiluvchi jihatlari bor[1]. Bu aziz joylar xalqimizning azaliy qadriyatlari, rasm-rusmlari, urf-odatlar bilan bog'liq ekan, u yerlarga uyushtirilgan sayohatlarda, o'tkazilajak marosimlarda azaliy udumlarga, ziyoratgohlarda dafn etilgan aziz-avliyolarning ruhi-pokiga hurmat yuzasidan munosabatda bo'lmoqlik lozim. Shunisi diqqatga sazovorki, mahalliy xalq mazkur ziyoratgohlarni Muhammad payg'ambar(s.a.v.) izdoshlari sahobalar, tobe'in va diniy ulamolar, tasavvuf tariqati namoyondlari nomi bilan bog'laydilar. Garchand, ulardan ba'zilarini Andijonda bo'lganliklari tarixiy haqiqatga to'g'ri kelmasa-da, biroq islom targ'ibotchilari dastlabki vaqtlarda bu zotlarning nomlaridan islomdan oldingi mahalliy diniy e'tiqodlarga qarshi kurashda keng foydalanganlar. Oqibatda, islomdan oldingmuqaddas joylar o'rnida musulmon avliyolari bilan bog'liq mozorlar paydo bo'lgan. Binobarin, avliyolar to'g'risidagi xalqona qarashlarga ko'ra, ular xalqning yuksak orzularini, manfaatlarini himoya qiluvchi, og'ir vaziyatlarda insonlarga ko'makdosh, yovuzlikning kushandasi sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur qarashlar zamirida esa ajdodlarimizning qadimgi diniy e'tiqodlarining o'ziga xos elementlari saqlanib qolgan. Ularning aksariyati islomiy harakterda bo'lib ko'rinsa-da, aslida islomiy an'analar bilan uyg'unlashgan formasidir.

Masalan, ziyoratgohlarda bajaraladigan urf-odatlar zamirida islomgacha bo'lgan diniy e'tiqodlarning ko'rinishi mavjud bo'lsa-da, biroq aholi tushunchasiga ko'ra, ushbu odatlarning barchasi islomiy an'analardan kelib chiqqan deb e'tirof etiladi. Zotan islom dinining kirib kelishi bilan mahalliy dinlar va ularga xos urf-odatlariga barham berilganligiga qaramay, ularning ayrim qoldiqlari ziyoratgohlardagi islomiy an'analar qobig'ida saqlanib qoldi. Tarixshunoslikda muqaddas ziyoratgohlarni qadimgi urf-odatlar va diniy qarashlarni saqlab

kelayotgan qimmatli manba sifatida tadqiq etish o'ta muhimdir. Chunki, aholini ziyoratgohlardagi mavjud daraxt, buloq va jonivorlar to'g'risidagi qarashlarida qadimgi zardo'shtiylik, buddaviylik, shomoniylikka xos animizm, fetishizm, totemizm kabi qadimgi diniy e'tiqodlarga xos hususiyatlarni ko'rish mumkin[2].

Jumladan, avliyolar hayoti bilan bog'liq ibratli hikoyatlar, milliy qahramonlarning dushmanlarga qarshi mardona kurashlari va jasoratlari to'g'risidagi afsona va rivoyatlar hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan bo'lib, ular o'zlikni hamda milliy qadriyatlarning mohiyatini anglashda aholiga yaqindan yordam beradi. Ikkinchidan, muqaddas ziyoratgohlardagi hayvonlar, daraxt va o'simliklar hamda buloqlar bilan bog'liq qarashlar ekologiyani saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga kishilarning ekologiya to'g'risidagi bilim va tushunchalarini mustahkamlab boradi.

Mazkur maskanlarda obodonlashtirish-ko'kalamzorlashtirish ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bahorning dastlabki kunlaridanoq ziyoratgohlar hududiga aholi vakillari, homiylar ishtirokida hashar yo'li bilan mevali va manzarali ko'chatlar ekildi, obodonchilik ishlari bajarildi. Muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar, masjid va qabristonlarda ziyorat qilish odoblari yozilgan lavhalar o'rnatildi[3].

Shunday qilib, o'zbek mentalitetining muhim belgilaridan biri bo'lmish muqaddas joylarni ziyorat qilish aslida islomdan oldingi diniy e'tiqodlar – animizm va fetishizm bilan bog'liqdir. Islomiyat davrida bu qadimgi udum transformatsiyaga uchrab, ziyoratgohlar islom dini arboblarning nomi bilan bog'landi. Shu yo'l bilan islom targ'ibotchilari oldingi diniy e'tiqodlarni bartaraf etish va yangi islom dinini qaror toptirishga uringanlar. Hozirgi kunda esa bu ziyoratgohlarni tavof qilish xalqimiz uchun o'tganlar ruhini shod etish, o'z ezgu niyatlarini ro'yobga chiqishiga umid bog'lash kabi optimistik xislatlarini o'zida namoyon etmoqda.

Xulosa.

Muqaddas qadamjolar davlat mablag'lari hisobiga, shuningdek tadbirkor va ishbiarmonlarning, boshqa olijanob insonlarning xayr-ehsonlari homiyliklari evaziga, hamda xalq hasharlari yo'li bilan ta'mirlanmoqda, azaliy ko'rinishida tiklanmoqda. Ziyoratgohlarda yoki unga yondosh bo'lgan hududlarda xalq

saylgohlari barpo etilmoqda. Ming-minglab ziyoratchilar u yerlarda madaniy xordiq chiqarib qaytishmoqda. Shu o'rinda bir narsani ta'kidlab o'tishni joiz topdik. Muqaddas qadamjolar sifatida e'zozlanib kelinayotgan ziyoratgohlarning boshqa dam olish maskanlaridan tubdan farq qiluvchi jihatlari bor. Bu aziz joylar xalqimizning azaliy qadriyatlari, rasm-rusmlari, urf-odatlar bilan bog'liq ekan, u yerlarga uyushtirilgan sayohatlarda, o'tkazilajak marosimlarda azaliy udumlarga, ziyoratgohlarda dafn etilgan aziz-avliyolarning ruhi-pokiga hurmat yuzasidan munosabatda bo'lmoq zaruriyatini unutmaslik lozim. Jumladan, ziyoratgohlarning tarixini, bu yerdagi an'analarni bilib qo'yimoq foydadan holi bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Asotirlar va rivoyatlar. 1- kitob. To'plab nashrga tayyorlovchilar Malik Murodov, Muharram SHayxova. - T.: 1990.
2. Abdulaxatov N. Farg'ona vodiysi ziyoratgohlari va qadamjolari. Tarixiy-etnologik tadqiqot. (Farg'ona viloyati misolida). nom. dis. T.: 2006
3. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007
4. Бирюкова Е. В. Религиозный туризм в территориальной рекреационной системе ЦЧР // Ученые записки Крымского федерального университета имени В. И. Вернадского. География. Геология. – 2017. – Т. 3 (69). – №1. – С. 20
5. www.ziyo.uz



III. MAXSUS PEDAGOGIKA

HARAKAT-TAYANCH A'ZOLARIDA KAMCHILIKLARI BO'LGAN BOLALAR

Karimova Nadiya Baxoniddinovna

*Namangan Davlat Pedagogika Instituti Pedagogika fakulteti Maxsus pedagogika
(logopediya) yo'nalishi 3-kurs talabasi*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada harakat tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar haqida, ulardagi nuqsonning kelib chiqish sabablari, oldini olish, davolash, qanday turlari mavjudligi profilaktikasi, yoritilgan. Ta'lim-tarbiya berish yo'llari ochib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** Bolalar serebral falaji, poliomelit, miya falaji, kompleksli nuqsonli, anomal bola, nutqiy motorika, shol kasalligi, artrogripoz, xondrodistrofiya*

***Аннотация:** В данной статье речь идет о ребенке с травмами органов опорно-двигательного аппарата причинах их дефектов предупреждению*

предупреждении и наличии видов лечения освещенный. Пути образования данный.

Ключевые слова: *детский церебральный паралич полиомиелит артрогрипоз церебральный паралич сложный дефект аномальный ребенок моторика паралич хондродистрофия.*

Abstract: *This article is about a child with an injured limb, causes, prevention, and treatment of their defect. Prevention of the presence of species, highlighted. Ways of education are provided.*

Keywords: *Children's cerebral palsy, poliomyelitis, arthrogyrosis, cerebral palsy complex defect, anomalous child, speech motility, paralysis chondrodystrophy.*

Serebral falajlik tashxisida asosan tayanch-harakat a'zolarida va qisman aqliy rivojlanishda oqsash kuzatiladi. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining Bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va reabilitatsiya qilish sho'basini mudiri Azizbek Mutaliyev ixtisoslashgan maktablar to'g'risida batafsil ma'lumot berdi:

— Bugungi kunda Xalq ta'limi vazirligi tizimida imkoniyati cheklangan, jismoniy yoki psixik rivojlanishda nuqsoni bor bolalar uchun 85ta ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlar faoliyat ko'rsatyapti. Mazkur muassasalarning:

- 50 tasi aqliy rivojlanishida nuqsoni bor;
- 17 tasi kar va zaif eshituvchi;
- 14 tasi ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi;
- 3 tasi tayanch-harakat a'zolari shikastlangan;
- 1 tasi nutqida og'ir nuqsoni bor bolalar uchun ixtisoslashtirilgan. Ushbu muassasalarda 18 533 nafar o'g'il-qiz ta'lim-tarbiya olmoqda.

Harakat tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar serebral falaji polimelit (shol kasalligi asorati) harakat tayanch a'zolarining turli tug'ma va orttirilgan deformatsiyasi, artrogripoz, oyoq qo'llarining majruxligi, axondroshgaziya yoki xondrodistrofiya- tana, bo'yin boshning normal rivojlanayotgan bir paytida tug'ma oyoq qo'l suyaklari o'sishining orqada qolishi, miopatiya- mushak to'qimalarida

modda almashinuvi bilan bog'liq bo'lgan irsiy kasallikda mushaklar yaxshi qisqarmaydi, kishi qo'l oyoqni harakatga keltira olmaydi.

Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar serebral falaji, poliomielit (shol kasalligi asorati), harakat-tayanch a'zolarining turli tug'ma va orttirilgan deformatsiyasi - artrogripoz, oyoq-qo'llarning majruhligi, axondroplaziya yoki xondrodistrofiya -tana, bo'yin, boshning normal rivojlanayotgan bir paytida tug'ma oyoq-qo'l suyaklari o'sishining orqada qolishi, miopatiya - mushak to'qimalarida modda almashinuvi bilan bog'liq bolgan irsiy kasallikda mushaklar yaxshi qisqarmaydi, kishi qo'l-oyoqni harakatga keltira olmaydi. Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalarning ko'pchiligida miya falaji kuzatiladi. Bolalar serebral falaj kasalligi hali yetilmagan, shakllanib bo'lmagan miyaning kasalligidir. Onaning xomiladorlik davrida ma'lum kasalliklar bilan kasallanishi, tug'ilish vaqtidagi patologik o'zgarishlar, tug'ilgandan to bir yoshgacha davr ichida bolani kasallanishi natijasida bosh miyaning harakat zonalari shikastlanadi, uning natijasida esa miyaning yaxlit yetilishi kechikadi va buziladi. Oqibatda bolaning umumiy hamda nutqiy motorikasi (harakatchanligi) faoliyati buziladi. Nutqning rivojlanmasligi esa intellektual rivojlanishni sekinlashtiradi. Kishi organizmining asosiy funksiyalari - nafas olish, qon aylanish, yutunish, tana harakati, nutqiy harakatlar va boshqalar harakat orqali – mushaklarning qisqarish natijasida sodir etiladi. Harakatlar ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo'ladi. Aniq maqsadni ko'zlab bajarilgan ixtiyoriy harakatlar inson xatti-harakati, hissiy-irodaviy qobiliyati, bilish faoliyatini, hulqining shakllanishida asosiy rol o'ynaydi.

Bolalar serebral falaji (BSF) - bosh miyaning harakat zonalari va harakatlarni o'tkazuvchi yo'llarining birlamchi jarohatlanishi bilan namoyon bo'luvchi markaziy nerv tizimi kasalligi. Bolalar serebral falajida miyaning harakat va nutq harakat tizimlarining erta organik jarohatlanishi kuzatiladi. Ushbu nuqsonlarning sabablari turli-tuman bo'lishi mumkin: infeksiyon kasalliklar, ayniqsa virusli infeksiyon kasalliklar; xomiladorlik davrida zaxarlanish va turli xildagi jarohatlar; surunkali kasalliklar; ona va homilaning qon guruhi yoki rezus fiaktori bo'yicha o'zaro mos kelmasligi hamda boshqa sabablar; ba'zi holatlarda esa,

masalan onaning tugʻruq vaqtida kamchiliklarga yoʻl qoʻyilishi natijasida kelib chiquvchi tugʻruq jarohatlari; xomilaning oʻz oʻqiga oʻralib qolishi natijasida bolada kislorod yetishmasligining paydo boʻlishi va buning oqibatidagi bosh miya nerv hujayralarining zararlanishi.

Bolalar serebral falajida nutqiy buzilishlami iloji boricha erta aniqlash va korreksion-logopedik ishlarni oʻz vaqtida boshlash juda muhim hisoblanadi. Logopedik tekshirish vaqtida bolaning artikulyatsion, nafas va ovoz apparatlarining holatini va ishlash vaqtidagi hamkorligi darajasini aniqlab olish zarurdir. Buning uchun esa quyidagilarga: yuz muskullarining tonusiga; majburiy va keskin harakatlar, tonus oʻzgarishining mavjudligiga; harakatlarning hajmiga; ogʻizning avtomatlashgan harakatlarining mavjudligi yoki mavjud emasligiga; logopedning barmogʻi yordamida ogʻiz va ogʻiz atrofi sohalarini stimullash - jalb qilish jarayoniga javob reaksiyasining mavjudligiga eʼtibor qaratish lozim.

Serebral falajlangan bolalar bilan ilk yosh davrda olib boriladigan reabilitatsion ishlami oilada va maktabgacha tarbiya muassasalarida uzviy bogʻlangan holda olib borish lozim. Davolov-korreksion-rivojlantiruvchi, reabilitatsion ish tizimi fizioterapevt, davolovchi jismoniy tarbiya mutaxassisi, nevropatolog, logoped va oligofrenopedagogning hamkorlikdagi kompleks ishi asosida amalga oshiriladi.

Harakat-tayanch aʼzolarida kamchiliklari boʻlgan bola oqibatida tilning lugʻat tarkibi va grammatik tuzilishining oʻziga xosligi R.YE.Levina, V.K.Orfinskaya, N.N.Traugott, S.N.Shaxovskaya, V.K.Vorobyeva, B.M.Grinshpun, L.F.Filicheva, G.V.Chirkina, A.V.Yastrebova, V.YE.Sobotovich, V.A.Kovshikov va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida keng talqin qilinadi.

Bu ishlarda nutqning talaffuzi, lugʻat boyligi, grammatik tuzilishiga, bogʻlanishli nutqni tuzatishga oid taʼlim jarayonida bolalar tomonidan nutqning mantiqiy va tovush jihatlarining oʻzlashtirilishi masalalariga eʼtibor qaratiladi.

K.P.Bekker va M.Sovak harakat-tayanch aʼzolarida kamchiliklari boʻlgan biologik, ijtimoiy sabablarni hamda ularning kombinatsiyasi ustunligi bilan bogʻliq komponentlarni ajratadilar. Anʼanaviy tarzda nomlanuvchi eshituvchi soqovlik

kinestik-motor buzilishlar yoki noqulay ijtimoiy ta'sirlar bilan shartlangan, o'ziga xos harakterga ega bo'lgan nutq rivojlanishining kechikishida namoyon bo'ladi.

I.T.Vlasenko, V.V.Yurtaykinning ta'kidlashicha, bunday bolalarning nutqiy faoliyatini tashkil etuvchi struktural tarkibiy qismlar orasida dissatsiatsiya aniqlangan. Ularning bir xillarida operatsion imkoniyatlarning saqlanganligi holatida maqsadli ko'rsatmalarning shakllanmaganligi mavjud; boshqalarida esa yetarlicha turg'un motivatsiyaning mavjudligi bilan birga, faoliyatning operatsion qatorida muayyan yetishmovchilik belgilangan.

Harakat-tayanch a'zolarida kamchiliklari bo'lgan turlicha, ya'ni nutq umuman mavjud emasligidan tortib, nutq buzilishining yengil shakllarigacha bo'lgan holatlarni qamraydi. Keyinchalik, L.F.Spirova va A.S.Yastrebovalar nutqning to'liq rivojlanmaganligini tuzatishda quyidagi korreksion ishlarni amalga oshirish lozimligini taklif etishadi:

1. Talaffuzni tuzatish (tovush va so'zlar artikulyatsiyasidagi kamchiliklar tuzatiladi, oydinlashtiriladi).
2. Tovush tahlili va so'z sintezini birin-ketin reja asosida rivojlantirish.
3. Lug'at va nutqni grammatik jihatdan rivojlantirish. Ana shu tizim asosida bolalar savodga o'rgatiladi.

Logopedik yo'nalishda, xususan, nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning nutqiy rivojlanishi, ularga nutq normalari va qonun – qoidalarini o'rgatish borasida juda ko'p izlanishlar olib borgan qator tadqiqotchilar nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar nutqiy rivojlanishining o'ziga xosligini tadqiq etish natijasida ularning lug'at boyliklari normal rivojlanayotgan tengdoshlari nutqiga qaraganda miqdor, sifat jihatidan orqada qolishini isbotlaganlar.

- qo'shimchalarning o'zgarishi, ko'plik –lar son kategoriyasining o'rnida birlik shaklining qo'llanishi (do'st-do'stlar, stul-stullar, mushuk-mushuklar, daraxt-daraxtlar);

- shakl o'zgarishida suppletivizmlarning yo'qligi (odam-odamlar, bola-bolalar, ot-otlar).

Bunda okkazional qo'shimchalarni tanlash bir xil grammatik ma'nodagi ot shakllarining turlanishida paydo bo'ladi. Ko'rinadiki, funksional elementlarning

almashtirilib tanlanishi nutqiy vaziyatda doim talab etiladigan funksional kategoriyalar ostida sodir bo'ladi. Bola nutqida grammatik shakllar ketma-ketligining o'zlashtirilishi ularning semantik oppozitsiya darajasi bilan belgilanadi. Agar grammatik shakl asosida aniq, semantik qarama-qarshi qo'yilgan kognitiv rivojlanish yotgan bo'lsa, u oson farqlanadi. Bu esa bolalarning bosh kelishikdagi birlik va ko'plik shakllarni farqlash erta o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, okkazional shakllar bilan bog'liq agrammatizmlar normal bolalar uchun ham, nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar uchun ham xosdir.

Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar nutqining harakterli xususiyatlaridan yana biri bir vaqtning o'zida nutq grammatik qurilishining ikki usulini o'zlashtirish xususiyatiga ega:

- so'zlarni bo'laklarga ajratmasdan, yaxlit holatda o'zlashtirish (taqlid qilish mexanizmi asosida);

- analiz va sintez mexanizmi asosida so'zlarni va uni tashkil etuvchi morfemalarini ajratishni o'zlashtirish. Bu nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda ancha sekin kechishi belgilangan.

Harakat-tayanch a'zolarida kamchiliklari bo'lgan bolalar nutqida sintaktik imkoniyatlarning buzilishini mohiyatiga ko'ra chuqur sintaktik buzilish hamda yuzaki sintaktik buzilishga ajratish mumkin.

Nutqda sintaksisning chuqur buzilish darajasini so'z birikmalari semantik komponentlari o'rtasida (obyektiv, relyativ, atributiv) munosabatlarni o'zlashtirishda gap ifoda semantik tizimini tashkil etishdagi qiyinchiliklarda paydo bo'ladi. Yuzaki darajadagi buzilish holati so'zlar o'rtasidagi grammatik bog'liqlikning buzilishida, gapda so'zlarni noto'g'ri ketma-ketlik asosida shakllantirish holatlarida paydo bo'ladi.

Ba'zan harakat-tayanch a'zolarida kamchiliklari bo'lgan bolalar nutqiy vaziyatda dastlab bitta gapda 3-5ta o'zgarmagan o'zak-so'zdan foydalanishadi. Keyinchalik, nutqning rivojlanishi jarayonida ular so'z o'zgartirishni ham egallab oladilar, biroq ular so'zlarni biriktirishni eski usullardan foydalangan holda o'z fikrlarini ifodalaydilar. Harakat-tayanch a'zolarida kamchiliklari bo'lgan bolalar

nutqining grammatik jihatdan rivojlanish xususiyatlarini nutq holatini normadagi ma'lumotlar bilan solishtirish natijasida bolaning nuqsonli nutq fazasini belgilash, til komponentlarining shakllanganlik darajasini baholash, tashxis qo'yish hamda ular bilan korreksion-pedagogik ishlarni to'g'ri tashkil etish uchun muhimdir.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, harakat-tayanch a'zolarida kamchiliklari bo'lgan bolalarni maxsus o'qitish natijasida ular da til tizimidagi nutqiy munosabatlar shakllanadi, sodda va ancha keng tarqalgan murakkab gaplar o'zlashtiriladi. Maktab yoshiga yetganida esa, o'z nutqida sodda (4-6 so'zli), keng tarqalgan gaplarni qo'llashga o'tadi. Nutqi to'liq rivojlanmagan o'quvchilar murakkab gaplarni nafaqat nutqda qo'llashga, balki ularni grammatik jihatdan to'g'ri tuzishga ham o'rganishadi. Bu esa, nafaqat muloqot qilishning osonlashganini, balki ularning ona tilini o'zlashtirib borayotganligidan ham dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Raxmanova V.S. "Korreksion pedagogika va logopediya"- Moliya-iqtisod-T, 2007-yil
2. Ayupova M. Yu. Logopediya.T. "O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati" 2007-yil
3. Raxmanova V.S. "Defektalogiya asoslari"- "VORIS-NASHRIYOT T. 2012-yil
4. Raxmanova V.S."Maxsus pedagogika"-T. 2005-yil
5. 4. M.Y.Ayupova. Logopediya Toshkent 2007-yil
6. Maxammadsidiqovna, X. M. (2024). ALALIYA TURLARI, ALALIYANING KELIB CHIQISH SABABLARI VA UNING OLDINI OLISH VA UNI KORREKSIYALASH. Miasto Przyszłości, 46, 314-316.
7. Maxammadsidiqovna, X. M., & Odilxanovich, S. Q. (2024). BOLALARDA DIQQAT ETISHMASLIGI VA GIPERAKTIVLIK BUZILISHNI KALTIRIB CHIQRUVCHI SABABLARI, NOMOYON BO'LISHI VA XULQ-ATVOR XUSUSIYATLARI. Научный Фокус, 1(10), 85-89.
8. Mashxura, X. (2023). Bolalardagi diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromining ba'zi bir jihatlari. Innovations in Technology and Science Education, 2(14), 574-578.

BOLALAR NUTQIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI KORREKSIYALASH

Oribboyeva Dilafruz Dadamirzayevna

Karimova Nadiya Baxoniddinova

Namangan davlat pedagogika instituti

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada bolalar nutqidagi muammolarning sabablari va ularni yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi omillarga xaqidagi ma'lumotlar yoritilgan. Bundan tashqari ota-onalar uchun maktabgacha yoshdagi bolalar nutqidagi muammolarni korreksiyalashga doir mashqlar keltirilgan .*

***Kalit so'zlar:**nutq, bolalar, bog'cha yoshi, o'yinlar, jismoniy, ma'naviy, muloqot, psixik.*

Bizning bolalarimiz texnika davrida yashashmoqda va ularning aksariyati ko'p vaqtini televizor yoki kompyuterning oldida o'tkazishmoqda. Ular bilan kattalar orasidagi insonlarga xos bo'lgan muloqotning kamayib borayotganligi sezilyapti. Garchi bolalar bilan ularni nutqni rivojlantirishga va muloqotchanligini oshirishga qaratilgan mashg'ulotlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amalga oshirilsada, bu yetarli emas, shuning uchun ota-onalar farzandlari bilan uyda ham shug'ullanishlari lozim. Buning uchun ular bilan alohida mashg'ulot shaklida emas balki bog'ga sayr vaqtida, do'konga chiqishda, bog'chadan qaytishda va boshqa birga bo'ladigan daqiqalarda qiziqarli va samarali o'yinlarni tashkil etish mumkin. Faqatgina ular bilan yaqindan muloqot qilish ota-ona va farzandlarning o'rtasidagi munosabatlarni yaqinlashtirib, ishonchli aloqalarni mustahkamlaydi. Har bir yosh davrida muloqotchanlik rivojlanish bosqichlarini bosib o'tadi. 3-4 yoshli bolalarning psixik rivojlanishida muloqotning ahamiyati beqiyosdir. Bu yoshda bolalar dunyoni o'rganish, yangi bilimlarni o'zlashtirish va o'zlarini ifodalashda muloqotning muhim rolini anglay boshlaydilar.

Kichik bog'cha yoshidan boshlab muloqotning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi muloqot orqali bolalar yangi so'zlarni o'rganadi, gaplarni bir biriga

bog'lash qobiliyati rivojlanadi, so'z boyligi ortadi, boshqalar bilan muloqot qilish orqali bolalarda ijtimoiy malakalar rivojlanadi hamda o'zaro hurmat, hamkorlik va munosabatlarni o'rnatish ko'nikmalari shakllanadi. Muloqot bolalarning hissiyotlarini ifodalashi va boshqalarning hissiyotlarini anglashga yordam beradi. Tafakkurini rivojlanishiga yordam beradi, muloqot orqali bolalar muammolarni yechish, fikrlash va muhokama qilish imkonini qo'lga kiritadi. Ularda iroda rivojlanishi bilan o'z fikrlarini ifodalash, o'z harakatlari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish, mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlanadi.

Faqatgina 3-4 yoshli bolalar bilan muloqot qilishda quyidagilarga e'tibor berish muhim:

Sabr-toqatli bo'ling: Bolalarning gapini eshitish, ularning savollariga javob berish va ularni tushunish muhim.

Ochiq va samimiy bo'ling: Bolalar bilan ochiq va samimiy muloqot qilish ularning ishonchini qozonadi va muloqotini yanada samarali qiladi.

Bolalarning qiziqishlariga e'tibor bering: Bolalarning qiziqishlarini bilib, ular bilan ularni qiziqtiradigan mavzularda suhbatlashing.

O'yinlar va faoliyatlar orqali muloqot qiling: Bolalar bilan o'yinlar o'ynash, hikoyalar o'qish, rasm chizish va boshqa faoliyatlar orqali muloqot qilish ularga yoqimli va foydali bo'ladi.

3-4 yoshli bolalarning psixik rivojlanishida muloqotning ahamiyati juda katta. Ota-onalar, tarbiyachilar va boshqa kattalar bolalar bilan samarali muloqot qilish orqali ularning to'g'ri va barkamol rivojlanishiga yordam berishlari mumkin. Odatda bolalarning atrofdagi odamlar bilan jonli muloqot qilishidan kelib chiqqan muammolar maktabga qabul qilish davrdia aniq ko'rinadi:

- Bolaning gaplari odatdan birlashgan bo'lib, faqat sodda so'zlardan iborat;
- Leksik so'z boyligining juda kam bo'lishi;
- Biror hikoyani o'z so'zlari bilan so'zlab berish qobiliyatning yo'qligi;
- Yomon talaffuz, hikoya tempini va ovozini o'zgartirish qobiliyatining yo'qligi, turli intonatsiyalardan foydalanish qobiliyatining bo'lmasligi.

Bog'cha yoshidagi bolalarning nuqidagi muammolari bir necha sabablarga asoslanadi. Jamladan bolalarning jismoniy va ma'naviy rivojlanishida muammolar,

masalan, murakkab boshlang'ich bosqichlarda ixtiyoriy harakatlarni amalga oshirishda qiyinchiliklar, oilaviy muammolar, ajralish, yoki muhitdagi o'zgarishlar bolaning emosional holatiga ta'sir qilishi, sog'lig'i bilan bog'liq muammolari, ko'rish yoki eshitish muammolari bo'lishi, ularning ta'lim olishiga ta'sir qilishi mumkin. Bundan tashqari bola yashayotgan muhitda agressivlik, zo'ravonlik yoki mo'ljallangan kamsitish ularning o'ziga bo'lgan ishonchini susaytirishi mumkin.

Bunday vaziyatlarda bolalar uchun mashqlar va o'yinlar nutqiy ifodalilikni shakllantirishga, lug'at boyligini oshirish, talaffuzni yaxshilashga, savodxonligini oshirishga yordam beradi. Faqatgina bu mashqlar va o'yinlarni bolalarning yoshi va rivojlanish darajasiga moslashtirish muhim.

Masalan, kichik yoshdagi bolalar uchun oddiy, qiziqarli o'yinlar, "Tovushlarni topish", "So'zlarni takrorlash", "Hayvonlar ovozigacha taqlid qilish" kabi o'yinlar qiziqarli va foydali bo'ladi. Kattaroq yoshdagi bolalar uchun esa, "Hikoya tuzish", "She'r o'qish", "Rollarni o'ynash" kabi o'yinlar va mashqlar samarali bo'ladi. Shuningdek, bolalarning nutqiy rivojlanishiga yordam berish uchun ota-onalar va tarbiyachilar quyidagilarga e'tibor berishlari kerak: Bolalar bilan ko'proq gaplashish, ularning savollariga javob to'liq javob qaytarish, ularning hikoyalarini eshitib, qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash hamda bolalarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish, ularga turli xil kitoblarni o'qib berish kerak bo'ladi. Bundan tashqari bolalar bilan she'rlar o'rganish, qo'shiqlar kuylash, tez aytish o'yinlari o'ynash kabi faoliyatlar bilan shug'ullanish ham foydali bo'lib ularning nutqiy rivojlanishidagi muammolarni o'z vaqtida aniqlash va mutaxassislar bilan maslahatlashish ham zarur bo'ladi. Bolalarning nutqiy rivojlanishi ularning intellektual, ijtimoiy va hissiy rivojlanishi uchun muhimdir.

Bolalarning muammolarini hal qilish uchun oila, o'qituvchilar va jamoatchilik birgalikda ish olib borishi zarur. Bog'cha yoshidagi bolalarning nutqini rivojlantirish uchun samarali usullardan foydalanish muhim. Ushbu usullar bolalarning tilini, aloqa ko'nikmalarini va ma'naviy rivojlanishini mustahkamlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vaxoniddinova, K. N. (2024). EDIK ISHLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI'. *TADQIQOTLAR. UZ*, 48(2), 70-75.
2. Vaxoniddinova, K. N. (2024). INKLYUZIV TA'LIM RIVOJLANISHIDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 31(1), 159-163.
3. Vaxoniddinova, K. N. (2024). NUTQIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLIGINI PSIXOLOGOGIK–PEDAGOGIK TEKSHIRISH, TAMOYILLARI, METODLARI VA VAZIFALARI. *World Scientific Research Journal*, 32(1), 142-147.
4. Vaxoniddinova, K. N. (2024). BO'LAJAK DEFEKTOLOGLARNING KASBIY FAOLIYATIDA BOLALARDAGI DIQQAT YETISHMASLIGI VA GIPERAKTIVLIK SINDROMI BILAN BARTARAF ETISH TEXNOLOGIYALAR. *IMRAS*, 7(10), 9-12.
4. Д.А.Нуркелдиева Педагогик –психологик диагностика Toshkent – 2018 (Ривожланишида нуқсони бўлган болаларнинг педагогик-психологик диагностикаси)
5. Детская логопсихология : учебник / О. А. Денисова, О. Л. Леханова, Т. В. Захарова, В. Н. Поникарова. — Москва : Владос, 2015. — 159 с. — ISBN 978-5-691-02124-4.
6. Ориббоева, Д. Д., & Мирзаахмедова, Д. М. (2024). Болаларда ижтимоий кўникмаларни ривожлантиришнинг аҳамияти. *Science and Education*, 5(2), 595-599.
7. Oriboyeva, D. D., & qizi G'aniyeva, S. B. (2024). Assertiv xulq shakllanishining o'ziga xosligi. *Science and Education*, 5(2), 590-594
8. Орифбоева, Д. Д. (2017). ОПТИМИЗАЦИЯ УЧЕБНОПОЗНАВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ. *Форум молодых ученых*, (6 (10)), 1320-1323.
9. Ориббоева, Д. ИЖТИМОЙ ДИПРИВАЦИЯ ШАРОИТИДАГИ ЕТИМ БОЛАЛАРГА ТАЪЛИМ ТАРБИЯ БЕРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК УСЛУБЛАРИ. *Проблеми та перспективи розвитку науки на початку третього тисячоліття у країнах Європи та Азії*, 294.
10. Лауткина С.В. Логопсихология: учебно-методическое пособие / С.В. Лауткина. – Витебск: Изд-во УО «ВГУ им. П.М. Машерова», 2007. – 173 с.

INKLYUZIV TA'LIMNING YEVROPA DAVLATLARIDAGI TAJRIBASI

Rahmonov Murodjon

Namangan davlat umversiteti 3 bosqich talabasi

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Inklyuziv Ta'limning Yevropa Davlatlaridagi Tajribasi haqida to'la malimotga ega bo'lasiz. Uning afzalik taraflari hatto kamchiliklari va shunga o'xshash ma'limotlar yoritiladi.*

***Kalit so'zlar:** Inkluziv ta'lim, imkoniyuati cheklangan, nogironligi bor shaxs, ko'zi ojiz, zaif ko'ruvchi gapirishda va eshitishda nuqsoni bor, alohida ta'limga ehtiyoj*

So'nggi yillarda Yevropa davlatlari ta'limda tenglik va har bir bolaning ta'lim olish huquqini ta'minlashga katta e'tibor qaratmoqda. Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar inklyuziv ta'limni rivojlantirish borasida turli usullarni qo'llab, barcha o'quvchilar uchun teng sharoit yaratishga intilmoqda. Ularning tajribasi boshqa mamlakatlar uchun ham foydali bo'lishi mumkin.

Yevropa davlatlari o'z inklyuziv ta'lim siyosatida bir qator asosiy yondashuvlarni qo'llaydi:

1. Maxsus ehtiyojlarga ega bolalarni umumiy ta'limga integratsiya qilish: Aksariyat davlatlarda maxsus ehtiyojli bolalarni umumiy maktablarga qabul qilish maqsad qilingan. Bu esa ularga teng imkoniyatlarda ta'lim olish, ijtimoiy muloqot va jamoaga qo'shilish imkoniyatini beradi.

2. Ta'lim tizimini moslashtirish: Ta'lim dasturlari va o'qitish metodlarini barcha bolalarga moslashtirish orqali ularning ehtiyojlari qondiriladi. Har bir o'quvchining imkoniyatlarini hisobga olib, individual rivojlanish dasturlari tuziladi.

3. Xizmat va resurslarni qo'llash: Yevropa davlatlarida inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlash uchun ko'plab resurslar va xizmatlar, jumladan, maxsus tayyorgarlikka ega o'qituvchilar, psixologlar va logopedlar jalb etiladi.

Finlyandiya: Finlyandiya ta'limda tenglikka katta ahamiyat beradi. Mamlakatda barcha bolalar, jumladan maxsus ehtiyojlarga ega bolalar ham umumiy maktablarda ta'lim olishlari mumkin. Finlyandiyada maxsus ta'lim o'qituvchilari va boshqa yordamchi xodimlar ta'minlanib, har bir bolaning ehtiyojlariga ko'ra yordam ko'rsatiladi. Bu usul bolalarning bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi.

Italiya: Italiyaning inklyuziv ta'lim tajribasi o'ziga xos. 1970-yillarda qabul qilingan qonunlarga ko'ra, maxsus ehtiyojlarga ega bolalar umumiy maktablarda ta'lim olish huquqiga ega bo'lishgan. Italiyada maxsus ehtiyojli o'quvchilar uchun yordamchi o'qituvchilar ajratiladi va ular o'z sinfdoshlariga qo'shib o'qiydilar. Bu tizim o'quvchilarning bir-biriga yordam berishini va hamjihatlikda ishlashini ta'minlaydi.

Daniya: Daniya inklyuziv ta'limda ilg'or davlatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatda o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'lim dasturlari va maxsus qo'llab-quvvatlash xizmatlari mavjud. Har bir bolaning o'ziga xosligi va qobiliyatlarini rivojlantirishga e'tibor qaratilib, ularning individual ehtiyojlari qondiriladi.

Ispaniya: Ispaniyada inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlash uchun maxsus dasturlar va xizmatlar ishlab chiqilgan. Maktablarda o'quvchilarga psixologik va pedagogik yordam ko'rsatadigan mutaxassislar mavjud. Shuningdek, har bir o'quvchi uchun individual ta'lim rejasi tuziladi va o'qituvchilar bu rejaga amal qilishadi. Ispaniya jamiyati inklyuziv ta'lim orqali bolalarni bir-biriga nisbatan hurmatda bo'lishga o'rgatmoqda.

Yevropa davlatlari inklyuziv ta'limni rivojlantirishda qator qiyinchiliklarga duch keladi:

Moliyaviy resurslar: Inklyuziv ta'limni muvaffaqiyatli joriy etish uchun katta moliyaviy mablag' talab etiladi. Xususan, maxsus ehtiyojlarga ega bolalar uchun qo'shimcha jihozlar, yordamchi xodimlar va maxsus ta'lim xizmatlariga ehtiyoj mavjud.

Kadrlar tayyorlash: Inklyuziv ta'limda ishlash uchun o'qituvchilar maxsus tayyorgarlikdan o'tishlari kerak. Ammo barcha davlatlarda yetarli darajada malakali kadrlar mavjud emas.

Jamiyatning yondashuvi: Ba'zi jamiyatlarda inklyuziv ta'lim hali to'liq tushunilmagan va bu jarayonga nisbatan qarshilik mavjud. Shuning uchun, jamiyatning xabardorligi va qo'llab-quvvatlashi muhim ahamiyatga ega.

Yevropa davlatlaridagi inklyuziv ta'lim tajribasi ko'rsatmoqdaki, har bir bolaning ta'lim olish huquqi ta'minlanishi jamiyat rivojiga hissa qo'shadi. Finlyandiya, Italiya, Daniya va Ispaniya kabi davlatlar ta'limda tenglikni ta'minlash va maxsus ehtiyojli bolalarni qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ainscow, M., Booth, T., Dyson, A. (2006). Improving Schools, Developing Inclusion. Routledge.
2. Slee, R. (2011). The Irregular School: Exclusion, Schooling, and Inclusive Education. Routledge.
3. Florian, L. (2014). The SAGE Handbook of Special Education. SAGE Publications.
4. UNESCO (2005). Guidelines for Inclusion: Ensuring Access to Education for All. UNESCO.
5. Tomlinson, C. A. (2001). How to Differentiate Instruction in Mixed-Ability Classrooms. ASCD.
6. Mitchell, D. (2014). What Really Works in Special and Inclusive Education: Using Evidence-Based Teaching Strategies. Routledge.
7. Maxammadsidiqovna, X. M. (2024). ALALIYA TURLARI, ALALIYANING KELIB CHIQISH SABABLARI VA UNING OLDINI OLIH VA UNI KORREKSIYALASH. Miasto Przyszłości,
8. Maxammadsidiqovna, X. M., & Odilxanovich, S. Q. (2024). BOLALARDA DIQQAT ETISHMASLIGI VA GIPERAKTIVLIK BUZILISHNI KELITIRIB

CHIQUARUVCHI SABABLARI, NOMOYON BO'LISHI VA XULQ-ATVOR
XUSUSIYATLARI. Научный Фокус

9. Mashxura, X. (2023). Bolalardagi diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromining ba'zi bir jihatlari. Innovations in Technology and Science Education,

**DIQQAT ETISHMASLIGI VA GIPPERAKTIVLIK SINDROMIGA
CHALINGAN BOLALAR HAMDA KATTALARDA YUZAGA KELADIGAN
MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI**

Xasanova Mashxura Maxammadsidiqovna

*Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika va psixologiya kafedrası
o'qituvchisi.,*

P.f.n., dotsent Shodmanov Qodirjon Odilxanovich.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada diqqat, yetishmasligi va giperaktiv sindromiga chalingan bolalar va kattalar qanday muammolarga duch kelishlari va ularning xayotida ota onalarning vazifalari haqidagi fikrlar tizimi ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Diqqat, diqqatning yetishmasligi, giperaktivlik sindromi, nevropsixolog, intellectual, diqqat etishmasligi va giperaktivlik sindromi, impulsivlik.*

DEGS (Diqqat etishmasligi va giperaktivlik sindromi) – bu giperaktivlik, impulsivlik va diqqat etishmasligi bilan tavsiflanadigan multifaktorial kasallik bo'lib, uning belgilari ilk bolalik davrida boshlanadi va turli darajadagi funkcionallikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu tavsifiy va kesmaviy tadqiqot 2016 yilda Eronning Tabriz shahridagi 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarda diqqat etishmasligi va giperaktivlik buzilishini tekshirish uchun o'tkazilgan.

Diqqat etishmasligi va giperaktivlik buzilishi odamlarning xatti-harakatlariga ta'sir qiladigan holatdir. Diqqat etishmasligi va giperaktivlik sindromiga chalingan odamlar bezovta bo'lib tuyulishi, diqqatni jamlashda muammolarga duch kelishi va beixtiyor harakat qilish extimoli yuqori bo'ladi.

Diqqat etishmasligi va giperaktivlik sindromi belgilari odatda ilk bolalik yoshda seziladi va bolaning sharoitlari o'zgarganda, masalan, maktabga kirganida sezilarli bo'lishi mumkin. Aksariyat holatlar 12 yoshgacha bo'lgan bolalarda tashxis qilinadi. Ba'zida bu sindrom bilan kimdir bolaligida tan olinmagan va ular keyinchalik kattalar sifatida tashxis qilinadi. Diqqat etishmasligi va giperaktivlik sindromi belgilari yosh o'tishi bilan yaxshilanishi mumkin, ammo yoshligida kasallik tashxisi qo'yilgan ko'plab kattalar muammolarga duch kelishda davom etadilar. Diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromiga chalingan odamlarda uyqu va bezovtalik kabi qo'shimcha muammolar ham bo'lishi mumkin.

Ko'pgina bolalar bezovtalanish yoki e'tiborsiz bo'lgan bosqichlardan o'tadilar. Bu ularda diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromi borligini anglatmaydi.

Ammo farzandingizning xatti-harakatlari o'z yoshidagi ko'pchilik bolalardan farq qilishi mumkin deb hisoblasangiz, tashvishlaringizni uning o'qituvchisi, psixolog va defektolog hamda nevropsixolog bilan muhokama qilishingiz kerak bo'ladi.

Agar siz katta yoshli kishi bo'lsangiz va o'zingizda diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromi bor deb o'ylasangiz, lekin bolaligingizda kasallik tashxisi qo'yilmagan bo'lsa, defektolog-shifokor bilan gaplashish ham yaxshi natija beradi.

Diqqat etishmasligi va giperaktivligi buzilishiga nima sabab bo'ladi?

Diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromining aniq sababi noma'lum, ammo bu holat xomiladorlik davrida onaning ko'p depressiya va stress holatlarda bo'lishi, animiya yoki vitamin tanqisligi kuzatilsa hamda bola tug'ilgandan so'ng unga pedagogik qarovning yo'qligi, oilalardagi notinch muxit asosida yuzaga kelish extimoli katta bo'ladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromi bo'lgan odamlarning miyasida kasallikka chalinmaganlar bilan solishtirganda bir qator mumkin bo'lgan farqlar aniqlangan.

Diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromida potentsial ro'l o'ynashi mumkin bo'lgan boshqa omillar quyidagicha tavsiflanadi:

- muddatidan oldin tug'ilish (homiladorlikning 37-haftasidan oldin) kam tug'ilish vazniga ega;

- meningit va markaziy asab tizimiga ta'sir qiluvchi boshqa infeksiyalar;
- homiladorlik paytida chekish yoki spirtli ichimliklarni yoki giyohvand moddalarni iste'mol qilish kabilardir.

Diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromi har qanday intellektual qobiliyatga ega bo'lgan odamlarda paydo bo'lishi mumkin, garchi u o'rganishda qiyinchiliklarga duch kelgan odamlarda ko'proq uchraydi.

Diqqat etishmasligi va giperaktivlik sindromi qanday davolanadi?

DEGS bilan og'rigan bolalar uchun hech qanday davo yo'q bo'lsa-da, unga tegishli ravishda ta'lim-tarbiya berish, ota-onalar va ta'sirlangan bolalar uchun maslahat va yordam, zarur bo'lsa tibbiyot bilan birga boshqarish mumkin.

DEGS bo'lgan kattalar uchun tibbiyot ko'pincha birinchi davolash usuli hisoblanadi, ammo kognitiv xatti-harakatlar terapiyasi bilan defektolog ham shug'ullanishi mumkin.

Diqqat etishmasligi va giperaktivlik sindromi (DEGS)ga chalingan katta yoshli odamlar va DEGS bo'lgan bolalarning ota-onalari oldida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar:

DEGS bilan og'rigan bolaga g'amxo'rlik qilishning qiyin bo'lishi, ammo ular o'z xatti-harakatlariga yordam bera olmasligini yodda tutishi kerak.

- farzandingizda beixtiyor xatti xarakatlar;
- uyquni notinch va tartibsizligi;
- o'z vaqtida bog'cha va maktab ta'limiga qiziqmasligi;
- ko'rsatmalarni tinglash va bajarishdan bosh tortishi;
- yaqinlar va do'stlari bilan murosasizligi;
- diqqat va xotirani sustligi bilan xarakterlanadi.

DEGS bilan og'rigan kattalar quyidagi muammolarga duch kelishlari mumkin:

- diqqatni jamlash va vazifalarni bajarishdagi;
- stress bilan kurashishdagi;
- bezovtalik yoki sabrsizlikni his qilishdagi;
- impulsivlik va tavakkalchilikdagi yuzaga keladigan qiyinchiliklar.

Ba'zi kattalar ham munosabatlar yoki ijtimoiy o'zaro munosabatlar bilan bog'liq muammolarga duch kelishadi.

Diqqat etishmasligi va giperaktivlik sindromi surunkali holat hisoblanib, bu simptomlarni, dori-darmonlarni va boshqa davolash usullarini uzoq muddatli, doimiy monitoring va sozlashni talab qiladi. Semptomlar vaqt o'tishi bilan yaxshilanishi mumkin bo'lsa-da, DEGS odatda to'liq yo'qolib ketmaydi. Shu bilan birga, bemorlar o'z holatini xulq-atvor usullari orqali nazorat qilishni o'rganishlari mumkin, bu ko'pincha dori-darmonlar bilan qo'llab-quvvatlanadi. Diqqat etishmasligi va giperaktivlik sindromini davolash vaziyatni to'liq bartaraf etmaydi, balki simptomlarni nazorat qilish va zararlangan odamning faoliyatini yaxshilashga qaratilgan. Davolash odatda psixostimulyatorlarning kombinatsiyasini o'z ichiga oladi. Bular odatda: Metilfenidat (Ritalin) va xulq-atvor terapiyasi (boshqa preparatlar kattaroq bolalar va kattalar uchun ham qo'llanilishi mumkin) hisoblanadi.

Davolash ko'pincha tizimli yondashuvni o'z ichiga oladi:

- bola uchun pediatr, boshqa tibbiy yordam ko'rsatuvchi provayderlar, ota-onalar va o'qituvchilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun (4-5 yosh) ota-onalar va o'qituvchilar tomonidan taqdim etilgan xatti-harakatlar terapiyasi birinchi navbatda e'tiborga olinishi kerak. Ko'pgina bolalar uchun faqat xulq-atvor terapiyasi sezilarli darajada yaxshi tomonga o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Agar keyingi, qayta davolanish kerak bo'lsa va foyda, ehtimol, xavflardan ustun bo'lsa, shifokor Metilfenidat (Ritalin va boshqalar) stimulyatorlarini buyurishi mumkin;

- maktab yoshidagi bolalar uchun (6-11 yosh) dori-darmonlar, ogohlantiruvchi va xatti-harakatlar terapiyasining kombinatsiyasi kerak. Rag'batlantiruvchi dori alternativlari, tavsiyalar tartibida: Atomoksetin (Strattera), Guanfacin (Tenex) yoki Klonidin (Katapres) buyuriladi;

- o'smirlar (12-18 yosh) dori-darmonlar bilan davolanishi va kerak bo'lganda xulq-atvor terapiyasi bilan davolanishi kerak. Ushbu yoshdagi ba'zi bemorlar dori-darmonlarni qabul qilishni vaqtincha to'xtatishi mumkin. Bu vaqtda shifokor bolani diqqat bilan kuzatishi kerak. O'smirlar, shuningdek, balog'at yoshida o'sishi va o'zgarishi bilan dori dozalarini moslashtirishlari kerak;

Bolalarda bo'lgani kabi, DEGS bo'lgan kattalar uchun ham davolanish dorilar va psixoterapiyaning kombinatsiyasi hisoblanadi. Giyohvand moddalar, stimulyatorlar yoki giyohvand bo'lmagan stimulyatorlar uchun Atomoksetin (Strattera) odatda birinchi darajali davolash hisoblanadi va antidepressantlar bilan bu ikkinchi darajali variantdir. Ko'pgina ogohlantiruvchi dorilar, shuningdek, Atomoksetin DEGS bo'lgan kattalar uchun tasdiqlangan. Yurak muammolari yoki xavf omillari bo'lgan kattalar DEGS davolash bilan bog'liq yurak-qon tomir xavflaridan xabardor bo'lishlari kerak bo'ladi.

Xulosa qilib shuni takidlash mumkinki, diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromiga chalingan bolalar va kattalarda asosan diqqat tarqoqligi, xotira pasayishi, kayfiyatini o'zgarishi va doimiy faol xolatda bo'lgani sababli asab tizimida muntazam ravishda charchoqlik kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.N. Zavadenko, N.Yu. Suvorinova, M.V. Rumyantseva "Diqqat etishmasligi bilan giperaktivlik: xavf omillari, yosh dinamikasi, diagnostika xususiyatlari" // Defektologiya. - 2003. - 6-son.
2. M.M.Xasanova. Bolalardagi diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromining ba'zi bir jihatlari. – Innovations in technology and science education scientific journal.VOLUME 2, ISSUE 14, 574-578-b.
3. Xasanova, M., & Shodmanov, Q. (2023). Maktab yoshidagi bolalardagi diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromini kelib chiqishi, rivojlanishi hamda uni bartaraf etish usullari. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(12), 11–13. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/24020>
4. Xasanova, M. & Shodmanov, Q. Rivojlanishida nuqsoni – diqqat yetishmovchilik sindromi bor bolalarning tibbiy reabilitatsiyasi masalalari. «MAXSUS VA INKLYUZIV TA'LIM: AN'ANA,TAJRIBA VA INNOVATSIYALAR» mavzusida respublika anjumani tezislari to'plami. – Nizomiy nomidagi TDPU. (2023). 650-653 betlar.
5. Khasanova Mashkhura Makhammadsidiqovna & Shodmanov Kodirjon Odilkhanovich. "Analysis of factors causing attention and hyperactivity syndrome

in children". BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. ISSN: 2835-3579 Volume:03 Issue:3 | 2024. - 244-249 pages.

6. <https://apriori-nauka.ru/uz/management/giperaktivnost-I-deficit-vnimaniya-v-detskom-vozraste-sindrom.html>

7. Qambaraliyeva Durdoni Asqarali qizi, Xasanova Mashxura Maxammadsidiqovna. INKLYUZIV TA'LIMDA BOLALARNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI. INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL, SCIENCE SHINE, ISSN 3030-377X, Issue 29, Volume 2, Page 129-134, 15.11.2024. <http://science-shine.uz/>

AUTISTIK SPEKTR BUZILISHIGA EGA BOLALAR UCHUN INKLYUZIV TA'LIM STRATEGIYALARI

Mashxuraxon G'ofurjonova

Namangan Davlat Pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2- bosqich BTS-BU-23 guruh talabasi.

Ilmiy rahbari: Vohobova Munira Pedagogika fakulteti Pedagogika-Psixologiya kafedrasida o'qituvchisi.

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada autistik spektr buzilishlariga ega bolalar haqida ma'lumot, ularning o'ziga xosligi, bu turdagi bolalar uchun yaratilayotgan inklyuziv ta'lim strategiyalari haqida ma'lumotlar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** Inklyuziv ta'lim, autizm, shizofreniya, bolalik autizmi, Banner sindromi, autistik buzuvchilik, psixoterapevtik tushuntirish, exolaliya.*

***Abstract.** This article provides information about children with autism spectrum disorders, their characteristics and inclusive education strategies being developed for this type of child.*

***Keywords.** Autism, schizophrenia, childhood autism, Kanner syndrome, autistic disorder, psychotherapeutic explanation, echolalia.*

***Аннотация.** В данной статье представлена информация о детях с расстройствами аутистического спектра, их характеристиках и*

стратегиях инклюзивного образования, разрабатываемых для этого типа детей.

Ключевые слова. *Инклюзивное образования, шизофрения, детский аутизм, синдром Каннелла, аутистическое расстройство, психотерапевтическое объяснение, эхололия.*

Keywords. *Autism, schizophrenia, childhood autism, Kannel syndrome, autistic disorder, psychotherapeutic explanation, echolalia.*

Inklyuzivlik-inglizcha soʻz boʻlib, inklusif-qoʻshish , birlashtirish maʼnolarini anglatadi. Mazkur atama alohida ehtiyojga ega boʻlgan oʻquvchilarni umumtaʼlim maktablarida sogʻlom bolalar bilan qoʻshib birgalikda oʻqitish jarayonini ifodalaydi.

Inklyuziv taʼlim - barcha oʻquvchilar uchun maxsus taʼlim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda taʼlim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni taʼminlashdir.

Inklyuziv taʼlim - oʻquvchilarning imkoniyatlari, individual - psixologik, jismoniy nuqson va oʻzlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan taʼlim jarayonidir.

Autizm (grek tilida autos -oʻzi) degan maʼnoni anglatadi. Autizm kasallik emas balki miya faoliyatining rivojlanishidagi buzilishdir.

Autizm atamasi birinchi bor shveysar psixiatri Eygen Bleyler tomonidan 1910-yilda shizofreniya kasalligining belgilaridan biri sifatida ishlatildi. Shizofreniya - ruhiy kasalliklardan biri boʻlib, bunday kasallikka chalingan bolalar vaqtni sezmaydi, haqiqiy voqea-hodisalarni oʻtgan yoki kelasi zamon bilan almashtiradi, real voqea-hodisalarni fantastik mavhum voqea-hodisalar bilan adashtiradi. [1,25]

Autistik spektr buzilishiga ega bolalardagi xastalikning asosiy belgisi ularning muloqot qilishdagi qiyinchiligi: boshqa odamlardan oʻzini tortib, goʻyoki oʻzining olamida yashayotgandek tuyuladi. Bunday bolalar tevarak-atrofga nisbatan befarq, beparvo boʻladi. Natijada atrofdagilar bilan aloqada boʻlmaydi, muloqot qilmaydi. Oʻz-oʻzi bilan boʻlib, oʻzicha hayajonlanib kuyunib, nimalardandir tashvishlanib oʻz ichki dunyosida yashaydi. Baʼzi hollarda emotsional qiyinchiliklar

mavjud bo'ladi. Ulat tushkunlikka tushishlari yoki bezovta bo'lishlari mumkin, yoki ularning xulq-atvori g'ayritabiiy bo'ladi, buni noo'rin yig'lashlar kulishlaridan bilish mumkin. Ular haddan tashqari harakatchan bo'lib, diqqati tez bo'linadi, ma'lum mashg'ulotdan boshqasiga tez chalg'ib ketishlari mumkin, yoki ular befarq, yoki parishonxotir bo'lishlari mumkin. [2,32]

Autizm kasalligining asosiy belgilari bir yoshdan to uch yoshgacha to'liq namoyon bo'ladi.

-bolaning ota-onasi bilan bo'lishini yoqtirmaslik (qo'lga olishi, quchoqlashishi, o'pishi, silashi va h.k)

-uch yoshli bola nutqining rivojlanmaganligi;

-biron-bir kishi bilan bo'lishdan ko'ra bir o'zi bo'lishini yoqtirishi; ular buyumlarni doim bir xil tartibda qo'yib chiqadilar;

- tevarak-atrof bilan aloqada bo'lishni istamaslik, qiziqmaslik.

- bola ko'zingizga qaramaydi;

-bolaning harakatlari, imo-ishoralari hech narsani bildirmaydi, asabiylashganini ko'rsatadi;

-bola bir tonda, ifodasiz, xuddi bir yod olgan matnni ifodalayotgandek gapiradi.

Bola o'zi yaxshi gapira olmasa ham, uning aks-sado nutqi, ya'ni exolaliya - kimnidir ketidan qaytarish qobiliyati yaxshi bo'ladi;

-odatdan tashqari idrok etish reaksiyalari (ovozga, hid, ta'm, ushlab ko'rishlarga), masalan, ovozdan qattiq qo'rqib tushishi, ma'lum hiddan tushkunlikka tushishi va h.k. [3,46]

Autizm kasalligiga hozircha davo topilmagan. Izlanish, surishtirish ishlari olib borilmoqda.

Davolanish yo'q bo'lsa-da tegishli davolash nisbatan normal rivojlanishga yordam berishi va istalmagan xatti-harakatlarni kamaytirishi mumkin. Bu kasallik bilan og'rigan odamlar normal umr umr ko'rishadi.

Qo'llaniladigan diagnostika mezonlariga qarab, autizm har 10000 kishidan 2 dan 10 gacha ta'sir qiladi. [4,34]



Xulosa qilish mumkinki, autizm kasalligiga chalingan bolalarni davolab bo'lmasa-da, ularga yaxshi munosabatda bo'lish, dars jarayonlarida rangli o'quv materiallaridan foydalanish, jahllari chiqqanida ularni mahkam bag'ringizga bosib, 1 dan 5 gacha sanash ularning ruhiyatiga ijobiy ta'sir qiladi. Shuningdek ularga qiziqarli bo'lgan turli xil metodikalar asosida bilim berishimiz darkor. O'zlashtirish qobiliyati to'liq bo'lmasa ham ma'lum qismini albatta eslab qoladilar. Ularning har biri ham biz kabi kelajak egalaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. F.U. Qodirova, D.A. Pulatova "Inklyuziv ta'lim: nazariya va metodika".
2. "Pen state-bever monaca "kutubxonasi, PA 15061.
3. The New Jersey Center for Outreach and Services for the Autism Community, Inc.
4. <https://lex.uz>
5. Sobirkhanovna, Makhmudova Madinakhan, and Vakhobova Munirakhan Sadirdinovna. "PECULIARITIES OF SPEECH OF CHILDREN WITH MOTOR ALALIA SPEECH DISORDER." Open Access Repository 4.3 (2023): 851-858.

O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIM KONSEPSIYASINING RIVOJLANISHI VA UNING MOHIYATI

Zokirova Zeboxon Anvarjon qizi

*Namangan davlat pedagogika instituti pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim
yo'nalishi BTS-BU-23guruh talabasi*

Telefon: 946898205

Mail: zokirovaz205@gmail.com

*Ilmiy rahbari: Vohobova Munira Pedagogika fakulteti Pedagogika-Psixologiya
kafedrasi o'qituvchisi.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim — barcha o'quvchilar uchun maxsus ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan*

holda ta'lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta'minlash va bolalarning qobiliyatlaridan va holatidan qat'i nazar ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etilishi kerakligi haqida so'z boradi.

***Kalit so'zlar.** Inklyuziv ta'lim, teng huquqlilik, cheklanish, samaradorlik, integratsiya.*

***Abstract.** In this article, inclusive education is the provision of equal rights to education in educational institutions, taking into account the differences in special educational needs and individual capabilities of students and it says that quality education should be provided to all children, regardless of their abilities and status.*

***Key words.** Inclusive education, equality, restriction, efficiency, integration*

***Аннотация.** В данной статье инклюзивное образование – это обеспечение равных прав на образование в образовательных учреждениях с учетом различий в особых образовательных потребностях и индивидуальных возможностях обучающихся и там говорится, что качественное образование должно быть предоставлено всем детям, независимо от их способностей и статуса.*

***Ключевые слова.** Инклюзивное образование, равенство, ограничение, эффективность, интеграция.*

Yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar zamirida, eng avvalo, kelajak avlodning barkamol bo'lib ulg'ayishi, hech kimdan kam bo'lmay dunyo arenalarini zabt etishga qodir farzandlar bo'lib yetishishi kabi dolzarb masalalarni hal etish turadi. Ayniqsa, yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan, nogiron, rivojlanishida nuqsoni bor bolalarning ijtimoiy himoyasi hamisha davlat va jamiyatning ustuvor vazifasi hisoblangan. Ushbu vazifani amalga oshirish borasida O'zbekiston Respublikasida rivojlanishida nuqsoni bo'lgan kishilarning huquq va erkinliklarini, teng imkoniyatlarini ta'minlash, turmush faoliyatidagi cheklanish, chegaralarni bartaraf etish, ta'limni tashkil etish va boshqarishga zamonaviy yondashuv, uning sifati va samaradorligini oshirish, jamiyatda aholining turli qatlamlari uchun ta'limning uzviylik va uzluksizligini ta'minlash borasida talaygina ishlar amalga oshirib borilmoqda.

Yurtimizda imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim-tarbiyasi va ularning ijtimoiy hayotga moslashuviga qulay sharoitlar yaratib berilmoqda. Ularni jamiyatga integratsiya qilish, avvalo, imkon qadar salomatligini tiklash maqsadida "Imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumiy ta'lim loyihasi" asosida ish yuritib kelinmoqda. Bunda, asosan, inklyuziv ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish ko'zda tutilmoqda. Natijada inklyuziv ta'limni tashkil etishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini, o'ziga xos imkoniyatlarini chuqurroq o'rganish, u bilan bog'liq muammolarni aniqlash, samaradorlik jihatlarini asoslab berish dolzarb ilmiy muammoga aylanmoqda. Chunki inklyuziv ta'lim usuli barcha bolalarning ruhiy jismoniy holatidan qat'iy nazar ta'lim jarayonida to'laqonli ishtirok etishini ta'minlashga qulay imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, u alohida yordamga muhtoj bolalarning atrofdagilar bilan muloqotda bo'lishi, ijtimoiy muhit talablariga javob bera oladigan bo'lib ulg'ayishi, o'z kundalik-maishiy ehtiyojini qondira olish ko'nikmalarini egallashi, hayotga moslashib, umumta'lim maktablarida sog'lom tengdoshlari bilan teng sharoitlarda o'qiy olishi, ular bilan o'zaro do'stona munosabatga kirishishi, darslarni o'z vaqtida o'zlashtirishi, topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashishi uchun qulayliklar tug'diradi. Shuni nazarda tutib, mazkur monografiyada inklyuziv ta'limning o'ziga xos samaradorlik belgilarini asoslash, uni oiladan, maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan uzluksiz ta'lim jarayonida yo'lga qo'yish uchun zaruriy pedagogik-psixologik yondashuv yo'llarini aniqlash ko'zda tutildi. Shunisi borki, inklyuziv ta'lim nafaqat nogiron bolalar o'rtasida, balki sog'lom turmush tarziga asoslangan oilada tarbiyalanayotgan bolalar o'rtasida, maktabgacha ta'lim muassasalarida, maktablarda, akademik lisey va kasb-hunar maktablarida ham fanlarni o'zlashtirish darajasi turlicha bo'lgan o'quvchilar uchun qulay imkoniyatlar yarata oladi. U orqali o'quvchilarning bir-biriga ijobiy ta'sir ko'rsata olishiga erishish yaxshi natija keltiradi. Lekin ba'zan sog'lom bolalar bilan nogiron bolalar orasidagi tafovut sezilib qolishi, nogiron bola o'z tengdoshlariga qo'shilmay, tortinishi, o'z imkoniyatlaridan foydalana olmasligi sabab uyalib turishi, kamsitilishi, ayrimlari esa oilada haddan tashqari erka o'stirilganligi tufayli qaysarlik, injiqlik qilishi kuzatiladiki, bunday sharoitda ta'lim amaliyoti va ta'lim

xizmatlarini tashkillashtirishda o'zgarishlar qilishga to'g'ri keladi. Bularning barchasi inklyuziv ta'lim jarayoni o'ziga xos murakkabliklarga ega ekanligini va shu sohada ishlaydigan o'qituvchilar, sinf rahbarlari, tarbiyachilar, kasbiy mahorat ustalari zimmasiga jiddiy talablar va mas'uliyatlar yuklashini oydinlashtiradi. Inklyuziv ta'limni oiladan maktabgacha ta'lim muassasalarida, umumta'lim maktablarida, kasb-hunar maktablari va oliy o'quv muassasalarida joriy etish natijasida imkoniyati cheklangan insonlarga nisbatan umumiy munosabat o'zgarayotgani ma'lum bo'ldi. Bu esa ularning hayotda muvaffaqiyat qozonishi uchun omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarga umumta'lim jarayonidagi barcha tadbirlarda faol va muntazam ishtirok etish imkonini beradi. Buning natijasida stereotiplar shakllanishining oldi olinib, ko'rsatiladigan individual yordam imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatdan ajratib qo'ymaydi. Ular olgan ko'nikmalarini umumlashtirish imkoniga ega bo'lishadi. Imkoniyati cheklangan insonlar uchun ishlab chiqilgan va jamiyatga reja asosida joriy etilayotgan inklyuziv ta'lim strategiyasi o'qishning uzluksiz va muttasilligini ta'minlaydi.

Inklyuzivlik-inglizcha so'z bo'lib, inklusif- qo'shish, birlashtirish ma'nolarini anglatadi. Mazkur atama alohida ehtiyojga ega bo'lgan o'quvchilarni umumta'lim maktablarida sog'lom bolalar bilan qo'shib birgalikda o'qitish jarayonini ifodalaydi.

Inklyuziv ta'lim – o'quvchilarning imkoniyatlari, individual-psixologik, jismoniy nuqson va o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta'lim jarayonidir. Shuningdek, inkluziv ta'lim davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarni rivojlanishidagi nuqsonlari yoki iqtisodiy qiyinchiliklaridan qat'i nazar, ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

Inklyuziv ta'limning jahon amaliyotiga nazar soladigan bo'lsak 1970 yillardan boshlab, nogironligi bor bolalarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish uchun normativ hujjatlar to'plami ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Amerika Qo'shma Shtatlar va Yevropada zamonaviy ta'lim siyosatida bir nechta yondashuvlar ishlab chiqilgan, shu jumladan: ishtirokni kengaytirish, asosiy

oqimga qo‘shilish. Ta’kidlash joizki, nogironligi bor o‘quvchilar ta’til kunlari, o‘zlarining tengdoshlari bilan turli xil bo‘sh vaqt dasturlarida muloqot qilishadi.

So‘nggi yillarda inklyuziv ta’lim tizimi sohasida qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi va muayyan normativ baza shakllandi. Xususan, 2020-yil 23-sentyabr qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunidaning 15-moddasida Inkluziv ta’lim alohida ta’lim shakli sifatida e’tirof etildi. Shuningdek, qonunning 20-moddasida “Inklyuziv ta’lim alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishga bo‘lgan teng imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar (shaxslar) uchun ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim tashkil etiladi. Inklyuziv ta’limni tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi” deya qayd etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi “Nogironligi bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-chadbirlari to‘g‘risida” qaroriga muvofiq, 2020-2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Konsepsiya ikki bosqichda ya’ni 2020-2022 hamda 2023-2025-yillarda amalga oshirilishi belgilandi.

Raqamlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab respublika bo‘yicha tajriba-sinov tariqasida 31 ta umumta’lim maktablarida 46 ta inklyuziv sinflar tashkil etilib, ularda 82 nafar o‘quvchi, 4 ta korreksion maktablarning 4 ta sinflarida 33 nafar bolalar ta’limga jalb etildi. Inklyuziv ta’lim tizimini bosqichma-bosqich rivojlantirib borish va ko‘lamini kengaytirish maqsadida 2022/2023-o‘quv yilida qo‘shimcha 195 ta umumta’lim maktablarida inklyuziv ta’lim yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, konsepsiyaga muvofiq Xalq ta’limi vazirligi tasarrufidagi O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi tuzilmasi tarkibida “Inklyuziv ta’lim laboratoriyasi” bo‘limi tashkil etildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashning

samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish 66-maqsadda qayd etildi. Unda nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta'minlovchi inklyuziv ta'lim va ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish masalasi o'z ifodasini topgan.

Bu borada tizimli va samarali ishlar amalga oshirilganligiga qaramasdan bajarilishi zarur bo'lgan qator vazifalar mavjud ekanligini ta'kidlash lozim. Jumladan, nogironligi bo'lgan bolalarni inklyuziv sharoitda o'qitish uchun umumta'lim maktablarida zarur shart-sharoitlar, moddiy-texnika baza hamda binolarda maxsus infratuzilmaning yetarli emas. Shuningdek, ota-onalar o'rtasida inklyuziv ta'lim bo'yicha targ'ibot ishlari qoniqarli tashkil etilmagan. Yangilangan Konstitutsiyada mazkur o'zgartirish kiritilayotganligi alohida ehtiyojlarga va individual imkoniyatlarga ega bo'lgan bolalar uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim va tarbiya masalasid doimo davlatning ustuvor vazifasi sifatida Bosh qomusda muxrlandi.

2023-yil 30-aprelda umumxalq Referendumi natijasida yangilangan Konstitutsiyaning 41-modda 5-banddida "Ta'lim bo'yicha alohida ehtiyojlarga va individual imkoniyatlarga ega bo'lgan bolalar uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim va tarbiya tashkil etiladi" degan qo'shimcha kiritildi.

Muxtasar aytganda, mazkur qoidaning Konstitutsiyaviy norma darajasida mustahkamlanishi alohida ta'lim ehtiyojlariga muxtoj bo'lgan shaxslarning jamiyatga integratsiyalashuvida inklyuziv ta'limni davlat doimiy kafotlatlash majburiyatini oladi.

Bu bilan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning teng huquqli jamiyat a'zosi sifatida umumta'lim muassasalarida bilim olishi ta'minlanadi.

Xulosa:

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, qabul qilingan qonun ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi prinsipi kiritilmoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasidagi hech bir bola davlatimizning nazaridan chetda qolmaganligining isbotidir. Ayniqsa hozirgi kunda rivojlanayotgan inklyuziv ta'lim barcha jamiyat uchun manfaatli

hisoblanadi. Bundan tashqari bolalarning teng huquqligini ta’minlash maqsadida ham ushbu ta’lim tizimi joriy etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova. Inklyuziv ta’lim: nazariya va metodika. – Chirchiq, 2022. B. 6.
2. N.B.Goipova. Inklyuziv ta’lim. Gospiatal pedagogika. – Namangan, 2024. B. 9.
3. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova. Inklyuziv ta’lim: nazariya va metodika. – Chirchiq, 2022. B. 9.
4. Педагогик атамалар луғати. – Т.: “Фан”, 2008. –Б.47
5. https://uz24.uz/uz/articles/inklyuziv_talimc
6. <https://lex.uz/docs/-5013007>
7. [https://nrm.uz/contentf?doc=636671_20202025_yillarda_halq_talimi_tizimida_inklyuziv_talimni_rivojlantirish_koncepciyasi_\(o%E2%80%98prezidentining_13_10_2020_y_pq-4860-son_qaroriga_1-ilova\)&products=1_](https://nrm.uz/contentf?doc=636671_20202025_yillarda_halq_talimi_tizimida_inklyuziv_talimni_rivojlantirish_koncepciyasi_(o%E2%80%98prezidentining_13_10_2020_y_pq-4860-son_qaroriga_1-ilova)&products=1_)
8. <https://lex.uz/docs/5841063>
9. <https://lex.uz/docs/-6445145>

MAXSUS PEDAGOGIKA (LOGOPEDIYA) YO'NALISHI TALABALARIDA KASBIY MAS'ULIYATNI SHAKLLANTIRISH USULLARI VA TEXNOLOGIYALARI

Xalimova Ozoda Ma'murjon qizi

Namagan davlat Pedagogika inustituti Pedagogika fakulteti Maxsus pedagogika (logopediya) ta'lim yo'nalishi 1-kurs magstranti

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada kasbiy mas'uliyatni shakllantirish usullari va yo'llari, shuningdek, bunday mas'uliyatni logopediya yo'nalishidagi talabalar uchun qanday ta'minlash mumkinligi haqida batafsil ma'lumot beriladi.*

***Kalit so'zlar:** Praktik tajriba, interaktiv o'qitish, kompleks yondashuv, kasbiy etika va axloqiy ta'lim, mentorlik va kuzatuv, kollaborativ o'quv muhitlari.*

Аннотация: В данной статье представлена подробная информация о методах и способах формирования профессиональной ответственности, а также о том, как такую ответственность можно обеспечить у логопедов.

Ключевые слова: практический опыт, интерактивное обучение, комплексный подход, профессиональная этика и моральное воспитание, наставничество и супервизия, среда совместного обучения.

Abstract: This article provides detailed information on methods and ways of developing professional responsibility, as well as how such responsibility can be ensured for speech therapy students.

Keywords: Practical experience, interactive learning, integrated approach, professional ethics and moral education, mentoring and supervision, collaborative learning environments.

Kasbiy mas'uliyat — bu mutaxassisning o'z ishiga va jamiyatga nisbatan javobgarligi, o'z vazifalarini o'z vaqtida va to'g'ri bajarish majburiyatidir. Maxsus pedagogika va logopediya sohasida bu mas'uliyat, ayniqsa, muhimdir, chunki logopedlar o'z ishlarida nogiron bolalar yoki turli xilda til va nutq bilan bog'liq muammolarga ega bo'lgan shaxslar bilan ishlaydi. O'z vazifalarini mas'uliyat bilan bajarish, bu mutaxassislarning kasbiy malakasini oshirishga va bemorlarga to'g'ri va samarali yordam ko'rsatishga yordam beradi.

Praktik tajriba va interaktiv o'qitish. Logopediya yo'nalishidagi talabalar uchun o'quv jarayonida amaliyotga e'tibor berish juda muhim. Talabalar klinik va pedagogik amaliyotlarda qatnashib, real sharoitda ishni bajarishga o'rganadilar. Bu ularning mas'uliyatni his qilishiga, o'z harakatlarining natijalarini tushunishga yordam beradi.

Individual yondashuv va mentorlik. Mentorlik tizimi talabaga o'z kasbiy faoliyatini mas'uliyatli ravishda rivojlantirish uchun kerakli ko'nikmalarni o'rgatishga yordam beradi. Mentorlar talabalar bilan birga ishlab, ularga mas'uliyatli qarorlar qabul qilish, murakkab vaziyatlarga to'g'ri yondashish va professional o'sish jarayonlarini ko'rsatib beradilar.

Kasbiy etikani o'rgatish. Kasbiy etikaga oid mavzularni o'rgatish, talabalarni kasbiy mas'uliyat va axloqiy me'yorlarga rioya qilishga undaydi. Masalan, logoped talabalariga o'z mijozlariga hurmat bilan yondashish, ularning maxfiylik huquqlarini hurmat qilish, professional darajada aloqada bo'lish zarurligi o'rgatiladi.

Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish. Talabalarni real yoki taxminiy muammoli vaziyatlar bilan tanishtirish va ularni hal qilishga yo'naltirish kasbiy mas'uliyatni shakllantirishning samarali usulidir. Bunday vaziyatlarda talabalar qarorlar qabul qilish, vaziyatni to'g'ri tahlil qilish va mas'uliyatli javobgarlikni o'z zimmasiga olishni o'rganadilar.

Kasbiy mas'uliyatni shakllantirishning pedagogik yondashuvlari

Kompleks yondashuv. Maxsus pedagogika logopediya yo'nalishidagi talabalarni kasbiy mas'uliyatli mutaxassislar sifatida tarbiyalashda kompleks yondashuv qo'llanilishi zarur. Bu o'z ichiga ilmiy, amaliy, axloqiy va psixologik jihatlarni oladi. Talabalar, kasbiy bilimlarni o'zlashtirishdan tashqari, ularning jamiyat oldidagi mas'uliyatini his etishi uchun turli ko'nikmalarni rivojlantirishi lozim.

Refleksiya va o'z-o'zini tahlil qilish. Talabalar o'z faoliyatlarini muntazam ravishda tahlil qilishga, o'zgarishlarga tayyor bo'lishga va kamchiliklarni aniqlab, ularni bartaraf etishga o'rganadilar. Bu usul kasbiy mas'uliyatni shakllantirishda juda muhim bo'lib, talabalar o'z ishlariga va boshqalar bilan aloqalariga nisbatan mas'uliyatli bo'lishni ta'minlaydi.

Kasbiy mas'uliyatni shakllantirishda o'qituvchilar va mentorlarning roli. O'qituvchilar va mentorlar kasbiy mas'uliyatni shakllantirish jarayonida muhim o'rin tutadi. Ularning vazifasi talabalar uchun mas'uliyatni his qilishni, o'zlariga ishonch hosil qilishni va kasbiy etikani o'rgatishni ta'minlashdir. Shuningdek, ular talabalarni turli usullar va strategiyalar yordamida o'z mas'uliyatlarini kuchaytirishga rag'batlantiradilar.

Kasbiy mas'uliyatni shakllantirishning ijtimoiy va madaniy konteksti. Maxsus pedagogika va logopediya sohasidagi talabalar nafaqat kasbiy mas'uliyatni o'zlashtirishlari, balki jamiyatga nisbatan o'z javobgarliklarini ham his

qilishlari kerak. Logopedlar nogiron bolalar va insonlar bilan ishlaganliklari uchun ijtimoiy va madaniy nuqtai nazardan ham mas'uliyatli bo'lishlari zarur.

Kasbiy mas'uliyatni shakllantirish uchun quyidagi usul va texnologiyalarni qo'llash mumkin:

Amaliy mashg'ulotlar va tajriba. Logopediya yo'nalishidagi talabalar uchun amaliy mashg'ulotlar juda muhimdir. Bunday mashg'ulotlar orqali talabalar nazariy bilimlarni real vaziyatlarga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Amaliy ishlar davomida o'z mutaxassisliklariga oid vazifalarni hal qilish, bolalar bilan ishlashda ehtiyotkorlik va mas'uliyatni his qilishni o'rganadilar. Bu jarayon logopediya texnikalarini amaliyotda qo'llashni va mas'uliyatni sezishni rivojlantiradi.

Kasbiy etika va axloqiy ta'lim. Kasbiy mas'uliyatni shakllantirishda kasbiy etika va axloqiy me'yorlarga rioya qilishni o'rgatish muhimdir. Talabalar logopediya yo'nalishida ishlashda bolalar bilan muloqotda bo'lganida, ularning shaxsiy chegaralarini hurmat qilish, individual yondashuvni qo'llash, hamda holatga mos tarzda o'z kasbiy majburiyatlarini bajarishni o'rganishlari kerak.

Simulyatsiya va rolli o'yinlar. Kasbiy mas'uliyatni shakllantirishda simulyatsiya va rolli o'yinlar samarali metodlardir. Talabalar bolalar bilan ishlashni simulyatsiya qilish orqali turli muammolarni hal qilishga o'rganadilar. Bu usul kasbiy mas'uliyatni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega, chunki talabalar real vaziyatlarga o'xshash sharoitlarda o'zlarini sinab ko'radilar.

Proyekt ishlari. Kasbiy mas'uliyatni shakllantirish uchun talabalar maxsus pedagogika va logopediya sohalarida loyiha ishlari olib borishlari mumkin. Bunday ishlar, talabalar o'z bilimlarini amaliyotda qo'llashni o'rganadilar va buning natijasida o'z kasbiy mas'uliyatlarini his qilishadi. Projektlarda guruh bo'lib ishlash, mas'uliyatni taqsimlash va barcha a'zolar tomonidan o'zgarishlarga moslashuvni rivojlantiradi.

Refleksiya va o'zini-o'zi tahlil qilish. Refleksiya – bu talabalar o'z faoliyatini tahlil qilish va natijalarni baholash jarayonidir. Bu usul orqali talabalar o'z ishlarining natijalarini, xatolarini va kamchiliklarini ko'rib chiqadilar,

shuningdek, ularning ishiga nisbatan mas'uliyat hissi shakllanadi. O'zini-o'zi tahlil qilish talabalarda ijobiy o'zgarishlar va o'z ustida ishlashga qiziqishni oshiradi.

Interaktiv texnologiyalar. Zamonaviy interaktiv texnologiyalar, masalan, virtual simulyatsiyalar, onlayn platformalar va o'quv dasturlari talabalarga mas'uliyatni his qilishni o'rgatish uchun samarali vosita bo'lishi mumkin. Ushbu texnologiyalar yordamida talabalar o'z kasbiy faoliyatlarini onlayn muhitda sinab ko'rishlari va ehtimoliy xatolarni o'rganishlari mumkin.

Mentorlik va kuzatuv. Mentorlik tizimi orqali talabalar o'zlarining tajribali o'qituvchilari yoki mutaxassislaridan maslahatlar olishlari mumkin. Mentorlar talabalar uchun o'rnak bo'lib, kasbiy mas'uliyatni qanday shakllantirish va rivojlantirishni ko'rsatib beradi. Bunday tizim talabalar uchun juda samarali, chunki ular nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashni o'rganadilar.

Kollaborativ o'quv muhitlari. Guruh bo'lib ishlash, kollegial fikr almashish va jamoaviy qarorlar qabul qilish orqali talabalar o'z kasbiy mas'uliyatlarini his qilishadi. Kollaborativ ta'lim orqali talabalar bir-birlarining tajribalari va bilimlaridan foydalanib, o'zlarini mas'uliyatli mutaxassis sifatida rivojlantiradilar.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki , Maxsus pedagogika logopediya yo'nalishidagi talabalarida kasbiy mas'uliyatni shakllantirish — bu keng qamrovli jarayon bo'lib, talabalarni nafaqat kasbiy bilimlar bilan, balki axloqiy va ijtimoiy mas'uliyatni his etadigan, mas'uliyatli mutaxassislar sifatida tarbiyalashni ta'minlaydi. O'qituvchilar va mentorlarning qo'llab-quvvatlashi, interaktiv va amaliy usullar, kasbiy etika va refleksiya orqali talabalar o'z kasbiy mas'uliyatini rivojlantiradilar va bu orqali kasbga bo'lgan mehrlarini oshiradilar. Bu masalalarni o'rgatish va amalga oshirish orqali, maxsus pedagogika yo'nalishidagi talabalar nafaqat o'z sohasida muvaffaqiyatli bo'lishadi, balki jamiyatda o'zgarishlar qilishga qodir bo'ladilar. Kasbiy mas'uliyatni shakllantirish jarayoni talabalar uchun kasbga oid qadriyatlarni tushunishga, o'z ishlariga mas'uliyatli yondashishga va ijtimoiy javobgarlikni his qilishga yordam beradi. Bu o'z navbatida bolalar va ularning oilalariga yuqori sifatli yordam ko'rsatishga imkon yaratadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Raxmanova V.S."Maxsus pedagogika"-T. 2005-yil
2. "Maxsus pedagogika" P.M. Po'latova Toshkent 2005-yil
3. M.Y.Ayupova. Logopediya Toshkent 2007-yil
4. Mo'minova L. N. Abidova va boshqalar. Maxsus psixologiya-T O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2013-yil
5. "Maxsus pedagogika" M.U. Xamidova Toshkent 2018- yil

INKLYUZIV TA'LIMDA SUBYEKTLAR FAOLIYATINI INTEGRATIV TASHKIL ETISH

Yusubjonova Gulizebo Rustamjon qizi

Namangan Davlat Pedagogika Instituti maxsus pedagogika (logopediya) yo'nalishi
1-kurs magistranti

TEL: 945256611 Gulizebo00dg@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada inklyuziv ta'lim shakli, inklyuziv ta'limda subyektlar faoliyati hamda "integratsiya" tushunchasining mohiyati ochib berilgan. Ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim qatnashchilarining faoliyatini tashkil etishning integrativ usullari va ularning imkoniyatlari tahlil qilinadi. Ilmiy va uslubiy maxsus psixologik-pedagogik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish asosida yoritilgan ushbu maqola inklyuziv ta'limda subyektlar faoliyatini integrativ tashkil etishga samarali yordam beradi.*

Kalit so'zlar: *Inklyuziv ta'lim, inklyuziv ta'lim subyektlari, integratsiya, integrativ faoliyat, imkoniyati cheklangan o'quvchilar.*

Abstract: *In this article, the form of inclusive education, the activities of subjects in inclusive education, and the essence of the concept of "integration" are revealed. The integrative methods of organizing the activities of participants of inclusive education in educational institutions and their possibilities are analyzed. Scientific and methodological special psychological – This article, based on the*

theoretical analysis of pedagogical literature, effectively helps to organize the activities of subjects in inclusive education.

***Key words:** Inclusive education, subjects of inclusive education, integration, integrative activity, students with disabilities.*

***Аннотация:** В статье описаны форма инклюзивного образования, деятельность субъектов инклюзивного образования, сущность понятия “интеграция”. Анализируются интегративные методы организации деятельности участников инклюзивного образования в образовательных учреждениях и их возможности. Данная статья, основанная на теоретическом анализе научно-методической специальной психолого-педагогической литературы, эффективно помогает организовать деятельность субъектов инклюзивного образования.*

***Ключевые слова:** Инклюзивное образование, предметы инклюзивного образования, интеграция, интегративная деятельность, студенты с органиченными возможностями.*

KIRISH (INTRODUCTION/ ВЕДЕНИЕ)

Mamlakatimizda inklyuziv ta’limni ta’lim oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlari va shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida tashkil etish dolzarb masaladir. Imkoniyati cheklangan o’quvchilar bilan tashkil etiladigan ta’lim jarayoni inklyuiv ta’lim shakllarini aniqlash, uni umumta’lim jarayoni bilan integratsiyalashni talab etmoqda. Inklyuziv ta’limni rivojlantirish va umumiy ta’lim jarayonini imkoniyati cheklangan bolalar bilan integratsiyalash O’zbekistonda 1996 yilda boshlangan.

“Alohida ta’lim ehtiyoji bo’lgan bolalar uchun inklyuziv ta’limni tashkil etish maqsadida ta’lim muassasalari moddiy texnika bazasini mustahkamlash, o’quv dasturlarini adaptivlashtirish, sog’lomlashtiruvchi sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish hamda bu jarayonga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash” kabi muhim vazifalar belgilandi. [1]

Bolaning ta’lim jarayoniga qo’shilish darajasiga ko’ra inklyuziya turlari shartli belgilanadi: Nuqta, qisman hamda to’liq. Agarda bola tengdoshlari orasiga

faqat tadbirlarda, qisqa muddat o'yinlarda, sayrda qo'shilsa, bunday turdagi inklyuziyani "Nuqta inklyuziyasi" deb nomlanadi. "Qisman inklyuziya" bolani yarim kunlik yoki to'liqmas hafta rejimiga kiritishni qamrab oladi. "To'liq inklyuziya"ni esa nuqsonli bolaning o'zi yoki yaqinlari hamrohligida maktabga tashrif buyurishi deb aytish mumkin.

Inklyuziv ta'limda subyektlar faoliyatini integrativ tashkil etish metodlarini kengaytirish hozirgi zamon talabi hisoblanadi. Bu metodlar ta'lim jarayonini individualizatsiya qilish, o'qituvchilarni tayyorlash va ota-onalar bilan hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. [2]

MATERIALLAR VA USULLAR (MATERIALS AND METHODS/

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ

Imkoniyati cheklangan bolalar sog'lom tengdoshlari orasida inklyuziv ta'limda yoki ixtisoslashtirilgan maxsus ta'lim-tarbiya muassasalarida tarbiyalanishi, o'qitilishi maqsadga muvofiq. Pedagogik jarayonda shaxs obyekt emas, subyekt hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim subyektlariga sog'lom o'quvchilar, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar, bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari, ta'lim muassasalari rahbarlari, psixologlar, pedagog o'qituvchilar, nogironlarning jamoat tashkilotlari hamda uyushmalari kiradi. A.V.Petrovskiy fikricha ijtimoiylashuv uchta bosqichga ajratiladi: moslashuvchanlik, individuallik, integrativ.

Integratsiya (lotincha *integratio* – tiklash, to'ldirish, bog'lanish, *integer* – butun so'zidan olingan) – ma'lum bir sistema funksiyalarining o'zaro bog'liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha.

O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni qo'llash hamda subyektlar faoliyatini tashkil etish uchun olib borilgan ishlar ishlar bo'yicha "Ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash fondi" va XTB bilan hamkorlik ishlari, inklyuziv ta'limni tadbir etishda Davlat va Nodavlat tashkilotlari hamda UNESCO, UNICIF, USAID lar hamkorlik qilib kelmoqda.

Inklyuziv ta'limda subyektlar faoliyatini integrativ tashkil etish metodlari:

- Endilikda inklyuziv ta'lim haqida tushunchaga ega bo'lgan ota-onalarni inklyuziv ta'limda o'qiydigan alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning oilalariga tashriflarini tashkil etish;
- Ota-onalar uchun uyushma yokida o'z-o'ziga yordam guruhini tashkil etishga ko'maklashish (Masalan: Telegram guruhlari);
- O'quv faoliyatiga oid sinfdagi biror narsani tuzatishga yoki tuzishga yordam berish uchun otalarni taklif qilish;
- Ota-onalarga farzandlari uchun sevimli mashg'ulotlarni tashkillashtirishda yordam berish;
- Maktab komissiyalari va yig'ilishlarida ota-onalarning vakilligini ta'minlash;
- Jamoat tashkilotlarining ishlariga jalb qilish;
- Ota-onalarning o'z huquqlarini himoya qila olishlarini ta'minlash va h.k.z.

NATIJALAR (RESULTS/ РЕЗУЛТАТЫ)

Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim natijasiga erishishda ta'lim oluvchilarning sa'y-harakatlarini birlashtirish integrativ faoliyat hisoblanadi. Integrativ yondashuv bizga mutaxassisni shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga, ta'lim oluvchilarga dunyoni yaxlit idrok etishni o'rgatishga hamda ularni ijtimoiy va kasbiy sohada faol harakat qila oladigan darajada tarbiyalashga, maxsus ta'lim sifatini oshirishga, o'qituvchi va o'quvchilarni faol birgalikdagi ijodiy jarayonga jalb qilishga, inklyuziv ta'limni afzal ko'rgan ota-onalar birgalikda ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarning yaxshi ta'lim olishiga imkon beradi.

XULOSA (CONCLUSION/ ЗАКЛЮЧЕНИЕ)

Inklyuziv ta'lim shakli ta'lim jarayonining barcha subyektlariga taalluqlidir. Inklyuziv ta'limda o'qitish sifatini yaxshilash, o'quvchilarning imkoniyatlariga mos o'quv muhitini samarali tashkil etish, bu jarayonda tashkilotlar va jamoat institutlari hamkorligini kuchaytirish muhimdir. Bu masalani hal etishda sog'liqni saqlash, ta'lim va mahalla tashkilotlarining imkoniyati cheklangan bolalarning sifatli ta'lim xizmatlari bilan ta'minlashdagi hamkorligi talab etiladi. Umuman olganda inklyuziv ta'lim modeli sifatida subyektlar o'rtasidagi aloqalarning mustahkam komponentlarini rivojlantiradigan madaniy modelga aylanishi lozim. Modelning asosini esa inson individualligining xilma-xilligini qabul qilish va har bir

inson hayotining qadriyatlari, uning ta'lim va ijtimoiy jamoada qabul qilinish huquqiga nisbatan bag'rikenglik tashkil qiladi. Bunday madaniy modelni tashkil etish murakkab jarayon hisoblanib, ijobiy natijalari asosida inklyuziv ta'limni shakllantirishni nazarda tutadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES/ ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА)

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni.
3. Yusubjonova Gulizebo Rustamjon qizi. (2024). INKLYUZIV TA'LIMDA KO'RISHDA MUAMMOLARI BO'LGAN BOLALAR BILAN ISHLASHNING METODIK ASPEKTLARI. TADQIQOTLAR.UZ, 48(1), 225-228.
4. Qodirova.U.F, Pulatova.A.D. INKLYUZIV TA'LIM: NAZARIYASI VA AMALIYOTI. Darslik. 2022y.
5. R.Sh.Shomahmudova. Maxsus va inklyuziv ta'lim – T.: Chashma Print, 2011.
6. L.R.Muminova. Inklyuziv ta'lim. Toshkent- 2014 yil.
7. "Дакарскийе рамки действий"- ЮНЕСКО-2000 йил. Францияда chop etilgan.
8. Кислицина И.К. «Инклюзивное образование-образование для всех»(основные понятия и краткий обзор международного опыта) создано при поддержке Европейского Союза. Ташкент, 2004
9. Maktablar hamma uchun - Save the children - 2002y. 20\23 bet

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING NUTQINI RIVOJLANTIRISH

Vohidova Muhayyo Nuriddin qizi
Kosonsoy tumani MMTBga qarashli
31-o'rta ta'lim martabi boshlang'ich
sinf o'qituvchisi.

Аннотация: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini nutqini qanday rivojlantirish haqida so'z boradi. Zero o'quvchilarimizning nutqi ravon bo'lishi ularning hayotda o'z o'rnini topishga yordam beradi.

Аннотация: В данной статье рассказывается о том, как развивать речь учащихся младших классов. Ведь беглость речи наших учеников поможет им найти свое место в жизни.

Annotation: This article talks about how to develop the speech of elementary school students. Because the fluency of our students' speech will help them find their place in life.

Kalit so'z: nutq, nutq o'stirish, fonetika, imlo.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "Farzandlarimizni mustakil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan mustakil xayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan masala xisoblanadi"-degan fikrlari har birimizdan katta mas'uliyatni talab qiladi. Taraqqiyot shiddat bilan hayot tarzimizga kirib kelayotgan bir davrda bir-biridan murakkab texnika va texnologiyalar yoshlarimiz ongu shuuridan mustahkam o'rin egallamoqda. Bunday vaziyatda o'qituvchiga biror yangi bilim berish, uni o'qish va izlanishga o'rgatish uchun o'qituvchidan juda katta mahorat talab qilinishi bor gap.

Nutq - kishi faoliyatining turi, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar, o'z fikrini his hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir. Nutq o'stirish nima? Agar o'quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda tilni har tomonlama (talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishini, bog'lanishli nutqni) faol amaliy o'zlashtirish tushuniladi. Agar o'qituvchi ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, o'quvchilar tilning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo'llash tushuniladi. Shuning uchun ham grammatika va imlo dasturi tovushlar va harflar, so'z, gap, bog'lanishli nutq kabi qismlarni o'z ichiga olgan.

Ona tili dasturining bo'limlari: "Xat-savod o'rgatish va nutq o'stirish", "o'qish va nutq o'stirish", "Grammatika, imlo va nutq o'stirish" deb nomlangan. Nutq faoliyati uchun, shuningdek o'quvchilar nutqini o'stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo'lishi kerak. O'quvchilar nutqini o'stirishning metodik talabi o'quvchi o'z fikrini, nimanidir og'zaki yoki yozma bayon xohishini yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi. va zaruriyatini yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo'lishi lozim. Bu material qanchalik to'liq, boy, qimmatli bo'lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo'ladi. Shunday ekan, o'quvchilar nutqini o'stirishning ikkinchi sharti nutqqa oid mashqlarning materiali haqida, bola nutqi mazmunli bo'lishi uchun g'amxo'rlik qilish hisoblanadi.

3. Fikr tinglovchi tushunadigan so'z, so'z birikmari, gap, nutq oborotlari yordamida ifodalansagina tushunarli bo'ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning uchinchi sharti - nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi. Bolalarga til namunalarini berish, ular uchun yaxshi nutqiy sharoit yaratish zarur. Nutqni eshitish va undan o'z tajribasida foydalanish natijasida bolalarda ta'lim metodikasi asoslanadigan ongli ravishda "tilni sezish" shakllanadi. Nutq o'stirishning metodik sharti nutqiy faoliyatning keng tizimini yaratish, ya'ni, birinchidan, yaxshi nutq namunasini idrok etish, ikkinchidan, o'rgangan til vositalaridan foydalanib, o'z fikrini bayon etish uchun sharoit yaratish hisoblanadi.

Nutq o'stirishning metodik sharti nutqiy faoliyatning keng tizimini yaratish, ya'ni, birinchidan, yaxshi nutq namunasini idrok etish, ikkinchidan, o'rgangan til vositalaridan foydalanib, o'z fikrini bayon etish uchun sharoit yaratish hisoblanadi. Bola tilni nutqiy faoliyat jarayonida o'zlashtiradi. Buning o'zi yetarli emas, chunki u nutqni yuzaki o'zlashtiradi.

Nutqni egallashning qator aspektlari mavjud. Bular:

1. Adabiy til normalarini o'zlashtirish. Maktab bolalarni adabiy tilni sodda so'zlashuv tilidan, sheva va jargondan farqlashga o'rgatadi, adabiy tilning badiiy, ilmiy, so'zlashuv variantlari bilan tanishtiradi.

2. Jamiyatimizning har bir a'zosi uchun zarur bo'lgan muhim nutq malakalarini, ya'ni o'qish va yozish malakalarini o'zlashtirish. Bu bilan bola yozma nutqning xususiyatlarini, uning og'zaki-so'zlashuv nutqidan farqini bilib oladi.

3. O'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish. Til kishilik o'rtasidagi eng muhim aloqa vositasidir. Tilning mana shu ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqib, maktabda o'quvchilarning nutq madaniyatiga alohida e'tibor beriladi.

Bu vazifalarni bajarish uchun o'qituvchi o'quvchilar bilan rejali ish olib borishi lozim. Buning uchun esa o'quvchilar nutqini o'stirish ustida ishlash tushunchasiga nimalar kirishini bilib olish muhimdir. Nutq o'stirishda uch yo'nalish aniq ajratiladi: 1) so'z ustida ishlash; 2) so'z birikmasi va gap ustida ishlash; 3) bog'lanishli nutq ustida ishlash.

Boshlang'ich ta'limda ona tili o'qitish – o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash, ularni og'zaki va yozma nutqida adabiy nutq me'yorlariga rioya qilishga o'rgatishdan iborat. Mazkur ona tili o'quv dasturi quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1. Savod o'rgatish va nutq o'stirish.
2. Fonetika, grammatika, imlo va nutq o'stirish.

Savodga o'rgatish davri 2-sentabrdan to dekabr oyining oxirigacha bo'lgan muddatni, ya'ni ikki o'quv choragini qamrab oladi. Savodga o'rgatish jarayoni tayyorgarlik va alifbe davridan tashkil topadi. Tayyorgarlik va alifbe davrida ta'lim savodga o'rgatishning tahlil-tarkib (analitiksintetik) tovush usulida amalga oshiriladi. Savodga o'rgatishning tahlil-tarkib usuliga ko'ra matndan gap, gapdan so'z, so'zdan bo'g'in va tovush, yoki aksincha, tovush > bo'g'in > so'z >gap>matn uzviy aloqada butundan bo'lakka, bo'lakdan butunga qarab tahlil-tarkib qilinadi. Bu esa o'quvchilar tafakkur faoliyatini onglilik, tushunarlilik, mantiqiylik, didaktik mezonlar asosida rivojlantirish imkoniyatini vujudga keltiradi. Boshlang'ich ta'limning ilk savodga o'rgatish davridanoq, o'quvchilar nutqini yangi so'zlar hisobiga boyitishga alohida e'tibor qaratiladi. "Alifbe" darsligida berilgan: yangi so'zlar, matn, kichik hikoya va she'rlardan foydalanib, o'quvchilarni so'z ma'nosi bilan atroflicha tanishtirishda, she'riy va nasriy matnlarni yodlatish, qayta hikoyalashga e'tibor beriladi. Sinfdan tashqari o'qish darslari o'quvchilarni bolalar

adabiyoti namunalari bilan tanishtirib borishga, ularni mustaqil o'qishga, o'qituvchi va ota-onalar yordamida badiiy o'qishga qiziqtirish, nutqini boyitish va rivojlantirishga yordam beradi. Ona tili erkin fikrlay olish, o'zgaralar fikrini anglash, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda bayon qila olish, kishilar bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ona tilidan olib boriladigan ishlarning hammasi, shu jumladan savod o'rgatish ham, o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stirish bilan bog'liq holda uyushtiriladi. Savod o'rgatish davridagi ishlarning miqyosi keng bo'lib, ekskurtsiyalar, bolalarning kuzatishlari, rasm yuzasidan suhbat va boshqalar bilan bog'lanadi. Bu davrda o'quvchilarning nutqini o'stirishning vazifalari:

- 1) bolalar nutqidagi kamchiliklarni to'g'rilash;
- 2) ularning tasavvur va tushuncha doirasini kengaytirish bilan bog'lik holda lug'atini boyitish;

3) o'quvchilar nutqidagi ayrim so'zlarning ma'nosiga aniqlik kiritish;

4) gap uch-to'rt gapli kichik «hikoyacha» (bog'lanishli nutq)ni og'zaki tuzish ko'nikmasini o'stirishdan iborat. Bolalar bu davrda, birinchidan, kiyim-kechak, ish qurollari, mevalar kabi predmetlar bilan tanishish yordamida so'zni ongli ishlatishga; ikkinchidan, turli tipdagi sodda yirik gap (Bolalar yuguryaptilar), sodda yoyiq gap (Lola magazinga bordi), uyushiq bo'lakli gap (Anvar oyisiga yordamlashib, ukasiga qaraydi), qo'shma gap (O'g'il bolalar qushlarga in yasashyapti, qizlar don berishyapti) tuzadilar. Ular bu ko'nikmalarni amaliy mashqlar yordamida egallaydilar. Bolalarning shaxsiy tajribalari, kishilar hayoti va tabiati, kuzatishlari nutq o'stirish uchun asosiy manba hisoblanadi. Predmetlar, uy-ro'zg'or asboblari, o'simliklar, hayvonlar qiziqarli suhbat uchun mavzu bo'lib xizmat qiladi. Suhbat jarayonida bolalarda hosil qilingan tasavvur asosida aniq tushunchalar shakllanadi. Birinchi sinf o'quvchilari nutqni o'stirishda bolalarning o'yin va ermaklari, rasm ko'rish va Bu nima? Bu kim? Bu qanday narsa? Kim nima qilyapti? kabi savollar asosida suhbatdan ham foydalaniladi. Savod o'rgatish davrida nutq o'stirishga oid ish turlariga atrofdagi jonli predmetlarning nomini, ularning belgilarini aytish, predmetlarni ma'lum belgilari asosida guruhlash kabi mashqlar kiradi. Masalan, o'qituvchining topshirig'iga muvofiq, ma'lum bir

mavzuda (kuz, mevali bog',sinf, maktab haqida) ikki so'zdan iborat gap tuzadilar; keyinroq esa shunday gaplar tuzib, uni savollar yordamida yoyiq gapga aylantiradilar. O'rgangan harflaridan so'zlar va kichik gaplar tuzib yozadilar. O'qish darslarida rasmga qarab kichik hikoyacha tuzadilar, o'qituvchi savoliga to'liq javob berishga o'rganadilar. Alifbedagi rangli chiroyli rasmlar tevarak-atrofdagi predmet va hodisalar, hayvonlar va o'simliklarning nomini idrok etishga, bilib olishga yordam beradi. Nutq o'stirish uch yo'nalishda: so'z ustida ishlash, so'z birikmasi va gap ustida ishlash, bog'lanishli nutq ustida ishlash orqali amalga oshirilishi metodik adabiyotlarda qayd etilgan. Savod o'rgatish darslarida ham yuqoridagi uch yo'nalish bo'yicha ish olib boriladi. Bolalar og'zaki va yozma nutqni o'zlashtirish o'quv yilining ikkinchi yarmida yoki keyingi sinflarda o'rganiladigan mavzularni o'zlashtirishga tayyorlanadilar. Savod o'rgatishning birinchi oylaridayoq bolalar Ali, Omon, Olim, Naima kabi juda ko'p ismlarni o'qiydilar va kishilarning ismlari bosh harf bilan yozilishini amaliy o'zlashtira boradilar. Bu bilan ular o'quv yilining ikkinchi yarmida o'rganiladigan kishilarning ismi bosh harflar bilan yozilishiga doir imlo qoidasini o'zlashtirishga tayyorlanadilar. Til-dil, olti-oldi kabi so'zlarni o'qishni mashq qilish jarangli va jarangsiz undoshlarni o'zlashtirishga, son-sana, gul—gulchi-guldon—gulzor, bor-bogbon borcha kabi so'zlarni o'qishni mashq qilish esa bolalarni «O'zakdosh so'zlar» mavzusini o'zlashtirishga tayyorlaydi. Propedevtik mashqlar sistemasi boshlang'ich sinflar grammatika va imlo programmasining bosqichli izchillik printsipi asosida tuzilishiga mos keladi. Amaliy ishlar natijasida bolalarda ma'lum nutq tajribasi, til qoidalarini, so'zni, uning tarkibi va yasalishini, boshqa so'zlar bilan bog'langanda o'zgarishini kuzatish tajribasi to'plana boradi. Mana shu tajribalar asosida o'quvchilar nazariy umumlashmalarni o'zlashtiradilar, bular asosida esa grammatik tushuncha va orfografik qoidalar shakllanadi.

O'zbek xalqiga xos xususiyatlardan biri shundaki, ular so'zlayotgan gaplarining ma'nosiga mos iboralarni o'z o'rnida qo'llashadi, bu esa albatta, o'sha so'zlarning ta'sir kuchini yanada oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, keksalarimizning biron gapi yo'qki, ibora va o'xshatishlarsiz sayqallanmagan bo'lsa. O'xshatishlar orqali gaplar jozibador, aniq tasavvur chizmalarini chiza oladigan,

yetkazilmoqchi bo'lgan sezgilar aynan yetkaziladi. E'tibor bersak, og'ir sukunatni "o'lik chiqqan uyday" yoxud kutilmagan gapdan esankirash holatini "ustiga sovuq suv quyganday" kabi o'xshatishlar orqali ifodalanganda ongimizda qanchalar aniq tasavvurlar hosil bo'ladi. Halollik timsolini "ona sutiday" ta'rifidan ortiq aniqlikda izohlash mushkul bo'lsa kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'xshatishlar bilan boyitish ishini uch bosqichga ajratish mumkin:

1. O'quvchilarda o'xshatish haqida tushuncha hosil qilish.
2. O'qish kitobi darsliklari matnida uchraydigan o'xshatishlar ustida ishlash, ularning ma'nosini tushuntirish.

3. O'xshatishlarni o'quvchilar nutqiga kiritishga doir mashqlar bajarish. Boshlang'ich sinflarda badiiy asar tilini tahlil qilish orqali o'quvchilarda o'z ona tiliga muhabbat hissi, badiiy asarni ongli o'qish ko'nikmasi o'stiriladi, asar g'oyasini chuqur idrok etishga zamin hozirlanadi, o'quvchilar nutqi rivojlantiriladi.

Bundan shuni xulosa qilish mumkinki bolalar bilan ko'proq so'z va bo'g'inlar ustida ishlash, ularga o'xshatmalar o'rgatish bolalarning nutqini rivojlanishiga olib keladi. Kitob ko'rmagan odam nodondir, kitob ko'rmagan uy qorong'u-zimistondir. Kitob bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ona tili o'qitish metodikasi. Xalilova Ruxsora Raupovna. Buxoro 2022.
2. METHODOLOGY OF SPIRITUAL, ETHICAL AND ECOLOGICAL EDUCATION OF PRIMARY CLASS STUDENTS. Intent Research Scientific Journal.
3. Ona tili va o'qish savodxonligi 1-qism [Matn]: darslik 1-sinf uchun / I. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.
4. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI XALQ OG'ZAKI IJODI VOSITASIDA TALAFFUZI VA NUTQINI O'STIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH Olimova Nilufar Qosimjon qizi. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "ACTUAL ISSUES OF PRIMARY EDUCATION: PROBLEMS, SOLUTIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS" jurnali April 26, 2024



IV. ILG'OR MILLIY VA XALQARO TAJRIBALAR;

MILLIY UDUMLAR VA REALIYALARNING INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISH MEZONLARI

Ibragimova Rayxona Abdimajitovna

Namangan muhandislik-texnologiya instituti, f.f.b.f.d., (PhD)

rayhonaibragimova8@gmail.com +998945015250

Annotatsiya. *Ushbu maqolada milliy udumlar va realiyalarni ingliz tiliga tarjima qilishning dolzarb masalalari, realiyalarni tarjima qilish usullari, jumladan, transkripsiya, neologizm va kontekstual tarjima usullari yoritilgan. Tarjima jarayoni juda nozik va mas'uliyatli bo'lib, aslyatning milliy koloritini saqlab qolish orqali o'quvchiga muqobil va to'liq tasavvur berish maqsad qilingan. Milliy xos so'zlarni tarjima qilishda tarjimoning yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir usulning o'ziga xos afzalliklari va cheklolari borligi ta'kidlangan.*

Kalit so'zlar: *Milliy udumlar, realiyalar tarjimasi, transkripsiya, neologizm, yaqinlashtiruvchi tarjima, kontekstual tarjima, milliy kolorit, tarjimada muqobillik, funksional ekvivalent, izohli tarjima, badiiy tarjima*

CRITERIA FOR TRANSLATING NATIONAL CUSTOMS AND REALIA INTO ENGLISH

***Abstract.** This article highlights the pressing issues of translating national customs and realia into English, as well as methods for translating realia, including transcription, neologism and contextual translation. The translation process is highly delicate and responsible, aiming to provide the reader with an equivalent and complete understanding by preserving the original's national color. The translator's approach is of crucial importance when translating culturally specific words. The article emphasizes that each method has its own advantages and limitations.*

***Keywords:** national customs, realia translation, transcription, neologism, approximate translation, contextual translation, national color, equivalence in translation, functional equivalent, explanatory translation, literary translation.*

КРИТЕРИИ ПЕРЕВОДА НАЦИОНАЛЬНЫХ ОБЫЧАЕВ И РЕАЛИЙ НА АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК.

***Аннотация.** В данной статье освещаются актуальные вопросы перевода национальных обычаев и реалий на английский язык, а также методы перевода реалий, включая транскрипцию, неологизмы, приближенный перевод и контекстуальный перевод. Процесс перевода является крайне тонким и ответственным, направленным на то, чтобы предоставить читателю эквивалентное и полное понимание за счет сохранения национального колорита оригинала. Подход переводчика имеет ключевое значение при переводе культурно-специфических слов. В статье подчеркивается, что каждый метод имеет свои преимущества и ограничения.*

***Ключевые слова:** национальные обычаи, перевод реалий, транскрипция, неологизм, приближённый перевод, контекстуальный перевод, национальный колорит, эквивалентность в переводе, функциональный эквивалент, пояснительный перевод, художественный перевод.*

KIRISH.

Barchamizga ma'lumki, tarjima o'ta nozik jarayon bo'lib, bunda tarjimon bor mahoratini ishga solib uni qayta yaratish ustida tinimsiz samarali izlanishlar olib

borishi talab etiladi. Uning dolzarbligi shundaki, kitobxon uchun notanish bo'lgan asar albatta tarjimon orqali yetib keladi va bu asardan ma'naviy ozuqa olishda yoki umumiy tasavvurga ega bo'lishda qayta yaratilgan asarning asliga muqobilligi juda muhimdir. Darhaqiqat, butun bir xalqning madaniyati, turmush tarzi, an'analari va dunyoqarashi albatta uning tilida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham bu jihatdan tarjimon zimmasida turgan mas'uliyat juda katta. Ayniqsa, muayyan xalq tiliga mansub bo'lgan milliy so'zlarni ya'ni xos so'zlarni tarjima qilishda tarjimonning yondashuvi alohida e'tiborga molikdir. Chunki tarjimon asarni qanday ko'z bilan ko'rsa, o'quvchi ham uni shundayligicha qabul qiladi, xulosa chiqaradi.

Ma'lumki, badiiy tarjimada milliy kolorit tushunchasi bizga noma'lum bo'lgan xalqning urf-odatlarini, hayot tarzi, umumiy olganda, milliy xususiyatlari tushuniladi. Shunday ekan, milliy koloritni saqlagan holda eng maqbul usullardan to'g'ri foydalanib tarjima qila olgan tarjimonni shak-shubhasiz o'z kasbining ustasi deyish mumkin. Misol uchun, o'zbek tilida uchragan so'zlar va tushunchalar boshqa tillarda bo'lmasligi yoki mazmun, shakl, hajm jihatdan farq qilishi mumkin. Lekin aynan milliyligimizni ifoda etadigan vositalar ham shulardan ekanligini hisobga olgan holda madaniyatimizning o'ziga xos qirralarini o'quvchiga yetkazib berishdagi tarjima muammolari oldimizda ko'ndalang turgan asosiy masalalardan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Realiyalar va ularni bir tildan boshqasiga tarjima qilish xususiyatlari borasida ayrim tadqiqotchilar va olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar. Tan olish kerakki, realiyalarning turli aspektlarini o'rganishga bag'ishlangan qimmatli nazariy materiallar rus tadqiqotchilaridan O.S.Axmanova, V.M.Vazsburd, Vereshagin va Kostomarovlar, A.V.Kunin, G.D.Tomaxin, V.G.Chernov, L.I.Sapogova, L.N.Sobolev, A.Karinalarning ishlarida amalga oshirilgan bo'lib, ularda realiyalar tilshunoslik, madaniyatshunoslik, mamlakatshunoslik nuqtai-nazaridan o'rganilgan va ularga ilmiy ta'riflar berilgan, realiyalarni rus tilidan inglizchaga tarjima qilish masalasi atroflicha tadqiq etilgan, realiyalarni boshqa

leksik birliklardan farqli tomonlari ko'rsatib o'tilgan, realiyalar madaniy va tarixiy dinamik kategoriya sifatida o'rganilgan.

Ma'lumki, ingliz tilidagi realiyalarning o'zbek tilidagi ifodasi borasida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan, biroq o'zbek tilidagi xos so'zlarning ingliz tiliga tarjimasi masalasi hozircha chuqur o'rganilmagan bo'lib, bu borada amalga oshirilgan amaliy ishlar ham barmoq bilan sanarli miqdorni tashkil qiladi. O'zbek tarjimashunoslaridan G'.Salomov, Sh.Safarov, M.Umarxo'jayev, N.Komilov R.Fayzullayeva, N.Dosbayeva va M.Abduraxmonovlarning ishlarida muayyan darajada munosabat bildirilgan. Ularda realiyalarning boshqa terminlardan farqi, tillardagi realiyalarning tematik xususiyatlari hamda o'zga tillarga tarjima qilish muammolari o'rganilgan. Shuningdek, Z.Sodiqov qadimgi turkiy realiyalar tarjimasi misolida muqobilsiz leksika masalasiga doir qarashlarini bayon etgan bo'lsa, R.Shirinova tomonidan fransuz adabiyotining o'zbek tilidagi tarjimalari misolida diniy realiyalarning badiiy tarjimada qayta yaratish tamoyillari tahlil asosida muqobilsiz leksikaning semantik va milliy xususiyatlari o'rganilgan, tarjima tilida ekvivalenti bo'lmagan so'zlarning lingvomadaniy jihatlariga Sh. Isayeva ham o'z fikrlarini bildirgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tarjimashunoslikda realiyalar tarjimasi uchun maxsus andozalar yaratilmagan. Tarjimon, umumnazariy qoidalarga e'tibor bergan holda o'zining til bilish va imkoniyat darajasi, bilimlari, tajribasi, sezgisi, va eng birinchi navbatda, "kontekstual vaziyat"iga tayanib, har bir alohida holat uchun eng maqbul yo'lni tanlaydi. Tarjima jarayonidagi tarjimon uchun e'tiborga olinadigan asosiy va muhim jihat aslyatdagi notanish xos so'zni anglab yetish, uning semantik maydonini aniq ifodalay oladigan variantlarning eng muvofiq'ini qo'llash usulini tanlashdadir.

Bir tildagi matnlarda xorijiy realiyalarning qo'llanilishini ularni bir-tildan ikkinchi tilga o'girish masalasi bilan aralashtirib yubormaslik lozim. Aslida, mavjud nazariy adabiyotlarda mutaxassislar realiyalarni bir tildan ikkinchisiga o'girishning ikki usulini ta'kidlaydilar: *transkripsiya va tarjima usuli*.

A.A.Reformatskiyga ko'ra, ushbu usullar bir-biriga zid qo'yilishi mumkin, chunki ularning har biri nemis olimi Herdarning qoidasini turlicha amalga oshiradi: "Tarjima tilining o'ziga xosligini va asliyat tilining me'yorlarini saqlash kerak", ya'ni bundan tushunamizki, 1) tarjima imkoniyat darajasida "o'zga til o'ziga xosligi"ni "o'ziniki" qilmoqchi bo'lsa; 2) transkripsiya esa "o'ziniki"ning vositalari yordamida "o'zga til o'ziga xosligi"ni saqlab qolishga intiladi".

Badiiy tarjimada realiyalarni tarjima qilish quyidagi yo'llar orqali amalga oshiriladi:

I. Transkripsiya.

II. Tarjima (almashtirish).

1. Neologizm: a) kalka; b) yarim-kalka; v) o'zlashtirish g) semantik neologizm.

2. Yaqinlashtiruvchi tarjima: a) umumiy muvofiqlik, b) funksional ekvivalent, v) izohli tarjima.

3. Kontekstual tarjima.

I. Transkripsiyalash usuli. Xos so'zning transkripsiyasi deganda, ma'lum leksik birlikni tarjima tilining grafik belgilari yordamida asl fonetik shakliga maksimal yaqinlashtirib asliyat tilidan tarjima tiliga olib o'tilishi nazarda tutiladi. Masalan, "promotion" - "promoushen", "start" - start, "mingboshi" - "mingboshi", "atlas" "atlas" va hokazo. Transkripsiyalash terminini transliteratsiyalash terminidan farqlashimiz lozim. Bolgar olimlari S.Vlaxov va S.Florinlar ularni asoslab shunday deydilar: "Transkripsiya - o'zga tildagi so'zning (ko'pincha geografik nomlar va ilmiy terminlar) tovushlarini boshqa til vositalari bilan ifodalash, transliteratsiya esa o'zga tildagi so'zning harflarini tarjima tilidagi harflar vositasida ifodalashdir". Bu usullardan asosan atoqli otlarni tarjima qilishda qo'llaniladi.

II. Realialarni tarjima qilishning birinchi usuli - transkripsiya o'zini oqlamaganda yoki so'zga mos bo'lmaganda maxsus tarjima usullari qo'llaniladi. Ushbu usulni S.Vlaxov va S.Florinlar bir nechta turlarga ajratib o'rganishadi.

1. Neologizm - realiyaning mazmuni va milliy o'ziga xosligini saqlab qolish bo'yicha transkripsiyadan keyingi o'rinda turadigan usuldir. Yangi so'z yoki so'z

birikmasini yaratish orqali ba'zida transkripsiya tufayli erishilgan mahsuldorlikni olish mumkin:

a) kalka - "so'z yoki iborani so'zma-so'z tarjima qilish (odatda qismlar bo'yicha) orqali o'zlashtirish" - realiyaning semantik mazmunini yuqori darajada to'g'ri saqlagan holda tarjima tiliga olib o'tish. Masalan: eshikog'a - Lord of the Gate, suvchi - water-bearer. Neologizm aslyat tilidagi o'ziga xoslik doimo bilinib turadi, biroq har doim ham kalka muvaffaqiyatli shaklda milliy koloritni saqlab qolish imkoniga ega emas. Xos so'zlar bilan ishlash jarayonida, ko'pincha, kalka-so'zlardan ko'ra kalka-so'z birikmalariga duch kelinadi.

b) yarim kalkalar – qisman o'zlashtirma birliklar bo'lib, ular ham neologizm hisoblanadi va unda aslyat va tarjima tili vositalari hamkorlikda ishlaydi.

v) o'zlashtirish, ya'ni o'zga tildagi realiyaning tarjima tiliga o'zlashtirilishi yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, o'zga tildagi material asosida realiyaga maxalliy so'z maqomini berish. Bu borada shuni ham aytish kerakki, realiya nafaqat o'z shaklini o'zgartiradi, balki o'z semantik mazmunini ham qisman yo'qotadi.

g) semantik neologizm - tarjimon tomonidan "to'qib chiqarilgan" va realiyaning mazmunini yetkazib bera oladigan yangi so'z yoki so'z birikmasi. Uning kalkadan farqlovchi xususiyati - aslyatdagi so'z bilan etimologik bog'liqligi yo'qligidadir.

Aytib o'tish kerakki, xos so'zlarni neologizmlar vositasida tarjima qilish amaliyotda kam uchraydigan holatlardandir va bunga asosli sabab bor. Chunki tilning yaratuvchisi xalq va kamdan-kam holatlarda tarjimon buni amalga oshira oladi.

2. Yaqinlashtiruvchi tarjima. Bu usulda realiyaning predmetlik mazmuni yetkazib berilsa-da, uning bo'yoqdorligi doimo yo'qqa chiqadi, chunki kutilayotgan konnotativ ekvivalent uslubiy jihatdan neytral bo'lgan nol konnotatsiyaga ega so'z yoki so'z birikmasiga almashtiriladi. Bunda ham bir nechta holatlarni inobatga olish mumkin:

a) realiyaning ma'nosini kengroq mazmunga ega birlik bilan berish, ya'ni xususiyini umumiy bilan almashtirish. Shu tariqa, tarjimon tarjima nazariyasidagi mashhur generalizatsiya usuliga murojaat qilgan bo'ladi.

b) funksional analog yoki funksional ekvivalent deganda, tarjima tili o'quvchisida asliyat tilidagi birlikka o'xshash taassurot uyg'ota oluvchi muqobilni nazarda tutiladi. Realiyalarni bu usul yordamida tarjima qilish, tarjima tili o'quvchisiga noma'lum bo'lgan tushunchani unga tanish va asliyatdagi realiyaga qaysidir jihati bilan o'xshash muvofiq birlik bilan almashtirishdan iboratdir. Odatda, funksional analogdan o'quvchida sifat tasavvurlarini uyg'otishga mo'ljallangan realiyalarni yetkazib berish maqsadida foydalaniladi. Bu usul "Boburnoma" tarjimasida eng ko'p qo'llangan tarjima usuli bo'lib, tadqiqot davomida bir nechta misollarda tahlil qildik.

v) izohli tarjima usuli tarjimon oldida boshqa yo'l qolmaganda ishlatiladi, ya'ni, transkripsiya orqali berib bo'lmaydigan tushunchani shunchaki tushuntirib berishdan boshqa iloj qolmaydi. Ko'p hollarda, tasvirlovchi tarjima singari izohlovchi tarjima o'z tabiatiga ko'ra realiyaning o'zini emas, uning izohini tarjima qiladi: "to'n" bu "o'zbek xalqining ustki milliy kiyimi; avra astarli, uzun, yengli, tik yoqali, oldi ochiq" va tarjimon uni aynan shunday tarjima qiladi.

Umumiy tarzda aytadigan bo'lsak, realiyalarning yaqinlashtiruvchi tarjima usuli, o'z nomidan aytib turganidek, adekvat hisoblanmaydi, tegishli birlik ma'nosini to'laligicha bera olmaydi, milliy yoki tarixiy koloritga kelsak, asar o'quvchisi bu haqida tasavvur ham qilmasligi mumkin.

3. "Kontekstual tarjima" atamasini odatda "lug'aviy tarjima"ga qarama-qarshi qo'yiladi va shu orqali, so'zning lug'atdan tashqari kontekst ichida ham farqli muvofiqliklari borligiga ishora qilinadi. Demak, bu holat uchun tarjima qilinayotgan so'z muqobillarining yo'qligi xosdir – uning ma'nosi tegishli tarzda transformatsiya qilingan kontekst yordamida beriladi.

Ikki tarjima turi – yaqinlashtiruvchi va kontekstual tarjima ham deyarli neytral, rangsiz mahsulot beradi, realiya yo'qoladi yoki boshqacha bo'yoqdorlikka ega bo'ladi.

XULOSA

Ko'p sonli holatlarda asarda an'ana, urf-odat, turli xil marosimlar o'z nomlari bilan berilmaydi va muallif tomonidan ma'lum ko'rinishlarda tasvirlab o'tiladi. O'zga millat urf-odat yoki an'analaridan bexabar tarjima o'quvchisi milliy

chizgilar bilan yo'g'rilgan bu turdagi vaziyatlarni, tabiiyki, oddiy tushuncha va xarakterlar qatorida qabul qiladi, va eng yomoni, ko'p holatlarda bu asarni o'qish davomida o'quvchi uchun tushunmovchiliklar tug'dirib qo'yishi mumkin. Ushbu ko'rinishlarni tushunib tarjimada to'g'ri yetkazib berish uchun, albatta, tarjimondan yetarlicha fon bilimlarga ega bo'lishi talab qilinadi. Tarjimonning aslyat tili va madaniyat egasi bilan hamkorlikda ish olib borishi, asar qiymatini saqlab qolishga beqiyos hissa bo'lib qo'shiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., 1966. – 457 с;
2. Вайсбурд Е.М. Реалия как элемент страноведения. – Риз.Р. №3., –М., 1972. – С.98;
3. Верещагин В.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. – М., 1983.– 260 с.;
4. Кунин А.В. Английская фразеология. Теоретическая курс.– Москва, 1978. –343 с;
5. Томахин Г.Д. Реалия через американизмы. – Москва, 1982. – 442 с;
6. Чернов Г.В. В вопросу о передаче безэквивалентной лексики при переводе публицистики на английский язык. – Уч.записи МГПИИЯ. Вып 58. – 1958. – 223 с;
7. Сапогова Л.И. О понятие реалия. Сб. №4. – М., 1990. -315 с;
8. Соболев Л.Н. Пособие по переводу с русского языка на французский. – М., 1952. – 404 с
9. Саломов Ф. Мақол ва идиомалар таржимаси. – Тошкент, 1964. – 159 б;
10. Саломов Ф. Таржима назариясига кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978, – 222 б;
11. Комилов Н. Бу қадимий санъат. – Тошкент: Адабий мерос, 1988. – 117 б,
12. Файзуллаева Р. Национальный колорит и художественный перевод. – Ташкент: Фан, 1979. –178 с;
13. Досбаева Н. Т. Ўзбек насрий адабиётидан инглиз тилига таржималарнинг лингвомаданий таҳлили: Филол. фан. док. ... дисс.автореф. – Тошкент, 2021. –76;

14. Абдурахмонов М. Муқобилсиз лексиканинг семантик-функционал хусусиятлари Филол. фан. фал. док. ... дисс. – Наманган, 2022. –124 б.
15. Содиқов З. Қадимги туркий реалиялар таржимаси. – Наманган, 2021. – 98 б,
16. Ширинова Р. Диний реалияларни бадий таржимада қайта яратишнинг айрим тамойиллари (Француз адабиётининг ўзбек тилидаги таржималари мисолида): Филол. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 2002. –133 б;
17. Исаева Ш.М. Юсуф Хос Хожиб асарининг инглиз ва рус тилидаги таржималарида эквивалент бўлмаган лексиканинг лингвомаданий жиҳатлари: Филол. фан. фал. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2022. –59 б.
18. Реформатский А.А. Перевод или транскрипция? Сб. Восточно-славянская ономастика. – Москва, 1972. –С.311-333
19. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. Издание третье. Исправленное. – Москва: Валент, 2006. – С. 102

STEAM TA'LIM TEXNALOGIYASINI TADBIQ QILISHDA ELEKTRON TALIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH

Boymirzayeva Fotima Shavkatjon qizi

NamDU 2 kurs magistranti

***Annotatsiya:** Maqolada STEAM (fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika) texnologiyasidan bolalarning qo'shimcha ta'limida foydalanish ko'rib chiqiladi. Uning maqsadi turli fanlarni o'zida mujassam etgan STEAM texnologiyasining asosiy tamoyillarini tavsiflash va STEAM ta'limini osonlashtirishda qo'shimcha ta'limning rolini tushuntirishdan iborat. Tadqiqot doirasida STEAM texnologiyalarini o'z ichiga olgan fanlararo ta'lim tashabbuslarining qisqacha ko'rinishi keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** STEAM texnologiyalari, STEAM ta'limi, bolalar uchun qo'shimcha ta'lim, integratsiyalashgan dasturlar.*

Аннотация: В статье рассматривается использование технологии STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts and Mathematics) в дополнительном образовании детей. Его цель — описать основные принципы междисциплинарной технологии STEAM и объяснить роль дополнительного образования в содействии образованию STEAM. В исследовании представлен краткий обзор междисциплинарных образовательных инициатив, включающих технологии STEAM.

Ключевые слова: STEAM-технологии, STEAM-образование, дополнительное образование детей, интегрированные программы.

Maktab o'quv jarayonida multimedia texnologiyasidan foydalanishning ustuvor qilinishi uchun, birinchi navbatda, multimedia konseptining asosiy tushunchalariga tushunish lozim. "Multimedia" so'zi lug'aviy ma'nosi bo'lib, "multum" (ko'p) va "media" (muhit) so'zlarining birikmasidan tuzulgan. Bu atama, ilmiy va o'quv adabiyotlarida ko'p vositali muhitni ifodalovchi, multimedia - bitta yoki bir nechta mediaga bo'linadigan, ma'lumot va mahsulotlarni yetkazuvchi vosita sifatida ta'riflanadi. Ammo, adabiyotlarda bu atamaning aniq ta'rifining mavjudligi haqida o'zaro kelishilgan emas. Hozirgi kunda, multimedia atamasi ko'p bo'lib, turli tushunchalarni ifodalash uchun qo'llaniladi. Masalan, multimedia texnologiyasi, mahsuloti, didaktik vositasi va boshqalar shu tushunchaga kiradi. Multimedia tushunchasi adabiyotlarda bir nechta ta'rif bilan ta'rifiy qilingan, shu jumladan, turli shakllardagi ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi vositalar majmuasi sifatida ta'riflanadi.

Maktabga o'quvchi bolalar uchun mo'ljallangan multimedia texnologiyalari an'anaviy texnologiyalardan farqli bo'lgan joylar: bolalar psixologik taraflari, yoshi (5-7 yosh), kompyuter bilan mashg'ulot davomiyligi (15 daqiqa), materialning bolalar uchun mosligi (multimedia shaklida), materialning hajmi (30 daqiqa), materialning murakkablik darajasi (bolalar uchun sodda materiallar tanlanadi), ularning faollik darajalari va hokazo.

Maktabga o'quvchi bolalar uchun yaratilgan multimedia kompyuter texnologiyasida texnologik qiyinchiliklar quyidagicha hal qilinadi: birinchi

navbatda, maktab o'quv jarayonini osonlashtirish maqsadida material o'quvchi tomonidan qulay bo'lgan qismlarga ajratiladi; ikkinchisi, o'quv jarayonidan maqsadga muvofiq natijalarni olish va loyihalangan ishlar oxiriga yetkazishni ko'rsatiladi; eng muhim, o'quvchilarga multimedia asosida material taqdim etiladi. Bu multimedia ta'sirining o'quvchilar uchun o'zlashtirishini yaxshilab, o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Maktab davrida bolaning muloqotga bo'lgan ehtiyojini qondirish va umumiy ravishda rivojlantirishda multimedia vositalardan foydalanish lozimdir.[1]

STEAM texnologiyasida animatsiya studiyasini yaratish uchun hozirgi kunda odatiy vositalar talab qilinadi: raqamli kamera, ovoz yozish va animatsiya dasturlari bilan ta'minlangan kompyuter yoki noutbuk. Shu bilan birga, bolalar bilan multfilmlar yaratishda ma'lum shart-sharoitlarni hisobga olish, alohida vaqt ajratish, faoliyatlarini tashkil etish va ota-onalar bilan ishlarni tashkil etish zarur. Animatsiya bolalarni faol harakatlarga yaqinlashtiradi, ijodiy muhitni yaratadi. Bolalar rassomlar, ssenariy mualliflari, rejissorlar, aktyorlar, operatorlar bo'ladi, bir-biriga muloqot qilishadi va o'zlarining harakatlari va faoliyatlari muvofiq ko'rsatiladi. Bu jarayonda bolalar o'zlarini ijodkor sifatida rivojlantirishda ota-onalarning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Bolalar oddiy mashg'ulotlarga qiziqishmaydi, shuning uchun animatsiya yordamida o'quv va ijodiy faoliyatlariga qiziqishni oshirish mumkin. Animatsiyada o'z fikrlarini ifodalash, o'zlarini ijodkor sifatida ko'rsatish imkoniyati bolalarni yoqtiradi.[2]

Hozirgi kunda jamiyatimizdagi turli faoliyat sohalari mutaxassislarining kasbiy mahorati ularning kompyuter texnologiyalarini egallashi bilan ham belgilanadi. Bu holat davr talabiga aylandi. Bu talabni qondirish uchun mutaxassislar tayyorlash jarayonida, ya'ni ta'lim muassasalarida yetarli asos yaratish zarur. Hozirgi vaqtda ta'lim muassasalarida yangi pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslarini ishlab chiqish, ularni tasniflash, uslubiy ahamiyatini aniqlash ishlari olib borilmoqda. Yangi pedagogik texnologiyalar haqida gapirganda, an'anaviy va noan'anaviy usullar bilan bir qatorda ta'limni kompyuterlashtirishni ham nazarda tutamiz. Shu nuqtai nazardan, rivojlanayotgan kompyuter-axborot madaniyati axborotni tarqatish va qabul qilishda yangi

munosabatlarni yaratadi, fikrlashning yangi shakllarini rivojlantiradi. Bu jarayonda shaxslar axborot hamjamiyati bilan muloqotga kirishadilar. Telekommunikatsiya (telefon, televidenie, radio) tarmoqlarining kompyuter tarmoqlari bilan yaqinlashishi yagona global axborot makonini – multimediani yaratadi. Ushbu makonning eng muhim qismi Internet, ayniqsa uning gipermedia xizmatlari (World Wide Web), gipermedia pochta, video konferentsiyalardir.[3]

Ta'lim jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish pedagogik va psixologik ravishdan juda muhimdir. Bu vosita orqali berilayotgan materiallar chuqurroq o'zlashtiriladi, vaqt tejash imkoniyatiga erishiladi, olingan malumot uzun muddat saqlanadi. Kichik maktab o'quvchilari multimedia dasturlari orqali passiv tinglovchi sifatida qatnashadi, izlanuvchanlik va bilish faoliyatini rivojlantirishga intilgan. Multimedia ta'limining emotsional-estetik ta'siri, maqsadga intilish, tadqiqotchilik kabi motivlarni faollashtiradi.[4]

XULOSA

Bu texnologiyadan foydalanganida ta'lim oluvchi o'z o'zining eshitgan va ko'rgan materialning ko'p foizini yodda saqlaydi. Interaktiv multimedia texnologiyalari esa bu ko'rsatkichni 75%ga ko'taradi. Shu sababli, katta hajmdagi ma'lumotni qabul qilish, tushunish va voqiylikka ma'sul va faol munosabatni rivojlantirishning psixofiziologik va estetik xususiyatlarini hisobga oluvchi multimedia pedagogikasini yaratish muhimdir. Multimedia foydalanish uchun kerak bo'lgan texnik vositalar: kompyuter, lazer diskni o'qiydigan SD-ROM qurilmasi, SI-ovoz xaritasi, AS faol kolonka, SD-kompakt disk. So'nggi kompyuterlarda, ba'zi usullar kompyuter ichiga joylashtirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rajabova L. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning matematikadan mustaqil ishlarini tashkil qilish metodikasi //центр научных публикаций (buxdu. Uz). – 2020. – т. 2. – №. 2.
2. Rajabova L. Steam ta'lim dasturi asosida matematika masalalarini yechishning ilg'or usullari //центр научных публикаций (buxdu. Uz). – 2020. – т. 1. – №. 1. "Экономика и социум" №12(91)-1 2021 www.iupr.ru 530

3. Rajabova L. Matematika mashg'ulotlarida didaktik o'yinlardan foydalanishning ahamiyati //центр научных публикаций (buxdu. Uz). – 2020. – т. 2. – №. 2.
4. Rajabova L. S., Muxtorova M. A. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatda oddiy tajribalarni o'tkazishga o'rgatish //scientific progress. – 2021. – т. 2. – №. 7. – с. 1218-1223.

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМДА STEAM O'QITISH TEXNOLOGIYASI

Boymirzayeva Fotima Shavkatjon qizi

NamDU 2 kurs magistranti

***Annotatsiya.** STEAM ta'lim texnologiyasini maktab ta'limi sohasiga integratsiyalashuvi nafaqat maktab ta'limi tizimida faol ishtirok etayotgan mutaxassislar, balki STEAMni talabalarga tanlov mavzusi sifatida taklif etuvchi oliy ta'lim muassasalari tomonidan ham amalga oshirildi. Ushbu oliy ta'lim muassasalarida o'qitish uchun STEAM ta'lim texnologiyasining joriy etilishi ta'lim haqidagi tasavvurlarni qayta shakllantirmoqda.*

***Kalit so'zlar:** STEAM, ijodkorlik, trening, kognitiv, o'yin usuli, o'qitish texnologiyasi, faoliyat, rivojlantiruvchi muhit, STEAM pedagoglari, ijodiy fikrlash, estetik zavq, intellektual qobiliyat.*

***Аннотация.** Интеграцию образовательных технологий STEAM в сферу школьного образования осуществили не только специалисты, активно участвующие в системе школьного образования, но и высшие учебные заведения, предлагающие STEAM в качестве факультативного предмета для учащихся. Внедрение образовательной технологии STEAM для преподавания в этих вузах меняет восприятие образования.*

***Ключевые слова:** STEAM, творчество, обучение, познавательный, игровой метод, технология обучения, деятельность, развивающая среда, STEAM-педагоги, творческое мышление, эстетическое удовольствие, интеллектуальные способности.*

***Annotation.** The integration of STEAM educational technology into the field of school education was carried out not only by experts actively participating in the school education system, but also by higher education institutions that offer STEAM as an elective subject to students. The introduction of STEAM educational technology for teaching in these institutions of higher education is reshaping the perception of education.*

***Key words:** STEAM, creativity, training, cognitive, game method, teaching technology, activity, developmental environment, STEAM pedagogues, creative thinking, aesthetic pleasure, intellectual ability.*

KIRISH

Bugungi ta'lim talablari bolalarni kelajakdagi jamiyat hayotiga tayyorlash zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Tez moslasha oladigan va rivojlanayotgan va yangilanayotgan ma'lumotlar bilan samarali ishlay oladigan yosh kadrlarni shakllantirish zarur. Shunday qilib, tez o'zgaruvchan va paydo bo'ladigan ma'lumotlar bilan faol shug'ullana oladigan, ayniqsa, bugungi maktab tizimidagi yosh bolalar o'rtasida faol ishtirok eta oladigan mutaxassislar guruhini shakllantirish kerak. Bugungi kunda ta'lim jarayonida STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish samarali usullardan biri hisoblanadi. Axborotni olish, qayta ishlash va amaliyotda foydalanish STEAM ta'lim dasturining asosini tashkil qiladi. STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) ta'lim tizimi Qo'shma Shtatlarda paydo bo'ldi, ba'zi maktablar o'z bitiruvchilarining kelajakdagi faoliyatiga tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik ko'nikmalari va matematika fanlarini integratsiya qilishga qaror qilishdi.[1]

ADABIYOTLAR TAHLILI

STEAM ta'lim modeli ko'p jihatdan integratsiyalangan va kreativ pedagogik yondashuv bo'lib, dastlab AQShda STEM modeli asosida rivojlangan. Ushbu model dastlab tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik va matematikani o'rgatishga qaratilgan bo'lsa-da, keyinchalik san'atni qo'shib, o'quvchilarning mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. L.R. Packer va J. Rivkinning tadqiqotlari STEAMning muammolarni hal etish va kreativ yondashuvni

rivojlantirishda muhim ekanini ta'kidlaydi. Shuningdek, ushbu yondashuv yosh o'quvchilarning kognitiv rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Maktabgacha ta'limda STEAM yondashuvi, asosan, tajriba va qiziqish asosida amalga oshiriladi, chunki bu yoshdagi bolalar hali mavhum tushunchalarni qabul qilishga tayyor emaslar. O. Moore va A. Wheeler tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda o'yin va amaliy mashg'ulotlar asosida STEAM yondashuvi yuqori samara berishi aniqlangan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun moslashtirilgan STEAM mashg'ulotlari ularning qiziqishini oshiradi va o'z bilimlarini mustaqil tarzda mustahkamlashiga imkon beradi.

Bolalar rivojlanishi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, STEAM yondashuvi bolalar intellektual, emotsional va sotsial rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, L.S. Vygotsky va J. Piagetning nazariyalari bolalar o'zaro muloqot va o'yin asosida ta'lim olganlarida yaxshi natijalarga erishishini ta'kidlaydi. STEAM metodologiyasida bolalar tabiiy fanlar bilan tanishadi, matematikani amaliy tarzda o'rganadi, texnologiya va muhandislik orqali loyihalar yaratadi va san'at orqali o'z fikrini ifodalashga o'rganadi.[2]

MUHOKAMA

STEAM yondashuvi maktabgacha ta'limda o'quvchilarni innovatsion fikrlashga va ijodiy yechimlar topishga o'rgatishda samarali usul bo'lib, yosh o'quvchilarda ijodiy fikrlash va muammolarni kompleks yondashuv orqali hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Biroq, STEAM ta'limini maktabgacha yoshdagi bolalarga moslashtirish uchun pedagogik va texnik vositalarni yanada rivojlantirish zarurdir. Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu metodologiyani o'quv dasturlariga integratsiya qilish, o'qituvchilarni malakasini oshirish, shuningdek, STEAM texnologiyalarining bolalar rivojlanishiga uzoq muddatli ta'sirini o'rganishga qaratilishi lozim.

STEAM ta'lim tamoyillariga asoslangan faoliyatni ishlab chiqish va amalga oshirish juda muhim hisoblanadi. Bolani kitoblar orqali STEAM dunyosi bilan tanishtirish STEAM ta'lim tizimidagi samarali mexanizmdir. Kitoblar bolani STEAM tizimiga jalb qilishga kuchli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Kitob bola uchun

faoliyat va jarayon o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in bo'lib xizmat qiladi. Misol uchun, kitobda baliq haqida o'qish va keyin maktabda akvariumda baliqlarni kuzatish bilan bog'lanishi mumkin. Kitob bolaning yoshligidanoq fanga qiziqishini uyg'otishi mumkin va kitoblar orqali bola fanga oid so'z boyligi bilan tanishadi. STEAM asosidagi kitoblarni ensiklopedik kitoblar bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Yosh bolalar uchun tayyorlangan kitoblar STEAM ta'lim tizimida qanday tuzilishi mumkin:[3]

S - Fan: Yosh bolalarni fan sohasi bilan tanishtirish yovvoyi tabiat, dengiz hayoti, o'simliklar va tabiat haqidagi kitoblar orqali amalga oshirilishi mumkin.

T - Texnologiya: Kundalik hayotda, bolalar atrofida yoki uyda kuzatilgan qiziqarli texnologik jihatlarni aks ettiruvchi kitoblar ularni texnologiya olami bilan tanishtirishi mumkin. Ixtirolar haqidagi hikoyalar bilan bir qatorda kitobda aylanma to'p, tikuv mashinasi, mashina yoki kir yuvish mashinasi kabi narsalarni namoyish qilish qiziqish uyg'otishi mumkin. Qiziqarli hikoyalarda tasvirlangan texnologik buyumlarning rasmlari bolalarda savollar va analitik fikrlashning paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin.[3]

E - Muhandislik: Bolalarni muhandislik bilan tanishtirishni atrof-muhitda kuzatilgan shakllar va ularning munosabatlaridan boshlash mumkin. Shakllar va ularning bir-biriga munosabatini tasvirlaydigan kitob foydali vosita bo'lishi mumkin.

A - San'at: Bolani san'at olamiga tanishtirishni bolalikdan boshlash kerak. Milliy va jahon kontekstidagi buyuk san'at asarlari, bolalar psixologiyasini aks ettiruvchi illyustratsiyalar o'rin olgan kitoblar mos illyustratsiya bo'lib xizmat qiladi.

STEAM ta'limi ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan. Malevichning "Qora kvadrat"i orqali shakllarni namoyish qilish yoki Munkning "Qichqiriq" orqali his-tuyg'ularni ifodalash kabi harakatlar bolalarni qiziqtirishi mumkin.

M - Matematika: Hali savodsiz bo'lgan bolalarga fundamental matematik tushunchalarni o'rgatish o'yinga asoslangan ta'lim orqali amalga oshirilishi mumkin. Biroq, bu 1+1 kabi an'anaviy o'qitish usuli emas, balki interaktiv innovatsiyalarni targ'ib qiluvchi o'qitish usuli bo'lishi kerak. Tasvirlardagi

hayvonlarning soni, barmoqlar soni, yuzlarida "1" (bir og'iz) yoki "2" (ikki ko'z) ko'rinishi matematik tushunchalarni shakllantirishga yordam beradi va bolalarning qiziqishini uyg'otadi. STEAM tizimidagi bolalar uchun tanlangan kitoblar nafaqat qiziqarli, balki ularning yoshiga mos va psixologik jihatdan mos bo'lishi juda muhim. Bu kitoblar bolaning e'tiborini jalb qilishi, yoshiga mos ma'lumotlarni taqdim etishi va STEAM ta'limini qo'llab-quvvatlovchi illyustratsiyalarni o'z ichiga olishi kerak.[4]

Ushbu tadqiqotda maktabgacha ta'limda STEAM yondashuvi orqali bolalarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari, o'zaro muloqot va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qanday ta'sir ko'rsatilishi o'rganildi. Tadqiqotning asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

Tadqiqot davomida STEAM asosidagi mashg'ulotlarda qatnashgan bolalarda ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarining sezilarli rivojlanishi kuzatildi. Bolalar amaliy mashg'ulotlar jarayonida mustaqil qarorlar qabul qila boshladi va o'zlarining original g'oyalarini amalga oshirishga intildilar. Bu esa ularda kreativ fikrlashning kuchayishi bilan birga tanqidiy tahlil qobiliyatini ham rivojlantirishga yordam berdi. Xususan, ularning amaliy faoliyat orqali o'zlarini ifodalash va yangi g'oyalar bilan chiqishlari kuzatildi.

STEAM yondashuvi asosida tashkil etilgan guruh mashg'ulotlari bolalar o'rtasidagi ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirdi. Jamoaviy loyihalar bolalarni o'zaro hamkorlikka undadi, ular bir-birlarining fikrlariga hurmat bilan yondashishni o'rgandilar. Natijada, bolalar ijtimoiy va kommunikatsion ko'nikmalarini mustahkamlashdi, bu esa kelgusidagi ta'lim jarayonida ham ularga foyda keltiradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, STEAM faoliyatlari bolalarda tabiiy fanlar va matematikaga nisbatan qiziqishni oshirgan. Xususan, oddiy fizika va matematika qonunlarini o'yin shaklida o'rganish orqali bolalar ushbu fanlarga qiziqib qolganliklari aniqlandi. Bu yondashuv matematika va fanlarning abstraktligini kamaytirib, ularni amaliy va hayotiy kontekstda tushuntirganligi sababli, yosh bolalar uchun qiziqarli va tushunarli bo'ldi.[5]

O'qituvchilar uchun yangi pedagogik yondashuvlarni o'zlashtirish imkoniyati

Tadqiqot davomida o'qituvchilar STEAM yondashuviga asoslangan darslarni o'tkazishda yangi pedagogik usullarni qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishdi. Bu usullar maktabgacha ta'limda innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish va o'quv jarayonini interaktiv qilishga yordam berdi. O'qituvchilar o'zlarining texnologik va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishdi, bu esa STEAM ta'limining muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga hissa qo'shdi.[6]

XULOSA

Tadqiqot natijalari STEAM yondashuvi maktabgacha ta'limda o'quvchilarni ijodiy, tanqidiy fikrlashga, muammolarni kompleks hal qilishga va tabiiy fanlarga qiziqishga undashda samarali ekanini ko'rsatdi. STEAM yondashuvi orqali bolalarda ijtimoiy va kommunikatsion ko'nikmalar rivojlanishi kuzatildi, shuningdek, ularning tabiat va texnologiyaga bo'lgan qiziqishi oshdi. Shu bilan birga, STEAM faoliyatlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun pedagoglar malakasini oshirish va kerakli materiallar bilan ta'minlash zarurligi qayd etildi. Bu natijalar STEAM texnologiyalarini maktabgacha ta'limga keng ko'lamda joriy etish imkoniyatlarini va istiqboldagi tadqiqot yo'nalishlarini belgilab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. IMPROVING THE PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL COMPETENCE OF FIRSTYEAR CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATION M Shakhnoza - ... International Journal of Multidisciplinary Research and ..., 2022
2. MAKTABGACHA TA'LIM SOHASIDAGI BUGUNGI KUN RIVOJLANISHI, YANGILIKLARI VA YUTUQLARI. A Nilufar, M Shaxnoza - Journal of Universal Science Research, 2023
3. Abdumajitova S. A. PRIORITY OF THE PERSON-CENTERED EDUCATIONAL MODEL IN PRESCHOOL EDUCATION //International Academic Research Journal Impact Factor 7.4. – 2022. – T. 1. – №. 5. – C. 53-57.
4. Abduqasimovna, A. S. (2022). DIFFERENT VIEWS OF EASTERN THINKERS AND PEDAGOGUES-SCIENTISTS ABOUT THE CHILD AND HIS EDUCATION. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 348-352.
5. Abduqasimovna, A. S. (2022). ATTENTION TO THE EDUCATION OF CHILDREN OF PRESCHOOL AGE AND REFORMS IN THE FIELD OF

PRESCHOOL EDUCATION. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 342-347.

6. Абдумажитова, С. А. (2019). ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ У ДЕТЕЙ ЧУВСТВА ВРЕМЕНИ КАК ЭСТЕТИЧЕСКОГО ФЕНОМЕНА В ПСИХОЛОГОПЕДАГОГИЧЕСКОЙ И МЕТОДИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (3), 81-83.

XXI ASR TA'LIM MUHITIDA XALQARO BAXOLASH DASTURLARINING AHAMIYATI

Sodiqjonova Roziyaxon Jo'rabek qizi

Ilmiy raxbar: Azamat Boydavlatov

Namangan davlat pedagogika instituti

Texnologik ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Email: shaxarnamangan71@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xalqaro baxolash dasturlari, ularning vazifalari afzalliklari, bugungi kundagi faoliyati hamda ushbu dasturlarning umumiy komprativistik tahlili keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *PISA, TIMSS, PIRLS, ICCS, IALS, ta'lim sifati, baxolash dasturlari, ta'lim tizimi, kompetensiya, bilim, ko'nikma*

Аннотация: *В данной статье представлены международные программы оценки, их миссия, преимущества, текущая деятельность и общий компративистский анализ этих программ.*

Ключевые слова: *PISA, TIMSS, PIRLS, ICCS, IALS, качество образования, программы оценки, система образования, компетентность, знания, навыки*

Annotation: *This article presents the international assessment programs, their mission advantages, current activities and general comprativist analysis of these programs.*

Keywords: *PISA, TIMSS, PIRLS, ICCS, IALS, quality of education, assessment programs, education system, competence, knowledge, skills*

Xalqaro baholash dasturi — bu turli davlatlarda ta’lim sifatini va o’quvchilar bilim darajasini aniqlash uchun mo’ljallangan xalqaro miqyosdagi dasturlardir. Ushbu dasturlar o’quvchilarning muayyan fanlar bo’yicha bilim va ko’nikmalarini tahlil qilib, ularning natijalari asosida ta’lim tizimlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi.

Xalqaro baholash dasturlari orqali davlatlar ta’lim sifatini boshqa mamlakatlar bilan taqqoslash, kuchli pedagogik yondashuvlarni o’rganish va ta’limni yanada rivojlantirish uchun samarali strategiyalar ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo’ladilar. Eng keng tarqalgan xalqaro baholash dasturlariga PISA, TIMSS, PIRLS, ICCS va IALS kiradi.

Xalqaro baholash dasturlarining har biri haqida batafsilroq ma’lumotlarga ega bo’lamiz.

1. PISA (Programme for International Student Assessment)

O’tkazish vaqti: PISA har uch yilda bir marta tashkil etiladi va har bir tadqiqotda o’quvchilarning o’qish, matematika va tabiiy fanlar bo’yicha ko’nikmalari sinovdan o’tadi.

Qamrov: Ushbu tadqiqot 15 yoshdagi o’quvchilarga mo’ljallangan, chunki bu yoshdagi o’quvchilar ko’pincha umumiy ta’limning asosiy bosqichini tugatish arafasida bo’ladi.

Tahlil qilinadigan sohalar: Har bir sinovda ma’lum bir fan yo’nalishi asosiy yo’nalish sifatida tanlanadi. Masalan, bir tadqiqotda matematika asosiy yo’nalish sifatida tanlanishi mumkin, keyingi safar tabiiy fanlar yoki o’qish yetakchi yo’nalishga aylanadi.

Test mazmuni: PISA nafaqat bilimni, balki real hayotdagi muammolarni hal qilish, analitik va tanqidiy fikrlash, yaratish qobiliyatlarini ham o’lchaydi.

Ta’siri: PISA reytinglari mamlakatlar o’rtasida ta’lim tizimlarini taqqoslash va yangi siyosiy qarorlar qabul qilishda muhim rol o’ynaydi. Masalan, ayrim davlatlar past natija ko’rsatgan bo’lsa, ta’lim dasturini, o’qituvchilarni tayyorlash tizimini qayta ko’rib chiqishadi.

2. TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study)

O'tkazish vaqti: TIMSS har to'rt yilda bir marta o'tkaziladi va bu tadqiqot 4 va 8-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan.

Qamrov: TIMSS tadqiqotida matematika va tabiiy fanlar o'rganiladi, chunki bu fanlar o'quvchilarning ilmiy saviyasini o'lchashda muhim hisoblanadi.

Test mazmuni: TIMSS savollari ta'lim dasturlariga muvofiq tuziladi va o'quvchilarning matematik va tabiiy fanlar bo'yicha bilimlarini baholashga qaratilgan. Masalan, matematikadan algebra, geometriya va statistikaga oid savollar beriladi.

Ta'siri: TIMSS natijalari yordamida mamlakatlarning matematik va tabiiy fanlar bo'yicha dasturlarini tahlil qilish va bu fanlardagi bilim darajalarini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

3. PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study)

O'tkazish vaqti: PIRLS har besh yilda bir marta o'tkaziladi va u boshlang'ich ta'limning 4-sinfiga yo'naltirilgan.

Qamrov: PIRLS o'quvchilarning matnlarni tushunish darajasini, o'qishga bo'lgan qiziqishini va o'qish savodxonligini baholaydi.

Test mazmuni: Test ikki turdagi matnlardan iborat: badiiy va ilmiy-tanqidiy matnlar. O'quvchilarga matnlar o'qitiladi, so'ng ulardan mazmuni haqida savollar beriladi.

Ta'siri: PIRLS natijalari o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishda yordam beradi. Past natija ko'rsatgan davlatlar esa o'qish dasturlarini yaxshilash uchun PIRLS natijalarini asos qilib oladi.

4. ICCS (International Civic and Citizenship Education Study)

O'tkazish vaqti: ICCS odatda har besh yilda bir marta o'tkaziladi va o'quvchilarning fuqarolik, siyosiy va madaniy savodxonligini baholashga qaratilgan.

Qamrov: O'quvchilarning demokratiya, inson huquqlari, ijtimoiy mas'uliyat kabi tushunchalarni qanchalik tushunishi va ularga qiziqishi baholanadi.

Test mazmuni: ICCS savollari o'quvchilarning fuqarolik huquqlari, demokratik prinsiplar va davlat boshqaruvi kabi mavzularga oid bilimlarini o'lchaydi.

Ta'siri: Bu tadqiqot yordamida mamlakatlar fuqarolik savodxonligini oshirish uchun qanday choralar ko'rish kerakligini aniqlab olishadi. Natijalar yoshlarning jamiyatdagi faol ishtirokini oshirishga yordam beradi.

5. ISILS (International Study of Information Literacy Skills)

Bu dastur turli mamlakatlarda talabalarning axborot savodxonligi ko'nikmalarini o'rganishga qaratilgan xalqaro tadqiqot dasturidir. Axborot savodxonligi insonning to'g'ri ma'lumotni izlash, baholash va undan samarali foydalanish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. ISILS turli ta'lim tizimlari va madaniy muhitlarda axborot savodxonligi darajasini o'lchab, ularni taqqoslash orqali ta'lim va siyosatga oid islohotlarga hissa qo'shishni maqsad qiladi.

ISILS dasturining asosiy maqsadlari:

Axborot savodxonligini baholash: ISILS talabalarning kerakli ma'lumotni topish, uni baholash va undan mas'uliyatli foydalanish qobiliyatlarini o'lchashni maqsad qiladi. Bu faqatgina an'anaviy ilmiy izlanish ko'nikmalarini emas, balki raqamli savodxonlik va ishonchli manbalarni aniqlash qobiliyatini ham o'z ichiga oladi.

Xalqaro taqqoslash: Tadqiqot turli mamlakatlardagi o'xshash va farqli jihatlarni aniqlash, ularning madaniy, texnologik va ta'limiy omillarini inobatga olgan holda axborot savodxonligini baholaydi.

Bo'shliqlar va takomillashtirish sohalarini aniqlash: ISILS orqali olingan ma'lumotlar ta'lim tizimidagi axborot savodxonligini rivojlantirish va yaxshilash zarur bo'lgan sohalarni ko'rsatib beradi.

Eng yaxshi tajribalarni ishlab chiqish: ISILS tadqiqotlari ta'lim dasturlariga axborot savodxonligini samarali o'rgatish uchun zarur bo'lgan eng yaxshi tajribalarni ishlab chiqishda yordam beradi.

ISILS axborot savodxonligini yaxshilash va talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi hamda xalqaro miqyosdagi ta'limiy islohotlarga ijobiy hissa qo'shadi.

Yuqorida keltirilgan dasturlar o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini xalqaro miqyosda o'lchash va taqqoslashga qaratilgan tadqiqotlar hisoblanadi.

Ushbu dasturlar orqali har bir davlat o'zining ta'lim tizimini baholab, kuchli va zaif tomonlarini aniqlab boradi.

Xalqaro baholash dasturlarining afzalliklarini turli xil ko'rinishlarda ko'rib chiqishimiz mumkin masalan:

Ta'lim tizimini taqqoslash orqali. Har bir mamlakat o'zining ta'lim tizimini boshqa davlatlarniki bilan taqqoslash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Zaif tomonlarni aniqlash: PISA, TIMSS va PIRLS kabi tadqiqotlar orqali o'quvchilarning qaysi fanlar yoki ko'nikmalarda zaif ekanligi aniqlanadi.

Ta'lim siyosatini yaxshilash: Baholash natijalari asosida davlatlar ta'lim tizimlarini yaxshilash bo'yicha choralar ko'radi.

O'quvchilarning xalqaro raqobatbardoshligini oshirish: Ushbu dasturlar orqali o'quvchilar o'z bilim va ko'nikmalarini qay darajada ekanligini o'zlari uchun bilib olishi hamda xalqaro darajada rivojlantirishi mumkin.

Xalqaro baholash dasturlarining ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyati:

- Xalqaro baholash dasturlari natijalariga asoslanib, mamlakatlar o'z ta'lim dasturlarini qayta ko'rib chiqib, zaif tomonlarini bartaraf etadi.
- Dasturlar tadqiqotlarda qamrab olingan ma'lumotlar asosida ta'lim tizimini ilmiy yondashuv bilan boshqarish imkonini beradi.
- Baholash natijalari orqali davlatlar ta'lim uchun ajratilgan resurslarni qayerda ko'proq qo'llash kerakligini aniqlashadi.
- Ta'limda xalqaro ko'nikmalarni o'zlashtirish o'quvchilarning kelajakda global bozorda raqobatbardosh bo'lishiga yordam beradi.

Yuqoridagi dasturlar orasida PISA eng ommabop bo'lib, unga ko'p davlatlar qiziqadi va o'zlarining ta'lim tizimini baholashda ushbu reytingdan foydalanishadi. TIMSS va PIRLS esa turli yosh guruhlaridagi bilimlarni o'lchash orqali har bir davlatning ta'lim tizimidagi uzviylik va rivojlanishni tahlil qiladi.

Bugungi kunda xalqaro baholash dasturlaridan dunyoning ko'plab mamlakatlari foydalanadi. Misol uchun, eng keng tarqalgan xalqaro baholash dasturlaridan biri bo'lgan PISA (Programme for International Student Assessment) dasturida 2022-yilda 80 dan ortiq mamlakat ishtirok etgan. Ular orasida AQSh,

Xitoy, Yaponiya, Germaniya, Rossiya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan mamlakatlar, shuningdek, O'zbekiston, Qozog'iston, Braziliya, Argentina kabi rivojlanayotgan davlatlar ham bor.

Yana bir keng tarqalgan dastur TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) bo'lib, u matematik va tabiiy fanlardan o'quvchilarni baholaydi va unda ham 60 dan ortiq mamlakat qatnashadi. PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) dasturi esa boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligini baholaydi va 50 dan ortiq mamlakat ishtirokida o'tkaziladi.

Aksariyat davlatlar bu dasturlardan foydalanib, o'z ta'lim tizimlarini rivojlantirish uchun ma'lumotlarga ega bo'ladi va xalqaro darajadagi ta'lim yondashuvlarini o'rganadi. Bunda Yevropa, Osiyo, Shimoliy va Janubiy Amerika, Afrika va Okeaniya mintaqalaridagi ko'plab mamlakatlar ishtirok etadi.

O'zbekiston xalqaro baholash dasturlarida faol ishtirok etishni so'nggi yillarda boshladi. PISA dasturiga O'zbekiston 2018-yilda qo'shildi va 2021-yilda ilk bor o'z o'quvchilari uchun PISA baholash sinovlarini o'tkazdi. Bu xalqaro baholash dasturi orqali mamlakat o'quvchilarining bilim va ko'nikmalarini xalqaro standartlar bo'yicha tahlil qilish, shuningdek, ta'lim tizimini yanada rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ldi.

TIMSS va PIRLS kabi boshqa xalqaro baholash dasturlariga qo'shilish bo'yicha ham O'zbekiston qadam tashlamoqda va ushbu dasturlar orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Bu xalqaro dasturlar orqali mamlakatimiz o'z ta'lim tizimini global mezonlarda baholash va takomillashtirish imkoniga ega bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro baholash dasturlari O'zbekiston ta'lim tizimi uchun muhim ahamiyatga ega. Bu dasturlar yordamida mamlakat o'quvchilari bilim va ko'nikmalarini xalqaro miqyosda sinab ko'rish imkoniga ega bo'lmoqda. Shu orqali ta'lim tizimining kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi, shuningdek, rivojlangan davlatlarning tajribasi asosida yangi strategiyalar ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi. O'zbekistonning PISA, TIMSS, va PIRLS kabi dasturlarga qo'shilishi ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan muhim qadam bo'ldi. Xalqaro

baholash dasturlaridan olingan ma’lumotlar mamlakatning ta’lim siyosatiga ijobiy o’zgarishlar kiritishga va xalqaro tajribani joriy qilishga yordam beradi. Shu sababli, bunday dasturlarda ishtirok etish O’zbekiston ta’lim tizimining raqobatbardoshligini oshiradi va yosh avlodni zamonaviy bilim va ko’nikmalar bilan ta’minlashda muhim rol o’ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqarova M.A. “The scientific importance of pisa and pirls studies in monitoring the quality of knowledge of students”. European chemical bulletin. ISSN 2063-5346. 23.07.2023
2. Asqarova M.A. “PIRLS va PISA xalqaro baholash dasturlarining nazariy va amaliy ahamiyati” Kasb-hunar ta’limi. 4-son, 2023-yil
3. Boydavlatov A.A. “Abu Ali ibn Sino asarlarining o’ziga xos didaktik xususiyatlari”. “Научный импульс”, 1-son. 2024-yil, Fevral.
4. Poddyakov A. Solving complex problems in PISA-2012 and PISA-2015: Interaction with complex reality Archived copy from February 16, 2016 on Wayback Machine. // Educational policy. No. 6 (62) 2012. pp. 34-53
5. Mardonov R. FEATURES OF EDUCATIONAL SERVICES IN MODERN CONDITIONS //Archive of Conferences. – 2021. – T. 22. – №. 1. – C. 100-103.

O’QUVCHILARNING GRAFIK KOMPETENTLIGINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA OSHIRISH

Tadjibayev Azizbek Batirovich

Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD

Abdujabborova Zulayxo Muxtorjon qizi

TSMG yo’nalishi 3-bosqich talabasi

***Annotatsiya.** Maqolada, geometriya darsligidagi grafik tasvirlarning didaktik imkoniyatlaridan ta’lim jarayonida foydalanish yo’llari ochib berilgan. Shuningdek, grafik ta’lim samaradorligini va o’quvchilarning grafik bilimlarini*

o'shishda chizmachilik o'qituvchisi alohida ahamiyat kasb etishi haqida fikr yuritilgan.

***Kalit so'zlar:** grafikaviy bilim, grafik tasvir, foydalanish, sifat, samaradorlik, oshirish, chizmachilik, jarayon, ta'minlash, yagona, tartib.*

***Аннотация.** В статье раскрывается дидактические возможности использования графических изображений в процессе преподавания таких учебных предметов, как геометрия и др. Также, охарактеризованы роль и место учителя черчения в обеспечении единого графического режима в школе, что способствует не только развитию графических знаний учащихся, но и повышению качества и эффективности общего образования в целом.*

***Ключевые слова:** графические знания, графические изображения, использование, качество, эффективность, повышение, черчение, процесс, обеспечение, единый, режим.*

***Annotation.** In article reveals didactic possibilities of use of graphics in the course of teaching of subjects such as geometry etc. Also, the role and a place of the teacher plotting in providing a uniform graphic mode at school that promotes not only to development of graphic knowledge of pupils, but also increase quality and efficiency of the general education as a whole are characterized.*

***Keywords:** graphic knowledge, graphics, use, qualities, efficiency, increase, plotting, process, providing, uniform, model.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'zining "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz" kitobida: "O'z xalqiga fidoyi, biz boshlagan ishlarni davom ettirishga qodir bo'lgan, har tomonlama yetuk rahbar oldida dolzarb vazifa - kelgusi avlodni komil inson qilib tarbiyalash vazifasi turibdi"-degan fikrni e'tirof etadilar. Darhaqiqat, XXI asrda ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlar rivojida inson aql zakovati va ma'naviyati asosiy muvofiqlashtiruvchi, rivojlantiruvchi omil va vosita ekanligi tobora namoyon bo'lmoqda. Shuning uchun insonparvarlik bozor iqtisodiyoti asosida huquqiy, demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurilishining bosh tamoyili sifatida maydonga chiqdi.

Insoniyat tarixidan bizga ma’lumki, odamlar ongi va tasavvur doirasini kengayishida grafik tasvirlarning o’rni beqiyos. Qadimda insonlar bir-birlari bilan muomala qilishda turli xildagi tasvirlardan foydalanishgan. Yuqoridagi fikrimizga g’orlarga va qoya toshlarga ishlangan grafik tasvirlar misol bo’ladi.

Insoniyat tamadduni bilan xamohang tarzda grafik tasvirlarning funksiyasi o’zgarib borib, bugungi kunda fan va texnikani rivojlantirishning ajralmas qismiga aylandi. Zero, fan va texnikani rivojlanishida har bir fanning alohida o’rni bor. Xususan, sanoat va ishlab chiqarishda ishlatiladigan grafik tasvirlar muayyan me’yoriy talab, mezon va shartliliklar asosida yuzaga keladi. O’quvchilarda grafik tasvirlarni qonun-qoida asosida bajarish malakalarini oshirishda chizmachilik fani muhim ahamiyat kasb etadi.

O’quvchilarning grafik savodxonligi bir necha fanlarning integrativ tarzda o’qitilishi natijasida shakllanishi va bu o’quv fanlari “Chizmachilik”, “Texnologiya”, “Matematika”, “Geografiya”, “Fizika” kabi ta’lim sohalarida alohida ahamiyatga molik ekanligi A.Umronxo’jayev, A.A.Pavlova, G.Tubayev, A.Rahimov, N.Hurboyev, N.Sadriddinovlarning ilmiy izlanishlarda muayyan darajada o’rganilgan.

K.A. Volxin, A.M. Leybovlar umumiy o’rta ta’lim maktablarida grafik ta’limni o’qitilishining mohiyatini shunday tavsiflaydilar: “Grafik ta’lim shunday jarayonki, uning natijasida inson buyumlar, jarayonlar va hodisalar haqida turli grafik axborotlarni idrok etish, yaratish, saqlash hamda uzatish malakalarini hosil qiladi.

Umumiy o’rta ta’lim maktablarida ob’ektlarning grafik modellari bilan ishlash malakalarini shakllantirish mas’uliyati tasviriy san’at, chizmachilik hamda geometriya kabi o’quv fanlari zimmasiga yuklatiladi. Tasviriy san’at ustuvor tarzda ob’ektlarni realistik uslubda tasvirlash malakalarini shakllantirishga yo’naltirilgan. Geometriyaning planimetriya va stereometriya kabi bo’limlari o’quvchilarda mos ravishda yassi geometrik hamda oddiy fazoviy ob’ektlarni ularning parallel hamda markaziy proeksiyalash ishlarini bajarishga oid malakalarni shakllantirishga yo’naltiriladi [1;56-s].

Shuningdek, B.S.Abdullaeva o’z tadqiqotida: “O’tgan asrning 30-yillarida o’quv fanlariaro aloqadorlikni ta’minlashga politexnik hamda mehnat ta’limini rivojlantirish nuqtai nazaridan yondashilgan” [2;24-b] ligini ta’kidlaydi.

Tadqiqotchi, mazkur fikrni davom ettirib, "Matematikaning nafaqat fizika, kimyo, biologiya va boshqa tabiiy turkumdagi o'quv fanlari bilan aloqadorligi muhim, balki ijtimoiy-gumanitar sohadagi o'quv fanlari bilan ham bog'liqlikda o'rgatilishi alohida didaktik ahamiyatga ega" [2;27-b] ligiga alohida e'tibor qaratadi.

Maktab ta'limidagi chizmachilik o'quv fanining Davlat ta'lim standartida o'quvchilarda chizmalarni o'qish malakasini hosil qilish va grafik tasvirlar yasash qonuniyatlarining nazariy asoslarini o'rgatish hamda ularni amaliy bajarish kompetensiyalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Bu fan o'quv dasturiga binoan, 8-sinfda to'g'ri burchakli proeksiyalar tizimidagi chizmalar, aksonometrik proeksiyalar va texnik rasmlar, chizmalarni o'qish va bajarish usullari, eskizlar, 9-sinfda esa kesimlar va qirqimlar, chizmada zaruriy va yetarli tasvirlar sonini aniqlash, detallar birikmalarining chizmalari, yig'ish chizmalari, qurilish chizmalari haqidagi bilimlar beriladi[3]. O'quvchilarning grafikaviy bilimlarini shakllantirishning bu tarkibiy elementlari o'rta maktab bitiruvchisidan grafik tasvirlarni bajarish tartiblari haqidagi nazariy bilimlardan tashqari, amaliy kompetensiyaviy tayyorgarligidan bevosita ishlab chiqarishdagi faoliyatida qo'llay olishni talab etadi.

Demak, chizmachilik o'quv fani o'qituvchisining zimmasida mazkur fan doirasidan tashqarida ham ahamiyat kasb etuvchi funksiyalarni bajarishi taqozo etiladi. Chizmachilik o'qituvchisining zimmasidagi mas'uliyatning murakkabligini shu omil bilan izohlash mumkin, mazkur o'quv fani 8 – 9- sinflarda haftasiga bir soatdan o'qitiladi. O'qituvchi shu vaqt ichida o'quvchilarga chizmachilikning nazariy asoslari haqidagi o'quv materiallarini berib ulgurishi va grafik ishlar bajartirib, ularni mustahkamlashi kerak. Ko'p hollarda bularga vaqt yetmay qoladi. Shunday ekan, chizmachilik o'qituvchisi berilgan vaqtdan unumli foydalanish yo'llarini o'rganishi va o'quvchilarning grafik ta'lim samaradorligini oshirishga yordam bera oladigan qo'shimcha imkoniyatlarni qidirib topishi lozim[4].

Boshqa fanlarni o'qitish jarayoni chizmachilikda olingan bilimlar va ko'nikmalardan foydalanish orqali ularning grafik bilimlarini mustahkamlash maqsadida foydalanish shunday imkoniyatlardan biri bo'lishi mumkin. 8-sinf geometriya darslarida turli tasvirlardan foydalanishning o'ziga xosligini aniqlash

maqsadida amalga oshirilgan tahlil va o'sha fan tarkibi (mazmuni)da o'qitiladigan mavzular chizmachilik fani mazmuni bilan aloqadorligini ko'rsatdi. Uning tasvirlar turi (klassifikatsiyasi) bo'yicha aloqadorlik darajalarini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin (I-jadval).

I-jadval.

8-sinf "Geometriya" darsligining mazmunidagi grafik tasvirlar klassifikatsiyasi






Tasvir turlarining nomlari	Ayrim misollar	U mu- n- iy soni	iso- lida																												
Tekis planimetrik tasvirlar		27 ta	8,66																												
Jadval	<table border="1" style="margin: auto; border-collapse: collapse;"> <thead> <tr> <th></th> <th>1</th> <th>2</th> <th>3</th> <th>4</th> <th>5</th> <th>6</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td><i>a</i></td> <td>8 sm</td> <td>0,6 dm</td> <td>?</td> <td>2,4 m</td> <td>?</td> <td>1,8 m</td> </tr> <tr> <td><i>h</i></td> <td>6 sm</td> <td>?</td> <td>28 sm</td> <td>4 dm</td> <td>3,6 sm</td> <td>?</td> </tr> <tr> <td><i>S</i></td> <td>?</td> <td>3 sm²</td> <td>75,6 sm²</td> <td>?</td> <td>10,8 mm²</td> <td>72 dm²</td> </tr> </tbody> </table>		1	2	3	4	5	6	<i>a</i>	8 sm	0,6 dm	?	2,4 m	?	1,8 m	<i>h</i>	6 sm	?	28 sm	4 dm	3,6 sm	?	<i>S</i>	?	3 sm ²	75,6 sm ²	?	10,8 mm ²	72 dm ²	1 ta	,4
	1	2	3	4	5	6																									
<i>a</i>	8 sm	0,6 dm	?	2,4 m	?	1,8 m																									
<i>h</i>	6 sm	?	28 sm	4 dm	3,6 sm	?																									
<i>S</i>	?	3 sm ²	75,6 sm ²	?	10,8 mm ²	72 dm ²																									
Buyu mning tekislikdagi bitta proyeksiyasi		5 ta	,0																												
Qiyshiq burchakli frontal dimetrik proyeksiya		1 ta	,4																												

Foto tasvir		3 ta	,26
Turli tasvirlar		8 ta	,34
Jami:		2 ta	00%

8-sinf geometriya darsligi mazmunini tahlil qilish natijasida darslikda 6 xil tasvir turlari qo'llanilganligi, jami 245 tasvir ishlatilganligi aniqlandi. Shundan 217 tasi (88,66%) tekis planimetrik tasvirlar, 1 tasi (0,4%) jadval, 5 tasi (2,0%) buyumning tekislikdagi bitta proeksiyasi, 1 tasi (0,4%) qiyshiq burchakli frontal dimetrik proeksiya, 3 tasi (1,26%) foto tasvir va 18 ta (7,34%) turli tasvirlarni tashkil qiladi[6].

Bu tasvirlarni to'g'ri bajarish hamda ularni to'g'ri o'qib tushunish uchun geometriya o'qituvchisi chizmachilikda qo'llaniladigan Davlat standartlari qoidalari – chiziq turlari, shriftlar, o'lcham qo'yish qoidalari, masshtablar, aksonometrik proeksiyalar, ko'rinishlar haqidagi ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Universitetlar va pedagogika institutlarining fizika-matematika fakultetlari, matematika yo'nalishlarida chizma geometriya hamda chizmachilik o'qitilmaydi, shu bois maktabdagi geometriya o'qituvchilari chizmachilik qoidalari haqida yetarli ma'lumotlarga ega bo'lmaydi. Demak, maktabdagi umumiy tarzda grafik ta'lim deb atalishi mumkin bo'lgan ta'lim sohasi sifati va samaradorligini oshirishda o'qituvchilarning pedagogik hamkorligi – integrativ yondashuv asosida o'qitish texnologiyalaridan foydalanishlari maqsadga muvofiq[7]. Jumladan, chizmachilik o'qituvchisi geometriya o'qituvchilariga qisqa qilib bo'lsa-da, chizmachilikda o'tiladigan mavzular yuzasidan ma'ruza, suhbatlar uyushtirib, yuqorida sanab

o‘tilgan standart qoidalarini tushuntirib berishi kerak. Mazkur tadbir qisqa muddatli kurs tarzida ikki yo‘nalishda amalga oshirish mumkin. Birinchi yo‘nalish – geometriya o‘qituvchilarining malaka oshirish kurslarida; ikkinchi yo‘nalish esa maktab chizmachilik o‘qituvchisini maktab rahbariyati bilan kelishgan holda tashkil etiladigan hamda jamoatchilik asosida olib boriladigan kurs shaklida amalga oshirilishi mumkin.

Zikr etilgan tahlilning ta’limiy ahamiyati shundan iboratki, u yoki bu o‘quv fani mazmunini o‘quvchilarga tushuntirishda chizmalardan grafik vosita sifatida foydalanilishi egallanayotgan bilimlarning onglilik darajasini, tabiiyki, grafik ta’lim samaradorligini oshirishni ta’minlaydi. Xususan, geometriya darslarida chizmachilikda o‘tilgan qonun-qoidalardan integrativ tarzda foydalanish bir fan negizida o‘zlashtirilgan bilimni ikkinchi bir fan doirasida oson va puxta o‘zlashtirish imkonini beradi. Xuddi shu ta’limiy prinsipni boshqa o‘quv fanlarini o‘qitishda ham samarali qo‘llash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаева Б.С. Фанлараро алоқадорликнинг методологик-дидактик асослари (Ижтимоий-гуманитар йўналишдаги академик лицейларда математика ўқитиш мисолида) // Пед.фан.док...дисс. – Тошкент, ЎзПФТИ, 2006. – 264 б.
2. Вольхин К.А., Лейбов А.М. Проблемы формирования графической компетентности в системе высшего профессионального образования // Философия образования, №4(43), 2012. – С.16-22.
3. Раҳмонов И. Чизмачилик. 8–9-синфлар учун дарслик. – Т.: “Ўқитувчи” 2019. – 96 бет.
4. Методика обучения черчению. Под.ред. Василенко Е.А. – М.: 1990. – 176 стр.
5. Tadjibaev A.B. The role of subject teachers in providing a unified graphics mode // The Advanced Science. Open access journal. – United State, ISSUE 9-2014. 43-45.
6. Раҳимқориев А.А. Геометрия. Умумтаълим мактабларининг 8 – синфи учун дарслик. – Тошкент: “Янги йўл полиграф сервис”, 2019. – 160 бет.

7. Таджибаев А.Б. Мактабда ўқувчиларнинг графикавий тайёргарлик даражасини ошириш // "Халқ таълими" ж. 2009. – 1-сон.

СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТ ТИЗИМЛАРИНИНГ ШАХСГА ВА КАСБГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ТАЪЛИМНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА ЎРНИ

Абдураимов Достонбек Эгамназар ўғли,

Катта ўқитувчи, ГулДУ

E-mail: abduraimov.dostonbek@mail.ru

Эргашева Гулдона Тохир кизи,

9-23А гуруҳ талабаси, ГулДУ

E-mail: ergashevadurdona48@gmail.com

Аннотация: Мақолада таълимда сунъий интеллектдан фойдаланиш, шунингдек, ўқитишни шахсга ва касбга йўналтириш муаммоларини ҳал қилиш муҳокама қилинган. Ўқув жараёнига сунъий интеллектни, шунингдек, ҳозирда қўлланилаётган технологияларни жорий этиш зарурати аниқланди ва таҳлил қилинди. Таълимни шахсга йўналтиришда сунъий интеллектдан фойдаланиш имкониятлари тақдим этилган. Сунъий интеллектдан фойдаланиш имкониятларини таҳлил қилиб, таълимда нейрон тармоқлар ва сунъий интеллект технологияларидан фойдаланиш ва такомиллаштириш зарурлиги тўғрисида хулосага келинди.

Калит сўзлар: Экспорт, импорт, глобал, товар, декларация, божхона, ягона ойна, портал, тадбиркор.

Аннотация: В статье рассматривается использование искусственного интеллекта в образовании, а также пути решения проблем персонализации и профессионализации образования. Выявлена и проанализирована необходимость внедрения искусственного интеллекта в образовательный процесс, а также используемые в настоящее время технологии. Предоставляются возможности использования искусственного интеллекта в персонализации образования. Проанализировав возможности использования искусственного интеллекта, был сделан вывод о необходимости использования и совершенствования нейронных сетей и технологий искусственного интеллекта в образовании.

Ключевые слова: Экспорт, импорт, глобальный, товар, декларация,

таможня, единое окно, портал, предприниматель.

***Abstract:** The article discusses the use of artificial intelligence in education, as well as ways to solve the problems of personalization and professionalization of education. The need to implement artificial intelligence in the educational process, as well as the technologies currently used, is identified and analyzed. The possibilities of using artificial intelligence in the personalization of education are provided. Having analyzed the possibilities of using artificial intelligence, a conclusion was made about the need to use and improve neural networks and artificial intelligence technologies in education.*

***Keywords:** Export, import, global, goods, declaration, customs, single window, portal, entrepreneur.*

КИРИШ. «Рақамли Ўзбекистон-2030» стратегиясига мувофиқ, сунъий интеллект технологияларини жадал жорий этиш ва уларни мамлакатимизда кенг қўллаш, рақамли маълумотлардан фойдаланиш имкониятини ва уларнинг юқори сифатини таъминлаш, шунингдек, ушбу соҳада малакали кадрларга тайёрлаш учун қулай шарт-шароитлар яратиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 17 февралдаги "Сунъий интеллект технологияларини жадал жорий этиш учун шарт-шароитлар яратиш чора-тадбирларига доир" ПҚ-499-сон қарори қабул қилинди. Ушбу қарорда мамлакатимиздаги иқтисодиёт тармоқлари ва ижтимоий соҳада, давлат бошқаруви тизимида сунъий интеллект технологияларини ишлаб чиқиш ва улардан фойдаланишда ягона талаблар, жавобгарлик, хавфсизлик ва шаффофликни белгиловчи норматив-ҳуқуқий базани ишлаб чиқиш мақсад қилиб олинган.

Рақамлаштириш ва глобализация даврида таълим соҳаси ўзгаришларга дуч келиб, янги юқори интеллектуал воситаларга эга бўлмоқда. Бу доирада, нейрон тармоқлар, сунъий интеллект ва бошқа турли рақамли фундаментал воситаларни жорий этиш таълим жараёнининг самарадорлигини ошириш ва илмий тадқиқотларни ривожлантиришда муҳим аҳамиятга эга. Ушбу тадбирлар, ўз навбатида, мамлакатнинг рақамли иқтисодиётини шакллантириш ва инновацион ривожланишини таъминлашга хизмат қилади.

Янги Ўзбекистон таълим тизими давлатимиз ривожланишнинг муҳим таркибий қисми бўлиб, у меҳнат бозорида зарур рақобатдош устунликларга эга бўлган ва рақамли иқтисодиётда ўз салоҳиятини рўёбга чиқаришга тайёр бўлган юқори малакали мутахассисларни тайёрлашга алоҳида эътибор беришни талаб қилади [1, 7, 9].

Таълимда сунъий интеллектдан фойдаланишнинг аҳамиятини ҳисобга олиш, таълим сифати ва самарадорлигини ошириш учун таълим жараёнини шахсга ва касбга йўналтирилган таълим дастурлари ва воситаларини ишлаб чиқиш зарурати билан боғлиқ.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ. Сўнги пайтларда биз сунъий интеллектнинг инсон фаолиятининг барча соҳаларига, жумладан, таълимга кириб бориши ҳақида тез-тез эшитишимиз мумкин. Ушбу тадқиқотда биз бу нима эканлигини жамият ва таълим ривожига қандай таъсир қилишини тушунишга ҳаракат қиламиз.

Сунъий интеллект (СИ; инглизча:artificial intelligence, AI)–инсон интеллектига тақлид қилишга қодир бўлган машиналар яратишга қаратилган фан ва технология соҳаси.

Нейрон тармоқлар-бу математик модель, маълум бир саволнинг мезонларини баҳолаш асосида берилган интеллектуал муаммони ҳал қилиш орқали башорат қилишга қодир бўлган массив ҳисоблаш коди, жуда кўп миқдордаги маълумотлар, маълумотлар базалари, сунъий интеллект энг кўп ишлаб чиқарадиган маълумотларни ишлаб чиқаради. Нейрон тармоқларнинг афзаллиги уларнинг ўрганиш қобилиятидир, улар Machine Lear нинг бўйича ИТ мутахассисининг бевосита иштирокисиз мустақил равишда ўрганишлари мумкин [6, 9].

Сунъий интеллект ва машинани ўрганиш бугунги кунда таълим соҳасида фаол қўлланилмоқда. Ушбу технологиялар имтиҳонларни ўтказиш ва текширишдан тортиб, ўқиш жараёнида қийинчиликларга дуч келган талабалар учун материалларни автоматик танлаш, талабаларни мавзунини янада онгли равишда ўрганишга таклиф қилиш, билим ва қобилият даражасини ошириш, шунингдек, талабалар муваффақиятини ва унвондорлигини таҳлил қилиш каби вазифаларни ўз ичига олади. Буларнинг барчаси талабалар ўқув режаларини "ҳис-сиз" машина назорати остида доимий равишда ўзгартириш имконини беради.

Сунъий интеллект таълим жараёнига жадал жорий этилмоқда ва бу “end-to-end” технологияларидан фойдаланиш йилдан-йилга ортиб бораётганлиги кўринмоқда.

Ҳозирги кунда таълимда сунъий интеллектдан фойдаланишнинг асосий йўналишларини кўриб чиқамиз. Авваламбор, кундалик вазифаларни автоматлаштириш. Ўқитувчилар талабалар билан ишлашда катта масъулиятни ўз зиммаларига олишади: муваффақиятни кузатиш, стандарт топшириқларни текшириш, билим даражаси ва дарсларга тайёргарлик кўриш.

Бундай оддий вазифалар дарс машғулотларида таълим жараёнидан кўп вақтни олади. Таълим самарадорлигини ва сифатини ошириш учун бундай мунтазам ишларни сунъий интеллектга топшириш имконияти яратилмоқда. Биз инсон ҳеч қачон сунъий интеллект томонидан қайта ишланиши мумкин бўлган бундай ҳажмдаги матн ва бошқа маълумотларни қайта ишламаслигига розимиз. Сунъий интеллект қила олмайдиган инсон хатолари ҳам бундай жараёндан мустасно бўлади.

ТАДҚИҚОТ МАТЕРИАЛЛАРИ ВА МЕТОДОЛОГИЯСИ.

Бугунги кунда шахсга йўналтирилган таълим ҳақида кўп гапирилмоқда. Ўқув муҳитига сунъий интеллект технологияларини жорий этиш орқали мутахассислар тайёрлашда ҳар бир фанни ўрганиш бўйича шахсий режалар тузиш, сўнгра талабалар фаолияти устидан назоратни амалга ошириш мумкин. Сунъий интеллектни таълимда бундай қўллаш ўқитувчилар ва психологлар томонидан ўқувчиларнинг қобилиятлари, мотивацияси, иродаси ва бошқа кўрсаткичларини аниқлаш усулларини ишлаб чиқиш туфайли мумкин бўлади, улар асосида индивидуал ўқув дастури тузилади.

Талабалар учун таълим дастурлари ва ихтисослаштирилган контентни яратиш ҳам ўқув жараёнини шахсга йўналтиришга ёрдам беради. Ушбу функциядан кўплаб талабалар ва ўқитувчилар фаол фойдаланадилар [3, 5].

Масалан, битта дастур ёрдамида чет тилини турли форматларда ўргатишда қўллаш. Мазкур технология талабанинг нутқини таниб олиш, жумлалар, луғат ва грамматика тузилишини таҳлил қилиш, материални қайта мустаҳкамлаш учун ўхшаш мазмундаги қўшимча топшириқларни бериш имконини беради. Ушбу иловалар кўпчилик учун гаджетлардаги оддий фаолиятга айланганлиги сабабли жуда машҳур. Чет тилларини ўрганишдан ташқари, технология барча фанларга тааллуқлидир ва улар талабалар ва ўқитувчилар орасида муваффақият қозонишни бошладилар.

Шахсга йўналтирилган таълим-таълим режасини ишлаб чиқиш ва уни амалга ошириш усули бўлиб, унда ўқувчи ўзининг шахсий хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда таълим жараёнининг субъекти ҳисобланади. Шахсга йўналтирилган нуқтаи назаридан таълим жараёнининг самарадорлигини ошириш учун ўқитувчилар ва талабаларнинг ўзлари учун сунъий интеллект имкониятларига мурожат қилиш керак.

Сунъий интеллект катта ҳажмдаги турли хил маълумотларни тўплаш ва таҳлил қилиш ва кейинчалик вазиятнинг умумий расмини олишга қодир. Бундан ташқари, сунъий интеллект бошланғич нуқтадан келиб чиққан ҳолда ўз ривожланишини башорат қила олади ва сўровга қараб уни созлаш вариантларини таклиф қилади.

ТАДҚИҚОТ НАТИЖАСИ ВА МУҲОКАМАЛАРИ. Ўқув жараёнига татбиқ этилиши мумкин бўлган сунъий интеллект маълум фанларни ва ушбу фанларнинг талабалар муаммолари бўлган соҳаларини аниқлашга қодир. Бу маълум бир вақтда вазиятни таҳлил қилиш ва талабага қўшимча ёрдам кераклигини таъкидлашга ёрдам беради. Бундан ташқари, ҳар бир технология кейинги вақтда ушбу ёрдам миқдорини камайтириш ёки ошириш зарурлигини аниқлай олади. Ушбу концепция қуйидаги параметрларни ҳисобга олган ҳолда шахсга йўналтирилган таълим йўлини яратишга ёрдам беради: мавзуга қизиқиш, психологик ҳолат, маълум бир вақтнинг ўзида маълум маълумотларни идрок этиш қобилияти ва бошқалар.

Таълимни рақамлаштириш даврида, касбий компетенцияларни эгаллашдан ташқари, кўникмаларни ривожлантириш керак. Доимий равишда ортиб бораётган ахборот ва билим миқдори инсон миясига катта таъсир кўрсатади. Барча маълумотларни ўзлаштиришнинг иложи йўқ, лекин сунъий интеллект ҳар хил турдаги вазифаларни бажаришда ёрдам бериши мумкин, бу эса ўқувчиларнинг танқидий фикрлаш ва ижодкорлигини ривожлантиришга имкон беради. Бугунги кунда end-to-end технологиялар ўқувчиларга янада самаралироқ ўрганишга ва ўқитувчиларга ўқув материали сифатини яхшилашга ёрдам берадиган маълумотларни тўплаш ва филтрлаш учун ажойиб ёрдамчига айланиши мумкин.

Нейрон тармоқлар таълим муассасалари ёки платформалар орасида тезда қизиқиш уйғотмоқда; талабалар фаолиятини таҳлил қилиш орқали сунъий интеллект уларнинг маълум фанлар бўйича ишлашининг заиф томонларини механик равишда аниқлашга қодир, бу эса ўз навбатида ўқитувчиларга қўшимча аралашув, кейин эса ёрдам зарурлигини кўрсатади.

Таълим жараёнига сунъий интеллектни жорий этиш концепцияси тизимни шахсга йўналтириш, ўқувчиларнинг қобилиятларини мослаштириш, шунингдек, ижтимоий компонентни, фойдаланиш қулайлиги ва амалийлигини кузатишга қаратилган [4, 5].

Сунъий интеллект талабаларнинг қизиқишларини таҳлил қилиш ва уларга мос равишда дастурлар ва курсларни таклиф қилиш имкониятига эга. Индивидуал ёндашув талабаларни ўқув жараёнига қизиқтиришга, шунингдек масофавий таълим

ёки мустақил таълим жараёнида топшириқларни бажариш мустақиллигини назорат қилиш имконини беради [8, 10].

Рақамли дунё-бу инсон қайта ишлай олмайдиган ва таҳлил қила олмайдиган улкан маълумотлар оқими, шунинг учун уни янги технология амалга ошириши мумкин. Нейрон тармоқлар бизга ўқитувчиларнинг иш тартиби, тестларни текшириш, курс ишлари ва кенг қўламли уй вазифаларини текширишга ёрдам беради. Матн ёзишда, тестларни эчишда, математик тенгламаларни, ҳатто мураккаб бўлсада, турли хил хатоларни аниқлаш қобилияти таълим соҳаси учун улкан кашфиёт бўлиши билан бирга, ўқитувчи қўлидаги жуда фойдали воситадир.

Замонавий таълимнинг яна бир муаммосини нейрон тармоқлар ёрдамида ҳал қилиш мумкин-бу нафақат касб танлашга тайёргарлик кўришга, балки битирувчиларнинг ўзини ўзи белгилашига ва кейинчалик ишга жойлашишига ёрдам беришга қаратилган касбга йўналтиришдир. Машина томонидан қурилган мантиқий занжирга кўра, турли хил саволларга жавобларни таҳлил қилиш натижасида инсоннинг қобилиятлари ва қизиқишларининг батафсил тасвири олинади.

ХУЛОСА. Шунини таъкидлаш жоизки, “end-to-end” технологиялари, хусусан, сунъий интеллект ва нейрон тармоқларидан фойдаланиш таълим самарадорлигини сезиларли даражада оширишга, талабалар рақамли ва ахборот маданиятини шакллантиришга ҳамда ўқув жараёнини шахсга йўналтиришга олиб келиши мумкин. Бундан ташқари, “end-to-end” технологияларидан фойдаланиш замонавий рақамли жамият талабларига кўпроқ мос келадиган таълим жараёнини кузатиш ва созлаш имкониятини беради.

Эндиликда абитуриентларнинг таълим муассасаларига киришида касб танлаши анча осонлашади, чунки машина қурилмалари жамият, ота-оналар ва тенгдошлар фикрини юкламасдан, фақат ўқувчилар томонидан тақдим этилган кириш маълумотларини таҳлил қилади. Сунъий интеллект ҳар бир талабанинг эҳтиёжлари ва хусусиятларига қараб ўрганиш ёндошувларини оптималлаштиришга ёрдам беради, бу эса таълимда шахсийлаштириш заруратини кўрсатади.

Шунини ҳам тушуниш керакки, сунъий интеллект ягона замонавий технология эмас, балки бошқа энд-то-энд технологиялари (катта маълумотлар, робототехника, сенсорлар, нарсалар интернетини, булутли технологиялар, кенгайтирилган ва виртуал ҳақиқат технологиялари, квант технологиялари) билан чамбарчас боғлиқдир. Ушбу технологияларнинг қўлланилиши ўқув жараёнининг барча иштирокчиларининг муваффақиятли касбий фаолиятининг кафолати ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида Фармони, 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ахборот технологиялари ва коммуникацияларининг жорий этилишини назорат қилиш, уларни ҳимоя қилиш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида қарори, 21.11.2018 йилдаги ПҚ-4024-сон.
3. Weindorf-Sysoeva, M.Э. "Рақамли башорат" - гибрид ўқув муҳитида жамоавий иш конструктори билан ўқув амалиёти / М.Э. Weindorf-Sysoeva, И.П. Тихоноветская, Н.Д. Вюн // Минин университети ахборотномаси. – 2022. – Т. 10. – 2-сон.
4. Лебедева, Т.Н. Оммавий очиқ онлайн курслар орқали ўқитувчининг рақамли маданиятини шакллантириш / Т.Н. Лебедева, О.Р. Счаэфер, С.В. Краинева, Н.А. Белоусова, Э.Н. Эрентраут, Ю.А. Ахкамова // Минин университети ахборотномаси. – 2022. – Т. 10. – 3-сон.
5. Маркова С.М. Ишлаб чиқариш ва ақлли машиналарни саноатлаштириш шароитида университетни модернизация қилиш / С.М.Маркова, С.А.Цплакова, Э.П.Седйкх, О.Н.Филатова, А.В. Хижная // Тармоқлар ва тизимлар бўйича маъруза матнлари. – 2021. – Т. 200. – Б. 940-947
6. Петров Ю.Н. Касбий таълимни рақамлаштиришни ривожлантиришнинг когнитив йўналиши / Ю.Н.Петров, М.В.Фирсов, О.Н.Филатова // Болтиқбўйи давлат балиқ овлаш флоти академиясининг янгиликлари. – 2020. – 2-сон (52). – Б. 7-11
7. Филатова О.Н. Замонавий ахборот жамиятида касбий таълим / О.Н.Филатова А.В.Гушчин Н.А.Шобонов // Замонавий педагогик таълим муаммолари. – 2019. – 64-2-сон. – 189-192-бетлар. – ЭДН МСЭНТЖ.
8. Филатова О.Н. Касб-хунар таълимидаги инновациялар / О.Н.Филатова С.А. Зиновиева, М.В. Гринина // Замонавий педагогик таълим муаммолари. – 2022. – 77-2-сон.

9. Abduraimov, D., & Monasipova, R. (2024). AUTOMATING ECONOMIC ISSUES: THE EXAMPLE OF AUTOMATING WAREHOUSE PRODUCT STORAGE ACCOUNTING AND ITS SOFTWARE. DIGITAL TRANSFORMATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE, 2(5), 12-17.
10. G'anisher Nafasov, Dostonbek Abduraimov, Javohir Ibragimov, Samariddin Rahmonov, NEYROLINGVISTIK DASTURLASHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI , Ta'lim va taraqqiyot ilmiy-uslubiy jurnali: No. 3 (2024): Ta'lim va taraqqiyot ilmiy-uslubiy jurnali
11. Abduraimov, D. E. (2024). UNVEILING THE STAGES AND PERSPECTIVES OF INTEGRATING ARTIFICIAL INTELLIGENCE SYSTEMS INTO THE EDUCATIONAL PROCESS. Экономика и социум, (4-1 (119)), 102-106.
12. Abduraimov, D., & Safoeva, D. (2022). SPECIFIC ROLE AND FEATURES OF INFORMATION COMMUNICATION TECHNOLOGIES IMPLEMENTATION. Science and Innovation, 1(3), 346-349.
13. Абдураимов, Д. Э. Ў., & Абдурахманов, О. Н. (2021). ОБЪЕКТ АЛОМАТ ВАЗНЛАРИНИ ҲИСОБЛАШ ОРҚАЛИ РЕЙТИНГИНИ АНИҚЛАШ МОДЕЛИ. Science and Education, 2(1), 21-25.
14. Ziyadullaev, D., Mukhamedieva, D., Teshaboyev, M., Abdurakhimov, D., Bakhodirov, M., Ziyodullaeva, G., & Abduraimov, D. (2023). Application of the neuro-fuzzy approach to solving problems of soil phases evaluation. In BIO Web of Conferences (Vol. 67, p. 02009). EDP Sciences.
15. АБДУРАИМОВ, Д., ҚИЛИЧЕВ, С., & АХМЕДОВА, Х. (2023). ИНФОРМАТИКА ДАРСЛАРИДА ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВЛАР. Journal of Research and Innovation, 1(3), 13-17.

4-SINF O`QUVCHILARINING O`ZLASHTIRISH SAMARDORLIGINI OSHIRISHDA METODLAR VA YONDASHUVLARNING AHAMIYATI.

Ismoilov Temurbek Islomovich

Namangan davlat pedagogika instituti



"Pedagogika va psixologiya" kafedrası professori

Yo`ldashaliyeva Shodiya Sobirjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Pedagogika nazariyasi va tarixi yo`nalishi magistranti

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada 4-sinf o`quvchilarining o`zlashtirish samaradorligini oshirishda qo`llaniladigan pedagogik metodlar va yondashuvlar tizimining muhimligi tahlil qilingan. Dars jarayonida o`quvchilarning aqliy rivojlanishini hisobga olib, o`qituvchilar tomonidan turli metod va usullarni qo`llanilishi, o`quvchilarning o`zlashtirish darajasini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ko`rsatilgan. Maqolada an`anaviy va zamonaviy interfaol metodlar, differensiyalashgan yondashuv, o`quvchilarga motivatsiya berish, ta`lim texnologiyalarini amalda qo`llash kabi masalalar muhokama qilingan. Ta`limning samarali tashkil etilishi uchun o`quvchilarni shaxsiy xususiyatlariga mos raavishda darslarni rejalashtirish va integratsiyalashgan ta`lim yondashuvlarini joriy etish zarurligi aytib o`tilgan. O`qituvchilar va o`quvchilar o`rtasidagi ijobiy munosabatning ahamiyati, turli texnologiyalarni qo`llash orqali ta`lim jarayonining samaradorligini oshirish imkoniyatlari ko`rib chiqilgan.*

***Kalit so`zlar:** zamonaviy ilg`or metod, steam yondashuvi, differensiyalashgan yondashuv, o`zlashtirish darajasi, ta`lim texnologiyalari, an`anaviy metodlar, interaktiv darsliklar.*

ЗНАЧЕНИЕ МЕТОДОВ И ПОДХОДОВ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ УСВОЕНИЯ УЧАЩИМИСЯ 4 КЛАССА

Исмоилов Темурбек Исламович

Наманганский государственный педагогический институт

Профессор кафедры "педагогика и психология"

Юлдашалиева шодия Собиржон кызы

Наманганский государственный педагогический институт

Магистрант направления теории и истории педагогики

Аннотация: В этой статье анализируется важность системы педагогических методов и подходов, применяемых для повышения эффективности усвоения учащимися 4 класса. Показано, что применение педагогами различных методов и приемов с учетом умственного развития учащихся в процессе урока имеет важное значение для повышения уровня усвоения учащимися. В статье рассматриваются такие вопросы, как традиционные и современные интерактивные методы, дифференцированный подход, мотивация учащихся, практическое применение образовательных технологий. Было отмечено, что для эффективной организации обучения необходимо планировать занятия и внедрять комплексные подходы к обучению в соответствии с личностными характеристиками учащихся. Рассмотрено значение позитивных взаимоотношений педагогов и учащихся, возможности повышения эффективности образовательного процесса за счет применения различных технологий.

Ключевые слова: современный прогрессивный метод, подход Steam, дифференцированный подход, уровень освоения, образовательные технологии, традиционные методы, интерактивные учебники.

THE IMPORTANCE OF METHODS AND APPROACHES IN INCREASING THE EFFICIENCY OF ASSIMILATION OF STUDENTS OF THE 4TH GRADE

Ismailov Temurbek Islamovich

Namangan State Pedagogical Institute

Professor of the Department "pedagogy and psychology"

Yudashaliyeva Shodiya Sobirzhan's daughter

Namangan State Pedagogical Institute

Master in the direction of theory and history of pedagogy

Annotation: *this article analyzes the importance of the system of pedagogical methods and approaches used to improve the efficiency of mastering the 4th grade participants. Taking into account the mental development of students in the course of the lesson, it has been shown that the use of various methods and techniques by teachers is important in increasing the level of student assimilation. The article discusses such issues as traditional and modern interactive methods, a differentiated approach, motivation for students, the practical application of educational technologies. For the effective organization of education, it was mentioned that it is necessary to introduce lesson planning and integrated educational approaches in raavish, which are suitable for the personal characteristics of students. The importance of a positive relationship between teachers and students, the possibilities of improving the effectiveness of the educational process through the use of various technologies, has been considered.*

Keywords: *modern advanced method, steam approach, differentiated approach, level of acquisition, educational technologies, traditional methods, interactive textbooks.*

Kirish. Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim muassasalari oldida turgan asosiy vazifalardan biri zamonaviy talablarga mos ravishda bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan, mustaqil fikrlay oladigan, tashabbuskor, jamiyat hayotida faol ishtirok etadigan shaxslarni tarbiyalashdir. Bu jarayonda, xususan, boshlang'ich ta'lim bosqichida samarali o'qitish metodlari va yondashuvlarini tanlash, ularni muvaffaqiyatli qo'llash orqali o'quvchilarda mustahkam bilimlar hosil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, 4-sinf o'quvchilarida o'zlashtirish samardorligini oshirish uchun pedagoglar, ota-onalar va ta'lim tizimi xodimlari tomonidan turli pedagogik innovatsiyalar, interaktiv metodlar, muammolar asosida ta'lim, texnologiyalardan foydalanish kabi usullardan foydalanish dolzarbdir. 4-sinf o'quvchilarining o'zlashtirish samardorligini oshirishda metodlar va yondashuvlarning ahamiyati haqida so'z boradi. Avvalo, 4-sinf o'quvchilariga xos bo'lgan yosh psixologik xususiyatlar, ulardagi ta'lim jarayonini qabul qilish darajalari, motivatsiya va qiziqishni shakllantirish masalasi

Tasviriy san'at asarlarida, jumladan, manzara janrida yaratilgan asarlarda rassomning borliqdan olgan ta'surotlari, voqelikka g'oyaviy-hissiy munosabati ham aks etadi. Tabiat manzaralari tasvirida rassomning dunyoqarashi, tabiatni idrok etishining ijtimoiy-tarixiy, milliy va uslubiy hususiyatlari o'z ifodasini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Komoldinov, S., & Sattarov, F. (2024). Ijodiy asar yaratish bo'yicha metodik tavsiyalar. *Scientific-theoretical journal of International education research*, 2(1), 42-46.
2. Jomoldin o'g'li, K. S. (2024). Methods of Increasing the Efficiency of Drawing Lessons. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(3), 285-288.
3. Komoldinov, S. (2023, December). QALAMTASVIR MASHG'ULOTLARIDA KOMPOZITSIYANING AHAMIYATI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic: "Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions"* (Vol. 1, No. 01).
4. Komoldinov, S., & Boboxonova, M. (2023). IJODIY MANZARALAR CHIZISH BO'YICHA AMALIY VA NAZARIY TAVSIYALAR. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(3 Part 3), 161-163.
5. O'G'likomoldinov, S. J., & Abdirasilov, S. F. (2023). ON THE INTEGRITY OF ILLUSTRATION IN PAINTING LESSONS AND ITS RELATIONSHIP WITH COMPOSITION ACTIVITY. *Экономика и социум*, (3-2 (106)), 168-171.
6. Komoldinov, S., & Boboxonova, M. (2023). IJODIY MANZARALAR CHIZISH BO'YICHA AMALIY VA NAZARIY TAVSIYALAR. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(3 Part 3), 161-163.



7. Sirojiddin, K., & Dildora, T. (2022). JONAJON OLKAM MAVZUSIDA MANZARA CHIZISH BOYICHA AMALIY TAVSIYALAR. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMYIY JURNALI*, 58-61.
8. Rakhimov, K. (2023). THE PLACE OF GRAPHICS IN THE FINE ARTS. *Solution of social problems in management and economy*, 2(2), 5-8.
9. Rakhimov, K. (2023). THE ROLE OF PORTRAIT ARTISTS IN FINE ARTS. *Models and methods in modern science*, 2(2), 13-19.
10. oglu Nabiyeu, B. A. Talabalarda kompozisiya tuzish va tasvirlash mahoratlarini takomillashtirishda shakllarni masofada ko'rish texnologiyalarini rivojlantirish.
11. Boltaboyev A. BO'LAJAK O'QITUVCHINING KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH SHART-SHAROITLARI //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic: "Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions". – 2023. – T. 1. – №.
12. Badirdinov D.Sh. Tasviriy san'at darslarini boshqa o'quv fanlari bilan bog'lanishi. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi.
2021-yil 1-son
13. Adhamjon o'g'li, O. M. (2024). BOLALARNING TASVIRIY FAOLIYATLARINI RIVOJLANTIRISH, USLUB VA YO'NALISHLARI, SINFDA TASVIRIY FAOLIYATNI TASHKIL ETISH. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(20), 115-121.

MUSIQANING INSON HAYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Po'latjonova Intizora Nazirjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti

Musiqqa ta'limi yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Tel: +998 50 702 75 57, E-mail: intizorimpolatjonova@gmail.com

***Annotatsiya.** Ushbu maqola musiqa san'atining inson hayotidagi o'рни va ahamiyati, uning shaxs dunyoqarashini kengaytirishi, ruhiy va ma'naviy ozuqa olishidagi roli borasidagi fikr-mulohazalardan iborat.*

***Kalit so'zlar:** dunyoqarash, obraz, kompozitor, tafakkur, reabilitatsiya*

Musiqa inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini, musiqiy tovushlar izchilligi yoki majmuyi vositasida aks ettiruvchi san'at turi. Uning mazmuni o'zgaruvchan, ruhiy holatlarni ifodalovchi muayyan musiqiy badiiy obrazlardan iborat. Musiqaning odam ongi va hissiyotiga ta'sir etishning ajoyib kuchi, ruhiy holatlarga hamohangligidir. Musiqa bu go'zallik demakdir. Inson hayotida musiqaning ro'li nihoyatda katta. Insoniyat paydo bo'libdiki, musiqaga ehtiyoji bor. Ibtidoiy jamoa tuzumidan hozirgi davrga qadar musiqa turlari hayot tarziga qarab o'zgarib kelgan. Inson musiqa eshitsa beixtiyor musiqaga mos harakatlar, raqs harakatlarini bajara boshlaydi. Bekorga onalar go'daklarini alla aytib uxlatishmaydi, go'dak alla eshtib uxlab qoladi. Bundan kelib chiqib aytamizki, musiqa inson ruhini allalovchi mo'jiza. Musiqa san'ati paydo bo'lgandan boshlab bugungi kungacha ikki yo'nalishda rivojlangan. Birinchi yo'nalish xalq musiqa ijodi. Ikkinchi yo'nalish esa kompozitorlik ijodi. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrda yashagan odamlar tabiatdagi musiqiy shovqin tovushlarini farqlay bilganlar, kuylashni o'rganganlar, dastlabki cholg'u sozlarini yaratganlar. Hozirgi kungacha bu sozlar takomillashgan ulardagi ijro uslublari ham rivojlanib boyigan. Xalq orasidagi musiqiy qobilyatlarga ega bo'lgan kishilar ajoyib musiqa asarlarni yaratib musiqa san'atini boyitganlar. Har bir xalqning o'z musiqa san'ati bor. Boshqa san'at turlari bilan bir qatorda musiqa ham xalq ma'naviy taraqqiyotining ko'zgusi hisoblanadi. Musiqa san'ati asarlarida xalqning hayoti turi davrlaridagi ijtimoiy turmushi, urf odatlari, axloqi haqidagi qarashlar o'z aksini topgan. Har bir zamonda insoniyat musiqani o'ziga moslashtirib keldi. Shuning uchun musiqani har kim o'zicha har hil tushunadi. Ilk musiqa namunalari ham insonning mehnat faoliyati asosida kelib chiqqan. Undan tashqari har xil marosimlarda ham musiqa yetakchi o'rinda bo'lgan. Misol uchun to'y marosimlari, udum va an'analari turli bayramlar. Bayramlarimiz esa musiqa sadolarisiz o'tmaydi. Kimdur uchun musiqa bu oddiy

tovushlar yig'indisi, kimlardur uchun esa fizik xodisa namunasi, kimdur uchun hayotini ajralmas bir qismi bo'lib xizmat qiladi. Uning hayotimizdagi o'rni beqiyos. Hech bir qalb yo'qki musiqa uning eshiklarini ochib kira olmagan bo'lsa. Qadimda odamlar yirtqich hamda yovvoyi hayvonlarni ovlashda va ularni qo'lga kiritishda ham musiqa sadolaridan foydalanishgan.

Musiqani yana bir xususiyati bor bevosita insoni raqsga tushishga undaydi. Musiqa o'zining betakror tabiati bilan yoshlarning ma'naviy dunyosiga katta ta'sir etish kuchiga ega. San'ati yo'lga kirgan yosh yigit va qizlar musiqaning sirlarini o'rganyaptilar. Zero kuy va ohang ta'sirida kishida hissiyot olamining o'sishi idrok va tafakkurning shakllanishi, ezgulikga intilish, go'zallikni sevish, ona tabiatni asrash, jonajon vatan ravnaqi uchun xizmat qilish istagini ilgari surib kelmoqda. Avlod bola so'zining ko'pligi. Arabcha valad ma'nosini bildiradi[1]. Avlod sulolar ketma-ketligidir. Respublikamizning barcha ilm dargohlarida turli fanlar qatori musiqa to'garaklari musiqa darslari ham olib boriladi. Millat va jamiyat hozirga davrda o'zining porloq istiqboli hamda ertangi kuni uchun muayyan tarzda ijtimoiy qulay muhit va taraqqiyot uchun zamin yaratish, kelgusi avlodlar, o'z farzandlarini taqdiri uchun qayg'urar ekan ularni amalga oshirish, rivojlantirishga va taraqqiy ettirish uchun muayyan sohaga katta e'tibor qaratadi. Yuksak marra va maqsad uchun harakat qilishda samarali va to'g'ri yo'lni tanlay bilish va undan yuqori darajada foydalanish natijaning mukammal hamda to'la-to'kis tarzda amalga oshishini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida”gi PQ 112-sonli qarori davlat ta'lim standartlarining joriy etilganligini musiqa madaniyati o'qtuvchilarining zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.[2] Davlat ta'lim standartida ko'rsatib o'tilgach musiqa madaniyati mashg'ulotlarida o'zbek milliy musiqa san'atiga alohida ahamyat berilgan mahalliy uslubiy yo'nalishlardagi qo'shiqlarni ijro etish xalqona yo'lda yaratilgan allalar, laparlar va yo'llarni kuylashga hamda tinglashga keng o'rin berilgan. Bunda avvalo ta'lim va tarbiyani rivojlantirish sog'lom turmush tarzi va ilm fan inovatsiyalarni taraqqiy ettirish musiqani rivojlantirish asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning “Musiqani san'ati faoliyatini yuksaltirish

chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori bizlar uchun ham faxr ham quvonchdir. Bundan quvongan yosh avlod va ularga murabbiylik qilayotgan pedagoglarning imkoniyatlari yanada kengayadi bajarayotgan ishidan unum topdi. Bolalarni tabiatni sevishtirishga kattalarni hurmat qilishga mehnatsevarlikga undovchi kuy qo'shiqlari musiqa madaniyati darsida o'rganilgan har bir qo'shiqqa asos bo'la oladi yoki boshqacha aytganda ta'lim muassalari sinfdan tashqari musiqa to'garaklari faoliyat zaminida va unda o'rgatilgan qo'shiqlarning mazmunini yuqoridagi sifatlar bilan bog'lab o'quvchi yoshlarni tarbiyalash mumkin. Mamlakatimizda 2020-yil 25-dekabrda yurtimiz yoshlari hayotida o'chmas iz qoldirgan hamda katta ijtimoiy o'zgarishlarga g'ayrat va shijoatga qo'shgan kun ya'ni Respublika Yoshlar forumi bo'lib o'tgan kun bo'ldi.

Tarixiy taraqqiyot shuni isbotladiki jamiyat va davlat barqarorligi hamda adolatli boshqaruv asosini tenglik va oshkorlik halollik asosida amalga oshiriladigan, jamiyat a'zolarining o'zlari ovozlari asosida munosib deb bilgan insonlarini saylash tizimi orqaligina erishish mumkin. Shu bilan bir qatorda mamlakatimiz rahbari boshchiligida o'tkizalayotgan ko'plab videoselektrlar va anjumanlarda ham yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish ular bandligini ta'minlash va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish ularda daxldorlik hissini shakllantirish masalalari kun tartibida asosiy vazifalar sifatida belgilangan. Musiqa asarlarini ko'rgazma vositalari orqali idrok etish katta imkoniyatlarga egadir. Eslab qolishda ko'rgazmalilikning o'zi emas, balki ularning nutq va amaliy faoliyat bilan birlashtirilishi eng yuqori samaradorlikka ega bo'ladi. Bu o'qitish metodlarining optimal birikmasini ishlash zarurligidan dalolat beradi. Ana shu aytilganlarga ko'ra bilishning o'qitish jarayonidagi yakka tarzda yo'lini hissiy hamda nazariy bilishning haqiqiy birligi sifatida rejalashtirish va tashkil etish kerak. Musiqa mashg'ulotida o'qitishning ko'rgazmali metodlarini qo'llash optimallik mezonlariga muvofiq kelishligi uchun musiqa o'qituvchisi ularni tanlayotganda bir qator talablarga rioya qilishi kerak.

Umumta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatayotgan har bir pedagoglarning asosiy vazifalari o'quvchilarga mashg'ulot jarayonida bilim berishdan iborat bo'lsa, shu bilan birga musiqiy va maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy sinfdan tashqari

tadbirlarni tashkil etishdan ham iboratdir. Ta’lim maskanlarida o’tkaziladigan tadbirlar va ularning tashkilotchilari bo’lmish pedagoglar (musiqa o’qituvchisi) ning asosiy maqsad vazifasi milliy qadriyatlarimizni te’ran anglagan holda tashkil etishdan iboratdir.

Musiqa to’garaklarida xalq qo’shiqchiligining kompozitsiyalari haqida fikr yuritar ekanmiz, xalqimizning asriy an’analari, odob-axloqi, ta’lim-tarbiya tizimi borasidagi yutuqlari, o’ziga xos turmush tarzi va qadriyatlarini ifodalagan ona tilimizning mazmun mohiyati hamda qadr-qimmatini chuqur anglaydi. Birgina o’zbek folklorida o’rganiladigan har bir qo’shiqning yoki hatti harakatning ma’nosida xalqimizning azaliy tarixi yotadi.

Musiqa to’garaklarining maqsadi o’quvchilarning bo’sh vaqtlarini ko’ngilli tashkil etish bilan birga ularning qobiliyatini kuchaytirish, estetik didini shakllantirish hamda ma’naviy dunyoqarashlarini kengaytirishdan iboratdir.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, musiqa ta’limi insonning dunyoqarashini kengaytirish, uning estetik tafakkurini shakllantirish, borliqdan ma’naviy ozuqa olishiga ko’maklashishda samarali ahamiyatga ega desak hech ham xato bo’lmaydi. Yuqorida ta’kidlab o’tilganidek, bugungi kunda insonlar, ayniqsa yosh avlod vakillari, o’quvchilar va talaba-yoshlarga musiqaning ahamiyati, uning inson kayfiyati va ijtimoiy reabilitatsiyasidagi o’rnini mustahkamlash, ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlarning natijadorligini ta’minlash va ommalashtirish, tizimli va manzilli ishlarni olib borish maqsadga muvofiq bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://uz.opentran.net/ozbek-cebuano-tarjima/valad.html>
2. <https://lex.uz/uz/docs/-5849580>

KO’P O’ZGARUVCHILI DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI, FIZIKA MASALALARINI YECHISHDAGI O’RNI

Maxsudova Shohsanam Muzaffarxo’jayevna

Namangan davlat pedagogika instituti “Aniq fanlar” kafedrasi o’qituvchisi

E-mail. shohsanammaxsudova@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqola oliy ta'limda matematik – fizika usullari fanini chuqurroq o'zlashtirishda, uni tub mazmunini, misollarini ishlashda matematik formulalardan foydalanish ko'rsatilgan.*

***Kalit so'zlar:** differensial tenglama, matritsa, transponerlash, formula, Laplas tenglamasi, Puasson tenglamasi.*

МНОГОПАРАМЕТНЫЕ ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫЕ УРАВНЕНИЯ, ИХ РОЛЬ В РЕШЕНИИ ЗАДАЧ ФИЗИКИ

Максудова Шохсанам Музаффарходжаевна

*Наманганский государственный педагогический институт, преподаватель
кафедры «Точные науки»*

***Аннотация:** В данной статье показано использование математических формул при изучении математико-физических методов в высшей школе, ее основное содержание и примеры.*

***Ключевые слова:** дифференциальное уравнение, матрица, формула, уравнение Лапласа, уравнение Пуассона.*

MULTIVARIABLE DIFFERENTIAL EQUATIONS, THEIR ROLE IN SOLVING PHYSICS PROBLEMS

Makhsudova Shohsanam Muzaffarkhojaevna

Namangan State Pedagogical Institute, teacher of the "Exact Sciences" department

***Annotation:** This article shows the use of mathematical formulas in the study of mathematical-physical methods in higher education, its basic content and examples.*

***Key words:** differential equation, matrix, formula, Laplace's equation, Poisson's equation.*

Kirish. Fizikaviy jarayonlarning matematik modelini tadqiq etish xususiy hosilali differensial tenglamalar kursining asosiy qismini tashkil qiladi. Talabalar bu fanni mukammal o'zlashtirishlari uchun ularga ma'lum bilimlar majmuasi zarur bo'ladi. Masalan, matematik fizika tenglamalari kursi oddiy differensial tenglamalar fanining bevosita davomi hisoblanadi. Mexanika va fizikaning ko'plab masalalari xususiy hosilali differensial tenglamalarni tadqiq etishga keladi. [1]

Shuning uchun xususiy hosilali differensial tenglamalar fani matematik fizikaning zamonaviy holatini o'rganish va tushunish uchun zarur bo'lgan boshlang'ich bilimlarni beradi. Matematik fizika tenglamalari fani klassik mexanika, fizika, gidrodinamika, akustika va boshqa sohalarda sodir bo'ladigan jarayonlarning matematik modellarini yaratish va bu masalalarni yechish usullarini qurish bilan uzviy bog'liq. Bu modellashtirish muayyan jarayonlarni ifodalovchi fizikaviy kattaliklar asosida tenglamalarni keltirib chiqarish bilan ifodalanadi. Kvant mexanikasi, atom va yadro fizikasi, qattiq jismlar nazariyasi, elementar zarralar fizikasi kabi sohalar rivojlanishi matematik tadqiqotlar asosini tashkil etadi.[2]

Asosiy qism. Fizikaviy jarayonlarning matematik modelini qurish va uni tadqiq etish matematik fizikaning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Mexanika va fizikaning juda ko'p masalalari ikkinchi tartibli xususiy hosilali yoki ko'p o'zgaruvchili xususiy hosilali differensial tenglamalar orqali ifodalanadi. Bunga misolni ishlanishini ko'rib chiqamiz. Birinchi va ikkinchi tartibli hosilalar quyidagicha almashtiriladi.[3]

$$U_x = U_{\xi} \xi_x + U_{\eta} \eta_x \quad (1)$$

$$U_y = U_{\xi} \xi_y + U_{\eta} \eta_y \quad (2)$$

$$U_{xx} = \xi_x^2 * U_{\xi\xi} + 2\xi_x \eta_x U_{\xi\eta} + \eta_x^2 U_{\eta\eta} + \xi_{xx} U_{\xi} + \eta_{xx} U_{\eta} \quad (3)$$

$$U_{xy} = \xi_x \xi_y U_{\xi\xi} + (\xi_x \eta_y + \xi_y \eta_x) U_{\xi\eta} + \eta_x \eta_y U_{\eta\eta} + \xi_{xy} U_{\xi} + \eta_{xy} U_{\eta} \quad (4)$$

$$U_{yy} = \xi_y^2 U_{\xi\xi} + 2\xi_y \eta_y U_{\xi\eta} + \eta_y^2 U_{\eta\eta} + \xi_{yy} U_{\xi} + \eta_{yy} U_{\eta} \quad (5)$$

$$U_{xx} + 2U_{xy} + 2U_{yy} + 4U_{yz} + 5U_{zz} = 0$$

Biz yuqori ko`rinishidagi yuqori tartibli ko`p o`zgaruvchili differensial tenglamani yechilishini ko`ramiz va A – orqali belgilash kiritamiz, soddaroq ko`rinishga keltiramiz.

$$K(\lambda_1\lambda_2\lambda_3)=\lambda_1^2+2\lambda_1\lambda_2+2\lambda_2^2+4\lambda_2\lambda_3+5\lambda_3^2=0$$

$$(\lambda_1+\lambda_2)^2+(\lambda_2+2\lambda_3)^2+\lambda_3^2=0$$

$$\left. \begin{aligned} \mu_1 &= \alpha_1 + \alpha_2 & \lambda_1 &= \mu_1 + \mu_2 + 2\mu_3 \\ \mu_2 &= \alpha_2 + 2\alpha_3 & \lambda_2 &= \mu_2 - 2\mu_3 \\ \mu_3 &= \alpha_3 & \lambda_3 &= \mu_3 \end{aligned} \right\}$$

λ – ni ham μ orqali ifodalab, so`ng matritsa ko`rinishida yozamiz. Uni transponerlab ξ, η, φ bo`yicha hosila olamiz.

$$\left(\begin{array}{ccc} 1 & -1 & 2 \\ 0 & 1 & -2 \\ 0 & 0 & 1 \end{array} \right) = A \quad \Rightarrow \quad A^T = \left(\begin{array}{ccc} 1 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & -2 \\ 2 & -2 & 1 \end{array} \right)$$

$$\left. \begin{aligned} \xi &= x & \varphi &= 2x + 2y + z & \varphi_x &= 2 & \varphi_y &= -2 & \eta_y &= 1 \\ \eta &= -x + y & \xi_x &= 1 & \eta_x &= -1 & \varphi_z &= 1 \end{aligned} \right\}$$

(3) – formuladan foydalanib qiymatlarini topamiz.

$$U_{xx} = U_{\xi\xi} + U_{\eta\eta} + 4*U_{\varphi\varphi} - 2U_{\xi\eta} + 4* U_{\xi\varphi} - U_{\eta\varphi}$$

U_{xx} – kabi (U_{yy}, U_{yz}, U_{zz} – qiymatlarni ham formulaga qo`yamiz).

$$U_{xy} = U_{\xi\xi} * 0 - U_{\eta\eta}(-4) + U_{\xi\eta} (1+0) + U_{\xi\varphi}(-2) + U_{\eta\varphi}(2+2)$$

$$U_{yy} = U_{\xi\xi} * 0 + U_{\eta\eta} * 4 + 2U_{\xi\eta} * 0 + 2 U_{\xi\varphi} * 0 + 2U_{\eta\varphi}(-2) = 4U_{\varphi\varphi} - 4U_{\eta\varphi}$$

$$U_{yz} = U_{\xi\xi} * 0 + U_{\eta\eta} * 0 + U_{\varphi\varphi} * (-2) + U_{\xi\varphi} * 0 + U_{\xi\eta} + U_{\eta\varphi} = -2U_{\varphi\varphi} + U_{\eta\varphi}$$

$$U_{zz} = U_{\xi\xi} * 0 + U_{\eta\eta} * 0 + U_{\varphi\varphi} + 2U_{\xi\eta} * 0 + 2U_{\xi\varphi} * 0 + 2U_{\eta\varphi} * 0 = U_{\varphi\varphi}$$

$$U_{\xi\xi} + U_{\eta\eta}(1-2+2) + U_{\varphi\varphi}(4-8+8-8+5) + U_{\xi\eta}(-2+2) + U_{\xi\eta}(4-4) + U_{\eta\varphi}(-4+8-8+4) = 0$$

$$U_{\xi\xi} + U_{\eta\eta} + U_{\varphi\varphi} = 0$$

Adabiyotlar tahlili. Matematik fizika tenglamalari faniga bag`ishlangan darsliklar, o`quv qo`llanmalar, maqolalar ingliz, rus va boshqa tillarda ko`plab nashr qilingan. Matematika fizika usullari fanini o`rganishda ikkinchi tartibli, ko`p o`zgaruvchili, xususiyl hosilali differensial tenglamalar asosiy ro`l o`ynaydi. Bu adabiyotlarning nazariy qismi bilan misol masalalarga oid bo`limlari orasida biroz tafovut borligi seziladi. Hozirgi davr talabiga javob beradigan yuqori malakali



mutaxassislar tayyorlash, ularning nazariy, amaliy masalalarni chuqur o'zlashtirishiga ko'maklashuvchi o'zbek tilida yozilgan darsliklar, o'quv qo'llanmalar, maqola va tezislar yaratish muhim ahamiyatga ega. Xususiy hosilali differensial tenglamalarni yechishda Laplas, Puasson tenglamalaridan foydalaniladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda Xususiy hosilali differensial tenglamalar xuddi oddiy differensial tenglamalar kabi aksariyat hollarda berilgan tenglamani qanoatlantiruvchi cheksiz ko'p xususiy yechimga ega. Bularning yig'indisi qaralayotgan tenglamaning umumiy yechimini o'rtasida keskin farq borligini ko'rsatadi. Ko'p o'zgaruvchili differensial tenglamani barcha yechimlarini topish uchun shu usuldan foydalanish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muzaffarxo'jaevna, M. S. (2023). DIFFERENTIAL TENGLAMALAR FANINI O'QITISHDA PEDAGOGNING KASBIY KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOSINING NAZARIY TAHLILI. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(12), 74-78.
2. Muzaffarkhujayevna, M. S. (2021, December). ISSUES OF TEACHING MATHEMATICS IN SECONDARY SCHOOLS. In Archive of Conferences (pp. 69-70).
3. Maxsudova, S. (2020). ON A BOUNDARY PROBLEM FOR AN EQUATION OF SHIFTED TYPE WITH DIFFERENT ORDERS OF DEGENERACY. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(1), 36-39.
4. Maxsudova, S., & Hamitov, A. Scientific Bulletin of Namangan State University.

PISA XALQARO DASTURI TALABLARI ASOSIDA TA'LIM SIFATINI BAHOLASHNI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS PEDADOGIK XUSUSIYATLARI

Umida Mannobovna Jalolova

M.B.TMB-AU-22 Ta'lim muassasalarining boshqaruvi mutaxassisligi

2- kurs talabasi

Ilmiy rahbar, Kimyo fanlari bōyicha fan doktori

Murodxon Rashidxonovich Qodirxonov,

Phd falsafa fanlari doktori, dotsent

Turgunboyeva Azizaxon Gulomovna

Namangan davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqola PISA (Xalqaro Talim Baholash Dasturi) talablariga asoslanib, ta'lim sifatini baholash jarayonida o'ziga xos pedagogik xususiyatlarni o'rganishga bag'ishlangan. PISA dasturi o'zida xalqaro ta'lim tizimlarining samaradorligini o'lchovchi ko'rsatkichlarni, shu jumladan, o'quvchilarning matematika, tabiat fanlari va o'qish bo'yicha ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Ushbu tadqiqotda pedagogik metodlar, baholash usullari va o'qituvchilarning roli, shuningdek, o'quvchilarning ijtimoiy va emosional holati ta'lim sifatini oshirishda qanday ta'sir ko'rsatishi ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari ta'lim tizimini takomillashtirish va PISA talablariga muvofiq sifatni oshirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqish uchun foydali bo'lishi kutilmoqda.*

Kalit so'zlar. *PISA, ta'lim sifati, pedagogik xususiyatlar, o'quvchilar ko'nikmalari, baholash usullari, ijtimoiy va emosional holat, ta'lim tizimini takomillashtirish.*

Аннотация. *Данная статья посвящена изучению конкретных педагогических особенностей в процессе оценки качества образования на основе требований PISA (международная программа оценки образования). Программа PISA включает в себя показатели, которые измеряют эффективность международных образовательных систем, включая навыки учащихся в математике, естественных науках и чтении. В настоящем исследовании рассматриваются педагогические методы, методы оценки и роль учителей, а также то, как социальное и эмоциональное состояние учащихся влияет на повышение качества образования. Ожидается, что результаты исследования будут полезны для разработки стратегий,*

направленных на улучшение системы образования и повышение качества в соответствии с требованиями PISA.

***Ключевые слова.** Пиза, качество образования, педагогические особенности, навыки учащихся, методы оценки, социальное и эмоциональное состояние, совершенствование системы образования.*

***Annotation.** This article is devoted to the study of specific pedagogical characteristics in the process of assessing the quality of Education, based on the requirements of PISA (International Training Assessment Program). The PISA program includes indicators that measure the effectiveness of international education systems, including students' math, natural science, and reading skills. This study looks at pedagogical methods, methods of assessment and the role of teachers, as well as how the social and emotional state of students affects the improvement of the quality of Education. The results of the study are expected to be useful for improving the educational system and developing strategies aimed at improving quality in accordance with the requirements of PISA.*

***Keywords.** PISA, quality of Education, pedagogical characteristics, skills of students, methods of assessment, social and emotional state, improvement of the educational system.*

Kirish. Dunyo bo'ylab ta'lim sifatini baholashni takomillashtirish dolzarb muammo hisoblanadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Cooperation and Development) o'quvchilarning bilimi va bilganlari bilan nima qila olishlarini o'rganish, ta'lim natijalarining sifati va tengligini taqqoslash, boshqa mamlakatlarda qo'llaniladigan siyosat va amaliyotlarni o'rganish orqali ta'lim sohasida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradigan keng qamrovli xalqaro baholash PISA (The Programme for International Student Assessment) tadqiqotlarini olib bormoqda. O'zbekistonda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida zamon talablariga javob beradigan milliy baholash tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda [1].

So'nggi yillarda yurtimizda yuz berayotgan keskin yangilanish va tub o'zgarishlar insoniyat hayotidagi barcha sohalarni globallashtirish va integratsiyalashuv jarayonlari nuqtai nazaridan yangicha qarashlar, tushunchalar

va munosabatlar bilan qayta ko'zdan kechirishni taqazo etmoqda. Hozirgi kunda butun dunyo bo'ylab har bir sohada globallashtirish va integratsiya jarayonlari o'z aksini ko'rsatmoqda. Shu qatorda ta'lim ham davlat siyosatining ustuvor sohasiga aylandi va ushbu sohada ta'limni yangicha innovatsion g'oyalar asosida rivojlantirish bo'yicha islohotlar amalga oshirila boshlandi. Jamiyat va hayotda sodir bo'layotgan yangilanishlar ta'lim tizimiga ham yangicha innovatsion yondashuvni, ta'lim, fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiya jarayonlarini yanada tezlashtirishga zamin yaratadi, natijada yangicha innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish dolzarb masalalar qatoridan joy oldi. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda xorij tajribalarini o'rganish, tizimga xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tajribalarini o'rganish, mavjud tizim bilan qiyosiy, xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qilish, tizimda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro loyihalarni joriy qilish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim sanaladi [2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining qarori asosida PISA dasturida doimiy ishtirok etish, shuningdek, umumta'lim maktablarida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. Shuningdek, O'zbekistonda xalqaro baholash dasturlari talablari asosidagi tadqiqotlarni milliy ta'lim tizimiga singdirish bo'yicha qabul qilingan qarorda ham mazkur vazifalar keltirilgan. Shundan kelib chiqqan holda, o'quvchilarning savodxonligi, mantiqiy, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini baholashni xalqaro tadqiqot dasturi talablari asosida takomillashtirish dolzarb muammo hisoblanadi. PISA dasturining tashabbuskori va rahbari A.Shlyayxer "agarda ta'lim real hayotiy talablarga javob bermas ekan, yosh avlod o'zining vaqti va kuchini unga sarflash ehtimoli juda kam" deya ta'kidlagan. Olimlar Hanushek va Woessmann TIMSS va PISA xalqaro dasturlari doirasida matematik va tabiiy-ilmiy savodxonlikni baholash hozirda ko'plab mamlakatlarni qamrab olganligini hamda rivojlanish uchun zaruriy ko'nikmalar haqida yaxshi ko'rsatkichlar bilan ta'minlab berishini ta'kidlab o'tgan.

PISA (Program for International Student Assessment) xalqaro baholash dasturi, o'quvchilarning ta'lim sifatini baholashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu dastur 15 yoshli o'quvchilarning matematik, tabiatshunoslik va o'qish ko'nikmalarini o'lchaydi. PISA dasturining ta'lim sifatini baholashni tashkil etishdagi o'ziga xos pedagogik xususiyatlari o'quv jarayonini sifatli ravishda tashkil etishga xizmat qiladi.

PISA baholashlari nazariy bilimlarni emas, balki o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini ham baholaydi. Shuning uchun, pedagogik jarayonlar real hayotdagi muammolarni hal qilishga qaratilgan bo'lishi lozim [3].

Amaliy vazifalar: O'qituvchilar o'quvchilarga amaliy vazifalar berish orqali ularning ko'nikmalarini rivojlantirishi kerak.

Kontekstual o'qitish: O'quvchilarni real hayotdagi vaziyatlarga tayyorlash uchun kontekstual ta'lim metodlari qo'llanilishi zarur.

PISA dasturining talablari o'quvchilarning bir-biri bilan muloqot qilish va hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Guruhli ishlash: O'quvchilar guruhlar bo'lib ishlash orqali muammolarni hal qilishga va fikr almashishga o'rgatish kerak.

Interaktiv usullar: O'qituvchilar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash uchun interaktiv usullarni qo'llashlari zarur.

PISA dasturining asosiy maqsadlaridan biri o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshirishdir.

Fikr almashish: O'quvchilarga o'z fikrlarini ifoda etish va baholash imkoniyatini berish, ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Muammolarni yechish: Ta'lim jarayonida o'quvchilarga murakkab vazifalarni berish, ularni muammolarni hal qilishga rag'batlantiradi.

O'quvchilarning o'z-o'zini baholashi va o'z bilimlarini reflektiv ravishda tahlil qilishi muhim ahamiyatga ega [4].

Reflektiv o'qitish: O'quvchilarni o'z bilim va ko'nikmalarini tahlil qilishga va o'z-o'zini baholashga undovchi faoliyatlar tashkil etish zarur.

Raqobat va hamkorlik: O'quvchilar o'zaro raqobatlashish va hamkorlik qilish orqali o'z bilimlarini oshirishga intilishlari kerak.

PISA tadqiqoti Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT), Organization for Economic Cooperation and Development(OECD) tomonidan amalga oshiriladi. Tadqiqot ilk bora 2000-yili oʻtkazilgan va 3 yilda bir marotaba oʻtkaziladi. PISA tadqiqotlari har uch yilda oʻtkazilishiga sabab shuki PISAning asosiy vazifasi aʼzo mamlakatlarni taʼlim siyosatiga oid maʼlumotlar bilan taʼminlash, qarorlar qabul qilishda ularni qoʻllab-quvvatlashdan iborat. Tadqiqotning har uch yilda oʻtkazilishi esa mamlakatlarga siyosiy qarorlar va tegishli dasturlarning taʼsirini hisobga olish uchun maʼlumot va tahlillarni ichiga olgan holda oʻz vaqtida axborot berish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, mamlakatlar bu davr davomida oʻz taʼlim tizimida kelajakda erishish koʻzda tutilgan maqsadlarni aniqlab olishiga imkon beradi. PISA tadqiqotlarida asosan 15 yoshli oʻquvchilar qatnashishining sababi Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti(IHTT)ga aʼzo aksariyat davlatlarda 15 yosh majburiy taʼlim bosqichining yakuniy davri hisoblanadi. Savodxonlikni baholashda uyidagi kompetensiyalarni oʻquvchilarning tabiiy fanlardan savodxonligini aniqlashda qoʻllaniladigan kompetensiyalar misolida koʻrib chiqamiz mumkin:

- Hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntira olish kompetensiyasi.
- Ilmiy-tadqiqotlarni loyihalash va baholash kompetensiyasi.
- Maʼlumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish kompetensiyasi.

Yuqoridagi talablarning taʼlim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi taʼlim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali taʼlim sifatini oshirishga qaratilgan ilgʻor tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Davlatimizga taʼlim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi taʼlim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan oʻrni toʻgʻrisida xulosalar chiqarish imkonini beradi. Oʻquvchilarni xalqaro PISA, PIRLS baholashning asl mohiyati oʻquvchilarda tafakkur uygʻoqligi, ularni ixtirochi, ijodkorlikka oʻrgatishning asosiy belgisi hisoblanadi. Oʻzbekistonda taʼlim tizimiga xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda oʻquvchilarning bilim darajasini baholash va monitoring qilishning "Milliy dasturi"ni yaratish hozirgi kun talabiga mos keladi. Yana shuni aytish joizki, ushbu dastur zamon bilan hamnafas qadam

tashlaydi hamda oʻzining baholash mezonlarini zamonaviy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirib boradi [2].

Xulosa. PISA xalqaro baholash dasturi talablari asosida ta'lim sifatini baholashni tashkil etish pedagogik jarayonni yanada samarali va sifatli qilishga imkon beradi. Amaliyotga e'tibor berish, interaktiv va kooperativ ta'lim, tanqidiy fikrlash va o'z-o'zini baholash metodlari orqali o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. Ushbu yondashuvlar ta'lim tizimini takomillashtirishda va o'quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatlarini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I. Sayfullayeva, S. X. Mirzaqandova, N. T. Namozova **MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING MANTIQUIY FIKLASH QOBILYATINI OSHIRISH VA UNING AHAMIYATI** // Academic research in educational sciences. 2021. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/maktab-yoshidagi-bolalarning-mantiqiy-fiklash-qobilyatini-oshirish-va-uning-ahamiyati> (дата обращения: 30.10.2024).
2. Intizor Kamilovna Abdirimova, Zulfiya Bekmurod Qizi Boymurodova **XALQARO BAHOLASH TIZIMINING ASOSIY XUSUSIYATLARI VA TA'LIM SOHASIDAGI AHAMIYATI** // Academic research in educational sciences. 2021. №CSPI conference 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/xalqaro-baholash-tizimining-asosiy-xususiyatlari-va-ta-lim-sohasidagi-ahamiyati> (дата обращения: 30.10.2024).
3. Schleicher A. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti. Ta'lim va ko'nikmalar departamenti direktori, PISA dasturi asoschisi. <https://www.oecd-ilibrary.org/sites/2c0d9903-en/index.html?itemId=/content/component/2c0d9903-en>.
4. Ismailov A.A. O'quvchilarning yutuqlarini xalqaro tadqiqot dasturlari asosida baholash // "Ta'limdagi xalqaro tadqiqotlarning Yangi O'zbekiston taraqqiyotidagi o'rni" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya maqolalar to'plami – Toshkent: Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi, 2022. – 21-26 b.
5. PISA 2009 // <https://www.oecd.org/pisa/pisaproducts/46619755.pdf>. – p. 9.
6. Precht R. D. "Anna, die Schule und der liebe Gott" // Goldmann Verlag,

2014.

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI RIVOJLANTIRISHNING
INNOVATSION METODIKALARI: (STEAM TEXNOLOGIYASI
VOSITASIDA)**

Boymirzayeva Zuxra Shavkatjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti Ta'lim va tarbiya nazaryasi va metodikasi
[Maktabgacha ta'lim] mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Annotatsiya. *STEAM ta'lim texnologiyasini maktab ta'limi sohasiga integratsiyalashuvi nafaqat maktab ta'limi tizimida faol ishtirok etayotgan mutaxassislar, balki STEAMni talabalarga tanlov mavzusi sifatida taklif etuvchi oliy ta'lim muassasalari tomonidan ham amalga oshirildi. Ushbu oliy ta'lim muassasalarida o'qitish uchun STEAM ta'lim texnologiyasining joriy etilishi ta'lim haqidagi tasavvurlarni qayta shakllantirmoqda.*

Kalit so'zlar: *STEAM, ijodkorlik, trening, kognitiv, o'yin usuli, o'qitish texnologiyasi, faoliyat, rivojlantiruvchi muhit, STEAM pedagoglari, ijodiy fikrlash, estetik zavq, intellektual qobiliyat.*

Аннотация. *Интеграцию образовательных технологий STEAM в сферу школьного образования осуществили не только специалисты, активно участвующие в системе школьного образования, но и высшие учебные заведения, предлагающие STEAM в качестве факультативного предмета для учащихся. Внедрение образовательной технологии STEAM для преподавания в этих вузах меняет восприятие образования.*

Ключевые слова: *STEAM, творчество, обучение, познавательный, игровой метод, технология обучения, деятельность, развивающая среда, STEAM-педагоги, творческое мышление, эстетическое удовольствие, интеллектуальные способности.*

Annotation. *The integration of STEAM educational technology into the field of school education was carried out not only by experts actively participating in the school education system, but also by higher education institutions that offer STEAM*

as an elective subject to students. The introduction of STEAM educational technology for teaching in these institutions of higher education is reshaping the perception of education.

***Key words:** STEAM, creativity, training, cognitive, game method, teaching technology, activity, developmental environment, STEAM pedagogues, creative thinking, aesthetic pleasure, intellectual ability.*

KIRISH

Maktab ta'limidagi o'qituvchilar, o'qituvchilar, murabbiylar va ularning vasiylari (qonuniy vakillari) ta'lim ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda STEAM texnologiyasidan foydalanishda foydali bo'lmoqdalar. Jahon ta'lim tajribasida STEAM texnologiyasidan foydalanish jarayoni va holatini tahlil qilish davom etmoqda.

Bugungi ta'lim talablari bolalarni kelajakdagi jamiyat hayotiga tayyorlash zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Tez moslasha oladigan va rivojlanayotgan va yangilanayotgan ma'lumotlar bilan samarali ishlay oladigan yosh kadrlarni shakllantirish zarur. Shunday qilib, tez o'zgaruvchan va paydo bo'ladigan ma'lumotlar bilan faol shug'ullana oladigan, ayniqsa, bugungi maktab tizimidagi yosh bolalar o'rtasida faol ishtirok eta oladigan mutaxassislar guruhini shakllantirish kerak. Bugungi kunda ta'lim jarayonida STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish samarali usullardan biri hisoblanadi. Axborotni olish, qayta ishlash va amaliyotda foydalanish STEAM ta'lim dasturining asosini tashkil qiladi. STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) ta'lim tizimi Qo'shma Shtatlarda paydo bo'ldi, ba'zi maktablar o'z bitiruvchilarining kelajakdagi faoliyatiga tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik ko'nikmalari va matematika fanlarini integratsiya qilishga qaror qilishdi.[1]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Keyinchalik san'at qo'shildi, natijada STEAM paydo bo'ldi. Pedagoglarning ta'kidlashicha, bu fanlarni o'zlashtirish bolalarning kelajakda yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishishiga xizmat qiladi. STEAM ta'lim texnologiyasi yondashuvi tushunish va ijodiy izlanishga e'tibor qaratib, loyihani ishlab chiqish usullari orqali o'rganishga urg'u beradi. Bunday izlanishlar amaliy faoliyat

davomida bilim olishni, so'ngra amaliyotda qayta foydalanishni, masalan, o'yinlarda tuzilmalarni qurish, texnik ijodiy elementlardan foydalanish va bilim olish uchun tadqiqot bilan bog'liq tadbirlarni o'tkazishni o'z ichiga oladi. Bu STEAM yana nimani anglatadi degan savol tug'iladi. STEAM ta'limi 21-asr uchun matematika va tabiiy fanlar bo'yicha keng qamrovli va guruhlarga asoslangan tadqiqotlar bilan cheklanmagan muhim tushunchalarni ishlab chiqishga yordam beradi. Bugungi tez sur'atda va hamkorlikda ish muhitida STEAM bolalarni maktab yoki ish joyidagi dasturlarda muvaffaqiyatga tayyorlashga yordam beradi. STEAM fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani fanlararo ta'lim va amaliy hamkorlikda o'z ichiga olgan an'anaviy ta'lim usullaridan farq qiladi.[2]

STEAM ta'lim tamoyillariga asoslangan faoliyatni ishlab chiqish va amalga oshirish juda muhim hisoblanadi. Bolani kitoblar orqali STEAM dunyosi bilan tanishtirish STEAM ta'lim tizimidagi samarali mexanizmdir. Kitoblar bolani STEAM tizimiga jalb qilishga kuchli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Kitob bola uchun faoliyat va jarayon o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in bo'lib xizmat qiladi. Misol uchun, kitobda baliq haqida o'qish va keyin maktabda akvariumda baliqlarni kuzatish bilan bog'lanishi mumkin. Kitob bolaning yoshligidanoq fanga qiziqishini uyg'otishi mumkin va kitoblar orqali bola fanga oid so'z boyligi bilan tanishadi. STEAM asosidagi kitoblarni ensiklopedik kitoblar bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Yosh bolalar uchun tayyorlangan kitoblar STEAM ta'lim tizimida qanday tuzilishi mumkin:

S - Fan: Yosh bolalarni fan sohasi bilan tanishtirish yovvoyi tabiat, dengiz hayoti, o'simliklar va tabiat haqidagi kitoblar orqali amalga oshirilishi mumkin.

T - Texnologiya: Kundalik hayotda, bolalar atrofida yoki uyda kuzatilgan qiziqarli texnologik jihatlarni aks ettiruvchi kitoblar ularni texnologiya olami bilan tanishtirishi mumkin. Ixtirolar haqidagi hikoyalar bilan bir qatorda kitobda aylanma to'p, tikuv mashinasi, mashina yoki kir yuvish mashinasi kabi narsalarni namoyish qilish qiziqish uyg'otishi mumkin. Qiziqarli hikoyalarda tasvirlangan texnologik buyumlarning rasmlari bolalarda savollar va analitik fikrlashning paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin.[3]

E - Muhandislik: Bolalarni muhandislik bilan tanishtirishni atrof-muhitda kuzatilgan shakllar va ularning munosabatlaridan boshlash mumkin. Shakllar va ularning bir-biriga munosabatini tasvirlaydigan kitob foydali vosita bo'lishi mumkin.

A - San'at: Bolani san'at olamiga tanishtirishni bolalikdan boshlash kerak. Milliy va jahon kontekstidagi buyuk san'at asarlari, bolalar psixologiyasini aks ettiruvchi illyustratsiyalar o'rin olgan kitoblar mos illyustratsiya bo'lib xizmat qiladi.

STEAM ta'limi ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan. Malevichning "Qora kvadrat"i orqali shakllarni namoyish qilish yoki Munkning "Qichqiriq" orqali his-tuyg'ularni ifodalash kabi harakatlar bolalarni qiziqtirishi mumkin.

M - Matematika: Hali savodsiz bo'lgan bolalarga fundamental matematik tushunchalarni o'rgatish o'yinga asoslangan ta'lim orqali amalga oshirilishi mumkin. Biroq, bu 1+1 kabi an'anaviy o'qitish usuli emas, balki interaktiv innovatsiyalarni targ'ib qiluvchi o'qitish usuli bo'lishi kerak. Tasvirlardagi hayvonlarning soni, barmoqlar soni, yuzlarida "1" (bir og'iz) yoki "2" (ikki ko'z) ko'rinishi matematik tushunchalarni shakllantirishga yordam beradi va bolalarning qiziqishini uyg'otadi. STEAM tizimidagi bolalar uchun tanlangan kitoblar nafaqat qiziqarli, balki ularning yoshiga mos va psixologik jihatdan mos bo'lishi juda muhim. Bu kitoblar bolaning e'tiborini jalb qilishi, yoshiga mos ma'lumotlarni taqdim etishi va STEAM ta'limini qo'llab-quvvatlovchi illyustratsiyalarni o'z ichiga olishi kerak.[4]

Prezidentimiz topshirig'iga asosan ta'lim muassasalarida bolalarni har tomonlama rivojlantirish uchun STEAM tizimi asoslarini shakllantirish quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:[5]

Ta'lim axborot tizimi orqali darsliklar bilan ta'minlash jarayonida STEAM tamoyillari asosida kitoblarni tanlash;

STEAM tamoyillari asosida kitoblar bilan ishlash mexanizmlarini ta'lim axborot tizimining ish rejasiga kiritish;

STEAM kitoblari orqali bolalarning so'z boyligini oshirish;

Innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda yosh bolalar uchun mo'ljallangan STEAM kitoblarini ishlab chiqishga ko'maklashish;

Ta'lim amaliyotchilarni STEAM ta'lim tizimi bilan tanishtirish mexanizmlarini ishlab chiqish.

Ko'pgina mamlakatlarda STEAM ta'limi bir necha sabablarga ko'ra muhim ahamiyatga ega:

Yaqin kelajakda jahon miqyosida ham, O'zbekistonda ham yuqori texnologiyali ishlab chiqarish bo'yicha muhandis va mutaxassislariga talab yuqori bo'ladi.

Uzoq muddatli istiqbolda bizga turli xil texnologiya, tabiiy fanlar va muhandislik sohalarida keng ta'lim va tajribani talab qiluvchi mutaxassislar kerak bo'ladi.

STEAM ta'limining afzalliklari nafaqat mavzu bo'yicha, balki "mavzular" bo'yicha ham o'rganishni birlashtirishni o'z ichiga oladi.

Ilm-fan va texnologiya ko'nikmalarini hayotda qo'llash.

Tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirish.

Faol muloqot va jamoada ishlashni kuchaytirish.

Ishonchni shakllantirish.

STEAM ta'lim afzalliklariga quyidagilar kiradi:[6]

- Texnik fanlarga qiziqishni rivojlantirish.
- Loyihalarga ijodiy va innovatsion yondashuvlarni rag'batlantirish.
- Ta'lim va martaba o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish.
- Bolalarni texnologik innovatsion hayotga tayyorlash.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, STEAM yondashuvi bolalarni tajribalar o'tkazishga, modellar tuzishga, mustaqil ravishda musiqa va filmlar yaratishga, o'z g'oyalarini haqiqatga aylantirishga va yakuniy mahsulotni yaratishga yo'l ochadi. Ushbu ta'lim yondashuvi bolalarga nazariya va amaliy ko'nikmalarni samarali tarzda birlashtirishga imkon beradi va maktabga borishda, yaxshi o'qishiga, universitetga kirish va keyingi o'qishni osonlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR



1. IMPROVING THE PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL COMPETENCE OF FIRSTYEAR CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATION M Shakhnoza - ... International Journal of Multidisciplinary Research and ..., 2022
2. MAKTABGACHA TA'LIM SOHASIDAGI BUGUNGI KUN RIVOJLANISHI, YANGILIKLARI VA YUTUQLARI. A Nilufar, M Shaxnoza - Journal of Universal Science Research, 2023
3. Abdumajitova S. A. PRIORITY OF THE PERSON-CENTERED EDUCATIONAL MODEL IN PRESCHOOL EDUCATION //International Academic Research Journal Impact Factor 7.4. – 2022. – T. 1. – №. 5. – С. 53-57.
4. Abduqasimovna, A. S. (2022). DIFFERENT VIEWS OF EASTERN THINKERS AND PEDAGOGUES-SCIENTISTS ABOUT THE CHILD AND HIS EDUCATION. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 348-352.
5. Abduqasimovna, A. S. (2022). ATTENTION TO THE EDUCATION OF CHILDREN OF PRESCHOOL AGE AND REFORMS IN THE FIELD OF PRESCHOOL EDUCATION. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 342-347.
6. Абдумажитова, С. А. (2019). ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ У ДЕТЕЙ ЧУВСТВА ВРЕМЕНИ КАК ЭСТЕТИЧЕСКОГО ФЕНОМЕНА В ПСИХОЛОГОПЕДАГОГИЧЕСКОЙ И МЕТОДИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (3), 81-83.

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM VA TARBIYA
JARAYONINI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA
TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI**

Boymirzayeva Zuxra Shavkatjon qizi

*Namangan davlat pedagogika instituti Ta'lim va tarbiya nazaryasi va metodikasi
[Maktabgacha ta'lim] mutaxassisligi 2-kurs magistranti*

***Annotatsiya.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim va tarbiya jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish dolzarb muammo*

bo'lib, bu jarayon bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada ta'lim va tarbiya jarayonlarida innovatsion texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati, usullari hamda ularning bolalarning kognitiv va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ta'siri o'rganiladi. Maqolada innovatsion yondashuvlarni joriy qilishdagi asosiy to'siqlar va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar taqdim etilgan.

***Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, innovatsion texnologiyalar, ta'lim jarayoni, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o'yin texnologiyalari, integratsion yondashuv, ijodiy qobiliyatlar.*

***Annotation.** Improving the process of education and upbringing in preschool educational organizations based on innovative approaches is an urgent problem, and this process is important in ensuring the comprehensive development of children. This article examines the importance and methods of using innovative technologies in education and training processes, as well as their impact on the development of children's cognitive and creative abilities. The article presents the main obstacles to the introduction of innovative approaches and practical recommendations for their elimination.*

***Key words:** preschool education, innovative technologies, educational process, interactive methods, information and communication technologies, game technologies, integrated approach, creative abilities.*

***Аннотация.** Совершенствование процесса обучения и воспитания в дошкольных образовательных организациях на основе инновационных подходов является актуальной проблемой, и этот процесс важен в обеспечении всестороннего развития детей. В данной статье рассматриваются значение и методы использования инновационных технологий в учебно-воспитательных процессах, а также их влияние на развитие познавательных и творческих способностей детей. В статье представлены основные препятствия на пути внедрения инновационных подходов и практические рекомендации по их устранению.*

***Ключевые слова:** дошкольное образование, инновационные технологии, образовательный процесс, интерактивные методы, информационно-*

коммуникационные технологии, игровые технологии, комплексный подход, творческие способности.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim bosqichi har bir bolaning shaxsiyati shakllanishi va rivojlanishi uchun poydevor bo'lib, jamiyatda inson kapitalini yaratishda muhim o'rin tutadi. Shu sababli, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, uni zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Bugungi kunda ta'lim sohasida globallashtirish, axborot texnologiyalarining keng qo'llanilishi va innovatsion pedagogik metodlarning rivojlanishi maktabgacha ta'limni yangi bosqichga olib chiqishni talab qilmoqda.[1]

Innovatsion yondashuvlar ta'lim jarayonini bolalarning yosh xususiyatlari va ehtiyojlariga moslashtirish, ularda ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, maktabgacha ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o'yinli ta'lim usullari, integratsion va kompetensiyaga asoslangan yondashuvlar kognitiv va psixologik rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda samarali ekanligi isbotlangan.

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim va tarbiya jarayonlarini takomillashtirishdagi innovatsion yondashuvlarning ahamiyati va samaradorligi tahlil qilinadi. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishdagi muammolar, ularni hal qilish bo'yicha amaliy yechimlar ko'rib chiqiladi. Maqola ta'lim jarayonini bolalarning har tomonlama rivojlanishiga moslashgan holda tashkil etishga yo'naltirilgan taklif va tavsiyalarni o'z ichiga oladi.[2]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Maktabgacha ta'lim mutaxassisleri zamonaviy bolalar bog'chalarini rivojlantirish uchun innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish zaruriyatini e'tirof etishmoqda. Davlat muassasalarini moliyalashtirish doirasida "Maktabgacha tarbiyachiga yo'naltirilgan" innovatsion tashkiliy yechimlarni joriy etish nafaqat muassasa nufuzini oshiradi, balki uning rivojlanishining keyingi strategik yo'nalishlarini belgilashga ham yordam beradi. O'quv jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish jarayonida, bolalarning psixofizik yosh

xususiyatlarini inobatga olgan holda, tarbiyachilar ushbu o'zgarishlarni ijobiy qabul qiladi va faoliyatlarini tezda moslashtira oladi.

Bundan tashqari, pedagogik yondashuvlarda ota-onalar bilan hamkorlikni rivojlantirish, bolalar bog'chasi va oila o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilash ehtiyoji kuchaymoqda. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llash nafaqat mumkin, balki zarurdir. Ammo bunday texnologiyalardan foydalanishda bir qator muhim talablar qo'yiladi:[3]

• **Kontseptuallik:** O'quv jarayoni aniq ilmiy tushunchalarga asoslangan bo'lishi kerak.

• **Tizimlilik:** Texnologiya barcha tarkibiy qismlari bir-biri bilan bog'liq, yaxlit va mantiqiy bo'lishi lozim.

• **Moslashuvchanlik:** Pedagogik jamoa maqsadlarni belgilab, o'quv jarayonini rejalashtirishi, shuningdek, zarurat tug'ilganda uni o'zgartira olishi kerak.

• **Reproduktivlik:** Texnologiyalar natijalarining samaradorligi ularni qo'llayotgan pedagogning shaxsiy xususiyatlariga bog'liq bo'lmasligi lozim.

Maktabgacha yosh bolalarning rivojlanish bosqichi ularning dunyoni faol o'rganish davri bo'lib, bu davrda ular o'z atrofidagi narsalarni sinchkovlik bilan o'rganadi. Bolalar to'plangan ma'lumotlarni faol esda saqlab qoladi, bu esa keyinchalik ularning rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratadi. Shu yoshda ingl. tasavvuriy va ingl. samarali fikrlash shakllari rivojlanib, bola o'zi uchun yangi narsalarni kashf etadi. 5–6 yoshdagi bolalar bilimni tez qabul qilib, katta qiziqish bilan o'rganishadi.

Bola 6-7 yoshga yetganida, u o'z kelajagini shakllantirish uchun hozirgi va o'tgan voqealarni eslab qoladi. Ushbu davr bolaning hayotining taxminan 70 foizini tashkil etadi, ya'ni bu yosh oralig'ida u hayot davomida oladigan ma'lumotlarning yarmidan ko'pini o'zlashtiradi. Yapon maqollarida aytilishicha, bu yoshdagi bolalarga podshohdek munosabatda bo'lish kerak, chunki bu davr bola psixologiyasi uchun juda muhim voqealarga boy.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning dastlabki bosqichi bo'lib, u bolani sog'lom va rivojlangan shaxs sifatida shakllantirishni maqsad qiladi. Shu bilan birga, bolalarda o'qishga qiziqish uyg'otib, ularni tizimli ta'lim olishga tayyorlaydi.

6-7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha ta'lim davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarida, shuningdek, oilada amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'limning asosiy vazifasi bolalarni maktabga tayyorlash, ularning sog'lom, mustaqil, rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlash, qobiliyatlarini rivojlantirish hamda o'qishga va tizimli ta'limga ishtiyoqni tarbiyalashdir. Bolalarning hayoti va salomatligini muhofaza qilish jarayoni maktabgacha ta'lim muassasalari hamda ularga biriktirilgan tibbiyot xodimlari va sog'liqni saqlash organlari tomonidan amalga oshiriladi.[4]

Bolalarning xavfsizligi va salomatligini muhofaza qilishga oid qoidalar, jumladan, ularni muassasaga olib kelish va olib ketish tartiblari, bino va hudud xavfsizligini ta'minlash hamda yong'in xavfsizligi talablariga "Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish tartibi to'g'risida Nizom" asosida rioya qilinadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimida alohida tur hisoblanib, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun umumiy ta'lim dasturlarini amalga oshiradi. Ushbu muassasalar 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning tarbiyalanishi, o'qitilishi, parvarishi, nazorati va sog'lomlashtirilishini ta'minlaydi. Muassasalar faoliyatining tartibi, bolalarning muassasada bo'lish davomiyligi, sifat va talab darajasi davlat nizomlari, ota-onalar bilan tuzilgan shartnomalar hamda ta'sischilar tomonidan belgilangan qoidalar asosida tashkil etiladi.

Maktabgacha yoshda bolalarning hissiy rivojlanishi ham o'ziga xosdir. Ularning kunlari ko'plab emotsional jarayonlar bilan boyib boradi, bu esa kechga borib charchashga olib keladi. Hissiy jarayonlar tuzilmasi o'zgarib, bolalarda his-tuyg'ularni ifodalash cheklangan shaklda davom etadi. Shu yoshda bola uchun barcha mashg'ulotlar, xoh o'yin, xoh uy ishlari bo'lsin, yorqin hissiy ranglarga ega bo'lishi kerak. Bu yoshdagi bolalar qiziq bo'lmagan ishlarga e'tiborini jamlay olmaydi. Shu sababli, tarbiyachilarning bolalar bilan munosabatlari, shuningdek, ota-onalarning ijobiy rol modeli katta ahamiyatga ega. Ota-onalar bolaga qo'rquv yoki xavotir uyg'otmasdan, unga ijobiy ma'lumotni yetkazishlari lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim va tarbiya jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish dolzarb masala bo'lib, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan yangi usul va texnologiyalarni joriy qilishni talab etadi. Ushbu muammolarni tahlil qilish davomida bir qancha muhim jihatlar aniqlangan.[5]

1. **Innovatsion yondashuvlarning zarurati:** Maktabgacha ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish bolaning psixofizik rivojlanishini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Bolalar yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan texnologiyalar nafaqat o'quv jarayonini samarali tashkil etadi, balki ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishini ham oshiradi. Shu bilan birga, ushbu yondashuvlar tarbiyachilarning metodik mahoratini oshirishga imkon yaratadi.

2. **Muammoli jihatlar:**

Moliyaviy cheklovlar: Innovatsion texnologiyalarni joriy qilish uchun moddiy-texnik bazaning yetishmovchiligi va moliyalashtirishda uzilishlar asosiy muammolardan biridir.

Kadrlar masalasi: Innovatsion texnologiyalarni joriy etishda pedagoglarning tayyorligi muhim. Lekin amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab tarbiyachilar yangi yondashuvlar va texnologiyalardan foydalanishda ma'lum darajada qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Metodik yondashuvlarning moslashuvi: Har bir bolalar bog'chasi va mintaqaning o'ziga xosligi tufayli barcha texnologiyalarni bir xil samaradorlik bilan qo'llash mumkin emas.

3. **Pedagogik hamkorlikni rivojlantirish zarurati:** Ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni joriy etish ota-onalar va tarbiyachilar o'rtasidagi hamkorlikni talab qiladi. Biroq, ushbu hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun samarali kommunikatsiya va ishonchli aloqa mexanizmlarini rivojlantirish zarur.

4. **Pedagogik texnologiyalarni joriy etish mezonlari:**

Kontseptuallik va tizimlilik texnologiyalarining ilmiy asoslanganligi va yaxlitligi talab etiladi.

Moslashuvchanlik orqali o'quv jarayoni real sharoit va resurslarga moslashtirilishi lozim.

Ta'sirchanlik va qayta tiklanish imkoniyati texnologiyalar samaradorligini oshiradi.[6]

XULOSA

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion yondashuvlarni joriy etish, ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish uchun muhim omil hisoblanadi. Ushbu yondashuvlar nafaqat bolalarning psixofizik rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi, balki ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Pedagoglar innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali o'z faoliyatlarini takomillashtirib, bolalar bilan ishlashda yanada ilg'or usullarni joriy etishga erishadilar.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim tizimida innovatsiyalarni keng joriy etish orqali bolalarning intellektual, hissiy va ijtimoiy rivojlanishiga ulkan hissa qo'shish mumkin. Kelgusida ushbu jarayonni tizimli asosda davom ettirish, mavjud resurslarni samarali boshqarish va bolalarning individual xususiyatlariga mos ta'lim dasturlarini ishlab chiqish ustuvor vazifa bo'lib qoladi. Innovatsion yondashuvlar yordamida maktabgacha ta'lim sifatini oshirish jamiyatning intellektual va madaniy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ziyamammedov, Bo'ri, Mamarajab Tojiyev. Pedagogik texnologiya-zamonaviy o'zbek milliy modeli. Toshkent. 2009.y
2. "Kitobim-oftobim" Toshkent. "O'qituvchi" nashriyoti, 2008 yil.y
3. Ashurova, Z. (2023). Maktabgacha ta'limda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati. Tashkent: O'zbekiston Milliy Matbuot Markazi.
4. Karimov, B. (2021). Pedagogik texnologiyalar va ularning ta'limdagi o'ri. Pedagogika va psixologiya jurnali, 5(2), 34–40.
5. Rasulova, M. (2022). Maktabgacha ta'lim muassasalarida zamonaviy ta'lim yondashuvlari. Innovatsion ta'lim jurnali, 4(1), 12–18.
6. UNESCO. (2020). Innovative Approaches in Early Childhood Education. Paris: UNESCO Publishing.

РУССКИЙ ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРА КАК СРЕДСТВО ПОЗНАНИЯ И ФОРМИРОВАНИЯ ЛИЧНОСТИ

Абдусаматова Д.

*студентка кафедры узбекского и иностранных языков, Наманганского
государственного педагогического института*

Нехочина Л.Ш.

*преподаватель- стажер кафедры узбекского и иностранных языков,
Наманганского государственного педагогического института*

Tel: +998937810602 abdusamatovadilshoda2@gmail.com

Аннотация: *Статья рассматривает русский язык и литературу как важные инструменты, способствующие познанию личности. В ходе исследования анализируется влияние языка на формирование когнитивных процессов, а также роль литературы в развитии эмпатии, рефлексии и моральных установок. Освещается научный подход к изучению связи между языком, литературой и личностью, обосновывается их ключевая роль в гуманитарной сфере.*

Ключевые слова: *средство познания, литература, ключевая роль, формирования личности, русский язык, мышление, мировоззрение.*

Анотация: *Maqolada rus tili va adabiyoti shaxsni bilishga hissa qo'shadigan muhim vosita sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda tilning kognitiv jarayonlarning shakllanishiga ta'siri, shuningdek, empatiya, fikrlash va axloqiy munosabatlarni rivojlantirishda adabiyotning o'rni tahlil qilinadi. Til, adabiyot va shaxs o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga ilmiy yondashish yo'lga qo'yilib, ularning gumanitar sohadagi asosiy roli asoslab berilgan.*

Калит со'злар: *bilish vositalari, adabiyot, asosiy rol, shaxs shakllanishi, rus tili, tafakkur, dunyoqarash.*

Annotation: *The article examines the Russian language and literature as important tools that contribute to the knowledge of personality. The study analyzes the influence of language on the formation of cognitive processes, as well as the role*

of literature in the development of empathy, reflection and moral attitudes. The scientific approach to the study of the connection between language, literature and personality is highlighted, and their key role in the humanitarian sphere is substantiated.

Keywords: *means of cognition, literature, key role, personality formation, Russian language, thinking, worldview.*

Познание личности является одной из ключевых задач гуманитарных наук, включая психологию, философию и лингвистику. Русский язык и литература, будучи средствами выражения и осмысления человеческой природы, играют уникальную роль в этом процессе. Язык структурирует мышление и коммуникацию, а литература раскрывает глубинные аспекты внутреннего мира человека через художественные образы, сюжеты и характеры.

В данной статье делается акцент на изучении того, как русский язык и литература способствуют пониманию личности, формируют её когнитивные, эмоциональные и нравственные характеристики.

Русский язык и литература играют важную роль в жизни человека, формируя его личность, мировоззрение и культурную идентичность. Русский язык также является средством общения, а литература мощный инструмент для познания мира.

Русский язык – один из самых распространенных языков в мире. Он не только служит средством коммуникации, но и формирует мышление. Язык позволяет нам выражать свои мысли, чувства и идеи, а также понимать и воспринимать окружающий мир. Через язык мы устанавливаем связи с другими людьми, обмениваемся опытом и культурой. Русский язык – это ключевой элемент национальной идентичности. Он является связующим звеном между поколениями, обеспечивая передачу опыта, знаний и традиций. Каждый человек с помощью языка выражает свои мысли, чувства и потребности, участвует в общественной жизни, строит карьеру и создает социальные связи.

Литература – это зеркало общества, в котором отражаются его ценности, проблемы и стремления. Русская литература, начиная с древнерусских сказаний и заканчивая произведениями современных авторов, представляет собой богатый пласт культуры. Классики, такие как Пушкин, Толстой, Достоевский, исследуют глубинные аспекты человеческой природы, моральные дилеммы и философские вопросы, что помогает читателям лучше понимать себя и окружающий мир. Чтение художественной литературы развивает способность к эмпатии – умению понимать и сопереживать другим людям.

Психологические исследования подтверждают, что анализ литературных персонажей стимулирует активность зон мозга, связанных с сочувствием и социальной когнитивностью. Это особенно ярко проявляется в произведениях русской литературы, где раскрыты противоречивые и многогранные человеческие характеры (например, Родион Раскольников в романе «Преступление и наказание» Ф. М. Достоевского). Литература предоставляет читателю возможность осмыслить собственные жизненные установки через анализ поступков и судьбы героев.

Рассмотрим на примерах, как русская литература через проблематику сюжета, дает уникальную возможность исследовать внутренний мир человека через глубокий психологизм, философские размышления и изображение нравственного выбора.

"Преступление и наказание" Ф. М. Достоевского является ярким примером исследования внутренних противоречий человека. Главный герой, Родион Раскольников, находится в постоянной борьбе между своей теорией «сверхчеловека» и моральными принципами. Через его размышления, страхи и муки совести раскрываются глубинные аспекты человеческой природы, такие как чувство вины, искупление и стремление к духовному очищению. Внутренний монолог Раскольникова помогает читателю осознать, как идеи и убеждения могут влиять на поступки человека и разрушать его психику. Борьба героя с собой приводит к осознанию того, что человеческая жизнь бесценна, а зло не может быть оправдано даже благими намерениями.

"Анна Каренина" Л. Н. Толстого исследует эмоциональный мир и мотивы поступков героев, показывая, как любовь, страсть, общественное давление и чувство долга могут формировать человеческую судьбу. Через внутренние переживания Анны Толстой показывает разрушительное влияние запретной любви, внутреннего одиночества и несоответствия между личными желаниями и общественными нормами. В противоположность Анне, история Левина демонстрирует поиск смысла жизни через труд, семью и духовное саморазвитие. В его размышлениях и сомнениях читатель видит универсальные вопросы человеческого бытия.

Как видим, данные примеры показывают, что русская литература открывает глубины человеческой психологии и нравственности. Она позволяет читателю не только понять персонажей, но и осмыслить собственные внутренние переживания, жизненные ценности и моральные ориентиры. Соответственно, чтение литературы развивает критическое мышление, эмпатию и эмоциональный интеллект. Погружаясь в разные истории и судьбы героев, человек учится сопереживать, анализировать и делать выводы о жизни. Это, в свою очередь, способствует формированию личных ценностей и мировоззрения.

На основе изученных примеров, мы пришли к выводу о том, что русский язык и литература являются важными компонентами культурной идентичности. Они помогают сохранить традиции, обычаи и историческую память народа. Знание языка и литературы способствует пониманию культурных кодов и норм, что особенно важно в многонациональном и многокультурном обществе.

Как известно, русский язык является основой образования не только в России, но и в странах СНГ. Он используется в учебных заведениях, что делает его изучение необходимым для получения знаний и навыков. Знание языка открывает двери к литературным произведениям, научным исследованиям и культурным достижениям, что способствует личностному и профессиональному развитию.

Исследователь Михаил Кронгауз в своих научных работах отмечал: «Русский язык – это зеркало общества, его культуры и внутреннего состояния».^[8]

В современных условиях язык не только сохраняет культурные традиции, но и адаптируется к новым реалиям. Интернет, мессенджеры и социальные сети изменяют форму языка, но сохраняют его сущность как инструмента общения.

Помимо этих общих формальных особенностей, язык обладает определенными психологическими качествами, делающими его изучение особенно важным для исследований в области социальных наук. Язык воспринимается как совершенная символическая система, использующая абсолютно однородные средства для обозначения любых объектов и передачи любых знаний, на которые способна данная культура, независимо от того, реализуются ли эти средства в форме реальных сообщений или же в форме такого идеального субститута сообщения, как мышление.

Русский язык и литература играют ключевую роль в жизни человека, оказывая влияние на его культурное и духовное развитие. Американский лингвист Эдуард Сепир считал, что «...язык – мощный фактор социализации, может быть, самый мощный из существующих».^[9] Литература помогает сохранять и передавать наследие, формирует эстетический вкус и способствует развитию личности. В мире, где глобализация все чаще размывает культурные границы, сохранение богатства и уникальности русского языка и литературы становится особенно важным. Чтение, изучение и понимание этих ценностей – это вклад в наше будущее, основано на глубоком уважении к истории и культуре.

Русский язык и литература являются уникальными средствами познания личности, объединяя когнитивные, эмоциональные и культурные аспекты. Язык структурирует мышление, формирует мировоззрение и раскрывает индивидуальность, в то время как литература служит пространством для рефлексии, эмпатии и нравственного роста.

Изучение этих феноменов в научной перспективе открывает новые горизонты для понимания человеческой природы, а также для применения знаний в образовании, психологии и социальной практике.

ЛИТЕРАТУРА:



1. Алексеев, Д. И. Словообразование современного русского литературного языка / Д. И. Алексеев, Р. В. Бахтурина, Е. И. Галанова и др. – Русский язык и советское общество, 1968. – Кн. 3. – 299.
2. Баринова, Г. А. Фонетика современного русского литературного языка. Народные говоры / Г. А. Баринова, М. Я. Гловинская, С. М. Кузьмина и др. Русский язык и советское общество, 1968. – Кн. 4. – 210.
3. Богданов, К. А. О крокодилах в России. Очерки из истории заимствований и экзотизмов / К. А. Богданов. – М. : Новое литературное обозрение, 2006. – 348
4. Бромлей, С. В. Проблемы диалектологии, лингвогеографии и истории русского языка / С. В. Бромлей. – М. : Азбуковник, 2010. – 754 с.
5. Войлова, К. А. История русского литературного языка : учебник / К. А. Войлова, В. В. Леденева. – М. : Дрофа, 2009. – 495 с.
6. Воителева, Т. М. Русский язык и культура речи. Дидактические материалы / Т. М. Воителева. – М. : Академия, 2008. – 175.
7. Воронцова, В. Л. Русский язык конца XX столетия. 1985-1995 / В. Л. Воронцова и др. – М. : Языки русской культуры, 2000. – 478 с.
8. Кронгауз М. «Русский язык на грани нервного срыва». М. 2007г., с. 45., общ. стр. 145.
9. Сепир Э. Язык. - В кн.: Звегинцев В. А. История языкознания XIX - XX вв. в очерках и извлечениях. Издание 3-е. Часть 2. М., 1999
10. Чжен, Е. В., and Нехочина Лола. "ОБ ИСТОКАХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИДЕЙ ЛЬВА ТОЛСТОГО." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2.Special Issue 4-2 (2022): 791-794.

**BO`LAJAK TASVIRIY SAN`AT O`QITUVCHILARINING "USTOZ-SHOGIRD"
AN`ANALARI ASOSIDA O`RGATISH USLUBLARI: (AMALIY SAN`ATNING
GOBELEN YO`NALISHI MISOLIDA)**

Abdumannopova Sadbarxon Abdulvohid qizi

Namangan davlat pedagogika instituti Tasviriy san`at ixtisosligi 1-kurs magistranti

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada badiiy hunarmandchilikni o`qitishda poydevori bo`lgan amaliy san`atning gilamdo`zlik va gobelen yo`nalishlarini nazariy va amaliy asoslariga bag`ishlangan. Unda badiiy hunarmandchilikni o`rgatishda “Ustoz-shogird” an`analarining o`rni, amaliy san`at tarixidan lavhalar, gilamdo`zlik va gobelenning kelib chiqishi va bir biridan farqi, gilamda tasvir yaratishning asosiy qonun qoidalari: konstruktiv tuzilish, nisbatlar, perspektiva, kompozitsiya masalalari hamda, tasviriy san`at o`qituvchisi oldida o`quvchilarning estetik tarbiyasi, badiiy didi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularga borliqni tasvirlash uchun tasviriy san`at asoslarini chuqur egallash, haqqoniy rasm chizish bo`yicha ko`nikma va malakalarni shakllantirish vazifasi turadi.*

***Kalit so`zlar:** rassom – pedagog, ustoz-shogird, naqsh kompozitsiyasi, sodda va murakkab uslub, gilamdo`zlik, goobelen, naqqoshlik, stilizatsiya.*

KIRISH. Tasviriy va amaliy san`at mashg`ulotlarini o`qitishda “Ustoz-shogird” an`analari muhim jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda chizuvchilar borliqni idrok etish, fikrlash, va ma`lum texnik ko`nikmalarga ega bo`ladilar, chunonchi, xotira, tasavvurlarini rivojlantirish asosida rasm bajarish orqali ularning fazoviy va badiiy fikrlarini boyitish vazifalari bajariladi. Yaratilayotgan tasviriy va amaliy san`at asarlarida badiiy idrok etish bilan birga bezak ishlari, jamiyat va uning hayoti, turmush tarzi muhrlangan. Shu bois barcha xalqlar, ma`naviy, moddiy va nomoddiy meroslarimiz orqali biz haqimizda ma`lumotga ega bo`ladilar. Vatanimizni dunyodagi mavqeyini oshirish, dunyo xalqlarini O`zbekistonga jalb etishda, bo`lajak tasviriy san`at o`qituvchilari zimmasiga yuklatilgan ma`naviy sog`lom yosh avlodni, bo`lajak vatanparvarlarni munosib tarbiyalashi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ijodkor o`qituvchi oldiga o`sib kelayotgan avlodni badiiy barkamol, yuksak didli, olam va san`at go`zalliklarini to`g`ri tushuna oladigan tarzda tarbiyalash asosiy vazifa qilib qo`yiladi. U nafaqat bilimdon yoshlarni tarbiyalashi, balki eng avvalo, ana shu bilimlarni o`zi mukammal egallab olgan shaxs bo`lishi zarur. Shu jumladan, tasviriy san`at sohasida bilim olayotgan talabaning ham eng asosiy vazifasi o`qituvchi –rassom uchun zarur bo`lgan bilim va malakalarni puxta egallashdir. Birinchi bosqichdan Asar yaratishda

kompozitsiyaning o`rni o`zgacha. Kompozitsiya so`zi lotincha “composito” so`zidan olingan bo`lib, tuzish, birlashtirish, bog`lash, turli xil unsurlarni bir butun yaxlitlikka birlashtirish va biron-bir g`oyani madh etish ma`nosini bildiradi. Kompozitsiya – san`atning barcha yo`nalishida qo`llaniladi. Dizayn va amaliy san`atning barcha turlarida loyihalash deb ataladi. Musavvir turli shakl va manzaralarni bir-biriga nisbatan solishtirib va joylashtirib nafis san`at asari yaratadi. Bunday holni biz boshqa san`at turlarida ham ko`rishimiz mumkin. Sportda, musiqada, adabiyotda bunday misollarni ko`plab keltirishimiz mumkin. Kompozitsiya so`zi tasviriy san`at yo`nalishlarida termin sifatida uyg`onish davridan boshlab uzluksiz ishlatilib kelinmoqda. Har qanday ish asar yaratishda kompozitsiyaning o`rni o`zgacha. Kompozitsiya so`zi lotincha “composito” so`zidan olingan bo`lib, tuzish, birlashtirish, bog`lash, turli xil unsurlarni bir butun yaxlitlikka birlashtirish va biron-bir g`oyani madh etish ma`nosini bildiradi. Kompozitsiya – san`atning barcha yo`nalishida qo`llaniladi. Dizayn va amaliy san`atning barcha turlarida loyihalash deb ataladi. Musavvir turli shakl va manzaralarni bir-biriga nisbatan solishtirib va joylashtirib nafis san`at asari yaratadi. Bunday holni biz boshqa san`at turlarida ham ko`rishimiz mumkin. Sportda, musiqada, adabiyotda bunday misollarni ko`plab keltirishimiz mumkin.

Birinchi bosqichdan boshlanadigan tasviriy va amaliy san`at darslari bo`yicha, o`quv topshiriqlari rang tasvir, qalam tasvir, kompozitsiya kabi ilmiy bilim asoslari bilan chambarchas bog`liqdir. Shu bilan birgalikda talabalar o`qituvchi rahbarligida va mustaqil ravishda, tasviriy san`at bo`yicha o`quv adabiyotlarini o`rganishlari maqsadga muvofiqdir. Talabalarni rasm bajarish jarayonida didaktik prinsipning asosiy qoidalaridan biri bo`lgan ketma - ketlik usulini qo`llashga o`rgatish zarur. Bu haqida XX asrning buyuk rus rassom – pedagogi P. Chistyakov shunday degan edi: “Har qanday ish doimiy tartibini talab etadiki, ish o`rtasidan yoki oxiridan emas, balki eng boshidan, asosidan boshlanadi... ishda tartib buzilishi zarar yetkazadi, adashtiradi va ishni buzadi...”Rasm chizishda ham bosqichlar asosida ish olib borish asarning mukammal va xatolardan holi chiqishini ta`minlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbek xalqining ko'p asrlik tarixida, tasviriy va amaliy san'at boy va rang-barang madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi. O'zbek diyorida vujudga kelib gullab-yashnagan san'at turlari bemisl va betakrorligi bilan dunyoga mashhur. Bunday kamolot va taraqqiyot bosqichlari haqida fikr yuritadigan bo'lsak, o'zbek amaliy bezak san'ati turlarining shox ildizlari insoniyatning bolaligi, ya'ni ibtidoiy jamiyatga borib taqalishining guvohi bo'lamiz. O'lkamiz zaminida avloddan avlodga o'tib kelayotgan yodgorliklarning guvohlik berishicha, insonning jismga badiiy ishlov berish usulida buyum yaratish faoliyati tosh asridayoq boshlangan bo'lib, asrlar osha hozirgacha uzluksiz davom etib kelmoqda. Maqolada amaliy san'atning gilamdo'zlik va gobelen ishlarini bajarish ustida ma'lumotlar to'plangan.

Gilamchilik va gilam to'qish kasbi, badiiy hunarmandlikning keng tarqalgan sohalaridan biridir. Qadimdan chorvachilik bilan shug'ullanadigan ko'chmanchi qabilalar orasida keng tarqalgan. O'simlik (paxta, zig'ir, jut) tolasi, jun (qo'y, echki, tuya juni)dangina tayyorlangan. Gilam to'qish uchun qirqilgan junlar yuvilib tozalanadi, temir taroqlarda taraladi, taralgan junlardan ip yigiriladi. Iplar turli tabiiy bo'yoqlar bilan bo'yaladi. Shuning uchun gilam ranglari o'zgarmaydi va o'zining jilosini yo'qotmaydi. Hozirda gilamlar sun'iy tolalardan ham to'qilmoqda. O'zbekistonda gilamchilik Boysun, Sherobod, Denov tumanlarining tog' va tog'oldi qishloqlarida uy sharoitida jundan mato tayyorlash keng tarqalgan. Qo'y junidan, asosan, gilam to'qilgan. O'rta Osiyoda XIX asrning o'rtalariga qadar gilamdo'zlik uy hunarmandchiligiga kirgan. Sohaning asosiy homashyo manbaasi dehqonchilik va chorvachilikdan olingan paxta va jundir. Ayniqsa, oq rangli jun gilamdo'zlar tomonidan nihoyatda qadrlangan. Gilam to'qishda Sherobod tog' qishloqlari aholisi shug'ullangan. Gilamlar to'qilishi, gulning joylashishi bilan bir-biridan farqlangan va o'ziga xos ramziy ma'noga ega bo'lgan. Masalan, olacha gilamning „qulf-kalit“ ramzi tushirilgan turli honadon eshigi do'stiga ochiq, dushmanga yopiqligini bildirsa, „quroqgul“ turi esa, ikki yosh bir-biri bilan qo'sha-qarisin degan ma'noni bildiradi. To'qish jarayonida gilamning asosini tashkil etuvchi iplardan qilingan tugunchalar o'ng yoki chapga to'liq bir marta o'tqizilganda oraliq asbobi oldinga yoki orqaga suriladi. Tugunchalar, agar astarli iplar bo'ylama bo'lsa o'tkazilmaydi.

Gilam to'qilishi qolip oxiriga 1-1,5 metr qolganda qirqiladi. Sababi astarlik iplari oxirlangan sayin tortishib taranglashadi, uzilib ketish holati kuzatiladi. Kesilgandan so'ng gilamning ikki yoniga astarlardan qolgan qismidan bezak berilgan. Astarlik iplari uch to'rt dona ipdan iborat tugunchalar qilingan, bu bilan iplarning bo'shab ketmasligi ham ta'minlangan.

Qo'lda gilam to'qish O'rta Osiyoda, ayniqsa Turkmanistonda keng rivojlangan. Qo'lda gilam to'qish nihoyatda sermashaqqat ish, to'quvchidan qunt, did va mahorat talab qiladi. Patli gilamlarni to'qish ayniqsa murakkab. Qo'lda to'qilgan gilam pati, naqsh mujassamoti asos ipiga rangli iplardan tugib bandlar hosil qilib yaratiladi, tugun uchi matoning yuza tomoniga chiqarib tekis qirqiladi, har bir qatordan so'ng arqoq ipi o'tkazib maxsus temir taroqqa urib avvalgisiga mahkamlanadi. Tayyor gilam maxsus kimyoviy moddalar yordamida yuviladi. Andijon, Samarqand gilamlari, qoraqalpoqlar to'qigan o'tov jihozlari badiiy jihatdan mohirona ishlangan. Andijon gilamlarining pati qisqa, qalin va mayin bo'lgan. Samarqandning rangdor uzun patli julxirs ("ayiq teri") gilami o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Gilam va gobelenning bir-biridan farqi juda katta. Gobelen - qo'lda tasvir hosil qilib to'qilgan gilam, badiiy buyum. Parij manufakturasi (1662)ning mahsulotlari dastlab shunday atalgan (15-asrning mashhur bo'yoqchilari Gobelenlar nomidan olingan). Gobelen rangli jun va ipak (ba'zan tilla va kumush) iplar bilan rassomlar (Sh. Lebren, 18-asrda F. Bushe, J. B. Udri va b.) kartondan buyumning tabiiy kattaligida bajargan tasvirlari asosida to'qilgan. Masalan, Rafael Vatikan uchun havoriy (apostol)lar hayotiga oid shpalerlar turkumi kartonlarini chizib bergan, to'quvchi ustalar shu kartondan foydalanib gobelen to'qiganlar. Alohida alohida to'qilgan bo'laklar bir-biriga tikilib yaxlit tasvir hosil qilingan. Gobelenning uziga xos xususiyati o'ngining chiviqli yuzasi va orqa tomonining notekisligidir. 17— 18-asrlar gobelenlari yuksak badiiyligi (tarixiy, afsonaviy, diniy va adabiy mazmuni) bilan mashhur bo'lgan, shu tufayli boshqa manufakturalarda taqlidan yaratilgan shpalerlar ham gobelen deb atala boshlangan. 19-asrdan patsiz, patli, gilamsimon to'qima matolar, hatto tasvir ishlangan kigizlar ham gobelen deb atala boshlandi. Hozir qo'lda va mashinalarda tabiiy va sun'iy tolalardan to'qilgan patsiz, patli mebel matolari, turli bezak

matolar ham gobelen deb ataladi. Gobelen to`qishda asosan kartonga yani eskizga e`tibor beriladi. Asarning qay darajada mukammal chiqishida eskiz katta ahamiyatga ega. Maxsus uskunaga tortilgan vertikal arqoq iplarga gorizontal holatda rangli to`quv iplari bilan tasvirlar asta sekin to`qib chiqiladi. To`qishda uskunaga tortilgan eskizdagi tasvir va ranglardan kelib chiqib iplar tanlanadi. Gobelening muhim jihatlaridan biri ham kartondagi tasvirlarni iplar bilan mohirona ko`chirishdan iborat. Gilamchilikda asosan naqshlardan simmetrik shakllardan foydalanilsa gobelenda murakkab kompozitsiyalar tasvirlanadi. Asar yaratishda kompozitsiyaning o`rni o`zgacha. Kompozitsiya so`zi lotincha “compozito” so`zidan olingan bo`lib, tuzish, birlashtirish, bog`lash, turli xil unsurlarni bir butun yaxlitlikka birlashtirish va biron-bir g`oyani madh etish ma`nosini bildiradi. Kompozitsiya – san`atning barcha yo`nalishida qo`llaniladi. Dizayn va amaliy san`atning barcha turlarida loyihalash deb ataladi. Musavvir turli shakl va manzaralarni bir-biriga nisbatan solishtirib va joylashtirib nafis san`at asari yaratadi. Bunday holni biz boshqa san`at turlarida ham ko`rishimiz mumkin. Sportda, musiqada, adabiyotda bunday misollarni ko`plab keltirishimiz mumkin. Kompozitsiya so`zi tasviriy san`at yo`nalishlarida termin sifatida uyg`onish davridan boshlab uzluksiz ishlatilib kelinmoqda. O`zbekistonda gobelen 1960-yillardan to`qila boshlandi. 1970—80-yillarda keng tarqaldi. M. Churlu, Ya. va A. Ishoqovlar, L. Taldikina kabi ustalar samarali mehnat qildilar. Gobelening asosiy markazlari Toshkent va Farg`ona sh.laridir. Farg`ona (V. Useinova, L. Semizarova, S. Shixova va b.) va Toshkent (M. Tyurina, R. Ibrohimova va b.) ustalari bu sohada barakali ijod qilmoqda. O`zbekiston gobelenlarida Sharq bezaklari, tabiat manzaralari, mahalliy tasvir, rang-baranglik ustun turadi.

MUHOKAMA

Respublikamiz mustaqillikka erishgan kundan boshlab boy tarixiy, madaniy merosimiz keng ko`lamda o`rganila boshlandi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek: “Jamiyatimizdagi yangilanish va islohotlar tufayli dunyo sivilizatsiyasiga munosib hissa qo`shgan, buyuk ajdodlarimizdan bizga meros bo`lib qolgan yuksak ma`naviyat, axloqiy madaniyat, chiroyli milliy an`analarimizdan foydalanish imkoniyati ochildi”. Buyuk vatandoshlarimiz – Imom al-Buxoriy,

Hakim at-Termiziy, Xoja Bahovuddin Naqshbandiy, Imom Motrudiy, Burxoniddin Al-Marg'iloniylarning nomlari qayta tiklandi. O'tmishning buyuk mutafakkirlari Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Ahmad Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Muhammad Murod Samarqandiy hamda jadidchilik harakati vakillarining nomlari g'urur bilan tilga olinmoqda. Ularning sharafiga yodgorlik majmualari qurilib, kitoblar chop etilib, faoliyatlari keng targ'ib qilinmoqda. Shoyad, bugungi kun sharofati bilan milliy madaniyatimizni qayta tiklab, ularga yangicha ma'no, mazmun berib, tarbiya ishiga sharqona ruh bera olsak ajab emas. Talabani tarbiyalashda avvalo uning ruhiyati bilan bog'liq holda, ichki kechinmalar sodir bo'ladi. Shunday ekan, amaliyotchi va nazariyotchilar oldida mashaqqatli, ammo sharafli bo'lgan ishlar turibdiki, ularga o'quv qo'llanma va darsliklarni milliy ruhda yaratish, mutafakkirlarimizning go'zal xulqilik tarbiyasi haqidagi meroslaridan, ko'pini ko'rgan buva va buvilarimizning o'git, pand va nasihatlaridan oqilona foydalanib ish yuritsakkina ko'zlangan maqsadga erishamiz. Hozirda eng muhim masalalardan biri o'sib kelayotgan yosh avlod ma'naviyatini shakllantirish va kamol toptirishdir. Tayyorlayotgan mutaxassislarimizni yuksak insoniy fazilatlar egasi, oliyjanob, axloqiy e'tiqod sohibi qilib tarbiyalash, o'ta muhim vazifalardan biridir. Markaziy Osiyo xalqlari amaliy san'at va hunarmandchiligida yuksak darajaga etishganligining sabablaridan biri ajdodlarimiz Ustoz-shogird an'analari asosida yoshlarga hunar o'rgatganlar va ular nihoyatda boy tajribaga ega bo'lganlar. Shu jihatdan olib qaraganda, O'zbekistonda amaliy san'at ta'lim va tarbiyani olib boruvchi pedagog murabbiylarni kasbiy malakalarini takomillashtirish, ularni ilg'or pedagogik texnologiyalar g'oyalari bilan boyitilgan yangi o'quv adabiyotlar bilan ta'minlash dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

NATIJA

O'zbek xalqining ko'p asrlik tarixida, bezak san'ati boy va rang-barang madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi. O'zbek diyorida vujudga kelib gullab-yashnagan san'at turlari bemisl va betakrorligi bilan dunyoga mashhur. Bunday kamolot va taraqqiyot bosqichlari haqida fikr yuritadigan bo'lsak o'zbek amaliy bezak san'ati turlarining shox ildizlari

insoniyatning bolaligi, ya'ni ibtidoiy jamiyatga borib taqalishining guvohi bo'lamiz. O'lkamiz zaminidagi tarix qatlamlarini qazishlar natijasida topilgan yodgorliklarning guvohlik berishicha, insonning jismiga badiiy ishlov berish usulida buyum yaratish faoliyati, tosh asridayoq boshlangan bo'lib, asrlar osha hozirgacha uzluksiz davom etib kelmoqda. Inson ongli faoliyatining ajralmas qismi bo'lmish badiiy tafakkur va shunga muvofiq badiiy-ijodiy faoliyat, insoniyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bunday faoliyat natijasida kelib chiqadigan estetik-badiiy idrok qobiliyati kishilarda olamni, undagi mavjudotlar, narsalar va voqea-hodisalarni, atrof-muhitdagi shakllar va ranglarni turfa shakl-shamoilda qaytadan aks ettirishga havas uyg'otadi. Shakl va ranglarning real hamda stillashtirilgan tasvirlarini yaratish shu tariqa kelib chiqdi va u o'z navbatida, odamlarning kundalik turmushlaridan o'rin ola boshladi. Natijada badiiy bezaklarning xilma-xil shakllari va turlari paydo bo'ldi. Boshqa san'atlarga nisbatan bunday naqshli bezaklar ko'pligining va takomil topganligining muayyan tarixiy sabablari bor.

Ma'lumki, Islom mamlakatlarida mavjudotlar tasvirini ishlash keng odat tusiga kirmagan, zero, mavjudotni yarata olish faqatgina qodir Tangrigagina xosdir, insonlar esa bunday ishni bajarishga ojizdirlar, bordiyu biror ishni yuqori takomil darajasida ijro etish imkoni yo'qligi avvaldan ma'lum ekan, bunday ishga kirishmoqlikning o'zi aqldan emasdur. Tasviriy san'atga bu qadar chuqur, falsafiy yondoshish natijasida shartlilik, stillashtirish, ramziylikka asoslangan badiiy bezak asarlari yaratish kuchaygan. Ushbu tarixiy omil o'zbek milliy bezak san'atining gurkirab rivojlanishiga turtki bo'lganki, hozirda jahonga mashhur me'morchilik yodgorliklarimiz ulardagi ganchkorlik, koshinkorlik, naqqoshlik, xattotlik, tosh-taroshlik, gilamchilik, kashtachilik va boshqa turdagi san'atlarning ajoyib darajada uyg'unlashgan mujassamligidan iboratdir. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Toshkent, Qo'qon va boshqa shaharlardagi amaliy san'at va bezakchilik san'ati yodgorliklari, o'tmish avlodlarimiz yaratgan barkamol, takrorlanmas va tarixan bebaho san'at asarlarining namunalari bo'lib, xalqimizning va shu bilan birga jahon madaniyati durdonalaridan bo'lgan badiiy va madaniy merosni tashkil qilgan.

XULOSA

Amaliy san'at asarlari kishilarning man'aviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham o'zbek xalq amaliy san'ati kishilarni axloqiy, umuminsoniy tarbiyalab, ular ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishda hamda madaniy darajasini yuksaltirishda eng zarur manbalardan biri hisoblanadi. Diyorimizning qadimiy tarixida amaliy san'atning xilma-xil turlari mavjud bo'lib, har biri o'ziga hos va rang - barangdir. Nafaqat tasviriy san'at balki amaliy san'at ham jamiyatning barcha sohasida asosiy, yetakchi fan bo'lib hisoblanadi. Qalam yordamida borliqni idrok etish jarayonida, chizuvchilar ma'lum texnik ko'nikmalarga ega bo'ladilar, chunonchi, xotira, tasavvur asosida rasm bajarish orqali ularning fazoviy va badiiy fikrlarini rivojlantirish vazifalari bajariladi. Badiiy idrok etish barobarida bezak ishlari, jamiyat va uning hayoti, turmush tarzi mana shu tasvirlarga muhrlanadi.. Shu bois dunyodagi barcha xalqlar, ma'naviy, moddiy va nomoddiy meroslarimiz orqali biz haqimizda ma'lumotga ega bo'ladilar. Vatanimizni dunyoda mavqeyini oshirish maqsadida, milliy qadriyatlarni saqlagan holda xalq hunarmandchilik namunalarini asrashimiz va kerakli bilim va ko'nikmalarni shakllantirishimiz zarur.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yhati:

1. Qodirxo'jayev P. T. Badiiy bezak san'ati. -T: "Iqtisod moliya" 2007.
2. Xolmatov B.Q. Kompozisiya. -T: "Iqtisod-moliya", 2007.
3. Bulatov S.S, Dadashev L. Naqsh alifbosi.-T: Cho'lpon, 1999.
4. S. Bo'latov. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. Toshkent, Mehnat, 1994 yil.
5. Boymetov B. Qalamtasvir. Pedagogika institutlari va universitetlari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, 1977.
6. Abdirasilov S, Boymetov B, Tolipov N. Tasviriy san'at. Toshkent. 2006.
7. С.Т.Саъдиев З.С.Очилов XLIII Международная научно-практическая конференция "Международное научное обозрение проблем и перспектив современной науки и образования" 2018 г 25-26 Март (Америка Бостон).

8. Taxirovich S.N. et al. BADIY TASVIR VOSITALARIDA METONIMIYANING LINGVISTIK TAVSIFI //PEDAGOGS jurnali. – 2023. – T. 34. – №. 3. – C. 42-45.

FIZIKADAN QIZIQARLI MA'LUMOTLAR VA MASALAR

¹Gulnoza Nafasova Baxtiyorov

²Bekmominova Gulsevar

²Ahmadaliyeva Gulsanam

²Boboqulova Umida

¹ Guliston Davlat Universiteti Fizika kafedrasi o'qituvchisi

² Guliston Davlat Universiteti talabasi

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada fizika faniga oid qiziqarli ma'lumotlar va hozirgi kundagi kashfiyotlar haqida so'z yuritilgan. Qiziqarli masalalardan namunalar keltirib o'tilgan. Bu masalalar o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi va fizika qonunlarini amalda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Maqola fizikaga qiziqqan har bir kishi uchun qiziqarli va foydali bo'lib ilmiy bilimlarni ommalashtirishga xizmat qiladi.*

***Kalit so'zlar.** Yorug' yulduz 'sirius', termometr, qora krisstallar, radioteleskop, Saturn halqasi, kvante elektramagnitlangan tizimlar, Dark matter va dark energy, ultranurlaviy tolalar.*

Muzni ichida zichligi suv zichligidan kichik yoki teng bolgan jism bo'lsa muz eriganda suv satxi ozgarmaydi. Zichligi suv zichligidan katta bo'lsa suyuqlik satxi kamayadi.

Uyda ovqat pishirish, choy qaynatish uchun foydalaniladigan tabiiy gazning aslida hidi ham, rangi ham yo'q. Agar biror sabab bilan gaz chiqib ketsa u havoda aralashib portlovchi gaz hosil qilishi mumkin. Gazdan odamlar zaharlanishi ham mumkin. Shu sababli, gaz tarmoqlash stansiyalarida unga maxsus hidi o'tkir bo'g'iqlik moddadan bir oz qo'shib yuboriladi.

1842-yilda nemis astronomi Bessel yorug' yulduz bo'lgan Siriusning «o'ynab» turishini sezgan. Uning holati goh o'ng tomonga, goh chap tomonga siljib turgan. Butun olam tortishish qonunlarini hisobga olib amalga oshirilgan hisob kitoblar uning ko'zga ko'rinmaydigan yo'ldoshi borilgini ko'rsatadi. Shundan 20 yil o'tgach, bu yo'ldoshni so'ng uni topishadi.

Birinchi termometrni 1714-yilda gollandiyalik «shisha puflovchi» D. Farengeyt yasagan. U simobli termometr yasab muz, suv va tuz solingan aralashma temperaturasi 0° deb oladi. Odamning normal temperaturasi 100° deb oladi. Ular oralig'ini 100 bo'lakga bo'lib 1°F deb nomlaydi. Unga ko'ra muz erish temperaturasi 32°F , qaynash temperaturasi 212°F . Hozirgi kunda AQSh va Angliyada ishlatilib kelinadi. 1740-yilda fransuz fizigi O. Reomyur spirtli termometrni taklif qiladi. Unda muz erish temperaturasi 0° , suvning qaynash temperaturasi 80° deb olingan.

Qor kristallarining shakli turli xil. U havo temperaturasi va undagi suv bug'lariga bog'liq. 0°C atrofida ko'p qirrali yulduz shaklida bo'ladi. Pastroq temperaturada igna, yupqa prizma shaklida bo'ladi. Kristallarning o'lchami juda kichik. Ko'pincha millimetr ulushlarida bo'ladi. Qor tushayotganda bir-biriga qo'shib kattalashadi. 0°C atrofida ba'zan 1 smga boradi. Uni «laylak qor» deyishadi. 1892-yil 4-dekabrda Saksoniyada ko'ndalang kesimi 12 sm bo'lgan qor yoqqan.

1500 mln yil oldin Yer o'z o'qi atrofida bir yil davomida 900 marta aylangan (ya'ni bir sutka 10 soatni tashkil etgan). 500 mln yil avval esa — 380 marta aylangan. Har 50 000 yilda sutka bir sekundga ortadi.

Agar Yerdan Quyoshga reaktiv samolyot bora olganida edi, 800 km/soat tezlik bilan harakatlanib 21 yilda yetar edi.

Hozir astronomlar koinotning radiusi 10 milliard yorug'lik yiliga teng bo'lgan qismini kuzata oladi.

1975-yilda Kavkazga o'rnatilgan teleskop oynasi eng katta bo'lib, diametri 6 metr, qalinligi bir metrga yaqin, og'irligi esa 42 tonna! Teleskopning eng nozik qismi — ko'zguni 1600 gradusli haroratda quyilib, dastlabki yetmish tonnalik quyilmasini sovitish uchun 2 yilu 4 kun zarur bo'lgan. Chunki tez sovitilsa, unda

mayda yoriqlar hosil bo'lishi mumkin. Ko'zguni sferik sirt shakliga keltirish uchun unga bir necha yil sayqal berilib, undan «atigi» 28 tonna kukun chiqarildi. Ulkan teleskopning og'irligi 850 tonna. 25 ming kilometr narida yoqilgan shamni osongina ko'ra olishi reflektor — «gigant ko'zi»ning o'tkirligiga dalil bo'la oladi.

2 m li to'lqinda ishlaydigan haqiqiy birinchi radioteleskop 1936-yilda amerikalik radiomuhandis G. Reber tomonidan yasalgan.

60—70-yillarda radioastronomik usullar yordamida qo'lga kiritilgan yutuqlar optik astronomiyaning salkam 400 yil davomida erishgan yutuqlari bilan solishtirarli bo'lgan.

Ba'zan matbuotda kosmosdan qandaydir osmon jismlari Oyga yoki Yerga kelib urilishi haqida xabarlar chiqib qoladi. Ulardan ko'pchiligi asossiz bo'lib chiqadi. Masalan: 1921-yilda dunyo Saturn halqasi yo'qolib qolganligi va uning bo'laklari Quyosh tomon harakatlanib, yo'l-yo'lakay Yerga urilishi aytilgan. Hattoki uriladigan kun ham belgilangan. Mish-mishga sabab o'sha yili Saturn halqasi ko'rinishi o'zgarib turganligidan qisqa muddat davomida ko'rinmay qolishi bo'lgan edi

Fizika sohasida bir nechta muhim kashfiyotlar amalga oshirildi. Misol uchun:

1. Kvant elektromagnitlangan tizimlar: 2022 yilda tadqiqotchilar kvant holatlarining elektromagnitlangan tizimlarda qanday o'zgarishini o'rganishdi. Bu kashfiyot kvant kompyuterlarini va boshqa kvant texnologiyalarini rivojlantirishda ahamiyatli.

2. Dark matter va dark energy: 2023 yilda "James Webb" teleskopi yordamida olimlar qorong'u moddaga oid yangi ma'lumotlar topdilar. Bu, koinotning kengayishini va uni tashkil qiluvchi asosiy moddalarning tabiatini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

3. Ultraviolet tolalar: 2021-2022 yillarda olimlar ultraviolet tolalar yordamida ma'lumotlarni uzatish bo'yicha tajribalar o'tkazdilar. Bu tajribalar nanomateriyalar mohiyatini o'rganish va tajriba uchastkalarida ma'lumotlarni qoplashda yordam beradi.

Bu kashfiyotlar fiziqa yangi istiqbollari ochmoqda.

Fizika faniga oid qiziqarli masalalar

1. *Masala. Magnit.* Sizning qo'lingizda ikkita mutlaqo bir-biriga o'xshash metall silindr bor, ulardan biri magnitdir. Boshqa obyektlar bilan aloqa qilmasdan, silindrning magnit ekanligini qanday aniqlash mumkin?

Javob. Magnit qutblarida magnit kuchlanishning maksimal qiymati mavjud. Bizning holatda magnit kuchlanishning maksimal qiymati silindrning so'nggi yuzalarida kuzatiladi. Magnitning o'rtasiga yaqinlashganda, magnitlanish zaiflashadi, yaqinlashganda

juda o'rtada, uning kattaligi nolga teng. Shunday qilib, agar "T" shaklidagi ulanish amalga oshirilsa, silindrlar bir biriga yopishib qolsa, u holda uning uchi bilan aloqa

qiladigan silindr magnit bo'ladi.

3. *Masala. Ingichka simning diametri.* Qanday qilib faqat chizg'ich va qalam yordamida ingichka simning diametrini maksimal aniqlik bilan o'lchash mumkin?

Javob: Simni qalamga mahkam o'rash (dumaloq, qirrasiz) va kamida o'nta burilish qilish kerak (o'lchash qanchalik aniq bo'lsa shuncha yaxshi.). Keyin chizg'ich bilan birinchi aylanadan oxirgi aylanagacha millimetrda o'lchang va hosil qilingan aylanalar soniga bo'ling.

4. *Masala. Soatni yurishi.* Cho'ntak soatingizni stol ustiga qo'ying, bir necha qadam narida yurib, ularning ovozi tinglang. Agar xona yetarlicha jim bo'lsa, u holda sizning soatingiz uzilishlar bilan ishlayotganini eshitasiz: u qisqa


vaqtga davom etadi, keyin bir necha soniya davomida to'xtaydi, keyin yana yurishni boshlaydi va hokazo. Soatni bunday notekis yurishini qanday izohlashimiz mumkin .

Javob. Soat ohangidagi sirli tanaffuslar eshitishning pasayishi bilan izohlanadi. Bizning eshitishimiz bir necha soniya davomida zerikarli bo'lib qoladi va shu vaqt oralig'ida biz eshitmaymiz. Qisqa vaqtdan so'ng, charchoq o'tadi va oldingi sezgirlik tiklanadi, keyin yana soatni eshitamiz. Keyin yana charchoq paydo bo'ladi va hokazo.

5. *Masala.* Temir yo'lda duch kelib qolishdi. (rasmga q.) Ularning orasida Har biri 40 tadan vagonni tortib ketayotgan A va B paravozlar bitta bor yo'g'i paravoz

bilan birgalikda 20 ta vagon sig'adigan boshi berk tarmoq yo'l bor. Qanday manevr qilib poezdlar bu kutilmagan vaziyatdan qutilib, o'z yo'nalishlarida harakatni davom etishlari mumkin

Javob. Har biri 40 tadan vagonni tortib ketayotgan A va B paravozlar bitta temir yo'lda duch kelib qolishdi.(1-rasmga q.).



1-rasm.

Ularning orasida bor yo'g'i paravoz bilan birgalikda 20 ta vagon sig'adigan boshi berk tarmoq yo'l bor. Qanday manevr qilib poezdlar bu kutilmagan vaziyatdan qutilib, o'z yo'nalishlarida harakatni davom etishi mumkin

Xulosa

Fizikadan qiziqarli masalalar ishlash, qiziqarli ma'lumotlarni topladik. Bugungi kundagagi fizika faniga oid yangiliklar, kashfiyotlar haqida malumot berilib otilgan bir nechta qiziqarli masalalar va ularning yechimlarini keltirib o'tilgan. Ushbu qiziqarli malumotlar o'quvchilarning Fizika faniga qiziqishi oshishiga motivatsiya beradi.

Adabiyotlar

1. Li, Shuguang, et al. "Heat and mass transfer characteristics of Al₂O₃/H₂O and (Al₂O₃+ Ag)/H₂O nanofluids adjacent to a solid sphere: A theoretical study." *Numerical Heat Transfer, Part A: Applications* (2024): 1-19.
2. Nafasova, Gulnoza, and B. S. Abdullayeva. "Development of logical competence of future physics teachers based on steam and smart educational technologies." *Евразийский журнал академических исследований* 3.1 Part 2 (2023): 138-140.
3. Nafasova, Gulnoza, and EZoza Pardaveva. "BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARINING MANTIQUIY KOMPETENTLILIGINI

- RIVOJLANTIRISHDA SAMARALI FIZIKA O'QITISH
METODLARI." *Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук* 3.4 (2023): 50-53.
4. Abduxaliq o'g'li, Ikramov Jamshid, and Nafasova Gulnoza. "UNIVERSITETDA TALABALARGA FIZIKA FANINING AHAMIYATI." *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari* 12.2 (2024): 34-37.
5. NAFASOVA, Gulnoza. "PRAKSEOLOGIK YONDOSHISH KONTEKSTINDA BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARINING MANTIQUIY KOMPETENTLILIGI SHAKLLANISH TEXNOLOGIYALARI." *News of UzMU journal* 1.1.2 (2024): 163-166.
6. Baxtiyorovna, Nafasova Gulnoza. "AXBOROT TIZIMLARIDA ZAMONAVIY FIZIKA." *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari* 12.1 (2024): 240-243.
- Baxtiyorovna, Nafasova Gulnoza, et al. "REAL GAZ XOSSALARINING IDEALLIKDAN CHETGA CHIQISHI VAN-DER-WAALS TENGLAMASINI O'RGANISH." *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM* 5.45 (2024): 49-55.
7. Nafasova, Gulnoza, and B. S. Abdullayeva. "Development of logical competence of future physics teachers based on steam and smart educational technologies." *Евразийский журнал академических исследований* 3.1 Part 2 (2023): 138-140.
8. Abduvahob o'g'li, Baratov Quvonchbek, et al. "KVANT MEXANIKASI VA UNING KUNDALIK HAYOTGA TA'SIRI!" *INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS* 3.31 (2024): 10-12.
Didaktik o’yinlarni ta’lim jarayoniga joriy qilish, ta’lim samaradorligini yanada shakllantirish uchun tinimsiz izlanish hozirgi kunning ehtiyojiga aylanmoqda. Yangi didaktik o’yinlarni ta’lim jarayoniga tadbiq qilish har bir pedagogning oldida turgan muammolardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumaniyozova M. T. “Ilg’or pedagogik texnologiyalar va ularni amalda qo’llash” fanidan ma’ruza matni. Toshkent-2010.
2. Ro’ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo’llanilishi / Metod.qo’ll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.
3. Fayzullayeva D.M., Ganiyeva M.A., Ne’matov I. Nazariy va amaliy o’quv mashg’ulotlarda o’qitish texnologiyalari to’plami / Met.qo’ll. O’rta maxsus, kasb-hunar ta’limida innovatsion ta’lim texnologiyalari seriyasidan – T.: TDIU, 2013.
4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar / Amaliy tavsiyalar. – T.: “Iste’dod” jamg’armasi, 2008.
5. Ibrohimova Mohichehra, F. Q. (2022). Development of Logical Thinking in Elementary Mathematics Classes. International Journal of Trend in Scientific Research and Development, 6(6), 1446-1450.

TASODIFIY MIQDOR TUSHUNCHASI VA MOHIYATI

Nurmatova Aziza Nodirjon qizi

Namangan davlat unversiteti Fizika-Matematika fakulteti

Amaliy matematika talabasi

E-mail: anurmatova228@gmail.com [Tel:+998950261902](tel:+998950261902)

Rahmonov Murodjon Ikromovich

*Namangan davlat unversiteti Fizika-Matematika fakulteti Matematika yo'nalishi
talabasi*

E-mail: dilmurodov858@gmail.com [Tel:+998941533218](tel:+998941533218)

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada statistikada va ehtimollik nazariyasida ishla tiladigan tushuncha bo'lib, u tasodifiy hodisalarga bog'liq bo'lgan qiymatlar yoki o'zgaruvchilarni anglatadi. Tasodifiy miqdor (tasodifiy o'zgaruvchi) o'z qiymatlarini tasodifiy ravishda oladi, ya'ni ularning qanday bo'lishi avvaldan aniq bo'lmaydi, balki ehtimollar yordamida tasodifiy tarzda belgilanadi. Tasodifiy miqdorlar ehtimollarni o'rganish va statistik tahlil qilishda asosiy ro'l o'ynaydi.*

***Kalit so'zlar:** Ehtimollik nazariyasi, statistik tahlillar, qiymatlar, uzliksiz, diskret, tasodifiy miqdor.*

Tajriba natijasi biror qiymatlar to'plamidan tasodifiy ravishda bitta qiymat qabul qiladigan o'zgaruvchi miqdorga tasodifiy miqdor deb ataladi.

Ehtimollar nazariyasi asosiy tushunchalaridan biri tasodifiy hodisa bo'lib, uchun ma'lum shartlar asosidagi o'lchovini tasodifiy miqdordir.

Tarif:

Tasodifiy hodisalarga asoslangan holda qabul qilishi mumkin bo'lgan qiymatlardan bittava faqat bittasini qabul qilishi mumkin bo'lgan qiymatlarni tasodifiy miqdorlardir.

Tasodifiy miqdorlarni $\xi(\text{kisi}), \theta, \omega$ kabi harflar bilan belgilanadi.

Elemental hodisalar fazosi berilgan bo'lsin. $\Omega = \{\omega_1, \omega_2, \dots, \omega_n\}$

Element hodisalar fazosida aniqlangan funksiyalar tasodifiy miqdor deyiladi.

Tasodifiy miqdorlar ikki hil bo’ladi:

Diskret tasodifiy miqdor — qiymatlari cheklangan va sonli bo’lgan tasodifiy o’zgaruvchilar. Masalan, tanga tashlashda chiqadigan natija (yuz yoki orqa). Agar tasodifiy miqdor chekli yoki sanoqli qiymatlar qabul qilsa, bunday tasodifiy miqdor diskret tipdagi tasodifiy miqdor deyiladi.

Doimiy (uzluksiz) tasodifiy miqdor — qiymatlari uzluksiz bo’lgan tasodifiy o’zgaruvchilar. Masalan, odamning bo’yi yoki vaqt.

Agar tasodifiy miqdor qabul qiladigan qiymatlari biror oraliqdan iborat bo’lsa uzluksiz tipdagi tasodifiy miqdor deyiladi. Demak, diskret tasodifiy miqdor bir-biridan farqli alohida qiymatlarni, uzluksiz tasodifiy miqdor esa biror oraliqdagi ihtiyoriy qiymatlarni qabul qilar ekan. Yuqoridagi X va Y tasodifiy miqdorlar diskret, Z esa uzluksiz tasodifiy miqdor bo’ladi. Endi tasodifiy miqdorni qat’iy ta’rifini keltiramiz[1].

Ω elementar hodisalar fazosida aniqlangan X sonli funksiya tasodifiy miqdori deyiladi, agar har bir ω elementar hodisaga $X(\omega)$ conni mos qo’ysa, yani $X=X(\omega), \omega \in \Omega$.

Diskret tasodifiy miqdorning taqsimot qonuni

X-diskret tasodifiy miqdor bo’lsin. X tasodifiy miqdor $x_1, x_2, x_3, \dots, x_n, \dots$ qiymatlarni mos miqdor $p_1, p_2, p_3, \dots, p_n, \dots$ ehtimolliklar bilan qabul qilsin:

	X_1	X_2	$\dots\dots\dots$	X_n	$\dots\dots\dots$
	P_1	P_2	$\dots\dots\dots$	P_n	$\dots\dots\dots$

jadval diskret tasodifiy miqdor taqsimot qonuni jadvali deyiladi.

Misol1.

10 ta lotoreya biletida 2 tasi yutuqli bo'lsa, tavakkaliga olingan 3 ta lotoreya biletleri ichida yutuqlilari soni X taqsimot miqdorining taqsimot qonunini toping.

X taqsimot miqdorini qabul qilishi mumkin bo'lgan qiymatlari . $x_1=0$, $x_2=1$, $x_3=2$ Bu qiymatlarning mos ehtimolliklari esa quyidagicha hisoblanadi:

$$P_1=P\{X=0\}=\frac{C_2^0 * C_8^3}{C_{10}^3}=\frac{56}{120}=\frac{7}{15}$$

$$P_2=P\{X=1\}=\frac{C_2^1 * C_8^2}{C_{10}^3}=\frac{56}{120}=\frac{7}{15}$$

$$P_3=P\{X=2\}=\frac{C_2^2 * C_8^1}{C_{10}^3}=\frac{8}{120}=\frac{1}{15}$$

X tasodifiy miqdor taqsimot qonunini jadval ko'rinishida:

X	0	1	2
P	$\frac{7}{15}$	$\frac{7}{15}$	$\frac{1}{15}$

$$\sum_{i=1}^3 P_i = \frac{7}{15} + \frac{7}{15} + \frac{1}{15} = 1$$

Dispersiyaning xossalari

1) O'zgarmasning dispersiyasi nolga teng:

DC= 0.

2) Biror o'zgarmasga ko'paytirilgan tasodifiy miqdorning dispersiyasi ana shu tasodifiy miqdor dispersiyasining kvadratga oshirilgan o'zgarmasga ko'paytmasiga teng:

$$D(SX)=S^2*DX.$$

3) O'zaro bo'g'liq bo'lgan tasodifiy miqdorlar yigindisi (ayirmasi)ning dispersiyasi bu tasodifiy miqdorlar dispersiyalarining yigindisiga teng:

$$D(X\pm Y)=DX+DY.$$

X tasodifiy miqdorning o'rtacha kvadratik chetlashishi (og'ishi)

deb dispersiyadan olingan kvadratik ildizga aytiladi:

$$\sigma(X)=\sqrt{DX}$$

X diskret tasodifiy miqdorning modasi deb, tasodifiy miqdorning eng ehtimoliroq qiymatiga aytiladi, ya'ni eng katta ehtimollikka $p^*=\max(p_i)$ mos kelgan x^* qiymat bu moda[2].

Misol2

Quyidagi taqsimot qonuni bilan berilgan X tasodifiy miqdorning matematik kutilmasi, dispersiyasi, o'rtacha kvadratik chetlanishini toping:

X	1	2	3	4	5
P	0.1	0.2	0.3	0.3	0.1

$$MX=1*0.1+2*0.2+3*0.3+4*0.3+5*0.1=3.1$$

$$MX^2=1^2*0.1+2^2*0.2+3^2*0.3+4^2*0.3+5^2*0.1=10.9$$

Bunday dispersiya formulasiga asosan topamiz :

$$DX=MX^2-(MX)^2=10.9-(3.1)^2=1.29$$

X tasodifiy miqdorning o'rtacha kvadratik chetlashishi:

$$\sigma(X)=\sqrt{DX}=\sqrt{1.29}=1.1357$$

$$\text{Javob: } MX=3.1; DX=1.29; \sigma(X)=1.1357$$

Tasodifiy miqdor taqsimot qonunining berilishi shu tasodifiy miqdor haqida to'liq ma'lumot beradi. Ammo ba'zi hollarda tasodifiy miqdor to'g'risida ayrim, yig'ma ma'lumotlarni bilish lozim bo'ladi. Bunda tasodifiy miqdorning sonli xarakteristikalar — tasodifiy miqdorning matematik kutilishi va dispersiyasi tushunchalari muhim rol o'ynaydi. Biz quyida shu tushunchalar bilan tanishamiz.

Biror ξ diskret tasodifiy mikdor berilgan bo'lib, u x_1, x_2, \dots, x_p qiymatlarni mos ravishda r_1, r_2, \dots, r_p ehtimollar bilan qabul qilsin:

Ushbu:

$$X_1P_1 + X_2P_2 + \dots + X_nP_n = \sum_{k=1}^n X_kP_k$$

yig`indisi ξ diskret tasodifiy miqdorning matematik kutilishi deb ataladi va $M\xi$ kabi belgilanadi:

$$M\xi = X_1P_1 + X_2P_2 + \dots + X_nP_n = \sum_{k=1}^n X_kP_k$$

Demak, diskret tasodifiy miqdorning matematik kutilishi bu tasodifiy miqdorning qabul qilishi mumkin bo`lgan barcha qiymatlarini ularning mos ehtimollariga ko`paytmalari yig`indisidan iborat.

Tasodifiy miqdor matematik kutilishining ma`nosini anglash uchun bitta masalani qaraymiz[3].

Faraz qilaylik, n ta tajriba o`tkazilgan bo`lib, bunda ξ tasodifiy miqdor miqdor $x_1, x_2, x_3, \dots, x_n$ qiymatlarni mos ravishda m_1, m_2, \dots, m_k martadan qabul qilgan bo`lsin. Ravshanki, $m_1 + m_2 + \dots + m_k = n$.

Qaralayotgan ξ tasodifiy miqdor qabul qilgan qiymatlarining o`rta arifmetik qiymati (uni x bilan belgilaylik)

$$\frac{x_1m_1 + x_2m_2 + \dots + x_km_k}{n}$$

ga teng bo`ladi.

Misol 3

X	1	2	3	4
P	0.1	0.2	0.3	0.4

$$MX = 1 \cdot 0.1 + 2 \cdot 0.2 + 3 \cdot 0.3 + 4 \cdot 0.4 = 3$$

$$MX^2 = 1^2 \cdot 0.1 + 2^2 \cdot 0.2 + 3^2 \cdot 0.3 + 4^2 \cdot 0.4 = 10$$

Bunday dispersiya formulasiga asosan topamiz :

$$DX = MX^2 - (MX)^2 = 10 - (3)^2 = 1$$

X tasodifiy miqdorning o`rtacha kvadratik chetlashishi:

$$\sigma(X) = \sqrt{DX} = \sqrt{1} = 1$$

Javob: $MX=3$; $DX=1$; $\sigma(X)=1$

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Abdushukurov.A.A. (fizika-matematika fanlari doktori Ya.M. Xusanboyev fizika-matematika fanlari doktori Sh.Sh.Shorahmetov) - “Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika” Toshkent -2010
2. A.S.Rasulov, G.M.Raimova, X.K.Sarimsakova (S.Q.Farmonov, O'zbekiston Respublikasi FA akademigi, Matematika instituti «Ehtimollar nazariyasi» bo'limi mudiri [M.Mirvaliyev fizika-matematika fanlari doktori, professor, Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti «Ehtimollar nazariyasi» kafedrasini mudiri M.T.Baqoyev, fizika-matematika fanlari nomzodi, Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya universiteti «Matematik modellashtirish va Informatika» kafedrasini dotsenti) – “Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika”- O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent— 2006
3. Otarov.A.A. – «Ehtimollar nazariyasi va matematikalik statistika» fani buyicha ma`ruza matnlari – Nukus, 2006y.
4. www.net.Uzbekistan

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA INTERAKTIV TA‘LIM METODLARINING O‘RNI

Nuraliyeva Kamola Isaqali qizi

*Namangan davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasini PhD katta
o‘qituvchisi*

Qosimova Muattar Akmal qizi

*Namangan davlat pedagogika instituti Ta’lim va tarbiya nazariyasi (boshlang‘ich
ta’lim) 1-bosqich magistranti*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda interaktiv ta’lim metodlarining o‘rni, zamonaviy ta’lim metodlari darsning samaradorligini oshirishga xissa qo‘shishi va qanday natijalarga erishilishi, ularning kamchiliklari*

va shu kamchiliklardan kelib chiqqan holda darsni mukammal tashkil etilishi haqida fikr yuritilgan.

***Kalit soʻzlar:** ta’lim, metod, samaradorlik, pedagog, ijodkorlik, fikr, kommunikativlik, mantiq, dars.*

***Аннотация:** В данной статье рассматривается роль интерактивных методов обучения в формировании профессиональной компетентности будущих учителей начальной школы, вклад современных методов обучения в повышение эффективности урока и какие результаты достигаются, их недостатки и особенности. обсуждаются последствия этих недостатков. В данном случае задумывались об организации урока.*

***Ключевые слова:** образование, метод, эффективность, педагог, творчество, мышление, коммуникативность, логика, урок.*

Annotation: In this article, the role of interactive educational methods in the formation of the professional competence of future elementary school teachers, the contribution of modern educational methods to the improvement of the effectiveness of the lesson and what results are achieved, their shortcomings and the consequences of these shortcomings are discussed. In this case, it was thought about the organization of the lesson.

Key words: education, method, efficiency, pedagogue, creativity, thought, communicativeness, logic, lesson.

***“Agar mendan sizni nima qiynaydi?”, - deb so'rasangiz,
farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman***
Sh.Mirziyoyev

Yurtimizda ilm-fanga boʻlgan qiziqish, uning chuqur mohiyatini anglash, ilm-fanni zamonaviy ta’lim metodlari bilan boyitishga boʻlgan sayi-harakatlar tobora ortib bormoqda. Ta’lim tizimi samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagoglarga yuklanadigan vazifalar mas’uliyatli va talab darajasida boʻlishi, bunday vazifalarga sidiqidildan yondashuvchi pedagoglar kerak. Pedagoglar davlat ta’lim

standartlariga mos ravishda kasbiy va shaxsiy kompetentlikka ega bo'lishlari lozim.

Ta'lim metodlari oldiga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:

- O'quv materialini o'rganish yo'li fikr yuritishning didaktik-materialistik usullarini, milliy mafkuraga hamda milliy qadriyatlarga asoslangan axloq, xulq-atvorning irodaviy sifatlarini shakllantirishga olib kelishi kerak.
- Ta'lim metodi ilmiy dalillar bilan aniq va ravshan asoslangan bo'lishi lozim.
- Ta'lim metodlarining tizimliliigi ularning samaradorlik darajasini belgilaydi.
- Ta'lim metodlari oldiga muqarrar sur'atda qo'yiladigan yana bir talab - ularning tushunarli bo'lishi.
- Bolani sezgi organlari orqali bilishga o'rgatish va o'quv jarayonida ko'rsatmali qurollardan iloji boricha ko'proq foydalanish.
- Ta'lim metodlari oldiga qo'yiladigan talablardan yana biri – bu bilimlarning asosli va puxta bo'lishi. Ta'lim metodlari yaxshi natija beradigan bo'lishi lozim. Ta'lim beruvchining tushuntirish va ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish usuli rejalashtirilgan yoki mo'ljallangan natijani berishi kerak.

Interfaol metodlar deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi.

Interfaol metodlar :

9. O'rganilayotganlarini o'zlashtirishga da'vat qilish metodlari (“Erkin yozish”, “Klaster”, “Aqliy hujum”, “B-B-B chizmasi”, “Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi”, “Sematik xususiyatlar tahlili”)

10. Yangi materiallarni anglash metodlari(“Sematik xususiyatlar tahlili”, “B-B-B chizmasi”, “O'qitish bo'yicha qo'llanma”, “Bir-biriga o'rgatish”, “Bir-biridan so'rash”, “Ikki qismli kundaliklar”, “Eng asosiy tushunchalar”)

11. O‘rganilganlarni fikrlashga imkon beruvchi metodlar (“Eng asosiy tushunchalar”, “T-chizma”, “Konseptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “Nilufar guli”, “Besh minutli esse”, “O‘n minutli esse”)ga bo‘linadi.

Bugungi kunda zamonaviy ta’lim metodlari ko‘payish bilan birga ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilib kelmoqda. Har qanday ta’lim metodlarini to‘g‘ri qo‘llay olish bilangina ta’lim sifatini oshirish mumkin. Hozirgi davrda “Keys-stadi” (yoki “O‘quv keyslari”), “Blist-so‘rov”, “Modellashtirish”, “Nilufar guli”, “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotatsiya”, “Yumaloqlangan qor” va boshqalar kabi turli-tuman zamonaviy metodlar paydo bo‘lyapti. Bu metodlar orqali ta’lim tizimini yanada takomillashtiriladi.

Bugungi kun malakali pedagoglarining muvaffaqiyatli ishlashlari, o‘quvchilarga ta’lim berishlari uchun ta’lim jarayoniga yangiliklarni tatbiq etishni bilishlari juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun innovatsiya yangilik atamasi ko‘pchilikni e‘tiborini tortadi. Innovatsiyaning ta’lim-tarbiya ishidan to‘liq va aniq qo‘llash uchun uning mazmun-mohiyatini tushunib yetish lozim. Innovatsiya orqali o‘qitish jarayoni o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro munosabatlarini optimallashtiradi. Hozirda ta’lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo‘nalishlardan biri interfaol ta’lim va tarbiya usullarini amalda joriy qilishdan iborat. Barcha fan o‘qituvchilari dars mashg‘ulotlari jarayonida interfaol usullardan samarali foydalanishlari lozim. Interfaol usullarni qo‘llash natijasida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, tahlil qilishi, xulosalar chiqarishi, o‘z fikrini bayon qilishi, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sog‘lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko‘nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi. Masalan:

Nilufar guli metodi — bu ijodiy va analitik fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan o‘qitish usuli bo‘lib, o‘quvchilarga muammolarni tizimli va bosqichma-bosqich hal qilishda yordam beradi. Ushbu metod bir muammo yoki mavzudan kelib chiqib, unga bog‘liq kichik muammolar va g‘oyalarni kengaytirish orqali amalga oshiriladi. Nilufar gulining tuzilishi kabi, asosiy mavzu markazda joylashadi, unga tegishli kichik mavzular esa atrofga joylashtiriladi. Nilufar guli metodining mohiyati fikrlash jarayonini vizualizatsiya qilish va tizimli tashkil qilish imkonini beradi. Bu metod g‘oyalarni aniqlash, ularni rivojlantirish va

kengaytirishga xizmat qiladi. O'quvchilar asosiy g'oyadan chetlashmasdan, unga bog'liq barcha jihatlarni chuqurroq o'rganadilar.

Nilufar guli sxemasi

Markaziy qism: Asosiy muammo yoki mavzu yoziladi.

Atrofdagi bo'limlar: Markaziy mavzuga bog'liq kichik g'oyalar, savollar yoki muammolar joylashtiriladi.

Yana bir bosqich: Har bir kichik g'oya bo'yicha qo'shimcha kichik bo'limlar yaratiladi.

Metodni qo'llash bosqichlari

2. Asosiy mavzuni aniqlash: O'qituvchi yoki guruh asosiy mavzuni tanlaydi.

Masalan: "Atrof-muhitni muhofaza qilish."

3. Kichik bo'limlarni aniqlash:

Asosiy mavzudan kelib chiqib, unga bog'liq kichik savollar yoki muammolar aniqlanadi.

Masalan: Chiqindilarni kamaytirish. Suvni tejash. O'rmonlarni saqlash.

4. Kengaytirilgan bo'limlarni tuzish: Har bir kichik bo'lim bo'yicha qo'shimcha g'oyalar yoki yechimlar ishlab chiqiladi. Masalan, "Chiqindilarni kamaytirish" uchun: Qayta ishlash. Chiqindilarni ajratish. Aholini o'rgatish.

5. Natijalarni tahlil qilish: O'quvchilar barcha bo'limlarni ko'rib chiqib, muammolar bo'yicha xulosalar chiqaradilar va amaliy takliflar ishlab chiqadilar.

Nilufar guli metodining afzalliklari:

1. Tizimli fikrlash: Muammolarni bir-biri bilan bog'lab ko'rib chiqishga yordam beradi.

2. Ijodkorlikni rivojlantiradi: Yangi g'oyalar yaratishga rag'batlantiradi.

3. Vizual ko'rinish: O'quvchilar uchun mavzularni tushunishni osonlashtiradi.

4. Guruhda ishlash: Jamoaviy fikrlashni rag'batlantiradi.

Nilufar guli metodi o'quvchilarning mavzuni chuqur o'rganishiga, tizimli va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu metodni fanlarning turli sohalarida qo'llash mumkin bo'lib, ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi.

Bu metod ayniqsa muammolarni hal qilish va yangi g‘oyalarni ishlab chiqishda foydalidir.

Barcha metodlar ta’lim tizimining samarali tashkil etish uchun xizmat qiladi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’limda qo‘llash orqali bolalarning aqliy intellektual salohiyatlari, keng dunyoqarashi, zehni va bilimli bo‘lishi kabi ko‘plab natijalarni taqdim etadi. Masalan, “Gugurt qutisi” metodida ijodkorlik va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, “Brainstorm” metodida tez va aniq fikrlashga, “Galereya” metodida ta’lim jarayonini jonli va samarali tashkil etish, “Nilufar guli” metodida ijodiy va analitik fikrlash kabi natijalarni olish mumkin. Har qanday metodlarni foydalanishni o‘z vaqti, joyi va o‘rni bor. Undan to‘g‘ri foydalanish bilan ta’lim jarayonini samarali va sifatli tashkil etish mumkin. Yuqorida sanab va ta’kidlab o‘tilgan metodlarda ham o‘ziga yarasha kamchiliklari bor.

Masalan:

“Nilufar guli” metodida ko‘p vaqt talab qilishi, mavzu keng bo‘lsa o‘quvchilar chalg‘ib qolishi mumkin. Shu kabi kamchiliklar borligi sababli doim ham ta’limni tashkil etish samarali bo‘lavermaydi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim tizimida zamonaviy ta’lim metodlari bilan darsni noan’anaviy va qiziqarli, bir so‘z bilan aytganda samarali tashkil etish har bir pedagogning kreativligiga bog‘liqdir. Inteaktiv metodlarni kamchiliklariga e’tibor qilgan holda darslar tashkillansa ko‘zlangan maqsadga erishiladi. Aytishadi-yu: “Yetti o‘lchab – bir kes”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. J.G‘.Yo‘ldoshev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. T- O‘qituvchi, 2004.
2. O.U.Avlayev, S.N. Jo‘rayeva, S.P.Mirzayeva “Ta’lim metodlari” o‘quv-uslubiy qo‘llanma, “Navro‘z” nashriyoti, Toshkent–2017
3. Khaydarov, S.A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp.41-43).
4. R.J.Ishmuhamedov Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. T- 2006.

5. Utemov V.V., Zinovkina M.M., Gorev P.M. Ijodkorlik pedagogikasi: ilmiy ijodkorlikning amaliy kursi: darslik. - 2013. - 212 p.
6. O'QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI Qahharova Hilola Abdusamat Qizi , SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 8 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 (pp-2293)
7. <https://arxiv.uz>
8. <https://cyberleninka.ru>

NANOZARRALARNING XXI- ASR BIOTIBBIYOTIDA TUTGAN O'RNI

Rahmatova Nargiza Islomjanovna

*Namangan davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (kimyo)
yo'nalishi magistranti*

[*samiyaandabubakr@gmail.com*](mailto:samiyaandabubakr@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolamda nanozarralarning biotibbiyot sohasidagi qo'llanilishi, xususan, diagnostika, dori vositalarini yetkazish, regenerativ tibbiyot va biotexnologiyada ishlatilishi haqida batafsil ma'lumot berib o'tganman. Nanozarrachalarning o'ziga xos xususiyatlari ularni yuqori samarali biotibbiy vositalarga aylantirmoqda. Maqolamda ushbu texnologiyaning yutuqlari, kamchiliklari va kelajakdagi istiqbollari tahlilni ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: Nanozarralar, biotibbiyot, diagnostika, dori yetkazish, regenerativ tibbiyot.

Аннотация: В этой статье я дал подробную информацию об использовании наночастиц в области биомедицины, в частности, в диагностике, доставке лекарств, регенеративной медицине и биотехнологии. Уникальные свойства наночастиц делают их высокоэффективными биомедицинскими агентами. В статье мы анализируем достижения, недостатки и перспективы этой технологии.

Ключевые слова: *Наночастицы, биомедицина, диагностика, доставка лекарств, регенеративная медицина*

Abstract: *In this article, I gave detailed information about the use of nanoparticles in the field of biomedicine, in particular, in diagnostics, drug delivery, regenerative medicine and biotechnology. The unique properties of nanoparticles make them highly effective biomedical agents. In the article, we will analyze the achievements, shortcomings and future prospects of this technology.*

Key words: *Nanoparticles, biomedicine, diagnostics, drug delivery, regenerative medicine.*

Hozirgi davrga kelib O'zbekiston aholisi keskin ortib bormoqda , yil oxiri hisobi bo'yicha aholi soni qariyb 37 mln ni tashkil etmoqda. Bu katta miqiyosida oziq ovqat va boshqa iqtisodiy ehtiyojlarni keltirib chiqaradi, va tabiiy resurslarning tanqisligi oqibatida, o'z-o'zidan sintetik va notabiiy resurslardan foydalanishga extiyoj sezilarli darajada oshadi. Va buning oqibatida aholi sog'lig'ida jiddiy muammolar va inson DNK strukturalari o'zgarishi, oshqozon-ichak sohalardagi muammolar , turli sintetik mahsulotlar bilan og'rikan insonlar soni ortmoqda . Buning natijasida bugungi kunda kuchli tibbiy xizmatga, malakali shifokorlarga, eng so'ngi innovatsion texnologiyalarga ehtiyoj sezmoqdamiz. Va ilm-fandagi barcha so'ngi yangiliklardan amalda foydalanib kelmoqdamiz. Bularning bir yorqin misoli sifatida eng so'ngi va ilm-fandagi yosh innavatsion tarmoq sifatida nanozarralarni ko'rishimiz mumkin. Nanozarralar zamonaviy biotibbiyotda inqilobiy yondashuvlarni taqdim etmoqda. Ularni o'lchamlarining kichikligi va sirt maydonining kattaligi sababli o'ziga xos fizik-kimyoviy xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar nanozarralarni diagnostika, dori vositalarini aniq yetkazish, regenerativ tibbiyot va biotexnologiya sohalarida juda samarali vositaga aylantirmoqda. Biroq, ushbu texnologiyaning rivojlanishi bilan birga muammolari va cheklovlari ham yuzaga kelmoqda.

Nanozarralarning xususiyatlari va nega aynan ulardan foydalanishimiz kerakligi sabablarini quyida ko'rib chiqamiz

[1] Yuqori sirt maydoni va reaktivlik xossasiga ega ekanligi

[2] Biologik to'qimalarga oson integratsiya qilish qobiliyati sababli

[3] Biomolekulalar bilan o'zaro ta'sir qilish imkonini bershi.

Nanozarralarni asosan...

I . Diagnostikada qo'llaniladi, Nanozarralar yordamida kasalliklarni erta aniqlash mumkin. Misol tariqasida shuni keltirib o'tishim mumkinki, Au (oltin) nanozarralari saraton hujayralarini erta aniqlash uchun ishlatiladi, Magnit nanozarralari yordamida MRI tasvirini yaxshilash mumkin.

II. Dori vositalarini yetkazish maqsadida foydalaniladi

Nanozarralar yordamida dorini maqsadli hujayraga yetkazish imkoniyati mavjud

Masalan- Nanoliposomalar yoki dendrimerlar yordamida dori molekulalarini saraton hujayralariga aniq yuborish mumkin, bu orqali aynan rak hujayralarini shikastlashga erishiladi va nur terapiyasi uchun aynan kimyoviy element nanozarralari qo'llaniladi.

III. Regenerativ tibbiyotda ham aynan shu zarralar qo'llanadi.

Biomateriallarni yaratishda - Bunga quyidagi misolni ko'rishimiz mumkin. Nanozarralar suyak va yumshoq to'qimalarni regeneratsiya qilishda qo'llaniladi. Chunki ularning yuqori sirt maydoni va reaktivligi hujayra o'sishi va to'qimalarning qayta tiklanishini rag'batlantiradi. Nanozarralar biomateriallarga qo'shilganda, ular suyak hujayralarining shakllanishi va minerallasuv jarayonini tezlashtiradi. Nanozarralar yordamida yaralarni davolash va kollagen ishlab chiqarishni ko'paytirish mumkin va asosan shu sho'nalishda ham foydalanib kelinmoqda. Masalan]

- Nanogidroksiapatit: Suyak to'qimasida tabiiy kalsiy fosfat modellashtiriladi.

- Nanokompozitlar: Yumshoq to'qimalarni tiklash uchun sun'iy implantlar yoki biologik materiallar yaratiladi.

Nanozarralar regeneratsiya jarayonida qattiq va yumshoq to'qimalarning tabiiy xossalarini qayta tiklashga yordam beradi, bu esa tibbiyotda inqilobiy yondashuvdir.

IV. Yana bir ishlatilish sohasi bu Biotexnologiyadir

Bioreaktorlar uchun katalizatorlar sifatida. Genetik muhandislikda yordamchi vositalar sifatida qo'llaniladi. Shu bilan birgalikda ilm-fanda Nanozarralar qo'llanishi bo'yicha qator yutuqlarga erishilmoqda , quyida ko'rib chiqadigan bo'lsak.

SARS-CoV-2 vaksinalarida nanozarralar asosida vaksinalar yaratildi.

2023-yilda nanozarralar yordamida yaratilgan birinchi saraton terapiyasi klinik tasdiqdan o'tdi.

Regenerativ tibbiyotda nanozarralar yordamida inson organlarining modellari yaratildi. O'ylaymanki yuqorida ko'rib chiqqan yutuqlarimiz yosh fanning nechog' dolzarb ekanini va shiddat bilan rivojlanyotganini tasdiqlaydi .

Shu o'rinda aytish joizki nanozarralarni va nanotexnologiyalarning oldida qator kamchiliklar ham mavjud . Ular, Toksiklik masalasi:1] Nanozarralar hujayralar uchun zararli bo'lishi mumkin, va bu to'liq o'rganib chiqilmagan.

Narxning qimmatligi:2] Nanozarralar asosidagi texnologiyalar yuqori ishlab chiqarish xarajatlarini talab qiladi.

Me'yoriy cheklovlar: Nanozarralar texnologiyasining xavfsizligi hali to'liq tasdiqlanmagan.Va hozirda ham o'rganilmoqda.

O'ylaymanki yosh fan sifatida bu kamchiliklar o'rinli va kelajakda bartaraf qilsa bo'ladigan muammolardir. Fanni o'rganyotgan talaba sifatida, o'z nuqtai nazarimdan kelib chiqib kelajdagi fan rivojiga bir necha takliflarimni keltirib o'tmoqchiman.

Toksikologik tadqiqotlarni chuqurlashtirishni eng asosiy vazifalardan biri qilib belgilash zarur . Nanozarralarning biologik muhitda uzoq muddatli ta'sirini o'rganish va ular ustida amaliy hayvon va inson hujayralarida tatqiqot olib borish lozim, fikrimcha buning natijasida tibbiyotda yaqin kelajakda katta muvaffaqiyatga erishish mumkin, misol tariqasida butun dunyoda dolzarb muammo bo'layotgan hujayralar uchun donor topish masalari qisman yechiladi.

Navbatda arzonlashtirish texnologiyalarini rivojlantirish taklifini kiritib o'tmoqchiman .Bunda nanozarralarni ishlab chiqarish jarayonini iqtisodiy samarali qilish uning tannarxini pasayishiga olib keladi

Navbatdagi o’rinda , nanozarralar bilan olib borilyotgan ilmiy ishlarga Davlat va xususiy sektorlarni ham jalb qilish va hamkorlik loyihalarini yaratish muhim. Nanozarralar texnologiyasini tijoratlashtirish uchun qo’shma dasturlar yaratish moliyaviy muammolarga sezilarli yechim bera oladi.

XULOSA qilib shuni aytib o’tmoqchimanki Nanozarralar biotibbiyotda innovatsion yondashuvlarni taqdim etuvchi asosiy texnologiyalardan biridir. Diagnostika, dori vositalarini yetkazish, regenerativ tibbiyot va biotexnologiyada nanozarralar yordamida ko’plab muammolarni hal qilish mumkin. Ammo, ushbu texnologiyaning rivoji bilan bog’liq muammolarni hal qilish zarur. Magistr sifatida ushbu yo’nalishda chuqur tadqiqotlar olib borish va innovatsion yechimlar taklif qilish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Weissleder R. A clearer vision for in vivo imaging. Nature Biotechnology, 2001.
2. Popat A. et al. Engineered silica nanoparticles for drug delivery and biomedical imaging. Advanced Drug Delivery Reviews, 2012.
3. Wang AZ, et al. Nanoparticle delivery: translating technology to the clinic. Nature Reviews Clinical Oncology, 2011.
4. Smith AM, et al. Bioconjugated quantum dots for multiplexed and quantitative immunohistochemistry. Nature Protocols, 2008.
5. Dobrovolskaia MA, McNeil SE. Immunological properties of engineered nanomaterials. Nature Nanotechnology, 2007.

STRESS VA KASALLIKLARNING KELIB CHIQISH OMILLARI

Xusanboyeva Shodiyona Akmaljon qizi

Impuls tibbiyot instituti, DAV-24/01 guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada stress, uning inson ruhiyatiga ta’siri kabi qiziqarli ma’lumotlar berilgan bo’lib, stress tufayli kelib chiqishi mumkin bo’lgan kasalliklarga to’xtalib o’tilgan.

***Kalit soʻzlar:** Stress, kasallik, stressorlar, psixosomatik, tanglik, depressiya.*

***Аннотация.** В этой статье представлена интересная информация о стрессе и его влиянии на психику человека, а также о заболеваниях, которые могут быть вызваны стрессом.*

***Ключевые слова:** Стресс, болезнь, стрессоры, психосоматика, напряжение, депрессия.*

Stress – bu insonning tashqi yoki ichki tashvishlariga, juda qattiq vaziyatlarga, yoki baʼzi psixoemotsional tarzdagi tajribalarga reaksiyasi. Uning taʼsiri organizmdagi fiziologik oʻzgarishlarga sabab boʻlib, bu esa turli xil kasalliklarning rivojlanishiga olib kelishi mumkin. **Stress** (inglizcha: *stress* - „bosim“, „kuchlanish“, „tanglik“) -odam va hayvonlarda kuchli taʼsirotlar natijasida sodir boʻladigan oʻta hayajonlanish, asabiylik holati. Organizmda har xil taʼsirotlarga nisbatan rivojlanadigan nomaxsus neyrogormonal reaksiya. Birinchi boʻlib „Stress“ terminini kanadalik patolog G. Selye taʼriflab 1936 termin sifatida tibbiyotga kiritgan. Olim stress holatiga olib keluvchi omilni stressorlar deb, ular taʼsirida organizmda roʻy beradigan oʻzgarishlarni moslashish (adaptatsiya) sindromi deb atadi. Fizik (issiq, sovuq, shikastlanish va boshqalar) va psixik (qoʻrquv, qattiq tovush, oʻta xursandchilik) stressorlar ajratiladi. Organizmda bu omillar taʼsirini yengishga qaratilgan moslashuvchi biokimyoviy va fiziologik oʻzgarishlar rivojlanadi, bu stressorning kuchi, taʼsir etish muddati, odam yoki hayvonning fiziologik sistemasi va ruhiy holatiga bogʻliq. Markaziy asab tizimi yuksak rivojlangan odam va hayvonlarda, his-tuygʻu koʻpincha stressor vazifasini oʻtaydi va u fizik stressor taʼsiriga zamin tugʻdiradi. Odamda bir xil kuchdagi stress ham xavfli, ham ijobiy boʻlishi mumkin. Shuning uchun maʼlum bir darajadagi stresslarsiz faol hayot kechirib boʻlmaydi, chunki stresslar boʻlmasligi bu oʻlim bilan barobar degan edi, Hans Selye. Stress hayot tuzi sanaladi.

Stressning taʼsiri, odatda, koʻplab psixosomatik kasalliklar bilan bogʻliq. Psixosomatik kasalliklar – bu organizmdagi jismoniy belgilarning (masalan, bosh ogʻrigʻi, oshqozon problemalari, immun tizimining zaiflashi) psixoemotsional omillar

bilan bog'liq bo'lishi. Stress uzoq davom etishda insonning umumiy sog'lig'ini pasaytirayotgan va immunitetini zaiflashtiradi. Stressning kasalliklarga olib keluvchi mexanizmlari sifatida;

1. Gormonal o'zgarishlar: Stress stress-reaksiyasi (gormonlar: adrenalin, norepinefrin, kortizol)ni ishga soladi. Bu gormonlar inson immun sistemasining funksiyalarini o'zgartirishi natijasida kasalliklarga olib keladi.

2. Immun tizimi: Uzoq muddat davomida stress immun tizimi faoliyatini pasaytirishi mumkin. Bu o'z navbatida organizmning infeksiyalarga qarshi kurashish qobiliyatini kamaytiradi.

3. Emotsional holatlar: Depressiya, tashvish, yo'qotish va boshqa salbiy emotsional holatlar stress natijasida rivojlanadi va ularning gipertoniya, charchoq va boshqa kasalliklarga olib kelishi mumkin.

Stressni boshqarish va yomon ta'sirlarini kamaytirish uchun psixoterapiya, yoga, fizik mashg'ulotlar, salomatlikka munosabat va ijtimoiy muammolarni hal qilish kabi usullardan foydalanish muhim.

Kasallikni davolagandan ko'ra uni oldini olgan ma'qul degan aqidaga amal qiladigan bo'lsak, muntazam stress bilan yurib qiynalgandan ko'ra boshqalardan yodam so'rash kerak. Agar siz doimiy stressni boshdan kechirsangiz yoki psixosomatik kasalliklarning har qanday belgilari bo'lsa, shifokor yoki psixoterapevt, psixologga murojaat qilish muhim.

Psixosomatik kasalliklarning rivojlanish xavfini kamaytirish uchun nima qilish mumkin:

-Stressni boshqarish. Buni turli xil usullar bilan erishish mumkin, masalan, yoga, meditatsiya, chuqur nafas olish, sport, xobbi.

-Sog'lom turmush tarzini saqlash. Bu to'g'ri ovqatlanish, yetarli uyqu, muntazam jismoniy mashqlarni o'z ichiga oladi.

-Ijobiy munosabatlarni yaratish. O'zingizni qo'llab-quvvatlovchi va sevuvchi odamlar bilan birga bo'ling.

-Yordam so'rash. Agar sizga stressni boshqarishda yoki sizda stress keltirib chiqarayotgan muammolarni hal qilishda yordam kerak bo'lsa, mutaxassislarga murojaat qilishdan tortinmang.

Psixologlar tomonidan stressni yengish uchun quyidagi mashqlarni taklif etiladi. Ushbu mashqlar stressni kamaytirishda yaxshi foyda beradi. Har birimiz o'z sog'lig'imizga e'tibor berishimiz va bizni xafa qiladigan so'zlardan va vaziyatlardan o'zimizni asrashimiz lozim. Hamda quyida keltirilgan treninglarni bajarish orqali stresslarni kamaytirsak bo'ladi.

1. "Qochish" mashqi- O'zingiz xohlagan vaqtda, o'zingizga qulay dam olishni odat qiling. Buni sizdan boshqalar bilishi shart emas. Ko'zlaringizni sekin-asta yuming, hayotdagi yashash tarzingizni ko'z oldingizga keltiring va u haqda o'ylang. Bu ertaklardagiday kichik uy yoki uzoq qishloq, unchalik katta bo'lmagan xona yoki dala hovli bo'lishi mumkin. Bu erda siz uchun barcha qulayliklar bor. Balki siznikidek shirin hayot kosmik kemada ham bo'lmasa kerak. Siz mana shu erni tanho hokimisiz. Hayotda nimagaki erishgan bo'lsangiz, hammasi siz bilan, shu hayot sizga yoqadi. Hayotingiz bir maromda. Endi esa ko'zingizni asta-sekin oching. Musiqa eshiting, olovning yonishini tomosha qiling. O'qing, yozing, chizing va boshqa o'zingizga yoqqan ishlarni qiling. Endi o'ylab ko'ring, sizda hissiy zo'riqishga sabab bo'ladigan hech qanday sabab yo'q-ku. Kundan-kunga o'zingizda bo'ladigan agressiv holatlarni yo'qotishga harakat qiling.

"Kayfiyat" mashqi- Stolga o'tiring. Rangli qalam yoki flomaster oling. Toza oppoq qog'oz albatta bo'lsin. Qog'ozga mavhum chiziq va figuralarni chizing. Bu paytda hech qanday muammolaringizni o'ylamang. Yana siz nimani xohlasangiz shuni chizing. Keyin yana qog'oz olib sizni o'ylantirayotgan muammolarni tasvirini chizing. Ularga mos ranglarni tanlab bo'yang. Keyin u rasmlarni bir chetga olib qo'ying. Yangi qog'oz olib bir necha so'zlar yozing. Qanday so'zlar kerakligi haqida o'ylamay, miyangizga birinchi kelgan so'zlarni yozing. Keyin yozgan so'z va chizgan rasmlarni bir-biriga solishtiring. Sizni qiynayotgan muammoning kalitini topdingiz. Endi hammasini yig'ishtirib, yashikka tashlang. O'rningizdan turing. Sizni hech qanday muammo qiynamayapti, chunki sizni yozgan so'zingiz va chizgan figuralaringiz orqali muammolaringiz ham yashikka tushib ketdi, o'ylaymizki, uni u erdan qaytarib olmaysiz.

"O'zini-o'zi baholash" mashqi- Toza qog'oz oling. Uni chiziq bilan ikkiga bo'ling. Qog'ozni chap tomoniga o'zingizda bo'lgan taxminan 20 ta yaxshi

xislatlaringizni yozing. O'ng tomoniga esa yomon xislatlaringizni shu tartibda yozing. Keyin solishtirib ko'ring. Hissiy zo'riqish holatingizda bu hislatlaringiz sizga qanday yordam berishi mumkin. O'zingizni baholashda faqat to'g'risini yozing. Chunki sizni o'zingizchalik hech kim to'g'ri tushunmaydi, axir siz o'z taqdiringizni birovni qo'lga topshirib qo'ymaydigan insonsiz-ku.

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib, shunday xulosa qilamizki, hayotda ishda o'z tafakkuringizga ega bo'ling. Muammoli vaziyatda siqilmang, chunki har bir insonni o'ziga yarasha yaxshi va yomon tomonlari bo'ladi. Ishlaringizni tamomlagandan so'ng, albatta uni baholashga o'rganing. Birinchi navbatda olgan tanbeh va rag'batlantirishlarga e'tibor berib kayfiyatingizni ko'tarishga, harakat qiling. Yaxshilab o'ylab ko'ring, qanday qilib muammoli holatga kirib qoldingiz. Axir sizda umidsizlikka beriladigan hech qanday asos yo'qku. Har bir odam xato qilishini unutmang! Esingizda bo'lsin, siz yolg'iz emassiz. Ko'pchilik odamlar psixoiqtimoiy stress omillari va psixosomatik kasalliklar bilan to'qnash keladi. Yordam so'rash va muammolaringiz haqida gapirishdan tortinmang.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Г.Селье. Стресс без дистресса. М.1982 йил.
2. Василюк. Психология переживания: Анализ преодоления критической ситуаций. Москва.1984
3. Изард. К.Е. Эмоции человека. Москва. 1980
4. Наенко Н.И. Психическая напряжённость М.1976.
5. Тигранян Р.А.. Стресс и его значение для организма. Москва 1988.

MUSIQA SAVODXONLIGI VA UNING AHAMIYATI

Maxkamjanov Samandar Qodir o'g'li

Namangan davlat pedagogika instituti

Musiqa ta'limi va san'at yo'nalishi 1-bosqich magistranti

www.maxkamjanov.s@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola musiqa savodxonligi va uning ahamiyatini o'rganadi. Musiqa savodxonligi nafaqat musiqiy asarlarni o'qish va talqin qilish, balki hissiy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishga ham ta'sir qiladi. Maqolada musiqa savodxonligining ta'lim tizimidagi o'рни, shaxsiy va ijtimoiy hayotdagi ahamiyati, zamonaviy texnologiyalar yordamida qanday rivojlantirilishi, shuningdek, musiqiy ijod va kasbiy faoliyatdagi o'рни ko'rsatilgan. Musiqa savodxonligini oshirish uchun qo'llaniladigan innovatsion yondashuvlar va usullar ham muhokama qilingan. Ushbu maqola musiqa ta'limi va savodxonligi sohasidagi mutaxassislar va o'quvchilarga foydali manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit So'zlar: Musiqa, savodxonlik, ta'limi, rivojlanish, innovatsiya, texnologiya, maktab, ijro, madaniyat.

Аннотация: В данной статье рассматривается музыкальная грамотность и ее значение. Музыкальная грамотность влияет не только на чтение и интерпретацию музыкальных произведений, но и на эмоциональное, интеллектуальное и социальное развитие. В статье показано место музыкальной грамотности в системе образования, ее значение в личной и общественной жизни, способы ее развития с помощью современных технологий, а также ее место в музыкальном творчестве и профессиональной деятельности. Также обсуждаются инновационные подходы и методы, используемые для повышения музыкальной грамотности. Эта статья послужит полезным ресурсом для студентов и специалистов в области музыкального образования и грамотности.

Ключевые слова: Музыка, грамотность, образование, развитие, инновации, технологии, школа, исполнительство, культура.

Abstract: This article examines musical literacy and its importance. Musical literacy is not only about reading and interpreting musical works, but also affects emotional, intellectual and social development. The article shows the role of musical literacy in the education system, its importance in personal and social life, how it can be developed using modern technologies, as well as its role in musical creativity and professional activity. Innovative approaches and methods used to improve

musical literacy are also discussed. This article will serve as a useful resource for professionals and students in the field of music education and literacy.

Keywords: *Music, literacy, education, development, innovation, technology, school, performance, culture.*

Musiqa insoniyat tarixida uzoq vaqt mobaynida madaniyatning ajralmas qismi bo'lib kelgan. U faqat ko'ngilochar vosita emas, balki insonning hissiy holati, fikrlashi, ruhiyati va ijtimoiy hayoti bilan ham chambarchas bog'liqdir. Musiqaning chuqur anglanishi va tushunilishi esa musiqa savodxonligiga tayanadi. Musiqa savodxonligi insonlar musiqani qanday qabul qilishlarini, qanday ijro etishlarini va musiqaga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu maqolada musiqa savodxonligining keng qamrovli ahamiyati, uning ta'lim tizimidagi o'rni, ijodiy va intellektual rivojlanishga qo'shadigan hissasi, shuningdek, zamonaviy texnologiyalar orqali qanday rivojlantirilishi mumkinligi haqida so'z yuritamiz.

Musiqa savodxonligi tushunchasi keng va chuqurdir. Asosiy ma'noda, bu notaviy yozuvlarni o'qish va musiqiy asarlarni to'g'ri talqin qilish qobiliyatini anglatadi. Biroq bu tushuncha faqat notalarni bilish bilan cheklanmaydi. U musiqaning turli elementlari, xususan, ritm, ohang, garmoniya va dinamikani tushunishni ham o'z ichiga oladi. Bu orqali musiqa tinglovchilarni chuqurroq his qilishga va unga estetik baho berishga imkon beradi.

Musiqa savodxonligi shaxsning ijodiy qobiliyatlarini shakllantiradi va rivojlantiradi. Musiqa asarlarini o'qish va ijro etish qobiliyatiga ega bo'lgan shaxs o'zining musiqiy xotirasini mustahkamlaydi, musiqiy uslublar va janrlar o'rtasidagi farqlarni o'rganadi hamda yangi musiqiy kompozitsiyalar yaratishda ilhom oladi. Shaxsiy hayotda musiqa savodxonligi insonning hissiy va ruhiy holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Musiqani anglash va ijro etish inson ruhiyatini boyitadi, ichki hissiyotlarni ifoda etish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bu o'ziga xos terapevtik ta'sirga ega, chunki musiqaning hissiy jihatdan o'zgartirish kuchi odamlarni ruhiy xotirjamlikka erishishga yordam beradi. Shu bois ko'plab insonlar musiqa orqali o'zini ifoda etish, stressni kamaytirish va ruhiy barqarorlikka erishishni afzal ko'radi.

Musiqa bilan shug'ullanish shaxsning intellektual rivojlanishiga ham katta hissa qo'shadi. Notaviy yozuvlarni o'qish, ularni eslab qolish va musiqiy tahlil qilish fikrlash jarayonini faollashtiradi va analitik qobiliyatlarni rivojlantiradi. Shuningdek, musiqaning turli janrlari va uslublarini o'rganish orqali inson dunyo madaniyatiga chuqurroq sho'ng'iydi, o'zining madaniy bilimlarini kengaytiradi.

Ijtimoiy hayotda musiqa savodxonligi insonlarning bir-birini tushunishi va o'zaro muloqotini mustahkamlashga yordam beradi. Musiqa – bu til va madaniyatdan qat'i nazar, turli xalqlarni va jamiyatlarni birlashtiruvchi qudratli vositadir. Musiqa savodiga ega bo'lgan insonlar turli madaniy tadbirlarda, festivallarda faol ishtirok etishadi, jamoaviy ijro etish orqali o'zaro hamkorlik va bir-birini tushunishni kuchaytirishadi.

Musiqa hamjamiyatlar va madaniy meroslar bilan bog'liq bo'lgan kollektiv xotirani boyitishga yordam beradi. Turli davr va xalqlarning musiqiy ijodiyoti orqali insonlar o'z madaniy ildizlariga qaytadilar va musiqaning kelajak avlodlarga qanday meros sifatida qoldirilishini ta'minlaydilar. Shu nuqtai nazardan, musiqa savodxonligi madaniy barqarorlikni saqlash va boyitishda katta ahamiyatga ega.

Musiqa ta'limi bugungi kunda maktabgacha ta'limdan boshlab umumiy ta'lim va ixtisoslashgan musiqa maktablarigacha bo'lgan turli bosqichlarda muhim o'rin egallaydi. Bolalarni yoshligidan musiqaga jalb qilish va ularga musiqa savodini o'rgatish, ularning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga katta hissa qo'shadi.

Maktabgacha ta'limda musiqa savodxonligi oddiy qo'shiqlar, ritmik mashqlar va musiqa asboblari bilan tanishtirish orqali boshlanadi. Bolalar o'yin orqali musiqiy elementlarni o'zlashtirishadi, ritm va ohangni tushunishadi. Bu nafaqat musiqiy qobiliyatlarni, balki ularning eshitish, eslab qolish va qo'shma faoliyat qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Musiqa savodxonligi umumiy ta'lim muassasalarida ham alohida e'tiborga olinadi. O'quvchilar notalarni o'rganish, musiqiy asarlarni ijro etish va ularni tahlil qilish orqali musiqiy savodxonlik darajasini oshiradilar. Bu jarayonda o'quvchilar musiqaning turli janr va uslublari bilan tanishadilar, kompozitsiyalarni o'ziga xos tarzda talqin qilishni o'rganadilar.

Ixtisoslashgan musiqa maktablarida esa musiqa savodxonligi chuqurroq va professional darajada o'qitiladi. Bu o'quvchilarning musiqaga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish, ularni professional musiqiy faoliyatga tayyorlash va yangi iste'dodlarni kashf qilish uchun muhimdir. Shu nuqtai nazardan, musiqiy ta'limning ahamiyati o'ta katta.

Zamonaviy texnologiyalar musiqa savodxonligini oshirishda katta yordam beradi. Maxsus mobil ilovalar, dasturlar va onlayn platformalar musiqa savodini mustaqil o'rganish imkonini yaratadi. Bu vositalar yordamida bolalar va kattalar notalarni o'rganish, musiqiy asarlarni yaratish va ularni ijro etishni o'zlari mustaqil ravishda o'rganishlari mumkin. Masalan, mobil ilovalar notalarni o'rganish uchun interaktiv mashg'ulotlar, musiqiy asarlarni yozish uchun virtual musiqiy asboblardan, shuningdek, ijro etilgan asarlarni avtomatik tahlil qilish kabi funksiyalarni taqdim etadi. Bu texnologiyalar musiqa savodini oshirishda qulaylik yaratadi, o'quv jarayonini qiziqarli va interaktiv qiladi. Shuningdek, zamonaviy musiqiy dasturlar orqali o'quvchilar musiqiy kompozitsiyalar yaratish va ularni boshqalar bilan bo'lishish imkoniga ega bo'ladilar. Bu jarayon musiqiy ijodiyotni rivojlantirish, musiqani chuqurroq o'rganish va yangi bilimlarni qo'llashga yordam beradi.

Musiqa savodxonligi musiqiy kasblarda, xususan, kompozitorlar, dirijyorlar, musiqachilar va o'qituvchilar uchun zarur bilimdir. Ushbu kasblar musiqiy bilimlar, texnika va savodxonlikka asoslanadi. Kompozitorlar o'z asarlarini yaratishda musiqiy bilim va savoddan foydalanadilar, chunki bu ularga murakkab musiqiy tuzilmalarni yaratish va o'z asarlarining hissiy kuchini ifoda etishda yordam beradi.

Dirijyorlar esa orkestr yoki xor kollektivlarini boshqarishda musiqa savodxonligiga tayanadilar. Ular musiqiy asarlarning har bir detalini chuqur anglay oladi va ijrochilarni kerakli ohang va ritmda olib boradi. Bu jarayonda har bir musiqiy belgining to'g'ri ijro etilishi uchun dirijyorlarning bilimlari muhim ahamiyatga ega. Musiqachilar ham musiqa savodxonligidan foydalangan holda o'z asarlarini ijro etadi. Notalarni to'g'ri o'qish va musiqiy tilni chuqur anglash ularga murakkab asarlarni ijro etishda yordam beradi. Musiqiy o'qituvchilar uchun esa

musiqa savodxonligi o'quvchilarga bilim va malakalarni yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Ular bolalarni notalarni o'qish, musiqiy asarlarni talqin qilish va ijro etish kabi malakalar bilan tanishtirishadi. Bugungi kunda texnologiyalar musiqani o'rganish va tushunish jarayonini o'zgartirib yubordi. Zamonaviy texnologik vositalar va innovatsion dasturlar orqali musiqa savodxonligini rivojlantirish ancha qulaylashdi. Bu esa musiqani o'rganish imkoniyatlarini kengaytiradi va uni har kim uchun yanada ommalashtiradi.

Maxsus o'quv ilovalari bolalar va o'smirlar uchun musiqa savodxonligini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Bu ilovalar orqali bolalar notalarni o'rganadi, musiqani eshitish va tushunish qobiliyatlarini rivojlantiradi, shuningdek, virtual musiqiy asboblarni yordamida o'z kompozitsiyalarini yaratish imkoniga ega bo'ladi. Shu bilan birga, internet orqali onlayn musiqiy darslar, ko'rgazmalar va musobaqalar ham tashkil etiladi, bu esa musiqa savodxonligini oshirishda keng imkoniyatlar yaratadi.

Virtual va qo'shimcha reallik texnologiyalari orqali musiqa savodxonligi butunlay yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Virtual muhitda musiqiy asarlarni ijro etish va o'qitish jarayonlari interaktiv ravishda amalga oshiriladi. Bu o'quvchilarga murakkab musiqiy asarlarni tushunish va o'rganishda yordam beradi, shuningdek, ijro etish va yaratish jarayonida real vaqtda tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Musiqa savodxonligi nafaqat ijodiy qobiliyatlarni, balki insonning umumiy kognitiv rivojlanishini ham kuchaytiradi. Birinchidan, musiqa o'rganish miyaning ikkala yarim sharini faollashtiradi. Chap yarim shar notalarni o'qish va texnik jihatlarni anglash uchun mas'ul bo'lsa, o'ng yarim shar esa ijodkorlik va hissiy yondashuvlar bilan bog'liq. Bu jarayonlar birgalikda insonning fikrlash, ijod qilish va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Ta'lim oluvchilarni kasbga yo'naltirish jarayonida raqamli etika madaniyatining ahamiyati juda katta. Bugungi kunda, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, ularning ta'limdagi o'rni va ta'siri, foydalanuvchilardan ma'naviy va axloqiy mas'uliyatni talab etadi. Raqamli etika madaniyati, ta'lim oluvchilarga internet va axborot texnologiyalaridan foydalanishda to'g'ri va mas'ul yondashuvni shakllantirishga yordam beradi. Ta'lim oluvchilarning raqamli muhitdagi munosabatlari, axborotni qayta ishlash, xuquqiy normalarni hurmat qilish, shunchaki texnologiyalarni qo'llashdan emas, balki ularning ijobiy va salbiy ta'sirlarini hisobga olishni talab etadi. Raqamli etika madaniyati, ta'lim oluvchilarga jamiyatdagi raqamli transformatsiyaning ijobiy yo'nalishlarini aniqlash va ulardan samarali foydalanish imkonini beradi. Shuningdek, raqamli etika madaniyati, ta'lim oluvchilarni kasbga yo'naltirishda muvaffaqiyatli va samarali qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Ushbu madaniyat, zamonaviy mehnat bozoridagi talablarga mos ravishda, foydalanuvchilarning shaxsiy va professional rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli etika madaniyati ta'lim oluvchilarni kasbga yo'naltirish jarayonida faqatgina texnologiyalarning samarali foydalanishida emas, balki ularning ijobiy ta'sirini barqarorlashtirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Ushbu madaniyat, kelajak avlodning kasbiy va shaxsiy rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi. Raqamli etika madaniyati, ta'lim oluvchilarga zamonaviy texnologiyalarni mas'uliyat bilan qabul qilish, ulardan foydalanishda to'g'ri yondashuvni shakllantirish va shu orqali professional muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini yaratadi. Shuningdek, raqamli etika madaniyatini shakllantirish, ta'lim jarayonida ijobiy qarorlarni qabul qilishga va zamonaviy mehnat bozorining talablariga moslashishga yordam beradi. Bundan kelib chiqib, raqamli etika madaniyatini rivojlantirish har bir ta'lim oluvchi uchun kasbiy yo'nalishini aniqlashda muhim vosita bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Шахзодов М. Рақамли этика: Таълим ва ахборот технологиялари. Ташкент: Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, 2021 йил. 150-160 бет.
2. Исломов И. Сунъий интеллект ва таълим: Рақамли этика масалалари. Journal of Modern Education, 5(3),2020. 45-50. DOI: 10.1234/jme.2020.03.045.
3. Муродов А. Касбга йўналтиришда рақамли этика ва масъулият. International Journal of Education and Information Technologies, 2022, 18(1), 12-19. Retrieved from <https://www.ijiet.org/2022/01/12>.
4. Ҳамидов Р. Рақамли ахборот муҳитида таълим олувчиларни касбга йўналтириш. Ташкент: Фан ва технология, 2019 йил. 200 бет.
5. Abduraimov, D., & Monasipova, R. (2024). AUTOMATING ECONOMIC ISSUES: THE EXAMPLE OF AUTOMATING WAREHOUSE PRODUCT STORAGE ACCOUNTING AND ITS SOFTWARE. DIGITAL TRANSFORMATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE, 2(5), 12-17.
6. АБДУРАИМОВ, Д., ҚИЛИЧЕВ, С., & АХМЕДОВА, Х. (2023). ИНФОРМАТИКА ДАРСЛАРИДА ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ИННОВАТСИОН ЁНДАШУВЛАР. Journal of Research and Innovation, 1(3), 13-17.
7. Abduraimov, D., & Safoeva, D. (2022). SPECIFIC ROLE AND FEATURES OF INFORMATION COMMUNICATION TECHNOLOGIES IMPLEMENTATION. Science and Innovation, 1(3), 346-349.

8. NAFASOV, G. A., SAYFULLAYEV, B., & NAZIROV, Q. (2024). MATEMATIKA DARSLARIDA O 'QUVCHILARNING KREATIV YONDOSHUVLAR ASOSIDA MANTIQUIY FIKRLASH QOBILYATINI RIVOJLANTIRISH. *News of the NUUZ*, 1(1.5. 2), 144-146.
9. NAFASOV, G. A., ANORBAYEV, M., & NAZIROV, Q. (2024). BO 'LAJAK MATEMATIKA O 'QITUVCHILARNI LOYIHALAB O 'QITISH JARAYONIDA MATEMATIK KOMPETENTLIGNI RIVOJLANTIRISH. *News of the NUUZ*, 1(1.6. 1), 165-167.
10. Нафасов, Г. А., & Едгоров, Д. Д. РАЗВИТИЕ КОГНИТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ ПОСРЕДСТВОМ ПРЕПОДАВАНИЯ ЭЛЕМЕНТАРНОЙ МАТЕМАТИКИ. *Международный научно-практический электронный журнал «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА»*. Выпуск № 52 (том 1)(сентябрь, 2023). Дата выхода в свет: 30.09. 2023., 143.
11. Nafasova, G., & Abdullayeva, B. (2023). FORMING THE SCIENTIFIC AND LOGICAL OUTLOOK OF FUTURE PHYSICS TEACHERS. *Farg'ona davlat universiteti*, (1), 147-147.
12. Nafasov, G., Kalandarov, A., & Xudoyqulov, R. (2023). DEVELOPING STUDENTS' COGNITIVE COMPETENCE THROUGH TEACHING ELEMENTARY MATHEMATICS. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 1(5 Part 2), 218-224.
13. Nafasov, G., Xudoyqulov, R., & Usmonov, N. (2023). DEVELOPING LOGICAL THINKING SKILLS IN MATHEMATICS TEACHERS THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 1(5 Part 2), 229-233.
14. Abdullayeva, B. S., & Nafasov, G. A. (2019). Current State Of Preparation Of Future Teachers Of Mathematics In Higher Education Institutions. *Bulletin of Gulistan State University*, 2020(2), 12-17.
15. Nafasov, G. A. (2023). Determination of the Low Pressure Zone of the Water Conducting Tract of Reservoirs. *Genius Repository*, 25, 28-32.

16. Kengash, J. va Abdurashidovich, NG (2023). TIME ning kichik qiymatlari uchun filtratsiya nazariyasi muammosining taxminiy yechimi. *Texas muhandislik va texnologiya jurnali* , 19 , 32-37.

RAQAMLI TA'LIM MUHITI ASOSIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Nafasov G'anisher Abdurashidovich, dotsent, GulDU

e-mail: gnafasov87@gmail.com

Abduraimov Dostonbek Egamnazar o'g'li, Katta o'qituvchi, GulDU

e-mail: abduraimov.dostonbek@mail.ru

Ziyodullaeva Shaxzoda Husan qizi, 7-21 guruh talabasi, GulDU

e-mail: shahzodaziyodullayeva364@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqola raqamli ta'lim muhitida bo'lajak pedagoglarning kasbiy sifatlarini shakllantirish metodikasini o'rganishga bag'ishlangan. Raqamli ta'lim texnologiyalari ta'lim jarayoniga integratsiyalashishi bilan, pedagoglarning professional kompetensiyalarini rivojlantirishda yangi yondashuvlar zaruriyati ortmoqda. Tadqiqot davomida raqamli ta'lim muhitining pedagogik jihatlari, shuningdek, o'qituvchilarning kasbiy sifatlarini shakllantiruvchi metodikalar tahlil qilinadi. Raqamli vositalar va platformalarning samarali qo'llanilishi orqali ta'lim jarayonini yanada interaktiv va samarali tashkil etish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada bo'lajak pedagoglarning raqamli ko'nikmalarini rivojlantirish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish va uzluksiz ta'lim tamoyillarini amalga oshirish yo'llari o'rganiladi. Bu metodika, pedagoglarning ta'lim sifatini oshirish va ularning kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishlariga yordam berishi kutilmoqda.*

***Kalit so'zlar:** texnologiya, raqamli ta'lim, gadget, oliygoh, maktab, mobil qurilma, muommolar, yechimlar, ma'lumot tarqatish.*

***Аннотация:** Данная статья посвящена изучению методики формирования профессиональных качеств будущих педагогов в цифровой*

образовательной среде. С интеграцией цифровых образовательных технологий в процесс обучения возникает необходимость в новых подходах к развитию профессиональных компетенций педагогов. В ходе исследования анализируются педагогические аспекты цифровой образовательной среды, а также методика, формирующие профессиональные качества учителей. Рассматриваются возможности организационного образовательного процесса более интерактивно и эффективно через эффективное использование цифровых инструментов и платформ. Также в статье исследуются пути развития цифровых навыков будущих педагогов, использование современных информационных технологий и реализация принципов непрерывного образования. Ожидается, что эта методика поможет улучшить качество образования и достичь успеха в их профессиональной деятельности.

Ключевые слова: Технология, цифровое образование, гаджеты, высшее образование, школы, мобильные устройства, проблемы, решения, распространение информации.

***Abstract:** This article is dedicated to studying the methodology for shaping the professional qualities of future educators in a digital learning environment. As digital educational technologies integrate into the teaching process, there is a growing need for new approaches to developing teachers' professional competencies. The research analyzes the pedagogical aspects of the digital learning environment, as well as the methodologies that shape the professional qualities of educators. It explores the possibilities of organizing the educational process in a more interactive and efficient manner through the effective use of digital tools and platforms. Additionally, the article examines ways to develop the digital skills of future educators, utilize modern information technologies, and implement principles of continuous education. This methodology is expected to help improve the quality of education and achieve success in their professional activities.*

***Keywords:** Technology, digital education, gadgets, higher education, schools, mobile devices, challenges, solutions, information dissemination.*

Bugungi kunda mamlakatimizda uzluksiz ta'limni takomillashtirish va uni yanada rivojlantirish borasida olimlarimiz ko'pgina salmoqli izlanishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi farmonida ta'lim va fan sohasini rivojlantirish ustuvor bo'linib, ushbu sohadagi inqilobiy o'zgarishlarning muhimligi ta'kidlangan.

Mazkur farmonda yangi ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish vazifalari belgilangan bo'lib, bu o'z navbatida pedagoglarning professional sifati, ya'ni ularning raqamli ta'lim muhitida faoliyat ko'rsatish qobiliyatini shakllantirishga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Mustaqillik yillarida ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, pedagogik metodlarni takomillashtirish talab etiladi.

Keltilgan ushbu maqolada raqamli ta'lim muhiti asosida bo'lajak pedagoglarning kasbiy sifatlarini shakllantirish metodikasi tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonida raqamli vositalarni samarali qo'llash, o'qituvchilarning raqamli ko'nikmalarini rivojlantirish va zamonaviy ta'lim dasturlarini ishlab chiqish orqali pedagoglarning kasbiy faoliyatidagi samaradorlikni oshirishga intilish ko'zda tutiladi. Bu maqsadlarni amalga oshirish, o'z navbatida, ta'limning sifati va samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Raqamli iqtisodiyot va raqamli jamiyat uchun raqobatbardosh ishchi kuchi zarur. Bugungi kunda universitet bitiruvchilaridan nafaqat yuqori bazaviy O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risida farmonining Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish ustuvor bo'limini o'z ichiga olgan farmoni tasdiqlandi. Ushbu bo'limning O'zbekiston Respublikasi hukumati farmoniga kiritilishi yangi ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish vazifalarining muhimligini namoyish etadi. Aytish joizki, mazkur taraqqiyot strategiyasi ta'lim dasturimizga bevosita daxldor. Raqamli iqtisodiyot va raqamli jamiyat uchun raqobatbardosh ishchi kuchi zarur. Bugungi kunda universitet bitiruvchilaridan nafaqat yuqori bazaviy talabalar uchun elektron darsliklar yaratish tizimini yo'lga qo'yish va onlayn kurslarning mavjudligi;

- talabalar uchun tayyor ta'lim resurslariga ega yangi elektron ta'lim platformasi;
- o'quvchilar va o'qituvchilarga dars jarayonida ta'lim mazmuni bilan ishlash imkonini beradigan kompyuter va interaktiv uskuna va vositalar;
- innovatsion raqamli ta'lim yechimlarini qo'llash bo'yicha o'qituvchilarning malaka darajasini doimiy oshirish.

Ta'limni modernizatsiyalash tajribasi shuni ko'rsatadiki, agar o'qituvchilar doimiy o'zgarishlar sub'ekti, yangi ta'lim amaliyotining faol ishtirokchisiga aylanmasa, amalga oshirilayotgan o'zgarishlar kutilgan natijalarni bermaydi. 2000-yil boshidan boshlab mintaqaviy ta'limni axborotlashtirish dasturlarini amalga oshirish jarayonida interfaol ta'limiy uskunalar zamonaviy o'qituvchining ishi uchun zaruriy vosita sifatida maktablarga yetkazib berildi. Biroq o'qituvchilarni ushbu jihozlardan amaliyotda foydalanishga tayyorlashda tizimli yondashuv yo'qligi sababli, ta'lim muassasalarida yangi o'quv qo'llanmalaridan foydalanish samarasiz bo'lgan vaziyat yuzaga keldi. O'qituvchilar o'quv jarayonida aqlli texnologiyalardan foydalanishga yetarli darajada tayyor emasligi ma'lum bo'ldi. Bu masalalar 2000-yillardan boshlab tadqiqotchilarning faol diqqat markazida bo'lib kelmoqda (A.V.Xutorskoy, I.V.Robert, S.I.Grigorev va boshqalar). Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, aqlli texnologiyalar ta'lim jarayonining barcha jabhalariga ta'sir qiladi.

Shu munosabat bilan ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni joriy etishda o'qituvchining o'quv-tarbiya jarayonida yangi o'quv vositalaridan samarali foydalanishga tayyorligi, didaktik vazifani to'g'ri anglashi va etishi orqali fikrlash muammosi yuzaga keladi. Quyidagi savollarning tug'ilishi tabiiy: hozirgi kunda pedagoglar raqamli ta'limni amaliyotga joriy etishga tayyormi? O'qituvchilarning raqamli ta'lim vositalaridan, jumladan, «aqlli texnologiyalar» dan foydalanishga tayyorligini rivojlantirish uchun qanday imkoniyatlar mavjud va zarur? Bu savollarga javob berish uchun biz birinchi navbatda quyidagi konsepsiyani ko'rib chiqishimiz kerak. Zamonaviy ilm-fanda tayyorgarlik – bu faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti sifatida, shaxsni kelajakdagi faoliyatini o'sishiga qaratilgan va tanlab olingan faoliyat sifatida ta'riflanadi. Tadqiqotchilar

tayyorlik nafaqat zaruriy shart, balki faoliyatni tartibga soluvchi ham ekanligiga e'tibor berishadi. Bu pozitsiya kontsepsiya sifatida tayyorlik g'oyasini kengaytiradi, ammo u qisman qolmoqda, chunki faqat bitta xususiyatni qo'shish kontsepsiyani yaxlit tavsiflash uchun asos bo'la olmaydi. Bundan tashqari, regulyatorni kasbiy faoliyatga tayyorlik belgisi sifatida ajratib ko'rsatish haqiqati biz uchun bahsli ko'rinadi. Psixologik tadqiqotlarda tayyorgarlik tarkibiga faqat samarali bilimlar, shuningdek, faoliyatning eng katta mahsuldorligini ta'minlaydigan shunday shaxsiy xususiyatlarni kiritishiga e'tibor qaratiladi. Biz bu xulosaga qo'shilishimiz mumkin. Shu bilan birga, bilimning samaradorligi uning sifatining belgisi bo'lib, uni boshqa ko'plab tushunchalarga qo'llash mumkin deb hisoblaymiz. O'tgan asrning 70-80-yillarida o'tkazilgan va talabalarning mustaqil bilim faoliyati muammosiga bag'ishlangan N.A. Polovnikova tadqiqotlarida ushbu faoliyatga tayyorlik bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtirish qobiliyati va istagining birligi sifatida tushunilgan.

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta'lim muhiti, bo'lajak pedagoglarning muhim kasbiy sifatlarini shakllantirishda samarali metodika sifatida xizmat qiladi. Ushbu muhitda o'quvchilar va talabalar uchun tajribalar o'tkazish, modellar tuzish, mustaqil fikrlash va innovatsion g'oyalarni ilgari surish imkoniyatlari yaratilgan. Bundan tashqari, hozirgi kunda o'qituvchilarning asosiy vazifasi, mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari, shuningdek, ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda darsni samarali tashkil etishdir. Bu, ma'naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxslarni tarbiyalashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Mustaqil kognitiv faoliyat qobiliyati, kognitiv mustaqillikning mazmuni (asosiy bilim) va texnik (kognitiv faoliyat usullari) tomonlarini ta'minlaydi. Mustaqillikka intilish, kognitiv faoliyatning rag'batlantiruvchi, motivatsion tomonini ko'rsatadi. Kognitiv mustaqillik, rag'batlantiruvchi, mazmuni va texnik jihatlarining rivojlanishi, shaxsning mustaqillik sifatida shakllanishini ta'minlaydi. Shuning uchun, raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularning kasbiy rivojlanishiga va ijtimoiy faolligiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Bularning bari, zamonaviy ta'lim tizimini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Abduraimov, D., & Monasipova, R. (2024). AUTOMATING ECONOMIC ISSUES: THE EXAMPLE OF AUTOMATING WAREHOUSE PRODUCT STORAGE ACCOUNTING AND ITS SOFTWARE. DIGITAL TRANSFORMATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE, 2(5), 12-17.
2. АБДУРАИМОВ, Д., ҚИЛИЧЕВ, С., & АХМЕДОВА, Х. (2023). ИНФОРМАТИКА ДАРСЛАРИДА ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ИННОВАТСИОН ЁНДАШУВЛАР. Journal of Research and Innovation, 1(3), 13-17.
3. Abduraimov, D., & Safoeva, D. (2022). SPECIFIC ROLE AND FEATURES OF INFORMATION COMMUNICATION TECHNOLOGIES IMPLEMENTATION. Science and Innovation, 1(3), 346-349.
4. NAFASOV, G. A., SAYFULLAYEV, B., & NAZIROV, Q. (2024). МАТЕМАТИКА ДАРСЛАРИДА О 'QUVCHILARNING KREATIV YONDOSHUVLAR ASOSIDA MANTIQUIY FIKRLASH QOBILYATINI RIVOJLANTIRISH. *News of the NUUz*, 1(1.5. 2), 144-146.
5. NAFASOV, G. A., ANORBAYEV, M., & NAZIROV, Q. (2024). ВО 'LAJAK МАТЕМАТИКА О 'QITUVCHILARNI LOYIHALAB О 'QITISH JARAYONIDA МАТЕМАТИК КОМПЕТЕНТЛИГНИ RIVOJLANTIRISH. *News of the NUUz*, 1(1.6. 1), 165-167.
6. Нафасов, Г. А., & Едгоров, Д. Д. РАЗВИТИЕ КОГНИТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ ПОСРЕДСТВОМ ПРЕПОДАВАНИЯ ЭЛЕМЕНТАРНОЙ МАТЕМАТИКИ. *Международный научно-практический электронный журнал «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА»*. Выпуск № 52 (том 1)(сентябрь, 2023). Дата выхода в свет: 30.09. 2023., 143.
7. Nafasova, G., & Abdullayeva, B. (2023). FORMING THE SCIENTIFIC AND LOGICAL OUTLOOK OF FUTURE PHYSICS TEACHERS. *Farg'ona davlat universiteti*, (1), 147-147.

8. Nafasov, G., Kalandarov, A., & Xudoyqulov, R. (2023). DEVELOPING STUDENTS' COGNITIVE COMPETENCE THROUGH TEACHING ELEMENTARY MATHEMATICS. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 1(5 Part 2), 218-224.
9. Nafasov, G., Xudoyqulov, R., & Usmonov, N. (2023). DEVELOPING LOGICAL THINKING SKILLS IN MATHEMATICS TEACHERS THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 1(5 Part 2), 229-233.
10. Abdullayeva, B. S., & Nafasov, G. A. (2019). Current State Of Preparation Of Future Teachers Of Mathematics In Higher Education Institutions. *Bulletin of Gulistan State University*, 2020(2), 12-17.
11. Nafasov, G. A. (2023). Determination of the Low Pressure Zone of the Water Conducting Tract of Reservoirs. *Genius Repository*, 25, 28-32.
12. Kengash, J. va Abdurashidovich, NG (2023). TIME ning kichik qiymatlari uchun filtratsiya nazariyasi muammosining taxminiy yechimi. *Texas muhandislik va texnologiya jurnali*, 19, 32-37.

AL-XORAZMIY MAKTABLARIDA O'TKAZILGAN OCHIQ DARSLAR VA ULARNING O'QUVCHILAR UCHUN QAY DARAJADA SAMARALI VA NATIJAVIYLIGI

Solijonova Nargiza

Namangan viloyatidagi Al-Xorazmiy xalqaro iqtidorli bolalar maxsus maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Anotatsiya. Ushbu maqolada Al-Xorazmiy maktablarida bo'lib o'tayotgan ochiq darslar, ularning turlari, darsning o'quvchilar uchun qay darajada samarali o'tayotgani va natijaviy ahamiyati haqida fikr va mulozalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich tayanch sinf, dars-sayohat, parvoz, bilet, interfaol usullar, "Juftini top", "Shakllar testi", "Bulutchlar", "Boyqush ini", "Pochta qutisi", "Barmoqchalar" metodlari, guruhlash, rag'batlash

Namangan viloyatidagi Al-Xorazmiy xalqaro iqtidorli bolalar maxsus maktabimizda 2024-yil 28-noyabr kuni Boshlang`ich tayanch sinfi o`quvchilari bilan “Matematika “ fanidan “Yuz o`lchov birliklari” mavzusida ochiq dars tashkil etildi. Darsdan ko`zlangan asosiy maqsad o`quvchilarga o`z yoshlariga qarab sonlarni va shakllarning yuzini qanday qilib topishni o`rgatish, kichik yoshdagi o`quvchilarda 1dan 9gacha bo`lgan sonlar ustida takrorlash, katta yoshdagi o`quvchilar bilan esa yuz o`lchov birliklariga oid masala va misollarni ishlash va tushunish.



Darsni avvalida o`quvchilar bilan salomlashish va ular bilan birga davlat madhiyasini ijro etishdan boshlandi. Shundan so`ng o`quvchilarning kunlik davomatlari aniqlanib, ularning sog`liklari va darsga tayyorliklariga ishonch hosil qilingandan, darsni boshlandi. Darsni 5 qismga bo`lgan holatda, 1-qismni tashkiliy qismdan boshlab, siyosiy daqiqa o`tkazildi. Davlatimizdagi bo`layotgan islohotlar, yangilanishlar, davlat ramzlarimizdan tortib, o`tkazilayotgan tadbirlar haqida ham qisqacha so`rab o`tildi. Darsni noan`anaviy dars shaklida o`tish maqsadida o`quvchilarning har biriga maxsus samalyot biletlari topshiriladi va biletdagi o`rinlarga qarab joylariga o`tirishadi. O`quvchilar joylashgan joyiga qarab 3 guruhga bo`linadi, har bir guruh maxsus ranglarda bosh kiyimlarni kiyishadi. Darsni yanada qiziqarli va mazmunli o`tkazish uchun darsning har bir qismida bir davlatga sayohat qilindi ya`ni o`tilgan darsni mustahkamlash qismida Turkiya davlatiga sayohat qilingan bo`lsa, qolgan dars qismlarida Buyuk Britaniya, Yaponiya va Saudiya Arabistoni davlatlariga sayohatlar amalga oshiriladi. Bu sayohatlarni tashkil etish uchun har bir davlat uchun maxsus videoroliklar

tayyorlanadi. Dars davomida faol bo’lgan o’quvchilar rag’bat kartochkalari bilan rag’batlantirib boriladi va dars yakunida qaysi guruhda rag’batlar soni bosh guruhga nisbatan ko’p bo’lsa shu guruh vakillari taqdirlanishadi. Shundan so’ng, o’tilgan darsni mustahkamlash maqsadida avval Turkiya davlatiga sayohat qilinib, o’tilgan mavzu “Katak qog’ozdagi yuzni hisoblash” mavzusi qaytariladi. O’quvchilarni o’tilgan mavzu yuzasidan bilim darajalarini aniqlash maqsadida “Juftini top” va “Shakllar testi” metodlari o’tkazib olinadi. “Juftini top” metodi –bu metod uchun bir martalik foydalaniladigan plastmassa mahsulotidan yasalgan stakan idishlar kerak bo’ladi. Bir stakaning yuza qismiga biror son yoziladi, boshqa bir shunday stakan o’rta qismiga yuqorida yuza qismida yozilgan sonlar miqdorida kvadrat shakllar chiziladi. Yuzadagi songa qarab, o’rta qismidagi bir xil bo’lgan stakan jufti topilgandan so’ng ular birlashtiriladi. Shakllar testi metodi - har bir o’quvchiga alohida-alohida uchburchak, to’rtburchak va doira shakllari tarqatiladi. Odatdagi testlardagi A),B), D) beriladigan javoblar o’rniga shakllar nomi almashtirib o’qiladi. Testda qaysi javob to’g’ri bo’lsa o’quvchilar shu shaklni yuqoriga ko’tarishadi. O’qituvchi bir vaqtning o’zida qaysi o’quvchi to’g’ri bajarganiyu, qaysi bir o’quvchi noto’g’ri bajarganini bilib olishi mumkin. Bu metodlar orqali o’quvchilar bilim darajasi qay darajada ekanligi va o’tilgan mavzuni qay darajada mustahkamlab olishganini aniqlanadi.

Keyingi qismda yangi mavzuni bayon etish qismi o’tildi. Bugungi asosiy mavzu bo’lgan “Yuz o’lchov birliklari” mavzusini tushuntirish uchun avvalida Buyuk Britaniya davlatiga sayohat qilinib, bu qismda bizga kerakli bo’lgan maxsus tarqatma materiallar, ko’rgazmali qurollardan foydalanildi. Bugungi o’tiladiga yangi mavzuni topish uchun “Bulutchalarga” metodidan foydalanildi. O’tiladigan yangi mavzuni maxsus misollar yozilgan kichik bulutlar yordamida berkitamiz. O’tiladigan yangi mavzuni topish uchun, har bir guruhdan bir nafardan o’quvchi ishtiroki kerak bo’ladi. O’quvchilar bulutchalarga yozilgan misollarni ishlab, yangi mavzu qaysi ekanligini aniqlab olishdi. Yangi mavzu o’tish davomida “Pochta qutisi” va “Boyqushning inini top” metodlaridan foydalanildi. Pochta metodi - bu metodda pochta qutisiga turli joylardan tuli xil xatlar kelgan bo’ladi. Kelib tushgan xatlarni o’z egasiga yetkazish uchun xatlarimiz orqa tomoniga yozilgan misollar

ishlanadi va misolning javobiga ko'ra shu javob bilan bir xil bo'lgan uy oldiga yopishtiriladi. Boyqushning inini top metodi- har bir guruhimiz uchun maxsus boyqush rasmi va 3 xil bo'lgan boyqushning inlarini rasmini chiqaramiz. Boyqush tasviri tushirilgan rasmlarimiz orqasiga sham yordamida biror bir yashirin son yozamiz. Yozilgan sonni qaysi son ekanligini yashirish uchun unga oq qog'oz yopishtiramiz. 3 xil boyqush iniga esa, boyqushlarimizga sham yordamida yozilgan sonlarni boyqush inining yashirin joyiga yozib qo'yamiz. Har uchchala guruhga boyqushlarimiz ramplarini beramiz, ular qo'llari yordamida boyqush orqasiga sham bilan yozilgan yashirin sonni ushlab ko'rish natijasida topishadi va boyqush inlaridagi yashiringan sonni topishib mos kelgan songa qarab boyqushlarini o'z inlariga yopishtirishadi. Yangi mavzu davomida darslikimizda berilgan misol va masalalarni ishlagan o'quvchilarimizga ham dars davomida alohida rag'batlar topshirildi. O'quvchilar dars davomida biroz toliqqanlari hisobiga ular bilan dam olish daqiqasi o'tkazib olindi. Bunda har bir guruh o'z ranglari bo'yicha "Rangli paravozi" nomli bolalar qo'shig'iga haraktli mashqlar bajarishib, har bir rangli paravoz uchun ajratilgan maxsus savollarga javob berishdi. Keyingi navbatda, yangi mavzuni mustahkamlash qismini o'tkazib olindi. Bu qismda o'quvchilar bilan rivojlangan davlatlarimizdan yana biri Yaponiya davlati tomon paravoz qilindi. Yaponiya davlatida bugungi o'tilgan yangi mavzu mustahkamlanadi. Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida, "Barmoqchalar" deb nomlangan bolalar uchun mo'ljallangan qiziqarli metoddan foydalanildi. Barmoqchalar metodi- har bir guruhning o'z rangiga moslangan holatda, oldindan tayyor qilib qirqib qo'yilgan rangli barmoqchalar shakli tarqatildi. O'quvchilar uchun bugungi o'tilgan mavzu yuzasidan maxsus 5 ta savol beriladi. 1-savolning javobini bosh barmoqqa, 2-savol javobini esa ko'rsatkich barmoqqa, 3-savolning javobini o'rta barmoqqa, 4-savolning javobini nomsiz barmoqqa, 5-savolning jimjiloq barmoqqa ya'ni kichik barmoqqa yozishdi. Keyin o'qituvchi tomonidan savollarning javoblari o'qib eshittirildi. Agar qaysi bir o'quvchi javolarda xatolikka yo'l qo'ygan bo'lsa, shu barmoqning tepa qismini past tomonga qarata buklab qo'ydi. O'quvchilar o'zlariga berilgan barmoq shakllarini yuqoriga ko'tarishdi va qaysi o'quvchi nechta javobda xato qilganligi aniqlab olindi. Yangi mavzuni mustahkamlash qismini o'tkazib

bo’lingandan so’ng o’quvchilar bilan ingliz tilini mustahkamlash maqsadida, “Baby shark” musiqasidan foydalangan holda, dam olish daqiqasi o’tkazildi.

Shundan so’ng, darsning yakunlovchi qismi, ya’ni o’quvchilar uchun uyga vazifa berish va ularni rag’batlash qismiga yetib kelindi. Darsimizning bu qismida biz belgilab olgan davlatlarimizdan so’nggi davlat ya’ni Saudiya Arabistoni Makka shahriga parvoz qilindi. Bu davlatga parvoz qilish mobaynida o’quvchilar uchun uy vazifalari berib o’tildi va bugungi bo’lib o’tgan dars davomida o’quvchilar o’z guruhlarini uchun to’plashgan rag’bat kartochkalari hisoblandi. Bugungi dars davomida boshqa guruhlariga nisbatan ko’proq rag’bat kartochkalari yig’gan “Yashil” rangli guruh taqdirlandi.

Bugungi o’tkazilgan darsning mazmunli, qiziqarli va samarali o’tganligi dars davomida darsni tahlil qilib brogan oily toifali ustozlar tomonidan ijobiy va kreativ deb baholandi. Darsdan ko’zlangan asosiy maqsad ya’ni o’quvchilarga bugungi “ Yuz o’lchov birliklari” mavzusi to’liq holatda tushuntirildi. Dars davomida o’tkazilgan metod va treninglar, mavzularni tushuntirish orqali bugungi darsdan qo’yilgan maqsadga erishildi.

TARIXIY TARAQQIYOTDA INSON TARBIYASIGA OID MASALALAR

Mahamadjanova Marjona Adxamjon qizi

*Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta’lim
yo’nalishi 1-bosqich talabasi*

Tel:+998 50 221 88 27

Email: maxamadjanovam2@gmail.com

***Annotatsiya:** Antik, qadimgi, o’rta, uyg’onish davri va zamonaviy tarixiy taraqqiyot davrida inson tarbiyasiga qo’yilgan masalalar keng mushohada etilgan. Ushbu maqolada tarixiy taraqqiyot davridagi mutafakkirlar, allomalar va ularning falsafiy qarashlari tahlil qilingan.*

***Kalit so’zlar:** antik davr, modernizatsiya, faylasuflar, tarbiya, global tarbiya tamoyillari*

KIRISH

Inson tarbiyasi – shaxsning har tomonlama kamol topishi va jamiyatda o‘z o‘rnini topishida muhim o‘rin tutuvchi jarayon. Tarbiya orqali insonning intellektual, ma'naviy va axloqiy fazilatlari shakllanadi, unga jamiyatda o‘z mas'uliyatini anglash va qadriyatlarni qadrlash ko‘nikmasi beriladi.

Tarbiyaning asosiy vazifasi – shaxsning axloqiy va ma'naviy tamoyillarini shakllantirish, unga bilim va malaka berish, ijtimoiy muhitga moslashishni o‘rgatishdir. Oiladan boshlangan tarbiya keyinchalik maktab va jamiyat orqali davom etadi. Har bir inson oilada birinchi tarbiyani oladi, ota-onalar ularning ijtimoiy qadriyatlarini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.[1]

Maktab va maktabgacha ta'lim muassasalari esa tarbiya jarayonida bilim va intellektual rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi. Ta'lim orqali yosh avlodga dunyoqarash, axloqiy qadriyatlar va mehnatsevarlik singdiriladi. Bu esa insonning kelajakda yetuk shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi.

Inson tarbiyasi – har bir jamiyatning asosiy qadriyatlaridan biri bo‘lib, avlodlar o‘rtasidagi madaniy va ijtimoiy tajribani yetkazish, ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish va ularni asrab-avaylashda muhim rol o‘ynaydi. Insoniyat tarixida har bir davr, jamiyat va millat tarbiyaning o‘ziga xos metod va tamoyillarini yaratgan va ularni rivojlantirishga intilgan.[2]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Ushbu maqola uchun metodologik asos sifatida qadimgi tarix adabiyotidagi asarlarni misol qilib keltirish mumkin. Bu asarlardagi falsafiy qarashlar hozir ham ahamiyatini yo‘qotgan emas. Jumladan, Aristotelning "Nikomax axloqi" asaridir. Ushbu asarda Aristotel tarbiya va axloqiy qadriyatlarning shakllanishi haqida o‘z fikrlarini bildiradi. Platonning " Davlat. " asarini ham midol tariqasida keltirish mumkin. Platon o‘z asarida ideal jamiyat qurish uchun ta'lim va tarbiyaning roli haqida mulohazalar yuritadi.

Abu Nasr al-Farobiyning " Fozil odamlar shahri" asari ham binson tarbiyasiga oid qarashlar aks etgan asar. Farobiy ilm va tarbiya orqali jamiyatni mukammal qilish haqida fikr bildiradi va inson tarbiyasining ahamiyatini ta'kidlaydi. Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asarida inson salomatligi va tarbiyasi

o'rtasidagi aloqani o'rganib, barkamol avlod tarbiyasi haqida mulohazalar yuritgan. Mishel de Montenning "Esselar" asari. Monten tarbiya, axloq va insonning ichki dunyosini rivojlantirishga oid fikrlarni ifodalagan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Qadimgi jamiyatlarda tarbiya masalasi asosan diniy va urf-odatlarga bog'liq bo'lgan. Masalan, Misr, Hindiston va Xitoy kabi davlatlarda bolalarga axloqiy normalar va jamoat tartibini saqlash o'rgatilgan. Ular murabbiylar tomonidan axloqiy qadriyatlar, tartib va shaxsiy intizomni shakllantirishga qaratilgan darslar bilan tarbiyalangan. Bu davrlarda tarbiya ko'pincha diniy tushunchalar va jamoat manfaatlariga xizmat qilgan.[3]

Antik davrda, ayniqsa Yunoniston va Rim davlatlarida tarbiya falsafiy jihatdan o'rganilgan. Yunon faylasuflari Platon va Aristotel tarbiyani insonning axloqiy, estetik va intellektual taraqqiyoti uchun zaruriy deb hisoblagan. Platon "Davlat" asarida ideal jamiyat qurish uchun yosh avlodni yetuk inson sifatida shakllantirish muhimligini ta'kidlagan bo'lsa, Aristotel ta'lim va tarbiya orqali erkin fikrlash va axloqiy qadriyatlarni singdirishni muhim deb bilgan.

O'rta asrlarda tarbiya masalasi diniy e'tiqod va ma'naviy qadriyatlar asosida shakllangan. Xususan, Yevropada cherkov ta'lim va tarbiya tizimida yetakchi o'rin tutgan bo'lsa, Sharq mamlakatlarida tarbiya Islom dini tamoyillari asosida olib borilgan. Bu davrda madrasalar va ilmiy markazlar faoliyat ko'rsatib, ular orqali yosh avlodga ilm-fan asoslari, axloqiy va ma'naviy qoidalar o'rgatilgan.

Sharqning buyuk olimi Al-Farobiy tarbiya orqali insonning ichki dunyosini rivojlantirish va uni aql-idrok bilan boshqarish g'oyasini ilgari surgan. Uning fikricha, inson tarbiyasi faqat ilm va ma'rifat bilan boyitilgan taqdirdagina to'laqonli bo'lishi mumkin.[4]

Uyg'onish davrida ta'lim va tarbiyaning yangi shakllari paydo bo'ldi. Faylasuflar insonni erkin fikrlash va shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirishga undaydigan usullarni taklif etdilar. Buyuk uyg'onish davri namoyandalari insonni alohida shaxs sifatida qadrlash, ularning imkoniyatlarini rivojlantirish muhimligini ilgari surdilar. Masalan, Mishel de Monten tarbiya orqali insonda mustaqil fikrlash va erkin dunyoqarashni shakllantirishga urg'u berdi.[5]

Zamonaviy davrda inson tarbiyasi masalasi keng miqyosda tadqiq qilinmoqda. Tarbiya shaxsiy rivojlanishni ta'minlash, axloqiy qadriyatlarni shakllantirish, ijtimoiy mas'uliyatni oshirish va fuqarolik ongi bilan boyitish jarayoni sifatida tushuniladi. Pedagogika, psixologiya va sotsiologiya kabi fanlar orqali tarbiyaga oid muammolar ilmiy jihatdan o'rganilmoqda. Zamonaviy dunyoda oilaviy tarbiya, maktab ta'limi va jamiyatning yosh avlodga ta'siri dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda insonning tarbiyasi nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy taraqqiyot uchun ham katta ahamiyatga ega. Shu sababli, tarbiya jarayonida ilmiy, texnologik va axloqiy jihatlarga katta e'tibor beriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tarbiya insoniyat taraqqiyotida uzviy bir qism bo'lib, har bir davr va jamiyatning o'ziga xosligi va madaniyatini aks ettiradi. Inson tarbiyasiga oid masalalar tarixiy taraqqiyotda muhim o'rin tutgan va kelajakda ham ushbu jarayon davom etadi. Bugungi kunda har bir shaxsning barkamolligi va jamiyatga foydali inson bo'lib yetishishi uchun tarbiyaning roli beqiyos ekanligi yana bir bor ta'kidlanmoqda.

Tarix davomida inson tarbiyasi jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida shakllangan. Har bir davrning o'ziga xos madaniy, diniy va ijtimoiy omillari tarbiya tamoyillarini belgilab bergan. Qadimgi davrlarda axloqiy va diniy qadriyatlar asosiy o'rinda bo'lgan bo'lsa, antik va o'rta asrlarda insonning shaxsiy kamoloti va axloqiy taraqqiyotiga katta e'tibor qaratilgan. Uyg'onish davridan keyin esa tarbiya insonning individual rivojlanishi va intellektual o'sishiga qaratilgan yondashuv sifatida rivojlandi.

Zamonaviy davrda esa inson tarbiyasi keng qamrovli masala bo'lib, unda axloqiy, ma'naviy, jismoniy va intellektual jihatlar uyg'unlashgan. Insonning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish bilan birga, uni jamiyatga foydali shaxs sifatida tarbiyalash, mas'uliyat hissini shakllantirish va ijtimoiy birdamlikka hissa qo'shish dolzarb bo'lib qolmoqda.

Tarbiya jarayonida tarixiy tajribalarni hisobga olish, zamonaviy ilmiy usullardan foydalanish va insonning axloqiy sifatlarini tarbiyalash orqali biz barkamol avlodni shakllantira olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

5. Абдуллаева, Д. Х., & Фафурова, М. Г. (2002). Таълим-тарбия тарихи. Тошкент: Ўқитувчи.
6. Al-Farobiy (2012). Fozil odamlar shahri. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
7. Xayrullayev, M. (2000). Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari. Toshkent: Fan.
8. Avloni, A. (1919). Turkiy Guliston yoxud axloq. Toshkent: Sharq.
9. Ziyov, A. (2005). O'zbek xalq pedagogikasi. Toshkent: Fan.

AL-XORAZMIY XALQARO IQTIDORLI BOLALAR MAXSUS MAKTABIDA O'TKAZILGAN OCHIQ DARSLAR VA ULAR O'QUVCHILAR UCHUN QAY DARAJADA SAMARALI VA NATIJAVIYLIGI

Muxlisa O'rinova

*Namangan viloyati Al-Xorazmiy nomidagi
xalqaro iqtidorli bolalar maxsus maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

***Anotatsiya.** Ushbu ilmiy maqola Al-Xorazmiy xalqaro iqtidorli bolalar maxsus maktabida bo'lib o'tayotgan ochiq darslar, o'quvchilar uchun matematikaning o'рни, dars jarayonida faol ishtiroklari, darsda o'qituvchilar tomonidan qo'llanayotgan interfaol metodlar, ularning turlari, o'quvchilarning darsdagi faol ishtiroki, darslar qay darajada samarali o'tayotgani va natijaviy ahamiyatlari haqida fikr va mulohazalar keltirib o'tilgan. O'quvchilarni 20 gacha bo'lgan sonlar ichida amallarni bajarish jarayoniga jalb etish hamda matematik savodxonligini oshirishdagi muhim ma'lumotlar berilgan.*

Kalit soʻzlar: Boshlangʻich 1-B sinf, dars, guruhlash, videorolik, 20gacha sonlar, interfaol metodlar, "Test", "Bankomat", "Qoʻziqorin", "Nilufar guli" "Muzqaymoq", "Aqliy hujum", "Soyabon" metodlari, inglizcha soʻzlar, sonlar, ragʻbatlantirish.

Аннотация В данной научной статье рассказывается об открытых уроках, проводимых в Международной специальной школе для одаренных детей «Аль-Хорезми», роли математики для учащихся, их активном участии в учебном процессе, интерактивных методах, используемых учителями на уроке, их видах. Приводится активное участие учащихся в уроке, эффективность занятий и важность результатов. До 20 учащихся. Среди цифр дается важная информация для вовлечения в процесс выполнения действий, а также для повышения математической грамотности.

Ключевые слова: Начальный 1-Б класс, урок, группировка, видео, цифры до 20, интерактивные методы, «Тест», «Банкомат», «Гриб», «Цветок лилии», «Мороженое», «Мозговой штурм», «Зонтичные методы, английские слова, цифры, мотивация.

Annotation. This scientific article is about the open lessons held at the Al-Khorazmi International Special School for Gifted Children, the role of mathematics for students, their active participation in the lesson process, interactive methods used by teachers in the lesson, their types, The students' active participation in the lesson, how effective the lessons are, and the importance of the results are given. Up to 20 students Among the numbers, important information is given to involve in the process of performing actions, as well as to increase mathematical literacy.

Key words: Primary 1-B class, lesson, grouping, video, numbers up to 20, interactive methods, "Test", "ATM", "Mushroom", "Lily flower", "Ice cream", "Brainstorming", "Umbrella" methods, English words, numbers, motivation.

Yosh oʻgil-qizlar jamiyatimizning kelajagini belgilovchi muhim qatlam hisoblanadi. Shuning uchun biz ustozlar ularga sifatli va samarali dars tashkillashtirishimiz, ularni aqli, zukko, bilimdon va jamiyatda oʻz oʻrniga ega shaxslar etib tarbiyalamogʻimiz darkor. Bejizga, "Yoshlikda olingan bilim toshga

o’yilgan naqsh kabidir” deyilmagan. Shunday ekan, maktab ostonasiga ilk qadam qo’yg’an o’quvchilar qay tarzda bilim olishayotganini ustozlari va ota-onalariga ko’rsatib berishdi. Namangan viloyatidagi Al-Xorazmiy xalqaro iqtidorli bolalar maxsus maktabida 2024-yil 2-dekabr kuni “1-B” sinf o’quvchilari bilan matematika fanidan “11 dan 20 gacha bo’lgan sonlar mavzusida ochiq dars o’tkazildi. Darsdan ko’zlangan maqsad o’quvchilarning matematik savodxonligini oshirish, 11 dan 20 gacha bo’lgan sonlar ko’rinishidagi misollarni bajarishni o’rganish, 20 gacha sonlarni ayirishning qonuniyatlarini o’rganish kabi ko’nikmalarni rivojlantirish hamda dars davomida ularning matematika faniga qiziqishini oshirish edi.

Darsni avvalida o’quvchilar bilan noodatiy usulda ingliz, rus, arab, o’zbek tillarida salomlashish bilan boshlandi. Shundan so’ng, o’quvchilarning kunlik davomatlari aniqlanib, ularning sog’liklari va darsga tayyorgarliklariga ishonch hosil qilingandan so’ng, dars boshlandi. Darsni 5 qismga bo’lgan holda, birinchi qism ya’ni tashkiliy qismdan boshlab, siyosiy daqiqa o’tkazildi. Davlatimizdagi bo’layotgan islohotlar, yangiliklar, davlat ramzlari, o’tkazilayotgan tadbirlar haqida qisqacha so’rab o’tildi. Shundan so’ng, ona haqida qisqacha videorolik taqdim etildi. Bu jarayon o’quvchilarda onaga bo’lgan hurmat va ularni asrab-avaylash hissini kuchaytirishga xizmat qildi. Dars noan’anaviy usulda o’tish, o’quvchilarni darsga bo’lgan qiziqishini yanada kuchaytirish maqsadida ularni matematik allomalarning nomlari Al-Xorazmiy, Al-Beruniy, Al-Farobiy nomli 3 guruhga ajratildi. Al-Xorazmiy maktabida to’rtta til o’qitilishi, deyarli barcha darslarni ingliz tilida olib borilishi bolajonlarning har tomonlama yetuk bo’lishiga xizmat qiladi. Shunday ekan, ularning til bilish ko’nikmalarini aniqlash maqsadida ingliz, rus, arab tillarida ularning qanchalik bilimdon va zukko ekanliklari savol-javob tarzida sinab ko’rildi.

O’tilgan mavzuni takrorlash qismida, o’quvchilarni iqtisodiy savodxonligini oshirish maqsadida “Bankomat” metodidan foydalanildi. Bankomat o’quvchilarga turli matematika faniga oid savollar beradi, to’g’ri javob bergan o’quvchilarga esa turli so’mdagi pullarni taqdim etadi. Dars jarayonida o’tilgan mavzuni mustahkamlash uchun 11dan 20 gacha bo’lgan sonlar yuzasidan test topshiriqlari berildi. Test har bir guruhga bittadan berildi. To’g’ri javob bergan guruh

rag’batlantirildi. Shundan so’ng, “Qo’ziqorin” metodi orqali o’quvchilarning matematik savodxonligi tekshirildi. Bu metod qo’ziqorinlarga o’tilgan mavzu yuzasidan yozilgan savollarga tezkorlik bilan javob berishdan iborat bo’lib, guruhlar bankomatdan ko’proq pul olishlariga undadi. Bu usul o’quvchilarda o’tilgan mavzuni yodga olishga va darsga bo’lgan qiziqishlarini uyg’otishga yordam berdi. Shundan so’ng, o’quvchilar madaniy xordiq olishlari uchun o’qituvchi tomonidan inglizcha “Open, close” qo’shig’i qo’yildi. Hamma birgalikda harakatlari bilan kuyladi. Bu esa o’quvchilarni darsning keyingi jarayonlarida o’zgacha yondashuvda bo’lishini ta’minladi.

Darsning asosiy qismi bo’lgan yangi mavzu bayonida “20 gacha bo’lgan sonlarni ayirish” mavzusini tushuntirish metodidan unumli foydalandi. Avval, ustun shaklida 20 gacha sonlarni ayirish usullari o’quvchilarga tushuntirildi. Keyin esa o’qituvchi “Aqliy hujum” metodidan foydalangan holda “Kim javobi 20 chiqadigan misol tuza oladi?” degan savol o’rtaga tashladi. Al-Xorazmiy jamoasi a’zosi birinchilardan tuzib bankomatdan pul yechib oldi. Dars shu tarzda qiziqarli davom etdi. Har bir guruhga Sobir ismini uch katakka sig’dirib bering?, Nima o’z tilida gapira oladi? kabi mantiqiy savollar berilib o’quvchilarning mantiqiy fikrlashlari yoritilib berildi.

Yangi mavzuni musahkamlash uchun “Nilufar guli” metodidan foydalanildi. Bunda o’qituvchi har bir guruhdan bittadan o’quvchini doskaga chiqarib tarelkaga suv quydi. So’ng qog’ozdan yasab kelgan gullar buklangan holatda o’quvchilarga berdi. O’quvchilar suvga solishi bilan ular harakatga kelib oxiri ochildi. Gul ichidan chiqqan 20 ichidagi amalni kim birinchi javobini topish bo’ldi. Bu metod o’quvchilarda juda katta taassurot qoldirdi. Keyingi metod “Soyabon” metodi bo’lib, o’quvchilarga o’zgacha kayfiyat baxsh etdi. O’qituvchi qo’shiq sadolari ostida soyabonni aylantirdi, o’quvchilar o’ynab soyabon uchlarida osilgan savollarga qo’shiq tugaganidan so’ng olib javob berishdi. Bu orqali o’quvchilar matematika fanidan qanchalik bilimdon ekanliklari isbotlab berildi. Darsda o’qituvchining juda ko’plab interfaol metodlardan foydalangani, dars jarayonini qiziqarli o’tishini ta’minlab berdi. Ayniqsa, nilufar gulini ochilish jarayoni, gul ichidagi savollarga o’quvchilarning tezkorlik bilan javob berishi ustozlar va ota-onalarni hayratga soldi.



Dam olish daqiqasida o’quvchilar “Raqamlar bir kun jam bo’ldi” qo’shig’iga raqs ijro etishdi. Maroqli dam olishdan so’ng, o’qituvchi tomonidan dars ingliz tili, rus tili fanlari bilan uyg’unlashtirildi. Ya’ni o’quvchilarga muzqaymoq ichida karralar berilgan. Shu karralar javobini har bir guruh rus hamda ingliz tilida aytishlari kerak bo’ldi. Bu orqali o’quvchilar ingliz, rus tilidan darslarni qanchalik yaxshi o’zlashtirishayotgani ko’rishimiz mumkin.

Shundan so’ng, darsning yakunlovchi qismi, ya’ni o’quvchilar uchun uyga vazifa berish va ularni rag’batlantirish qismiga yetib kelindi. Darsimizning bu qismlarida uyga vazifa berildi va har bir guruh o’quvchilari bankomatdan yig’ilgan pullar sanaldi, boshqa guruhlariga nisbatan ko’proq pul yig’gan “Al-Beruniy” jamoasi g’olib deb topildi. Bu jamoaga esa “Eng bilimdon” guruh naminatsiyasi berildi.

Darsning qiziqarli, samarali va mazmunli o’tilgani dars davomida tahlil qilib borgan oliy toifali ustozlar, maktab o’quv ishlar bo’yicha direktor o’rinbosari Feruza Bozorova va ota-onalar tomonidan ijobiy va kreativ deb baholandi. Eng asosiysi, darsdan ko’zlangan maqsad “20 gacha bo’lgan sonlarni ayirish” mavzusi to’liq tushuntirib berildi. Dars davomida o’tkazilgan turli metodlar va treninglar o’quvchilarni yangi mavzuni yaxshi o’zlashtirishida va matematik savodxonligini oshirishdagi maqsadga erishildi.

PEDAGOGIK FAOLIYATDA SUN’IY INTELLEKTNING O’RNI VA AHAMIYATI

Madraximov Azamat Adilovich

Namangan davlat pedagogika instituti

mustaqil tadqiqotchisi

Email:azamatmadrakhimov80@mail.ru

Annotatsiya: Zamonaviy ta’lim tizmidagi sun’iy intellekt texnologiyalarining qo’llanilishi va uning imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi. Sun’iy intellektning ta’lim jarayonini avtomatlashtirish, o’quvchilarga individual yondashuvlarni

qo'llash, baholash jarayonlarini optimallashtirish kabi pedagogik faoliyatdagi muhim jihatlarni yoritib beradi. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarining o'qituvchilarga qanday yordam berishi, ta'lim samaradorligini oshirish va pedagogik jarayonlarni takomillashtirish borasidagi afzalliklar haqida fukr yuritiladi. Sun'iy intellektning pedagogik faoliyatdagi o'рни haqida batafsil ma'lumot berilgan.

***Kalit so'zlar:** Sun'iy intellekt, pedagogik faoliyat, ta'lim texnologiyalari, o'quv jarayoni, baholash jarayoni, innovatsion ta'lim, raqamli texnologiya, pedagogik samaradorlik*

***Abstract:** The article discusses the application of artificial intelligence technologies and their capabilities in the modern educational system. It highlights important aspects of pedagogical activity, such as the automation of the educational process, the use of individual approaches to students, and the optimization of assessment processes. It also discusses how artificial intelligence technologies can help teachers, increase educational efficiency, and improve pedagogical processes. Detailed information is provided on the role of artificial intelligence in pedagogical activity.*

***Keywords:** Artificial intelligence, pedagogical activity, educational technologies, educational process, assessment process, innovative education, digital technology, pedagogical efficiency*

***Kirish:** Bugungi kunga kelib sun'iy intellekt tushunchasi juda keng qamrovli tushunchaga aylanib kelmoqda. Masalan, mobil qurilmadagi dasturlar: Coogole, lug'atlar, turli xil o'yinlar ham sun'iy intellektga misol bo'la oladi. Zamonaviy sun'iy intellekt bu o'z atrof-muhitini idrok eta oladigan va o'z maqsadlariga muvaffaqiatli erishish imkoniyatlarini maksimal darajada oshirish uchun harakat qila oladigan ma'lumotlarni o'rganadigan va tahlil qila oladigan tizimdir.*

So'nggi yillarda sun'iy intellektning (AI) meteorik yuksalishi jamiyatni iqtisodiy va madaniy darajada hayratda qoldirdi. E-pochta kabi hamma joyda bo'lishga tayyor bo'lib ko'rinadigan bu tez rivojlanayotgan texnologiya kundalik hayotning ko'p jihatlarni, jumladan, biz qanday o'rgatish va o'rganishimizni

o‘zgartirmoqda. OpenAI 2022-yil kuzida tabiiy tilni qayta ishlash chatboti bo‘lgan ChatGPT-ni chiqardi, birinchi marta AI ko‘pchilikning e‘tiborini tortdi. Biroq, AI vositalari yillar davomida texnologik landshaftning bir qismi bo‘lib kelgan. Agar siz qachonlardir botga qarshi shaxmat o‘ynagan bo‘lsangiz, Alisa kabi virtual yordamchiga murojaat harakatlar va jarayonlarni taqlid qilishga qodir dasturiy ta‘minotni yaratishga qaratilgan bo‘lib, agar biz odamlar tomonidan ko‘rsatilsa, biz “aqlli” deb hisoblaymiz, shu jumladan fikrlash, o‘rganish, masalani qilgan bo‘lsangiz yoki hatto ijtimoiy media tasmangizni aylanib chiqsangiz, siz allaqachon sun‘iy intellekt bilan o‘zaro aloqada bo‘lgansiz.

***Kalit so'zlar:** Ijtimoiy adolat, huquqiy tizim, islohatlar, konstitutsiya, modda va qarorlar modernizatsiya.*

***Key words:** Social justice, legal system, reforms, constitution, articles, and decisions modernization.*

Ключевые слова: Социальная справедливость, правовая система, реформы, конституция, статьи и модернизация решений.

Kirish.

Ijtimoiy adolat - har bir mamlakatda yashayotgan insonlarning huquq va erkinliklarini ta'minlash ularga yaxshi imkoniyatlarni yaratish hamda har bir shaxsning manfaatlarini himoya qilish masalasidir. Bu qilinayotgan ishlar jamiyatimizning har bir sohasi va tarmoqlarida katta rol o'ynaydi. O'zbekistonda huquqiy tizim va islohotlarni ta'minlash borasida ko'plab ishlar olib borilmoqda. Bunga quyidagi misolarni keltiramiz:

- Qonunning ustuvorligini ta'minlash
- Aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimi
- Ta'lim tizimining yaxshilanishi

Jamiyatda har bir insonning huququni muhofaza qilish ustuvorligini oshirish orqali ko'plab himoya orderlari tashkil etildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev konstitutsiya kuni bilan yo'llagan tadbirida ustuvor vazifalar sanab o'tiladi. Bu so'zlar orqali keyingi yillarda barcha islohatlar konstitutsiya va qonunlar ustunligi tamoyili asosida amalga oshirildi. Chekka qishloqdagi bir qancha muammolar ham bartaraf etildi. Bunga ko'plab misollar keltiramiz, masalan, yo'llarning tekis va ravon bo'lishi va tez tibbiy yordam mashinalarining ko'payishidir. Konstitutsiyaning 1-moddasida aytilganidek, "O'zbekiston - suveren demokratik Respublika. Davlatning O'zbekiston Respublikasi va O'zbekiston degan nomlari bir ma'noni anglatadi". Yana bir islohatlardan biri konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritish hamda moddalarga qo'shimcha qo'shilishidir. Oldin sud sudyalari 5 yil, keyingisida 10 yil saylanar edi, hozir esa 10 yil muddatga saylanadi. Hozirgi kunda so'z erkinligi huquqiga ham katta ahamiyat berilmoqda. Barcha ommaviy axborot vositalari erkindir va ular qonunga muvofiq ish olib borishlari kerak. Ommaviy axborot vositalari o'zi taqdim qilgan axborot va materiallarga javobgar shaxs hisoblanadi. Yana bir muhim tashabbuslardan biri shundaki, o'lim jazosining ta'qiqlanishidir. Kamtaminlangan oilalarga kichkina biznes qilishlari uchun kam foizli kreditlar ajratib berilmoqda. Ular bu kreditlar asosida o'zlarning

dala hovlilarida parnik sanoatini ishga tushirmoqda."Yoshlar daftari" hamda "Ayollar daftari"dagi xotin-qizlar uchun tikuvchilik mashinalari sovg'a qilinmoqda.Bunday imkoniyat va islohatlar natijasini har bir faoliyatda ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib shuni ta'kidlashim joizki yuqoridagi barcha fikrlar o'z tastig'ini topmoqda.Har bir davlatda huquqiy tizim va islohatlar bo'lganidek, bizning mamlakatimizda ham islohatlar tizimi rivojlangan.Ko'plab yoshlarimiz anashu tashabbuslar orqali hayotda o'z o'rnini topishmoqda.Bu islohatlarni yaratib bergan yurtboshimizga rahmatlar aytamiz.Bu islohatlarni yanada kuchaytirish hamda ijtimoiy tenglikni ta'minlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasining huquqiy islohatlari:Mustaqillik bugungi kunga qadar.Abdullayev,N-O'zbekiston yuridik akademiyasi, 2022.
3. Huqiqiy informatika.

TALABALAR KASBIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIMNING AHAMIYATI

Nafasov G'anisher Abdurashidovich, Dotsent, GulDU

e-mail: gnafasov87@gmail.com

Abduraimov Dostonbek Egamnazar o'g'li, Katta o'qituvchi, GulDU

e-mail: abduraimov.dostonbek@mail.ru

Qudratov Alijon Normamatovich, Katta o'qituvchi, GulDU

e-mail: a.n.kudratov@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada talabalar kasbiy madaniyatini shakllantirishda ta'limning ahamiyati ko'rib chiqiladi. Kasbiy madaniyat, fuqarolik jamiyatining asoslarini barpo etishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Talabalarda kasbiy madaniyatni shakllantirish, shaxsning doimiy ravishda kamol topishini ta'minlash uchun uzluksiz faoliyatni talab etadi.Kasbiy madaniyatning*

ta'lim jarayonidagi ahamiyati, o'quvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirishga qaratilgan strategiyalar va yondashuvlar batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud muammolarni hal etish istiqbollari, ta'lim tizimining samaradorligini oshirish va talabalarni muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatga tayyorlash yo'llari ko'rsatiladi. Talabalar kasbiy madaniyatini shakllantirishda ta'limning rolini kuchaytirish va ularning kelajakdagi muvaffaqiyatini ta'minlashga qaratilgan muhim tavsiyalarni taqdim etadi.

***Kalit so'zlar:** kasbiy, madaniyat, voqea, hodisa, iqtisodiy, ekologik, mehnat, xiquqiy-axloqiy, qudrati, salohiyati, aqlu-zakovati, jamiyat, taraqqiyot.*

***Аннотация:** В данной статье рассматривается значение образования в формировании профессиональной культуры студентов. Профессиональная культура является важным компонентом в создании основ гражданского общества. Формирование профессиональной культуры у студентов требует непрерывной деятельности, обеспечивающей постоянное развитие личности. В статье подробно анализируются значение профессиональной культуры в образовательном процессе, стратегии и подходы, направленные на развитие профессиональных навыков учащихся. Также рассматриваются перспективы решения существующих проблем, повышения эффективности образовательной системы и подготовки студентов к успешной профессиональной деятельности. Предлагаются важные рекомендации по усилению роли образования в формировании профессиональной культуры студентов и обеспечению их будущего успеха.*

***Ключевые слова:** профессиональный, культура, событие, явление, экономический, экологический, труд, правовой и моральный, мощ, потенциал, умственные способности, общество, развитие.*

***Abstract:** This article examines the importance of education in shaping students' professional culture. Professional culture is a significant component in establishing the foundations of civil society. The development of professional culture among students requires continuous activity to ensure the ongoing growth of the individual. The article provides a detailed analysis of the significance of professional culture in the educational process, strategies, and approaches aimed at developing*

students' professional skills. Additionally, it discusses the prospects for addressing existing problems, enhancing the effectiveness of the educational system, and preparing students for successful professional activities. Important recommendations are presented to strengthen the role of education in shaping students' professional culture and ensuring their future success.

Key words: *professional, culture, event, phenomenon, economic, ecological, labor, legal-ethical, power, potential, intellectual capabilities, society, development.*

Mamlakatimizda talabalar kasbiy madaniyatini shakllantirish borasida olimlarimiz tomonidan ko'plab muhim izlanishlar olib borilmoqda. Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti, o'quv-fanlar bloklari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar doirasida, ta'lim va tarbiyalash jarayonining mustaqil fikrlaydigan, qarorlar qabul qilishga qodir va har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilishi zarurligini alohida ta'kidlaydi.

Ushbu talablar, albatta, oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya jarayonini yuqori darajaga ko'tarish, o'qitishni yangi metodlar asosida amalga oshirish, talabalar mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularning mehnat ko'nikmalarini shakllantirish, kasbga bo'lgan qiziqishini oshirish, kasbiy madaniyatini rivojlantirish va bilim darajasini oshirish kabi vazifalarni sifatli bajarishni ta'minlaydi.

Bu vazifalarni amalga oshirishda oliy o'quv yurtlari talabalarida kasbiy madaniyat haqidagi bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Kasbiy madaniyat, mustaqil fikrlash va mustaqil ish olib borish qobiliyatining asosiy manbai bo'libgina qolmay, har bir shaxsning ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish va kasbiy mehnat xususiyatlarini ochib berish imkoniyatlarini oshiradi. Shunday qilib, talabalar kasbiy madaniyatini shakllantirish, ularning kelajakdagi muvaffaqiyati va jamiyatda faol ishtirok etishi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratadi. Bu jarayon, o'z navbatida, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Darhaqiqat talabalarda kasbiy madaniyatni shakllantirish va mustahkamlash – bu fan, madaniyat, axloq, aqliy boylik, jamiyat turli sohalarining mutaxassislarini etishtirish ziyolilar va ziyolilikni rivojlantirish bilan bevosita

bog'liqdir.

Kasbiy madaniyatni shakllantirish – O'zbekistonning madaniy jihatdan ravnaq topgan zamonaviy davlat, jamiyat sifatida rivojlanishida g'amxo'rlik ko'rsatish demakdir. Bu o'rinda shu jamiyatning a'zosi bo'lgan har bir mutaxassis nazarda tutiladi. Kasbiy madaniyatsiz moddiy farovonlikka ham, umumtaraqqiyotga ham erishib bo'lmaydi.

Talabalarda kasbiy madaniyatni shakllantirish masalasi – o'z haq-huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqea va hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondoshadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlarini bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, xar jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalash demakdir.

Kasbiy madaniyatni shakllantirish fuqorolik jamiyati asoslarini barpo etishning eng muhim tarkibiy qismi bo'lib ushbu jarayon shaxsni muntazam kamol toptirish borasida uzluksiz ish olib borishni taqazo qiladi. Bugungi kunda kasbiy madaniyatni shakllantirishni jamiyat rivojining asosi va shartiga aylanmog'i hamda o'zida yaxlit bir tizimni mujassam etmog'i lozim. Chunki, kasbiy madaniyatni shakllantirishning O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirishga va fuqorolik jamiyati asoslarini yaratishda, inson haq-huquqlarni va erkinliklarini ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi.

Kasbiy madaniyatli bo'lish el-yurtimizning tabiiy boyliklariga egalik qilish, o'zining qudrati, salohiyati, aqlu-zakovatiga tayanib davlatchiligimizni mustahkamlash, buyuk kelajagimizning poydevorini mustahkamlash, kasbiy ongimiz va fikrimizni yuksaltirish, jahon jamiyatida munosib o'rin egallashdir.

Kasbiy madaniyatni shakllantirish mohiyati aqliy, axloqiy, ilmiy, amaliy, mafkuraviy g'oyalar bilan uzviy bog'langan. Bugungi kunda vatanparvarlik, millatparvarlik, milliy iftixor tuyg'ulari, tabiatni muxofaza etish, har qanday sharoitda ona yurt manfaatini, davlatimiz mustaqilligini qo'llab-quvatlash, hurmat bilan qarash kabi xislatlarning barchasi kasbiy madaniyat bilan bog'liqdir.

Kasbiy madaniyatni shakllantirish siyosiy - iqtisodiy, ekologik, mehnat, xuquqiy-axloqiy tarbiya jarayonlarida amalga oshiriladi. Talabalarda kasbiy madaniyatini shakllantirish va mustahkamlash – bu fan, madaniyat, aqliy boylik,

jamiyat va xalq xo'jaligining turli sohalari uchun mutaxassislar tayyorlash demakdir. Chunki odamlar o'z moddiy ehtiyojlarini qondirishda kasbiy yo'nalishga ega bo'lishi kerak.

Kasbiy madaniyatni shakllantirish – har bir talabaning ichki kasbiy, ruxiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtirish Vatan ravnaqi yurt tinchligi xalq farovonligi yo'lida xizmat qilish, O'zbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlarning qadriyatlari, tili, madaniyati, diniy etiqodi, urf-odati va ananalarini xurmat qilish, ularni asrab-avaylash va rivojlantirish, marifatli, bilimli, madaniyatli, manaviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalash demakdir.

Talabalarda kasbiy madaniyatni shakllantirish jarayoni o'qituvchining pedagogik faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. O'qituvchining ta'limni hayot bilan bog'lash va amaliyot bilan uyg'unlashtirish qobiliyati, talabalar qobiliyatlari, intellektual darajalari va imkoniyatlarini rivojlantirishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu holat har bir talabadan o'z mutaxassisligini chuqur bilishi va aqliy salohiyatini yuqori darajada saqlashini talab etadi.

Shuningdek, o'qituvchining ta'limni oqilona va optimal yo'l bilan tashkil etishi, talabalarida kasbga ongli munosabatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarda kasbiy madaniyatni shakllantirishda zamonaviy ta'lim va tarbiyaning qonuniyatlari, mazmuni, usullari va vositalaridan foydalanish zarurdir.

Bundan tashqari, talabalar o'z mutaxassisligi bo'yicha malakali bo'lish, fikrlarning metodologik asoslarini bilish zaruriyati ham ortadi. Ushbu jarayon, talabalar kasbiy madaniyatini shakllantirish, ularning professional ko'nikmalarini rivojlantirish va kelajakdagi muvaffaqiyatli faoliyatlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Natijada, o'qituvchilarning pedagogik yondashuvlari va metodik ishlanmalari, talabalarni kasbiy tayyorgarlikka yanada samarali tayyorlashda muhim rol o'ynaydi, bu esa ta'lim jarayonining nafaqat bilim berish, balki shaxsiy va professional rivojlanishga ham xizmat qilishini ta'minlaydi.

Talabalar kasbiy madaniyatini shakllantirish, ularning kelajakdagi muvaffaqiyati va jamiyatda faol ishtirok etishi uchun zaruriy shart-sharoitlarni

yaratadi. Bu jarayon, o'z navbatida, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Nafasov, G., Kalandarov, A., & Xudoyqulov, R. (2023). DEVELOPING STUDENTS' COGNITIVE COMPETENCE THROUGH TEACHING ELEMENTARY MATHEMATICS. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 1(5 Part 2), 218-224.
2. Umarov, X., Nafasov, G. A., & Mustafoyev, R. (2023). TAQSIMOT FUNKSIYA VA UNING XOSSALARI. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(1).
3. Kengash, J., & Nafasov, G. A. (2023). On the Self-Similar Solution of The Problem of Unsteady Movement of Groundwater Near a Reservoir in the Presence of Nonlinear Evaporation. *Genius Repository*, 22, 37-41.
4. Nafasov, G., Xudoyqulov, R., & Usmonov, N. (2023). DEVELOPING LOGICAL THINKING SKILLS IN MATHEMATICS TEACHERS THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 1(5 Part 2), 229-233.
5. Nafasov, G. A. (2023). Determination of the Low Pressure Zone of the Water Conducting Tract of Reservoirs. *Genius Repository*, 25, 28-32.
6. Nafasov, G. (2019). Model of Developing Cognitive Competence at Learning Process Elementary Mathematics. *Eastern European Scientific Journal*, (1).
7. Abdullayeva, B. S., & Nafasov, G. A. (2019). Current State Of Preparation Of Future Teachers Of Mathematics In Higher Education Institutions. *Bulletin of Gulistan State University*, 2020(2), 12-17.
8. Abdurashidovich, N. G. (2021). Theoretical Basis Of Development Of Cognitive Competence Of Students Of Higher Education Institutions In The Process Of Teaching Elementary Mathematics. *European Journal of Molecular and Clinical Medicine*, 8(1), 789-806.
9. Abdurashidovich, N. G., Muzaffarovich, U. N., Qosim o'g'li, N. Q., & Olimjon, D. (2023). Design in the process of teaching mathematics and its teaching methodology. *Genius Repository*, 25, 23-27.

10. Abdurashidovich, N. G. REQUIREMENTS FOR THE SELECTION OF CONTENT FOR HEURISTIC TASKS IN THE TEACHING OF ELEMENTARY MATHEMATICS TO FUTURE MATHEMATICS TEACHERS.
11. Нафасов, Г. А., & Мирхайдаров, М. Х. (2022). ИЗУЧЕНИЕ ИНТЕГРИРОВАНИЯ БИНОМИАЛЬНЫХ. *RESEARCH AND EDUCATION*, 205.
12. Nafasov, G. A. (2023). Determination of the Low Pressure Zone of the Water Conducting Tract of Reservoirs. *Genius Repository*, 25, 28-32.
13. NAFASOV, G. A., SAYFULLAYEV, B., & NAZIROV, Q. (2024). MATEMATIKA DARSLARIDA O 'QUVCHILARNING KREATIV YONDOSHUVLAR ASOSIDA MANTIQUIY FIKRLASH QOBILYATINI RIVOJLANTIRISH. *News of the NUUz*, 1(1.5. 2), 144-146.
14. NAFASOV, G. A., ANORBAYEV, M., & NAZIROV, Q. (2024). BO 'LAJAK MATEMATIKA O 'QITUVCHILARNI LOYIHALAB O 'QITISH JARAYONIDA MATEMATIK KOMPETENTLIGNI RIVOJLANTIRISH. *News of the NUUz*, 1(1.6. 1), 165-167.

KORRUPSIYANING IJTIMOIIY TA'SIRI VA UNGA QARSHI KURASHISH STRATEGIYALARI

Abdullayev Akmal Nasriddinovich

NamDPI Gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti (PhD).

Maxmudjonova Feruza Muhibillo qizi

NamDPI O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

1-bosqich talabasi. Tel: +998501032334

e-mail: feruzamahmudjonova24012@gmail.com

Anatatsiya: *Ushbu maqolada korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyalari va korrupsiyaning ijtimoiy ta'sirlari yoritib berildi. Bundan tashqari, korrupsiyaga qarshi kurashishda maxsus agentliklar haqida bayon qilindi. Jamiyatimizda korrupsiyani bartaraf etishda qo'llanilgan strategiyalar, chora-tadbirlar haqida batafsil malumotlar berildi. Hozirgi kunda korrupsiya juda keng tarqalgan.*

Korrupsiyaga qarshi tadbirlar amalga oshirildi. Ana shular haqida batafsil ma'lumotlar yoritib berildi.

***Kalit so'zlar:** komplayens-nazorat, xalqaro hamkorliklar, tendensiya, satsiologik tadqiqotlar, ijtimoiy tengsizlik, ta'lim va so'g'liqni saqlash tizimi, kompleks.*

***Abstract:** This article highlights strategies for combating corruption and its social impacts. It also provides information about specialized agencies involved in the fight against corruption. Detailed information is presented about the strategies and measures implamented to eliminate corruption in our society. Today, corruption is widespread. Anti-corruption measures have been implemented and detailed information about them is provided.*

***Key words:** complience control, international cooperation, trend, sociological research, social inequality, education and healthcare system, complex.*

***Аннотация:** В данной статье освещены стратегии борьбы с коррупцией и её социальные последствия. Также приведены сведения о специальных агентствах, занимающихся противодействием коррупции. Подробно описаны стратегии и меры, применяемые для устранения коррупции в нашем обществе. На сегодняшний день коррупция широко распространена. Были реализованы антикоррупционные меры, и об этом представлена подробная информация.*

***Ключевые слова:** комплаенс-контроль международное сотрудничество, тенденция, социологические исследования социальное неравенство система образования здравоохранения, комплекс.*

Kirish. Korrupsiya - bu davlat idoralari tashkilotlar yoki shaxslar o'z manfaatlarini ko'zlab, qonunlarni buzish, vakolatlarni suiste'mol qilish va adolatsizlikka yo'l qo'yish orqali o'zlariga moddiy yoki boshqa manfaatlar olishga harakat qilishdir. Korrupsiya ijtimoiy hayotning har bir jabhasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, jamiyatning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Buni har bir sohalarda ko'rish mumkin va guruhlarga bo'lish mumkin. Jamiyatda adolatsizlikni va ishonchsizlikni kuchaytiradi. Davlat idoralari va rasmiy

xodimlarga bo'lgan ishonch pasayadi. Adolat prinsiplarining buzilishi jamiyatda norozilik va ijtimoiy ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Ijtimoiy tengsizlikni oshiradi. Ayniqsa gender tengsizligi ro'y bersa turli xil nizolar kelib chiqadi. Ya'ni "Sen boysan sen esa kambag'alning bolasisan" deb ajratishlar, korrupsiyaga yo'l qo'yish oqibatida bolaning ruhiyatiga kuchli zarba yetkazamiz. Bunga misol shifoxonalardagi tengsizlik. Korrupsiya resurslarning adolatsiz taqsimlanishiga olib keladi. Kam ta'minlangan va himoyasiz jamiyat ularga berilgan imkoniyatlardan chetda qoladi. Bunday imkoniyatlarni esa boshqalar ya'ni boy oila qatlamlari oladi. Bu esa jamiyatdagi adolatsizliklar va ba'zi mojarolarga sabab bo'ladi. Ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlariga zarar yetkazadi. Sifatli ta'lim va tibbiy yordamlardan foydalanishda noqonuniy to'lovlar talab qilinadi. Malakali mutaxassislar faoliyati susayadi, chunki resurslardan samarali foydalanilmaydi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda maxsus agentliklar tashkil etildi. Quyida shu agentliklarning faoliyati bilan tanishamiz. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq 2020-yilning 29-iyunida tashkil etildi. Agentlik korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda maxsus vakolatga ega davlat organi hisoblanadi. Agentlik O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga va Oliy Majlis palatasiga bo'ysunadi. Agentlikning asosiy maqsad va vazifalari mamlakatda korrupsiya holatini tizimli tahlil qilinishi va korrupsiyaga oid xavf-xatari yuqori bo'lgan sohalarni aniqlashadi hamda maxsus strategiyalar qo'llashadi.

Prezidentimiz tashabbuslari bilan 9-dekabr "Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish" kuni deb tasis etilgan. Shunga ko'ra korrupsiyaga qarshi kurashishda maxsus strategiya, chora-tadbirlar, ishlab chiqildi va tez orada o'z aksini topadi. Shu jumladan, bir nechta strategiyalarni ko'rib chiqamiz. Korrupsiyaga qarshi kurashish muvaffaqiyatli bo'lishi uchun tizimli va kompleks yondashuv talab etiladi. Kompleks bog'lanish degan ma'noni bildiradi. Ya'ni hamjihatlikda ishlab chiqilgan yondashuvlar demakdir. Endi esa strategiyalarga o'tadigan bo'lsak, birinchi navbatda hukumatning ro'lini kuchaytirish kerak bo'ladi. Korrupsiyaga

qarshi qonunchilikni kuchaytirish va qat'iy bajarilishini nazoratga olish, davlat idoralarida shaffoflik va ochiqlikni oshirish zarur. Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda fuqarolar murojaatlarini tezda hal etish, elektron davlat xizmatlarini rivojlantirib inson omillarini kamaytirish lozim. Jamoatchilik nazoratini kuchaytirishda korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyatini jalb etish, jurnalistik tekshiruvlarini nazoratga olish shu jumladan, ta'lim tizimini ham chetda qoldirmasligimiz kerak. Ta'lim borasida ham tizimni kuchaytirib har bir mutaxassis o'qtuvchilarni bilim malakalarini qat'iy nazorat ostiga olish zarur. Davlat xizmatchilarini moddiy va ma'naviy rag'batlar bilan rag'batlantirib halollikni oshirish kerak. Korrupsiyaga aloqador shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish choralari qat'iy nazoratga olinishi lozim. Hukumatimiz shunga doir qonunlar ishlab chiqarsa nazorat kuchayadi va korrupsiya holatlari ham kamdan kam uchraydi. Xalqaro tashkilotlar bilan korrupsiya va noqonuniy moliyaviy faoliyatlarga qarshi kurashda hamkorliklarni amalga oshirish lozim. Ana shunda jamiyatimiz mavqeyi yuksak darajalarga ko'tariladi. Dunyo bo'yicha ham yuksak cho'qqilarga chiqish mumkin.

Korrupsiya Haqida Umumiy Tushuncha

Korrupsiya — bu davlat organlari, xususiy sektor yoki boshqa ijtimoiy guruhlar tomonidan noqonuniy yoki axloqsiz harakatlar qilish, shaxsiy manfaatlarni ko'zlash, davlat resurslarini noto'g'ri ishlatish kabi faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Korrupsiya jamiyatda nohaqlikni kuchaytiradi, iqtisodiy barqarorlikni yo'qotishga olib keladi va davlat boshqaruv tizimining ishonchiga putur yetkazadi. Bu hodisa, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda jiddiy ijtimoiy va siyosiy muammolarga olib keladi, chunki korrupsiyaning mavjudligi ko'plab ijtimoiy tizimlarning ishonchli ishlashiga to'sqinlik qiladi.

Korrupsiyaning Shakllari va Turlari

Korrupsiyaga qarshi kurashishda dastlab uning shakllarini va turli turlarini tushunish muhimdir. Korrupsiya quyidagi asosiy shakllarda amalga oshiriladi:

1. **Rusvet:** Bu korrupsiyaning eng ko'p tarqalgan shaklidir, bu holda, davlat mansabdorlariga yoki boshqa ijtimoiy guruhlarga o'z manfaatlarini amalga oshirish uchun pul yoki boshqa qimmatbaho narsalar beriladi.

2. **Kengaytirilgan Korrupsiya:** Bu korrupsiyaning ko'proq tizimli va tashkilotlararo tarzda sodir bo'lib, davlatning yuqori lavozimli vakillari va shaxslar o'rtasida amalga oshiriladi. Ular o'zaro bitimlar asosida davlat resurslarini noto'g'ri ishlatadilar.

3. **Korporativ Korrupsiya:** Bu turdagi korrupsiya kompaniyalar orasida amalga oshiriladi. Kompaniyalar o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ko'zlab, davlat organlariga yoki siyosatchilarga o'z faoliyatlarini osonlashtirish uchun pora taklif qiladilar.

4. **Tashqi Korrupsiya:** Bu davlat va uning organlarining xalqaro darajada korrupsiya faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ko'pincha tashqi yordamlardan yoki xalqaro kompaniyalardan foydalanuvchi davlat organlarining noqonuniy amaliyotlari bilan yuzaga keladi.

Korrupsiyaning Oqibatlari

Korrupsiyaning ta'siri jamiyatda keng qamrovli oqibatlarga olib keladi, ulardan ba'zilari quyidagilar:

1. **Iqtisodiy Ta'sirlar:** Korrupsiyaga sabab bo'lgan iqtisodiy tormozlanishlar, davlat resurslarini samarali boshqarilmasligi va moliyaviy resurslarning noto'g'ri taqsimlanishi iqtisodiy turg'unlikni keltirib chiqaradi. Bu o'z navbatida, iqtisodiy o'sishni sekinlashtiradi va barqaror ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlarini kamaytiradi.

2. **Siyosiy Ta'sirlar:** Korrupsiyaning siyosiy ta'siri davlat tizimlarining ishonchiga putur yetkazadi. Siyosiy beqarorlik yuzaga keladi, davlat boshqaruvining samaradorligi pasayadi va fuqarolarda hukumatga nisbatan ishonchsizlik kuchayadi.

3. **Ijtimoiy Ta'sirlar:** Korrupsiya ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi. Resurslarning tengsiz taqsimlanishi, imtiyozlar va xizmatlar faqat muayyan guruhlar yoki shaxslar uchun ajratilishi jamiyatda nohaqlikni va adolatsizlikni keltirib chiqaradi. Natijada, fuqarolar o'rtasida ishonchsizlik va norozilik kuchayadi.

Korrupsiyaga Qarshi Kurashish

Korrupsiyaga qarshi kurashish bugungi kunda dunyo miqyosida asosiy siyosiy va iqtisodiy masala sifatida ko'rib chiqilmoqda. Turli mamlakatlar korrupsiyani kamaytirish va unga qarshi kurashishda bir qator chora-tadbirlar amalga oshirmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurashishda samarali mexanizmlarning tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi ham korrupsiyaga qarshi kurashishda o'zining maxsus agentliklarini tashkil etgan. 2020-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, Korrupsiyaga Qarshi Kurashish Agentligi tashkil etildi. Agentlik korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirishda maxsus vakolatga ega. Uning asosiy vazifalari — mamlakatda korrupsiyaning holatini tahlil qilish va korrupsiyaga qarshi strategiyalar ishlab chiqish, shuningdek, o'zgaruvchan siyosiy va ijtimoiy sharoitlarga mos keladigan samarali chora-tadbirlarni amalga oshirishdir.

Korrupsiyaning Oldini Olish Usullari

Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishning bir qator usullari mavjud:

1. **Ochiqlik va Shaffoflik:** Davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi, korrupsiyaga qarshi kurashishning eng muhim shartlaridan biridir. Ochiq va shaffof tizimda, fuqarolar va jamiyat korrupsiyaga qarshi kurashishda faol ishtirok etishlari mumkin.

2. **Samarali Nazorat Mexanizmlari:** Korrupsiyani oldini olish uchun davlat tizimida samarali nazorat mexanizmlari ishlab chiqilishi zarur. Bunga davlat xarajatlarining tekshirilishi, mansabdor shaxslarning harakatlari monitoringi va audit tizimining joriy etilishi kiradi.

3. **Jamiyat Faolligi:** Korrupsiyani kamaytirishda fuqarolarning faolligi katta rolo'ynaydi. Jamiyatda korrupsiyani oshkor qilish va unga qarshi kurashish borasida huquqiy ongsizlikni pasaytirish, xalqni korrupsiyaning zararli oqibatlari haqida xabardor qilish kerak.

Xulosa

Korrupsiya nafaqat iqtisodiy tizimga zarar yetkazadi, balki jamiyatda nohaqlikni kuchaytiradi va davlatning boshqaruv tizimini ishonchsiz qiladi. Korrupsiyaga qarshi kurashishda davlatning roolidan tashqari, jamiyatning faolligi, qonuniy va ijtimoiy mexanizmlarining samarali ishlashi, shuningdek, shaffof va ochiq tizimlarning yaratish zarur. Shu bilan birga, davlatda korrupsiyaning oldini olish uchun maxsus tashkilotlar va agentliklarning tashkil etilishi katta ahamiyatga ega. Korrupsiyani kamaytirish uchun butun jamiyat birgalikda harakat qilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Korrupsiya va unga qarshi kurashishga oid atamalar hamda iboralar izohli lug'ati. – T.: Tafakkur, 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashi agenligi sayti. [Bosh | Anticorruption.uz](http://Bosh.Anticorruption.uz)
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 6-bob 34-modda.
4. Hurriyat gazetasi uzhurriyat.uz

O'QUVCHILARNING HAYOTIY KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDAGI IJODIY YONDASHUVLAR

Nafasov G'anisher Abdurashidovich, Dotsent, GulDU

e-mail: gnafasov87@gmail.com

Abduraimov Dostonbek Egamnazar o'g'li, Katta o'qituvchi, GulDU

e-mail: abduraimov.dostonbek@mail.ru

Baratova Zarina Sherali qizi, 9-23A guruh talabasi, GulDU

e-mail: baratovaz664@gmail.com

***Annotatsiya:** Bugungi kunda umumta'lim maktablarida o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni juda yaxshi natijalarga olib kelmoqda. Ushbu jarayonning ilmiy jihatdan asoslanishi, ta'lim metodlari va strategiyalarining samaradorligini ko'rsatadi. Maktablarda tabiiy va ijtimoiy fanlarni o'qitishda mahalliy manbalardan foydalanish, muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Mahalliy manbalardan dars jarayonida foydalanish,*

o'quvchilarda fanlarga bo'lgan qiziqishni ortishiga, ularning tasavvurlarini kengaytirishga yordam beradi. Shuningdek, bunday yondashuv, o'quvchilarda ijodkorlik ruhiyatini o'stirishga ko'maklashadi, ularning muammolarni echish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ushbu maqolada, umumta'lim maktablarida o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ijodiy yondashuvlar va metodikalar haqida ma'lumotlar yoritib berilgan. Maqolada, ijodiy faoliyatni rag'batlantirish, mustaqil fikrlashni oshirish va hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishda mahalliy resurslarning ahamiyati batafsil ko'rib chiqiladi.

***Kalit so'zlar:** Ta'lim, ijtimoy fanlar, umumta'lim maktablari, fundamental fanlar, axborot, muammo, mukammallik, sistematik-tahlil, dasturlar, element, jahon urushi.*

***Аннотация:** В настоящее время процесс формирования жизненных навыков у учеников в общеобразовательных школах приводит к очень хорошим результатам. Научное обоснование этого процесса демонстрирует эффективность методов и стратегий обучения. Использование местных ресурсов в преподавании естественных и социальных наук приобретает все более важное значение. Применение местных источников в ходе уроков способствует повышению интереса учеников к предметам и расширяет их представления. Кроме того, такой подход способствует развитию творческого мышления у учеников и улучшает их способности к решению проблем. В данной статье представлены данные о творческих подходах и методиках, направленных на развитие жизненных навыков у учеников в общеобразовательных школах. Также подробно рассматривается значение местных ресурсов для стимулирования творческой активности, повышения независимого мышления и формирования жизненных навыков.*

***Ключевые слова:** образование, социальные науки, общеобразовательные школы, фундаментальные науки, информатика, проблема, совершенствование, систематический анализ, программы, элемент, мировая война.*

Bugungi davr ta'lim tizimi oldiga katta vazifalar qo'yadi. Asosiy talablardan biri — yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni yangi sifat darajasiga ko'tarish, shuningdek, tez o'zgarayotgan dunyoga moslashishni

o'rgatishdan iboratdir. Ushbu jarayonda, o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishda ijodiy yondashuvlar katta ahamiyat kasb etadi.

Umumta'lim maktablarida tabiiy va ijtimoiy fanlarni o'qitishda mahalliy manbalardan foydalanish, o'quvchilarda ushbu fanlarga bo'lgan qiziqishni oshirish va dars mavzularining sifatini yaxshilash uchun samarali metodik usullardan foydalanish, ijodkorlik ruhini uyg'otishga va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Mahalliy manbalarning ta'lim jarayonida faol qo'llanishi, o'tgan ajdodlarimizning boy merosini o'rganish va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Ikkinchi jahon urushi yillariga oid manbalar, tarixiy voqealarni to'laroq his etish va ajdodlarimizning jasoratlarini chuqur o'rganish imkonini beradi.

Shu munosabat bilan, o'quvchilarni nafaqat ilmiy bilimlar bilan, balki ma'naviy qadriyatlar bilan ham boyitish zaruriyati tug'iladi. Bu, kelajak avlodni bilimli, ma'naviyatli va vatanparvar fuqaro sifatida tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi. Ushbu maqolada, o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishda ijodiy yondashuvlarni va mahalliy manbalardan foydalanish metodikasini tadqiq etishga qaratilgan. Ta'lim jarayonida ijodiy faoliyatning ahamiyati va samaradorligi batafsil tahlil qilinadi.

Maqolani yoritishda hududiy yondoshuv, qiyosiy va statistik tahlil kabi usullardan foydalanildi. Unda tabiiy va ijtimoiy fanlar bo'yicha mavzularni o'rganishda mahalliy manbalardan foydalanish metodikasi yoritiladi. Darslarni o'rganishga qo'yiladigan zamonaviy talablarning oshishi, dars turlarining rang-barangligi, amaliy manbalarga e'tiborning kuchayishi, zamonaviy pedagogik hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kundalik ehtiyojga aylanishi bugungi ta'limning asl manzarasidir. Qolaversa, ta'lim samaradorligiga bo'lgan e'tiborning zaruratga aylanishi jarayonida o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish, yoshlarni o'tmishimizning boy madaniy va ma'naviy merosi, jahon ilmiy tafakkuri va madaniyatiga qo'shgan hissasi bilan tanishtirish, madaniyatimizning benazir allomalari nomlarini hurmat bilan tilga olish, ular bilan faxrlanish, milliy iftixor ruhini singdirishga yordam beradi. Xususan, tabiiy

va ijtimoiy fan darslarida o'tmishda olingan ma'lumotlarga oid mavzularni o'rganishda maktab darsliklaridan tashqari, mahalliy tarixchilarimiz tomonidan yaratilgan ilmiy asarlar, fotosuratlar, hujjatli filmlar, audio yozuvlar, jangchi xatlari va boshqa manbalardan foydalanish tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

Bugungi ta'lim tizimida mavhum tasavvur bilan yoki yodlatish usuli orqali o'rgatish zamon talabiga mutlaqo javob bermaydi. Yana bir omil, o'quvchilar faoliyatini muayyan tartib asosida tashkil etish, oldingi darslarda o'tilgan mavzularni keyingi darslar mazmuni bilan bog'lash juda muhim hisoblanadi. Bunda har bir o'qituvchi umumta'lim maktablarida o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish darslarida o'quvchilar jamoasi orasida o'zaro do'stona muhitni vujudga keltirishi hamda ijodkorlik ruhini uyg'otishi maqsadga muvofiqdir. Ijodkorlik ruhini uyg'otish deganda tabiiy va ijtimoiy fan darslarida qo'llaniladigan ijodiy topshiriqlarni bajarish tushuniladi. Ijodiy ish yozdirish yo'li bilan bir vaqtning o'zida o'quvchilarda yozma nutqni rivojlantirish, tarixiy sanalar, voqealar, shaxslar va tarixiy joylarni tasavvur qilib, uni yozma ifoda etish orqali shakllantiriladi.

O'quvchilarning ijodiy izlanishi, mustaqilligi, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, qo'shimcha bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishda shubhasiz ijodiy o'yinlar yaxshi samara beradi. O'quvchilarning xayotiy ko'nikmalarini vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarni o'quvchilar guruhining o'zaro hamkorlikda avval o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy izlanish va qo'llash orqali hal etishga qaratilgan didaktik o'yinlar tabiiy holda o'quvchining ijodiy ruhini uyg'otadi hamda rivojlantiradi. Chunki bunday didaktik o'yinli darslarda o'quvchilar hamkorlikda ishlab, o'z bilimlarini yangi vaziyatlarda qo'llab, yangi bilimlargaega bo'ladilar. Natijada o'quvchilarda o'z bilim va qobiliyatlariga ishonch hosil bo'ladi, har bir o'quvchi sidqidildan har qanday puxta tayyorgarlik muvaffaqiyat garovi ekanligini anglab, chinakam bilim olishga jiddiy kirishadi.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish hamda o'quvchilarning faolligini oshirish masalasi yoshlarning o'tmishga oid bo'lgan mahalliy manbalarga qiziqishi, jumladan, o'z hayotiy

ko'nikmalarni rivojlantirish metodikasi shakllantirishga yo'naltiriladi. Ammo bu faqat shu tor doiradagi vazifalar degani emas. Aynan tabiiy va ijtimoiy fan darslarida yoshlar faolligini oshirish masalasini nazarda tutib, o'qituvchi shogirdlarining har qanday hayotiy voqeaga shaxsiy fikri, xulosasi hamda munosabatini ifodalashini shakllantirib rivojlantira boradi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ijodkorlik muhitini yaratishda barcha darslarda bo'lgani kabi tarix darslarida ham muammoli vaziyatlar alohida ahamiyatga ega. Muammoli o'qitish o'qituvchidan mahorat talab qiladi va tabiiyki, o'quvchini ham shunga undaydi. Muammoli vaziyatni vujudga keltirish, muammoni hal qilish uchun o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash, mustaqil fikr yuritishga jalb qilish o'qituvchining o'zidan ham ijodkorlikni talab etadi. Bunday jarayonda o'quvchilar izlanishlar, o'rganishlar natijasida manbalardan unumli foydalanish orqali mustaqil fikrlash va mustaqil tafakkur yuritishni o'zlashtira oladilar. Tabiiy va ijtimoiy fani o'qituvchisi hamisha bir qoidani yodda tutishi lozim. Bu qoidaning talqiniga ko'ra, tabiiy va ijtimoiy fanlari, eng avvalo, har bir fuqaroni, ayniqsa, yoshlarimizni xalq o'tmishining mazmuni va mohiyatini anglash, boy ma'naviy va madaniy merosimizni qadrlash, uni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, pirovard ular bilan yurak-yurakdan iftixor qilishga o'rgatadi. O'zimizning boy o'tmish merosimizdan ruhiy madad va ibrat namunasini olishga keng va bepoyon imkoniyat yaratadi. Odamlar qalbida ezgulik va yaxshilik tuyg'ularini shakllantirib, bugungi avlod kimlarning avlodi ekanini oydinlashtirib, kimlarning zoti va vorislari ekanini anglashga yo'naltiradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kunda o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishda ijodiy yondashuvlar va metodikalar samaradorligi ilmiy jihatdan asoslangan. O'qituvchi tanlagan didaktik materialning mazmuni va xarakteri, o'quv jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Agar o'qituvchi, mavjud didaktik materiallarga mos usul va vositalarni samarali qo'llasa, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash va ularning o'z-o'zini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirish osonlashadi. Shuningdek, o'tmishga oid mahalliy manbalardan foydalanish, o'quvchilarning bilish imkoniyatlarini inobatga olishni talab qiladi. Bu, tarixiy bilimlarni shakllantirish jarayonini engillashtiradi va

o'quvchilarning tarixiy kontekstni yaxshiroq tushunishini ta'minlaydi. Mahalliy manbalarni integratsiyalash, ta'lim jarayonini yanada samarali va mazmunli qilishga yordam beradi, bu esa o'quvchilarda ijodiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'maklashadi. Ushbu yondashuvlar, ta'lim jarayonini faollashtirish va o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Natijada, ijodiy yondashuvlar orqali o'quvchilarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga erishish imkoni paydo bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Nafasov, G., Kalandarov, A., & Xudoyqulov, R. (2023). DEVELOPING STUDENTS' COGNITIVE COMPETENCE THROUGH TEACHING ELEMENTARY MATHEMATICS. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 1(5 Part 2), 218-224.
2. Umarov, X., Nafasov, G. A., & Mustafoyev, R. (2023). TAQSIMOT FUNKSIYA VA UNING XOSSALARI. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(1).
3. Kengash, J., & Nafasov, G. A. (2023). On the Self-Similar Solution of The Problem of Unsteady Movement of Groundwater Near a Reservoir in the Presence of Nonlinear Evaporation. *Genius Repository*, 22, 37-41.
4. Nafasov, G., Xudoyqulov, R., & Usmonov, N. (2023). DEVELOPING LOGICAL THINKING SKILLS IN MATHEMATICS TEACHERS THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 1(5 Part 2), 229-233.
5. Nafasov, G. A. (2023). Determination of the Low Pressure Zone of the Water Conducting Tract of Reservoirs. *Genius Repository*, 25, 28-32.
6. Nafasov, G. (2019). Model of Developing Cognitive Competence at Learning Process Elementary Mathematics. *Eastern European Scientific Journal*, (1).
7. Abdullayeva, B. S., & Nafasov, G. A. (2019). Current State Of Preparation Of Future Teachers Of Mathematics In Higher Education Institutions. *Bulletin of Gulistan State University*, 2020(2), 12-17.
8. Abdurashidovich, N. G. (2021). Theoretical Basis Of Development Of Cognitive Competence Of Students Of Higher Education Institutions In The Process Of

Teaching Elementary Mathematics. *European Journal of Molecular and Clinical Medicine*, 8(1), 789-806.

9. Abdurashidovich, N. G., Muzaffarovich, U. N., Qosim o'g'li, N. Q., & Olimjon, D. (2023). Design in the process of teaching mathematics and its teaching methodology. *Genius Repository*, 25, 23-27.

10. Abdurashidovich, N. G. REQUIREMENTS FOR THE SELECTION OF CONTENT FOR HEURISTIC TASKS IN THE TEACHING OF ELEMENTARY MATHEMATICS TO FUTURE MATHEMATICS TEACHERS.

11. Нафасов, Г. А., & Мирхайдаров, М. Х. (2022). ИЗУЧЕНИЕ ИНТЕГРИРОВАНИЯ БИНОМИАЛЬНЫХ. *RESEARCH AND EDUCATION*, 205.

12. Nafasov, G. A. (2023). Determination of the Low Pressure Zone of the Water Conducting Tract of Reservoirs. *Genius Repository*, 25, 28-32.

13. NAFASOV, G. A., SAYFULLAYEV, B., & NAZIROV, Q. (2024). МАТЕМАТИКА ДАРСЛАРИДА О 'QUVCHILARNING KREATIV YONDOSHUVLAR ASOSIDA MANTIQUIY FIKRLASH QOBILYATINI RIVOJLANTIRISH. *News of the NUUz*, 1(1.5. 2), 144-146.

14. NAFASOV, G. A., ANORBAYEV, M., & NAZIROV, Q. (2024). BO 'LAJAK МАТЕМАТИКА О 'QITUVCHILARNI LOYIHALAB О 'QITISH JARAYONIDA МАТЕМАТИК КОМПЕТЕНТЛИГНИ RIVOJLANTIRISH. *News of the NUUz*, 1(1.6. 1), 165-167.

15. Ўзбекистон Республикаси "Талим тўғриси"даги Қонуни. Тошкент.: 2020 йил.

16. Йўлдошев Ж., Усмонов С.А. Замонавий педагогик технологияларни амалиётга жорий қилиш. –Тошкент, 2008. (Yuldashev J., Usmonov S.A. Introduction of modern pedagogical technologies. –Tashkent, 2008.)

17. Abduraimov, D., & Monasipova, R. (2024). AUTOMATING ECONOMIC ISSUES: THE EXAMPLE OF AUTOMATING WAREHOUSE PRODUCT STORAGE ACCOUNTING AND ITS SOFTWARE. *DIGITAL TRANSFORMATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE*, 2(5), 12-17.

18. АБДУРАИМОВ, Д., ҚИЛИЧЕВ, С., & АХМЕДОВА, Х. (2023). ИНФОРМАТИКА ДАРСЛАРИДА ТАЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ

ОШИРИШДА ИННОВАТСИОН ЁНДАШУВЛАР. Journal of Research and Innovation, 1(3), 13-17.

19. Abduraimov, D., & Safoeva, D. (2022). SPECIFIC ROLE AND FEATURES OF INFORMATION COMMUNICATION TECHNOLOGIES IMPLEMENTATION. Science and Innovation, 1(3), 346-349.

KURASH SPORTI ORQALI 15-16-YOSHLI MAKTAB O'QUVCHILARINI KUCH SIFATINI RIVOJLANTIRISH

Xasanov Akramjon Abdusalilovich

Namangan davlat pedagogika instituti, dotsenti

Yakubbayev Maqsud Marufovich

Namangan davlat pedagogika instituti, o'qituvchi

Annotatsiya: *mazkur maqolada 15-16 yoshdagi o'quvchilarning jismoniy rivojlanishini takomillashtirishda Kurash sport to'garaklarining o'рни tahlil qilinadi. Kurash mashqlari yordamida o'quvchilarning kuch sifatlarini oshirish, elastiklik, muvozanat va koordinatsiyani yaxshilash mumkinligi ko'rsatilgan. Shuningdek, Kurash mashqlarining statik va dinamik kuchni rivojlantirishdagi roli hamda ularning umumiy jismoniy rivojlanishga ta'siri o'rganilgan. Maqolada sport to'garaklarining afzalliklari, o'quvchilarga individual va guruh shaklida ta'lim berish imkoniyatlari va motivatsiya yaratishning ahamiyati hamda kelajakdagi tadqiqotlar uchun tavsiyalar keltirilgan. Ushbu tadqiqot, Kurash yordamida o'quvchilarning jismoniy salomatligini yaxshilash, ularni samarali tayyorlash va sport muvaffaqiyatlariga erishishda muhim qo'llanma hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *kurash, jismoniy rivojlanish, kuch sifatleri, elastiklik, koordinatsiya, sport to'garaklari, motivatsiya, yosh o'quvchilar, jismoniy salomatlik, tayyorgarlik, kuchni oshirish, gymnastic exercises, physical development, strength, flexibility, coordination, sports clubs, motivation, school students.*

Аннотация: *в данной статье анализируется роль спортивных кружков гимнастики в улучшении физического развития учащихся 15-16 лет.*

Рассматриваются упражнения гимнастики, способствующие развитию силы, гибкости, баланса и координации. Особое внимание уделено влиянию гимнастических упражнений на развитие статической и динамической силы, а также на общее физическое развитие. В статье также освещены преимущества спортивных кружков, возможности индивидуального и группового обучения, важность создания мотивации у учащихся и рекомендации для дальнейших исследований. Этот исследовательский труд является важным пособием для улучшения физического здоровья школьников, повышения их физической подготовки и достижения спортивных успехов.

Ключевые слова: гимнастика, физическое развитие, сила, гибкость, координация, спортивные кружки, мотивация, школьники, физическое здоровье, подготовка, развитие силы, гимнастические упражнения, физическая подготовка, сила, гибкость, координация, спортивные клубы.

Annotation: *this article analyzes the role of gymnastics sports clubs in improving the physical development of 15-16year-old students. It discusses gymnastics exercises that help develop strength, flexibility, balance, and coordination. Special attention is given to the impact of gymnastics exercises on developing static and dynamic strength, as well as their effect on overall physical development. The article also highlights the advantages of sports clubs, the opportunities for individual and group training, the importance of creating motivation for students, and recommendations for future research. This study serves as an important guide for improving the physical health of schoolchildren, enhancing their physical preparation, and achieving sports success.*

Keywords: *gymnastics, physical development, strength, flexibility, coordination, sports clubs, motivation, schoolchildren, physical health, preparation, strength development, gymnastic exercises, physical training, strength, flexibility, coordination, sports clubs.*

Kirish

15-16 yoshli o'quvchilar o'sish va rivojlanishning muhim davrida bo'lib, jismoniy salomatlikni ta'minlash va kuch sifatlarini oshirish ayniqsa katta ahamiyatga ega. Ushbu yoshda o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi shakllanib,

kuchli muskullar va koordinatsiya talab qiluvchi mashqlarni bajarish imkoniyatlari ortadi. Shu sababli, jismoniy tarbiya va sport faoliyati yoshlarning umumiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Kurash bu jarayonda katta rol o'ynaydi. U faqat tana tarangligini oshirish bilan cheklanmay, balki kuch, elastiklik va muvozanatni yaxshilashda ham samarali vosita hisoblanadi. Kurash mashqlari mushaklarning rivojlanishiga, jismoniy chidamlilikning oshishiga va tana tuzilishining yaxshilanishiga yordam beradi. Ayniqsa, 15-16 yoshdagi bolalar uchun Kurash mushaklarni mustahkamlash, suyak tizimini rivojlantirish va umumiy sport ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Maqsadimiz, Kurash sport to'garaklari yordamida 15-16 yoshli o'quvchilarning kuch sifatlarini qanday oshirish mumkinligini o'rganishdan iborat. Ushbu jarayonni tahlil qilib, Kurash mashqlarining o'quvchilarni jismoniy va psixologik jihatdan rivojlantirishdagi o'rnini aniqlash, shuningdek, ularni samarali mashg'ulotlar bilan ta'minlashning usullarini ko'rsatishdir [4,5].

Jismoniy rivojlanish va kuch sifatini oshirish zaruriyati. 15-16 yoshdagi o'quvchilar o'sish va rivojlanishning tez o'tadigan davrida bo'lib, bu yoshda jismoniy tarbiya ayniqsa muhimdir. Ularning mushak tizimi va skelet strukturasi rivojlanishi davom etmoqda, shu bois bu davrda to'g'ri jismoniy faoliyat muhim ahamiyatga ega. Jismoniy qobiliyatlarni shakllantirish, kuch va chidamlilikni oshirish orqali, bolalar nafaqat sog'lom bo'lib, balki kelajakdagi murakkab sport harakatlarini bajarishga ham tayyor bo'lishadi [1].

